josuslik ishlari bilan Buxoroga safar qilgan ingliz agenti Aleksandr Byorns ham juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi. U o'z sayohati davomida Hindistonning Panjob tumaniga kelganda yirik sikx savdogarlari bilan suhbatlashadi. Savdogarlarning deyarli barchasi Kobul, Balx, Buxoro ba'zilari hatto Astraxan shaharlarida bo'lib, bu shaharlarni Hindiston shaharlaridek juda yaxshi bilganlar. Hind savdogarlari Byornsni oraliq mamlakatlar butunlay xavfsiz, Do'st Muhammad Kobuliy va o'zbek savdogarlari ham o'zaro savdo-sotiq aloqalarini qo'llab-quvvatlaydilar, [2]– deb ishontirganlar.

Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari keng qamrovli bo'lib, amirlik savdogarlari Hindistonning yirik savdo markazlari bo'lmish Peshovar, Shikarpur va Multon bilan Afg'oniston davlatining Kobul, Hirot va Qandahor shaharlaridan o'tuvchi savdo karvoni yo'llari orqali ham bog'langan edi. Bu karvon yo'llarida yurish ancha xatarli bo'lgani sababli savdogarlar o'z savdo karvonlarini qo'riqlashda hindlarning lohan qabilasi qurolli qo'riqchilari xizmatidan foydalanganlar. Hindistonning lohan qabilasi qo'riqchilari hindistonlik va buxorolik savdogarlarning mollarini manzillariga yetkazib berishdan tashqari o'zlari ham savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar. Bu qabila savdogarlari Buxoro bozorlariga Hindistonning janubida to'qilgan "muslin" nomli yupqa mato, nil bo'yog'i, doka, choy, kimxob, dorivor giyohlar, qora murch va boshqa turdagi mollarni katta miqdorda keltirib sotganlar. Buxoro amirligidan Hindistonga olib ketilgan savdo mollari ichida ip-gazlama, jun, ot, echki tiviti, gilam, bodom, uzum, novvot, zarli ip, quritilgan mevalar, Buxoro oltin va kumush pullari hamda ipak xomashyosiga talab juda katta bo'lgan[3].

Buxoro amirligida mahsulot-pul munosabatlarining o'sishi nafaqat hind savdogarlari, balki hind sudxo'rlarining ham faoliyatini kuchaytirgan. Sudxo'rlik bilan amirlikda musulmon bo'lmagan hindlar shug'ullanishgan. Ular Buxorodagi bir necha ming hind savdo korvonlarini pul bilan ta'minlash bilan birga, ular vositasida Hindistondan katta miqdorda pul summalarini ham olgan. Vengriyalik sharqshunos va sayyoh Armeniy Vamberining yozishicha, hind sudxo'rlari mamlakatdagi butun pul savdosini o'z qo'llariga olganlar. Ularni amirlikning har bir shahar va qishloqlarida uchratish mumkin bo'lgan[4].

Buxoro amirligi savdogarlari Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan ham savdo-sotiq aloqalari olib borganlar. Xitoy bilan savdo aloqalari Qo'qon xonligi orqali amalga oshirilgan bo'lib, Xitoyga paxta, qorako'l teri, turli xil hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berilgan. O'z navbatida, Qoshg'ar va Qo'qon orqali Xitoydan tuqtachoy (g'isht choy), oqquyruq (ko'k choy), ko'plab ipak matolari, chinni buyumlar va kumush yombilar keltirilgan. Xitoyning Tubey, Yunan, Anxou va Szyanxeo viloyatlarida yetishtirilgan choy mahsulotlari inglizlar tomonidan peshovarlik hind musulmon savdogarlarga (5 % foydaga) 3 yil muddatga qarzga berilgan. Xitoydan Hindiston orqali Buxoroga keltirilgan ko'k choy "lo'nka choy" deyilsa-da, aslida bu nom xitoy tilidagi "lyucha" (ko'k choy) so'zining noto'g'ri talaffuzidan kelib chiqqan. Lo'nka choy Buxoroga Xitoyning boshqa choylariga nisbatan 5 barobar ko'proq keltirilar edi. XIX asr boshlarida qayd etilishicha, Buxorodan Yorkendga marjonlar, feruza, qorako'l terilari va tulki mo'ynasini olib borganlar[5].

Meyendorf Buxoro bozorlari rastasida hind parchasi va ip gazlama matolari borligini ta'kidlaydi. Buxoroga Hindistondan guruch, qimmatbaho toshlar va yupqa shamshir keltirilgan. U Buxoroning afg'on savdogarlari orqali Kashmir bilan olib borgan savdosi to'g'risida yozadi. Ular Kashmirdan shol va zar iplardan to'qilgan movut olib kelganlari haqida yozadi. Meyendorf hindlar o'z mahsulotlari bilan Qobul, Shikarpur, Mo'lton va umuman Hindistondan keladilar, deb aytib o'tadi. Ular kashmir sholi, zar ip qo'shib to'qilgan ipak matolar, yupqa ip matolar, salla uchun ishlatiladigan oq mato va astarlik uchun ishlatiladigan gulli mato, mayda dur va qimmatbaho toshlar, nil bo'yog'i keltirganligini xabar qiladi [6].

Shunday qilib, Meyendorf keltirgan dalillar XIX asrning 20-yillarida ham Buxoro xonligining Afg'oniston, Hindiston, Kashmir va Eron bilan jadal savdo aloqalarida bo'lib turganlini tasdiqlaydi. Jumladan, keyingi to'rt-besh yilda Buxoroda hindlar soni juda tez ko'payib ketib 300 taga yetgan,

ularning bir qismi muqim o‘rnashib olgan bo‘lsa, qolgan qismi esa Kobulga borib kelib turadi [7].

Negri missiyasining yana boshqa bir ishtirokchisi Budrin bo‘lib, uning asari 1871-yil Sankt-Peterburgda nashr qilingan. Unda XIX asrning birinchi choragida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti aks ettirilgan. Budrin asarida Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yoritilgan. Uning ma’lumotiga ko‘ra, Buxoroda 13 ta karvonsaroy bo‘lib, unda hindlar, xivaliklar, nug‘oylar, eronliklar, armanlar, qirg‘izlar va boshqalar yashagan.

Budrin Hindiston, Eron va Rossiyaning Buxoro savdosidagi rolini alohida ta’kidlaydi. Lekin Buxoroga keltirilayotgan va u yerdan olib ketilayotgan mahsulotlarning tarkibiga to‘xtalmagan. U o‘z e’tiborini asosan tog‘-kon ishlariga qaratgan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoroliklar Hindiston, Eron va Xitoydan oltin, kumush, mis, qalay va temir olgan [8]. Hindistondan chit keltirilgan bo‘lib, u salla uchun ishlatilgan [9].

Buxorodagi Abdurashid, Badriddin, Barran ko‘hna, Domlasher, Ismoilxo‘ja va Mirzagul karvonsaroylari Peshovardan keltirilgan choylar uchun omborxona vazifasini o‘tagan. Bu karvonsaroylarda choyning 16 xil navi sotilgan. N.Petrovskiy 1872-yilda Buxoro bozorlariga ingliz-hind savdogari tomonidan olib kirilgan choy savdosiga baho berib: “endi biz Buxoro bozorlaridan ko‘k choyni siqib chiqarish to‘g‘risidagi barcha orzu-umidlarimizni bir chekkaga surib qo‘yib, bu choylar bizning hududimizga kirib kelishining oldini olishimiz kerak”, deb yozadi[10].

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o‘ziga bo‘ysundirgandan so‘ng, ya’ni, 1880 yillarga kelib, Hindistonning Buxoro bilan olib borgan savdo aloqalarida biroz pasayish kuzatiladi. 1868-yildan boshlab rus hukumati Rossiya savdogarlariga Kyaxtadan Irkutsk orqali xitoy choyini bojsiz olib kelish uchun ruxsat berilgan edi. Lekin rus hukumatining bu borada olib borgan chora tadbiri kutilgan natijani bermadi. Hindistondan Buxoroga kirib keladigan choy va boshqa savdoni siqib chiqara olmadi[11].

Hindiston savdogarlari Buxoro va Markaziy Osiyoda ko‘k choy sotishga ixtisoslashgan. Bu choy asosan Shanxaydan peshovarlik savdogarlar tomonidan sotib olinib, rus paroxodlarida Batumiga, u yerdan esa Buxoro va Samarqandga jo‘natilgan. 1894-1900 yillarda Xitoydan Markaziy Osiyoga yiliga 70-80 ming pud, Hindistondan esa atigi 20-30 ming pud yashil choy eksport qilingan[19]. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, barcha xitoy choylari hind choyi brendi ostida sotilgan. Chunki hind choyiga Buxoro bozorlarida xaridori ko‘p bo‘lgan.Xitoy choyining eng mashhur navlari Yevropada “hisson” nomi bilan mashhur bo‘lgan “lyunka”, shuningdek, hind choyining “pari”, “patta” va “nauzugur” navlari, rus tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, “tog” degan ma’noni anglatgan[12].

Xulosa.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Hindiston o‘rtasidagi savdo aloqalari har qanday siyosiy to‘siqlarga qaramay, ma’lum darajada saqlanib qolgan. Ushbu savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va diniy jihatdan ham ikki xalqni yaqinlashtirgan. Bu davrning murakkab siyosiy sharoitida ham tarixiy rishtalar va iqtisodiy manfaatlar bu aloqalarni saqlab qolishda muhim rol o‘ynagan. Buxoro–Hindiston savdo aloqalari Markaziy Osiyoning xalqaro savdo tizimidagi o‘rnini va tarixiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xoliqova R.E. Buxoro amirligidagi soliq tizimi // O‘zMU xabarlari. 2017. 1/1 son. 93–96-b.

2. Xoliqova R.E. XIX asrda Buxoro amirligidagi hunarmandchilik va savdo aloqalari // O‘zMU xabarlari. 2018. 1/2-son. 72–75-b.

3. Xo‘jayeva Sh.H. Buxoro amirligining Hindiston davlati bilan tashqi savdo aloqalari tarixidan (xorijiy sayyohlar ma’lumotlari asosida) // O‘zMU xabarlari. 2014. 3-son. 25–28-b.

4. Ochildiyev F.B. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Buxoro – Rossiya o‘rtasida olib borilgan savdo aloqalari // O‘zMU xabarlari. 2018. 1/2-son. 52–55-b.

5. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С.42.

6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. – С. 98.

7. Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записка очевидца)//Туркестанский сборник. Т. 239. – СПб., 1880.– С. 30-29.

8. Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записка очевидца)//Туркестанский сборник. Т. 239. – СПб., 1880.– С. 35.

9. Очилдиев Ф.Б. XIX асрнинг иккинчи ярми XX бошларида Бухоронинг Ҳиндистон билан олиб борган савдо алоқалари. ЎзМУ хабарлари.2019.-б. 40-44.

10. Губаревич-Родобыльский А. Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. СПб., 1905.-С. 104.

11. Губаревич-Родобыльский А. Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. СПб., 1905.-С. 104; Коломийцов, 1916.-С.28.

12. Ibrohimov, N. I. (2025). Trade Routes Connecting the Bukhara Emirate and India In the Second Half of the 19th-Early 20th Centuries. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 5(05), 133-136.

13. Ibrokhimov, N. I. . (2023). Trade relations between the emirate of bukhara and india in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century. Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(06), 9–15. https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-03-06-02

14. Ibrokhimov, N. . (2024). Trade relations of bukhara emirate with india in the xix century. Oriental Journal of Social Sciences, 4(06), 164–171. https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-04-06-18

15. Ibrohimov Nozimjon Ikhtiyorovich. The emirate of bukhara and india between tea trade in the second half of the 19th and early 20 th centuries. (2025). American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 35, 118-121.

XALQ MADANIYATI AN’ANALARIGA AKSEOLOGIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Jiemuratova Gulnoza Pirniyazovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti, «O’zbekiston va Qoraqalpog’iston tarixi» kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirishning mexanizmlari, milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirishda ishtirok etuvchi asosiy mexanizmlar, jumladan o‘quv tizimi, oilaviy ta’sirlar va media orqali uzatilgan kontent tahlil qilinadi. Maqolada ko‘plab tadqiqotlar, ayniqsa xalq madaniyatining qadriyatlar bilan bog‘liq o‘zgarishlari to‘g‘risidagi bilimlar bo‘shlig‘i mavjudligi ta’kidlanadi. Ushbu ilmiy ishda sifatli tadqiqot metodlari qo‘llanilib, pedagoglar, madaniyatshunoslar va mahalliy jamoat liderlari bilan intervyular o‘tkazilgan va xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatning shakllanishidagi turli mexanizmlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirishda o‘quv dasturlari, oilaviy ta’sir va media katta ahamiyatga ega. Bu jarayonning samaradorligi yangi avlodlar orasida xalq madaniyatiga nisbatan turlicha munosabatni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati, xalq madaniyati an’analarini ta’lim tizimida yanada samarali o‘rganish va saqlash uchun yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar Xalq madaniyati, akseologik munosabat, qadriyatlar, ta’lim tizimi, oilaviy ta’sir, media, madaniyatshunoslik.

Annotatsiya. В данной статье изучаются механизмы формирования аксиологического отношения к народным культурным традициям. Исследование анализирует роль образовательной системы, семейного влияния и контента, передаваемого через медиа, в формировании аксиологического отношения к народным традициям. С помощью качественных методов исследования были проведены интервью с педагогами, культуроведами и общественными лидерами. Результаты показывают, что образовательные программы, семейное влияние и медиа являются важными факторами формирования аксиологического отношения к народной культуре, что влияет на отношение новых поколений к культуре.

Ключевые слова: Народная культура, аксиологическое отношение, ценности, образовательная система, семейное влияние, медиа, культуроведение.

Abstract. This article explores the mechanisms of shaping the axiological attitude towards folk cultural traditions. The study analyzes the role of the education system, family influences, and media-transmitted content in shaping the axiological attitude towards folk traditions. Through qualitative research methods, interviews were conducted with educators, cultural scholars, and community leaders. The results show that educational programs, family influences, and media play significant roles in shaping the axiological attitude towards folk culture, which in turn affects the attitude of new generations towards culture.

Keywords: Folk culture, axiological attitude, values, education system, family influence, media, cultural studies.

Kirish. Folk madaniyati, har bir xalqning tarixiy, madaniy va etnik ildizlarini aks ettiradigan eng muhim ijtimoiy va madaniy qatlamlardan biridir. Bu madaniyat xalqning urf-odatlari, an’analari, adabiyoti, san’ati, musiqasi va boshqa turli elementlar orqali avloddan avlodga o‘tib keladi. Folk madaniyati shuningdek, xalqning hayotiy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy tuzilmasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada xalq madaniyati an’analariga akseologik

munosabatni shakllantirishning mexanizmlarini o‘rganish maqsad qilinadi.

Xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirish mexanizmi, qadriyatlarni, e’tiqodlarni va urf-odatlarni jamiyatga uzatish jarayonini tushunishni ta’minlaydi. Aksologiya, qadriyatlar nazariyasini o‘rganadigan fan bo‘lib, odamlarning etika, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy qadriyatlar haqidagi tushunchalarini o‘rganadi. Ushbu ilmiy tadqiqotda folk madaniyatining akseologik o‘zgarishlari, uning jamiyatga qanday ta’sir qilishi va yangi avlodlarga qanday uzatilishi o‘rganiladi.

Oldingi tadqiqotlar, xalq madaniyati va aksologiyaning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatgan. Biroq, bu sohada ko‘plab ochiq savollar qolmoqda. Ayniqsa, xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirishning aniq mexanizmlarini o‘rganishga doir tadqiqotlar yetarli emas. Ko‘plab tadqiqotlar xalq madaniyatining tarixiy va antropologik jihatlarini o‘rganish bilan cheklangan bo‘lib, uning ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli juda kam yoritilgan.

Ushbu maqolada biz folk madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirishning turli mexanizmlarini, shu jumladan o‘quv tizimi, oilaviy ta’sirlar va jamiyatdagi o‘zgarishlarni tahlil qilamiz. Tadqiqotda sifatli metodlardan foydalanib, xalq madaniyati an’analariga nisbatan ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishini tahlil etamiz. Tadqiqotda shuningdek, an’anaviy va zamonaviy mexanizmlar orasidagi farqlarni ham ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirish jarayoni o‘quv tizimi, media va oilaviy ta’sirlar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bu jarayonning davomiyligi va samaradorligi yangi avlodlarning xalq madaniyatiga nisbatan turlicha munosabatini belgilaydi. Kelajakda, xalq madaniyati an’analarini saqlash va ularga akseologik munosabatni shakllantirish uchun o‘quv dasturlari va ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish zarur bo‘ladi.

Metodologiya. Tadqiqotda xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirish mexanizmlarini o‘rganish uchun sifatli tadqiqot metodologiyasi qo‘llaniladi. Ushbu metodologiya, xalq madaniyati va aksologiya sohalaridagi nazariy tushunchalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida tanlangan. Tadqiqotning asosiy usuli sifatida chuqur intervyu va so‘rovnoma tahlil qilinadi. O‘rganish jarayonida madaniyatshunoslar, pedagoglar va mahalliy jamoat liderlari bilan intervyular o‘tkaziladi, ularning folk madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatlarini tushunishga harakat qilinadi. Bundan tashqari, tadqiqotda madaniyat va qadriyatlar bilan bog‘liq mavjud adabiyotlarni tahlil qilish ham ahamiyatli bo‘ladi. Xalq madaniyati an’analarining ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli va bu jarayonning turli ijtimoiy guruhlar orasidagi farqlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari tematik tahlil orqali tasniflanadi, shuningdek, respondentlar tomonidan berilgan javoblar asosida umumiy tendentsiyalar aniqlanadi. Tadqiqotda axborot yig‘ish usullaridan foydalanilib, xalq madaniyati an’analarining akseologik ta’siri va uning yangi avlodlarga uzatilishining turli mexanizmlari aniqlanadi. Ethical considerations doirasida, barcha ishtirokchilarni xabardor qilish va ular bilan maxfiylikni ta’minlash ta’minlanadi. Tadqiqotning metodologiyasi xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligini tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi.

Natijalar va Muhokama. Tadqiqot natijalari xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirish mexanizmlarining murakkab va ko‘p jihatli ekanligini ko‘rsatdi. Birinchi navbatda, xalq madaniyati an’analariga bo‘lgan akseologik munosabatning shakllanishi o‘qitish tizimi va oilaviy ta’sirlar orqali amalga oshiriladi. O‘quv dasturlari va maktablar, ayniqsa, yosh avlodda xalq madaniyati an’analariga nisbatan musbat munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik metodlar, xususan, etno-ta’lim dasturlari va ijtimoiy loyihalar orqali o‘quvchilarni xalq madaniyatiga va uning qadriyatlariga e’tibor qaratish amalga oshiriladi. Mahalliy hamda milliy festivallar, madaniy tadbirlar va folklor tadbirlarining akseologik ahamiyati ham katta ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, media va internetning roli juda katta. Madaniyatning zamonaviy texnologiyalar

orqali uzatilishi, ayniqsa yosh avlod orasida, xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu jarayonda media orqali uzatiladigan ma’lumotlarning sifati va mazmuni katta ahamiyatga ega. Yoshlarning xalq madaniyati an’analariga munosabati, asosan, ular orqali yetkaziladigan kontentning uyg‘unligi va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi bilan bog‘liq.

Tadqiqotda shuningdek, xalq madaniyati an’analariga bo‘lgan akseologik munosabatni shakllantirishda ishtirok etuvchi asosiy mexanizmlar quyidagilarga to‘xtalib o‘tilgan:

1.O‘quv tizimi va etno-ta’lim dasturlari;
2.Oilaviy ta’sir va ijtimoiy muloqot;
3.Media va internetning roli;
4.Madaniyat festivallari va folklor tadbirlari.

Mexanizm	**Ta’sir darajasi**	**Izoh**
O‘quv tizimi va etno-ta’lim	Yuqori	Ta’lim muassasalarida xalq madaniyatining qadriyatlari o‘rganiladi.
Oilaviy ta’sir	O‘rta	Oila ichidagi qadriyatlar xalq madaniyati an’analariga ta’sir ko‘rsatadi.
Media va internet	Yuqori	Yangi texnologiyalar xalq madaniyati an’analarini uzatishda keng tarqalgan.
Madaniyat festivallari	O‘rta	Madaniy tadbirlar va festivallar xalq madaniyatining jamiyatga ta’sirini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda aniqlangan bilimlar bo‘shlig‘i, xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirishning samaradorligi va o‘quv tizimlaridagi qiyinchiliklarga doir. O‘qituvchilarning madaniyatshunoslik bilimlari va xalq madaniyati haqida tushunchalari ko‘pincha yetarli bo‘lmaganligi natijasida xalq madaniyatini ta’limda to‘liq aks ettirishda qiyinchiliklar mavjud. Bundan tashqari, media orqali uzatiladigan madaniy kontentning sifatini yaxshilash zarurati ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kelajakda o‘tkaziladigan tadqiqotlar xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirishning yangi mexanizmlarini va ularning samaradorligini yanada chuqur o‘rganishga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, xalq madaniyati va qadriyatlarini ta’limda yanada samarali o‘rganish uchun o‘quv dasturlarining yangilanishi va o‘qituvchilarning madaniyatshunoslik bo‘yicha malakalarini oshirish kerak.

Bundan tashqari, xalq madaniyati an’analarining akseologik o‘zgarishlari va uning jamiyatdagi ta’sirini aniqlash bo‘yicha amaliy tadqiqotlarni kengaytirish va ularni yangi texnologiyalar va media vositalari bilan bog‘lash zarur. Bu esa o‘z navbatida, xalq madaniyati an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirishning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari, xalq madaniyati an’analariga akseologik munosabatni shakllantirishning o‘qitish tizimi, oilaviy ta’sirlar, media va madaniyat festivallari kabi bir nechta muhim mexanizmlar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Ushbu mexanizmlar xalq madaniyati qadriyatlarini saqlashda va yosh avlodga uzatishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, media kontenti va o‘quv dasturlarining yangilanishi zarurligi ta’kidlandi. Kelajakda, xalq madaniyati

an’analariga nisbatan akseologik munosabatni shakllantirish jarayonining samaradorligini baholash va yangi mexanizmlar ishlab chiqish uchun chuqurroq tadqiqotlar o’tkazilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Bondarenko, A., Semashko, T., & Moroz, O. (2021). Axiological density of the linguocultural concept. Linguistics and Culture Review, 5(1), 272-287. ResearchGate

2.Zdun, M. M. (2024). The culture of axiological balance as a product of the economic and cultural diversification of Polish regions. Rozprawy Społeczne, 16(1), 1-14. rozprawyspoleczne.edu.pl

3.Chernushevich, V. A. (2023). Folk game as a phenomenon of enculturation of a modern child. Psychological Science and Education, 28(3), 211-220. PsyJournals

4.Egorova, E., & Bulankina, N. (2022). Strategy and tactics of current professional education: axiological approach. E3S Web of Conferences, 253, 01006. ResearchGate

5.Ptitsyna, E. V. (2022). Axiological aspects of ethno-cultural education of students in the educational process of the university. Pedagogy and Education, 17(2), 45-53. ResearchGate

6.Shipilina, L. A. (2022). Axiological guidelines for studying the problems of teacher training at higher education institutions in dissertations on pedagogy. Pedagogical Science, 10(4), 34-42. ResearchGate

7.Terentieva, N. P. (2022). Upbringing in the system of literary education: an axiological turn. Russian Language at School, 10(5), 12-19. ResearchGate

8.Valeev, A. A. (2015). Axiological approach to the development of students’ intercultural competences. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 191, 2632-2636. ScienceDirect

9.Eri, A. (2018). Is beauty in the folk intuition of the beholder? Some thoughts on experimental philosophy and aesthetics. Estetica: The European Journal of Aesthetics, 55(1), 21-39. journals.openedition.org

10.Arielli, E. (2018). Is beauty in the folk intuition of the beholder? Some thoughts on experimental philosophy and aesthetics. Estetica: The European Journal of Aesthetics, 55(1), 21-39. journals.openedition.org

11.Diaz-Faes, A. M., Murteira, C. S. R., & Ruskov, M. (2024). Values that are explicitly present in fairy tales: Comparing samples from German, Italian, and Portuguese traditions. Frontiers in Psychology, 15, 1-10. arXiv

12.Vuong, Q.-H., et al. (2018). «Cultural additivity» and how the values and norms of Confucianism, Buddhism, and Taoism co-exist, interact, and influence Vietnamese society: A Bayesian analysis of long-standing folktales, using R and Stan. arXiv preprint arXiv:1803.06304. arXiv

13.Kozlowski, A. C., Taddy, M., & Evans, J. A. (2018). The geometry of culture: Analyzing meaning through word embeddings. Science Advances, 4(11), eaao6746. arXiv

14.Matsuo, A., Sasahara, K., Taguchi, Y., & Karasawa, M. (2018). Development and validation of the Japanese Moral Foundations Dictionary. arXiv preprint arXiv:1804.00871. arXiv

15.Judge, M. (2020). Folk theories of artifact creation: How intuitions about mental and physical labor shape beliefs about the origins of material culture. Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, 14(4), 507-515.

QUYI ZARAFSHON VOHASI DEHQONCHILIKMADANIYATITARIXIDAN

(XIX asr oxiri-XX asr boshlari)

Jumaeva Nilufar Axmatovna,
BuxDUArxeologiya Buxoro tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maqolada quyi Zarafshonvohasi ziroatchilarning yerga ishlov berish,ekin ekib mo`l hosil olish bilan bog`liqtadbirlari , dehqonchilik madaniyatining o`ziga xos usullari manbalar va dala ma’lumotlari asosida tahlil etiladi.

Tayanch iboralar: Paykal, trgirmon, mo`ndi , mola. go`ja, to`gon, belkurrak,ketmon, yaxob, yagona, to`pcha, chopiq, oq jo`xori

ИЗ ИСТОРИИ ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В НИЗОВЬЯХ ЗЕРАФШАНА В КОНЦЕ XIX – НАЧ.XX ВВ.

Жумаева Нилуфар Ахматовна,
Старший преподаватель кафедры Arxeologii I История Бухары

В статье на основе источников и полевых этнографических данных атализируется деятелность земледельцев по обработке почвы, урожайности , специфическим приёмамземледелческой культуры в низовях Зерафшанского оазиса

Ключевые слова:Пайкал, мелница, мунди, мола, плотина, лопата, мотыга, яхоб, ягана, сфера, измельчитель, белые овес

Kirish: Insoniyat hayoti, xo`jalik faoliyatiko`p jihatdan dehqonchilik ishlab chiqarishiga bog`liq bo`lib, mehnat qurollari uzoq o`tmishdan qolgan shakllarda edi . Yerni haydab shudgor qilish, yoki ekinlarga ishlov berish qo`sh – ho`kizlar yordamida amalga oshirilar, shuning uchun ishchi hayvonlarning buxoroliklar hayotidagi ahamiyati nihoyatda baland bo`lgan. Ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish, ularni asrab avaylash hayotiy zaruriyatga aylangan edi. Kuzgi shudgor paytida ham asosiy ishchi kuchiqo`sh – ho`kizlar bo`lib , ular qo`shilgan omochlarda yer haydalar, shudgor qilinar edi. Erta bahorda esa yerni ekishga tayyolash, six molaqilishda hamasosiy ishchi hayvon ho`kizlar, ba`zan otlardan foydalanilar edi. Bahorgi yumushlar qizigan mart – aprel oylarida kunlar uzayib, havo harorati ham ko`tarilib borar, bunday sharoitda ayniqsaqishdan “ eti yupun bo`lib , yoki yo`g`on cho`zildi – ingichka uzildi” bo`lib chiqqan jonivorlarning xizmatidan foydalanish barobarida ularni asrab – avaylash ham zarur bo`lgan .

Qadimgibuxoroliklar ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish bilan birga ularni salqin vaqtda ko`proq tunda va erta saharda ishga solganlar. Bahorgi yumushlar qizigan palladaishga solingan ho`kizlarga nisbattan “ gava pushtash oftoba nabinad”- ho’kizning tanasi quyosh ko’rmasiniborasi shundanshundan kelib chiqqan bo`lib , ho`kizlarni,umuman ishchi jonivorlarniquyosh tig`ida ishlatmasdan, ularni asrab – avaylash , ishni salqin vaqtda amalga oshirish lozimligi nazarda tutilgan.

Erta bahordayerlarni ekishga tayyorlash , ekishni o`z vaqtida o`tkazish ham alohida tayyorgarlik va tajribalarni talab qilgan. Buxorolik Bobodehqonlarbahorning har bir lahzasidan unumli foydalanibekish – tikish ishlarini o`z vaqtida amalga oshirishga harakat qilganlar. Bahorning har daqiqasini g`animat bilib , ekishni ertaroq amalga oshirishga intilganlar. Xalqda “sepilgan urug` ho`kizning tanasiga tegmasin” iborasiga bahorgi ekish paytida erga sepilgan urug` ishchi jonivorlarningtanasiga tegilib erga tushgunchavaqt boy beriladi, degan ma`no anglatgan.

Yerga ishlov berish, ekinlarni parvarishlash borasida ham an`anaviy usullar asosida katta tajriba to`plangan. Ota bobolarimiz bir qator agrotexnik usullarni kashf qilganlar.Shulardan biri oq jo’xori ostini to`pchalash usulidir.

Ma`lumki xalqimiz oshxonasida go`ja taomi qadimdan mavjud bo`lib , uni asosan oq jo`xoridan tayyorlashgan va qatiq qo`shib iste`mol qilingan . Oq jo`xorini yetishtirish esa boshqa ekin

turlariga qaraganda alohida agrotexnika talab qilgan. Buning uchun mahalliy o`g`itdan yaxshilab to`yintirilgan , suvga qulay joy tanlanib ekin ekilgan. Ekin qator orasi, butalar oralig`i 40 -50 sm dan kam bo`lmasligi kerak bo`lgan. Ekin unib chiqqandan so`ng uni yagonalab , begona o`tlardan tozalab turilgan.

Buxoroning issiq va quruq havo sharoiti , suv tanqisligi davrida balandligi bir metrcha keladigan oq jo`xorining har bir tubiga alohida – alohidaishlov berilib,osti yumshatilib,yumshoq tuproqdankunda ostiga tortilib, to`pcha qilingan . Buning natiasida nam uzoq saqlangan va butaning mustahkamligi, shamol va tabiiy ofatlarga bardoshligi oshgan . Oq joxori 2 - 2,5 metr balandlikkacha o`sib , har bir tubi 3 – 4 tagacha bosh bog`lagan yoki har bir tubdan kamida bir kilogacha hosil olingan. Qishloq joylarida yashovchi buxoroliklarningayvonida uzun qator qilib osib qo`yilgan oq jo`xori boshlarini kech kuzgacha uchratish mumkin edi.Yozning issig`ida obdon qurigan oq jo`xori boshlari yanchilib , doni sovurilib olingan, yaxshilab tozalanib,alohida quruq joyda saqlangan. Kuz va qish mavsumlarida uning donidan go’ja taomi pushirilib iltemol qilingan

Buxoro an`anaviy dehqonchiligiingyana bir usuli poliz mahsulotlaridan qovun va tarvuz etishtirishda qo`llangan “Varqoni” usulidir. Bu usul haqidagi ma`lumotlarni tarixiy yozma manbalarda uchratmadik. Axborotchilarning xotiralariga suyanib fikr yuritdik.

Buxoro vohasining o`ziga xos iqlimi va tuproq sharoitida poliz mahsulotlari yetishtirish alohida qunt va tajriba talab qilgan. Zarafshon daryosining serunum tuproqli adog`lari , katta kanallarning to`g`on atroflari suvga serob , sernam va yumshoq bo`lib , daryo va kanallar oqizib kelgan loyqadan to`yinib , unumdorligi oshgan joylar edi. Bunday joylarda poliz ekinlaridanqovun va tarvuz ekilsa yuqori hosil berar edi. Ekilgan qovun unib chiqib , palak otib gulga kirgach,suvga bostirib sug`orilgan yoki toshqin bo`lsa suv ostiga qolgan. Bu holda yer tobga kelgach ag`darma chopiq qilinib , har bir tup ostiga tuproq to`pcha qilingan . Bu usulni suv inshootining bosh qismi to`g`on nomi bilan yoki qadimgi so`g`diy tilida “varq ”- “to`g`onnomi bilan“Varqoni”deyilgan . Varqoni – to`g`on boshi dehqonchiligi bo`lib , etishtirilgan poliz mahsulotlari serob va nihoyatda mazali bo`lgan.

An`anaviy Buxoro dehqonchiligida poliz ekinlarini yagonalashda alohida e`tibor qaratilgan. Xalqda “bir palakdan ikki qovun , ikki palakdan bir qovun” iborasida qovun,tarvuz,qovoq va boshqa ekinlarni o`z vaqtida yagonalashning nihoyatda zarurligi ko`rsatilgan.

Paykalga kirmagan, suv chiqishi qiyin bo‘lgan partov erlar, ya’ni bo‘sh erlar «posira», unda ishlovchilar “posirakorlar” deb atalgan. Posira erlarda hosil etishtirish juda mushkul bo‘lgan. Dastlab bu erlarga lalmikor ekinlar ekilib, qor va yomg‘ir suvi bilan sug‘orilgan. Kamdan-kam hollarda dehqonlaro`zlariga tegishli yerlarnioqar suv bilan bir - ikki bor sug‘orishgan, ya’ni bunday erlarga ekilgan ekinlar zahmat chekish bilan sug‘orilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak suv inshootlarini tartibga keltirishda posirachilar kamdan – kamhollardagina ishtirok etishgan.

Vohadagi barcha bekliklarga qarashli qishloq aholisiniig jamoa yeri va posira yerlaridan tashqari o‘z tomorqasi ham bo‘lgan. Bu yerlar qishloqlarda 5 paxsa devor yoki chimdevor bilan o‘rab olingan. Qarako`l, Olot va boshqa tumanlarning dasht hududlarida devor bilan o‘rashga ehtiyoj sezilmaganligi bois ma’lum bir belgilar qo‘yilgan va bunday yerlar odatda “hayat” deb atalgan.

O‘rta Osiyoning boshqa xududlarida bo‘lgani singari Buxoro vohasidaham suv tanqislisligi yuz berib turgan. Shu bois mahalliy xalq sug`orish shohobchalaridan foydalanishning tartib – qoidalariva usullarini yaxshibilishga. Dehqonlar suv tanqis bo‘lgan hududlarda suvdan navbat bilan foydalanishga qat’iy rioya etishgan. Suv miqdori muayyan tartibda o‘lchangan. Masalan, “bir suv-ariqdan bir kecha-kunduzda oqib o‘tgan suv: “bir tegirmon” yoki “tosh” - bir pud donni tegirmonda tortguncha ketadigan suv “bir qo‘sh” - bir qo‘sh ho‘kiz bilan haydalgan yerni sug‘orish uchun etadigan suv” kabi suv o‘lchovlari keng qo‘llanilgan. Buxoroning suvga tanqis tumanlarida jamoa foydalanadigan paykallarda bir qo‘sh erga beriladigan suv “mo‘ndi” bilan o‘lchangan. Mo‘ndi - tubi teshilgan, taxminan o‘n litr suv sig‘adigan oddiy sopol ko‘zacha bo‘lib, undagi

suv oqib bo‘lishiga qarab suv miqdorini o‘lchaganlar. Shuni ta’kidlash kerakki, paykal va hayat yerlarini sug‘orishning u yoki bu usullari suvning oz - ko‘pligigaqarab tanlangan. Vohaning o‘rta qismida dehqonlar sug‘orishning “bir quloq” usulidan ko‘proq foydalanishgan. Bunda vaqt hisobi quyosh harakatiga karab belgiangan. Miroblar paykal a’zolarining yeri qanchaligini juda yaxshi bilishgan va shunga qarab vaqt ajratishgan. XX asrning boshlariga kelib boy-badavlat kishilar o‘z mavqelaridan foydalanib, ayrim hollarda belgilangantartiblarni ham buzishgan.

Romitan tumanidaga Qo`rg`on qishlog‘ida 50 ta paykal bo‘lib, bir kecha - kunduzda uchtadan paykal sug`orilishi kerak bo‘lgan. Ikkita paykal kunduzi, bittasi esa kechasi sug‘orilgan. Har paykalga 16-17 kundabir bor navbat kelgan. Qo‘shni qishloq Romishda esa 37 taga yaqin paykal bo‘lgan. Qishloq oqsoqoli boshchiligida chokboshlar (bu qishloqda paykalboshi yig‘ilishib, suv navbatini belgilashgan. O‘rta kattaliklagi bir chelak suv keladigan sopol ko‘zaning tagini teshib suv oqizishgan. Aynan shu holni boshqa qishloqlarda ham ko‘rish mumkin edi.

Paykallardagi ekinlarni suvning miqdoriga qarabsug‘orishgan. Agar suv kam bo‘lsa, poxol qilib, bostirib sug‘orilgan. Mabodo, suv uzoq vaqt oqadigan bo‘lsa, ekinlarga egatlar yoxud jo‘yaklar orqali suv oqizishgan. Ekinlar qonib suv ichishiga, ayniqsa, katta e’tibor qaratilgan. Paykallarni jo‘yaklardan oqizib sug‘orish usuli ko‘pincha tunda amalga oshirilgan.

Buxoro vohasi sharoitada dehqonchilik xo`jaligi sun`iy sug`orishga asoslanadi.Yerlarning unumdorligi, ekinlarning hosildorligi sun’iy sug‘orish, ariqlarning uzayishi va kengayishi hisobiga yildan yilga ortib borgan. XIX asrning oxiri - XX asr boshlariga kelib sug‘orish tarmoqlariga e’tibor pasayganligi kuzatiladi. Daryo suvi kam bo‘lganligi tufayli ariqlar va shoxlar (ariqdan kichik, ayrim paykallarni, qishloqdagi yrlarni sug‘oradigan suv yo‘li)ni qum, loyqa va suv o‘tlari bosib ketgan. Natijada yildan-yilga sug‘oriladigan maydonlar miqdori qisqarib borgan. Bu esa bir qator sabab va omillar bilan bog`liq bo‘lgan. yerlarning kattagina qismi yirik yer egalarining qo‘liga o‘tib ketgach, sug‘orish ishlariga e’tiborsizlik bilan qarash kuchaygan. Erga bir mavsumda bug‘doy yoki arpa ekib olingach, paykallar o‘tloqqa aylantirilgan. Vaqt o‘tishi bilan bir qancha ariq - zovurlar ko‘milib o`z ahamiyatini yo`qotgan.

Buxoroliklar ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish bilan birga ularni salqin vaqtda, ko`proq tunda va erta saharda ishga solganlar. Bahorgi yumushlar qizigan palladaishga solingan ho`kizlarga nisbattan “gava pushtash oftoba nabinad”-Ho’kizning tanasi quyosh ko’rmasiniborasi shundanshundan kelib chiqqan bo`lib, ho`kizlarni,umuman ishchi jonivorlarniquyosh tig`ida ishlatmasdan, ularni asrab – avaylash , ishni salqin vaqtda amalga oshirish lozimligi nazarda tutilgan.

Erta bahordayerlarni ekishga tayyorlash, ekishni o`z vaqtida o`tkazish ham alohida tayyorgarlik va tajribalarni talab qilgan. Buxorolik Bobodehqonlarbahorning har bir lahzasidan unumli foydalanibekish – tikish ishlarini o`z vaqtida amalga oshirishga harakat qilganlar. Bahorning har daqiqasini g`animat bilib , ekishni ertaroq amalga oshirishga intilganlar. Xalqda “sepilgan urug` ho`kizning tanasiga tegmasin” iborasiga bahorgi ekish paytida erga sepilgan urug` ishchi jonivorlarningtanasiga tegilib erga tushgunchavaqt boy beriladi, degan ma`no anglatgan.

Buxoroning issiq va quruq havo sharoiti , suv tanqisligi davrida balandligi bir metrcha keladigan oq jo`xorining har bir tubiga alohida – alohidaishlov berilib,osti yumshatilib,yumshoq tuproqdankunda ostiga tortilib, to`pcha qilingan . Buning natiasida nam uzoq saqlangan va butaning mustahkamligi, shamol va tabiiy ofatlargabardoshligioshgan . Oq joxori 2 - 2,5 metr balandlikkacha o`sib , har bir tubi 3 - 4 tagacha bosh bog`lagan yoki har bir tubdan kamida bir kilogacha hosil olingan. Qishloq joylarida yashovchibuxoroliklarningayvonida uzun qator qilib osib qo`yilgan oq jo`xori boshlarini kech kuzgacha uchratish mumkin edi.Yozning issig`ida obdon qurigan oq jo`xori boshlari yanchilib , doni sovurilib olingan , yaxshilab tozalanib,alohida quruq joyda saqlangan.Kuz va qish mavsumlarida uning donidan go’ja taomi pushirilib iltemol qilingan

Buxoro an`anaviy dehqonchiligiiningyana bir usuli poliz mahsulotlaridan qovun va tarvuz etishtirishda qo`llangan “Varqoni” usulidir. Bu usul haqidagi ma`lumotlarni tarixiy yozma manbalarda uchratmadik. Axborotchilarning xotiralariga suyanib fikr yuritdik.

Buxoro vohasining o`ziga xos iqlimi va tuproq sharoitida poliz mahsulotlari yetishtirish alohida qunt va tajriba talab qilgan. Zarafshon daryosining serunum tuproqli adog`lari, katta kanallarning to`g`on atroflari suvga serob, sernam va yumshoq bo`lib , daryo va kanallar oqizib kelgan loyqadan to`yinib , unumdorligi oshgan joylar edi. Bunday joylarda poliz ekinlaridanqovun va tarvuz ekilsa yuqori hosil berar edi. Ekilgan qovun unib chiqib , palak otib gulga kirgach,suvga bostirib sug`orilgan yoki toshqin bo`lsa suv ostiga qolgan. Bu holda yer tobga kelgach ag`darma chopiq qilinib , har bir tup ostiga tuproq to`pcha qilingan . Bu usulni suv inshootining bosh qismi to`g`on nomi bilan yoki qadimgi so`g`diy tilida “varq ”- “to`g`onnomi bilan“Varqoni”deyilgan . Varqoni – to`g`on boshi dehqonchiligi bo`lib , etishtirilgan poliz mahsulotlari serob va nihoyatda mazali bo`lgan.

An`anaviy Buxoro dehqonchiligida poliz ekinlarini yagonalashda alohida e`tibor qaratilgan. Xalqda “bir palakdan ikki qovun , ikki palakdan bir qovun” iborasida qovun,tarvuz,qovoq va boshqa ekinlarni o`z vaqtida yagonalashning nihoyatda zarurligi ko`rsatilgan.

Haydalgan erdagi kesaklarni ezish, yerni tekislash hamda urug‘ sepilgandan so‘ng ustidan tuproq tortish uchun mola ishlatilgan. Molaning ikki xil turi mavjud bo‘lgan: biri katta, uzunligi 3-3,5 m. ko‘p yillik tut yoki o‘rik yog‘ochidan yasalgan (yo‘g‘on tanali tut yoki uning tanasi poytesha bilan yo‘nilgan). Molaning eni 40-60 sm bo‘lgan. Molani xo‘kizlar tortgan. Ho‘kizlarni bir kishi etaklagan, mola ustida ham bir odam o‘tirgan. Mola aksariyat lalmikor erlarda, qatqaloq va xashakli erlarda ishlatilgan. Bahorgi ekinlar ekiladigan erlarda mola o‘rnida shox-shabbali kichik daraxt tanasi ishlatilgan. Mola yasashga imkoni bo‘lmagan kambag‘al xo‘jaliklar omochning shotisidan mola sifatida foydalanishgan. Molaning kichigi 2-2,5sm chamasi bo‘lgan. Buni qo‘sh ho‘kiz, ot yoki tuya tortgan.

Buxoro vohasida qadimdan ishlatilib kelayotgan yer yumshatgich vositasi belkurakdir. Bu asbob temirdan yasalgan bo‘lib, ishlatuvchining xohishiga qarab, maxsus quloq yasatilgan. Quloq belkurakning o‘ng yoki chap tomonida bo‘lgan. Ba’zi xonadonlarda ikki tepki quloq ishlangan belkurak bo‘lgan. Belkurak yerni kovlash, aravaga go‘ng yoki tuproq ortish, ariq qazish va paxsa devor qurishda qo‘llanilgan. Belkurakning uzunligi 25-27 sm, eni 20-23 sm atrofida bo‘lgan. Dastasining uzunligi 1,3-1,5 metrni tashkil etgan. Loy ishlarida belkurakdan farqliroq, loyni kesishga qulay va engil bo‘lgan kapcha ishlatilgan.

Qadimda dehqonchilikda keng ishlatiladigan mehnat quroli ketmon bo‘lib. Buxoro vohasi ziroatchilari uchun ham bu qurolning xizmati katta bo‘lgan. Bog‘dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik va g‘allachilikda, umuman, er ishlarida ketmon ishlatilgan. Ketmonlar ham shakli va hajmiga qarab bir-biridan farqlangan. Eni 30-32 sm, uzunligi 25-27 sm bo‘lgan ketmonlar tuproq yuklarida, ayniqsa, jo‘yak olish, uvat ko‘tarish, egat olish vaer tekislashda ko‘proq ishlatilgan. Hajmi kichik ketmonlar esa o‘simliklarning tagini yumshatish va chopiq qilishdaqo‘llanilgan. Ketmon dastasi asosan tol daraxtidan tayyorlangan. Voha dehqonlari erdan ko‘proq hosil olish uchun unga sifatli ishlov berishgan. Tadbirkor boylar kuzda erni bir-ikki marta ko‘sh bilan haydashgan. Mola bosish, dalalrga suv tarqatish va mahalliy o‘g`itlarni berish ishlari ham tajribali dehqonlar maslahati bilan amalga oshirilgan. Almashlab ekish ham dehqonchilikda asosiy o‘rinda turgan. O‘simliklarning mavsumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, birining o‘rniga ikkinchisini ekishgan. Albatta, bu jarayonda ob – havoningqanday kelishi va tuproqningo`ziga xos xususiyatlariham hisobga olingan.

O‘rta Osiyodagi barcha xalqlar singari Buxoro vohasi dehqonlari ham XX asrning boshlarida donli ekinlarni ko‘proq ekishgan. Kuzda haydalgan yerlarga bug‘doy, arpa ekilgan. Urug‘ qo‘l bilan sepilgan va ustidan mola tortilgan. Don ekilgan to‘qay erlar asosan. maysa unib chiqqach, boshoq olish oldidan va don xamirga aylanganidan so‘ng 2-3 marta sug‘orilgan.

Axborotchilarimizning ta’kidlashlaricha, obikor erlarga oq bug‘doy lalmikor erlarga «qizil bug‘doy», «qora qiltiq bug‘doy» ekilgan. Hosil yig‘ib olingandan keyin bo‘shagan erlarga mosh, kunjut, uch oylik oq jo‘xori. tariq ekilib. yaxshi hosil olingan. Ba’zi dehqonlar qayta ekishga

sabzavot va poliz ekinlarini, xususan, sabzi, sholg‘om, tarvuz kabilarni ekishni ma’qul ko‘rishgan. [XX asrning boshida asosiy maydonlarga bug‘doy, arpa bilan birga no‘xat, zig‘ir, kunjut, makka, kungaboqar kabi donli va boshoqli ekinlar ham ekilgan. Hosidandanbo‘shagan paykallarning barchasida qayta ekish to‘liq amalga oshirilmagan. Chunki qayta ekish uchun dehqonlarning hamma vaqt ham imkoniyati bo‘lmagan. Paykallarning asosiy qismi o‘rimdan so‘ng sug‘orilgan, qo‘sh bilan 2-3 marta haydalgan. Noyabr oyining oxiri, dekabr oyi ichida yerga «yaxob» suvi berilgan.[10] Albatta, sug`origan erlar bahorgi ekish mavsumi boshlangunga qadar dam olib yotgan.

XIX asrning oxirlarida Turkiston o‘lkasida sug‘oriladigan barcha maydonning 70 foiziga g‘o‘za ekilgan, xolos. Paxta maydonlari Buxoro amirligida 62 foiz, birgina Qashqadaryo vohasida esa 2 ming gektarni tashkil etgan. XX asrning boshlarida Buxoro amirligi Angliyaga va boshqa chet mamlakatlarga turli xil qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotgan. Mahsulotlar ichida paxta ko‘p bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida Buxoro vohasining Qorako`l, Olot, Romitan kabi tumanlarida paxtaning ko‘p ekilishiga sabab bo‘lgan. Vohada«Mavri g‘o‘za», «Malla paxta» navlari ekilgan. Chorikorlar etishtirgan paxta hosili katta er egalari tomonidan sotilgan. Boylar korxonalar (paxtani qayta ishlaydigan kichik korxona) qurib, paxtani chigitdan ajratishgan va olingan toladan ip yigirishgan. Iplardan shoyimatolar to‘qishgan. O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish masalasini o‘rganish uchun yuborilgan polkovnik Strukovning yozishicha,«Osiyoliklar keltirayotgan turli xil to‘qima matolarni oddiy xalq juda xush ko‘rib ishlatadi, chunki ular yumshoq va chidamli bo‘lgani uchun davlatdagi armiya uchun juda zarur bo‘lgan kanop mato o‘rnini bosa oladi».Rus zobitining bu fikrlarini axborotchtarimizdan olingan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Yashash sharoiti qanchalik og‘ir bo‘lmasin, voha ziroatchilari hamisha bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zib kelgan. Ariq ochish, tozalash ishlari kuzning oxiri va qish davri hamda erta bahorda hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, xirmondagi donni ajratish, g‘o‘zani chopiq qilish, ko‘sak chuvish, tok, anor, anjirlarni ko‘mish va ochish, daraxtlarga ishlov va shakl berish kabi ishlarni ham dehqonlar hamjihat bo‘lib bajarishgan.

Birinchi jahon urushi arafasida Rossiyaning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati boshqa soha vakillari kabi dehqonlarning ham ahvolini og‘irlashtirgan. Soliqlarning haddan ortiq ko‘payganligi ekin maydonlarining qisqarishiga olib keladi. Xalq bir amallab tirikchilik o‘tkazish uchun ishchi ho`kiz o`rnida hattoki o‘zlarini omochga qo‘shib er haydaganliklari, ketmon bilan ertayu – kechyer chopganliklari haqidagi ma’lumotlar axborotchilarimiz xotiralarida saqlangan.

Almashlab ekish an’anasiga rioya etilmaganligi natijasida g‘o‘zaning yomon parvarish qilinishi dalalarning quvvatsizlanishiga, paxta hosilining pasayishi va majud navlarning buzilishiga, shuningdek, boshqa sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashuviga olib keldi. 1916 yildagi ob-havo sharoiti (ko‘klamning kech va sovuq kelishi, yozdagi qurg‘oqchilik, chigirtka bosishi) iqtisodiyotning va paxtachilik agrotexnikasining ahvolini yanada og‘irlashtirdi.

Butun Turkiston o‘lkasi uchun berilgan bu tavsif Buxoro vohasidagi ahvolni ham ifodalagan, desak xato bo‘lmaydi.

Xulosa: XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida Buxoro vohasida g‘alla, paxta yoki boshqa poliz ekinlarini ekib parvarishlash dehqonlar uchun qo`l mehnati bilan bajariladigan mashg`ulotlar ancha og‘ir bo‘lgan. Sug‘orish shoxobchalarining talabga javob bermaganligi, unumdor erlarning boy – badavlatkishilar tomonidan bo‘lib olingani, Buxoro amiri tomonidan undirilgan soliqtarning haddan ortiqligi, qishloq xo‘jalik texnikasi va ish qurollarining oddiyligi madaniy ekinlar hosildorligini oshirishga imkon bermagan.

Donoxalqimiz, tadbirkor bobo dehqonlarimiz ming yillar davomida yerga ishlov berish, ekin ekib mo`l hosil olishning o`ziga xos usullariva tadbirlarini yaratib, Quyi Zarafshonning murakkab tabiiy sharoitida ham jahonziroatchilik madaniyatiga o`ziga xos munosib hissa qo`shganlar , og’ir sharoitlarga qaramay o’zlarining asriy tajribalari asosida an`anaviy dehqonchilik usullari yordamida mo’l-ko’l hosil yetishtirishga muvaffaq bo’lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:
1.Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. -Т..1972.
2. Дала этнографик маълумотлари,ахборотчи Шоди Рўзиев,1990 й (Аҳмад Жумаевниг шахсий архивидан).
3.Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Аҳмад Жумаевниг 2012йил.
4.Дала этнографик маълумотлари, ахборотчиРаҳмон Жўраев, 2003 йил
5.Дала этнографик маълумотлари, 1997 йил. Коракултумани.
6. Дала этнографик маълумотлари, 1998 йил Ромитан тумани Ромиш қишлоғи
7.Жабборов И. Ўзбек халк этнографияси.-Т., 1994. -Б. 102.
8.Шаниязов К.Ш. Узбеки - карлуки. -Т., 1964. -Б. 169.
9.Рожкова М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. - М. Л . 1949. -С. 41.

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

Umirzakova Malohat Roxat*aliyevna?*
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkistonda soliq tizimini amalga joriy etishda RSFSR tomonidan qabul qilingan hujjatlar va ularning amaliyotga tadbiq etilishi tahlil qilingan. Soliqqa tortish va undirish jarayonlarida javobgarlik masalalari va jazo choralarining joriy etilishi, inqilobiy tribunal tarkibida soliq bo‘limlarining tashkil etilishi hamda faoliyati yoritilgan. Shuningdek, soliq to’lash tartiblarini buzish va bo’yin tovlash kabi harakatlarga nisbatan belgilangan maxsus jazolarning joriy etilishi, siyosiy huquqlardan mahrum qilish negizida soliq yuki oshirilganligiga oid ma’lumotlar arxiv manbalariga asoslangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, sovet hokimiyati, soliqqa tortish va undirish amaliyoti, harbiy majburiyat, oziq-ovqat solig‘i, jazo turlari, dekret, ko‘chma sud.

Аннотация. В статье анализируются документы, принятые РСФСР в целях внедрения налоговой системы в Туркестане, и их практическое применение. Рассматриваются вопросы ответственности и введения штрафных санкций в процессе налогообложения и сбора налогов, организация и деятельность налоговых органов при революционном трибунале. На основе архивных источников освещаются сведения о введении специальных санкций за нарушение порядка уплаты налогов и уклонение от уплаты, а также об увеличении налогового бремени на основе лишения политических прав.

Ключевые слова: Туркестан, Советская власть, налоговая и сборная практика, военная повинность, продовольственный налог, виды наказаний, указ, выездной суд.

Annotation. This article analyzes the documents adopted by the RSFSR in the implementation of the tax system in Turkestan and their implementation in practice. Issues of liability and the introduction of penalties in the processes of taxation and collection, the organization and activities of tax departments within the revolutionary tribunal are covered. Also, information on the introduction of special penalties for violations of tax payment procedures and evasion, as well as the increase in the tax burden on the basis of deprivation of political rights is covered based on archival sources.

Index Terms: Turkestan, Soviet power, taxation and collection practices, military conscription, food tax, types of punishment, decree, mobile court.

Kirish. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida davlatlarning soliq siyosati tobora takomillashib, kengayib bormoqda. Ayni vaqtda soliqlar iqtisodiyotni rivojlantirish vositalaridan biri bo‘lib ham xizmat qilmoqda. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ustuvor yo’nalishlardan biri hisoblangan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ayniqsa, soliq-buydjet siyosatini yanada chuqurlashtirish tobora zaruriyatga aylanib bormoqda. Davlatlar taraqqiyotida, hukumatlarning buydjet mexanizmida soliqlar va ularning tushumi, turlari, sohadagi imtiyozlar, shuningdek muammolarni o`rganish, tizimli hal etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada soliqqa tortish va undirish, jazo turlari, javobgarlikka tortish masalalari inqilobiy tribunallar faoliyatida soliq tizimidagi javobgarlik masalasidasakkiz turdagi maxsus jazolarning joriy etilishi bayon etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. turkiston ASSRda soliqqa tortish va undirish masalalariga doiradabiyotlarni ikki davr: sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarga ajratib o‘rganish mumkin.Sovet davri (1917-1924-yillar) da yaratilgan tarixiy adabiyotlar orasida XX asr 20-30-yillarida davlat va partiya arboblari T.Risqulov, I.Xidiraliyev, N.Turaqulov, G.Safarov asarlari muhim ahamiyatga ega[1]. Mustaqillik yillarida Q.Rajabovning nomzodlik, R.Abdullayev,

D.Ziyoyeva, Q.Rajabov, A.Rasulov, Sh.Hayitov, U.Jumayev, M.Haydarov, M.Rahmatov, N.Rejabboyevlarning D.Toshmatovning doktorlik dissertatsiyalarida Turkiston o‘lkasidagi soliq siyosati tarixining bazi tomonlari yoritilgan[2]. Turkistondagi soliqqa tortish va undirish, javobgarlik masalalarining ayrim jihatlariga Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston hamda Rossiya Federatsiyasi tarixiga oid e’lon qilingan bazi fundamental kitoblar va kollektiv monografiyalarda to‘xtab o‘tilgan. Xususan, MDH davlatlarida so‘ngi yillarda chop etilgan A.A.Maslennikova, A.A.Kabanov, T.I.Kim, I.V.Sibotina, I.A.Selivanovskaya, J.J.Kenjebaykizi, S.V.Korponenko, D.A.Mirpochoyev, A.S.Sokolovning monografiyalarida sovet rejimi va bolsheviklar tomonidan olib borilgan soliq siyosati va uning ayanchli oqibatlari manbalar asosida yoritilgan[3]. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tahlil, manbalar tahlili, fanlararo metodlardan foydalanildi. Shu bilan birga tarixiylik, davriylik va xolislik tamoyili asosida mavzuni yoritishga harakat qilindi.

Natijalar va muhokama. Turkistonda 1917-1918-yillardagi og‘ir iqtisodiy vaziyatning yuzaga kelishi, g‘alla yetishmasligi, qurqoqchilik va uning oqibatida ocharchilikning hukm surishi o‘lkada barcha sa’y-harakatlarni ta’minot masalasiga qaratishga majbur qildi. Turkiston iqtisodiy boshqaruvisovet hukumati manfaatlariga bo‘ysundirilgan bo‘lsada, o‘lkada soliq tizimi, aholi ta’minoti uchun yechim sifatida yangi turdagi soliqlarni amalga joriy etish bilan yuritilayotganligiga qaramay uning katta qismi sovet armiyasi va ishchilar sinfi manfaatlari hamda sovet hukumatini moliyaviy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan edi. Mazkur manfaatlar doirasida sovet hokimiyati soliqlarni o‘z vaqtida va uzluksiz undirish maqsadida soliqlarni yig‘ish va jazo qo‘llash huquqini ayrim tashkilotlar vakolatiga kiritdi. Soliqlarni to‘lashdan bosh tortganlar uchun jazo qo‘llashning huquqiy-normativ asosi sifatida RSFSR JK tegishli moddalariga tayandi. Jumladan, soliq to‘lash tartibini buzish davlatga qarshi jinoyatlar darajasida: ommaviy tarzda soliqlarni to‘lashdan bosh tortganlik; yakka tartibda soliqlarni to‘lashdan bosh torgan yoki o‘z vaqtida to‘lamagan fuqarolarning hatti-harakatlari; soliqqa tortish jarayonlarida mol-mulkni yashirgan va miqdorini to‘g‘ri ko‘rsatmagan hamda harbiy majburiyatlardan (harbiy majburiyatlar pul shaklida ham undirilgan-U.M.) bosh torganlik belgilangan. Sovet hokimiyati soliq siyosatini bunday tarzda olib borilishini turli xil dekret va ko‘rsatmalarni qabul qilish hamda joriy qilish bilan mustaxkamladi. Masalan, 1921-yilning 15-avgustida BMIQ tomonidan dekret qabul qilinib, unda oziq-ovqat solig‘ini o‘z vaqtida to‘lamagan yoki to‘lashdan ommaviy tartibda bosh tortgan aholi vakillarini hatti-harakatlari davlat boshqaruvi darajasidagi jinoyatlarga tenglashtirilishi hamda bunday harakatlarga nisbatan jazo qo‘llash uchun inqilobiy tribunallar tarkibida soliq bo‘limlarini tashkil etilishi ko‘rsatib o’tildi[4:103]. 1922-yilning 4-yanvarida Turkiston ASSR Adliya xalq komissarligi inqilob tribunaliga soliqni o‘z vaqtida to‘lamaganlarga dastlabki surishtiruvni o‘tkazmasdan jazo qo‘llash vakolatini berdi [4:103]. Mazkur normativ hujjatga ko‘ra, 1922-yilning yanvardan mart oyiga qadar Turkiston oblastlarida ko‘chma sud majlislari o‘tkazilib, soliqni o‘z vaqtida to‘lay olmaganlarni dastlabki surishtiruvlarsiz (soliqni o‘z vaqtida to‘lay olmaganlikning sabablarini o‘rganmasdan-U.M.) so‘roq qilingan hamda javobgarlikka tortilgan. Oblastlarda esa soliq turlari va ularni undirishda ham miqdorlari turlicha bo‘lib, ularni undirishda Adliya xalq komissarligiga keng vakolatlar berilgan. Masalan, Samarqand oblast Adliya xalq komissarligi 1918-yilning 21-avgustida soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamagan aholi vakillari uchun qamoq, tintuv va musodara qilish to‘g‘risida buyruq qabul qilgan. Mazkur buyruqda soliqlarni to’lashdan bosh tortganlar yokt o‘z vaqtida to’lamaganlar jinoiy javobgarlik hamda ma’muriy tartibda javobgarlikka tortish masalalari bo‘yicha Adliya Komissari, Ichki ishlar komissari hamda Oziq-ovqat komissari tomonidan javobgarlikni qo‘llashi mumkinligi haqida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, Adliya xalq komissari I.Z. Shteynberg 1918-yilning 19-dekabrida Revolyutsion tribunalga ko‘rsatma yo‘llab, soliq to’lashdan bo’yin tovlagan yoki soliqqa tortishda mol-mulkini yashirgan hamda ularning egaligiga doir hujjatlarni qasddan yo‘q qilganlar uchun Revolyutsion tribunalga quyidagi jazolarni qo‘llash haqida murojaat qilgan:

omma oldida izza qilish;

jarimaga tortish;
ozodlikdan mahrum qilish;
poytaxtdan quvg’in qilish;
xalq dushmani deb e’lon qilish;
siyosiy huquqlardan mahrum qilish;
mol-mulkni musodara qilish;
majburiy mehnatga jalb qilish[5:29,30] .

Bundan tashqari normativ-huquqiy hujjatlarda siyosiy huquqlardan mahrum qilish jazosini qo‘llash nazarda tutilgan harakatlar uchun javobgarlikka tortilgan aholi vakillariga nisbatan soliq yuki oshirilgan tarzda turli xil to‘lovlarni to‘lashga majbur qilingan[6:271].

XULOSA. Shunday tartibda yuritilgan soliq siyosati natijasida, Turkiston o‘lkasi Markaz manfaatlariga bo‘ysundirilib, aholi va o‘lka iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olinmadi hamda soliqqa tortish va undirish turli yo‘llar bilan olib borildi. Soliqlarni arzimas qismidan ta’lim, tibbiyot, sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilib, o‘lka aholisiga yetarli e’tibor qaratilmadi. Imperiyadan meros bo‘lib o‘tgan soliqlarni undirishda Markaz tomonidan ko‘r-ko‘rona soliq siyosati joriy etilib, o‘lka aholisi jazo qo‘llash tahdidi ostida soliqlarni ortig‘i bilan to‘lashga majbur etildi. Bunday holatga Turkiston nafaqat iqtisodiy taqchillik tufayli ortda qolayotganligi, balki o‘lkada iqtisodiy nuqtai-nazardan boshqaruvningnoto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, oblastlar miqyosidagi soliq va boshqa iqtisodiy holatlar yuzasidan muammolar faqatgina Moskva orqali hal etilganligi sabab bo‘ldi. Natijada, hududlardagi holat va aholining tang vaziyatdan chiqishi kechikkan, muammolar hal etilmay o‘z holiga tashlab qo‘yilgan. Soliqlarni undirish bo‘yicha buyruq asosida ko‘rsatmalar bo‘lsa-da, ularda aholining iqtisodiy holati inobatga olinmadi. Turkistonning soliq va moliya tizimiga oid qabul qilingan har qanday me’yoriy hujjatlari Markaz manfaatlari uchun foydalanishning muhim vositasi bo‘lgan. Mazkur hujjatlar o‘lkada soliq turlarining ko‘payishiga, ularni undirish va tinimsiz oshirish, yangi ko‘rinishda tatbiq etish, soliq majburiyatlarini bajarmaganlik yuzasidan javobgarlik masalalarini joriy etilishiga sabab bo‘ldi. Soliqlarni sinfiy yondashuvlar asosida olib borilganligi natijasida soliq to‘lovchi aholining huquqlari paymol etildi.

Сноски/ Iqtiboslar/References:

1. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловием автора. Часть I. 1917-1919 гг.-Ташкент: Узбекгосиздат, 1925.(Ryskulov T.Revolution and the indigenous population of Turkestan.1925y); Хидыралиев И.Басмачество и народное хозяйство Ферганы// Военная мысль и революция. 1923.-№4.-С.43-49.(Khidiraliev I.Basmachism and the nashional economu of Fergana.1923y); Дервиш. [Турақулов Н.] Ферганская проблема// Военная мысль.Кн.II.-Ташкент, 1921.-С.108-118. (Dervish.[Turakulov N.]Fergana problem. 1921); Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана).-Москва: Госиздат, 1921.(Safarov G.Colonial revolution.-Moskow,1921y).

2.Radjapov Q.K. Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924-yillar), tarix fani nomz.diss.-Toshkent, 1995; Абдуллаев Р.Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Автореф. дис…. канд.ист.наук.-Ташкент, 1998; Зияева Д.Х.Национально освободительное движение в Туркестане в историографии 20 века (проблемы изученияистории восстания 1916 года и движения«истиклолчилик» (1918-1924 гг.) -Ташкент, 1998; Xaydarov M.Turkistonda sovet hokimiyatini mrkazlashtirish siyosati oqibatlari (1917-1924 yillar). Tarix fanlari nomz.diss. - Tashkent, 1998; Набиев Ф. Проблемыи противоречия социальной политики в Туркестане (1917-1924 гг). Дисс.докт.ист.наук.-Ташкент, 1995; Агзамходжаев С. Туркистон мухторияти: борьба за свободу и независимость (1917-1918 гг.): Автореф. дис.докт. ист. наук.-Ташкент, 1996; Rasulov A. Turkiston va Volgabo‘yi,Uraloldi xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar tarixi (1917-1924 y) tarix fan.dokt.diss.-Toshkent, 2005; Jumaev U. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix fanlari nomz.diss. - Tashkent,

2012; Raxmatov M. Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlati (1917-1924y). Tarix fanlari bo‘yicha fal.dok (PhD)diss.-Toshkent, 2019; Rejabboev N.Sovet hokimiyatining Turkistondagi oziq-ovqat siyosati va uning oqibatlari (1917-1924 y). Tarix fanlari bo‘yicha fal.dok (PhD)diss.-Toshkent, 2019.

3.Масленникова А.А. Налоговая политика советской России в 1917-1929 гг. (историка правовой анализ). Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Нижний новгород, 2004.-29с; Кабанов А.А.Налоговая политика и налоговая идеология в эволюции государственно-правовой системы России с 1917 по 1992 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид. наук.-Санкт-Петербург, 2008.-21с; Ким Т.И. Советская государственная налоговая политика в период НЕПА 1921-1929 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Краснодар,2011; Сибботина И.В. Налоговае законадательство и налоговая политика в годы НЭПа (1921-1930 гг). Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Москва., 2008.-28с; Корпоненко С.В. Податкова политика Рядянской влади в Украинскому селу у видбудовчий период 1921-1925 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.ист. наук.-Донецк, 2000.-20с.; Мирпочоев Д.А. Налоговая политика Республики Таджикистан в условиях перехода к рыночной экономике. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.эконом. наук.-Краснодар, 2007.-24с.; Соколов А.С. Финансовая политика советского государства в годы НЭПА 1921-1929 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.док.ист.наук.-Москва, 2006.-36с.

4. Комолов Д.П. Экономические репрессии проведённые революционными трибуналами в Туркестане//Ceneral history and culture-the foundation of unity and sustainable development of turkic peoples international scientific and practical conference.apriL 7-8, 2005. 102-105-р.

5.Национальный архив Узбекистана, фонд Р-38, опись-2, дело-270, листы 29-30.

6. Бобоев Ф. Ўрта Осиёда сайлов тизимидаги адолатсизликлар ва унинг совет ҳокимиятига қарши курашнинг кучайишига таъсири // Доно Зиёева номидаги “Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари (XIX-асрнинг иккинчи ярми XX аср охири)”.-Тошкент, 2022.Ўз ФА “Фан”. 270-274-б.

SAMARQAND TO’QIMACHILIK SANOATI TARIXI

Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
0000-0003-1759-5365

Annotatsiya. Maqolada Samarqand to’qimachilik sanoati tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yengil sanoat tarmoqlaridan bo‘lgan pillakashlik, shoyi ishlab chiqarish, trikotaj va tikuvchilik tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Xususan, to’qimachilik sohasida tashkil etilgan hunarmandlik ustoxonasi, artel, sexlar va fabrikalar faoliyati yoritib berilgan. Fabrikalar faoliyati va tumanlarda tashkil etilgan filallardagi yutuqlar haqida ham fikrlar keltirilgan. Ishlab chiqarishda ustoz-shogird an’anasi mavjud bo’lgan. Samarqand fabrikalarida ip-kalava, matolar, tayyor kiyim-kechaklar, ko’rpa-tushaklar va gilamlar ishlab chiqilgan va mahsulotlar jahonga mashhur bo‘lgan. Mazkur fabrikalarda o‘zbek milliy naqshlari bilan bejirim naqshlangan do‘ppi, so‘zana, parda, milliy tuy sarpolari kabi qirqdan ortiq turdagi mahsulotlar ham ishlab chiqarilgan. Davlat tomonidan joriy etilgan besh yillik rejalar va kunlik topshiriqlar 110-115 foizga bajarilgan. Shu bilan birga fabrikada o‘z ishiga e’tibor bilan qaragan ishchilar ham bor bo’lib, ular haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Keltirilgan ma’lumotlar qator adabiyotlar, manbalar, matbuot materiallari va suhbatlardan olingan ma’lumotlar asosida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand, artel, to‘qimachilik sanoati, ip-gazlama, hamkorlik, fabrika, loyiha, paxta, majburiyat, mutaxassis, ishlab chiqarish.

ИСТОРИЯ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ САМАРКАНДА

Утаева Феруза Холмаматовна
доцент (PhD)Бухарского государственного университета

Аннотация. В статье представлена информация об истории текстильной промышленности Самарканда. История шелководства, шелководства, трикотажа и шитья, являющихся отраслями легкой промышленности, уходит корнями в глубь веков. В частности, освещена деятельность ремесленных мастерских, артелей, цехов и фабрик, созданных в текстильной отрасли. Также представлены мнения о деятельности фабрик и достижениях в филиалах, созданных в районах. В производстве существовала традиция наставник-ученик. На Самаркандских фабриках производились пряжа, ткани, готовая одежда, постельные принадлежности и ковры, и их продукция стала всемирно известной. На этих фабриках также производится более сорока видов продукции, включая тюбетейки, сюзане, занавески и национальные свадебные наряды, украшенные узбекскими национальными узорами. Введенные государством пятилетние планы и ежедневные задания выполнены на 110-115 процентов. Вместе с тем на фабрике он внимательно относился к своей работе.

Ключевые слова: Самарканд, артель, текстильная промышленность, пряжа, кооперация, фабрика, проект, хлопок, обязательство, специалист, производство.

HISTORY OF THE SAMARKAND TEXTILE INDUSTRY

Utaeva Feruza Kholmamatovna
associate professor of Bukhara State University, Doctor of Historical Sciences (PhD)

Abstract. The article provides information about the history of the Samarkand textile industry. The history of silk reeling, silk production, knitting, and sewing, which are branches of light industry, goes back many centuries. In particular, the activities of handicraft workshops, artels, workshops, and factories organized in the textile industry are highlighted. Opinions are also given on the activities of the factories and the achievements of the branches organized in the districts.

In production, there was a master-student tradition. Samarqand factories produced yarn, fabrics, ready-made clothing, bedding, and carpets, and their products became world-renowned. These factories also produce more than forty types of products, such as skullcaps, suzani, curtains, and national wedding garments decorated with Uzbek national patterns. Five-year plans and daily tasks implemented by the state have been fulfilled by 110-115 percent. At the same time, he was attentive to his work at the factory.

Keywords: Samarkand, artel, textile industry, cotton, cooperation, factory, project, cotton, obligation, specialist, production.

KIRISH. Mamlakatimizda sanoatning tarmoqlari ichida to’qimachilik sanoat muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u paxta, ipakchilik, zardo‘zlik, trikotaj, tikuvchilik, charm va poyafzal ishlab chiqarish faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolada O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati taraqqiyotida Samarqand toqimachilik sanoati tarixida “Xotin qizlar mehnati” arteli, Samarqand “Hujum” pillakashlik, 26 Baku komissari nomli “Shoyi to’qish”, “8-Mart” kiyim tikish va poyafzal fabrikalar faoliyati va xotin-qizlarni yengil sanoat sohasida tajribasini orttirish va ishchi kadrlar tayyorlash tarixi va o‘rni haqidagi ma’lumotlar bir qator adabiyotlar, arxiv ma’lumotlari va davriy matbuot materiallari va metodologik tahlil qilgan holda bayon etilgan.

Asosan

1. Tadqiqot jarayonida olib borilgan suhbatlar
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, nashrlar
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr yetilgan tadqiqotlar asosida bayon etildi.

Metodlari. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Samarqandda to’qimachilik sanoati 1924-yildan keyin takomillashib borgan. 1927-yildan elektirlashtirish sanoat tarmoqlarida siljishlarga turtki bo’lgan. 1927-yildan Samarqand “Hujum” pillakashlik fabrikasi, 1934-yil 1-noyabrda artellar birlashtirilib, “Shoyi to‘qish” fabrikasi yuqori quvvatda ishlay boshlagan, “Bolalar oyoq kiyimi”, 1935-yilda esa 2-poyafzal fabrikasi qurilgan. “Quyosh arteli”, “Progress” arteli Siyob rayonida invalidlar hunarmandchilik bilan shug’ullanadigan sanoat sexi, “Xotin-qizlar mehnati” arteli, “8-Mart” kiyim tikish va poyafzal fabrikasi, “Bofanda” arteli, Samarqand trikotaj fabrikasi. Ikkinchi jahon urushi yillari ko’chirib keltirilgan texnika va texnologiyalar va ishlab chiqarishni ko’paytirish natijasida tajribalar yana oshirilgan.

Jumladan, Samarqand “8-Mart sanoat kooperativ” arteli Samarqand shahrining sharq qismida 1928-yil 28-fevraldagi artel boshqaruvining 1-son qaror bilan tashkil etilgan bo’lib, 7-mart kuni SamOkrtorg tomonidan ro’yxatga olingan. Samarqand shahridagi “8 Mart” nomidagi tikuvchilik fabrikasi O‘zbekiston SSR Yengil sanoat xalq komissarligi Tikuvchilik boshqarmasi tasarrufiga tegishli bo’lib, 1930-yil 12-martdan faoliyatini davom ettirgan. 1932–1933-yillarda fabrika O‘zbekiston Davlat tikuvchilik sanoati tresti “O‘zbekShveyProm” tasarrufida bo‘lgan. 1934 yilda O‘zbekiston SSR Yengil sanoat xalq komissarligi Tikuvchilik bosh boshqarmasi tasarrufiga o‘tgan. 1935-yilda O‘zbekiston SSR Yengil sanoat xalq komissarligi tarkibiga kiritilgan. 1937-yilda Respublikadagi “O‘zbekShveyTrest” tikuvchilik sanoati tresti tarkibiga o‘tgan. 1941-yilda O‘zbekiston SSR Yengil sanoat xalq komissarligi tarkibiga qaytarilgan. [1]

1943-yil 27-sentabrda O’zSSR Xalq Komissarlari Kengashining №1382 va 1943-yil 16-oktabrdagi №1357-sonli qarorlari, shuningdek O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Yengil sanoat bosh boshqarmasining 1943-yil 8 martdagi №36-sonli buyrug‘iga muvofiq tikuvchilik kooperativi sifatida qayta tashkil etilgan. Trikotaj xizmat ko‘rsatish arteliga birlashtirilgan. Artel nomi “8 mart Trikotaj” fabrikasi deb o‘zgartirilgan. Boshqaruv organi O‘zbekiston SSR Yengil sanoat xalq komissarligi huzuridagi Respublika trikotaj kooperatsiyasi

birlashmasi hisoblangan. Asosiy faoliyati trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish [2] bo’lib, xalq ihtiyojlariga xizmat qilgan. 1943-yili trikotaj xizmat ko’rsatish arteliga birlashtirilgan.

1946-yildan boshlab esa O‘zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligiga qarashli bo‘lgan. 1950-yildan boshlab, ishlab chiqarish tarmog’ini kengaytirib,quruvchilar uchun kastyum, maktab formasi, ichki kiyimlar, choyshablar ishlab chiqarish hajmi 1214495 dan 1493733ga ko’tarilgan.

1951-yil “8-Mart” fabrikasining Trikotaj sexida bosh injeneri L.Lipiyuk rahbarligida injener-texnik xodimlar ishlab chiqarish rejasini 7 foizga bajarish topshirig’i asosida ishlaganlar. [3] “8-Mart” tikuvchilik fabrikasida Sofiya Sharipova shu fabrikada 1940-yildan buyon ishlagan. 1960-yil Partiya XXIV syezdi sharafi uchun mahsulot ishlab chiqarish majburiyatini olib, to’qimachilik sanoati rivojiga hissa qo’shgan.

1970-yil Samarqand “8-mart” tikuvchilik fabrikasining mexaniklari Genadiy Ivanovich Kildiyarov va Genadiy Kazakovlar fabrika jihozlarini o’z vaqtida ta’mirlab, mehnat unumini oshirishga hissa qo’shganlar.

1980-yil Samarqand “8-mart” tikuvchilik fabrikasi ishchisi E.M.Voronsov 297-Shaymyan saylov okrugidan qatnashgan. Birlashma jamoasi Lenin tavalludining 110 yilligini 152 kishi shaxsiy besh yillikni bajargan. Tashkilotchilik bo’limi rahbari Mixaylovich Tyjelnikov Toshkentdan fabrikaga “Qizil bayroqni” olib kelgan. Fabrika jamoasi 1982-1983-yillar uchun mehnat qilganlar. Samarqand viloyat partiya komiteti birinchi kotibi B.R.Rahimov fabrika ilg’orlarini tabriklagan. [4]

Samarqand to’qimachilik sanoatining rivojlanishida “Shoyi to’qish” fabrikasi ham alohida ahamiyatga ega. 26 Baku komissari nomli “Shoyi to’qish” fabrikasida 1970-yil yillik topshiriqdan tashqari 12 ming metr birinchi sortli shoyi gazlama to’qilgan.

1989-yil “Shoyi to’qish” birlashmasida yoshlar ko’pchilkni tashkil etgan. Ular ishni o’zaro musobaqa asosida tashkil etib, mehnatda yutuqlarni qo’lga kiritgan. Sex komsomol tashkilotining kotibi Qunduzxon Hojiyeva va VLKSM a’zosi Komila Nabiyevalar rejani ortig’i bilan bajarganlar.

Samarqand “Hujum” pillakashlik fabrikasi ishchilari uchun fabrika yonida bog’cha tashkil etilgan bo’lib, 1960-yil bog’chada 125 ta farzand tarbiyalangan. Yoshiga qarab 6 guruhga bo’lingan. Hattoki, bog’cha tarbiyachilari katta guruh bolalariga bichish-tikishni o’rgatganlar. O‘zbekistonda to‘qimachilik, xususan, ip-gazlama sanoatini rivojlantirish uchun yetarlicha xomashyo bazasi uchun sharoit yaratishga e’tibor qaratilgan.[5] O’zbekistonda ishlab chiqilgan xom ipakning 15 foizi 1969-yil Samarqand “Hujum” pillakashlik fabrikasida ishlangan. Faqat 1960-1970-yillarda Respublikada ipakchilik sanoati mahsulot ishlab chiqarishni 3,9 martaga ko‘paytirilgan. Bu davrda Samarqand ipak yigirish fabrikalarida ishlab chiqarishga alohida e’tibor berilgan.[6]

“Xotin qizlar mehnati” arteli haqida so’z yuritadigan bo’lsak, 1945-yildan keyin arteliga ko’plab xotin-qizlar jalb qilinib, xalqi uchun kerakli bo’lgan ko’rpa-tushak, gilam, erkaklar va ayyollar ko’ylagi tikib, berilgan topshiriqlarni ortig’i bilan bajarganlar. 1950-1960-yillarda “Xotin qizlar mehnati” artelida berilgan majburiyatni 150-160 foizga bajargan. 1970-yillarda fabrika maqomiga erishib, yangi jihozlar bilan ta’minlangan, binolar ta’mirdan chiqarilgan.

Samarqand “Xotin qizlar mehnati” tikuvchilik birlashmasining Qo’shrabot tumanidagi filiali 1989-yil ochilgan. 1989-yil Samarqand trikotaj fabrikasi 1-sex ishchilari Zuhra Galiyeva, Ruxsora Jo’rayeva o’z mehnat faoliyatida juda ko’p shogirdlar tayyorlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, ko‘p millatli Samarqand xalqi ipakchilik, trikotaj va tikuvchilik sanoati fabrikalarida ishlab ish tajribasini orttirgan. Samarqand viloyatidagi to’qimachilik sanoati tarmoqlari rivojlangan. Asosan, to‘qimachilik sanoat korxonalari homiyligida ko‘pgina bilim yurtlari, maktablar, tibbiyot maskanlari va madaniy maskanlar qurilgan. Fabrika ishchilari ish tajribasini orttirish uchun respublikaning turli viloyatlaridagi to‘qimachilik kombinatlariga amaliyotga yuborilgan. Hattoki, yozgi uch oylik ta’tilda talabalar va maktabning yuqori sinf o‘quvchilari fabrikalarda ishlab tajriba orttirib o‘z mehnatlari bilan Samarqand to‘qimachilik sanoatini salmog‘ini oshirishga hissa qo‘shgan.

Tavsiya o’rnida, to’qimachilik sanoati fabrikalari qurilish tarixi, ishlab chiqarish jarayoni,

xalqaro hamkorlik o’rnatilgan davlatlardan keltirilgan to’qimachilik sohasidagi dastgoh ya’ni mashinalarni to’plangan rasmlar orqali albom tayyorlash mumkin. Xalqaro turizmni rivojlantish uchun to’qimachilik sanoatida ko’rgazmalar tashkil etish ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlarva manbalar

1.Самарқанд вилоят давлат архиви Ф 871, 1-рўйхат, 143-йиғма жилд, 1-варақ.

2.Самарқанд вилоят давлат архиви Ф 288, 1-рўйхат, 195-йиғма жилд, 1-варақ

3. Ilg’orlar tajribasi asosida // Lenin yo’li 1951-yil 19-may. №97 (5963).

4. G.Aliyev // Samarqanddagi “8-Mart” tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi. Lenin yo’li 1980-yil, 19-mart №55(15.024).

5.Мақсудов Р.Х., Ҳайитов И.С. Тўқъимачилик тарихи. Тошкент - «Илм зиё» 2015. –Б 121.

6.Жўраева Н. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20 -80 йиллари мисолида) (ўқув қўлланма). Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти Тошкент — 2013.-Б 183.

7. Kholmamatovna, U. (2025). From The History of The Bukhara Knitting Factory. Jurnal Ilmu Arkeologi Indonesia, 1(1), 8-8.

8. Utayeva, F. (2025). Yengil sanoat tarmog’i bo‘lgan to‘qimachilik sanoati tarixi.» Педагогическая Акмеология» международный научно-методический журнал, 1(18).

9. Xolmamatovna, U. F. (2025). Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda yengil sanoatning o‘rni. ИКРО журнал, 14(02), 44-50.

ИЖРО ҲОКИМИЯТИДА ФАОЛИЯТ ЮРИТУВЧИ ХОТИН-ҚИЗЛАР:РИВОЖЛАНИШ ВА РАҲБАРЛИКДАГИ ЎРНИ

Холикулова Ҳулкар Юлдашевна,
Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академияси доценти
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация. Мазкур мақолада ижро ҳокимияти тизимида хотин-қизларнинг иштироки, раҳбарлик лавозимларидаги ўрни ва гендер тенгликка эришиш жараёнлари таҳлил этилган. Охирги ўн йилликларда дунёда ва Ўзбекистонда аёлларнинг давлат бошқарувидаги иштироки рақамлар асосида қиёсий ўрганилган. Тадқиқотда скандинав давлатларида ижро ҳокимиятида аёллар улуши юқори экани, Ўзбекистонда эса парламентга нисбатан ижро ҳокимиятида хотин-қизлар сони анча камлиги кўрсатилган. Шу билан бирга, Ўзбекистонда 1990-йиллардан буён қабул қилинган давлат дастурлари, фармон ва қарорлар натижасида аёлларнинг раҳбарлик лавозимларидаги иштироки аста-секин ошиб боргани қайд этилган. Айниқса, 2020 йилдан кейин аёллар сонининг сезиларли ўсиши кузатилган ва давлат бошқарувида хотин-қизлар улушини ошириш бўйича янги стратегиялар амалга оширилмоқда. Мақолада гендер тенгликни таъминлаш, раҳбар аёллар сонини кўпайтириш ва хотин-қизларнинг давлат ҳамда жамият ҳаётидаги фаоллигини оширишга қаратилган ислоҳотлар мазмунан ёритилган.

Калит сўзлар: Ижро ҳокимияти, хотин-қизлар, раҳбарлик, гендер тенглик, давлат бошқаруви, парламент, сиёсий ислоҳотлар, гендер стратегияси, гендер сиёсати, барқарор ривожланиш.

Охирги ўн йилликлар давомида бутун дунёда ижро этувчи ҳокимият тизимида, ҳокимликларда нега аёллар жуда кам экани ҳақидаги баҳслар тўхтамаяпти. Тадқиқотчиларнинг берган маълумотларига кўра, турли мамлакатларда ижро ҳокимияти раҳбарлик лавозимларида аёллар улуши ўртача 8–10 %ни ташкил этади. Фақатгина Скандинавияда бу кўрсаткич анча юқори бўлиб, 25–40 %га етган. Парламентларда эса аёллар улуши ижро ҳокимиятига қараганда юқорироқ бўлиб, Европада 21,2 %дан Скандинавияда 41,4 %гача ўзгариб туради. Ўзбекистонда ҳам парламентдаги аёллар улушига нисбатан ижро ҳокимияти тизимида аёллар сезиларли даражада озчиликни ташкил қилади.

Дунёдаги 22 та давлатни, хусусан Грузия, Тайвань, Непал, Молдова, Сингапур, Эфиопия, Греция, Словакия Тринидад ва Тобаго давлатларини бугун аёллар бошқармоқда. 16 та давлатнинг бош вазирлари аёллардир.Исроилда 27 нафарвазирдан 9 таси аёллардир.

Норвегия, Швейцария, Нидерландия, Босния, Франция, Габон, ЖАР, Кения, Эфиопияда мудофаа вазирлари аёл кишилардир .

Ўзбекистонда эса ижро этувчи органлар тизимидаанча йиллар давомида эркаклар юқори лавозимларнинг 94 % и, асосий раҳбарлик лавозимларининг 85 % и ва етакчи лавозимларнинг 68 %ини эгаллаган. Шу билан бирга, аёллар қарор қабул қилиш ваколатига эга бўлмаган лавозимларда фаолият юритмоқда. Ҳусусан ижро этувчи ҳокимиятда вазир лавозимида аёллар жуда кам. Ўзбекистонда 21 та вазирлик бўлса шулардан бир нафари аёл кишидан иборат. Вазир ўринбосари лавозимида ҳам аёллар бор йўғи 4 нафарни ташкил қилади.

«Катта» ходимлар гуруҳи – мустақил бўлмаган тузилмавий бўлинмалар раҳбарлари, уларнинг ўринбосарлари, консультантлар ва маслаҳатчиларнинг деярли ярми аёллардан иборатдир. «Кичик» гуруҳда эса аёллар улуши янада юқори бўлиб, 80,6 % ни ташкил этади.

Сўнгги ўн йилликда Ўзбекистонда давлат бошқаруви структураларида аёллар улуши бироз ошган бўса-да, улар ҳокимият тузилмасинингқуйи поғоналарида кўпроқ учраб, юқорилаган сари уларнинг сони ҳали ҳам камлигини кўришимиз мумкин. Қишлоқ ва шаҳарлар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак,Ўзбекистонда сўнгги йилларда вилоят

ва шаҳар ҳокимият тузилмаларида аёллар улуши доимо паст бўлиб, 6–9 % атрофида сақланган. Шаҳарларда эса уларнинг сони қишлоқларга нисбатан юқорироқ бўлса-да, лекин барибиршаҳарда лидераёлларулуши 2-3 %дан ошмайди .

Маъмурий бошқарув органлари, вазирлик ва давлат қўмиталарида фаолият юритаётган аёллар улушини йиллар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак, 1991-1995 йиллардамаъмурий бошқарув органларида аёллар сони 18%,вазирлик ва давлат қўмиталарида 1,8 фоизни ташкил қилган бўлса , 1995-2000 йилларда маъмурий бошқарув органларида аёллар сони 15 фоизга камайган, вазирлик ва давлат қўмиталарида 1,8 фоизлигича ўзгаришсиз қолган .

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти томонидан 1995 йил 2 мартда имзоланган “Ўзбекистон Республикаси давлат ва жамият қурилишида хотин-қизлар ролини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонда хотин-қизларни ижтимоий-иқтисодий, маданий-маърифий масалаларни ечиш ишларига кенгроқ жалб қилиш, давлат ва жамият бошқарувларида уларнинг кенг иштирокини таъминлаш, оилалар ижтимоий ҳимоясини кучайтириш, шунингдек, мазкур соҳаларда турли идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида Бош вазир ўринбосари вазифасининг ташкил этилганлиги уқтирилади. Республиканинг ҳокимликлари барча тизимларида ҳоким ўринбосари вазифасига ҳам хотин-қиз кадрлар тайинланадиган бўлди.

Ижро ҳокимияти органларида аёллар улуши анча кам бўлиб, бу кўрсаткич асосан квота тизимига боғлиқ ҳолда ошади (яъни, Бош вазирнинг аёллар муаммолари бўйича ўринбосарини тайинлаш ва маҳаллий ҳокимият органларида тегишли лавозимларни жорий этиш орқали). 2001 фақат уч нафар аёл вазир ўринбосари лавозимида фаолият юритган ва бирорта ҳам вазир аёл киши бўлмаган. 163 та туман хокимлигидан фақат тўрттасидагина аёллар хоким лавозимини эгаллаган. Бирор бир аёл вилоят хокими лавозимини эгалламаган.

2002 йилдаги ҳолатга кўра ижро этувчи органлар тизимида юқори раҳбарлик лавозимида аёллар 15,3 %, эркаклар 84,7% ни,Вазирлар Маҳкамасида аёллар 16,7%,Ўзбекистон Республикаси вазирлар кенгашида 12,5 %, ҳоким ва ҳоким ўринбосарлари лавозимида аёллар 11,9%ниташкил қилган бўлса, 2005 йилга келиб Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасида 3,4% олий раҳбарлар 11,1%, вазирлар ва давлат қўмиталари раислари орасида биронта аёллар мавжуд бўлмаган .2002 йилдан 2005 йилгача юқори раҳбарлик лавозимида аёллар сонида пасайиш кузатилган ва бу кўрсаткич 2009 йилгачасақланиб қолган. Масалан, 2009 йилда ижро ҳокимияти органларида раҳбарлик лавозимларини эгаллаган аёллар улуши 15,3 фоизни ташкил этган. Жумладан: Вазирлар Маҳкамасида — 16,7 фоиз, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашида — 12,5 фоиз, хокимлар ва уларнинг ўринбосарлари орасида эса — 11,9 фоиз аёллардан иборат бўлган . Умумий тарзда 2000 йилдан 2010 йилгача 16 фоиз, 2011 йилдан 2017 йилгача маъмурий бошқарув органларида аёллар сони 17 фоиз, вазирлик ва давлат қўмиталарида 2,1 фоизни ташкил қилганва илк бора Галина Саидова 2011-2017 йилларда Иқтисодиёт вазири вазифасида фаолият юритган.

Мамлакатимизда хотин-қизлар қўмитаси раиси бир вақтнинг ўзида Бош вазир ўринбосари вазифасини ҳам бажаради. Вилоятлардаги аёллар қўмитаси раислари тегишли ҳудудлар ҳокимларининг ўринбосарлари ҳисобланади (14 нафар вилоят, 219 нафар туман ва шаҳар ҳоким ўринбосарлари).

Ўзбекистонда бугунги кунда молия ва иқтисодиёт вазирликларида икки нафар биринчи вазир ўринбосари лавозимида фаолият юритадиган аёллар бор. Шунингдек, “Адолат” социал демократик партиясининг парламент фракцияси, ва яна учта йирик жамоат фондига аёллар раҳбарлик қилади .

2016 йилда Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигида аёллар сони етарли даражада эмас эдилар; аёллар улуши 14,5 фоизни, эркаклар эса 85,5 фоизни ташкил этган. Маъмурий ва ёрдамчи ходимлар орасида аёллар 13 фоизни, эркаклар эса 87 фоизни ташкил этган. Техник ходимлар орасида аёллар улуши нисбатан юқори — 20,4 фоиз бўлиб,

эркаклар 79,6 фоизни ташкил этган.

Шу каби ҳолат ўрмон хўжалиги соҳасида ҳам кузатилади. Бу ерда аёллар улуши 16,9 фоизни, эркаклар эса 83,1 фоизни ташкил этади, раҳбариятда аёллар 13,2 фоиз, эркаклар — 86,8 фоиз; маъмурий ва хизмат кўрсатувчи ходимлар орасида аёллар 17,5 фоиз, эркаклар эса 82,5 фоизни ташкил этади. Ўрмон хўжалигининг маҳаллий ташкилотларида ишловчи ходимларнинг 90 фоизидан ортиғи — эркаклар. Ўрмончи касби кўпроқ эркаклар учун мос ҳисобланади, чунки бу иш тури белгиланмаган иш вақти ва мунтазам равишда ишдан ташқари вақтда меҳнат қилишни талаб қилади. Ўрмон хўжалиги мутахассислиги йўналишида ўқийдиган қизлар орасида унчалик бу соҳа оммалашмаган, улар ўз касбий фаолиятини бу соҳада кўришни хоҳламайдилар.

2020 йилдан кейин аёллар орасидан раҳбарлик лавозимида ишлайдиганлар сони анча ўсганини кўришимиз мумкин. 2020 йили илк маротаба Феруза Махмудова Исроил давлатига элчи қилиб тайинланди.Айни пайтда Ўзбекистонда 170 нафар туман ва 25 нафар (вилоят ва республика бўйсинувидаги) шаҳар ҳокими орасида фақат 6 нафар аёл фаолият юритмоқда. 2020 йил 20 январь куни ўтган Сенатнинг биринчи ялпимажлисиданутқсўзлаганпрезидентШавкатМирзиёевтуманҳокими лавозимига аёлларни қидираётгани, муносиб номзодларни амалда синаб кўриши ҳақида айтганди .

Бунинг натижасида хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилди.Бу ўз навбатида лидер аёллар сонининг ошишига таъсир кўрсатди.

Масалан, тадбиркорлик соҳасида раҳбарлик лавозимида етакчилик қилаётган аёллар сони37 %, олий таълим муассасаларида эса 48%га етди. 2020 йилнинг 1 март ҳолатига кўра, Ўзбекистондаги 20 та вазирликнинг марказий аппаратида 849 нафар ёшлардан 210 нафари (24,7%) ни ёш хотин-қизлар ташкил қилган. Гендер тенглиги бўйича энг юқори кўрсатгич Сув хўжалиги (65,2%) ва Адлия (50%) вазирликларида бўлса, энг паст кўрсаткич Иқтисодиёт ва санъат (6,7%) ҳамда Қишлоқ хўжалиги (6,9%) вазирликларида қайд этилган . Шу ўринда қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Барқарор Ривожланишини амалга оширилишининг биринчи мониторинг бўйича Миллий шарҳ лойиҳасида раҳбар лавозимидаги аёллар улуши 27,7% (2015)дан ,2024 йилда35% га ошди .Шулардан, 7,7% и вазирликлар ва давлат қўмиталарида фаолият юритадилар.

Давлат бошқарувида хотин-қизлар улушини янада ошириш мақсадида “Давлат бошқарувида хотин-қизлар фаоллигини ошириш дастури” ишлаб чиқилди ва ижрога қаратилди. Дастур доирасида турли соҳаларда бошқарувчилик салоҳиятига эга 25 055 нафар хотин-қизнинг кадрлар захираси шакллантирилди . Бу жараёнга Ўзбекистон Президентининг 2020 йил 22 июндаги Фармони билан Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегияси тасдиқланганлиги салмоқли таъсир кўрсатди. Чунки Президент парламентга тақдим этган Мурожаатномаси ижроси доирасида Сенат Раиси раҳбарлигида Республика Хотин-қизлар жамоатчилик кенгаши ташкил этилди . Биргина шу далил ва рақамларнинг ўзи ҳам юртимиз аёлларининг жамиятда ҳақиқий ўрнини эгаллаб бораётганидан далолат беради. Бинобарин, хотин-қизлар ва ёшларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳар томонлама таъминлаш олиб борилаётган ислоҳотларнинг устувор йўналишларидандир. Давлатимиз раҳбари БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгаши 46-сессиясидаги чиқишида мамлакатимизда гендер сиёсати қатъий давом эттирилишини таъкидлагани бежиз эмас. 2021 йилда Ўзбекистонда 2030 йилгача мўлжалланган Гендер тенгликка эришиш стратегияси тасдиқланди. Гендер стратегиясида БМТнинг 2030 йилгача мўлжалланган Барқарор ривожланиш мақсадларига мувофиқ ҳолда барча соҳаларда хотин-қизлар ва эркаклар ўртасида тенглик тамойилини татбиқ этишга ҳамда иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётда гендер тенглик тарғиб қилинишини таъминлашга қаратилган комплекс чора тадбирларни амалга оширишни назарда тутилган. Мазкур Стратегияда барча учун тенг ҳуқуқ ва сифатли таълимни таъминлаш, қишлоқ

жойларида қизларнинг олий маълумотга эга бўлиши, хотин-қизлар гендер тенглигига эришиш, зўравонликка йўл қўймаслик, одам савдосининг олдини олиш каби масалалар қамраб олинган. БМТ Барқарор ривожланиш мақсадлари бажарилишини аниқлашга қаратилган 32 та гендер индикаторини қабул қилганимиз ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этмоқда .

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

NUTQIY AKTLAR: NAZARIYA, EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA O‘RNI

Akramova Surayyo Renatovna,
BuxDPI boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi zamonaviy tilshunoslikda tez-tez tilga olinayotgan nutqiy aktlar, uning she’riyatda, ijod namunalarida ifodalanishi, zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni haqida nazariy, shuningdek, tahliliy jihatdan yoritilishi o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, evolyutsiya, zamonaviy tilshunoslik, she’riyat.

Аннотация. В данной статье содержится теоретическое, а также аналитическое освещение часто упоминаемых в современной лингвистике речевых актов, их выражение в поэзии, образцах творчества, их роли в современной лингвистике.

Ключевые слова: речевой акт, эволюция, современная лингвистика, поэзия.

Annotatsion. This article contains theoretical as well as analytical coverage of speech acts often mentioned in modern linguistics, their expression in poetry, creative patterns, and their role in modern linguistics.

Key words: speech act, evolution, modern linguistics, poetry.

Tilshunoslikda nutqiy aktlar nazariyasiga asos slogan olimlardan biri — Jon L. Austin bo‘lib, u lokutsional, illokutsional va perlokutsional aktlar tushunchalarini ilgari surgan. Keyinchalik Jon Searle bu nazariyani yanada rivojlantirib, nutqiy aktlarni tasniflash va badiiy matndagi funksiyalarini tahlil qilishni chuqurlashtirgan. Zamonaviy tilshunoslarda esa Levinson, Grice va boshqalar pragmatik kontekstni hisobga olgan rang-barang yondashuvlarni taklif etishgan.

A. Austinning nutqiy aktlar nazariyasi: uch bosqichli yondashuvga asoslangan bo‘lib, John L. Austin tilshunoslikda nutq faqat ma’lumot uzatish vositasi emas, balki harakatni bajaruvchi vosita ekanini ta’kidlaydi. U nutqiy aktlarni quyidagi uch bosqichga ajratadi:

1. Lokutsional akt – gapning aytilishi, ya’ni tovush, sintaksis va ma’no jihatidan ifodalangan turli elementlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “Eshikni oching” gapining o‘zi shu darajada lokutsional aktdir.

2. Illokutsional akt – gap aytish orqaligina amalga oshiriladigan niyat, masalan “iltimos qilmoq”, “buyurmoq”, “va’da bermoq”. «Eshikni oching» bu yerda buyruq — illokutsional akt sifatida ko‘rinadi.

3. Perlokutsional akt – gap aytilishidan keyin tinglovchida yuzaga keladigan ta’sir: tinglovchi eshitib eshikni rostdan ochirsa, bu perlokutsional akt sanaladi

Kognitiv pragmatik yondashuvlar (George Lakoff, Ronald Langacker, Charles Fillmore kabi) nutqiy aktlarni inson ongiga, kontekstga va metaforik tusga bog‘lash orqali tushuntiradi. Antroposentrik tilshunoslik esa — tilni inson sub’ekti, uning ijtimoiy-ruhiy holati va olami orqali o‘rganadi — mavjud badiiy matnni ham inson markazida tahlil qiladi.

Til ijtimoiy hodisa ekan, u muloqotda yashaydi va rivojlanadi. Muloqotdan ajratilganda esa, o’z mavqeyini yo’qota boshlaydi. Inson borki, yuzaga keladigan barcha vaziyatlarda, ya’ni turli xil muloqot jarayonlarida tildagi barcha imkoniyatlardan va vositalardan to‘liq foydalanishga harakat qiladi. Tildagi ana o’sha vosita va imkoniyatlar tilning naqadar boy til ekanligini ko’rsatib beradi. Insonlar o’rtasidagi muloqot birligi – bu insonlarning nutqidir. Inson nutqi orqali tinglovchiga o’zining ko’zlagan maqsadini namoyon qilib beradi.

Insonlar orasidagi muloqot jarayoni faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va boshqaruvchi qurol sifatida ham xizmat qiladi. Har bir til jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy va madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy me’yor va rasm-rusumlarni aks ettiradi. Xususan, buyruq nutqiy aktlari ijtimoiy munosabatlarda suhbatdoshga qandaydir

harakatni amalga oshirish yoki taqiqlashni bildiruvchi lingvopragmatik birliklar sifatida alohida ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham tilshunoslikda nutqiy akt nazariyasini o'rganish doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Amerika psixologi Jon Searl aytadiki: "Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek simvol (ramz) so'z yoki gap emas, hatto simvol so'z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol so'z yoki gapning nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qo'llanishidir" .

Pragmalingvistika o'zbek zamonaviy tilshunosligida yangi rivojlanib borayotgan soha bo'lib, A.Nurmonov, Sh.Safarov, M.Hakimov, A.Hojiyev, O.Ahmanova, M.Gaziyeva kabi ko'plab tilshunos olimlar tadqiqotlarida uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, ilmiy-nazariy asoslari yaratildi .

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda tadqiqotlarning deyarli barchasi tajriba eksperimentga asoslanib tadqiq etilmoqda.zamonaviy tilshunoslik real hayotdagi nutqiy jarayonlarni bevosita o'rganishni, til hodisalarini ularning tabiiy muhitida tahlil qilishni talab etmoqda. Tilshunoslikni ulkan bir okeanga qiyoslasak, ko'plab tadqiqotlarda bu okean suvidan kichik bir namunani, ya'ni til hodisasining izolyatsiyalangan ko'rinishini – probirkaga solib o'rganishga o'xshash metodlar qo'llaniladi. Biroq, probirkadagi suv endi okean suvi emas, balki sun'iy sharoitdagi modda sifatida qaraladi. Xuddi shuningdek, nutq hodisalarini ham sun'iy yoki kontekstdan ajralgan misollar asosida o'rganish, ularning haqiqiy mohiyatini to'liq anglash imkonini bermaydi. Tilshunoslikda tabiiy nutq jarayonlarini chuqur tahlil etish uchun ularni bevosita kechayotgan muhitda, real kommunikativ vaziyatda kuzatish zarur. Nutqning kontekstual omillari, ya'ni nutqdan oldingi va keyingi vaziyatlar, ishtirokchilarning psixologik holati, ijtimoiy va madaniy fon – mazkur jarayonning ajralmas tarkibiy qismlari sanaladi. Ushbu omillar e'tibordan chetda qolsa, tadqiqotning haqqoniyligi va to'liqligiga putur yetadi. Shunday ekan, bugungi kunda tilshunoslik empirik va kontekstga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qilmoqda.

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan e'tirof etishgan. Nutqiy akt tushunchalarining yuzaga kelishi lingvistik pragmatika uchun va nutqiy jarayonni o'rganish asosida yuzaga keladi. Aytish mumkinki, nutqiy aktni muloqot tizimining asosiy tayanch birligi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Nutq akti ishtirokchilari umumiy nutqiy malakalar, bilimlar va dunyo haqidagi tasavvurlar fondiga ega.

Badiiy matnda nutqiy aktlar – bu shoirning sub'ektiv, ijtimoiy va madaniy holatini aks ettiradigan til vositalari. She'riy dialoglar, ichki monologlar, murojaatlar, iltimoslar va boshqa nutqiy aktlar – bularning barchasi qahramon obrazining psixologik portretiga xizmat qiladi.

Quyida Jamol Kamol ijodidan tanlangan she'r misollariga asoslangan bir nechta antroposentrik va nutqiy akt tahlillarini keltiraman:

"Haqiqat, men seni sevdim, seni xor aylasa millat..."

"Haqiqat, men seni sevdim, o'zing Robbimsan, Ollohim..."

Bu yerda shoir murojaat (illokutsional akt): "Haqiqat" – shoirning ichki ruhiy aloqasi sifatida ko'rinadi. Bu muroraq shoirning shaxsiy tajribasi, haqqoniylikka bo'lgan ichki muhabbati orqali ifodalangan, ya'ni bu antroposentrik yondashuvning yaqqol misolidir.

Quyida Jamol Kamol ijodidan tanlangan she'rlar asosida nutqiy aktlar turlarini (Austin va Searle klassifikatsiyasi asosida) antroposentrik yondashuv bilan birga tahlil qilaman. Har bir misolda:

1.Nutqiy akt turi

2.Matndan parcha

3.Antroposentrik talqin

4.Estetik-funktsional tahlil

"Ey haqiqat, yuragimda yonding sen,

Tongni kutgan bir g'amzadin qonding sen…"

Akt turi: Illokutsional murojaat – subyekt haqiqat bilan jonli muloqot qiladi.

Antroposentrik yondashuv: Haqiqat shoir uchun ob'ekt emas, balki ijtimoiy ongning

personifikatsiyalashgan shaklidir. Shoir unga yurak tilida so‘zlaydi.

Badiiy funksiya: Shoirning haqiqat bilan muloqoti falsafiy-estetik pozitsiyani ifodalaydi. Uning “Men” konsepti – ongli, shuurli, ijtimoiy faol shaxs portretini beradi.

2. Lokutsional akt – bayon, xotira

“Avtobusda turibman, shivirlaydi odamlar,
Kimdir gapiradi, kimdir jim,
Hamma… nimadir deyapti o‘ziga o‘zi”.

Akt turi: Lokutsional akt – oddiy voqelik tasviri, bayon

Antroposentrik yondashuv: Bu “tasvir” emas, balki shoirning dahlsiz kuzatuvchi sifatidagi ichki holati. U atrofdagi odamlar orqali jamiyat ruhiyatini anglayapti.

Funksiya: Ijtimoiy ongdagi sukunat, ichki bo‘g‘ilish, yolg‘iz qolgan insonlarning nutqsiz og‘rig‘i – bu poetik tildagi psixolingvistik holat.

3. Perlokutsional akt – ta’sir, o‘zgarish keltirish.

“Ey so‘z, sen mening imonimsan,
Sen bor, demak, men barhayotman”.

Akt turi: Perlokutsional akt – so‘z orqali ruhiy o‘zgarishga undash.

Antroposentrik yondashuv: So‘z – shoir uchun falsafiy va ruhiy tayanch. U inson “Men” ining kuchini so‘z orqali muqaddaslashtiradi.

Funksiya: O‘quvchiga ta’sir qilish – bu perlokutsional effekt. Shoirning imonini ifodalovchi bu nutqiy akt kuchli madaniy-kognitiv yuklamaga ega.

4. Komissiv akt – niyat, va’da, maqsad.

“Men yozaman – bu el uchun,
Yozaman – yurak dog‘larimdan…”

Akt turi: Komissiv akt – kelajakdagi harakatga va’da, niyat bildirish.

Antroposentrik yondashuv: Shoir – o‘z so‘zining javobgari. Bu va’da – faqat poetik niyat emas, balki ma’naviy va ijtimoiy pozitsiya.

Funksiya: El bilan shaxs o‘rtasidagi ko‘prik, shoirning milliy ongdagi rolini namoyon etadi.

Ekspressiv akt – his-tuyg‘u, kechinma.

“Kechir, so‘z, seni ba’zan unutaman,
Ba’zan yuragimdan so‘kinganman…”

Akt turi: Ekspressiv akt – ichki kechinmalarni bayon qilish.Antroposentrik yondashuv: Bu yerda so‘zga nisbatan o‘ziga xos munosabat – shoirning ichki etik pozitsiyasini ko‘rsatadi. So‘z bilan shaxs o‘rtasida jonli aloqadorlik bor.

Funksiya: Shoir kechinmalari – bu poetik “iqrorlik”. Ichki ziddiyatlar orqali estetik tozalikka erishiladi.

Jamol Kamol ijodida nutqiy aktlar faqatgina kommunikatsion vosita sifatida emas, balki badiiy-estetik va shaxsiy ongning ekspressiyasi sifatida ham xizmat qiladi. Har bir akt – shoirning dunyoqarashi, ruhiy holati va ijtimoiy-madaniy pozitsiyasini ifoda etadi. Antroposentrik tahlil bu aktlarning zamirida turgan inson, uning fikri, sezgisi va javobgarligini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muhammad Hakimov “O‘zbek plagmalingvistikasi asoslari”. T. Akademnashr; 2013, 89-91b.

2. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.

3. Akramova S.R. Poetik nutqning antroposentrik tahlili lingvistik hodisa sifatida (Jamol Kamol ijodi misolida). Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2025. 5-son.

4. Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. I jild. Asr bilan vidolashuv. – Toshkyent: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.– B.131.

O‘ZBEK TILIDA HAYVONLARGA XOS TOVUSH FE’LLARI

Alijonova Durdona Farxodjon qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada tovush fe’llari semantik guruhiga mansub hayvonlar, qushlar, parrandalar va hasharotlarning ovoz chiqarish harakatini, xususan, itning akillashi, qushning sayrashi, parrandaning qichqirishi, hasharotning vizillashi bilan bog‘liq akillamoq, bitbildamoq, qaqolamoq, bozillamoq kabi fe’llarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hayvon, parranda, hasharot, tovush, harakat, fe’l, tovush fe’llari, hayvonga xos tovush fe’llari.

Аннотация. В статье анализируются лексико-семантические особенности глаголов звука, относящихся к семантической группе звуковых действий животных, птиц, домашней птицы и насекомых, в частности таких глаголов, как akillamoq (лай собаки), bitbildamoq (щебетание), qaqolamoq (кудахтанье), bozillamoq (жужжание), которые связаны с лаем собаки, пением птицы, криком домашней птицы и жужжанием насекомых.

Ключевые слова: животное, птица, насекомое, звук, действие, глагол, глаголы звука, звуки, характерные для животных.

Abstract. The article analyzes the lexico-semantic features of sound verbs belonging to the semantic group of animal, bird, domestic fowl, and insect sound actions, in particular such verbs as akillamoq (dog barking), bitbildamoq (chirping), qaqolamoq (clucking), bozillamoq (buzzing), which are associated with the barking of a dog, the singing of birds, the cry of domestic fowl, and the buzzing of insects.

Keywords: animal, bird, insect, sound, action, verb, sound verbs, sounds characteristic of animals.

Kirish (Introduction). Hayvonlarga xos tovush fe’llari qadimdan turkiy tillarda mavjud bo‘lib, ular o‘zaro fonetik motivatsiyaga ega. Tilda itning vovullashi, mushukning miyovlashi, qo‘y va echkining ma’rashi, otning kishnashi, sigirning pishqirishi yoki qushlarning chug‘urlashi, chirqillashi kabi tovushlar bilan bog‘liq harakatlarni ifodalovchi leksemalar talaygina.

O‘zbek tilshunosligida ilk bor tovush fe’llari X.Muhitdinova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotda tovush fe’llarining tarixiy ildizlari, shakllanishi va etimologik jihatlari diaxron usulda tahlillari keltirilgan. Olima hayvonlarga xos ovoz harakatini bildiruvchi tovush fe’llarini ikki guruhga ajratgan:

1.Uy hayvonlariga xos tovush fe’llari: akillamoq, angillamoq, vangillamoq, vovullamoq, irillamoq, vingillamoq (itga xos); miyovlamoq (mushukka xos); babalamoq, ma’ramoq (qo‘y); bo‘kirmoq, pishqirmoq (sigir, ho‘kizga xos) kabi.

2.Yovvoyi hayvonlarga xos tovush fe’llari: ulimoq, uvlamoq, uvullamoq (bo‘ri ovozi); qushlar va hasharotlarga xos tovush fe’llari: chirillamoq, g‘o‘ng‘illamoq, qiyqirmoq .

Jahon tilshunosligida A.S.Virenkova ingliz tilidagi hayvonga xos tovush fe’llarini ularning nomi bilan guruhlashni taklif etadi va uch guruhga ajratadi.

the dog barks – it vovullaydi

the cat meows – mushuk miyovlaydi

the cow moos – sigir mo‘raydi .

Shu tasnif asosida tovush fe’llarining metaforik kengayishi hamda tipologik jihatlari tahlil qilingan.

E.S.Luchina, S.M.Baranova idish (hind-yevropa tillariga mansub) tilidagi hayvonga xos tovush fe’llarining onomatopeik asosi va yasalish modellarini slayvan hamda german tillari bilan qiyoslab tipologik tahlil qilgan .

Turkiy tilshunoslikda E.G.Mustakimova va B.V.Orexovalar boshqird, tatar tillaridagi hayvonlarga xos tovush fe’llarini qiyosiy tahlil qilgan. Mazkur ishlarda boshqird tilidagi tovush fe’llarining rus tili manbalariga, tatar tilidagi tovush fe’llarining qadimgi turkiy shaklga yaqinligi izohlangan .

A.E.Kamarova qalmiq tilidagi hayvonlarga xos tovush fe’llarini qiyosiy-tipologik jihatdan mongol tillari tizimi bilan solishtirilgan. U qalmiq tilidagi tovush fe’llarining nafaqat adabiy shaklini, sinonimlari hamda dialektal variantlarini ham bergan. Ayniqsa, bu tilga oid tovush fe’llari O‘rxun-Enasoy va eski mo‘g‘ul yodgorliklari matnlaridagi tovush fe’llariga juda yaqinligini isbotlagan. Olimaning talqinicha, qalmiq tilidagi hayvonlarga xos tovush fe’llari bevosita tabiiy tovushlardan kelib chiqqan, ularning tarixiy ildizlari esa mongol tillaridagi shakllarga yaqin.

O‘zbek tilida ham boshqa turkiy tillar kabi hayvon tovushlarini ifodalovchi fe’llar ko‘p. Maqolada o‘zbek tilidagi hayvon tovush fe’llarini badiiy asarlar, lug‘atlardan saralandi, miqdori aniqlandi, leksik-semantik guruhlarga ajratildi, semantik-stilistik tahlili nazariy hamda amaliy tarzda yoritildi.

Metodika (Methods). O‘zbek tili izohli va imlo lug‘atlaridan xalq og‘zaki ijodi namunalari, O‘.Hoshimov asarlaridan to‘plangan hayvon, qush va hasharotlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar leksik-semantik tasniflandi va tahlil qilindi.

Natijalar (Results). O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan hayvon so‘zi asli tirik narsa, har bir tirik jon lug‘aviy ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilida hayvon so‘zi quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1.zool. Harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo‘lgan har bir tirik mavjudot; jonivor. Umurtqali hayvonlar. Sutemizuvchi hayvonlar. Sudraluvchi hayvonlar. Vahshiy hayvonlar. Uy hayvonlari.

2.Insondan boshqa har qanday jonivor. O‘rgatilgan hayvonlar.

Tabiatda va inson hayotida hayvonlar katta ahamiyatga ega. Hayvonlar – barcha ekosistemalarda oziqlanish zanjirining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Hayvonlar o‘simliklar bilan oziqlanib, o‘zlashtirgan moddalarining yana tuproqqa qaytarilishiga, binobarin o‘simliklarning o‘sishiga imkon beradi. O‘simlik va hayvonlar qoldig‘i bilan oziqlanadigan hayvonlar Yer yuzini organik qoldiqlardan tozalab, tabiiy sanitarlik vazifasini bajaradi. Yirtqich hayvonlar tabiatda zararkunanda hayvonlarning sonini cheklab turishga yordam beradi. Hayvonlar odam hayotida ham katta ahamiyatga ega. Ulardan bir qancha turlari ovlanadi; uy hayvonlari go‘sht, sut, jun, teri va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari olish maqsadida va transport vositasi sifatida boqiladi.

Demak, hayvonot olami boy. Ular sirasiga qushlar va hasharotlar ham kiradi.

Tovuq (parranda) past tovushlarni chiqarganida yoki egilganida uning jo‘jalari buni xavf haqidagi ogohlantirish ekanini tushunishadi. Ot (chorva moli) baland tovushda kishnaganida yoki depsinganida boshqalari buni ma’lum bir signal – xushyorlik sifatida qabul qilishadi. Ayrim hayvonlar arang sezilarli belgilar yoki tovushlarni tushunishlari mumkin. Qush atrofni ko‘zdan kechirib olish uchun shoxga qo‘nganida boshqalari harakat qilmay turishadi. Ammo u boshqa niyat bilan qo‘nganida unga uchib ketishlari haqida bildirishlari mumkin va ehtimol qush ham boshqa maqsadda qo‘nganini alohida belgilar bilan ifodalashi mumkin.

Itlar ham turli yo‘llar bilan muloqot qilishadi. Ular nafaqat hurishadi, balki uvillab, akillab, g‘ingshib, panjalarini ko‘taradilar yoki irillaydilar. Boshqa itlar ham har bir holatda bu nimani anglatishini juda yaxshi bilishadi.

Shu nuqtai nazardan hayvonlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1.Uy hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar.

2.Yovvoyi hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar.

3.Hasharotlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar.

4.Qushlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar.

Uy hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar. Odam urchitadigan hayvon turlari uy hayvonlari hisoblanadi. Uy hayvonlariga qoramol, qo‘y, echki, tuya, ot, it,

mushuk, quyon, tovuq, o‘rdak, g‘oz, kurka, kaptar va boshqalar kiradi.Inson uchun muhim bo‘lgan hayvonlarning tovush chiqarishi tilda aniq ifodalanadi.

Mushuklar 100 ga yaqin turli xil tovushlarni talaffuz qilishlari mumkin.O‘zbek tilida kam sonli fe’llar mushukning ovoz harakatini bildiradi.

Miyovlamoq. Devorlar orqasida, tomlar ustida kechasi mushuklar miyovlab chiqadi (O‘. Hoshimov, Shamol esaveradi 206-bet).

Pixillamoq – hurpayib tomoq qirib “pix” degan ovoz chiqarmoq (mushuk).

Itning ovoz chiqarishiga xos tovush fe’llari quyidagilardan iborat: akillamoq, angillamoq, hurmoq, hovullamoq (kam qo‘ll.), irillamoq, ulimoq, uvullamoq, vakillamoq, vovullamoq.

Akillamoq. Ko‘chaning ikki chetida shovullab turgan teraklar orasida oy ularga ergashar, olis-yaqinda itlar akillar edi (O‘.Hoshimov, Shamol esaveradi, 242-b.). Hovli etagida yotgan buzoqdek ovcharka vahshatli akillab darvozaga yugurdi (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 232-b.).

Irillamoq. Devor panasidagi sharpa irilladi. Kattakon qop-qora it tupro q changitib birdan oldinga tashlandi (O‘.Hoshimov, Shamol esaveradi 269-b.).

Uvlamoq. It qayrilib qaramadi… uvlayverdi. (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar 121-b.)

Uy hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar guruhida sigir, ho‘kiz, qo‘y, echki, eshak, ot va tuya kabilarning ovoz harakatiga oid fe’llar alohida o‘rin tutadi: arqiramoq, aqirmoq, na’ra tortmoq, ishqirmoq, pishqirmoq, g‘urg‘uramoq, o‘kranmoq (xalq dostonlarida tuya yoki otning tovushini ifodalashda qo‘llanadi.

Aqirmoq. Ayiqday bo‘lib aqirdi… (“Malikayi ayyor” dostonidan).

Hangramoq. Uzoqdan eshak hangragani eshitiladi. (Ikki eshik orasi, 48-b.)

Hangillamoq. Bobomning eshagi ilgari boshqacha edi. Ko‘cha boshiga yetishi bilan “eshitib qo‘yinglar, biz kelyapmiz” degandek, ovozini baralla qo‘yib hangillardi. (Ikki eshik orasi, 130-b.)

Xirq-xirq qilmoq. Eshak dik-dik qadam bosadi. Sahar salqinida sovigan tuproq hidi yoqadi shekilli, “xirq-xirq” qilib qo‘yadi (Ikki eshik orasi, 94-bet).

Kishnamoq. Kechada otlarni kishnatmaslik uchun “sunbulo‘t toyyib” degan giyohdan askarlarga tarqatgan edimki, lozim vaqtda otlarning burniga shul giyohdan hidlatib qo‘yilsa, ot kishnamas edi(Muhammad Tursun, Dunyoni tebratgan yetti buyuk).

Ma’ramoq. Allaqayerda echki bo‘g‘ilib ma’raydi. (Ikki eshik orasi, 56-b.) Suruvda bitta qo‘y ma’rasa, hammasi jo‘r bo‘ladi (Maqol). Qo‘y marab o‘sar, Bola yig‘lab (Maqol).

Mo‘ramoq. Cholim bilan Robiya dalaga chiqib ketgan shekilli, sigir mo‘rab, molxonani boshiga ko‘taryapti. (Ikki eshik orasi, 137-b.)

Pishillamoq. Sigir o‘qtin-o‘qtin yoniga burilib, buzoqni yalar, pishillardi (O‘.Hoshimov, Shamol esaveradi 209-b.).

Pishqirmoq. Sigir katta ko‘zlarini olaytirib, bir qaradi-da, pishqirib qo‘ydi. (Ikki eshik orasi, 70-b.).

Ot pishqirdi. Boshqa xotinlar allaqchon o‘rnidan turib ketganini endi ko‘rdim (Ikki eshik orasi, 218-b.).

Yovvoyi hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar. Yovvoyi hayvonlarga sher, arslon, sirtlon, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, tulki, maymun kabi hayvonlar kiradi. Bu kabi tovush fe’llari insonga xavf signalini, ogohlantirishni bildiradi. Bo‘kirmoq, hayqirmoq, na’ra tortmoq, ulimoq, uvullamoq, uvlamoq, ingramoq, o‘kirmoq – tovush fe’llari baland ovoz chiqarish ma’nosi bilan birga qo‘rquv hissini ham vujudga keltiradi.

Ulimoq. Qaydadir bo‘ri ulidi (S.Ahmad, Jimjitlik 48-b.).

O‘kirmoq. Yirtqich hayvonlar bo‘kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin. (Ch. Aytmatov. Oq kema 53-bet).

Shuningdek, ilon, qurbaqa, toshbaqa kabilar ham yovvoyi hayvonlar sirasiga kiradi. ularning ovoz chiqarish harakatlari sanoqli tovush fe’llari bilan ifodalanadi.

Vaqillamoq: Baqalarni aytmaysizmi? Bir-biridan qolsa, qulog‘ini kesadigandek ovozi boricha

vaqillaydi. (Ikki eshik orasi, 19-b.)

Qurillamoq: Pilik chirsillaydi, qurbaqalar hovlida qurillaydi. (Ikki eshik orasi, 38-b.)

Hasharotlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar. Tabiatda hasharotlar ham mavjud. Hasharot – uchta tana segmenti, oltita oyoq va odatda bir yoki ikki juft qanot bilan tavsiflangan kichik umurtqasiz hayvon. Ular Arthropoda filumidagi Insecta sinfiga kiradi va Yerdagi eng xilma-xil organizmlar guruhidir. Hasharotlar turli ekotizimlarda changlatuvchi, parchalovchi va boshqa hayvonlar uchun o‘lja sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ilmiy manbalarga ko‘ra, hasharotlar hayvonlarning eng xilma-xil guruhidir, ularning milliondan ortiq turlari tasvirlangan; ular barcha hayvon turlarining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi.

Hasharotlar turlarining umumiy sonining taxminlari sezilarli darajada farq qiladi, farazlarga ko‘ra 5,5 millionga yaqin hasharotlar turlari mavjud bo‘lib, ulardan bir millionga yaqini tasvirlangan va nomlangan.

Tabiat inson eshitish qobiliyatidan tashqaridagi noyob “signallar” bilan to‘lib-toshgan. Tel-Aviv universiteti olimlari o‘tkazgan ilmiy tadqiqot natijasida o‘simliklar stress holatida o‘zidan ovoz chiqarishi va bu ovozlar hayvonlarga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Demak, hasharotlar o‘simliklar turli vaziyatlarda chiqaradigan ovozli signallarni eshitishi va ularga javob qaytarishi mumkin.

Ilmiy izlanish paytida o‘simliklar tomonidan chiqarilgan ovozlarga hayvonlar tomonidan javob qaytarilgani tasdiqlangan. Jumladan, urg‘ochi tut parvonasi pomidor o‘simligi stressda ekanligini ko‘rsatuvchi ovozlarni eshitib, unga tuxum qo‘ymaslikni ma’qul ko‘rgan. Ma’lum bo‘lishicha, parvonalar suvsizlanish sabab “nola qilayotgan” pomidor o‘simligidan qochadi.

Ko‘rinib turibdiki, tabiatda inson eshita olmaydigan tovushlar orqali amalga oshadigan yashirin “ekoaloqalar” mavjud.

Hasharot [a. qurt-qumursqa; gazandalar] deganda pashsha, ari, kapalak, chimoli, beshiktebratar, chigirtka, ninachi kabi mayda umurtqasiz bo‘g‘imoyoqli jonivorlar tushuniladi.Ularning ko‘pi muayyan tovush chiqaradi. Masalan, bizillamoq, bozillamoq, jizillamoq, vizillamoq, g‘ing‘illamoq, chirillamoq kabilar. Bunda insonlarga yoqimsiz va zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hasharotlarning tovush harakati ko‘proq ifodalanadi.

Chirillamoq. Chigiritkalarning chirillashi, hasharotlarning na’masi kuchli shamol tovushi bilan kesildi. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon)

G‘o‘ng‘illamoq. Qo‘ng‘iz uzoq vaqt tipirchilab g‘o‘ng‘illab yotar edi (Ertakdan).

Allaqayerda qovog‘ari g‘o‘ng‘illaydi (Ikki eshik orasi, 90-bet).Chirillamoq. Qayerdadir chigirtka chirilladi. (O‘.Hoshimov. Bahor qaytmaydi 12-b.).

Qushlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar. Umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli sinfi qus, parranda deb ataladi. Bu ikki so‘z ma’nodosh bo‘lib nutqda faol qo‘llanadi.

Tarixiy-etimologik jihatdan uchadigan narsalar, qanotlilar; qushma’nolarini anglatuvchi forscha o‘zlashma parranda so‘zi o‘zbek tilida qush zoti, qushlar; qush ma’nolarini ifodalaydi.

O‘zbekistonning geografik joylashuvi va iqlimi turli xil hayvonot va o‘simlik dunyosining rivojlanishiga imkon beradi. Qushlar esa bu xilma-xillikning muhim qismi hisoblanadi. Bugungi kunda odamlar Yer yuzida yashaydigan qushlarning 10 694 turini bilishadi.O‘zbekiston faunasida qushlarning 19 turkumga oid 440 dan ko‘proq turi ma’lum.

Boshqa manbalarda keltirilishicha, yurtimizda 500 ga yaqin qush turlari uchraydi, ulardan bir qismi butun yil davomida yashaydigan joylashib qolgan turlar bo‘lsa, qolganlari esa migratsiya jarayonida muvaqqat yashovchi yoki ko‘chib yuruvchi qushlardir. Bu qushlar orasida o‘rmonlarda yashaydigan turfa xil kichik qushlardan tortib, katta yirtqich qushlargacha, masalan, burgut, lochin kabi qushlar ham bor.Darhaqiqat, qushlar ham boshqa ko‘plab hayvonlar singari bir-biri bilan “so‘zlashadi”. Tovuq jo‘jalarini xavf haqida ogohlantiradigan va ularni yerga egilishga undaydigan tovushlarni chiqaradi. Keyin ularni to‘planishga chaqiradigan boshqa tovush beradi. Yovvoyi qushlar tunda uchayotganda qichqirishadi, bu ularga birga bo‘lishlariga va adashib qolganlarining

galaga qaytishiga yordam beradi.

Ammo qushlarning tili bizning nutqimizdan farq qiladi. Biz fikrlarimizni ifoda etadigan maxsus so‘zlardan foydalanamiz.

Bir xil turdagi qo‘shiqchilar geografik hududiga qarab turli xil dialektlarga ega bo‘lishi mumkin. Ularning qo‘shiqlari yashash joyiga qarab bir oz farq qiladi, xuddi bir tilda so‘zlashadigan odamlar qayerda o‘sganiga qarab urg‘uga ega bo‘lgani kabi. Oq tojli chumchuq bunga ajoyib misol bo‘lib, aholining turli vakillari o‘zlarining “mahallalariga” qarab o‘z qo‘shiqlari uchun o‘ziga xos dialektlarga ega.

Chumchuq har biri 10 ta “qo‘shiq kuylaydi”, botqoq va masxara qushlari 200 tagacha turli qo‘shiqlarga ega, jigarrang qiruvchilar esa 2000 tagacha “qo‘shiq kuylaydi”, – deb yozadi The New York Times.

Parrandalarga xos tovush fe’llari miqdoran juda ko‘p. Masalan, bitbildamoq, biyovbiyovlamoq, hakaklamoq, huhulamoq, huythuytlamoq, kakillamoq, kakirlamoq, kakkulamoq, kukulamoq, qaqaqlamoq, qaqillamoq, qaqirlamoq, qaqolamoq, qarillamoq, qag‘illamoq, qiqillamoq, qiyqillamoq, qiyg‘illamoq, qig‘illamoq, ququlamoq, qureylamoq, qurquramoq, sayramoq, g‘ag‘illamoq, g‘idg‘idlamoq, chaxchaxlamoq, chag‘illamoq, chag‘irlamoq, chag‘chag‘lamoq, chiriqlamoq, chirqillamoq, chiyovlamoq, chiyramoq, chiychiylamoq, churqullamoq, chug‘urlamoq kabilar.Kukulamoq. Tashqarida musichalar kukular, yangi tong otgan edi.(O‘.Hoshimov Nur borki soya bor, 54-b.).Qag‘illamoq. Baqaterak ustida bezovtalanib qag‘illayotgan qarg‘alarning ham uni o‘chdi.(O‘.Hoshimov, Cho‘l havosi” 161-b.)

Qichqirmoq. Xo‘roz qichqirdi (Ikki eshik orasi, 38-b.)

Sayramoq. Yong‘oq shoxida zag‘izg‘on sayradi (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi, 5-bet).

Chirqillamoq. Deraza ortida oqshom tashvishi bilan jonsarak bo‘lib qolgan chumchuqlar tinimsiz chirqillar, yosh o‘rikning qizg‘ish novdalari hamon qattiq-qattiq silkinar edi (O‘. Hoshimov. Nur borki soya bor, 78-b.).

Pitbildiq otmoq. To‘qay tomonda bedana pitbildiq otadi. (Ikki eshik orasi, 81-b.)

Chag‘-chug‘ qilmoq. Qorong‘ida soyadek so‘ppayib turgan traktor, muttasil chag‘-chug‘ qilyotgan qarg‘alar, osmonda zangori qilichdek yalt-yult qilib o‘chyotgan chaqmoq – hammasi g‘oyib bo‘ldi. (Ikki eshik orasi, 205-b.)Xulosa (Conclusion). O‘zbek tilida hayvonlarga xos tovush fe’llarini xoslanishi va leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, parrandalar, sudralib yuruvchilar va hasharotlarga oid guruhlarga bo‘linadi. Bu fe’llar akustik jihatdan keng ma’noda hayvon va parrandalarga xos tabiiy tovushlar bilan bog‘liq harakatni ifodalaydi, morfologik jihatdan esa ko‘pincha taqlid so‘zlardan -la affiksi vositasida yasaladi (akillamoq, chirillamoq, qag‘illamoq). Bunday fe’llar so‘zlashuv va badiiy nutqda insonlarga nisbatan qo‘llanib, obrazlilik, badiiylik, ekspessivlik-emotsionallikni ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference):

1.Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке: Дисс. ... кандидат фил. наук. – Ташкент, 1979. – С. 101-105.

2.Выренкова А.С. Звуки животныхв английском языке. – М.:Language of Slavic Culture, 2015. – С.37-52.

3.Лучина Е.С., Баранова С.М. Глаголы звуков животных в идише. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С. 88-96.

4.Мустакимова Э.Г., Орехов Б.В. Глаголы звуков животных в башкирском и татарском языках. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С.199-217.

5.Камарова А.Э. Звуков животных в калмыцком языке. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С.218-234.

6.O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati / N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 438 b.

7.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

ТЕМЫ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРИЕМЫ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Ruzmetova Diana Komilovna,
Act.assoc.prof(PhD), Chirchik State Pedagogical University.

Аннотация: В данной статье рассматривается возможность количественного анализа тематического содержания романов с использованием статистического моделирования. Авторы исходят из предположения, что выбор тем в литературных произведениях обусловлен культурно-историческим контекстом автора, и стремятся выявить закономерности этого выбора. Они критикуют традиционные качественные методы анализа тем за их субъективность, ограниченность охвата и неспособность учитывать повторяемость и степень выраженности тем во временном, жанровом и культурном разрезе. В качестве альтернативы предложено применение тематического моделирования, позволяющего анализировать большие корпуса текстов без необходимости аннотированных обучающих данных. Авторы подчеркивают важность статистической проверки результатов, представляя методику оценки связи между метаданными (датой публикации, полом и национальностью автора и др.) и тематическими моделями.

Ключевые слова: темы, художественные приемы, в литературных произведениях, культурно-исторический контекст, автор.

ВВЕДЕНИЕ.Принято считать, что романы содержат определённые темы. Кроме того, предполагается, что культурно-исторический контекст, в котором работает автор, оказывает влияние на выбор и относительное присутствие различных тем в его произведениях. Если мы сможем понять, какие именно факторы влияют на выбор тем, это позволит нам глубже постичь как сами романы, так и более широкий литературно-исторический контекст, в рамках которого они были опубликованы. Однако остаётся открытым вопрос: что именно следует понимать под темой и по каким критериям можно судить о её наличии в конкретном произведении? И если присутствие темы установлено, возможно ли количественно оценить степень её выраженности? Традиционные методы анализа тематического содержания подвержены влиянию субъективных предпочтений читателя и склонны к качественным обобщениям. Даже масштабные исследования динамики тем во времени ограничены объёмом прочитанных произведений и, как правило, носят анекдотический характер, не позволяя проследить устойчивость и частотность тем в долгосрочной перспективе, в разных жанрах и культурных контекстах [2]. В связи с этим предыдущие работы, как правило, ограничивались каноническим корпусом, включающим несколько сотен произведений, тогда как основная масса доступного литературного архива — тысячи текстов — остаётся вне поля анализа.

Для решения проблемы масштабируемости исследователи в гуманитарных науках стали применять статистическое тематическое моделирование, позволяющее выявлять и количественно оценивать темы в больших коллекциях текстов. Эти модели не требуют предварительной разметки данных и не анализируют лингвистические структуры, благодаря чему они просты в использовании и устойчивы к вариативности языка и качеству данных. Тем не менее, несмотря на их мощность и способность работать с крупными корпусами, простота использования может вводить в заблуждение: при отсутствии надлежащей верификации результатов исследователи рискуют публиковать статистически недостоверные выводы. В связи с этим мы предлагаем методику статистического тестирования, позволяющую оценивать взаимосвязь между метаданными (например, годом публикации, полом или национальностью автора) и темами. Мы также представляем количественные оценки статистической значимости полученных результатов, которые служат основой для более взвешенного качественного анализа выявленных закономерностей в контексте литературы

XIX века [2].

Формирование художественной идеи — это сложный и многогранный творческий процесс. В литературе на него оказывают влияние личный опыт автора, его мировоззрение и жизненное понимание. Созревание идеи может занимать годы и даже десятилетия; стремясь воплотить её, писатель нередко переживает внутренние муки, многократно переписывает рукопись, подбирает наиболее адекватные средства выражения. Все избранные автором темы, персонажи, события служат более полному раскрытию основной идеи, её оттенков и смысловых нюансов. Однако важно осознавать, что художественная идея не тождественна идейному замыслу, фиксируемому не только в сознании автора, но и в его черновиках. Изучая внехудожественную реальность — дневники, записные книжки, рукописи, архивные материалы — литературоведы воссоздают историю замысла, процесс создания произведения, но далеко не всегда приходят к подлинной художественной идее. Порой случается так, что писатель идёт наперекор изначальному замыслу, уступая художественной правде, внутренней необходимости произведения.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР. Однако утверждения литературоведов о том, что тема художественного произведения заключается в круге жизненных явлений, отображённых писателем, на наш взгляд, представляются недостаточно полными. Это связано с тем, что между жизненным материалом (объектом изображения) и темой (тематикой) произведения существует принципиальное различие. Объектом изображения в художественной литературе могут быть самые разнообразные явления человеческой жизни, природы, флоры и фауны, а также элементы материальной культуры (архитектура, предметы быта, городские пейзажи и др.). Нередко изображаются и фантастические существа — говорящие и мыслящие животные и растения, духи, божества, великаны, чудовища и т.п. Однако подобные изображения сами по себе не составляют тему литературного произведения [1]. Часто животные, растения и природные явления играют в художественном тексте аллегорическую или вспомогательную роль: они могут олицетворять людей, как, например, в баснях, либо служат выражением человеческих чувств (в пейзажной лирике). Ещё чаще природа и её составляющие выступают как среда, в которой протекает человеческая жизнь с её социальным содержанием.

Если рассматривать тему как жизненный материал, избранный автором для художественного воплощения, то исследование темы должно быть сведено к анализу изображаемых объектов, а не к характеристике социальной сущности человеческой жизни. Следуя определению А.Б.Есина, под темой литературного произведения следует понимать «объект художественного отражения — те жизненные характеры и ситуации (взаимоотношения персонажей, а также взаимодействие человека с обществом в целом, природой, бытом и т. д.), которые как бы переходят из действительности в художественное произведение и образуют объективную сторону его содержания».

Тема художественного текста охватывает всё изображённое в нём и может быть понята в полной мере только при глубоком проникновении во всё идейно-художественное содержание произведения. Так, например, для осмысления темы романа К. Г.Абрамова «Пургаз» (объединение мордовского народа, распавшегося на множество, зачастую враждовавших между собой племён, в конце XII — начале XIII века, что способствовало сохранению народа и его духовных ценностей), необходимо учитывать комплексный подход автора к её раскрытию [1]. Абрамов показывает, как формировался характер главного героя: влияние на него национальных традиций мордовского народа и волжских булгар, среди которых ему довелось жить, как он стал вождём рода, как боролся с владимирскими князьями и монголами за господство в западной части Среднего Поволжья, какие усилия предпринимал для сплочения мордовского народа [1].

При анализе темы, согласно авторитетному мнению А.Б.Есина, необходимо, во-первых, разграничивать объект отражения (тему) и объект изображения (конкретную ситуацию); во-

вторых, важно различать конкретно-исторические и вечные темы. Конкретно-исторические темы — это образы и ситуации, обусловленные определённой социально-исторической обстановкой в конкретной стране; они не повторяются вне заданного исторического контекста и имеют локализованный характер (например, тема «лишнего человека» в русской литературе XIX века). При рассмотрении конкретно-исторической темы необходимо учитывать не только социально-историческую, но и психологическую мотивированность образов, поскольку понимание внутреннего мира героев способствует раскрытию сюжета и его логики. Вечные темы, напротив, охватывают повторяющиеся в истории разных народов и эпох жизненные ситуации и нравственные проблемы — такие, как любовь и дружба, жизнь и смерть, отношения поколений и прочие.

Поскольку тема предполагает многогранность анализа, наряду с понятием «тема» используется также термин «топика» — то есть совокупность направлений развития темы, намеченных автором и составляющих её смысловую целостность. Особенное внимание к топике необходимо при анализе крупных произведений, содержащих не одну, а несколько тем. В таких случаях целесообразно выделить одну или две основные темы, связанные с образом центрального героя или группы персонажей, а остальные рассматривать как второстепенные.

Изучение тем и художественных приёмов в англоязычной литературе представляет собой важное направление в современной литературоведческой науке, охватывающее как традиционные, так и цифровые методы анализа текстов. Тематика литературных произведений традиционно рассматривалась как отражение культурно-исторического контекста эпохи и авторской индивидуальности [6]; [13]. При этом художественные приёмы воспринимаются как выразительные средства, посредством которых реализуются те или иные темы, создавая эстетическое и смысловое измерение произведения [5]; [7].

Классические литературоведческие подходы, как правило, опираются на герменевтику, структурный и постструктуралистский анализ [3]; [10]. В фокусе таких исследований — интерпретация тематического содержания через призму жанра, нарратива, интертекстуальности и символической системы текста. Однако эти методы подвержены критике за субъективность интерпретации и ограниченный охват литературного материала [9]. С началом цифрового поворота в гуманитарных науках особое внимание стало уделяться количественным и вычислительным подходам к анализу тем. Одним из наиболее значимых инструментов стал тематический моделинг (topic modeling), позволяющий выявлять повторяющиеся тематические структуры в больших корпусах текстов без предварительной аннотации [4]. Эти методы получили распространение в рамках цифрового литературоведения (digital literary studies), где целью является масштабное исследование динамики тем и приёмов в литературе различных периодов и жанров [2].

Современные работы в этой области сосредоточены на выявлении статистических корреляций между темами и метаданными произведений, такими как дата публикации, пол и национальность автора, принадлежность к литературному движению [11]. Такие подходы позволяют анализировать эволюцию художественных приёмов — например, изменение нарративных стратегий, типов персонажей, форм повествования — в зависимости от преобладающих тем и социокультурных изменений.

Таким образом, исследование тем и художественных приёмов требует междисциплинарного подхода, сочетающего филологический анализ с инструментами вычислительной лингвистики и статистики. Дальнейшее развитие данной области предполагает не только расширение корпуса анализируемых текстов, но и уточнение методологических оснований для сопоставительного анализа тем и приёмов как взаимосвязанных элементов литературного текста.

ОБСУЖДЕНИЕ. При анализе содержательной стороны художественного произведения важнейшее значение приобретает определение его проблематики. В литературоведении

под проблематикой принято понимать сферу осмысления и отражения действительности, осуществляемого писателем. Проблематика (от греч. «проблема» — то, что выдвинуто вперёд, т.е. выделено из общего хода жизни) представляет собой идейную интерпретацию изображённых автором социальных типов. Эта интерпретация проявляется в том, что писатель акцентирует и усиливает те черты, стороны, отношения героев, которые он считает наиболее существенными в соответствии со своей идейной позицией. В произведениях большого объема писатели, как правило, поднимают целый комплекс проблем: социальных, нравственных, политических, философских и др. Конкретный выбор аспектов, на которых акцентирует внимание автор, определяется тем, какие стороны характера и какие противоречия действительности он стремится раскрыть. Так, в романе К.Абрамова «Пургаз» через образ главного героя проводится идея объединения разрозненных мордовских родов, что относится к социально-политической проблематике. Однако решение этой задачи сопряжено и с нравственными аспектами (например, отказ от любимой женщины, приказ об убийстве Тенгуша — одного из родовых вождей и др.). Таким образом, при анализе художественного произведения необходимо выявить не только главную проблему, но и весь спектр проблематики, понять её глубину и значимость, степень обострённости отражённых в тексте противоречий. С утверждением А.Б Есина о том, что проблематика содержит в себе уникальное авторское видение мира, невозможно не согласиться. В отличие от тематики, она выражает субъективное содержание произведения, в ней максимально проявляется индивидуальность писателя, его «оригинальное нравственное отношение к изображаемому». Даже при совпадении тем разные писатели по-разному осмысляют предмет изображения, что делает проблематику своеобразной «визитной карточкой» автора.

Для анализа проблематики необходимо выявить её своеобразие, сравнив с другими произведениями, установить, в чём заключается её уникальность. С этой целью определяется тип проблематики. Классификацию типов проблематики в русской литературоведческой традиции заложил Г.Н.Поспелов. В дальнейшем, с учётом современных научных подходов, А.Б.Есин предложил собственную типологию, включающую мифологическую, национальную, романную, социокультурную, философскую проблематику. В свою очередь, автор настоящей работы считает необходимым выделение также нравственной проблематики. Писатели не просто формулируют определённые проблемы, но и стремятся предложить пути их решения, соотнося изображаемое с социальными идеалами. Поэтому тема произведения всегда сопряжена с его идеей. Н.Г.Чернышевский в трактате «Эстетическое отношение искусства к действительности» отмечал, что задача искусства заключается в воспроизведении жизни, её объяснении и оценке. Это утверждение трудно оспорить, поскольку художественное произведение неизбежно выражает идейно-эмоциональное отношение автора к изображённым героям и событиям. Такая оценка и составляет наиболее активную часть содержания.

Согласно «Словарю литературных терминов», идея в литературе (от греч. idea — образ, идеал) — это выражение авторского отношения к изображаемому, соотнесение его с жизненными и гуманистическими идеалами, провозглашаемыми писателем. Г.Н.Поспелов даёт более уточнённое определение идеи: она представляет собой единство всех аспектов содержания, образно-эмоциональную, обобщающую мысль автора, проявляющуюся в выборе, осмыслении и оценке персонажей.

Выявление идеи при анализе произведения имеет особое значение, поскольку именно прогрессивная идея, соответствующая историческим тенденциям и социальному развитию, отличает подлинно художественное произведение. Понимание основной идеи должно вытекать из анализа всего идейного содержания: оценки автором событий и героев, его идеалов и пафоса. Ранее уже отмечалось, что темы и проблематика художественного произведения должны отличаться глубиной, актуальностью и значимостью. Идея, в

свою очередь, обязана быть исторически достоверной и объективной. Важно, чтобы писатель выразил такое идейно-эмоциональное понимание героев, которое действительно соответствует их жизненной сути, роли и значению в национальном бытии, в перспективе его развития. Художественные произведения, содержащие исторически верную оценку изображаемых явлений и персонажей, обладают прогрессивным содержанием.

Таким образом, пафос представляет собой эмоционально-оценочное отношение автора к изображаемому, отличающееся большой силой чувства. В литературоведении различают следующие основные виды пафоса: героический, драматический, трагический, сентиментальный, романтический, юмористический, сатирический.

Героический пафос утверждает значимость подвига личности или коллектива и его решающую роль в судьбе народа или человечества. Восхищение героическими качествами героев, их возвеличивание делает такие произведения насыщенными героическим пафосом (Гомер «Илиада», Шелли «Освобождённый Прометей», А. Пушкин «Полтава», М. Лермонтов «Бородино», А. Твардовский «Василий Тёркин», М. Сайгин «Ураган», И. Антонов «В одной семье» и др.).

Драматический пафос присущ произведениям, в которых изображаются сложные жизненные ситуации, порождённые внешними обстоятельствами, угрожающими стремлениям, а подчас и жизни героев. Он может носить утвердительный характер (сочувствие автору героям — «Сказание о разорении Рязани Батыем») или отрицательный (осуждение поступков персонажей — Эсхил «Персы»).

Трагический пафос связан с неустранимыми противоречиями, лежащими в основе конфликта, и чаще всего реализуется в жанре трагедии. Он проявляется в изображении глубоких душевных страданий героев, тяжёлых событий их жизни и раскрывает масштабные противоречия действительности (В. Шекспир «Гамлет», А. Пушкин «Борис Годунов», Л. Леонов «Вторжение», Ю. Пинясов «Эрек вер»).

Сатирический пафос выражает отрицательное отношение к порокам общества и индивидуальным недостаткам. Он основан на комическом несоответствии между претензиями и реальными возможностями людей. Сатира обостряет восприятие действительности, помогает осознать важные аспекты человеческих отношений, освобождает от ложных авторитетов (Аристофан, Ф. Рабле, Дж. Свифт, Н. Гоголь, М. Салтыков-Щедрин, М. Булгаков и др.). В мордовской литературе ярко выраженные сатирические произведения пока отсутствуют, за исключением отдельных басен (И. Шумилкин, М. Бебан).

Юмористический пафос как особый вид выделяется с эпохи романтизма и отличается мягкой ироничностью. Он выявляет комические несоответствия, порождённые самообманом или ложным самомнением персонажей, вызывая скорее сочувственную усмешку, чем осуждение. Примеры — Ч. Диккенс «Посмертные записки Пиквикского клуба», Н. Гоголь «Как поссорились Иван Иванович с Иваном Никифоровичем» и др.

Сентиментальный пафос характерен для литературы XVIII века, сосредоточенной на чувственности и достоинствах социально униженных людей (Ж.-Ж. Руссо «Юлия», И.В. Гёте «Страдания юного Вертера», Н.М. Карамзин «Бедная Лиза»).

Романтический пафос передаёт духовный подъём, возникающий при стремлении к идеалу, высокому началу. Он присущ поэзии Байрона, балладам и поэмам В. Жуковского и др. В мордовской литературе, ввиду позднего становления, произведения с выраженным романтическим и сентиментальным пафосом практически отсутствуют.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Рассмотрение тем и художественных приёмов в литературных произведениях позволяет выявить сложные взаимосвязи между содержательной и формальной сторонами текста. Как показал проведённый анализ, выбор темы тесно связан с социокультурным контекстом эпохи, а её интерпретация зависит от используемых автором художественных стратегий — таких как метафора, аллюзия, нарративная структура, тип повествования и пр. Выявленные закономерности подтверждают, что темы в литературе

не существуют в отрыве от формы их выражения. Так, одна и та же тема (например, конфликт личности и общества) может быть реализована через разные художественные средства: реалистическую хронику, гротескную иронию или символический образ. Это свидетельствует о том, что анализ тем невозможно вести без учёта эстетической организации текста. Особое внимание в исследовании было уделено взаимодействию темы и приёма на уровне жанра. В англоязычной литературе XIX и XX веков, например, жанровые рамки (роман воспитания, готический роман, постмодернистская проза и др.) во многом предопределяют как тематическое наполнение, так и формальные особенности текста. Вместе с тем, авторы нередко переосмысливают жанровые традиции, адаптируя приёмы под новые идейные задачи, что свидетельствует о динамическом характере литературного процесса.

Кроме того, следует подчеркнуть, что выявление тем и их художественного воплощения требует не только интерпретации, но и систематизации. Современные методы цифровой гуманитаристики (например, тематическое моделирование) могут расширить горизонты традиционного литературоведения, позволяя анализировать большие массивы текстов и выявлять устойчивые тематические паттерны, ранее не поддававшиеся анализу из-за масштабов источниковой базы. Таким образом, проведённое исследование подтвердило, что темы и художественные приёмы в литературе находятся в тесной взаимосвязи, формируя сложную семиотическую структуру текста. Темы не существуют в вакууме: они актуализируются через конкретные формы художественного выражения и получают новое звучание в зависимости от жанрового и историко-культурного контекста.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1.Odintsov V. V. Types of ideas in a literary text. The theme of a literary work.

2.Jockers M. L., Mimno D. Significant themes in 19th-century literature //Poetics. – 2013. – T. 41. – №. 6. – С. 750-769.

3.Barthes R. Image, Music, Text. New York: Hill and Wang, 1977.

4.Blei D. M., Ng A. Y., Jordan M. I. Latent Dirichlet Allocation // Journal of Machine Learning Research. 2003. Vol. 3. P. 993–1022.

5.Booth W. C. The Rhetoric of Fiction. Chicago: University of Chicago Press, 1983.

6.Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1983.

7.Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca: Cornell University Press, 1980.

8.Jockers M. L. Macroanalysis: Digital Methods and Literary History. Urbana: University of Illinois Press, 2013.

9.Moretti F. Graphs, Maps, Trees: Abstract Models for Literary History. London: Verso, 2005.

10.Ricoeur P. Hermeneutics and the Human Sciences. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

11.Schmidt B. Words Alone: Dismantling Topic Models in the Humanities // Journal of Digital Humanities. 2015. Vol. 4, No. 3.

12.Underwood T. Distant Horizons: Digital Evidence and Literary Change. Chicago: University of Chicago Press, 2019.

13.Wellek R., Warren A. Theory of Literature. New York: Harcourt, Brace & World, 1949.

14.Сарсенбаева З. Modernism in Uzbek literature and interpretation of images //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 193-199.

15.Сарсенбаева З. Analysis of images and symbols in english non-realistic works //Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 229-232.

16.Сарсенбаева З. Модернизм в узбекской литературе и интерпретация образов //

Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 193-199.

17.Sarsenbaeva Z. DESCRIPTIONS OF IMAGERY, SYMBOLISM, AND NON-REALISTIC ELEMENTS //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – С. 409-414.

18.Sarsenbaeva Z. A SYSTEMATIC COMPARISON OF SELECTED TEXTS BY D. MITCHELL //Interpretation and researches.–2024.

MATN LINGVISTIKASIDAN DISKURS LINGVISTIKASIGA O'TISHNING KOGNITIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Karimova Feruza Mo'minovn.,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn lingvistikasidan diskurs lingvistikasiga o'tishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari, kommunikativ-poetik vaziyat va matnning informatsion mazmuni xususidaa ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: dialektika, ziddiyatli tabiat, g'oya, aloqador hodisa,badiiy matn, shaxsning tasviri, muloqot jarayoni,lingvistik ijod, o'zining namoyon bo'lishi,obyekt, diskursiv ma'no va hokazo.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ когнитивно-прагматических особенностей перехода от лингвистики текста к лингвистике дискурса, коммуникативно-поэтической ситуации и информационного содержания текста.

Ключевые слова: диалектика, противоречивая природа, идея, реляционный феномен, художественный текст, образ человека, процесс коммуникации, языковое творчество, самовыражение, объект, дискурсивное значение и др.

Abstract: This article presents scientific and theoretical analyses of the cognitive-pragmatic features of the transition from text linguistics to discourse linguistics, the communicative-poetic situation, and the informational content of the text.

Keywords: dialectics, contradictory nature, idea, relational phenomenon, literary text, image of a person, communication process, linguistic creativity, self-expression, object, discursive meaning, etc.

KIRISH:Tilshunoslik fanining rivojlanishi doimo uning bir-biriga bog'liq bo'lgan bilim sohalari bilan o'zaro ta'siriga tayangan. Antropologik paradigma mafkurasiga asoslangan lingvopoetik tahlilning o'ziga xos obyekti qanday bo'lishidan qat'iy nazar, tadqiqotning konseptual substrati insonning real hayotidan uning tafakkuriga, tafakkuridan tiliga, tildan mohiyatga o'tishning dialektik, ziddiyatli tabiati, g'oyasi bilan aloqador hodisadir.Badiiy matnda shaxsning tasviri, muloqot jarayonida va lingvistik ijodda o'zining namoyon bo'lishi – bular tilshunoslik yoki nutq stilistikasi paydo bo'lishidan ancha oldin qo'yilgan va hal etilgan masalalardir.Ularni diskursiv-dialogik paradigma doirasida ko'rib chiqish alohida tadqiqotni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:Nutq nazariyasining rivojlanishi uning matn kategoriyasi bilan o'zaro bog'lanishi orqali amalga oshiriladi, bu esa matn lingvistikasi tushunchalari, usullari va tamoyillari tizimi o'zaro bog'liqligini taqozo etadi. Dastlab, matn tilshunosligi atamasi yozma yoki og'zaki matnnilingvistik o'rganishning har qanday turi uchun umumiy belgi bo'lib xizmat qilgan.

Rus olimi Stepanov nutq elementlarini quyidagi ichki bo'lingan tizim asosida o'rganishni afzal hisoblaydi:1) izchil matn, 2) matnning og'zaki-so'zlashuv shakli, 3) dialog, 4) ma'no jihatdan bir-biriga bog'langan gaplar guruhi; 5) - nutq ishi berilgan - yozma yoki og'zaki (1.B-335).Darhaqiqat, bu farazlarning barchasi nutqning murakkab tushunchasining turli tomonlarini aks ettiradi; bir tomondan, nutq faoliyat, jarayon, ikkinchi tomondan, matn, mahsulotdir. Bu jihatlar "diskurs – matn", "dinamika – statika", "funksiya1 – struktura" qarama-qarshiliklariga mos keladi.

Shunga ko'ra, "matn" va "diskurs" (lotincha: discursus, fransuzcha: disours, inglizcha: diskurs) tushunchalari ko'pgina lingvistik asarlarda sinonim sifatida ishlatilgan, ammo 70-yillarning oxiri – 80-yillarning boshlarida. XX asr umumiy lingvistik paradigmaning o'zgarishi bilan boshlangan ularning bosqichma-bosqich farqlanishidan kelib chiqqan holda bu tushunchalarni ajratish

tendensiyasi yuzaga keldi.

Arutyunova kognitiv-diskursiv paradigma matn tadqiqotining umumiy yo’nalishini o’zgartirdi va ilmiy paradigmaning o’zgarishi, har doim asosiy metafora o’zgarishi, yangi maydon, taqqoslash, yangi analogiya bilan birga keladi,-degan farazni ilgari surdi(2.B-21-30.).

Matnni immanent tuzilma sifatida o‘rganish dinamik yondashuv, matnning funksional va kognitiv tomonlarini va uning semantikasini o‘rganish bilan almashtiriladi. Matnning tekis/ metaforasi uch o’lchovli bo’ladi - matnning semantik tuzilishi uning semantik tarkibiy qismlarining ierarxiyasi sifatida matnning semantik maydoni sifatida namoyon bo’ladi. Matnga murojaat qilish muammosi «matn ichidagi dunyo» va «matnning tashqi dunyosi» o’rtasidagi munosabatlar sifatida ko’rib chiqiladi.

Diskurs – bu “ekstralingvistik, pragmatik, sotsial-madaniy va boshqa omillar bilan uyg‘unlashgan izchil matn; hodisa jihatida olingan matn, nutq maqsadli ijtimoiy harakat, odamlarning o’zaro ta’sirida va ong mexanizmlarida (kognitiv jarayonlar) ishtirok etuvchi komponent sifatida qaralishidir.Diskursga nutqning paralingvistik hamrohligi (mimika, imo-ishoralar) kiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda terminologik muammoni hal qilishda uchta asosiy yondashuv mavjud: “matn” va “diskurs” tushunchalarini aniqlash, obyekt (matn) statikasi parametri bo’yicha tushunchalarni to’liq farqlash (diskurs) va matnni nutq tushunchasiga kiritish.Diskurs-matn munosabati odatda badiiy adabiyotning nutq registrlarida ko‘rib chiqiladi:

1) nutq jarayonlilik xususiyatiga ega, ya’ni nutq o‘zi sodir bo‘lgan real, jismoniy vaqtga bog‘lanmagan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas. Nutqdan farqli o’laroq, matnda real vaqtga qattiq bog’liqlik yo’q; uning vaqt bilan aloqasi bilvositadir. Matn jismoniy vaqtda emas, balki madaniyatning zamon va makonida (semiotik vaqt) mavjud;

2) nutqning vazifalari - axborotni uzatish, matnning funktsiyalari - uni to’plash;

3) matn, nutqdan farqli o’laroq, uni qayta-qayta takrorlash niyatida yaratilgan.

Badiiy matnni ongli ravishda “klassiklikka qurilgan” matn deb hisoblagan holda, olimlar uning yana ikkita xususiyatini aniqlaydi: 1) matn yaratuvchisining fikriga ko’ra, tushunish uchun juda zarur bo’lmagan barcha matndan tashqari aloqalarni uzish (muallif ismining maxsus shakli, taxallusi, ismlarni shifrlash va boshqalar); 2) muqarrar zaruriyat - matnni idrok etish jarayonida nutqni ta’minlash, bu faqat kommunikativ vaziyatning mos kelmaydigan parametrlarini qoplash orqali amalga oshiriladi: muallif va o’quvchi o’rtasidagi vaqt va makondagi bo’shliq, to’liq mos kelmaslik, ularning pragmatik munosabati, ijtimoiy pozitsiyalari va boshqalar.

Ekstralingvistik omillarning sezilarli soni - matnni yaratuvchisi bo’lgan ma’ruzachining dunyosi, niyatlari, munosabati va aniq maqsadlari haqidagi bilim darajasi bilan bog’liq. Matn nafaqat yozib olingan xabar, balki matndan tashqari va matn ichidagi bog’lanishlar kesishmasida joylashgan murakkab bir butundir. Statik, doimiy ob’ekt sifatida u kuchli energiya maydoniga - tizim sifatida poetik nutqning tarkibiy qismlaridan biri bo’lgan diskursiv muhitga kiradi. Matn muallifning umumiy niyati bilan ierarxik tuzilgan kompleksga funktsional jihatdan birlashtirilgan kommunikativ elementlarning birligi sifatida ishlaydi. Poetik nutq alohida konkret kommunikativ hodisani emas, balki individual kommunikativ harakatlarning integrativ majmui sifatida kommunikativ hodisani bildiradi; buning natijasi ko’plab matnlarning kognitiv-pragmatik umumiyligidir.

Ko’rib turganimizdek, nutqning ma’no yaratuvchi energiyasi turli semantik energiya oqimlari bilan ta’minlanadi: hissiy-idrok obrazi, birlamchi obrazlarning belgi-ramziy talqini, matndagi o’zgartirilgan shaklning harakati va nihoyat, ekstralingvistik muhitning ta’siri (vaziyat, kommunikativ-pragmatik va madaniy kontekstlar). Nomlangan energiya oqimlari o’zlarining birligida nutqning assotsiativ-derivatsion mohiyatini ifodalaydi, buning natijasida unda ishlatiladigan lingvistik belgilarga aylanadi.

Uning majoziy birliklari nafaqat ratsional ma’lumotni o’tkazishga, balki insonning his-tuyg’ularining deyarli cheksiz doirasini ifodalashga qodir, insonning idrok etilgan dunyoni tushunishi va tajribasini birlikda ifodalaydi. Aynan shu o’zaro ta’sir natijasida, N.F. Alefirenko,diskursiv

makonning ontologik va funksional “o’zini o’zi tashkil qilish” ga va uning tarkibiy qismlarining semantik taqsimotini aniqlashga qaratilgan “energiyani birlashtirish va birgalikda osonlashtirish” mavjud,-deb ta’kidlaydi(3.B-233.).

Shunday qilib, bizning ko’rib chiqishimiz mavzusi bo’lgan she’riy matnlar maxsus diskursiv poetik muhitda - o’z-o’zini tashkil etuvchi, ma’no hosil qiluvchi, chiziqli bo’lmagan, butun bir etnik-madaniy guruhning she’riy lingvistik ongining tabiatini belgilaydigan sinergetik shakllanishda hosil bo’ladi.

Matn hodisasi quyidagi belgilarga ega: u yozib olinadi, guvohi bo‘ladi va tasvirlanadi, ma’lum bir vaqtda, ma’lum bir makonda sodir bo‘ladi, ma’lum muallifga ega bo‘ladi, muloqotga yo‘naltiriladi, nutqni o‘zgartiradi (diskursiv modellar boyitiladi). Bu xususiyatlarning barchasi (kognitiv tabiat, kommunikativ-pragmatik yo’nalish, fazoviy-vaqt va madaniy kontekstlarda amalga oshirish) ushbu hodisaning diskursiv xususiyatini ko’rsatadi va natijada matnning maxsus, diskursiv makonining mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu diskursiv makonning o’ziga xosligini aniqlash uchun matn maydoni tushunchasini bir butun sifatida ko’rish maqsadga muvofiq.

Shaxsning asosiy xususiyati ong va o’z-o’zini anglash mavjudligidan kelib chiqqan holda, S.E. Nikitina lingvistik shaxsning asosiy xususiyati lingvistik ong va lingvistik o’z-o’zini anglashning mavjudligi degan xulosaga keladi: “shaxsning lingvistik ongini gapirganda, biz shaxsning nutq xatti-harakatining kommunikativ vaziyat, uning lingvistik va madaniy dunyosi, ijtimoiy va madaniy holati, boshqa xususiyatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini yodda tutishimiz kerak(4.B-34-40.).

Poetik lingvistik shaxs tushunchasining mohiyatini lingvistik shaxsning funksional turlaridan biri sifatida talqin qilish usullaridan biri bu hodisaning tabiatini kommunikantlarning lingvistiknutq ongi prizmasi orqali ko’rib chiqish bo’lishi mumkin, bu she’riy kommunikativ vaziyatga kiritilganda amalga oshiriladi.

Ta’riflangan diskursiv vaziyatda jo’natuvchi va qabul qiluvchining nutq faoliyati uch jihatdan amalga oshiriladi: lingvistik, kognitiv va kommunikativ. Matnni jo’natuvchi tomonidan amalga oshiriladigan va qabul qiluvchi tomonidan idrok etilgan nutq vositalari lingvistik jihatni ifodalaydi. Matnlarni yaratish va idrok etishga ta’sir qiluvchi lingvistik ong lingvokognitiv bilan bog’liq bo’lib, matnni jo’natuvchi tomonidan ataylab vayoki odatiy nutq vositalarini tanlashning namoyon bo’lishi nutqning lingvopragmatik (kommunikativ) rejasiga mos keladi.

Matnning mazmuniy rejasini tashkil etuvchi ma’lumotlar substantiv-faktual, substantiv-kontseptual va substantiv-pastkimatnli bo’lishi mumkin. Yana bir kontsepsiya I.V. Arnold tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, u birinchi turdagi ma’lumotlar, ya’ni mazmunli-faktik va ikkinchi turdagi, ya’ni matn ifodalashi mumkin bo’lgan barcha xilma-xil ma’nolar, hislar, shuningdek, ta’sirlar mavjud deb hisoblaydi (5.B-83-91). Murojaat qiluvchining ongida aks ettirilgan, mazmunli va faktik; axborot yuzaki ma’no maqomiga ega bo’ladi. Butun matnning nutqiy to‘qimasida ko‘p sonli yuzaki ma’nolarning mahsuli bo‘lgan matnning chuqur ma’nosini nutqda ifodalangan va uning ishtirokida shaxs ongida shakllangan ma’lumotlar yig‘indisi deb tushunish mumkin. Matnni sub’ekt-ramziy shakllanish sifatida qabul qilgan o’quvchi ob’ektiv omil - matn semantikasiga tayangan holda, uning ma’nosini (yuzaki va chuqur) o’zining axborot tezaurusiga muvofiq ishlab chiqaradi.

Matndagi faktik ma’lumotlar o’z-o’zidan mavjud emas, u kontseptual ma’lumot sifatida shakllanadi, ya’ni haqiqiy yoki xayoliy voqelik hodisalari o’rtasidagi munosabatlarni muallifning individual tushunishini ifodalaydi.

KUTILAYOTGAN NATIJA: Yuqoridagi ta’riflarda nutq matn sifatida bir necha bor ta’riflanganiga qaramay, nutq va matn bir qator parametrlar bilan yaqqol ajralib turadi: Matnni ta’riflashda yaxlitlik, to‘liqlik, ishlov berish, izchillik, tuzilish kabi sifatlar ta’kidlangan bo‘lsa, nutq ta’rifida dinamizm va “hodisaviylik” g‘oyasi alohida ta’kidlanadi. Agar matn mahsulot bo’lsa, nutq yaratish faoliyatining natijasi, nutq yaratish jarayonining mahsulidir.

Aytilgan xususiyatlarning bir hodisada mavjudligi ularni boshqa bir hodisada istisno qiladi, deb aytish mumkin emas. Ta’kidlanganidek, bu tushunchalarning ikkalasi ham quyidagilarga ega: 1) so’zlovchining suhbatdoshga ta’sir qilish niyatining ifodalanganligi;2) to’liqlik; 3) ulanish; 4) voqelikning in’ikosi, ammo ularning matndagi to’liqlik va rasmiyatchilik g’oyasi va nutqdagi dinamizm bilan uyg’unligi chiziqlilik-nochiziqlilik munosabatlarini yaratadi.

XULOSA:Umuman olganda, zamonaviy tilshunoslik matn va nutq o’rtasidagi qat’iy bo’lmagan qarama-qarshilikni ta’kidlaydi. Bu, ehtimol, matn va nutq o’rtasidagi munosabat masalasida olimlar o’rtasidagi fikrlarning ko’pligi bilan bog’liq. Matn nutqning elementar (asosiy) birligi, nutq esa bir butun matn yoki qandaydir xususiyat bilan birlashgan matnlar majmui sifatida qaraladi; matnni nutq faoliyatining ma’lum bir natijasi sifatida ham ko‘rish mumkin, yoki nutq bilan tenglashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Степанов, Ю.С. О трехмерном пространстве языка: семиотические проблемы ингвистики, философии, искусства [Текст] / Ю.С. Степанов. - М.: Наука, 1985. - 335 с.

2.Арутюнова,Н. Д. Истина: фон и коннотации [Текст] / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Культурные концепты: сб. ст.-М., 1991.-С. 21-30.

3.Алефиренко, Н. Ф. Спорные проблемы семантики [Текст] / Н. Ф. Алефиренко. - Волгоград: Перемена, 1999. - 273 с.

4.Никитина, С.Е. Языковое сознание и- самосознание личности в народной культуре [Текст] / Е.С. Никитина // Язык и личность. - М.: Наука, 1989. - С.34-40.

5.Арнольд,’И. В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения [Текст] / И.В. Арнольд // Вопр. языкознания. - 1982. -№ 4. - С.83-91.

ГЕНЕЗИС И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ ГЛАГОЛОВ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Курбанова Гулзода Юнусовна
БГПИ предователь

Аннотация В статье рассматривается генезис и современное развитие глаголов физиологического состояния в узбекском языке. Проанализированы их историческое происхождение, влияние других языков и культур на формирование данной лексико-семантической группы. Особое внимание уделено заимствованиям из персидского, арабского, русского и английского языков, а также их адаптации к узбекской грамматической системе.

Ключевые слова: генезис, глаголы физиологического состояния, узбекский язык, тюркские корни, заимствования, семантика, культурное влияние, историческое развитие, современное развитие, лексико-семантическая система.

Abstract The article examines the genesis and modern development of verbs of physiological state in the Uzbek language. Their historical origin, the influence of other languages and cultures on the formation of this lexical-semantic group are analyzed. Particular attention is paid to borrowings from Persian, Arabic, Russian and English, as well as their adaptation to the Uzbek grammatical system.

Key words: genesis, verbs of physiological state, Uzbek language, Turkic roots, borrowings, semantics, cultural influence, historical development, modern development, lexical-semantic system.

Изучение языков позволяет глубже понять специфику мышления, культуры и истории народа, для которого этот язык является родным. Одной из ключевых и наиболее значимых частей языка являются глаголы, так как они выражают действия, состояния, процессы и отношения. В этом контексте глаголы физиологического состояния занимают особое место, так как они отражают базовые человеческие ощущения, переживания и процессы, связанные с телесной и эмоциональной природой человека. В узбекском языке, как в одном из представителей тюркской языковой семьи, глаголы физиологического состояния обладают богатой историей и своеобразными особенностями. Их эволюция отражает влияние культурно-исторических, социальных и лингвистических факторов, а также взаимодействие с соседними языками. Современное развитие таких глаголов связано с адаптацией к изменяющимся условиям общества, что включает заимствования, преобразования значений и развитие новых форм. Генезис глаголов физиологического состояния в узбекском языке прослеживается через призму историко-этимологических исследований, позволяя выделить древние корни, заимствования из других языков и инновации, возникшие в процессе внутреннего развития. Анализ современного состояния этих глаголов позволяет выявить тенденции их употребления, специфику семантической структуры и изменения, связанные с воздействием современных реалий.

Таким образом, тема исследования глаголов физиологического состояния в узбекском языке представляет собой важный и актуальный аспект, который раскрывает взаимодействие языка и культуры, а также особенности функционирования языка в прошлом и настоящем. Глаголы физиологического состояния в узбекском языке имеют многовековую историю развития, тесно связанную с культурными и историческими изменениями в регионе. Их генезис отражает основные черты тюркской языковой системы, а также влияние соседних культур, таких как персидская, арабская и русская.

Основная часть таких глаголов восходит к древнетюркскому языку, где они выражали базовые физиологические процессы и состояния, такие как дыхание, сон, голод, жажда и боль. Примеры таких глаголов включают слова, которые сохранились в современном узбекском

языке, например: уйқу келмоқ («хотеть спать»), ачқамоқ («испытывать голод»), оғримоқ («болеть»). Эти глаголы, как правило, имели прямую связь с повседневными нуждами и переживаниями человека, отражая практическую ориентацию языка. Заимствования из персидского и арабского языков в период господства этих культур в регионе обогатили лексический состав узбекского языка. Многие глаголы физиологического состояния, такие как нафас олмоқ («дышать»), были адаптированы с использованием тюркских грамматических структур, но при этом сохранили свою семантическую основу. Со временем, в результате контактов с русским языком, особенно в XIX-XX веках, в узбекский язык проникли новые термины, отражающие изменившийся культурный контекст. Например, русское слово простудиться привело к образованию соответствующего узбекского глагола совуққа чалиниш.

Глаголы физиологического состояния в узбекском языке характеризуются полифункциональностью и богатством значений. Они могут выражать как конкретные физиологические процессы (например, терламоқ — «потеть»), так и эмоционально-экспрессивные состояния (например, қувонмоқ — «радоваться», которое связано с физиологическими проявлениями эмоций). Некоторые глаголы обладают широкими переносными значениями, что позволяет использовать их в различных контекстах. Например, глагол қовурмоқ («жечь») может применяться как для описания физического состояния, связанного с жаром, так и в переносном значении для описания сильных переживаний. С точки зрения грамматики, узбекский язык позволяет выражать физиологические состояния через сложные конструкции. В современном языке наблюдаются тенденции к образованию аналитических форм, таких как қўлдан келмоқ («быть в силах») или ўзини яхши ҳис қилмоқ («чувствовать себя хорошо»). В современном узбекском языке развитие глаголов физиологического состояния связано с урбанизацией, глобализацией и внедрением новых технологий. Процессы заимствования продолжаются, в основном из русского и английского языков. Например, английское to stress способствовало появлению выражения стрессга тушмоқ («испытывать стресс»). Современные социальные и медицинские реалии также оказывают влияние на лексику. Термины, связанные с современными заболеваниями и состояниями (например, депрессияга тушмоқ — «впадать в депрессию»), обогащают язык новыми формами. При этом сохраняется тенденция адаптации заимствованных глаголов к узбекской грамматике и фонетике. Еще одной важной чертой современного развития является активное использование разговорных форм и диалектизмов в массовой культуре, таких как в социальных сетях и литературе. Это способствует популяризации новых значений глаголов и их проникновению в повседневный язык. Роль глаголов физиологического состояния в культурной идентичности. Глаголы физиологического состояния в узбекском языке не только отражают особенности функционирования языка, но и являются важным элементом национальной идентичности. Через них передаются уникальные черты менталитета, культурные традиции и ценности узбекского народа. Таким образом, генезис и современное развитие этих глаголов демонстрируют сложное взаимодействие исторических, культурных и лингвистических факторов, что делает их изучение важным для понимания эволюции узбекского языка в целом.

Глаголы физиологического состояния в узбекском языке представляют собой уникальную и значимую часть его лексико-семантической системы, которая отражает основные аспекты человеческого существования и взаимодействия с окружающим миром. Исследование их генезиса показывает, что эти глаголы имеют древние тюркские корни, обогащенные за счет культурного и языкового взаимодействия с персидским, арабским, русским и английским языками.

Современное развитие глаголов физиологического состояния свидетельствует о динамичности языка, его способности адаптироваться к новым условиям. Заимствования, появление аналитических форм и расширение значений под влиянием глобализации и

научно-технического прогресса отражают изменяющиеся потребности общества и язык как живой организм. Важной особенностью является сохранение традиционных форм и значений, что подчеркивает связь языка с национальной культурой и историей. В то же время новообразования и заимствования подтверждают открытость узбекского языка к внешним влияниям и его эволюцию в условиях современности. Таким образом, глаголы физиологического состояния являются не только языковым инструментом для описания физиологических процессов и эмоций, но и важным свидетельством исторического развития, культурных трансформаций и социальных изменений узбекского народа. Изучение этой темы имеет большое значение для лингвистики, культурологии и этнографии, предоставляя широкие перспективы для дальнейших исследований.

Исследование подчеркивает роль глаголов физиологического состояния как ключевых элементов, отражающих повседневные потребности и эмоциональные состояния человека, а также их значение в сохранении культурной идентичности. Отмечены современные тенденции в развитии данной категории, включая появление новых форм и значений, связанных с изменениями в образе жизни, медицинскими и социальными реалиями.

Результаты работы демонстрируют, как изменения в языке отражают исторические и социальные процессы, происходящие в обществе, что делает изучение этой темы важным для понимания эволюции узбекского языка в целом.

Литературы

1.Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G. and others. Contemporary Uzbek literaturelanguage - Tashkent: FT, 2010. - 208 p; Rahmatullaeva Sh. Movement in Uzbek language linguocultural and sociopragmatic forms of behavior aspects. – Against: Nasaf, 2018. – 96 p;

2.Kurbanova,G.Y.(2023) Семантико-типологический аспект глаголов состояния узбекского и русского языков. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS), Volume. 6, Issue 06, 448-451 s

3.Yunusovna, K. G. (2024). System of Lexical-Semantic Groups System of Verbs of Physiological State. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(4), 275-278.

4.G.Kurbanova. Semantic-typological aspect glagolov sostoyanya uzbeksko i russkogo yazykov. Page 1 International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 6, Issue.

5.Papafragou A., Selimis S. Event categorisation and language: A crosslinguistic study of motion// Language and Cognitive Processes, 2010 – pp. 224-260

6.Fayzullaev M.B G.Kurbanova Semantic aspect lexico-semantic group glagolov physiological sostoyian uzbekian language. Sovershenstvovanie methodiki obucheniya yazykam ploshchadkaobmenaprogressivnoy practikoy. Material vii mejdunarodnogo nauchno-metodicheskogo online seminar.

7.Gulzoda K. The influence of fairy tales on the moral education of children in primary school // Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 394-396.

8.Gulzoda K. The influence of fairy tales on the moral education of children in primary school // Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 394-396.

9.Курбанова Г. Пришвин ижодида бола тарбияси //Научно-практическая конференция. – 2021.

10.Курбанова Г. Ю. Семантико-типологический аспект глаголов состояния узбекского и русского языков //imras. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 481-486.

11.Kurbanova G. Семантико-типологический аспект глаголов состояния узбекского и русского языков //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

12.Курбанова Г. Ю. Глаголы физиологического состояния узбекского языка //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 83-86.

NUTQ ETIKETI BIRLIKLARINING MULOQOTDAGI VA LINGVOMADANIY VAZIFALARI

Matyakubov Zohid Mo‘minbayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq etiketi birliklarining muloqot jarayonidagi kommunikativ va lingvomadaniy vazifalari o‘zbek va ingliz tillari misolida qiyosiy-pragmatik tahlil etiladi. Tadqiqotda nutq etiketi qoliplarining ijtimoiy-regulyativ, hissiy-ta’siriy, muloqotni yo‘naltiruvchi hamda marosimiy-ritual funksiyalari alohida yoritiladi. O‘zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lpon asarlaridan, ingliz adabiyotidan esa Sharlotta Bronte, Jeyn Ostin va J.D. Salinger asarlaridan olingan misollar asosida ularning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Nutq etiketi, lingvopragmatika, muloqot, ijtimoiy maqom, madaniyatlararo muloqot, etik qoliplar.

Abstract. This article presents a comparative-pragmatic analysis of the communicative and linguocultural functions of speech etiquette units in the process of communication using the examples of Uzbek and English languages. The study separately highlights the socio-regulatory, emotional-affective, communication-directing, and ceremonial-ritual functions of speech etiquette patterns. The features of their use are analyzed based on examples taken from the works of Abdulla Qodiriy and Abdulhamid Cholpon from Uzbek literature and from the works of Charlotte Bronte, Jane Austen, and J.D. Salinger from English literature.

Keywords: speech etiquette, pragmalinguistics, communication, social status, intercultural communication, etiquette formulas.

Аннотация. В статье представлен сопоставительно-прагматический анализ коммуникативных и лингвокультурологических функций речевых этикетных единиц в процессе общения на примере узбекского и английского языков. Отдельно выделены социально-регулятивная, эмоционально-аффективная, коммуникативно-направляющая и церемониально-ритуальная функции речевых этикетных моделей. Особенности их использования анализируются на примерах из произведений Абдуллы Кадыри и Абдулхамида Чолпона (узбекская литература), а также из произведений Шарлотты Бронте, Джейн Остин и Дж. Д. Сэлинджера (английская литература).

Ключевые слова: речевой этикет, прагмалингвистика, коммуникация, социальный статус, межкультурная коммуникация, формулы этикета.

Kirish. Insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayoni murakkab ijtimoiy-lisoniy hodisa bo‘lib, unda til birliklari faqatgina axborot uzatish yoki ma’lumot yetkazish vazifasini emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, hissiy kayfiyatni ifodalash va madaniy qadriyatlarni namoyon etish vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, nutq etiketi birliklari tilshunoslik va xususan, pragmalingvistikaning dolzarb tadqiqot obyekti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ular nafaqat muloqotning shakliy tomonini belgilab beradi, balki uning mazmuniy, ijtimoiy va madaniy qatlamlarini ham yoritadi.

Nutq etiketi birliklari kommunikativ jarayonni qulaylashtirish, suhbat ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hurmat va e’tiborni ta’minlash bilan birga, tomonlarning ijtimoiy maqomi va ierarxik o‘rnini belgilashda ham muhim ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi. Masalan, suhbatda “Domla”, “Opa”, “Hurmatli janoblar” kabi murojaatlar ijtimoiy maqomni aks ettirsa, “Marhamat”, “Iltimos”, “Rahmat” kabi etik birliklar suhbatdoshga bo‘lgan hurmat darajasini bildiradi. Ingliz tilida esa xuddi shu vazifani bajaruvchi “Sir”, “Madam”, “Dear colleagues”, “Please”, “Thank you” kabi birliklar keng qo‘llaniladi. Bu hodisa shuni ko‘rsatadiki, nutq etiketi birliklari milliy xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularning pragmatik vazifalari umumjahon kommunikativ ehtiyojlarga tayanadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur maqolada nutq etiketi birliklarining muloqotni tashkil etishdagi o‘rni, ularning ijtimoiy-madaniy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda kommunikativ jarayon samaradorligini oshirishdagi amaliy ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o‘zbek va ingliz tillaridagi nutq etiketi vositalari qiyosiy-chog‘ishtiruv usulida ko‘rib chiqilib, ularning lingvopragmatik jihatdan o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanadi.

Xususan, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi nutq etiketi birliklari ko‘proq an’anaviy qadriyatlarga, oilaviy va jamoaviy birlikni ifodalovchi formulalarga asoslangan bo‘lsa, ingliz tilidagi birliklar ko‘proq shaxsiy erkinlik, individual munosabat va rasmiy etik me’yorlarni ifodalashga yo‘naltirilgan. Bu esa madaniyatlararo muloqotda etik birliklarning to‘g‘ri qo‘llanilishi suhbat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Nutq etiketi birliklarining kommunikativ funksiyalari

Nutq etiketi birliklari insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida nafaqat oddiy til vositasi, balki ijtimoiy-madaniy va pragmatik jihatdan muhim kommunikativ mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ular orqali suhbatdoshlarning bir-biriga nisbatan munosabati, ijtimoiy maqomi, hissiy holati va madaniy qadriyatlarga munosabati ifodalanadi. Shu bois nutq etiketi vositalarining kommunikativ funksiyalarini tahlil qilish ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Nutq etiketi vositalarining asosiy kommunikativ funksiyalari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy tartibga solish vazifasi.

Bunda suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani belgilanadi, shaxsiy maqom va hurmat darajasini ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilida “Domla”, “Opa”, “Aka” kabi murojaatlar suhbatdoshning ijtimoiy maqomini bildiradi. Ingliz tilida esa “Sir”, “Madam” “Dr.” “Mr.” “Prof.” kabi murojaatlar(initials) shaxsiy maqomni belgilovchi umumiy shakllar hisoblanadi. “…E-e, — dedi so‘fi cho‘zib va o‘zidan xursand bir kulimsirash bilan kulimsiradi: — mening davlatim hech kimda yo‘q, aka!...Shirin-shirin gap o‘rniga shirin-shirin ashuladan bo‘lsin, opa...Yozgan odam o‘sha berkitilgan maktabning domla-si... jadid!... Nikoh, hazrat, — dedim, no‘g‘oylar domlalarni «hazrat», der ekanlar...”(Kecha va kunduz, Abdulhamid Cho‘lpon).

Ushbu asardan keltirilgan parchada “aka”, “opa” va “domla” so’zlari asarda tasvirlangan davr va murojaat usullariga ko’ra hurmatni ifodalovchi vazifasini bajarganini ko’rishimiz mumkin. Yani “domla” o’sha vaqt uchun (hozirgi vaqtda ham) hurmatga loyiq shaxs sifatida tasvirlangan. “Aka” va “opa” murojaat shakllari esa yosh nuqtai nazardan va muloqotdagi hurmat shakli ma’noslarida ishlatilganini ko’rishimiz mumkin. “In the course of the morning Mr. Lloyd came again… Jane: your name is Jane, is it not?’ ‘Yes, sir, Jane Eyre.’ ‘Well, you have been crying, Miss Jane Eyre; can you tell me what about? Have you any pain?’ ‘No, sir… ‘Your decisions are perfectly judicious, madam,’ returned Mr. Brocklehurst.” (Jane Eyre, Charlotte Bronte).

Yuqorida keltirilgan ingliz adabiyotidan olingan parchada “Mr.”, “Miss”, “sir”, “madam” kabi murojaat shakllari so’zlovchining odobini va tinglovchining maqomini ifodalab turibdi. Ya’ni Angliyada “Sir” unvoni yuqori darajagi unvonlardan sanalib bunday unvonga ega bo’lmagan yoki shu maqom bilan teng bo’lgan shaxslarga nisbatan murojaat shakllarini ishlatilishi suhbatdosh maqomini va unga bo’lgan hurmatni bildiradi. “Mr.”, “Miss”, “madam” kabi murojaat shakllari murojaat qilinayotgan shaxsning oila qurgan yoki qurmaganligini (marital status), qanday (tabaqa vakili) oiladan ekanligini ko’rsatishda ham foydalanilgan.

Hissiy ta’sirni ifodalash funksiyasi

Nutq etiketi birliklarining muhim vazifalaridan biri bu — suhbatdoshning hissiy kechinmalarini ifodalash va muloqot jarayoniga hissiy tus berishdir. Tilshunoslikda bunday birliklar insonlar o‘rtasidagi muloqotni yanada samimiyroq, iliqroq qilish bilan birga, ijtimoiy-psixologik aloqani mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi. Masalan, o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan “Yaxshi boring”, “Omon bo‘ling”, “Xudo asrasin” kabi etik formulalar nafaqat xayrlashuv jarayonini, balki suhbatdoshga bo‘lgan mehr-muhabbat, samimiy tilak va duoni ham ifodalaydi. Ushbu

birliklarning semantik-pragmatik mohiyati shundaki, ular ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, hurmat va iliqlikni namoyon qiladi. Aziz beging omon bo‘lsin — yor. (O’tkan kunlar, Abdulla Qodiriy).Arqonni qattig‘ ushlab, oyog‘ingizni devorg‘a tirab tushasiz, Ra’no... Endi omon bo‘ling, singlim...– Kelinoyimlarg‘a salom ayting, siz ham, amaki... – Xayr, xudoning panohiga, Anvar.— Xo‘sh, Sultonali aka.(Mehrobdan chayon, Abdulla Qodiriy). Keltirilgan ushbu misolda “omon bo’lsin” birikmasi orqali so’zlovchining suhbatdoshiga bo’lgan samimiyatini hissiy ifodalagan bo’lsa “xudoning panohiga” birikmasi orqali samimiyatini diniy jihatdan ma’noni kuchaytirishga xizmat qilib kelganini guvohi bo’lishimiz mumkin. “‘Take care then, sir!—for God’s sake, take care!’ … Oh! my darling! God bless you and reward you!’… ‘God bless you, my dear master!’ I said. ‘God keep you from harm and wrong—direct you, solace you—reward you well for your past kindness to me.’ “ (Jane Eyre, Charlotte Bronte). Ingliz tilidagi asar orqali ifodalangan ushbu parchada “Take care”, “God bless you”, “God keep you from harm” birikmalalari ozbek tilidagi “omon bo’lsin”, “xudoning panohiga” kabi birikmalariga ma’no jihatdan muqobil bo’lishini ko’rishimiz mumkin. Yuqoridagi misollarning har ikkalasida ishlatilgan qoliplar shunchaki odatiy vosita emasligini, balki madaniy belgilarini, xalqning mentalitetini bildirishiga ham yaqqol misol bo’la oladi.

Muloqotni yo’naltirish vazifasi.

Etik birliklar muloqotni boshqaradi, suhbatni yo‘naltiradi va tartibga soladi. Masalan, “Keling, o‘tiring”, “Iltimos, davom eting”, “Boshqacha qilib aytganda” kabi birliklar muloqot jarayonini tartibga soluvchi pragmatik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida ham muloqotni boshqaruvi quyidagi “discourse marker”lar bilan ifodalanib muloqotdagi shaxsga “ko’rsatma” berish orqali “jarayonni boshqarish” ga xizmat qiladi. “Please, have a seat”, “Come in, sit down”, “Make yourself comfortable” ““Have a seat there, boy” old Spencer said. He meant the bed… “Sit down, Holden,” MR. Antolini said.”(Catcher I the Rye, J.D.Salinger) Do sit down and make yourself comfortable.(https://dictionary.cambridge.org/). Muloqotda nutq odobiga rioya qilgan holda ikkinchi tomonni o’zini qulay his qilishi uchun unga ma’lum ma’noda sharoit yaratiladi unga erkinlik yaratib beriladi. Bu esa suhbatni ravon bo’lishiga xizmat qiladi, bundan tashqari tomonlarning yoshi, maqomi ham inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi misolda bu jarayoz aniq ko’rsatib berilgan. “— Keling, Gulshan, — dedi oyim, — o‘lturing, vaalaykum assalom. Gulshan ta’zim bilan birinchi darichaning yuqorisig‘a borib o‘lturdi va duog‘a qo‘l ko‘tardi.” (Mehrobdan chayon, Abdulla Qodiriy). “...o‘rta yo‘lakda ko‘ringan Yusufbek hojini o‘ziga imladi. — Beri keling.... Hasanalini hamon o‘ziga tikilib turg‘anini bilib, manglayini qashig‘an bo‘ldi: — Xo‘sh, davom etingiz... — Bu sirringizni mendan yashirmoqchi bo‘lasiz…”(Otkan kunlar, Abdulla Qodiriy). Millatimizda o’zidan yoshi kichik bo’lgan insonlaga “siz” deb murojjat qilishi o’zbek madaniyatiga xos belgi ekanligi sir emas. Shuningdek, notanish va yoshi ulug’ insonlar o’rtasidagi muloqotda ham bu turdagi murojaatlar kuzatilib u ba’zi hollada noverbal ishoralar bilan ham ifodalanadi. Yuqoridagi “Beri keling” birikmasini ishora qilinishi buniisboti ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Tadbirlardagi murojaatlarni ifodalash vazifasi.

Nutq etiketi birliklari inson muloqotida nafaqat ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ifodalash, balki marosimiy vaziyatlarda muhim kommunikativ vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ular ko‘pincha to‘y, bayram, yig‘ilish, rasmiy uchrashuv va boshqa marosimlarda muloqotning boshida yoki yakunida qo‘llanilib, kommunikativ jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Shu ma’noda, nutq etiketi birliklari ritual xususiyat kasb etib, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatni mustahkamlash, iliqlik yaratish va ijtimoiy birlikni ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Masalan, o‘zbek tilidagi marosimiy nutq namunalari orasida “Tabriklaymiz!”, “Umr yo‘ldoshingiz bilan baxtli bo‘ling!”, “Xonadoningiz tinch, rizqingiz butun bo‘lsin!” kabi formulalar keng tarqalgan. Ushbu iboralar nafaqat shaxsiy quvonchni bildirish, balki ijtimoiy hamjihatlik va qadriyatlarni mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Xuddi shu kabi ingliz tilida “Congratulations!”, “Best wishes!”, “Wishing you happiness together!” kabi iboralar

marosimiy nutqda ritual xarakterga ega bo‘lib, suhbatdoshga iliqlik, e’tibor va samimiyatni yetkazish vazifasini bajaradi.

Bunday formulalar adabiy matnlarda ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida marosimiy nutq birliklarining yorqin ko‘rinishi kuzatiladi: “— Muborak, muborak! Borakallo, mirzo Anvar! – dedi.” Bu parchada nutq etiketi marosimiy vaziyatga xos bo‘lgan tabrik va olqish formulalari orqali ifodalangan. Ular obrazlarning o‘zaro munosabatini iliqlashtirish bilan birga, milliy madaniyat va an’analarni ham aks ettiradi. Ingliz adabiyotidan esa Jane Austinning “Pride and Prejudice” romanidagi quyidagi parcha mazkur birliklarning universal kommunikativ vazifasini ko‘rsatadi: “I congratulate her. Next to being married, a girl likes to be crossed a little in love now and then… Forgive me for having taken up so much of your time, and accept my best wishes for your health and happiness.” Bu yerda “I congratulate her”, “best wishes” kabi nutq etiketi formulalari suhbatning ritual xususiyatini ochib beradi. Shu orqali muallif ingliz jamiyatida marosimiy nutqning qanday ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Ingliz tilshunosligida bunday birliklar ritual formulas yoki speech etiquette markers deb yuritilib, ularning asosiy lingvopragmatik vazifasi — kommunikativ jarayonda suhbatdoshni ijobiy ruhda qabul qilish, muloqotning samimiyligini ta’minlash va marosimiy vaziyatni to‘laqonli tashkil qilishdir.

Xulosa

Nutq etiketi birliklari zamonaviy lingvistika va pragmalingvistikaning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida nafaqat tilning tarkibiy unsuri, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ular muloqot jarayonida axborot almashishning oddiy vositasi bo‘lib qolmay, suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi, hissiy kayfiyati va o‘zaro munosabatini belgilovchi lingvopragmatik indikator vazifasini bajaradi. Shu tariqa, nutq etiketi muloqotning samimiy va samarali kechishini ta’minlash bilan birga, ijtimoiy barqarorlik va madaniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Etik birliklarning kommunikativ ahamiyati shundaki, ular bevosita ijtimoiy-madaniy kontekstga bog‘langan bo‘lib, suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, diniy e’tiqodi, milliy urf-odatlari va madaniy an’analariga mos tarzda shakllanadi va qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilida “Domla”, “Opa”, “Hurmatli janoblar” kabi murojaatlar ijtimoiy maqomni bildirsa, ingliz tilida “Sir”, “Madam”, “Dear colleagues” kabi birliklar xuddi shu vazifani bajaradi. Bu hodisa etik birliklarning universal kommunikativ ehtiyojlarga asoslanganini, ammo ularning shakl va qo‘llanishida milliy o‘ziga xoslik muhim rol o‘ynashini yaqqol ko‘rsatadi.

Nutq etiketi birliklarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish bir qator sohalarda amaliy natijalar beradi. Avvalo, ular nutq madaniyatini yuksaltirish, ya’ni muloqot jarayonida madaniyatli, samimiy va o‘rinli ifodalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarjima jarayonida etik birliklarning to‘g‘ri qo‘llanishi madaniyatlararo anglashuvni osonlashtiradi hamda matnning lingvopragmatik mazmunini to‘liq ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘qitishda nutq etiketi birliklarining o‘rgatilishi talabalar nutqiy kompetensiyasini oshirish, ularni nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy jihatdan ham tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, nutq etiketi birliklari kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli kechishi, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash va madaniy qadriyatlarni mustahkamlashda beqiyos o‘rin tutadi. Ularning chuqur tahlili lingvopragmatika, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, kelgusida yanada keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullayeva, M. (2020). Til va madaniyat: lingvopragmatik yondashuv. Toshkent: Fan.
2.Akhmanova, O. S. (2010). Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar′. Moskva: Drofa.

3.Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford: Oxford University Press.
4.Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge: Cambridge University Press.
5.Crystal, D. (2008). A dictionary of linguistics and phonetics. Oxford: Blackwell.
6.Fraser, B. (1990). Perspectives on politeness. Journal of Pragmatics, 14(2), 219–236.
7.G‘ulomova, N. (2018). Nutq madaniyati va etik formulalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
8.Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In Cole, P., & Morgan, J. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3 (pp. 41–58). New York: Academic Press.
9.Holmes, J. (2013). An introduction to sociolinguistics. London: Longman.
10.Kasper, G. (1997). Can pragmatic competence be taught? NetWork, 6, 105–119.
11.Leech, G. (2014). The pragmatics of politeness. Oxford: Oxford University Press.
12.Scollon, R., & Scollon, S. W. (2001). Intercultural communication: A discourse approach. Oxford: Blackwell.
13.Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge: Cambridge University Press.
14.Thomas, J. (1995). Meaning in interaction: An introduction to pragmatics. London: Longman.
15.Wierzbicka, A. (2003). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Berlin: Mouton de Gruyter.
16.Xudoyberganova, D. (2019). Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi. Toshkent: Ma’naviyat.
17.Yusupova, M. (2021). Tilshunoslikda pragmatik yondashuv masalalari. O‘zbekiston filologiya jurnali, 2(1), 45–53.
18.Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.
19.Zorikhina-Nilsson, N. (2011). Politeness strategies in English and Russian. Journal of Pragmatics, 43(1), 1–15.
20.Zohidov, A. (2015). Nutq madaniyati va lingvopragmatika. Toshkent: Universitet nashriyoti.

IJTIMOIY-SIYOSIY O‘ZLASHMALAR TIL EVOLYUTSIYASIDAGI MUHIM OMIL SIFATIDA

Mukaddas ISRAIL,
filologiya fanlari doktori, professor. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Ma’lumki, til ichki imkoniyatlar va tashqi ta’sirlar natijasida taraqqiy etadi. Har qanday tilning leksik tarkibi o‘zlashma so‘zlar hisobiga boyib boradi. Aytish joizki, muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoit tufayli tilimiz ko‘plab boshqa yot tillardan kirib kelgan o‘zlashmalar hisobiga boyib boradi. Albatta, bundan sohaviy leksika ham xoli emas. Tadqiqotlar o‘zlashmalarning aksariyati sohaga tegishli tushunchalar, ya’ni terminlar ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada zamonaviy sotsiolingvistika tilga ta‘sir qiluvchi ko‘plab omillarni hisobga olgan holda, tilning ijtimoiy tabaqalanishi tuzilishi va jamiyat tuzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjudligi ochib berilgan.

Kalit so’zlar: sotsiolingvistik omil, ijtimoiy-siyosiy o‘zlashmalar, ijtimoiy voqelik, lingvistik omil, lisoniy-uslubiy xususiyatlar, semantik taraqqiyot, sohaviy leksika, terminlar, til evolyutsiyasi.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯКАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР В ЭВОЛЮЦИИ ЯЗЫКА

Мукаддас ИСРАИЛ,
доктор филологических наук, профессор. Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация. Известно, что язык развивается в результате внутренних возможностей и внешних влияний. Лексический состав любого языка обогащается за счет заимствованных слов. Следует отметить, что благодаря определенным социально-политическим условиям наш язык обогащается за счет заимствований, поступающих из многих других иностранных языков. Конечно, отраслевая лексика не является исключением. Исследования показывают, что большинство заимствований являются отраслевыми понятиями, то есть терминами. В данной статье, учитывая множество факторов, влияющих на современную социолингвистику, раскрывается взаимосвязь между социальной стратификацией языка и структурой общества.

Ключевые слова: социолингвистический фактор, социально-политические заимствования, социальная реальность, лингвистический фактор, лингвостилистические особенности, семантическое развитие, отраслевая лексика, термины, языковая эволюция.

SOCIO-POLITICAL NOUNS AS AN IMPORTANT FACTORIN THE EVOLUTION OF LANGUAGE

Mukaddas ISRAIL,
doctor of philological sciences, professor. Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

Annotation. It is known that language develops as a result of internal capabilities and external influences. The lexical composition of any language is enriched by borrowed words. It should be noted that due to certain socio-political conditions, our language is enriched by borrowings from many other foreign languages. Of course, industry vocabulary is no exception. Studies show that most borrowings are sectoral concepts, i.e., terms. In this article, taking into account many factors influencing modern sociolinguistics, the relationship between the social stratification of language and the structure of society is revealed.

Key words: sociolinguistic factor, socio-political assimilations, social reality, linguistic factor, linguistic-stylistic features, semantic development, sectoral lexicon, terms, language evolution.

Kirish. Ma‘lumki, o‘zbek tiliga fors, arab va rus tillari orqali ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan. Bu hodisaning turli sabablari bor. Birinchisi, fan-texnika jadal sur‘atlarda taraqqiy etayotganligi. Hozirda o‘zbek tili lug‘at boyligi ingliz tilidan olingan so‘zlar hisobiga yanada boyib bormoqda. Bu, ayniqsa, kompyuter texnologiyasining jadal rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy-siyosiy soha ko‘pincha ekspertlar va soha mutaxassislari o‘rtasida muloqot va axborot almashinuvini osonlashtiradigan maxsus tushunchalarni yaratishni talab qiladi. Yangi terminlar va tushunchalarning kirib kelishi jamiyatda yuz berayotgan siyosiy jarayon bilan bog‘liq hodisa sifatida qaraladi. Tilda bo‘layotgan o‘zgarishlarni aks ettiruvchi vaauditoriyaga yetkazishda asosiy vazifa, albatta, bosma mediaga yuklatildi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tiliga yangi tushunchalar bilan birga terminlarning kirib kelishi yoki yaratilishi kuzatiladi. Ma‘lumki, terminlar nomlash xususiyatiga yoki yaratilish xususiyatiga ega.

Adabiyotlar tahlili va usullar. Tilshunos olim B.X.Eshonqulovning yozishicha, “...o‘zlashgan so‘zlar tom ma’noda yangi tilning fonetik va grammatik qonuniyatlari ta’siriga uchrasa, o‘zlashmagan so‘zlar esa bunday ta’sirga uchray olmaydi” [7, 3].

O‘zlashmalarning paydo bo‘lishidagi asosiy sabab – hayotning turli sohalarida globallashuv, yuqori texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, ichki va tashqi siyosatda sodir bo‘layotgan jarayonlar kabi tildan tashqari omillardir. Til taraqqiyoti nuqtayi nazaridan shuni ta’kidlash mumkinki, aynan ijtimoiy o‘zgarishlar davrida til lug‘atining eng jadal boyitilishi sodir bo‘ladi [3].

F.Akbarxo‘jayeva o‘zlashtirish faqat lug‘at sohasiga taalluqli emas, qulay sharoit vujudga kelganda har qanday lingvistik material o‘zlashtirilishini ta’kidlagan holda, quyidagi fikrni keltiradi: “…terminlarni o‘zlashtirish jarayoni – bu turli ko‘rinishdagi elementlarni, shuningdek, ma’noni bir tildan boshqa tillarga ko‘chirish jarayonidir”. U.Vaynrayning fikricha, “...tillarni o‘zlashtirish jarayonixalqlarning madaniyatlararo aloqalarining davomiyligi, tilni egallash darajasi, ikki tilli (biling) jamiyat hayotida tillarning vazifaviy roli, mavqei va ularni ifodalovchi xalq tillari, madaniyatlari nufuzi; ikki yoki ko‘ptillilikni baholash hamda unga munosabat, shuningdek, ushbu hodisani kuzatuvchi interferensiya sharoitida yuz beradi” [2, 246].

O‘zbek tilshunos olimlari U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev boshqa tillardan kirib kelgan terminlar ma’lum bir lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgandagina ularga o‘zlashma termin sifatida qarash mumkin, deb hisoblaydilar va buni quyidagi xususiyatlar bilan asoslashadi:

1) chet tilidagi so‘zning o‘zlashtirayotgan tildagi grafik va fonetik vositalar bilan ifodalanishi;

2) o‘zlashma so‘zning o‘zlashtirayotgan til grammatik shakl va kategoriyalari bilan uyg‘unlashishi;

3) o‘zlashmaning semantik mustaqilligi;

4) o‘zlashma terminning muayyan terminologik sistemada doimiy ravishda qo‘llanishi [6, 46].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ko‘p tadqiqotlarda o‘zlashmalarning o‘z tilidagi shakli bilan so‘z qabul qilgan tildagi shakli o‘zaro funksional qiymat bilan munosabatga kirishishishi to‘g‘risida fikr bildirishadi va ularning quyidagi xususiyatlarini tasniflashadi:

aniq ma‘noga ega bo‘lgan so‘z yangi tilda mavhum ma‘noni ham ifodalashi mumkinligi;

jinsga taalluqli ayrim so‘zlar boshqa tilga o‘zlashganda, turga taalluqli so‘zga aylanishi;

so‘zlar o‘zlashganda bir ma‘noli so‘zdan ko‘p ma‘noli so‘zga o‘zgarishi;

ba‘zi so‘zlar muqobilsiz holda boshqa tillarga kirib kelishi mumkinligi;

noarxaik so‘zlar arxaik so‘zga aylanishi mumkinligi;

o‘zlashmalarning lug‘aviy mustaqilligi yo‘qolishi;

bir tildagi terminlar o‘zlashgan holda so‘zga aylanishi;

ba‘zi so‘zlar so‘z birikmasiga aylanishi [5, 54-58].

L. Blumfild o‘zlashma so‘zlar xususiyati borasida quyidagilarni ajratadi:

1) madaniyat tushunchasi;

2) hududiy yoki siyosiy yaqinlik tufayli bevosita til aloqalari natijasida yuzaga keladigan ichki o‘zlashmalar;

3) shevalardan adabiy tilga kirib kelgan dialektga xos o‘zlashmalar [1, 487].

Rus tilshunos olimi L.P.Krisin “o‘zlashgan so‘z” va “leksik o‘zlashma” tushunchalarini farqlash zarurligini ko‘rsatib o‘tadi va u bu holatni quyidagicha izohlaydi: “...“o‘zlashgan so‘z” tushunchasiga nisbatan qo‘llanadigan jarayon mohiyatida leksik o‘zlashishni aniqlashda tafovutli sanalgan sema “so‘zlarning bir tildan boshqasiga o‘tishi” hisoblanadi hamda har qanday so‘z uchun, jumladan, xorijiy so‘z uchun muhim bo‘lgan, tildagi faoliyati kabi belgilari turli, xususan, leksik, uning tizim unsurlari, nutqda vujudga kelish muntazamligi darajasi nisbati kabilar bilan yaxlit holga kelgan” [4, 34].

Mazkur maqolada o’zbek matbuoti gazeta matnlarining lisoniy-uslubiy jihatlari lisoniy-uslubiy, mantiqiy, qiyosiy, kontent-tahlilga tortilgan.

Natijalar va muhokama. Albatta, har qanday adabiy til alohida olingan til sifatida taraqqiy eta olmaydi, u ma‘lum bir til lug‘aviy boyligi obyektiv va subyektiv omillari asosida kengayib boradi. Rus va o‘zbek tillarining lug‘aviy tarkibi boyib borishida o‘zlashma so‘zlar munosib ahamiyatga ega. Kuzatish jarayonida ma‘lum bir tildan boshqa tilga kirib kelgan so‘zlarning katta qismi yangi tilning imlo va talaffuz qoidalariga to‘lig‘icha amal qilishi tufayli aksariyat o‘zlashma so‘zlar fonetik va morfologik yozuv tamoyillarini qabul qiladi, shu sabab o‘zbek tilida shakliy yozuv tamoyili asosida yoziladigan o‘zlashma so‘zlar nisbatan kam foizni tashkil qiladi.

Ma‘lumki, o‘zbek tiliga fors, arab va rus tillari orqali ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan. Bu hodisaning turli sabablari bor. Birinchisi, fan-texnika jadal sur‘atlarda taraqqiy etayotganligi. Hozirda o‘zbek tili lug‘at boyligi ingliz tilidan olingan so‘zlar hisobiga yanada boyib bormoqda. Bu, ayniqsa, kompyuter texnologiyasining jadal rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan ijtimoiy-siyosiy terminlar jamiyatning rivojlanishi va turli tillar o‘rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning o‘zlashma darajasini gazeta matnidagi voqelanishi orqali kuzatish mumkin. O‘zlashmalar tarkibida oldindan auditoriyaga tanish bo‘lgan tushunchalar qatoriga “Parlament” – qonun chiqaruvchi organ; “Konstitusiya” – davlatning asosiy qonuni, unda davlatning asosiy prinsiplari va fuqarolarning huquqlari belgilab qo‘yilgan; “Prezident” – davlatning eng yuqori mansabdor shaxsi; “Saylov” – xalq vakillarini tanlash jarayoni; “Muxolifat” – hokimiyatdagi guruhga qarshi turuvchi siyosiy kuchlar; “Referendum” – muhim davlat yoki mahalliy masalalar bo‘yicha xalq ovoz berishi; “Siyosatchi” – siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs; “Partiya” – ma‘lum siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan guruh yoki tashkilot; “Diplomatiya” – davlatlar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarni boshqarish san‘ati va amaliyoti; “aholi migratsiyasi” – aholining ixtiyoriy yoki majburiy ko‘chishi yoki aholining bir mamlakat ichida (aholining ichki migratsiyasi) yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga (aholining tashqi migratsiyasi: emigratsiya va immigratsiya) ko‘chishikabilarni kiritish mumkin.

Hozirda tilimizga yangi iqtisodiy terminlarning kirib kelishi va faollashuvini quyidagi gazeta matni orqali kuzatishimiz mumkin: “elektron biznes” – “электронный бизнес”; “elektron pul” – “электронные деньги”; “elektron tijorat” – “электронная коммерция”; “internet biznesi” – “бизнес интернета” ; “mobil iqtisodiyot” – “мобильная экономика”; “iqtisodiyotning mobillashuvi” – “мобилизация экономики”; “raqamli sektor” – “цифровой сектор”; “transchegaraviy biznes” – “трансграничный бизнес”; “bozor segmenti” – “рыночный сегмент”; “tijoriy maydon” – “коммерческая площадь” va h.k.

Gazeta matniga murojaat qilamiz: “Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi”; “Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir”; “... transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni qamrab oladi” (“Yangi O‘zbekiston”. 28.01.2020).

Misollarda elektron pul, raqamli texnologiyalar, elektron biznes, elektron tijorat, raqamli tovar,

raqamli xizmatlar, transchegaraviy biznes, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabi yangi terminlar voqelangan va keng auditoriyaning iste‘moliga kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Yana shu narsani alohida qayd etish lozimki, ushbu terminlar iqtisodiy hamda internet terminlarining qorishuvidan hosil bo‘lgan.

Xulosa. Zamonaviy sotsiolingvistika tilga ta‘sir qiluvchi ko‘plab omillarni hisobga olgan holda, tilning ijtimoiy tabaqalanishi tuzilishi va jamiyat tuzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Gazetalardagi voqealar rivoji ularning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi. Holbuki, jamiyatni qiziqtiradigan xalqaro va mamlakatimizda yuz berayotgan yangiliklar, o‘zgarishlarni xolisona yoritish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, davlat rahbarlarining tashriflari, uchrashuvlari, yangi qonunlarning qabul qilinishi, xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar, madaniy xabarlar, bank va birja xabarlari haqidagi axborotlarda doimo o‘zlashmalardan foydalaniladi. Zero, jahonda kechayotgan globallashuv jarayonida xabarlarni tezkorlik bilan auditoriyaga yetkazishda yangi tushunchalarning ifodasida o‘zlashmalarning voqelanishi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR:

1.Блумфилд Л. Язык. – М., 2002.

2.Вайнрай У. Языковые контакты. – Киев: Выща школа, 1979.

3.Гаппаров А.Қ. Ижтимоий-сиёсий лексиканинг лингвистик тавсифи. // C: /Users/ACER/ Downloads 496-506+JUSR.pdf.

4.Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968.

5.Назаров П.Ж. Ўзбек тилига ўзлашган сўзлар хусусида. // Хорижий филология, 2019. – № 4.

6.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. –Тошкент: Ўқитувчи, 1975. .

7.Эшонқулов Б.Х. Ўзбек адабий тилида арабча луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик ассиметрияга муносабати. – Тошкент, 1996. 3.

O‘ZBEK TILIDA O‘XSHATISHLAR ASOSIDA ESTETIK BAHONING IFODALANISHI

Mullaboyeva Shirin Baxtiyor qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O’zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilida o‘xshatishlar orqali estetik bahoning ifodalanishi masalasi ilmiy-nazariy va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tilning estetik imkoniyatlarini ochib berishda o‘xshatishning o‘rni, uning badiiy obrazlilikni kuchaytirish, hissiy ta’sirni oshirish va milliy qadriyatlarni ifodalashdagi vazifalari yoritilgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy ijod namunalarida qo‘llanilgan o‘xshatishlar asosida estetik baholarning ijobiy va salbiy ko‘rinishlari izohlangan. Tadqiqotda o‘xshatishlarning milliy tafakkur, madaniyat va estetik ideallar bilan uzviy bog‘liqligi, ularning lingvomadaniy kodlar orqali shakllanishi va avloddan avlodga estetik mezon sifatida o‘tishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, erkin va turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek tilida estetik bahoni ifodalashning muhim vositasi ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, estetik baho, lingvomadaniy kod, milliy tafakkur, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot, erkin o‘xshatish, turg‘un o‘xshatish, estetik ideal, badiiy obrazlilik

ВЫРАЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ПОСРЕДСТВОМ СРАВНЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Муллабоева Ширин Бахтиёр кизи,
Ташкентский государственный Университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, докторант

Аннотация: в статье анализируется проблема выражения эстетической оценки посредством сравнений в узбекском языке с научно-теоретической и лингвокультурологической точки зрения. Раскрывается роль сравнений в раскрытии эстетических возможностей языка, их функции в усилении художественной образности, усилении эмоционального воздействия и выражении национальных ценностей. Раскрываются позитивные и негативные проявления эстетической оценки, основанной на сравнениях, используемых в узбекском народном устном творчестве, классической литературе и современных художественных произведениях. Исследование показывает неразрывную связь сравнений с национальным мышлением, культурой и эстетическими идеалами, их формирование через лингвокультурные коды и передачу из поколения в поколение как эстетического критерия. Это также основано на том, что свободные и устойчивые сравнения являются важным средством выражения эстетической оценки в узбекском языке.

Ключевые слова: сравнение, эстетическая оценка, лингвокультурный код, национальная мысль, народное устное творчество, классическая литература, свободное сравнение, устойчивое сравнение, эстетический идеал, художественный образ.

EXPRESSION OF AESTHETIC EVALUATION BASED ON SIMILARITIES IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Mullaboyeva Shirin Bakhtiyor kizi,
Tashkent State University named after Alisher Navoi PhD student at the University of Uzbek Language and Literature

Abstract: The article analyzes the issue of expressing aesthetic judgments through similes in the Uzbek language from a scientific-theoretical and linguocultural perspective. The role of similes in revealing the aesthetic possibilities of the language, its functions in enhancing artistic imagery,

increasing emotional impact, and expressing national values are highlighted. The positive and negative manifestations of aesthetic judgments are explained based on similes used in Uzbek folk oral art, classical literature, and examples of modern creativity. The study shows the inextricable connection of similes with national thought, culture, and aesthetic ideals, their formation through linguocultural codes, and their transmission from generation to generation as aesthetic criteria. It is also based on the fact that free and stable similes are an important means of expressing aesthetic judgments in the Uzbek language.

Keywords: simile, aesthetic assessment, linguistic and cultural code, national thought, folk oral culture, classical literature, free simile, stable simile, aesthetic ideal, artistic imagery

Til – xalqning ma’naviy madaniyatini, dunyoqarashini va estetik tafakkurini ifodalovchi eng asosiy vosita hisoblanadi. Har bir millat o‘zining turmush tarzi, urf-odati, qadriyatlari va dunyoni anglash tarziga mos holda o‘ziga xos tilda fikrlaydi va shu tilda ma’naviy merosini yaratadi. O‘zbek tili ham ming yillar davomida shakllanib, badiiy ifoda imkoniyatlari, obrazlilik vositalari bilan boyigan. Tilning badiiy-estetik imkoniyatlari haqida so‘z borganda, albatta, o‘xshatish hodisasi alohida o‘rin egallaydi. O‘xshatish – biror narsa yoki hodisani boshqa bir narsa bilan qiyoslash, unga o‘xshash belgi va xususiyatlarni ta’kidlash orqali nutqni jonlantiruvchi, tasviriylikni kuchaytiruvchi vositadir. O‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida o‘xshatishlar juda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlari, dostonlari, maqol va matallar, she’riyat namunalarida o‘xshatishlarning turli shakllarini uchratish mumkin. Ular nafaqat tasviriylik, balki estetik baho berish, hissiy ta’sirni kuchaytirish vazifasini ham bajaradi.

O‘xshatish – bu ikki narsa yoki hodisani qiyoslash asosida tasviriy ifoda vositasi yaratishdir. Nutqda o‘xshatish odatda “-dek, -day, kabi, -dek, xuddi, go‘yo” kabi qo‘shimchalar so‘zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, “Yuzi sutdek oppoq” iborasida inson yuzi sutga qiyos qilinmoqda, bu orqali uning oppoq va nurli ekanligi estetik baho sifatida berilgan. O‘xshatishning mohiyati shundaki, inson biror narsa yoki hodisaning go‘zalligini, salbiy yoki ijobiy jihatini o‘quvchi yoki tinglovchiga yaqqol ko‘rsatish uchun uni hammaga tanish va aniq obraz bilan qiyoslaydi. Shu tariqa estetik tasavvur kuchayadi, nutq yanada ta’sirchan bo‘ladi.

O‘zbek mumtoz she’riyatida, xususan, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy kabi shoirlar ijodida o‘xshatishlar juda ko‘p uchraydi. Masalan, Navoiy o‘z g‘azallarida ma’shuqaning go‘zalligini quyosh, oy, gul, nargis, pari, malak kabi obrazlar bilan qiyoslaydi. Bu o‘xshatishlar nafaqat estetik zavq uyg‘otadi, balki o‘z davrining go‘zallik haqidagi qarashlarini ham ifodalaydi. Xalq og‘zaki ijodida esa o‘xshatishlar oddiy va jonli bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, mehnat hayoti, tabiat bilan bevosita aloqasi ifodalangan.

O‘xshatishlar orqali estetik baho ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi:

•ijobiy baho – narsaning go‘zalligini, nafisligini, yoqimliligini ta’kidlaydi;

“Yuzi quyoshdek nurli” – insonning iliqligi va mehribonligini ifodalaydi;

“Qoshi kamon” – nafislikni bildiradi.

•salbiy baho – noxush, xunuk yoki qattiqqo‘llikni ko‘rsatadi;

“Tili zahar” – qo‘pol, dil ozor qiluvchi nutqni bildiradi;

“Ko‘zlari chaqmoqday chaqnaydi” – g‘azabni ifodalaydi.

Shunday qilib, o‘xshatishlar estetik bahoni kuchliroq sezdiradi, so‘zlovchining hissiy munosabatini ifodalaydi. O‘zbek o‘xshatishlari xalqning turmush tarzi, tabiatga bo‘lgan munosabati, qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan:

•oy va quyosh – go‘zallik, nur va ulug‘lik ramzi;

•gul va chechak – noziklik, latofat, yoshlik ramzi;

•ipak, oltin – nafislik va qimmatlik ifodasi;

•tog‘, daryo, dengiz – qudrat va kenglik timsoli.

Bu obrazlar xalq tasavvurida estetik ideal sifatida shakllangan va asrlar davomida adabiyot hamda og‘zaki ijodda mustahkam o‘rin egallagan. O‘zbek tilida o‘xshatishlar nafaqat badiiy tasvir

vositasi, balki estetik baho ifodalovchi muhim til hodisasidir. Ular orqali insonlarning go‘zallik haqidagi tasavvurlari, hissiy dunyosi, estetik qarashlari ifodalanadi. O‘xshatishlar xalqning milliy madaniyati va ma’naviy merosida chuqur ildiz otgan bo‘lib, ularning o‘ziga xosligi o‘zbek tilining badiiy-estetik imkoniyatlarini yanada boyitadi. Shu bois o‘zbek tilida o‘xshatishlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning tasnifi, estetik vazifalari, milliy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tilning asosiy vazifalaridan biri – insonning ichki dunyosi, hissiyotlari, munosabatlari va estetik qarashlarini ifodalashdir. O‘xshatish (qiyoslash) tildagi eng qadimiy va eng samarali tasvir vositalaridan biridir. U orqali inson biror narsa yoki hodisani boshqasiga qiyoslash orqali uning estetik qiymatini ochib beradi, go‘zallik yoki xunuklikni yanada ta’sirchan ifodalaydi. [1:35] Xususan, o‘zbek adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi va she’riyatida o‘xshatishlar orqali estetik baho berish an’anasi juda boydir. O‘xshatishlar orqali inson nutqi jonlanadi, obrazlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi, estetik ta’sir kuchayadi. O‘zbek xalqining estetik qarashlari asosan tabiat manzaralari, osmon jismlari va mehnat jarayonlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Shuning uchun o‘xshatishlarda tabiat obrazlari juda ko‘p qo‘llanadi. Masalan: “bulbulday xushovoz”, “tog‘day viqorli”. Bunday o‘xshatishlar orqali xalq o‘z estetik idealini ifodalagan: poklik, go‘zallik, bardavomlik, sadoqat.

O‘zbek tilida o‘xshatishlar estetik bahoni ifodalashning eng samarali vositalaridan biridir. Ular orqali insonlarning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, xulqi, go‘zalligi yoki nuqsonlari badiiy-estetik tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy ijodda o‘xshatishlar nutqni jonlantiruvchi, tasviriylikni kuchaytiruvchi, eng muhimi, estetik zavq uyg‘otuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘xshatishlar o‘zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlarini, xalqning estetik tafakkurini, dunyoqarashini va ma’naviy qadriyatlarini yuksak darajada namoyon etadi. Ularni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish esa nafaqat tilshunoslik uchun, balki xalqimizning estetik madaniyatini anglash uchun ham katta ahamiyatga ega. Har bir xalqning tili uning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va estetik qarashlarini ifodalaydi. O‘zbek xalqining badiiy-estetik tasavvurlari ham asrlar davomida shakllanib, xalq og‘zaki ijodi, adabiy meros va zamonaviy ijodda o‘z ifodasini topgan. Tilning badiiy imkoniyatlari ichida o‘xshatishlar alohida o‘rin tutadi. O‘xshatishlar nafaqat tasviriylik vositasi, balki xalqning estetik qarashlari va milliy ideallarini ifodalovchi mezon sifatida ham xizmat qiladi.

O‘zbek tilida o‘xshatishlar orqali estetik baho berishda milliy tafakkurning chuqur izlari ko‘zga tashlanadi. Xalqning turmush tarzi, tabiat bilan yaqin aloqasi, qadriyatlari, urf-odatlari o‘xshatishlarda o‘z ifodasini topgan. Shu sababdan estetik bahoning milliy xususiyatlarini tahlil qilish, avvalo, o‘xshatishlar tizimini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. O‘zbek xalqining estetik bahosi asosan tabiat obrazlari bilan chambarchas bog‘liq. Xalq o‘z go‘zallik idealini oy, quyosh, yulduz, gul, chechak, daryo, tog‘ kabi obrazlarda ko‘radi va ularni insonga qiyoslaydi. Masalan:

“Yuzing oydek nurli” – xalqning go‘zallik idealida oy nafaqat yorug‘lik manbai, balki poklik, musaffolik timsoli sifatida qaraladi.

“Ko‘zlari dengizdek chuqur” – xalqning estetik bahosida dengiz chuqurligi sir va jozibadorlikni anglatadi.

“Sochlari ipakdek mayin” – ipak o‘zbek madaniyatida nafosat va qimmatbaho qadriyat sifatida tasvirlanadi.

Demak, milliy estetik baho o‘zbek xalqining tabiatni idrok etishida, moddiy va ma’naviy qadriyatlarida, turmush tarzi va urf-odatlarida shakllangan. O‘zbek xalq tafakkurida o‘xshatishlar faqat ijobiy estetik baho berish uchun emas, balki salbiy xususiyatlarni ham ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bunda ham milliy timsollar, tabiat hodisalari va xalqning hayotiy tajribasi asos bo‘ladi. “Ko‘ngli toshdek qattiq” – xalqning salbiy bahosida tosh qattiqlik, mehrsizlik ramzi. Shunday qilib, salbiy o‘xshatishlarda ham milliy dunyoqarashning chuqur izlari ko‘rinadi.

O‘zbek tilida o‘xshatishlar orqali berilgan estetik baho milliy xususiyatlarga boydir. Har bir o‘xshatish xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari, tabiat bilan aloqasi, estetik

idealini ifodalaydi. Ijobiy baholarda oy, quyosh, gul, ipak, oltin kabi obrazlar ishlatilsa, salbiy baholarda tosh, zahar, chaqmoq kabi obrazlar qo‘llanadi. Shu sababli, o‘zbek tilida o‘xshatishlar milliy tafakkurning ifodasi sifatida xalqning estetik qarashlarini, badiiy didini va go‘zallikka munosabatini chuqur yoritib beradi. Ularni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalq estetik madaniyatini anglash uchun ham muhimdir.

O‘xshatish insonning olamni idrok etishidagi muhim kognitiv faoliyat natijasidir. U milliy tafakkur, qadriyatlar va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqning estetik qarashlari va milliy ideallarini ifodalaydi. Shu bois o‘zbek tilidagi turli o‘xshatishlarda milliy menta¬litet, qadriyatlar tizimi va estetik baholash mezonlari yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘xshatishlarda estetik baho milliy-madaniy konnotatsiya orqali yuzaga chiqadi. Ya’ni, qiyoslash jarayonida ishlatilgan obrazlar xalqning qadimiy qarashlari, turmush tarzi, urf-odatlari va estetik idealini aks ettiradi, o‘xshatishlar xalq tafakkurida shakllangan milliy-madaniy stereotiplarni ifodalaydi. Ular til orqali avloddan avlodga o‘tadi. Masalan, “chinordek mustahkam” iborasi o‘zbek xalqida bardavomlik va kuch ramzi bo‘lsa, “ko‘z qora¬chiq¬dek asramoq” o‘xshatishi biror narsani juda qadrlashni bildiradi. Shu tarzda estetik baho berishda ishlatiladigan obrazlar milliy idrok va qadriyatlar tizimidan kelib chiqadi. Masalan, chinor – uzoq umr va barqarorlik, bulbul – shirin ovoz va nafislik, tosh – qattiqlik va mehrsizlikni anglatadi. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlar nafaqat tasviriy vosita, balki xalqning estetik qarashlarini ifodalovchi muhim hodisadir. Ular orqali go‘zallikka, nafislikka, kuch va bardavomlikka, shuningdek, qo‘pollik yoki mehrsizlikka bo‘lgan milliy munosabat ifodalanadi. Demak, o‘xshatishlar orqali estetik baho o‘zbek xalqining milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘langan.

O‘xshatish – insonning olamni idrok etishidagi markaziy kognitiv amaliyotlardan biri bo‘lib, til va madaniyat munosabatini antropotsentrik nuqtai nazardan o‘rganishga muhim asos beradi. Shu sababli o‘xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish milliy mentalitet va estetik qadriyatlarni ochib berishda dolzarbdir. O‘xshatishlarning semantikasida milliy-madaniy konnotatsiya markaziy o‘rinni egallaydi: barqaror (tur-g‘un) o‘xshatishlar tildagi reallikka oid assotsiativ-obrazli tasavvurlarini saqlaydi va aynan shu qatlam orqali obyektlarga estetik baho yuklanadi. Boshqacha aytganda, estetik baho – bu o‘xshatishlarning konnotativ qismi orqali milliy ma’no-me’yorlar shaklida amalga oshadi.

O‘xshatishlarda ishlatiladigan obrazlar (etalonlar) madaniyatning muhim axborotini siqib beruvchi belgilardir. O‘zbek tilida eng ko‘p uchraydigan lingvo-madaniy kodlar: predmetli (artefaktlar va naturfaktlar), biomorf (o‘simlik va hayvon obrazlari), antropomorf (inson/bola obrazlari), mifologik va somatik kodlar hisoblanadi. Ushbu kodlar orqali milliy qadriyatlar (masalan, poklik, muqaddaslik, qimmatlik, jasorat, mehnatsevarlik va hok.) estetik bahoga aylanadi. [2:553] O‘xshatish etalonlari amaliy hayot realiyalari, flora, fauna, tabiiy hodisalar, inson va dini-mifologik obrazlar kabi 7 ta yirik guruhga ajratiladi; har bir guruh milliy-madaniy stereotiplar va baho mezonlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Predmetli etalonlar (maishiy buyumlar): piyoladek, tovoqdek, xumdek, yo‘stiqdek, obyektlar hajmi, shakli va utilitar bahosini uzviy ifodalaydi. Rang va vizual estetik kodlar: oq rangni ifodalash uchun qordek, paxtadek, kumushdek; qora rang uchun ko‘mirdek, tundek; qizil rang uchun esa lola, qon, olov kabi etalonlar ishlatiladi. Bu rang-metaforalar estetik bahoni vizual asos bilan mustahkamlaydi. Biomorf kodlar (hayvon/o‘simlik): arslondek, burgutdek, itdek, eshakdek, fildek, jasorat, mashaqqat, mehnatsevarlik kabi baholarni ifodalaydi; ayrim fauna etalonlari am¬bivalent bo‘lib, bir vaqtda ijobiy hamda salbiy ma’nolarni berishi mumkin (masalan, arslon – qahramonlik va yirtqichlik).Mifologik/folklor etalonlari: Alpomish, Farhod kabi qahramonlar – kuch, jasorat, ulug‘lik timsoli bo‘lib, estetik idealni belgilaydi. Bu tasnif orqali o‘xshatishlar milliy estetik mezonlarni qanday kodlayotgani aniq tasvirlanadi. [3:21]

Tur¬g‘un o‘xshatishlarda axloqiy-estetik qirralar (pozitiv: ka‘badek muqaddas, ona sutidek halol, oltindek qimmat; negativ: zarradek qadrsiz, pashshadek arzimagan) aniq taqsimlangan. Shu tarzda til belgilari jamiyatning baho nuqtai nazarini, ijobiy-salbiy mezonlarini ifodalaydi.

Tadqiqot ko‘rsatadiki, inson tasviri parametrlaridan eng ko‘p ishlatiladigani – qomat, yuz, soch va ko‘zlardir; ayniqsa “yuz” orqali chiroy-yaxshilik baholanishi keng tarqalgan (masalan, guldek, oydek, farishtadek va boshq.) – ya’ni yuz estetik bahoning asosiy maydoniga aylanadi. [4:160] Bu esa o‘zbek madaniy-lingvistik tasavvurida yuzning markaziy o‘rniga ishora qiladi. O‘xshatishlarda lisoniy shaxsning baho pozitsiyasi, uning ijtimoiy-etik orientatsiyalari milliy-madaniy me’yorlarni kuchaytiradi va ular til orqali uzatiladi.

Olamning lisoniy manzarasi – milliy konseptual tasavvurning til orqali ifodalangan qismi; o‘xshatishlar shu lisoniy manzaraning muhim elementi hisoblanadi.Taqqoslash-o‘xshatish inson kognitiv faoliyatining asosiy operatsiyalaridan biri bo‘lib, estetik baho berishda bosh vazifani bajaradi; personifikatsiya kabi jarayonlar orqali hissiy holatlarni tilga o‘tkazadi. Tur¬g‘un o‘xshatishlar lingvomadaniy birlik sifatida milliy madaniyat va qadriyatlarni kodlaydi va avloddan avlodga yetkazadi; ularning tahlili milliy estetik me’yorlarni aniqlash imkonini beradi. Etalon-obrazlar (predmetli, biomorf, antropomorf, mifologik va boshq.) orqali estetik (ijobiy va salbiy) baho til birligida mustahkamlangan va ularning ierarxiyasi tadqiqotning statistik tahlili orqali aniqlangan. [5:218]

O‘zbek adabiyoti va tilshunosligida o‘xshatishlar alohida estetik ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy vosita sifatida qaraladi. Ularning asosiy vazifasi ikki predmet yoki hodisa o‘rtasidagi umumiylikni ta’kidlash orqali mazmunni yanada chuqurlashtirish, obrazlilik yaratish va estetik bahoni kuchaytirishdir. O‘xshatishlar inson tafakkurining qadimiy mahsuli sifatida nutqda hamisha hissiy ta’sirni kuchaytiradi, g‘oya va tushunchalarni jonliroq ifodalash imkonini beradi. Masalan, Abdulla Oripovning “Qo‘riqxona” she’rida ezgulik tojdor turnaga, hayo otashga duch kelgan polaponga, oqibat ayiqqa, iymon esa qor odamga o‘xshatiladi. [6:159] Bu orqali shoir insoniy fazilatlarning qadriyat sifatidagi estetik bahosini yuksak darajada ifodalaydi. O‘xshatishlar bu yerda nafaqat qiyoslash, balki muayyan qadriyatlarning noyobligini, qadrini va muhofaza zarurligini estetik obrazlar vositasida ta’sirchan ko‘rsatadi.

O‘xshatishlarda milliy tafakkur va lingvomadaniy o‘ziga xosliklar yorqin aks etadi. Shu bois, o‘xshatishlar nafaqat estetik obraz, balki milliy ongning ifodachisi sifatida ham muhimdir. Folklorda ham o‘xshatishlar keng qo‘llanadi. Baxshi yoki ertakchi tomonidan yaratilgan o‘xshatishlar xalqona obrazlarni boyitadi. Agar ular an’analarga mos kelsa, asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi; aks holda, “yot” obraz sifatida qabul qilinadi. Demak, xalq og‘zaki ijodidagi o‘xshatishlar estetik bahoni milliy ruh va udumlar asosida ifodalaydi. O‘xshatishlar o‘zbek tili va adabiyotida estetik baholashning asosiy vositalaridan biridir. Ular orqali insoniy fazilatlar, tabiat hodisalari va turmush manzaralari obrazli tasvirlanadi. Erkin o‘xshatishlar ijodkorning individual mahoratini, turg‘un o‘xshatishlar esa milliy tafakkur va xalqona tasavvurlarni ifodalaydi. Shu tariqa, o‘xshatishlar estetik bahoni ifodalashda, milliy qadriyatlarni saqlash va avloddan avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1.Usmonov F. F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020. – 48 b.

2.Xudayarova S. O‘zbek tilida o‘xshatishlar: estetik-badiiy vosita sifatida // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya jurnali. – 2022. – № 6 (08). – B. 552-556.

3.Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24;

4.Mahmudov N. O‘xshatishlarning til va nutqdagi o‘rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so’z, 2017. – B. 160-161.

5.Shomaqsudov A., Rasulov I., … O‘zbek tili stilistikasi. - T.: O‘qituvchi, 1983. – B. 229.

6.Qurbonova Sh. X., Avazova M. A. O‘zbek tilida o‘xshatishlar: shakllanishi va turlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – T. 4, № 6. – B. 158-160.

MASHRAB AHMAD YASSAVIY IZDOSHI SIFATIDA

Murodova Gulchehra Azamat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan Mashrab she’riyati o‘rtasidagi ma’naviy-ruhiy bog‘liqlik ilmiy tahlilga tortilgan. Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan ilohiy ishq, tavba, nafsni tiyish, malomatiylik g‘oyalari Mashrab asarlarida ham o‘ziga xos badiiy talqin topgani ko‘rsatiladi. Shuningdek, Mashrabning xalqona ruh, sodda va samimiy ifoda uslubi bilan Yassaviy maktabidan ijodiy ilhom olganligi, uning ijodida Yassaviy tasavvufiy an’analarining davom etgani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, hikmat, ilohiy ishq, malomatiylik, nafsni yengish, tavba, ma’naviy barkamollik, diniy-irfoniy tarbiya, tasavvufiy mazmun

Аннотация: В статье научно анализируется духовная связь мудрости Ахмада Яссави с поэзией Машраба. Показано, что идеи божественной любви, покаяния, самообладания и порицания, заложенные в мудрости Яссави, нашли своё художественное преломление в произведениях Машраба. Также утверждается, что Машраб, с его народным духом, простым и искренним стилем выражения, черпал творческое вдохновение в школе Яссави, а мистические традиции Яссави продолжились в его творчестве.

Ключевые слова: суфизм, мудрость, божественная любовь, порицание, преодоление эго, покаяние, духовное совершенство, религиозно-мистическое образование, мистическое содержание

Abstract: This article scientifically analyzes the spiritual connection between the wisdom of Ahmad Yassavi and the poetry of Mashrab. It is shown that the ideas of divine love, repentance, self-control, and blame put forward in Yassavi’s wisdom also found their own artistic interpretation in Mashrab’s works. It is also argued that Mashrab, with his folk spirit, simple and sincere style of expression, drew creative inspiration from the Yassavi school, and that Yassavi’s mystical traditions continued in his work.

Keywords: Sufism, wisdom, divine love, blame, overcoming the ego, repentance, spiritual perfection, religious-mystical education, mystical content

KIRISH. Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf adabiyotining buyuk vakillaridan biri bo‘lib,uning ijodiy faoliyatidan ilhomlanish Yassaviy maktabi shoirlaridan hisoblangan Boborahim Mashrab she’riyatida ham uchraydi. Abdurauf Fitrat tomonidan Yassaviy she’riyatiga shunday ta’rif beriladi: “O‘rta Osiyoning shayxlari, eshonlari Yassaviyni o‘zlariga pir, ustoz deb taniydilar. Ahmad Yassaviydan keyin uning uslubida she’r yozmoq turk shayxlari orasida “mo‘da” shakliga kirgan.” [1; 21-b.]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mashrab she’rlarining asosini Ollohga bo‘lgan ilohiy ishqtashkil qiladi. Mashrab she’rlarini o‘qigan insonda shoir ko‘nglida kechayotgan muhabbat hamda bandaning Ollohga bo‘lgan haqiqiy ishqi qanday bo‘lishi kerakligi namoyon bo‘ladi. Ijodkor she’rlarida nafsni yengish orqali ruhni poklab, o‘tkinchi dunyo noz-ne’matlaridan ustun bo‘lishga intilish ruhi ustuvor ekanligini ko‘rish mumkin. Yassaviyshunos olim Ibrohim Haqqulov Ahmad Yassaviy “Hikmatlar” ining 1991-yilgi nashri so‘zboshisida “Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she’riyatining atoqli vakili. U “Devoni hikmat” asari bilan jahonning bir necha mamlakatlarida ma’lum va mashhur bo‘lgan. Boborahim Mashrab g‘azallaridan birida “Ruhi jonim arshg‘a yetdi men o‘zim osmoniman”, degan edi. Shu ma’noda Yassaviy Mashrabga o‘xshash shoirlarning rahnamolaridan, yuksak Ruh donishmandi, uning ruhiy olami murakkab va ziddiyatli bo‘lib, bular ijodiyotida butun teranligi bilan aks etgandir”. [2; 5-b.]

Barcha tariqatlarda bo‘lgani kabi yassaviylikda ham malomatiylik alohida ahamiyatga ega. Turk tasavvufshunosi Gulpinorli ham: “Malomatiylar atalmish jamoa tasavvuf ichidan tasavvufchilarga qarshi chiqqan bir zumradir. Tangri visoliga yetishmoq uchun ular zikrga emas, balki fikrga ahamiyat berishgan.

Ahli malomatga ko‘ra, Alloh dargohiga faqat ishq va jazba orqali borish mumkindir, zikr esa insonni xayollarga cho‘mdirib, dallidevona aylashi ham ehtimoldan yiroq emas ”, – degan edi.

Qolaversa, Ibrohim Haqqulov: “Turk olimi Ahmad Yashar O‘choq Yassaviyning ilk ustozi Arslon bobning malomatiy bo‘lganligini yozadi. Agar bu fikr haqiqat bo‘lsa, Yassaviy yoshligidayoq malomatiylik sirlaridan xabar topgani va malomatiylikka qiziqish paydo qilganligiga shubha qolmaydi”, – deya ta’kidlagan. [4; 25-b.]

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Quyida Ahmad Yassaviy hamda Mashrabning malomatlik ruhida yaratilgan, bir-biriga g’oyaviy yaqin bo’lgan she’rlarini tahlilga tortamiz:

Ahmad Yassaviyning “Man yig‘lamay kim yig‘lasun” radifli hikmatida shoirningtasavvufiy-falsafiy qarashlari,qilgan gunohlari uchunpushaymonlik hissi, tavba qilish, nafs bilan kurashish va ilohiy rahmatga umid kabi mavzularni o‘zida mujassam etgan:

To‘ldi umr paymonasi, man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Shayton ko‘ngul hamxonasi, man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Qilmas nasihat hech kishi, isyon bila bo‘ldi ishim,
Mundog‘ kechib yozu qishim, man yig‘lamay kim yig‘lasun?![5;370-b.]

Yuqoridagi misralarda shoir umri nihoyasiga yetgani, hayotning behuda o‘tganiga afsuslanadi, shayton ko‘ngilhamxonasi bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu kabi malomatiylik xarakteridagi baytlar insonlarni hushyorlikka chorlash, har bir daqiqani zoye o‘tkazmaslikka undaydi. Bu kabi malomatiy qarashlar Boborahim Mashrab ijodida ham salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, uning Ahmad Yassaviyga payravlik qilib yozgan g‘azalida aynan Yassaviy radifini saqlab qolganligini ko‘rish mumkin. Mashrabning ushbu mazmundagi g‘azali quyidagicha boshlanadi:

Hojatim bor noravo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?
Dilda dardim bedavo, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Menda shunday bir ehtiyojim borki, buni amalga oshirishning iloji yo‘q.Ko‘nglimdagi dardga hech qanday davo yo‘q. Bu dard bilan azob cheksam, men yig‘lamay kim yig‘lashi mumkin. Tajohuli orif san’ati asosida yaratilgan ushbu g‘azal shoirning asl maqsadi va badiiy mahoratini namoyon etadi. Aytish lozimki, shoir mana shu dard tufayli Xoliqim dargohig‘a faryod etaman, deya ilohiy ishq iztiroblariga urg‘u beradi. Ya’ni agar SHOH mening nolamni eshitmasa, men yig‘lamay kim yig‘lasin deya, uning yolg‘iz najoti Allohning inoyatida ekanligini bayon qiladi:

Bul sababdin dod etarman Xoliqim dargohig‘a,
Yetmasa dodimg‘a Shoh, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Mashrab baytlarida ilohiy ishq mohiyati, hayot negizi Ishq bilan bog’liq ekanligiga alohida e’tibor berish, Yaratganni butun olamlarning SHOHI sifatida e’tirof etish birinchi planga ko’tarilgan. Yassaviy hikmatida esa asosan, o’zini malomat qilish, kamchiliklarni e’tirof etish, oxirat iztiroblariga urg‘u berilgan:

Qottig‘ gunoh bo‘ldi ishim, jahannamda bo‘ldi yerim,
Oxir g‘azab qilsa Karim, man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Qur’on xatin ko‘rmas ko‘zum, oyat-hadis ermas so‘zum,
Qulman desam yalg‘on o‘zum, man yig‘lamay kim yig‘lasun?! [5;370-b.]

Shoirning ushbu misralari chinakam malomatiyga xos bo‘lgan e’tirofdir. Bunda shoir o‘zini haqiqiy gunohkor deb biladi, hatto, jahannamni o‘ziga loyiq ko‘radi. Bu tasvirlar orqali ilohiy adolat oldidagi javobgarlik hissi ifoda etilgan. Tasavvuf ahli nazdida inson qalbi Qur’on bilan tozalanadi. Bu misrada muallif ko‘zlari Qur’onni ko‘rmayotganligi, tili oyat-u hadisdan so‘zlamayotganligini, umuman olganda, bu ilohiy manbalardan uzoqligini tan oladi. Ayni ifodaning keng e’tirof etilishi, birinchidan, hikmat janri talabi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, so‘fiy-shoir ta’limotining malomatiylik bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mashrab esa bu dard tufayli shoir yo‘l ko‘rsatuvchisiz, kimsasiz (piru, murshidsiz) g‘amning zulmatida qolganligiga ishora qiladi:

Zulmati motamda qoldim bul xatarlik yo‘l aro,
Bekas-u, berahnamo, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Shoir ushbu misralarda La’in (shayton) vasvasa solganligi, ushbu vasvasa tufayli Ofoq Xoja mahbubidan ajralish qo‘rquvi ko‘zga tashlanadi, agar uni shaytondan ajratmasam men yig‘lamay kim yig‘lasin, deydi:

Vasvas aylabdur la’in Ofoq Xojam mahbubini,
Qilmasam andin judo, man yig‘lamay kim yig‘lasun?
Toshkand borib man Azozil birla qilg‘um man masof,
Bermasa yore Xudo, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Men Toshkand borib Azozil (shayton) bilan nafs sari yuzlansam, Alloh menga yaqinlik bermasa man yig‘lamay kim yig‘lasin. Mashrab she’rlaridagi asosiy jihatlardan biri ilohiy ishqni baralla kuylash bo‘lsa, ikkinchi jihati malomatiylik asosida o‘zni malomat qilish, nafs iskanjasidan qutilish yo‘lidagi kuchli urinishlarning badiiy in’ikosidir. Aytish lozimki, malomatiylikning yuksak darajasi Yassaviy ijodida talqin qilingan. Zero, turkiy tasavvuf she’riyatiga ham ayni xarakterning kirib kelishi Ahmad Yassaviy nomi bilan bog‘liq:

Na mundadur ro‘za-namoz, na xayru ehsonu niyoz,
Yo‘q haqiqat, mehnat, riyoz, man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Nafsim mani o‘tqa solur, har lahza tandin jon olur,
Dardim davo tobmay qolur, man yig‘lamay kim yig‘lasun?! [5;370-371-b.]

Shoir yuqoridagi misralarda islom ahkomlarini bajarmayotganligi, riyozat yo‘lidan yurmayotganligidan noliydi. Nafs — tasavvufda kishining asosiy dushmani sifatida qaraladi. Nafsni olovga tenglashtirish orqali shoir o‘z nafsini yengolmaganidan aziyat chekadi. Nafsni tiyish va o‘zini ayblash — «malomat yo‘li»da yurish demakdir. Ana shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, turkiy, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida Yassaviydan so‘ng malomatiylik g‘oyalari keng kuylandi.

Mashrabning quyidagi misralarda Allohga qilgan iltijosi, munojoti ifodalangan. “Rahbarim amr ettilar” jumlasi orqali ma’naviy ustozga ishora qiladi. Ushbu “ruhiy yo‘l” bo‘lib, u yolg‘izlik emas, balki pirga ergashib, Allohga yetishish yo‘lidir. Buni tasavvufda muridning murshidga bo‘lgan ishonchi sifatida ko‘rish mumkin. Shoir malomatiylik xarakteridan kelib chiqib, duoyi xayrning ijobati ham Haq izmida ekanligini e’tirof etadi:

Man duoyi xayr qildim, rahbarim amr ettilar,
Qilmasa haq mustajob, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Man yig‘lamay kim yig‘lasun tarzidagi tajohuli orif asosidagi radif har ikkala shoir ijodida o’ziga xos ta’sirchanlikni, badiiy quvvat doirasining kengligini ta’minlashga xizmat qilgan:

Shayton g‘anim erur mango, nechuk aylay, yo Rabbano,
Yo rab, sig‘inurman Sango, man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Yigitlik quvvati ketti, qariliq navbati yeti,
Yaqin ajal xabar etti, man yig‘lamay kim yig‘lasun?! [5;371-b.]

Yassaviy yuqoridagi misralarda inson umrining o‘tkinchiligi, yigitlik ko‘z yumib ochguncha o‘tib ketishi, ammo insonni yoshligu, qarilikda ham ibodat mukammalligi muhimligimasalasiga urg‘u bergan. Shayton — insonni yo‘ldan uruvchi dushman. Shoir ilohiy o‘tinch bilan yaratuvchiga yuzlanadi: «Yo rab, sig‘inurman Sango». Bu eng yuksak e’tiqod va ibodatning namunasi hisoblanadi. Shoir bir asosiy masalaga e’tiborni qaratadi: Yigitlik kuch - quvvati ketib, keksalik davri kelganligi. Ayni ifoda insonlarni hushyorlikka da’vat etadi. Umrni behuda sarflamaslikka undaydi:

Tutqoy o‘lum jomi sharob, xonumonni qilg‘ay xarob,
Yo hasrato, alal-abad man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Agar yuz yil muhlat berur, ajal oxir qorshu kelur,
Jong‘a qaro kunlar solur, man yig‘lamay kim yig‘lasun?! [5;371-b.]

O‘lim jomda sharob tutadi, ushbu sharobni ichsang u halokat keltiradi, bu qayg‘u abadiydir. Hatto, o‘lim yuz yil muhlat bersa ham ajal senga qarshi kelsa u hayotni qorong‘u qiladi. Ya’ni inson umri foniy, yuz yildan keyin bo‘lsa ham baribir barcha yaratiqlar o‘lim sharobini totuvchi tarzida yaratilganligi shoir uchun muhim masala hisoblanadi. Shoirning ushbu fikrlarining manbasi, tabiiyki, Qur’oni Karimdir: “Har bir jon o’lim (achchig’i)ni totuvchidir”. [7; 48-b]Bu kabi hayotiy va tarbiyaviy mulohazalar navbatdagi

bandda ham davom ettiriladi:

Dunyo ishi(dur) bir sori, nafsim erur (dushman) bori,
Uqbo erur hasrat yeri, man yig‘lamay kim yig‘lasun?! [5;371-b.]

Dunyo lazzatlaridan yuz o‘girish — bu she’rda dunyo ishi «bir sori» deb baholanadi. Oxiratga tayyorgarlik — har baytda o‘lim, azob, najot haqida mulohazalar yuritiladi. Shoir juda ko‘p gunoh hamda yomonliklar qilgani uchun HAQIQATdan mahrum bo‘lganligini, ammo HAQ (Alloh) rahmdil ekanligiga ishora qilib, Qul Xoja Ahmad, g‘am yema har damda uning (Alloh) rahmati senga davo bo‘lishi mumkin deya, o‘ziga tasalli beradi.

Quyidagi baytda kishining umri davomida qilgan ibodatlari, ezgu amallari, saxovatlari behuda ketishi, Xudoning huzuriga bu dunyoda qilgan amallari samarasiz holda ketganligiga ishora qiladi.

Yetmish yillik toat-u xayr-u saxovatlar bilan,
Ketsa mundin ro‘siyo, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Oxirgi baytda shoir o‘zini umid bilan yo‘lga chiqqanligi ammo, bu dunyodan umidsiz ketayotganligini yozadi. Agar muammolarni hal qiluvchi najotkor bo‘lmasa, men yig‘lamay kim yig‘lasin.

Gar umed birlan kelib, ketsa bu Mashrab noumed,
Bo‘lmasa mushkulkusho, man yig‘lamay kim yig‘lasun? [6;174-b.]

Ahmad Yassaviy hikmati esa quyidagicha yakunlanadi:

Qildim base, fisqu fujur, qoldim netay mahrumu dur,
Ko‘nglumda yo‘qtur zarra nur, man yig‘lamay kim yig‘lasun?!
Haqdur karim ham ul Akram, Qul Xoja Ahmad, yema g‘am,
Darmondalikdur dam-badam, man yig‘lamay kim yig‘lasun?! [5;371-b.]

Shoirning yuqoridagi misralarida inson umrining o‘tkinchiligi va ajalga yaqinlashuvi insonni qilgan gunohlari uchun tavba qilishga undaydi. Hikmatning har bir bayti oxirida takrorlanuvchi «Man yig‘lamay kim yig‘lasun?!» jumlasi she’rning ruhiy kuchini oshiradi hamda umumiy ma’noni mustahkamlaydi. Qur’on–shayton, nur–zulmat, rahmat–g‘azab kabi tazodlar badiiy mulohazalarni kuchaytirgan. Ushbu hikmatda Yassaviylik tariqati asoslari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu she’r tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, unda nafsidan koyish, qilgan gunohlari uchun tavba qilish, o‘limning haqligiga ishonish, Allohning rahmatidan umidvor bo‘lish kabi inson ruhiyati bilan bog‘liq ifodalarni o’z ichiga oladi.

Har ikkala she’rda ham asosiy mavzu Allohga yetishish yo‘lidagi nafs bilan kurash, ma’naviy barkamollikka erishish hamda oxiratdan najot izlashdir. Misralarda har bir bayt tajohuli orif “Man yig‘lamay kim yig‘lasin?” tarzida yakunlanadi. Ushbu savolni birgina so‘zda emas, iztirobning chuqur ifodasida ko‘rish mumkin. Har bir misra darddan boshlanadi, Allohga yuzlanadi hamda najot izlash bilan yakunlanadi. Boborahim Mashrabning Yassaviy she’riyatidan ta’sirlanish jihatlarini nafaqat mazmun, balki she’r radifining aynan takrorida ham ko‘rishimiz mumkin.

Yassaviy hikmatlarida umr davomidagi gunohlari uchun “tavba” qilish mavzusi yetakchilik qiladi. Ulamolar fikricha: “Tavba” – Allohga qaytish demakdir. Quroni Karimning “Nur” surasinng 31-oyatida ham “Barchangiz Allohga tavba qilingiz, ey, mo‘minlar! Shoyad, (shunda) najot topsangiz” deyilgan. Shunday ekan, har bir kishi Allohga yetishishidan oldin tavba qilmog‘i lozim. Badiiy adabiyotda “Ibodat adabiyoti”ga diniy mazmundagi asosan ibodat, zikr, duo, tavba kabi amallarni badiiy tasvirlash orqali targ‘ib etuvchi asarlar majmuyi sifatida qaraladi. Ushbu adabiyotning o‘ziga xos xususiyati Allohga hamd-u sano aytish, tavba qilishdan iborat. Quyida har ikkala shoirning ayni xarakterda bitilgan baytlarini tahlilga tortamiz:

Yo Ilohi, hamding birla hikmat aytib,
Zoti ulug‘ Xojam, sig‘nib keldim Sanga.
Tavba qilib, gunohimdan qo‘rqub, qaytib,
Zoti ulug‘ Xojam, sig‘nib keldim Sanga. [5; 26-b.]

Ushbu hikmat Allohga munojot bilan boshlanib, uning oldiga o‘z gunohidan qo‘rqib, uni tan olib, Allohga yetishish niyatida kelganligini ifodalaydi.Ushbu she’rda shoir Allohga “qudrat, rahm egasi”-“Xoja” deya iltijo qiladi. Inson qanchalik gunoh qilgan bo‘lsa ham, chin dildan tavba qilsa, Alloh uni kechiradi. She’rda qo‘llanilgannido, takror, tashbeh san’atlari uning ta’sir darajasini yanada kuchaytirish

uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Mashrab ijodida uchraydigan quyidagi misralar Yassaviy she’rlariga hamohang tarzda yozilganini ko‘rishimiz mumkin.

Yo Ilohil-olamiyn zikri sano Sandin madad,
Tavba qildim man bukun fag‘firlano Sandin madad
Tavba qildim man bukun qilg‘an gunohim ko‘p erur,
Afu qilg‘il Xoliqi arz-u samo Sandin madad. [6;39-b.]

Mashrabning yuqoridagi hikmatga hamohang tarzda yozgan ushbu bayti ham Allohga nido bilan boshlanadi. Ey butun olamlar Xudosi, seni madh etib sendan madad istayman.Men tavba qildim, meni mag‘firat et. Bugun men tavba qildim, qilgan gunohlarim ko‘pdir. Ey, yer va osmon yaratuvchisi deya Allohning buyukligiga ishora qiladi.

Sunnat ermish, kofir bo‘lsa berma ozor,
Ko‘ngli qattiq dilozordin Xudo bezor,
Olloh haqqi, andog‘ qulg‘a sijjin tayyor,
Donolardin eshtib so‘zni aydim mano. [5;15-b.]

Payg‘ambarimiz amallarida ham kofir bo‘lsa ham unga ozor bermaslik sunnat ekanligigi, kishilarning ko‘nglini og‘rituvchi insondan Alloh ham nafratlanishini, Alloh nomi bilan aytamanki, bunday bandaga Sijjin- do‘zaxdagi bir makon tayyorlangani, bu fikrni u donolardan eshitib aytayotganligiga ishora qiladi. Ushbu baytda diniy-irfoniy tarbiya haqida gap boradi:

Gar qo‘lungdin kelsa, hargiz mo‘rchani og‘ritmag‘il,
Ham Xudo bandam demas, har kimki dilozordur. [6;215-b.]

Agar qo‘lingdan kelsa, hattoki, chumoliga ham ozor berma, kimki odamlarning ko‘nglini og‘ritadigan dilozor bo‘lsa Xudo unga bandasi sifatida qaramaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Boborahim Mashrab ijodidagi mavzu va g‘oya, janr va shakl hamda ruhiy-tarbiyaviy ta’sir natijasida yaratilgan ibodat adabiyotining namunalarini Ahmad Yassaviy boshlab bergan tasavvuf maktabining davomi deyish mumkin. Bu yaqinlik avvalo, har ikkala ijodkor she’rlaridagi tasavvufiy g‘oyalarning ustunligida bo‘lsa, ikkinchidan, Yassaviy hikmatlaridagi xalqchillik hamdashe’r shaklidagi soddalikda ko‘rish mumkin. Qolaversa, Yassaviy ijodidagi tasavvufiy mazmun, ko‘ngilni poklash, ilohiy ishq mavzusi Mashrab she’riyatida ham ko‘zga tashlanadi. Ahmad Yassaviy tasavvufda xalqona tilda turkiy she’riyat orqali hikmat yaratgan, Mashrab ham XVII asrda ijod qilishiga qaramay, shu an’anani davom ettirib, tasavvufiy g‘oyalarni, ilohiy ishq tarannumini baralla ifoda etgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmon Sa’diy. Yassaviy kim edi. Nashrga tayyorlovchi: B.Do‘stqorayev.Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi: Ibrohim. Haqqulov.Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.1991.
3. Гулпинорли А. Тасаввуф. Истанбул: 2004.
4. Haqqul I. Ahmad Yassaviy. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
5. Ahmad Yassaviy. Umring yeldek o‘taro. “Muharrir” nashriyoti. 2020.
6.Turkiy adabiyot durdonalari. 8-jild. (Mashrab. So‘fi Olloyor) “O‘zbekiston nashriyoti”. 2020.
7. Quroni Karim ma’nolari tarjimasi. Oli imron surasi, 189-oyat. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur. Toshkent, www.ziyouz.com kutubxonasi

HUVAYDONING “BEADAD MANDIN” DEB ATALUVCHI G‘AZALIDA FORS-TOJIK SO‘ZLARNING QO’LLANILISHI

Najmiddinova Dildorabegim Otabek qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Huvaydoning fors-tojik tiliga xos bo’lgan bejirim so’zlardan qanday foydalllanganligi, ushbu so’zlarning go’zal ma’nolariga to’xtalib o’tamiz. Huvaydoning lirikasi, uning g’azallari va oshiqona baytlari orqali bilmagan narsalarimizni bilib olamiz.

Kalit so’zlar: Huvaydo, bayoz, g’azal, fors-tojik so’zlari

Annotation: Through this article, we will focus on how Huwaydo used the beautiful words typical of the Persian-Tajik language, and the beautiful meanings of these words. Through Huvaydo’s lyrics, his ghazals and love verses, we can learn what we don’t know.

Key words: Khvaydo, bayaz, gazelle, Persian-Tajik words.

Аннотация: В этой статье мы сосредоточимся на том, как Хувайдо использовал прекрасные слова, характерные для персидско-таджикского языка, и на их прекрасном значении. Благодаря текстам Хувайдо, его газелям и любовным стихам мы можем узнать то, чего не знаем

Ключевые слова: Хувайдо, байоз, газель, персидско-таджикские слова.

Gulshan tomonidan yozilan “Bayozi yangi” deb ataluvhcito’plamda ko’pgina g’azallar keltirilgan bo’lib. ular har xil mavzularda va bir nnecha xil shakllarda yozilgan. G’azallarda esa eski turkiy, fors-tojik, arab tiliga xos so’zlarni ham uchratishimiz mumkin. Ushbu g’azallar Muqimiy, Navoiy, Furqat, Huvaydo, Xironiy, Samarqandiy kabi bir necha shoirlarga tegishli. Ulardan Huvaydo g’azaliga to’xtalib o’tishni joiz deb topdim.

Huvaydoo’z zamonasining ilg’or fikrli farzandi, mutaffakiri sifatida jamiyatda duch kelgan muammolarni oqilona hal etishga, buning uchuntasavvuf va islim dinining barcha imoniyatlaridan foydalanishga harakat qildi. U xuddi xoziq tabib simgari ish ko;’rdi: zamondoshlarini allohning yo’liga, ya’ni tasavvuf yo’liga kirishga dav’at etishdan oldin o’zining bu yo’lga kirishdagi iztirob, ikkilanish , mashaqqat va uqubatlarini ro’y rost bayon etdi.

“Bayozi yangi” to‘lamini ko‘rib chiqar ekanman, unda keltirilgan Huvaydoning g‘azallari o‘zining jiloligi va go‘zal ohangdorligi bilan o‘ziga rom etdi. Gulshan hamo‘zining ushbu to’plamini aynan Huvaydoning g’azallari bilan boshlagani esa so‘zimning yaqqol isboti…

Beadad mandin duo ey chori yor bo safo
Manga bakru amr ashmon ayon Murtazo
بیدعا مندین دعای چاری رای باصفا
یضترم نامسع ورکبوب اکزیس

Ushbubaytda “chori yor”, “bosafo”, “ashmon”, “murtazo” kabi so‘zlar fors-tojik tiliga xos bo‘lib, chori yor – do stim, bosafo – sahar tong. ashmon – xafachilik, murtazo – ko‘ngil to‘q degan ma’nolarda kelgan.Ya’ni, sahar tongda duo qilish mandandir do‘stim, mandan ko‘ngilinghar na to‘q bo‘lsin degan ma’no baytda keltirilgan.

Sadqa halosim birla ey ol ashobi Rasul
Ruhingizga qo’l ochib shomu saharaylay duo

Baytdakeltirilgan“shom”“sahar” so‘zlari ham fors-tojik tiliga oid bo‘lib, shom-kechqurun sahar – tong, yorug‘lik yoyilgan vaqt demakdir.

Tortaohirjavr mehnat ushbu foniy dunyoda

Ummat ersang bo’lg’il emdi yayra,ey Mustafo

ادای دنیا فانئ وشب محنت روج حیرات ات
افتصل مولیای دمدی یی رسنک بوغ وم ت

“Foniy” forscha so‘z bo‘lib, o‘tar-ketar degan ma’nolarga ega.Butun hayoti va faoliyati davomida naqshbandiya g’oyalariga amal qildi. Qur’oni Karim g’oyalarini targ’ib etishda so’z san’atining butun imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalandi. Bu bilan o‘zbek mumtoz adabiyoti ravnaqiga, tasavvuf g‘oyalararini ijodiy rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shdi.

Birisi sodiqu etiqocd avjida badrisar
Birisi adlu-adolat burjida shamsu famo

Baytdagi qo‘llangan “badrisar”“shamsu famo” so‘zlar ma’nosi naqadargo‘zal, naqadar nozik. Uning ma’nosi baytga yanada ham ko‘rk baxsh etgan. Badrisar- to‘linoy, shamsu famo – quyosh misoli daho. Huvoydo fors-tojik tiliga oid shirin va xushzabon so‘zlarni qo‘llab, g’azallarni yanada ham bejirim qiladi.

Birisi hilum hayo oqimida bahri hayo
Birisi lutfu karam o‘zagida koni saxo

“Bahri hayo“koni saxo”kabi o‘xshatishlar noyobligi esa baytga qo‘shimcha urg’u baxsh etgan. Bahri hayo- ibosi dengiz misoli, koni saxo –saxovatga boy. Saxoso‘zi “saxovat” so‘zining qisqartmasi.

Nuri chashm haydar karrorni zolim burid
Qip-qizil qong’a bo‘yab qildir shahid balo

Ey Huvaydo oshiq eli ushbu suzni erdilar
Sabrin bolboladur ziyon bolqazo

Huvaydo devoniga kirgan g’azallarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u arab va forsiy tillarda bitilgan Payg‘ambarlar tarixini, islom dini tarixini, payg’ambar Muhammad alayhissalom hayotini chuqur bilgan. Ko‘rib turganingizdek o‘z g‘azallarida islom tasavvufi buyuk shaxslarning ilg‘or g‘oyalarini uyg‘unlashtirishga,zamondoshlari qalbiga ilohiy ishqni kuchaytirishga harakar qilgan. Baytda “nuri chashm” so‘zi ko‘zimning nuri, “bolbola” ustiga ustak degan ma’nolarni anglatadi.

Huvaydoyerdagi hayotdan uzilib, samoviy xayolot olamida, mistik olamda yashamadi, dunyoviylik va ilohiylikni bir-biriga qarshi qo‘ymadi, balki zamondoshlarini bu dunyo noz ne’matlaridan yuz o‘girmaslikka, ko‘z yumib ochguncha o‘tib ketadigan qadrli umrni qadrlashga chaqiradi.

“Bayoziyangi” to‘plamining aynan Huvaydo g‘azallari bilan boshlanishi bejizga emas.Uning fors-tojik tiliga xos bejirim jumlalari, ulug‘ shaxslarni tilga olishi to‘plamni yanada boyitdi. Va, albatta, biz bilmagan go‘zal jumlalar bilan g‘azal ko‘rkiga ko‘rk bag’ishladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Gulshan.“Bayozi yangi”
2.P. Kattayev . “Tasavvuf namoyondalari” maqola
3.A.Abdullayev . “Tasavvuf va uning namoyondalari”
4. D.Najmiddinova. “Bayozi yangi”to‘plamidagijanrlar tasnifi” maqola
5.D.Najmiddinova. “Shohnomada ” kasb-hunar talqini” maqola
6.https:// ziyo.uz
7.https://kh-davron.uz
8.https://slibrary.uz
9.Farxang elektronny fors-tojik lug’ati

XALQOG‘ZAKIIJODI NAMUNALARINING O‘QUVCHILAR NUTQINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Nuritdinova Dilshoda Fazlitdin qizi
Buxoro davlat Pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatssiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligi, nutqiy faolligi, ziyrakligi, zukkoligi, topqirligi, chaqqonligi, izlanuvchanligi va xalq og‘zaki ijodining mahsullari bo‘lmish maqollar va topishmoqlargabo‘lgan qiziqishini orttirish borasidagi fikr-mulohazalar yoritilgan hamda muhokamaga tortilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: darslik, nutqiy faollik, ustoz, o‘quvchi, tahlil, mqollar, topishmoqlar, mehnat, tafakkur, chaqqonlik, talabchanlik, o‘z fikrini bayon qila olish, jumboqlilik, xalq og‘zaki ijodi.

Kirish. Xalq o‘zining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini maqollar orqali ifodalagan. O‘zbek xalq maqollari mavzu jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Maqol xalqning hayotiy tajribalarini, xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so‘zlardan iboratdir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo‘lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea ro‘y bergan va bu voqea o‘ta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab bo‘lgan.Maqol arab tilidagi “qavlun”dan olingan bo‘lib so‘z tushunchasini anglatadi. Demak, maqol atamasini hikmatli so‘z ma’nosida qabul qilish mumkin.Har bir jajji bolakaydan oila, maktab, Vatan haqida so‘raganingizda, ozmi- ko‘pmi ma’lumotga ega bo‘ladi. Shunday hollar ham uchrab turadiki, ba’zi bir boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z fikrlarini mustaqil, to‘liq bayon eta olishmaydi, nutqlarida turli xil g‘alizliklar uchraydi. Shuning uchun ham bunday muammolarga barham berish uchun, ularning nutqini ravonlashtirish uchun xalq maqollarini o‘rgatish asqotadi.Boshlang‘ich sinf darsliklarida xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lmish maqollarning juda ko‘plab namunalari uchraydi.

Metod. Boshlang‘ich sinf darsliklarida mehnat, fasllar, Vatan, do‘stlik, yaxshilik va yomonlik, ota-onaga, kattalarga hurmat kabi mavzulardagi ko‘plab maqollarni uchratishimiz mumkin.Darsliklarda keltirilgan maqollarga e’tibor qaratsak.

Yoz mevasi – qish xazinasi.

Toza havo – ming dardga davo. (1-sinf“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi, 50-bet)

Yuqorida keltirilgan maqollar asosida biz o‘quvchilarga tabiat haqida tushunchalar beramiz, yosh avlodni tabiatni sevishga undaymiz, uni asrashni, zaharlamaslikni o‘rgatamiz. Chunki tabiatdan o‘zimiz nafas olishimizni, agar iflos qilsak kasal bo‘lishimizni ta’kidlaymiz.

Kattaga hurmatda bo‘l,
Kichikka izzatda.
Yaxshi so‘z qand yedirar,
Yomon so‘z pand yedirar.(2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi, 77-bet)

Keltirilgan maqollarbolalarni yaxshilikka, shirinso‘zlikka, katta va kichikni birdek hurmat-izzat qilishga o‘rgatishga, qattiq, yomon gapirib birovni xafa qilmaslikka, aksincha, uni xursand qilishga undashni maqsad qilgan..

Vatan ostonadan boshlanadi.(3-sinf“O‘qish” darsligi, 15-bet)

Halol mehnat yerda qolmas.(3-sinf“O‘qish” darsligi, 15-bet)

Kuch birlikda. (3-sinf“O‘qish” darsligi, 140-bet)

Ko‘rinib turibdiki, bu xalq maqollari ham ibratli fikrlarni tashishga xizmat qilmoqda. Bu maqollar orqali o‘quvchilarga Vatan, mehnatsevarlik, o‘zaro ahilik, birlik haqida kengroq tushuncha berishimiz lozim, Vatanni sevishni, uni himoya qilishni, ardoqlashni, kelajakda unga sodiq va loyiq farzand bo‘lib yetishishga o‘rgatishimiz kerak, shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, shu

mavzuda ular bilgan xalq maqollari namunalarini ham so‘rab olishimiz mumkin.

Do‘stsiz boshim –tuzsiz oshim.

Mehnatli non shakar,

Mehnatsiz non zahar.(4-sinf “O‘qish” darsligi,80-bet)

Bu maqollar do‘stlik hamda mehnat haqida. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga haqiqiy do‘stlik nima ekanligini tushuntirishi kerak. Do‘stini hurmat qilishni,boshiga tashvish tushganda uni tashlab ketmasdan, yonida bo‘lishni o‘rgatishimiz kerak. Mehnatni sevgan inson hamisha ardoqlanishini, hamma uni hurmat qilishini, mehnat orqasidan topilgan non beminnat va totli bo‘lishini, aksincha, halol mehnat qilmay topilgan non esa kishini ming azoblarga giriftor qilishini uqtirishimiz darkor.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida keltirilgan turli xil mavzulardagi maqollar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, ularning faolligi, lingvistik kompetensiyalari shakllantiriladi, komillik, ma’naviy barkamollik kabi fazilatlar egasi bo‘lishlarida yordam beradi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarining eng ajoyib va eng kichik janrlaridan biri topishmoqlardir. Bu janr bolalarni ko‘proq kuzatuvchanlikka, hayotni mukammal bilishga, sinchkovlikka o‘rgatadi. Ammo topishmoqlarni folklorda faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etaveradilar. Hatto olima Z.Husainovaning ma’lumot berishicha, uzun qish kechalarida urchuq yigirgan va olacha to‘qigan xotinlar, Samarqand atrofida boshqa qishloqlardan to‘yga kelib xonadonlarga bo‘lingan mehmonlar o‘zaro chaldirmoq (tez aytish), jumboq, ya’ni topishmoqlar aytishgan. Topishmoq aytish musobaqasida yashiringan narsani aniqlash uchun bir necha savollar berish an’anasi ham bo‘lgan. Javob axtarayotgan taraf aytuvchidan «joni bormi, yo‘qmi?», «yeyiladimi?», «o‘sadimi, usta yasaydimi?» kabi savollar berib narsa nomini topishga uringan. Topishmoqlarda yechilishi mumkin bo‘lgan so‘roq majoziy shaklda ifodalanadi va uning ma’nosi yashirincha bo‘ladi. Topishmoqlarda narsa yoki hodisaga o‘xshatilishi, o‘zaro qiyoslanishi,taqqoslanishi orqali gavdalantiriladi. Topishmoqlar ba’zan nasriy, ko‘pincha she’riy shaklda, bo‘yoqdorlik vaemotsional jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo‘ladi.

Natija. Har bir yosh bola, albatta,topishmoqqa qiziqadi, uni topishga jon-jahdi bilan harakat qiladi. Javobi to‘g‘ri yoki xatoligini bilmasdan darrov xayoliga kelgan fikrni aytishga harakat qiladi. Mana shu jihatlarni inobatga olib, boshlang‘ich sinf darsliklarida juda ko‘plab topishmoqlar keltirilgan. Topishmoq janri namunalari o‘quvchilarni qiziqtirmay qo‘ymaydi, ularni topqirlikka, chaqqonlikka, ziyraklikka undaydi. Topishmoqlarni hayot bilan bog‘labtushuntirsak ham bo‘ladi. Hozirgi yoshlar juda ham ziyrakki, hamma narsani darrov ilg‘ay oladilar. Avvalambor, boshlang‘ich sinf darsliklarida keltirilgan topishmoqlarningnisbati va bola yoshiga muvofiqligi masalasiga diqqat qaratsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. 1-sinf“Ona tili va o‘qish savodxonligi” (1-qism 47-bet) darsligida quyidagi o‘zbek xalq topishmoqlari keltirilgan:

Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar.(shamol)

Oppoqqina dasturxon

Yer yuzini qoplagan. (qor)

O‘tda yonmaydi,

Suvda botmaydi.(muz)

Berilgan topishmoqlarni hamma o‘quvchilar ham topolmasligi mumkin. O‘qituvchi hamda kitobda berilgan rasmlar orqali o‘quvchilar javobni topishga harakat qiladilar, intiladilar. Yuqoridagi namunalarnitabiatga oid topishmoqlar guruhiga kiritish mumkin.

2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” (1-qism 98-bet) darsligida esa:

Bir tuyam bor, guldiroq,

Hamma yeri yaltiroq. (traktor)

Cho‘zilib yotar narvon,

Undan o‘tar uy – karvon. (temir yo‘l, poyezd)

Baland temir uy yurar,

Burni tog‘larni surar.(ekskovator)

kabi topishmoqlarni uchratamiz.

Keltirib o‘tilgan topishmoqlar transportvositalariga oid buyumlarni atab keluvchi topishmoqlar guruhiga kirishini o‘quvchilar bemalol to‘g‘ri ajrata olishadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar bu transport vositalarini qay darajada bilishlarini, ulardan qay maqsadlarda foydalanishimiz mumkinligini muammoli vaziyat yaratibaniqlabolsak ham bo‘ladi. Bilmagan o‘rinlariesa o‘qituvchi tomonidan tushuntirib boriladi.

3-sinf “O‘qish” (21-bet) darsligida esa quyidagi topishmoq keltirilgan:

Otalari zangi buva,

Onalari yoyma chalpak,

Bolalari shirin-shakar.(Tok, bargi, uzum)

Ko‘rinib turibdiki, bu topishmoqning boshqa topishmoqlardan farqi unda yashiringan predmetlar sonida. Bu topishmoq 3-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini, saviyasini, bilim darajasini inobatga olgan holda kiritilgan.

4-sinf “O‘qish” (20-25-betlar) darsligida esa:

Tukdan parda yuzida,

Pishar o‘lkam kuzida.

Xushbo‘y hidi, tillarang,

Ko‘ngil uchun bir qarang.(behi)

Bozordan bir narsa ol: ham o‘zing ye, ham tovug‘ing yesin, ham moling yesin. (qovun)kabi topishmoqlar keltirilgan.

Keltirib o‘tilgan bu topishmoqlar murakkabroq, so‘zlari soni ham ko‘p. Boshqa topishmoqlardan ancha farq qiladi. 4-sinf o‘quvchilarining bilim darajasiga, ularning saviyasiga moslashtirib berilgan.

Ko‘rib o‘tilganidek, topishmoqlarga nafaqat yosh bolalar, balki katta yoshdagilar ham birdek qiziqadilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun katta mas’uliyat, albatta, fan o‘qituvchisining zimmasiga tushadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqollar ham topishmoqlar ham o‘quvchilarning tarbiyasiga, dunyoqarashiga, aqliy rivojlanishida, nutqiy faoliyatiga, darslikning yaxshi o‘zlashtirilishiga, ziyraklikka, topqirlikka undashidan tashqari, turli mavzularga oid namunalar yosh avlod vakillarini hayotsevarlik,kasbiy ko‘nikmalarni egallash ruhida tarbiyalashda katta yordam beradi hamda xizmat qiladi. Shuning uchun har bir dars jarayonida o‘quvchilarga maqollar va topishmoqlarni izohi bilan birga tushuntirib o‘tish yaxshi samara berishi aniq. Shunda ular maqol va topishmoqlarni tub mohiyatigacha kirib borib, unda ifodalangan mazmunni sinchkovlik bilan izlaydigan bo‘lishadi.Xalq maqol va topishmoqlari necha asrlardan buyon insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda. Ular uzoq o‘tmishimizda qanchalik ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ham birdek ahamiyatlidir.Yosh avlodning ma’naviy yuksalishida alohida o‘ringa ega bo‘lgan xalq maqollari va topishmoqlari kichkintoylarimiz og‘zaki va yozma nutqini o‘stiruvchi muhim manba bo‘lib asrlardan asrlarga osha yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik 1-qism.Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 47-50-betlar.

2.I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik 1-qism. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. –77- 98-betlar.

3.M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiboyeva. O‘qish. 3-sinf uchun darslik. Toshkent-2019 -15-21-betlar.

4.S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyeva, Z.Dolimov. O‘qish. 4-sinf uchun darslik. Toshkent-2020 . - 20-25-betlar.“Yangiyo‘l poligraf servis” nashriyoti, 2017. – 80-bet.

5.O.Madayev, T.Sobitova. Xalq og‘zaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyoti, Toshkent – 2010. – 33-34-42-44-betlar.

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORIDAO‘YINLARTADQIQI

O‘rinova Maftuna No‘mon qizi,
BuxDPI o‘qituvchisi Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘yin bolalar hayotidagi muhim faoliyat sifatida tahlil qilinadi. O.Safarov bolalar o‘yin folklorini ilmiy-nazariy asosda o‘rgangan va uni harakat va so‘z uyg‘unligiga asoslangan ikki asosiy guruhga ajratgan. Olim o‘yinning kompozitsion tarkibini chorlama, cheklashmachoq, sanama, o‘yin qo‘shig‘i va tarqalmachoq kabi qismlarga bo‘lib, har biriga ilmiy atamalar bergan. Shu orqali bolalar o‘yinlari yagona tizim sifatida qaraladi. O‘yin orqali bola nafaqat ko‘ngil ochadi, balki hayotni o‘rganadi, mehnatga, ijodga, jamiyatga moslashadi.

Kalit so‘zlar: bolalar folklori, o‘yin, o‘yin folklori, o‘yin-qo‘shiq, chorlama, cheklashmachoq, sanama, tarqalmachoq, o‘yin strukturasi.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИГР В УЗБЕКСКОМ ДЕТСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Уринова Мафтуна Нумон кизи,
Преподаватель БГПИ Кандидат филологических наук (PhD)

Аннотация. В данной статье игра рассматривается как важный вид деятельности в жизни ребёнка. О. Сафаров изучил детский игровой фольклор на научно-теоретической основе и разделил его на две основные группы, основанные на гармонии движения и слова. Учёный структурно выделил составные части игры, такие как призыв (чорлама), распределение ролей (чеклашмачоқ), считалки (санама), игровые песни и заключительные песни (таркалмачоқ), дав каждому из них научные термины. Таким образом, детские игры рассматриваются как целостная система. Через игру ребёнок не только развлекается, но и познаёт жизнь, приобщается к труду, творчеству и адаптируется к обществу.

Ключевые слова: детский фольклор, игра, игровой фольклор, игровая песня, чорлама (призывная песня), чеклашмачок (песня для распределения команд), санама (считалка), таркальмачок (заключительная песня), структура игры.

THE STUDY OF GAMES IN UZBEK CHILDREN’S FOLKLORE

Urinova Maftuna,
Lecturer at Bukhara State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Annotation. This article analyzes play as an important activity in a child’s life. O. Safarov studied children’s game folklore from a scientific and theoretical perspective and classified it into two main groups based on the harmony of movement and speech. The scholar identified the compositional structure of games by dividing them into components such as chorlama (invitation), cheklashmachoq (team division), sanama (counting rhymes), game songs, and tarqalmachoq (closing songs), assigning each a scientific term. In this way, children’s games are viewed as a unified system. Through play, a child not only has fun but also learns about life, acquires work habits, develops creativity, and adapts to society.

Keywords: children’s folklore, play, play folklore, play-song, chorlama (invitation chant), cheklashmachoq (team division chant), sanama (counting rhyme), tarqalmachoq (closing chant), structure of play.

O‘yin bola hayotidagi muhim faoliyat hisoblanadi. Bunda bolaning xarakter-xususiyati, imkoniyatlari va ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Shu bois bolalar folklorining muhim qismini o‘yin tashkil etadi. O‘yinda bolalar borliqning obrazli va ta’sirli in’ikosini ko‘radilar, undan o‘zlari

zavqlanadilar, hatto kattalarni ham hayajonlantiradilar . Shu bois o‘yinlar katta bir tizim sifatida bolalar folklorining alohida tarkibiy qismini tashkil etadi va bolalar o‘yin folklori nomi ostida guruhlanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘yin “ko‘ngil ochish, dam olishmaqsadida qilinadigan erkin harakat”, “musobaqa qilish uchun ma’lum qoidalar asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulot”(sportni anglatadi), “o‘rtaga pul yoki narsa tikib o‘tkaziladigan mashg‘ulot”(qimor va shunga o‘xshash g‘irromlikni ko‘chma ma’noda ifodalaydi),“ritmik harakatlar va mimikalar uyg‘unligidan iborat”(raqsni anglatadi) kabi ma’nolarni ifodalashi sharhlangan . Ko‘rinadiki, o‘yin keng ma’noli so‘z bo‘lib, lug‘aviy, istilohiy va ko‘chma ma’nolarda qo‘llangani bois, sport va raqsma’nolarida ham ishlatilaveradi. O.Safarov esa ular bir-biridan farqlanuvchi hodisa ekanligi, har biri o‘z tabiatiga ega bo‘lib, o‘ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanganligiga urg‘u beradi. Aslida ularni birlashtiruvchi jihat ikkalasining ham harakat zamirida qurilganida ko‘rinadi, qolaversa, raqs, qisman o‘yindan o‘sib chiqqan. Shu sabab “o‘yin” nisbatan keng ma’nolitushunchagaaylanib, raqs mohiyatini anglatuvchi so‘z sifatida qo‘llangan. Olim buni ayrim raqsga hamohang harakatlarga yo‘g‘rilgan xalqona o‘yinlar misolida ravshanroq ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi hamda “Chittigul” o‘yini orqali fikrini izohlaydi: “Chittigul”– harakatni so‘z boshqarishi asosida qurilgan qizaloqlar o‘yini. Qizaloqlar uni erta bahorda endigina nish otib ko‘kara boshlagan gul-u sabzalarni ko‘rib, quvonch va hayajondan entikib (“chittigul” – aslida ular chuchuk tilidan chiqqan hayajonga limmo-lim “chiqdi gul!” iborasi ekanliginiinobatga oling), qo‘l ushlashib davra hosil qilgan holda aylana turib, o‘zaro jo‘ravozlikda xorovod bo‘lib qo‘shiqni kuylashadi. Bunda aylanish harakati qo‘shiq uchun ritmik-ohangdorlik asos vazifasini bajargan” . Ko‘rinadiki, “Chittigul”da ham o‘yin, ham raqs ham qo‘shiq unsurlari o‘zaro qorishib ketgan. Ammo uning o‘zi nima degan savolga O.Safarov ilmiy-nazariy jihatdan mukammal javob bergan: “Chittigul” harakatniso‘z boshqaradigan behad ommaviy o‘yin tipi” .“Chittigul”da professional raqsga xos harakatlarning mavjud emasligi uni san’atdan uzoqlashtirsa, harakatning ommaboplik xususiyati ustuvor ekanligi o‘yinga mansublik alomatini kuchaytiradi. Undagi qo‘shiq esa o‘yinning verbal qismini tashkil qiladi. Shu asosda kompozitsion yaxlitlik yuzaga keladi. “Uning o‘yinligini tasdiqlovchiyana birmuhim alomati, – deydi O.Safarov, – o‘yinchi ham, tomoshabin ham ijrochilarning o‘zlariekanligidirki, raqsda bunday uyg‘unlik yo‘q” .

Shuningdek, olim sport va o‘yin o‘rtasidagi tafovutni ham ochiqlashga uringan. Sport o‘ yinningmusoboqalashishnegizida qurilgan va professional ijroga mo‘ljallangan yuksak darajadatakomillashgan, o‘z qonun-qoidalarigaamal qiladigannamunasi ekanligini ta’kidlab, barcha o‘yinlar musobaqa yo‘sinigaasoslanmagan, ularning salmoqli qismi, xususan, maktabgachayoshdagibolakaylarga mo‘ljallangannamunalari ermak vazifasini o‘tovchi zavq-u shavqqa yo‘g‘rilgan taqlidiy harakatlaryig‘indisidan iboratligini qayd qilgan .

O.Safarovningilmiy mulohazalari asosida bolalar o‘yin folklorini ikki nazariy asosda o‘rganish mumkin:

1. O‘yindagi harakat so‘z bilan hamohang o‘yin-qo‘shiq janrlari.

2.Taqlid yetakchilik qiladigan bolalar o‘yin-qo‘shiq janrlari.

O‘zbek xalq bolalar o‘yinlarini folklorshunoslik yo‘nalishida o‘rganish bo‘yicha bir necha muhim tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, folklorshunos G‘.Jahongirov o‘yinni folklordan, folklorni o‘yindan ajratib bo‘lmasligini, ulardagi yaqinlik jismoniy harakat bilan ohang yoki kuyning uyg‘unligi ekanligini alohida ta’kidlaydi. G‘.Jahongirov ma’lumotlari asosida o‘yinning kechish tarzini quyidagicha izohlash mumkin: o‘yinga chaqirish – o‘yin boshi(chek tashlash) – sanoq termalari – o‘yin oxiri . Olimning ushbu fikri bolalar o‘yinlarining yaxlit kompozitsiya sifatida mavjudligini asoslaydi. Biroq mazkur folkloriy hodisalarning tabiati konkret ochib berilmagani, istilohlar noaniqligiga yo‘l qo‘yilgani hamda chek tashlash tarkibiga og‘iz boylash (aslida guldurgup janri so‘z o‘yinlari tarkibiga kiradi) usulining kiritilishi e’tirozga sabab bo‘ladi.

O.Safarov esa o‘yinga bolalarning o‘z ijodkorligi va ijrochiligi hosilasi sifatida qaraydi:

“Chelakchasida suv tashiganida, loydan uycha qurganida, tuproqdan xirmon uyganida bolakay shunchaki o‘ynamaydi, kattalarga taqlid qila turib mehnat qilgan bo‘ladi. Bu shunchaki taqlidiy mehnat emas, balki unga xos jarayonlarni o‘zlashtirish, mehnatning mohiyatini idrok etishdan iborat hayot sabog‘idir. U hayotni o‘ynab turib o‘zlashtiradi, o‘ynab turib ijodiy salohiyatini shakllantiradi va toblaydi, o‘ynab turib bunyodkorlikni o‘rganadi va kelajakning bunyodkori bo‘lib yetishadi. Binobarin, o‘yin – bolalar uchun hayotni o‘rganish va o‘zlashtirish alifbosidir” . Bundan o‘yin bolani hayot bilan bog‘lab turuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi, degan xulosaga kelish mumkin.

O‘yinlarning katta qismi qo‘shiq bilan mantiqan bog‘langan holda kompozitsion jihatdan bir butunlikka erishgan. O.Safarov ham o‘yinni yaxlit tizim sifatida o‘rgandi. E’tiborli jihati shundaki, o‘yin qismlarini nazariy jihatdan asoslab, ularni ilmiy termin bilan nomladi hamda bu istilohlar taomilga kira boshladi. Kuzatishlari va tajribasiga asoslanib, olim o‘zbek xalq bolalar o‘yinlari strukturasini 3 guruhga ajratdi:

Birinchi guruhdagi o‘yin qo‘shiqlari bolalarni o‘yinga chaqirish, o‘yinni tashkil etish shart-sharoitlarini ifodalab, faqat o‘yin boshlanishidagina ijro etiladi. Shu sababli ularni o‘yin muqaddimalari tarzida umumlashtirish mumkin. O.Safarov bu guruhga chorlama, cheklashmachoq va sanamalarni kiritish ma’qulligini ta’kidlaydi .

Chorlama istilohi ilmiy termin sifatida o‘zbek bolalar folklorshunosligiga O.Safarov tomonidan kiritilgan. Shunda mazkur folkloriy hodisa mohiyatini ifodalovchi istiloh aniqligiga va folklorshunoslikda uni qo‘llashning o‘ngg‘ayligiga erishildi. O.Safarov bir necha chorlamani tahlil qilish orqali uning mavzuviy mundarijasini aniqlab, ustuvor tasviriy vosita parallelizm ekanligini aniqladi:

Chumchuqcha chirillaydi,
Qanoti pirillaydi.
Sidiqaxon uydan chiqsa,
Otasi g‘urullaydi .

Parallelizm chorlamalarda turlicha g‘oyaviy-estetik vazifalarni bajaradi. Bundachumchuqning chirillashi, qanotining pirillashi bolalarda yomon kayfiyatuyg‘otgan. Binobarin, Sidiqaxonning o‘ynagani chiqishiga otasining g‘urullashi ham shunday assotsiatsiya tug‘dirishi tabiiy . Ya’ni chumchuqning chirillashi va bolasining o‘ynagani chiqishiga qarshi ota g‘urullashi parallel tasvirlanmoqda.

Cheklashmachoq istilohi G‘.Jahongirov tomonidan “chek tashlash” tarzida qo‘llangan. “Devonu lug‘otit turk”da esa “cheklashdi” iborasi keltirilgan. O.Safarov bolalarning ikki raqib guruhga birlashish jarayonida aytiladigan o‘yin muqaddimasini cheklashmachoq tarzida nomlashni taklif qildi hamda ushbu istiloh ilmiy taomilga o‘zlashdi. Olim cheklashmachoq mazmunidagi o‘zgarishlar tarixiy taraqqiyot natijasida tadrijiy o‘sib borganligini qayd etadi. Buni predmet orqali qur’a tashlash o‘rnini badiiy so‘z egallagani bilan izohlaydi:

Biz ikki gul-u lola,
Kimga gul, kimga lola?

Onaboshi gul yoki lolani tanlash orqali o‘z jamoasiga munosib a’zo qo‘shish imkoniga ega bo‘ladi.

Sanamaning o‘yin boshlash oldidan boshlovchini, navbatchini aniqlash, “biror bolaga gal berish”dan iborat vazifasi bolalar folklori tadqiqotchilari G‘.Jahongirov hamda O.Safarovlar tomonidan to‘g‘ri e’tirof etilgan. G‘.Jahongirov sanamaning mohiyatiga urg‘u berib, bir necha namuna tahlili orqali uning badiiyatini ochishga muvaffaq bo‘lgan. U rus bolalar folklorshunosligida sanamalar bir necha turga bo‘linishini qayd etsa-da, o‘zbekcha sanama turlari haqida fikr bildirmaydi. O.Safarov esa rus tasnifotiga asoslanib, qolaversa, mavjud 187 sanama xarakteridan kelib chiqib ularni uch guruhga ajratadi:

1.Voqeaband sanamalar (bular raqam ritmik asos bo‘lgan va sanoq ohangidagi so‘zlardan bitilgan sanamalarga bo‘linadi). Masalan: Bir, ikki... aylana, Aylanagakiryana. Anqovbo‘lma,

eyo‘rtoq Doving keladiyana!

2.Kumulyativ sanamalar (O.Safarov bu xildagi sanamalarning yetakchi xususiyatini tartibsiz va mantiqsiz so‘z va iboralarning sanash ritmida aks ettirilishi deb ko‘rsatadi). Masalan: Avak – buvak, Chodir buvak. UshpulagimSuvga tushdi. Hasan qaro, chiq!

3. So‘qma sanamalar (bularda voqeabandlik (syujet) yo‘q, raqam va ma’noli so‘zlar qo‘llanmaydi, faqat so‘qma so‘z hal qiluvchi poetik mohiyat kasb etadi): Abadayni, Shabadayni. Shab-shabadayni, Dumala qoq, San chiq-u boq .

Ikkinchi guruhga mansub o‘yin qo‘shiqlari, asosan, o‘yin qismlarini bir-biriga bog‘laydi, shu zaylda ular harakat va qo‘shiq uyg‘unligini, o‘yin yo‘sinini namoyon etadi. Bu xildagi qo‘shiqlar o‘yin jarayonida murakkabroq vazifa bajaradi, ya’ni butun o‘yinning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini ta’minlaydi. Shu bois ular o‘yinning elementi emas, balki tarkibiy uzvi hisoblanadi. O.Safarov o‘yinlarni tahlil qilar ekan, o‘yin o‘ynash jarayonida o‘yin tashkilotchisi sifatida tanilgan, jamoada e’tirof etilgan, tan olingan sardorlar obraziga alohida e’tibor beradi. Olim bunday tashkilotchilarni O‘zbekistonning turli joylarida o‘yinboshi, onaboshi, jo‘raboshi, boshliq nomlari bilan atalishini, ular o‘yinda asosiy obraz ekanligini e’tirof etadi. Bu obrazning o‘ziga xos xususiyatlari cheklashmachoqlarda ko‘zga tashlanadi: “Onaboshi, onaboshi, Yigitlarning qalam qoshi” yoki “Boshliq, boshliq, qalam qoshliq” kabi murojaatlar fikrimizning isbotidir.

Uchinchi guruhga o‘yinning tugashini ifodalovchi qo‘shiqlar mansub bo‘lib, ular nihoyatda kam yozib olingan. Bu qo‘shiqni O.Safarov tarqalmachoq istilohi bilan atashni taklif qilgan .

Olim o‘yinning o‘z shartlari borligini ham alohida ta’kidlaydi. Uchorlamadan boshlangan o‘yin davom etib, tarqalish qo‘shiqlari bilan yakunlanishi qonuniyligini ochib beradi. Bu haqda dastlab G‘.Jahongirov “o‘yinning oxiri” sifatida ma’lumot bergan . O.Safarov esa uni “tarqalmachoq”termini bilan ataydi. Uning fikricha, tarqalmachoqda bolalarning o‘yindan olgan xush yoki noxush taassurotlar og‘ushida qaytishlari motivi yetakchilik qiladi. O‘zbek bolalar folklorida tarqalmachoqqa oid namunalar kam yozib olingan. Shu bois bu janr keng aspektda tahlil qilinmagan. Ammo olim bir necha namunani tahlil qilar ekan, bolalar tarqalmachoqda qay vaziyatda tarqalayotganliklarini, o‘yindan chiqib ketish sabablarini, g‘oliblik yoki mag‘lublik kayfiyatini ifodalashi mumkinligini ko‘rsatdi. Masalan, quyidagi namunada bola yutqiza turib, o‘yinni tashlab ketayotgani va natijada o‘yin buzilgani malomat qilinadi:

Davrma-davrga,
Chiqaylik dashtga.
Kelganda bizga navbat,
Qochganlar nomard! .

Demak, tarqalmachoqlar bolalar psixologiyasini kuzatishda muhim manba hisoblanadi. O.Safarovning ularni to‘plash va o‘rganish borasidagi sa’y-harakatlari folklorshunoslik hamda psixologiya sohasida o‘z qimmatiga ega.

Bunday ilmiy-nazariy jihatdan mukammal tasnif o‘zbek bolalar folkorida birinchi martaO. Safarov tomonidan amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Б ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001. – Б. 496.

2.Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент:Ўқитувчи, 1975. – Б. 8.

3.Сафаров О. Ўзбек болалар адабиёти ва фольклори. – Бухоро: Бухоро, 2007. – Б. 96.

4.Mevlut O‘zhan. Çocuk folkloru. Kebikeç/19. – Ankara, 2005. – S. 225-229.

5.Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 15.

6.Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори(локал хусусиятлари, таснифи ва бадиияти): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 11.

7.Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент : Фан, 1960. – Б. 452

TARJIMADA USLUBIY KONVERGENSIYA VA DIVERGENSIYA HODISALARI

Qarshiyeva Shahodat Bektoshevna
O‘zDJTU magistranti

Abstract.This article examines the phenomena of stylistic convergence and divergence in translation studies, focusing on their manifestation in translated texts. The study highlights how convergence tends to neutralize stylistic variety, resulting in simplification and leveling-out, while divergence reflects creative strategies that add new stylistic dimensions to the target text. Drawing on theoretical insights from Mona Baker, Gideon Toury, and functionalist scholars, the article demonstrates that convergence is often linked to cognitive and linguistic universals, whereas divergence is motivated by cultural adaptation and communicative purpose. Examples from English and Uzbek translations illustrate the interplay between these two tendencies. The findings show that both convergence and divergence play a crucial role in shaping the stylistic profile of translated texts and reflect translators’ strategies in balancing fidelity and creativity.

Keywords: stylistic convergence, stylistic divergence, translation universals, normalization,creativity, functional approach. ‘

Annotatsiya . Ushbu maqola tarjimashunoslikda uslubiy konvergensiya va divergensiya hodisalarini tahlil qilishga bag’ishlangan bo’lib, ularning tarjima matnlarida qanday namoyon bo’lishi yoritilgan. Tadqiqotda konvergensiya uslubiy xilma-xillikning kamayishi, soddalashtirish va o’rtachalashtirish jarayonlarini ifodalayotgani, divergensiya esa maqsadli til matniga yangi uslubiy qatlam qo’shuvchi ijodiy strategiya sifatida ko’rilayotgani ta’kidlanadi. Mona Baker, Gideon Toury va funksional yondashuv vakillarining nazariy qarashlariga asoslanib, maqolada konvergensiyaning ko‘proq kognitiv va lingvistik universallar bilan, divergensiyaning esa madaniy moslashuv va kommunikativ maqsad bilan bog’liqligi isbotlanadi. Ingliz va o’zbek tarjimalaridan olingan misollar bu ikki tendensiyaning o’zaro ta’sirini ko’rsatadi. Xulosada, konvergensiya va divergensiya hodisalari tarjima matnlarining uslubiy qiyofasini shakllantirishda muhim o’rin tutishi va tarjimonlarning sodiqlik hamda ijodkorlik o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashda asosiy vosita bo’lishi qayd etiladi.

Kalit so’zlar: uslubiy konvergensiya, uslubiy divergensiya, tarjima universallari, normallashtirish, ijodkorlik, funksional yondashuv.

Аннотация . Данная статья посвящена анализу явлений стилистической конвергенции и дивергенции в переводоведении, а также их проявлению в переводных текстах. В исследовании отмечается, что конвергенция ведет к нейтрализации стилистического разнообразия, упрощению и «усреднению» текста, тогда как дивергенция отражает творческие стратегии переводчика, добавляющие новые стилистические измерения в текст перевода. Опираясь на теоретические положения Моны Бейкер, Гидеона Туриа и представителей функционального подхода, автор показывает, что конвергенция в большей степени связана с когнитивными и лингвистическими универсалиями, а дивергенция обусловлена культурной адаптацией и коммуникативной целью. Примеры из английских и узбекских переводов демонстрируют взаимодействие этих двух тенденций. В заключение подчеркивается, что конвергенция и дивергенция играют ключевую роль в формировании стилистического облика переводного текста и отражают стратегии переводчика по балансировке между верностью оригиналу и творческим переосмыслением.

Ключевые слова: стилистическая конвергенция, стилистическая дивергенция, переводческие универсалии, нормализация, креативность, функциональный подход.

Kirish. Tarjima nazariyasi sohasida uslubiy konvergensiyava divergensiya hodisalari tarjima

jarayonining muhim jihatlaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Konvergensiya hodisasi tarjima matnida uslubiy vositalarning neytrallashuvi, soddalashuvi va «o’rtachalashtirilishi» bilan izohlanadi. Divergensiya esa, aksincha, tarjimonning ijodiy yondashuvi natijasida matnga qo’shimcha uslubiy qatlamlar kiritilishi yoki asl matndan sezilarli chekinish hodisasini bildiradi. Ushbu hodisalar tarjima universallarining amaliy ko’rinishlari sifatida deskriptiv tarjimashunoslik, korpus lingvistikasi va funksional yondashuv doirasida keng tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ingliz va o’zbek tillari misolida konvergensiya va divergensiya hodisalarini tahlil qilish, tarjima jarayonida sodiqlik va ijodkorlik o’rtasidagi muvozanatni aniqlash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tarjima jarayoni nafaqat lingvistik, balki uslubiy, madaniy va kognitiv omillarni ham o’z ichiga oladi. Tarjima matnning uslubiy xususiyatlari tarjimonning ongli va beixtiyor strategiyalari natijasida shakllanadi. Bu jarayonda uslubiy konvergensiyava uslubiy divergensiyahodisalari alohida e’tiborga loyiqdir. Ular tarjima universallarining amaliy ko’rinishlari sifatida qaraladi.

Uslubiy konvergensiya tushunchasi- tarjima jarayonida asl matndagi uslubiy xilma-xillikning kamayishi, uslubiy vositalarning o’zaro yaqinlashishi yoki“o’rtachalashish” hodisasi. Bu hodisa Mona Bakertomonidan qayd etilgan “levelling out” universaliga juda yaqin. Tarjima matnlari ko’pincha asl matnga qaraganda neytralroq, oddiyroq va standartroq bolib chiqadi.

Uslubiy konvergensiyaning sabablari: til me’yorlaridir. Tarjimon ko’pincha adabiy til me’yorlariga tayanadi. Tarjimashunoslikdagi uslubiy konvergensiya hodisasining asosiy sabablaridan biri sifatida tushuntiriladi.

Til me’yorlari- bu tilning adabiy shaklida qabul qilingan, jamiyat tomonidan ta’n olingan grammatik, leksik va uslubiy qoidalar majmuasidir. Har bir tilning o’z adabiy qoidalari mavjud va tarjiman matn yaratishda ko’pincha shu qoidalarga tayanadi. Tarjimon asl matndagi so’zlashuv unsurlarini yoki nostandart ifodalarni o’zbek tiligi tarjima qilayotganda o’zbek adabiy tili me’yorlariga moslashtiribberadi. Bu jarayon ko’pincha stilistik konvergensiyaga olib keladi, ya’ni uslublar xilma –xilligi kamayib, neytrallashadi.

Til me’yorlaritarjimada muhim rol o’ynaydi. Tarjimon ko’pincha o’zbek adabiy tili normalariga tayanadi, natijada matndagi nostandart yoki so’zlashuv unsurlari adabiy tilga moslashtiriladi. Bu esa uslubiy konvergensiya va normalizatsiya universalining namoyon bo’lishiga olib keladi. Natijadamatn tushunarli va bir xil ohangda bo’ladi va o’quvchimatnni osonroqqabul qiladi.

Har qanday tarjima matni muayyan auditoriyaga qaratilgan bo’ladi. Tarjimon matnni yaratishda o’quvchining til darajasi, madaniy tajribasi, va qabul qilish qobiliyatinihisobga oladi. Shu sababli murakkab, aralash uslublar ko’pincha soddalashtiriladi va bir xillashadi.

O’quvchi uchun matnni tushunarliroq qilish maqsadida tarjimon stilistik xilma-xillikni qisqartiradi. Bu hodisa ko’pincha konvergensiya yoki soddalashtirishuniversalining natijasi sifatida yuzaga keladi

Kognitiv jarayon-tarjimonning beixtiyor soddalashtirish tendensiyasi.

Kognitiv jarayonlar –inson ongida kechadigan idrok, xotira, diqqat, tafakkur kabi faoliyatlarni o’z ichiga oladi. Tarjima jarayonida tarjimon ushbu kognitiv mexanizmlarga tayanadi.

Tarjimon ko’pincha ongli ravishda emas, balki avtomatik ravishda murakkab strukturalarni soddalashtiradi. Bu hodisa Mona Baker qayd etgan “soddalashtirish universali” ga to’g’ri keladi. Bu jarayon ongli strategiya sifatida emas, balki tarjimonning kognitiv imkoniyatlari bilan bog’liq beixtiyor universal tendensiya sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun uni “kognitiv universal” deb ham atash mumkin.

Divergensiya- tarjima jarayonida asl matn bilan solishtirganda uslubiy tafovutning kuchayishi, uslubning sezilarli darajada o’zgarishi hodisasidir. Buko’pincha reklama, badiiy yoki publisistik matnlarda uchraydi.Bu hodisa ko’proq funktsionalizm bilan bog’liq, ya’ni tarjimon matnning maqsadi (skopos) asosida uslubni ongli ravishda o’zgartiradi.

Asosiy sabablaridan birimadaniy moslashuvdir. Bundao’zbek o’quvchisi uchun begona uslubiy birliklarni milliy kontekstga yaqinlashtiriladi.Bundan tashqari kommunikativ maqsadi ham bo’lib, unda badiiy adabiyot, publisistik matn yoki misol uchun reklama matnlarida ta’sirchanlikni oshirishdir. Tarjimonning matnga qo’shimcha estetik qiymat qo’shishi esa ijodkorlik hisoblanadi va bu ham uslubiy divergensiya sabablaridan biridir.

Tarjima amaliyotida divergensiya ham konvergensiya hamko’pincha bir matnning turli qismlarida birgalikda uchraydi. Konvergensiya ko’proq beixtiyor universal tendiyasi hisoblansa, divergensiya esa ko’proq ongli strategiya, ya’ni ijodiy qayta yaratish , madaniy moslashtirishdir.

Uslubiy konvergensiya va divergensiyani aniqlashda korpus tahlili juda qo’l keladi.. Korpus-bu katta hajmdagi matnlar majmuasi bo’lib, u maxsus elektron dasturlar yordamida tartiblangan va tahlil qilinadigan bazadir. Korpus tahlili- matnlarni kompyuter yordamida bajarilib,Inglizcha va O’zbekcha tarjima matnlarini komyuter yordamida solishtirish jarayonidir. Bunda parallel,qiyosiy korpuslar mmavjud. Parallel korpusda asl matn va tarjima yonma-yon qo’yilib, asosangap uzunligi, kollokatsiyalar, metaforalar qiyoslanadi. Qiyosiy korpusda esa tarjima matnlari maqsad tilidagi original matnlar bilan qiyoslanadi va konvergensiya hamda divergensiya aniqlanadi

Tarjimashunoslikda korpus tahlili asl matn va tarjima matnini yonma-yon solishtirish, tarjimada doimiy takrorlanadigan universallarni aniqlash imkonini beradi. Kompyuter asosida olingan natijalar aniq va statistik dalillarga tayanadi va katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqtda tahlil qilish imkonini beradi. Soddalashtirish, eksplisitlashtirish, normalizatsiya kabi universallarni isbotlash qulay.

Korpus tahlili tarjimashunoslikda eng zamonaviy metodlardan biri bo’lib, inglizcha va o’zbekcha tarjima matnlarini kompyuter yordamida solishtirish orqali tarjimada yuzaga keladigan uslubiy universallarni aniqlash imkonini beradi.

Tarjimashunoslikda konvergensiya va divergensiyani ilmiy asoslashda kuzatuv va eksperimental metodlar juda muhim rol o’ynaydi.

Kuzatuv – bu tarjima jarayonida va tarjima matnida yuz beradigan uslubiy o’zgarishlarni bevosita tahlil qilish va tavsiflash usulidir. Bu metod deskriptiv tarjima tadqiqotlari Gideon Toury , MonaBakeran’anasida keng qo’llanadi.

Kuzatuv metodi tarjimashunoslikda badiiy, ilmiy va reklama matnlarida yuz beradigan uslubiy o’zgarishlarni aniqlash uchun qo’llaniladi. Bu metod yordamida tarjimada konvergensiya, divergensiya, simplifikatsiya va ijodiy qayta yaratish kebi universallar kuzatilib , ilmiy asos bilan tavsiflanadi.

Eksperiment: Bu metodda bir matn bir nechta tarjimonlarga beriladi va ularning natijalari uslubiy konvergensiya/divergensiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bu tarjimashunoslikdagi eksperimental metodni bildiradi. Keling, uni kengroq ilmiyy shaklda izohlaymiz:

Eksperiment- bu ilmiy tadqiqotda nazorat qilingan sharoitda biror hodisani o’rganish usuli. Tarjimashunoslikda bu metod shunday amalga oshiriladi: bir xil matn bir nechta tarjimonga beriladi, keyin ularning tarjimalari o’zaro taqqoslanadi. Bu orqali tarjimonlarning uslubiy tanlovlari, strategiyalari va universallarni qo’llashdarajasi aniqlanadi.

Eksperiment yordamida quyidagi savollarga javob topish mumkin:

Tarjimonlar murakkab jumlalarni soddalashtirishga moyillik ko’rsatadimi? (konvergensiya)

Tarjimonlar reklama shiorlarini ijodiy qayta yaratishga intiladimi? (divergensiya)

Qaysi universallar (simplifikatsiya , eksplisitlik, normalizatsiya) ko’proq uchraydi?

Eksperiment metodi tarjimada uslubiy konvergensiya va divergensiyani amaliy jihatdan isbotlashning samarali vositasidir. U tarjimonlarning ongli va beixtiyor strategiyalarini tahlil qilishga imkon beradi hamda tarjima universallarini o’rganishda muhim rol o’ynaydi.

Uslubiy konvergensiya va divergensiya haqida olimlar orasida turli yondashuvlar mavjud, hatto ba’zan bahsli fikrlar ham uchraydi. Ba’zi olimlar konvergensiyani“tarjima sifatining pasayishi” deb baholaydi. Boshqalar esa uni “tabiiy universal hodisa” deb ko’radi. Divergensiya esa ko’pincha “ijodkorlik” deb baholansa-da ayrim hollarda “aslga xiyonat” sifatida ham talqin

qilinadi.

Mona Baker(1993, 1996) konvergensiyani “levelling out” universali bilan bog’laydi. Unga ko’ra, tarjima jarayonida uslubiy xilma-xillik yo’qoladi, matn “o’rtachalashadi”. Bu, Baker fikricha, tarjimalarda tabiiy universal tendensiya.

Biroq ayrim olimlar, masalan, Sara Laviosa(1998) buni tarjima sifatining pasayishi sifatida ko‘rgan. Unga ko‘ra, haddan tashqari soddalashtirish yoki neytrallashuv muallifning uslubiy individualligini yo‘qotadi.

Tarjimada uslubiy konvergensiya va divergensiya hodisalari tarjima universallarining uslubiy ko’rinishlari sifatida qaraladi. Ularni chuqur o’rganish tarjima nazaryasini boyitadi, amaliyotda esa tarjimonningstrategik qarorlarini tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Yakuniy natijalar shuni ko’rsatadiki, uslubiy konvergensiya va divergensiya tarjima jarayonining ikki qarama-qarshi, ammo o‘zaro bog‘liq hodisalaridir. Konvergensiya tarjima matnida soddalashtirish, neytrallashuv va o’rtachalashtirish jarayonlarini aks ettirsa, divergensiya tarjimonning ijodkorligi, madaniy moslashuvi va kommunikativ maqsadlarini ifodalaydi. Tadqiqot davomida ingliz va o’zbek tarjimalaridan olingan misollar asosida aniqlanishicha, tarjima jarayonida ushbu ikki tendensiya ko‘pincha birgalikda namoyon bo’ladi. Bu esa tarjimonning strategik qarorlarida sodiqlik va ijodkorlik o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashning muhimligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, M. Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1993. – 233 p.

2. Baker, M. Translation and Activism: Emerging Patterns of Narrative Community. – The Translator, Vol. 6(1): St. Jerome, 2000. – 23 p.

3. Baker, M. Translation and Conflict: A Narrative Account. – London/New York: Routledge, 2006. – 207 p.

4. Toury, G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – 324 p.

5. Laviosa, S. Core Patterns of Lexical Use in a Comparable Corpus of English Narrative Prose. – Meta: Journal des traducteurs, Vol. 43, No. 4. – Montréal: Les Presses de l’Université de Montréal, 1998. – pp. 557–570.

TARIXIY ASARLAR MATNIDA ILLOKUTIV AKTNING NAMOYON BO‘LISHI

(“Buyuk saltanat” asari asosida)

Qodirjonova (Anvarova) Zohida Akramovna
Tayanch doktorant Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy-badiiy matnlarda, xususan, Muhammad Alining “Buyuk Saltanat” asarida nutqiy aktlarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda illokutiv, perlokutiv, lokutiv aktlar turlariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, asar qahramonlarining nutqiy portretlari orqali ularning maqsadlari, ijtimoiy mavqei va madaniy kontekstdagi o‘rni ochib beriladi. Tarixiy kontekstda nutqiy aktlarning bevosita va bilvosita shakllari, ularning pragmatik funksiyasi va madaniy yuklamasi lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, illokutiv akt, lokutiv akt, perlokutiv akt, tarixiy asar, lingvopragmatika, Buyuk Saltanat, madaniy kontekst.

Аннотация:В статье рассматриваются особенности проявления речевых актов в историко-художественном тексте, в частности, в произведении Мухаммада Али «Великая держава». Особое внимание уделяется видам речевых актов: иллокутивным, перлокутивным и локутивным. Анализируя речевые портреты персонажей, автор раскрывает их цели, социальный статус и культурный контекст. Выделены прямые и косвенные формы речевых актов, их прагматическая функция и культурная нагрузка в историческом контексте.

Ключевые слова: речевой акт, иллокутивный акт, локутивный акт, перлокутивный акт, историческое произведение, лингвопрагматика, Великая держава, культурный контекст.

Abstract:This article analyzes the manifestation of speech acts in historical literary texts, specifically focusing on Muhammad Ali’s novel Buyuk Saltanat («The Great Empire»). Special attention is paid to illocutionary, perlocutionary, and locutionary acts. Through the speech portraits of the characters, the article reveals their communicative intentions, social status and place within the cultural context. The study examines both direct and indirect forms of speech acts and their pragmatic function and cultural significance within a historical framework.

Keywords: speech act, illocutionary act, locutionary act, perlocutionary act, historical novel, linguistic pragmatics, Buyuk Saltanat, cultural context

Kirish. Tarixiy-badiiy asarlar nafaqat o‘tmish voqealarini yorituvchi adabiy manbalar, balki shu voqealar ishtirokchilari bo‘lgan shaxslarning nutqiy, ijtimoiy va madaniy tafakkurini o‘zida mujassam etgan matnlar sifatida ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ular orqali nafaqat tarixiy shaxslar obrazini, balki ularning til vositasida qanday maqsadni ko‘zlaganini, qanday ijtimoiy muhitda yashaganini, qanday ideologik tamoyillarni ilgari surganini ham aniqlash mumkin. Aynan shu nuqtai nazardan, tarixiy matnlar lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinishi, ya’ni unda mavjud nutqiy aktlarning ko‘rinishlari va ularning kommunikativ vazifalari o‘rganilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada Muhammad Ali qalamiga mansub “Buyuk Saltanat” tarixiy romanining matni lingvopragmatik tahlilga tortilib, asarda ishlatilgan nutqiy aktlar – lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar turlari namunalari asosida tahlil etiladi. Qahramonlarning nutqlari orqali ularning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei va tarixiy vaziyat bilan bog‘liqligi yoritiladi. Ayniqsa, bu asarda nutqiy aktlar orqali siyosiy kuch, hokimiyat, sadoqat, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar kabi mavzular qanday ifodalanganiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – tarixiy-badiiy matnni zamonaviy lingvopragmatik yondashuv asosida o‘rganib, undagi nutqiy aktlarning tarixiy-kontekstual mazmunini ochib berishdir. Shu orqali tarixiy matnlar tilining chuqur qatlamlarini tahlil qilish, ularning kommunikativ va madaniy yuklamasini anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.Nutq akti – pragmatikaning asosiy tushunchalaridan biri sanaladi. Nutq akti - bu til harakati qoidalariga muvofiq, amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ

harakatdir[6:830]. Pragmatikada har qanday nutq aktini ko‘rib chiqish mumkin, masalan maslahat, minnatdorchilik, tahdid, so‘rov, uzr va boshqalar. Nutq akti - bu nutqni, shu bilan birga eshitish qobiliyatini va eshitilgan narsalarni tushunishni o‘z ichiga olgan ikki tomonlama jarayon. U lingvistik pragmatika bo‘limining markaziy tushunchalaridan biri bo‘lib, 1962-yilda ingliz tilshunosi J. L. Ostin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o‘zining “How to Do Things with Words” (So‘zlar bilan nimalar qilish mumkin) nomli asarida so‘zlash faqat faktlarni bildiruvchi akt emas, balki u orqali turli ijtimoiy va kommunikativ harakatlar ham amalga oshirilishini tushuntirgan.

J.Ostin nutq aktlari nazariyasini shakllantirib boshqa tilshunoslar uchun nutq akti turlarini ajratishda boshlang‘ich bo‘lib xizmat qilgan tasnifni taklif qildi. Djon Ostin beshta performativ (illokutiv) aktlar aniqlagan: 1) verdiktivlar, ular yordamida so‘zlovchi biror narsaga yoki birovga o‘z bahosini bildiradi; 2) ekzersitivlar, so‘zlovchining hukmini amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi (buyruqlar, farmoyish va boshqalar); 3) komissivlar – va’dalar va majburiyatlarning ifodasi; 4) bexabitivlar, ijtimoiy xatti-harakatlarni va kommunikantlar munosabatlarini boshqaradi. (masalan, tabriklash, uzr so‘rash va h.k.) 5) ekspozitivlar, suhbat davomida bayonotlar joyini aniqlaydilar (tan olaman, rad etaman va hokazo) [11: 131]. J.Ostin, u yoki bu nuqtayi nazarni ifoda etganda, shaxs muayyan vaziyatni tasvirlashi, shuningdek, ba’zi harakatlarni, ya’ni nutq aktini bajarishi mumkinligiga e’tibor qaratdi: xabar berish, so‘rash, undash, iltimos qilish, maslahat berish, minnatdorchilik va boshqalar. Shuningdek, u nutq aktlarining uchta bosqichini ajratadi: 1) lokutiv - akt o‘z-o‘ziga gapirish. 2) illokutiv - boshqa shaxsga niyatini bildiradi, maqsadni belgilaydi. 3) perlokutiv - boshqa kishining xatti-harakatlariga ta’sirini ifodalaydi. J. Ostin nutq akti funksiyalarini illokutiv kuchlar, unga tegishli fe’llarni esa illokutivlar deb atadi. Illokutiv kuch - bu tushuncha quyidagi tarkibiy qismlarning birikmasidan iborat: 1) maqsad yoki niyat; 2) maqsadga erishish usuli; 3) nutq akti illokutiv kuchining intensivligi; 4) taxminiy mazmunning xususiyatlari; 5) muayyan nutq aktidan foydalanish shartlari; 6) samimiylik shartlari. Nutq akti illokutiv kuchining yuqoridagi keltirilgan barcha tarkibiy qismlari mantiqiy tartibga solingan va o‘zaro bog‘liqdir [11: 22-129].

V.Hak nutq aktlarini ularning umumiy ma’nosiga qarab ajratadi. Ularni informativ va noinformativlarga ajratadi. Informativ ma’lumotni uzatish yoki talab qilish bilan bog‘liq. Bularga bayonot, va’dalar, undashlar kiradi. Noinformativlarga turli xil “ijtimoiy” aktlar kiradi: salomlar, tabriklar va hk. [7:628-630]. K. Bjuler nutq aktining uchta tarkibiy qismini aniqlaydi: adresant, adresat, mavzu va vaziyat. U ularni tilning ba’zi funksiyalari bilan o‘zaro bog‘ladi [5: 34].

J.So‘rl nutq aktining beshta asosiy turini o‘z ichiga olgan tasniflashni taklif qiladi. 1) reprezentativlar – so‘zlovchining taklif mazmuni (xabar, taxmin, tushuntirish va hokazo) haqiqiy ekanligiga ishonchini ifoda etuvchi bayonotlar. 2) direktivalar – tinglovchining biron-bir faoliyatni amalga oshirishida, so‘zlovchi tomonidan qo‘llaniladigan bayonotlar (buyruq, maslahat, iltimos, ogohlantirish va hok.) 3) komissivlar – so‘zlovchi voqealarning keyingi yo‘nalishi (va’da, ishtirok etish va hokazo) bo‘yicha muayyan majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan bayonotlar; 4) ekspressivlar – so‘zlovchining biror narsaga nisbatan ma’lum bir ruhiy holatini bildiruvchi bayonotlar (minnatdorchilik, uzr va boshqalar) 5) deklaratsiyalar - quyidagi bayonotlardan (ariza) foydalanish yangi ish holatiga olib keladi [5: 170-194].

Tadqiqot metodologiyasi. Nutq aktlari nazariyasi nuqtayi nazaridan undash direktiv nutq aktida ifodalanadi, chunki umumiy ma’noda direktiv nutq akti ma’ruzachining xohish-irodasi ifodasi sifatida belgilanadi. Undash nutq akti - bu direktiv nutq akti, so‘zlovchining xohishi, istagi, ixtiyori va niyatini bildirib, u orqali so‘zlovchi tinglovchini biror faoliyatni amalga oshirishga undaydi. Ushbu tushuncha keyinchalik J. R. Serl tomonidan rivojlantirilib, turli nutqiy aktlar turlari va ularning xususiyatlari aniqlangan. Nutqiy aktlar tilshunoslik va muloqot nazariyasida muhim tushuncha hisoblanadi. Ushbu atama tilning og‘zaki yoki yozma shakllarida bajariladigan harakatlarni anglatadi. Nutqiy aktlar turli kontekstlarda insonlar tildan qanday maqsadlar uchun foydalanishini tushunishda markaziy o‘rinni egallaydi. Nutqiy aktning quyidagi turlari mavjud.

1. Lokutiv akt. Nutqiy faoliyatda talaffuz qilingan so‘z va iboralarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’no ifodalashidir. Lokutiv aktda biror-bir voqea-hodisa haqida xabar beriladi. Masalan, “Tashqarida yomg‘ir yog‘moqda” degan gap lokutiv akt bo‘lib,

unda yomg‘ir yog‘ayotgani to‘g‘risidagi xabar ma’lum qilinadi.

2.Illokutiv akt tushunchasi pragmalingvistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida ta’riflanadi. Har qanday gapni ifoda etishdan ma’lum bir maqsad ko‘zlanadi.Bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud. Ushbu maqsadning voqealanishi esa illokutiv akt natijasidir. Illokutiv akt quyidagi kommunikativ maqsadlarni o‘z ichiga oladi: iltimos qilish,kechirim so‘rash, ogohlantirish, buyruq berish, va’da berish, minnatdorchilik bildirish, tanqid qilish va boshqalar. Masalan, …-Uning aybi yo‘q, aybi yo‘q! Amir Sohibqirondan tog‘angizning qonini so‘rab beringiz![10:355] jumlasida iltimos qilish illokutiv akti bor. Yoki “Abulmansur Sohibqiron Amir TemurKo‘ragon hazrati oliylari shikorga azmu qaror ayladilar va chorshanba kuni Qarosmonga yo‘l oladilar, barcha shikorga chiqsin!...”[10:350] gapini talaffuz etish vositasida shu voqea haqida xabar berish bilan birga buyruq berish kabi kommunikativ maqsad ifodalangan.

3. Perlokutiv akt tinglovchiga gapning ko‘rsatgan ta’sirini ifodalaydi. Nutqiy faoliyatning ta’sir etish bosqichi perlokutiv akt nomini olgan. Bu akt gap orqali hosil

bo‘lgan javob yoki reaksiyani anglatadi. Masalan, kimdir “Yong‘in bor!” desa va

tinglovchi binodan chiqib ketsa, bu perlokutiv akt hisoblanadi.[1]S.X.Azimovaning so‘zlariga ko‘ra, nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi [4:182]. J.Ostin nutq aktlarini lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarga ajratganligini Arso Setyaji [3:18] qayd etgan.

“Illokutiv akt” tushunchasini pragmalingistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida Sh.Safarov ta’riflab, O.G.Pochepsovning quyidagi fikrlarini qayd etadi: 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so‘zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi [12:83]. J.Syorl illokutiv aktlarning beshta asosiy turga ya’ni representativlar (yoki assertivlar), direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlarga ajratadi [7:1].

Tahlil va natijalar.Asardan keltirilgan quyidagimatnni tahlil qilsa:

Hali hanuz Amir Sohibqironning kechirimli ekanliklaridan hayratdamen. Joylari jannatdan bo‘lgur padari buzrukvorim Jahongir Mirzo janoblari bu haqda ko‘p qayg‘urar ekanlar. Qayg‘urg‘onlaricha borga o‘xshaydi. Ashaddiy dushmanligi ayon ersa, uning gunohini kechirish darkormi? Jazolansun, vassalom. Mashvaratlardan birida, gunohkorning gunohidan ko‘z yumishlik, uning jazosini bermaslik ham gunohdir, degan so‘zlarni, chog‘imda, Amir Sohibqironning o‘zlari aytg‘ondilar. Kalondimog‘lik bilan haqorat so‘zlarni bitg‘on, - ajabo, qog‘oz bu so‘zlarni qandoq ko‘tardi ekan? - jurmi hech qanday taftish talab etmay-durg‘on odamga bunchalar marhamat ko‘rgizmak... Asir tushg‘on Rum qaysarini izzat-ikrom ayla, oyoqlariga bog‘lang‘on zanjirdan xalos et, oq chodir tikib ber, O‘g‘li Muso Chalabiyni topdirib otasiga hamroh qilib qo‘y, yelkasiga (dushmanga!) zarbof to‘n yop... Yoqongni ushlaysen kishi. [9:419]

Mazkur parcha Amir Temurning kechirimlilik, adolat va davlat boshqaruvidagi qarorlarida nutqiy aktlarning qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Nutqiy akt nazariyasi (J.L. Austin, J.R. Searle) nuqtai nazaridan qaraganda, bu matnda bir necha xil aktlar mavjud:

1. Lokutiv akt – gapning tashqi shakli, ya’ni voqea-hodisalarni til orqali tasvirlash: “Ashaddiy dushmanligi ayon ersa, uning gunohini kechirish darkormi?”

“Asir tushg‘on Rum qaysarini izzat-ikrom ayla, oyoqlariga bog‘lang‘on zanjirdan xalos et”. Bu jumlalar bevosita voqeani va Amir Sohibqironning qarorini ifodalashga qaratilgan.

2. Illokutiv akt – gap ortidagi niyat, maqsad:

Nasihat va tanqid: “Gunohkorning gunohidan ko‘z yumishlik ham gunohdir.”

Buyruq va ko‘rsatma: “Oq chodir tikib ber, O‘g‘li Muso Chalabiyni topdirib otasiga hamroh qilib qo‘y“. Bu nutqiy aktlar Sohibqironning hokim sifatidagi irodasini, u orqali esa davlat siyosatini ifoda etadi.

3. Perlokutiv akt – tinglovchida hosil qilinadigan ta’sir: Amirning kechirimlilik qarori jamiyatda hayrat, taajjub, hatto norozilik uyg‘otadi: “Kalondimog‘lik bilan haqorat so‘zlarni bitg‘on qog‘oz bu so‘zlarni qandoq ko‘tardi ekan?”Bu jumlalar tinglovchi (Muhammad Sulton)da hissiy reaksiya tug‘diradi

va tarixiy shaxs obrazining yanada jonlanishiga xizmat qiladi.

Tarixiy so‘zlar va ularning lingvokulturologik qiymati “Amir Sohibqiron”, “Rum qaysari”, “Muso Chalabiy” – tarixiy shaxs va unvonlar. Ular o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy kontekstini aks ettiradi. “Zarbof to‘n”, “oq chodir” – moddiy madaniyat elementlari bo‘lib, saltanat saroy marosimlari va mehmondo‘stlik an’analarini ifodalaydi. “Gunoh”, “jazolansun”, “marhamat ko‘rgizmak” – diniy-axloqiy konseptlarni yorituvchi tushunchalar. Bu birliklarning qo‘llanilishi matnni nafaqat tarixiy, balki lingvokulturologik ahamiyatga ega hujjatli manba darajasiga ko‘taradi.

Parcha tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Buyuk Saltanat” asarida nutqiy aktlar orqali tarixiy shaxslarning davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar va axloqiy qadriyatlari ifodalanadi. Lokutiv aktlar voqeani hikoya qilsa, illokutiv aktlar Sohibqironning hokim sifatidagi buyruqlari va qarorlarini ochib beradi, perlokutiv aktlar esa jamiyatdagi ta’sirni – hayrat, e’tiroz yoki itoatni namoyon qiladi. Tarixiy so‘zlar esa tilning milliy-madaniy merosini jonli ifoda etib, o‘zbek xalqining tarixiy tafakkurini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak,Muhammad Alining “Buyuk Saltanat” asari o‘zbek tarixiy nasrida alohida o‘rin tutib, unda Amir Temur va uning davriga oid siyosiy, ma’naviy hamda madaniy qadriyatlar badiiy talqinda aks etadi. Asarda qahramonlarning nutqi orqali tarixiy voqealar tasvirlanishi bilan birga, ijtimoiy-ma’naviy muhit ham ifodalanadi.

Nutqiy akt nazariyasi asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, asarda lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarning turli ko‘rinishlari keng qo‘llangan. Xususan, buyruq, nasihat, duo, tanbeh va qarg‘ish kabi illokutiv aktlar Sohibqiron va boshqa tarixiy shaxslarning nutqiy xususiyatlarini yoritadi. Shu orqali ularning shaxsiyati, dunyoqarashi va davlat boshqaruvi tamoyillari o‘z aksini topadi. Asarda qo‘llangan tarixiy leksik birliklar (“Amir Sohibqiron”, “Rum qaysari”, “oq chodir”, “zarbof to‘n” va boshqalar) xalqning tarixiy xotirasini tiklash, moddiy va ma’naviy madaniyatini ko‘rsatishda muhim til vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, “Buyuk Saltanat” asari o‘zbek badiiy matnida nutqiy aktlarning namoyon bo‘lishi, tarixiy leksikaning lingvokulturologik qiymati va milliy-ma’naviy merosni ilmiy tahlil etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abduraximova D.Nutqiy akt turlari. “Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali volume 3, issue 01, 2025. yanuary ResearchBib Impact Factor:

2.1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.

3. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies. – 2014. Vol. 03 – №. 01. – P.18.

4. Azimova S.X. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik hususiyatlari. 2th

International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global

Thoughts. – Germany, 2021. – B.182.

5.4. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка.-М.: Прогресс, 1993.- С.34

6.Epistemologiya ensiklopediyasi va falsafa ilmi 2009: 830

7.J.Syorl tasnifi nutqiy harakatlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirib,

tizimlashtirgan holda o‘rganish va tahlil qilish imkonini beradi. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society. –1976. – Vol. 5 – №. 1.– P.1-12.

8.Гак В.Г. Языковые преобразования.М.: Школа «Языки русской литературы»,1998.- С. 628-630.

9.Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. –Toshkent, 2024. 4-kitob.

10.Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. –Toshkent, 2024. 1-kitob.

11.Остин Дж. Слово как действие /Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике.-М.: Прогресс, 1986.- Вып. 17.- С.131.

12.Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.83-91.

JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PARANTEZ BIRLIKLARINING O‘RGANILISHI

Qodirova Mohinur Saydullo qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada parantez birliklarning tilshunoslikda o‘rganilishi, ularning jahon tilshunosligida kelib chiqishi, olimlaring parantez birliklar bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlari haqida ma’lumotlar bor.
Kalit so‘zlar: M.A.Hallidey, D.Biber, I.Toshaliyev, A.Sayfullayev, parantez birliklar, sintaksis.

Аннотация: В этой статье есть информация об исследовательской работе в лингвистике единиц паранизонизма, их происхождении мировой лингвистики, ученых в парониках.
Ключевые слова: М.А.Халлидей, Д.Бибер, И.Тошалиев, А.Сайфуллаев, парантеза, синтаксис.

Annotation: In this article, there is information about research work in the linguistics of units of paranyzonism, their origin of the world linguistics, scientists in paronices.
Keywords: M.A.Hallidey, D.Biber, I.Toshaliyev, A.Sayfullayev, paranteza, syntax.

Jahon tilshunosligida til haqidagi fanning qiyosiy aspektida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida dunyo tillariga xos umumiy va xususiy lingvistik qonuniyatlarni o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Xususan, nutqiy muloqotning semantik-sintaktik va pragmatik mexanizmlarini o‘rganuvchi kommunikativ sintaksis muammolari orasida parantezalarning o‘ziga xos o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarur. Tilshunoslikda til hodisalarini antropotsentrik paradigmaning lingvopoetik, lingvostilistik, lingvokulturologik tarmoqlari kesimida kirish konstruksiyali gaplar maqomini aniqlash ularning badiiy matnda qo‘llanishi bilan bog‘liq umumiy nazariy asoslarini amaliy jihatdan dalillash imkonini beradi.

Jahon tilshunosligida parantezalarni o‘z ichiga olgan sintaktik birliklar bilan muayyan darajada aloqador bir qator tushuncha va terminlar shakllangan hamda bu yo‘nalishda izchil tadqiqotlar olib borilgan juda ham ko‘plab tadqiqotchi olimlarni misol keltirishimiz mumkin, xususan, ingliz tilshunosligida G.Lich, J.Svartvik, G.N.Akimova, D.Kristal, M.A.Hallidey, D.Biber, S.Johansson, S.Conrad, C.Potts, M.Charles, N.Dehe, Y.Kavalova, D.Gruyter, J.Griffiths, R.Hartman, F.C.Stork, N.J.Hamzah L.S.Barxudarov, B.A.Ilish, N.Khaimovich, E.I.Rogovskaya, N.Kobrina, L.V.Korneyeva, R.Quirk, S.Greenbaum kabi tilshunos olimlar, rus tilshunosligida esa I.B.Golub, M.A.Telenkova, L.A.Bogorodiskiy, A.G.Rudnev, A.I.Studneva, D.E.Rozental, N.S.Valgina, M.I.Fominalarning ilmiy tadqiqot ishlari ko‘plab muammolarning o‘rganilishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Paranteza muammosini o‘rganish bo‘yicha keying yillarda juda ham ko‘plab dolzarb ishlar qilindi.

Asosan, parantezalar muammosini o‘rganish bo‘yicha rus tilshunosligida XIX asrning birinchi yarmidan ilmiy ishlar olib borila boshladi. Shu davr tilshunoslari bu hodisani “kirishlar” nomi ostida kiritmalardan farqlamagan holda o‘rganishdi va tinish belgilarini qo‘llash qoidalari asosida o‘rganilib ketila boshladi. Keyinchalik, o‘zbek tilshunosligida parantezalar haqidagi ilk qarashlar o‘tgan asrning boshlarida A.Zohiriy, Q.Ramazon A.Fitrat, H.G‘oziyev kabi olimlarning asarlarida uchratishimiz mumkin. Parantezalarning turli xil sintaktik kategoriyalar ekanligi turkiyshunoslikda ilk bor A.G‘ulomov tomonidan asoslab o‘tilgan.

Hozirgi kunda ham O‘zbek tilshunosligida ham bu soha ilmiy jihatdan keng ko‘lamda o‘rganilib kelmoqda, A.G‘ulomov, M.Asqarova, I.Toshaliyev, A.Sayfullayev, R.Sayfullayeva, H.Ne’matov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, O.Bozorov, D.Jamoliddinova, M.G‘.Xoshimov, G.M.Ibragimova kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlarida buning yaqqol isbotini ko‘rishimiz

mumkin. O‘zbek tilida yaratilgan kirish va kiritma konstruksiyalari haqida keng yoritilib ketilgan ilmiy ishlardan biri Irisali Toshaliyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar” nomzodlik dissertatsiyasida keng asoslanganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan keyin ham parantez birliklar bo‘yicha ko‘plab dissertatsiyalar yozildi. Bunga misol qilib D.Jamolitdinovaning “Badiiy nutqda parantez birliklarningsemantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” nomli nomzodlik ishidir. D.M.Jamoliddinova ta’kidlashicha, Parantezalar, ya’ni gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bevosita bog‘lanmagan birliklarning jumla yoki matn tuzilishidagi o‘rniga va ahamiyatiga tilshunoslik fanining boshlang‘ich davrlarida yetarli darajada e’tibor qaratilmaganligi aytib o‘tilgan. Bu esa hozirga qadar ko‘plab sintaktik nazariyalarda turlicha fikrlar va talqinlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bu birliklar doirasida “paranteza” termini nisbatan keyinroq paydo bo‘lgan. Kirish hodisasi tilshunoslikda juda keng tushuncha sifatida o‘rganilgan va kiritma konstruksiyalarga ham “kirish” kategoriyasi doirasida baho berilgan degan fikrlarini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilshunosligining keyingi davrlarida kirish birliklar sifatida talqin etilgan hodisa tarkibida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan yana boshqa hodisa, ya’ni kiritmalar ham borligi atrofidagi bahs-munozaralar o‘zining tegishli yechimini topdi. Nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki, umuman, turkiyshunoslikda birinchi bo‘lib professor A.G‘ulomov kirishlar tarkibidan kiritmalarni ajratib, kiritma so‘z va kiritma gapning alohida sintaktik kategoriya ekanligini asoslab berdi. Ushbu ta’rifni yani kirish va kiritmalar alohida alohida konstruksiya ekanligini biz A.G‘ulomovning “Hozirgi zamon o‘zbek tili” darsligida “Kiritma gaplar va kiritma so‘zlar” mavzusini bayon qilgan.

Kiritma konstruksiyalar haqidagi qarashlar o‘zbek tilshunosligida ilk bor I.Toshaliyev tomonidan jiddiy tadqiq etilgan. I.Toshaliyev o‘z ishida quyidagi masalalarni yoritishga asosiy e’tiborini qaratgan:

1) kiritma konstruksiyalarning alohida sintaktik kategoriya ekanligini aniqlash – umumiy xarakteristikasini berish;

2) kiritma konstruksiyalarning asosiy gap, uning bo‘laklari hamda qismlariga nisbatan sintaktik-semantik munosabatini belgilash;

3) kiritma konstruksiyalarning tuzilishi hamda qo‘llanishiga ko‘ra asosiy struktural tiplari hamda funksional-semantik turlarini aniqlash;

4) kiritma konstruksiyalarning o‘rinlashish tartibi va punktuatsiyasi masalasini yoritish;

5) kiritma konstruksiyalar kategoriyasini yondosh sintaktik hodisalardan – kirishlar, ajratilgan bo‘laklar hamda ilovalardan chegaralash, ularning umumiy va shu bilan birga farqli jihatlarini ko‘rsatish.

Olim o‘z ishida ushbu masalalarga jiddiy yondashib kirish va kiritma konstruksiyalari haqida yetarlicha ma’lumotlarni o‘z nomzodlik ishida yoritib bergan.

Rus tilshunosligida parantez birliklar 19-asrning birinchi yarimidan o‘rganila boshlagan. Rus olimlari ham o‘z qarashlarini atroflicha yoritib bergan masalan, A.N.Gvozdev fikriga ko‘ra, so‘zlovchi tayyorgarliksiz og‘zaki nutqda biror fikrni ifodalayotganda, boshqa muayyan axborotni ham yetkazish zaruratini his qilishi natijasida “nutq oqimi”ni to‘xtatib, unga bog‘liq ma’lumotni gap tarkibiga kiritishi sababli kiritmalar shakllanishini ta’kidlab o‘tgan. I.B.Golub kirish gaplarning ishlatilish doirasi og‘zaki nutq ekanligini, shu sababli kirishlar og‘zaki nutqda ohang jihatidan boyib, alohida ifodalilikka ega bo‘lishini e’tirof etgan holda, badiiy nutqda kiritmalar qo‘shimcha, yo‘l-yo‘lakay izohlar sifatida keltirilishini ta’kidlab o‘tadi

Xususan, rus tilshunosligida XX asrning 40-yillaridan e’tiboran kiritma tuzilmalar bilan bog‘liq bahslar asta-sekin o‘z yechimini topa boshladi. Kirish hodisasidan kiritmalarni ajratishga intilish va ularni alohida sintaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqishga qiziqish kuchaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlar bo‘yicha bildirilgan ilmiy fikrlar kiritmalarni kirishlardan farqlovchi ko‘plab jihatlar mavjudligini tasdiqladi. Xususan, kiritma konstruksiyalarini maxsus kategoriya sifatida ajratish zarurligi

haqidagi qat’iy fikrni birinchi bo‘lib professor A.B.Shapiro, S.I.Abakumovning “Punktuatsiya metodikasi” dissertatsiya ishiga yozgan taqrizida ilgari surdi. Professor kiritmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha deb aytgan “Gapning asosiy to‘qimasiga kiritishga mo‘ljallanmagan qo‘shimcha izoh sifatida maxsus vazifaga ega so‘zlar, so‘zlar guruhi, gap yoki gaplar guruhi keladi”. Olim, grammatik jihatdan shakllangan gap tarkibiga nutq jarayoni davomida yuzaga kelgan ehtiyoj tufayli asosiy fikrga qo‘shimcha kiritish yoki izoh berish maqsadida to‘satdan qo‘shilganligi va gap boshida kelmasligi kiritmalarni kirishlardan ajratib turuvchi asosiy omil ekanligini alohida ta’kidlaydi. Bundan kelib chiqib biz shuni aytishimiz mumkinki, kirish va kiritmalar alohida konstruksiya ekanligini va ular gap tarkibida boshqa boshqa ma’nolarda kelishini, kiritma konstruksiyasi kirishga qaraganda kengroq o‘rganiladi degan xulosaga kelamiz.

Kirish va kiritmalarni alohida alohida o‘rganish asosan 40-yillardan keyin shakllana boshladi. Fan taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida (xususan, M.V.Lomonosov, N.I.Grech, A.X.Vostokov) kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin. Kirish va kiritmalar haqida juda ham ko‘plab ishlarni ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi mulohazalarda kirish so‘zlar soda gaplar ichida, kiritmalar esa qo‘shma gaplar ichida o‘rganilgan. Kirish va kiritmalarni aksar tilshunoslar paranteza yoki parenteza atamasi ostida birlashtirdi. Nemis grammatikalarida paranteza termini ostida kirish va kiritmalarni tushunishgan. Nemis tili grammatikasining yirik tadqiqotchisi V.G.Admoni shunday yozadi: “Kiritma konstruktsiya (parenteza) deganda odatda biron-bir formal-grammatik aloqalarsiz boshqa biror gap (kirituvchi, o‘z ichiga oluvchi) tarkibiga ajratilgan holda kiritilgan gap tushuniladi. Bu fikrdan anglashilib turganiday, olim “parenteza” termini ostida muayyan formal-grammatik aloqa ko‘rsatkichlarisiz gap tarkibiga kiritilgan birlikni, xususan, ham kirishlarni, ham kiritmalarni nazarda tutgan [1].

O‘zbek tilshunosligida ham kirish va kiritmalar uchun umumlashtiruvchi muayyan bir termin yo‘q. Aslida, umumiy termin sifatida “kiritma” so‘zidan foydalanish mumkin, u gapning pozitsion-struktural tarkibi ichiga boshqa birlikni kiritishdan iborat hodisani ifodalay oladi. Ammo bu so‘z tilshunosligimizda kirishlarga zid qo‘yiladigan sintaktik hodisani ifodalash uchun xoslanib, ilmiy an’anaga kirib bo‘lgan. Shu fikrlarni hisobga olgan holda, o‘zbek tilida kirish va kiritmalarni umumlashtirib ifodalovchi termin sifatida “paranteza”, “parantez birliklar” terminlarini qo‘llaymiz[2]. Parantez birliklar yaqinda paydo bo‘lgan hodisa emas, lekin kirish va kiritma hodisalarini o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib o‘rgangan o‘zbek tilshunosi Irisali Toshaliyev o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida tadqiq etganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bugungi o‘zbek adabiy tilida parantez birliklar juda faol qo‘llanadigan va axborotning yanada to‘liq, estetik ta’sirli tarzda ifodalanishiga ko‘mak beradigan o‘ziga xos murakkab sintaktik hodisalardan biri sifatida ham semantik-grammatik, ham lingvopoetik jihatdan o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb nazariy muammolardan biridir deb aytishimiz mumkin.

XX asrning boshlaridan to 70-yillarga qadar o‘tgan vaqt oralig’ida kiritma gaplarni kirish so‘zlar tarkibida o‘rganish, kirish gaplarni esa kiritmalar tarzida talqin etish keng tarqalganligini ko‘plab tadqiqotlarda ko‘rishimiz mumkin. Lekin 1976 -yilda nashr etilgan “O‘zbek tili grammatikasi” (II tom. Sintaksis) asarida esa yana bir farqli yondashuv kuzatiladi, ya’ni kiritmalar mavzusi ostida kirishlar talqin etilgan. Shu jumladan, kiritmalarga berilgan ta’rif quyidagicha: “Kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki butun ifodaga bo‘lgan so‘zlovchining sub’ektiv munosabatini, emotsional tuyg’ularini ifodalaydi. Kiritmalar gapning umumiy mazmuniga yoki uning ayrim bo‘laklari bilan izohlash munosabatiga kiradi. Kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki umumiy mazmuniga bo‘lgan izoh yoki turli emotsional munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda kirish va kiritmalar haqidagi muammolar anchayin o‘z yechimini topdi deya olamiz [3].

Kiritmalarning quyidagi vazifalarini talqin qilamiz:

-ma’lum bir so‘z turkumlaridan ajralib chiqib faqatgina kirish so‘z vazifasida ishlatiladigan

so‘zlar : masalan, ya’ni, madomiki, essiz kabi

-ma’lum bir so‘z turkumlaridan ajralmagan holda ham kirish so‘z ham gap bo‘lagi vazifasida keladigan so‘zlar: aftidan, so‘zsiz, shubhasiz, odatda, qisqasiz, shunday kabi.

Hozirgi kunda ham ayrim ilmiy-ommabop nashrlarda kiritma gaplarning kirish gaplar sifatida qaralganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol qilib: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”da quyidagicha fikr bayon qilinganligini ko‘rishimiz mumkin: “Kirish gap – asosiy gapda qo‘shimcha fikr bildiruvchi gap. Nutq paytida tug’ilgan ehtiyoj, zaruriyat natijasida kiritiladi. Kiritma gap og’zaki nutqda asosiy gapdan pauza bilan, yozma nutqda qavs yoki tire bilan ajratiladi:

“Bu tanish ko‘cha (bu ko‘cha yoshligim o‘tgan yillarni esga soladi) men har doim shu ko‘cha orqali qarindoshimnikiga yo‘l olaman” - ushbu gapda berilgan ta’rif va uni dalillovchi misollar kirishlarga emas, balki kiritmalarga tegishlidir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, parantezalar turli tilshunosliklarda muntazam va juda keng o‘rganib kelingan va hozirgi kunda ham o‘rganilmoqda. Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida parantezalar muammosi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari juda kam bo‘lib bundan tashqari ushbu mavzuda yaratilgan tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinovna “Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari”- Toshkent-2009.

2. Irisali Toshaliyev “ O‘zbek adabiy tilida kiritma konstruktsiyalar”-Toshkent-1976.

3. Ernazarova Hilola Ergashevna “Ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridagi parantezalarning lingvokultrologik-lingvopoetik tadqiqi”-Farg‘ona-2024.

O‘ZBEK ADABIY TILIDA SHART MA’NOSINI BILDIRUVCHI SO‘Z VA QO‘SHIMCHALAR MA’NODOSHLIGI

Safarov Firuz Sulaymonovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy tilidagi shart ma’nosini bildieuvchi vositalar ma’nodoshligi tahlil qilinadi. Shart ma’nosining nutq (gap, matn)da bitta, ikkita, uchta vosita bilan ifodalanishi bayon qilinadi. Shart ma’nosini bildiruvchi shakllarning qulay kontekstda shart, hozirgi, o‘tgan, kelasi zamon semalarini ifodalashi, oydinlashtiruvchi kontekstda mazkur semalarning aniqlashtirilishi yoki kuchaytirilishi, noqulay kontekstda mazkur shakllar paradigmatik xususiyatining o‘zgarishi ochib beriladi. Shuningdek shart semasini bildiruvchi yordamchi so‘z (agar)ning tejab tejalmay qo‘llanishiga ham e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: shart ma’nosi, yordamchiso‘z va qo‘shimcha ma’nodoshligi, ma’nodosh vositalarning denotativ xususiyati, ma’nodosh vositalarning konnotativ xususiyati, shart ma’nosini bildiruvchi vositalar paradigmatik xususiyatining o‘zgarishi.

O‘zbek adabiy tilida shart semasi shart-istak maylining -sa,-gan bo‘lsa, -ayotgan bo‘lsa, -adigan bo‘lsa shakllari, -gandaqo‘shimchasi bilan ifodalanib agar, mabodo, bordi-yu, basharti, magar yordamchi so‘zlari vositasida ta’kidlanadi.

-sa shaklife’lning o‘zak yoki negizi va -sa qo‘shimchasidan tuzilgan. Uning mazmuni boshqacha aytganda paradigmatik xususiyati shart,hozirgi va kelasi zamon semalaridan iborat. Avvalo shuki -sa qo‘shimchasi shart semasini qulay kontekstda ifodalaydi. Prof. A. G‘ulomov yozganidek urg‘u -sa qo‘shimchasidan oldingi bo‘g‘inga tushganda shart ma’nosi namoyon bo‘ladi [1, 422]. Demak -sa mazkur semaga betaraf bo‘lib uning belgilanganlik darajasi +/– bo‘ladi. Ayni paytda shart semasi mazmunan tugallanmaganlikni bildirganidan kontekst ikki qismli bo‘ladi. Birinchi qismda shart semasi urg‘u yordamida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi qismda u anglatgan ish-harakat (shart) natijasini ifodalovchi vosita qo‘llanadi. Binobarin kontekst kamida ikkita fe’ldan tarkib topadi. Shu bois tahlilni ikki uzvli kontekstdan boshlash kerak bo‘ladi. Bunday gap qulay kontekst bo‘lib uning qismlarini bog‘lash vazifasini ham -saqo‘shimchasi bajaradi. Bog‘lash vazifasi sintaktik xususiyat deb qaralganidan mazkur shaklning sintaktik xususiyatini munosabat deb nomlasa bo‘ladi. Kontekst noqulay bo‘lib shart semasi chekinganda ham sintaktik xususiyat namoyon bo‘laveradi. Shuni inobatga olib uning belgilanganlik darajasini + ishorasi bilan belgilaymiz. Bundan tashqari -sa shaklida shart semasi bilan birga hozirgi va kelasi zamon semalariga ham betaraf munosabat mavjud. Shunga ko‘ra ushbu semalar ham qulay vosita yordamida namoyon bo‘ladi. Qulaylik fe’lning o‘zak yoki negizidan anglashilmasa zamon semasi boshqa vosita yordamida voqelanadi. Bunday holda kontekst hajman kengayib uch va undan ortiq so‘zdan tarkib topadi. Quyida ana shularni inobatga olib -sa shaklini avval qulay, so‘ngra oydinlashtiruvchi, undan keyin noqulay kontekstda tahlil qilamiz.-sa shaklining shart semasi xususiyatiga ko‘ra qulay kontekst, hajmiga ko‘ra mikrokontekst (ergashgan qo‘shma gap)da namoyon bo‘ladi. Shart semasining ifodalanishiga urg‘udan tashqari bosh gapning mazmuni ham qulaylik tug‘diradi. Shart semasi uchun qulay eng kichik mikrokontekst yuqorida aytilganidek ikkita fe’ldan iborat bo‘ladi: Yugursa yetadi. (S. Ahmad, Ufq, 369) Bu misolda -sa shaklining shart ma’nosini ifodalashiga urg‘u va bosh gapning mazmuni ya’ni mazkur shart bilan bog‘liq natija ma’nosi qulaylik tug‘dirgan. Gapda shart semasi bilan birga kelasi zamon semasi namoyon bo‘lgan. Bu semaning ifodalanishiga fe’l o‘zagi (yugur)ning lug‘aviy ma’nosi ya’ni bu fe’lning intiholi ekanligi qulaylik tug‘dirgan. -sa shakli III shaxsda bo‘lganidan shaxs, son va hurmat kategoriyalari ko‘rsatkichi vazifasini ham bajargan. Binobarin -sa qo‘shimchasida hurmatga betaraf munosabat saqlanib qolgan. Keltirilgan misol -sa qo‘shimchasining sintaktik xususiyati (munosabat) uchun betaraf kontekst bo‘lganidan bu xususiyat moneliksiz namoyon bo‘lgan ya’ni

-sa mirokontekstning birinchi qismini ikkinchi qismga bog‘lashga xizmat qilgan. Boshqacha aytganda -sa bog‘lovchi vazifasini bajargan. Yozuvchi -sa qo‘shimchasining bog‘lovchi ekanligini inobatga olib vergulni tejagan. Mikrokontekstning birinchi qismida shart ma’nosini ta’kidlash nazarda tutilmaganidan agar so‘zi, subyektni ta’kidlash ko‘zda tutilmaganidan ega vazifasidagi ot yoki olmosh tejalgan. Ikkinchi qismida esa subyektni bildiruvchi so‘z va to‘ldiruvchi tejalgan.

-sa shakli shart semasini ifodalaganda oydinlashtiruvchi kontekstda qo‘llanishi ham mumkin. Bunday kontekstda shart semasi kuchaytiriladi, ta’kidlanadi. Bu maqsadda gapda -sa bilan birga shart semasini kuchaytiruvchi agar, mabodo, basharti, bordi-yu, magaryordamchi so‘zlari qo‘llanadi. Bu so‘zlar o‘zaro ma’nodosh bo‘lib ma’nodoshlik qatorida agar bosh so‘z chunki boshqalariga nisbatan ko‘p qo‘llanadi. Mazkur yordamchi so‘zlar bir-biridan uslubga munosabati, ma’noviy xususiyati bilan farqlanadi. “Agar, mabodo so‘zlarining qo‘llanishi nutq uslublariga ko‘ra cheklanmagan, og‘zaki nutqda ham qo‘llanaveradi. Bordi-yu so‘zi ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xoslangan. Ayni paytda, mabodo, bordi-yu so‘zlari shart mazmunidagi harakat-holatning ehtimoldan uzoqroq ekanligini ta’kidlaydi, ko‘proq kitobiy nutqqa xoslangan. Magar so‘zi eskirgan, kitobiylik bo‘yog‘iga ega” [2, 30].Ayni paytda mazkur yordamchi so‘zlar -sa qo‘shimchasiga ma’nodosh. Ularning -sa dan farqi quyidagicha. Birinchidan -sa shart semasiga betaraf bo‘lib bu semani qulay kontekstda ifodalasa yordamchi so‘zlarda bu sema belgilangan. Ikkinchidan -sa shart semasini ifodalovchi asosiy vosita bo‘lib bu semani ta’kidlash zarur bo‘lmaganda qo‘llanadi, yordamchi so‘zlar shartni ifodalovchi ikkinchi darajali vosita bo‘lib mazkur semani ta’kidlash zarur bo‘lganda ishlatiladi ya’ni konnotatsiya ifodalashga xizmat qiladi. Shart semasining ta’kidlanishi mikrokontekstda amalga oshsa-da ta’kidning sababini bilish uchun makrokontekstga murojaat qilish zarur bo‘ladi. Shuning uchun shart semasi uchun oydinlashtiruvchi kontekst tahlilida makrokontekst ham tahlilga tortiladi.

-sa shaklining shart semasi uchun oydinlashtiruvchi kontekst ikkala qismda fe’l kesim qo‘llansa kamida uch so‘zdan, birinchi qismda ismiy kesim qo‘llangan bo‘lsa to‘rt so‘zdan iborat bo‘ladi. Quyidagi misolning birinchi qismida ismiy kesim qo‘llangan bo‘lib birinchi qism uch so‘zdan, ikkinchi qism bir so‘zdan iborat: Agar xafagarchilikdan bo‘lsa, bormayman... (O‘. Usmonov, Girdob, 268) Kontekstning birinchi qismida -sa qulay vosita yordamida shart semasini ifodalagan. Qulay vosita vazifasini urg‘u va ikkinchi qismning mazmuni bajargan. Shart semasi bilan birga hozirgi zamonsemasi namoyon bo‘lgan. Mazkur semaning namoyon bo‘lishiga ismiy kesimning asosi bo‘lgan so‘z (xafagarchilik)ning lug‘aviy ma’nosi qulaylik tug‘dirgan. Kontekst -sa ning sintaktik xususiyati uchun betaraf bo‘lganidan u bog‘lovchi vazifasini ham bajargan. Agarso‘zi shart semasini kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu so‘z tushirib qoldirilsa ham shart semasi ifodalanadi-yu kuchaytirilmaydi. Shart semasining kuchaytirib ifodalanishi sababini bilish uchun makrokontekstga murojaat qilish lozim bo‘ladi. Oldingi gaplardan so‘zlovchining paxtachilik instituti xodimi Shorasul, tinglovchining uning hamkasbi Aziz ekanligi ma’lum bo‘ladi. Azizning institutdagi ishida ham oilaviy hayotida ham ko‘ngilsizlik ishlar sodir bo‘ladi. U dilxiralikdan qutulish uchun ichmoqchi bo‘ladi va Shorasulga bir otamlashsakchi, a deydi. Shorasul Azizning ishdagi vaziyatidan ham oilaviy muammosidan ham xabardor. Shuning uchun u Azizning ichib olib janjal chiqarishidan qo‘rqib unga: Xursandlikdanmi yoki xafalikdanmi? Agar xafagarchilikdan bo‘lsa, bormayman... deb javob qiladi. Keltirilgan mikrokontekstda shart semasini kuchaytirish uchun agar so‘zining qo‘llanishi sababi shunda.

-sa shaklining shart semasi uchun oydinlashtiruvchi kontekstda mazkur semani ta’kidlash uchun -sa qo‘shimchasi bilan birga mabodo, bordi-yu, basharti, magar so‘zlari ham qo‘llanishi mumkin. Quyidagi mikrokontekstning birinchi qismi ikkita so‘zdan, ikkinchi qismi bir so‘zdan iborat bo‘lib birinchi qismda mabodo so‘zi qo‘llangan: Mabodo kelsa, aytarsiz. (O‘. Usmonov, Girdob, 254) Bu misol -sa shaklining shart semasi uchun ham qulay ham oydinlashtiruvchi kontekst bo‘lib mazkur semaning namoyon bo‘lishiga urg‘u va ikkinchi qismning mazmuni

qulaylik tug‘dirgan. Mabodo yordamchi so‘zi shart semasinita’kidlashga xizmat qilgan.

Nutqiy maqsad talabi bilan -sa shaklining shart semasi uchun oydinlashtiruvchi kontekstda mazkur semani kuchaytirish uchun ikkita yordamchi so‘z qo‘llanishi mumkin: Mabodo, bordi-yu, tillari ham, urf-odatlari ham boshqacha-boshqacha bo‘lsa, u holda dasturxonda odamning jonidan boshqa narsani topishga umidvor bo‘lsangiz bo‘laveradi. (Shoyim Bo‘tayev, Qo‘rg‘onlangan oy, 162) Bu misol ham -sa shaklining shart semasi uchun ham qulay, ham oydinlashtiruvchi kontekst bo‘lib ikki qismdan iborat. Mazkur semaning namoyon bo‘lishiga urg‘u hamda ikkinchi qismning mazmuni (shart bilan bog‘liq natija) qulaylik tug‘dirgan. -sa qo‘shimchasi shart bilan birga hozirgi zamon aniqrog‘i umumzamon semasini ifodalagan. Bu semaning ifodalanishiga kontekstning umumiy mazmuni qulaylik tug‘dirgan. Mabodo, bordi-yu yordamchi so‘zlari shart semasini kuchaytirib ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur semaning ikkita so‘z vositasida kuchaytirilishi sababini bilish uchun makrokontekstga murojaat qilish zarur bo‘ladi. Oldingi gaplardan mazkur misolda shart semasining ikkita yordamchi so‘z bilan kuchaytirilishining sababi o‘rtaqaynarlik odamlarning o‘ziga o‘xshamagan, ayniqsa tili, urf-odati boshqacha bo‘lgan mehmonga alohida izzat ko‘rsatishida ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shuni ham aytish kerakki keltirilgan misoldan oldingi gapda ham -sashakli shart semasini ifodalagan. Ammo bu semani ta’kidlash nazarda tutilmaganidan yordamchi so‘z qo‘llanmagan.

Xulosa. O‘zbek adabiy tilida shart semasi shart-istak maylining -sa,-gan bo‘lsa, -ayotgan bo‘lsa, -adigan bo‘lsa shakllari, -gandaqo‘shimchasi va agar, mabodo, bordi-yu, basharti, magar yordamchi so‘zlari vositasida ifodalanibbu so‘z va qo‘shimchalar orasida ma’nodoshlik mavjud. -sa shaklining shart semasi xususiyatiga ko‘ra qulay kontekst, hajmiga ko‘ra mikrokontekst (ergashgan qo‘shma gap)da namoyon bo‘ladi. -sa shakli shart semasini ifodalaganda oydinlashtiruvchi kontekstda qo‘llanishi ham mumkin. Bunday kontekstda shart semasi kuchaytiriladi, ta’kidlanadi. Bu maqsadda gapda -sa bilan birga shart semasini kuchaytiruvchi agar, mabodo, basharti, bordi-yu, magaryordamchi so‘zlari qo‘llanadi. Mazkur yordamchi so‘zlar -sa qo‘shimchasiga ma’nodosh. Farq shundaki -sa shakli shart semasini ifodalovchi asosiy vosita bo‘lib bu semani ta’kidlash zarur bo‘lmaganda qo‘llanadi, yordamchi so‘zlar shartni ifodalovchi ikkinchi darajali vosita bo‘lib mazkur semani ta’kidlash zarur bo‘lganda ishlatiladi ya’ni konnotatsiya ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1957. – 527 б.

2. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. Birinchi jild. – Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2022. – 504 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ONG VA TAFAKKUR RIVOJIDA FOLKLORNING AHAMIYATI

Safarova Nigora Oxunjonovna
filologiya fanlari nomzodi, professorBuxoro davlat pedagogika instituti
Orcid: https://orcid.org/0009-0008-4125-4310

O’ktamova Sabina Azizjon qizi
2-kurs magistranti Buxoro davlat pedagogika instituti
Orcid: https://orcid.org/0009-0001-2984-0148

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor asarlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur va ong rivojiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida o‘rganish masalasi yoritilgan. Xususan, ertaklar, topishmoqlar, maqollar, dostonlar kabi xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari va o’zbek xalq milliy o’yinlariorqali bolalarda mantiqiy fikrlash, tasavvur, xotira va estetik didni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada folklorning nafaqat madaniy meros sifatida, balki tarbiyaviy, aqliy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi vosita sifatidagi o‘rni,milliy o’yinlarning o’quvchilar tafakkurini serqirra rivojlantirishdagi o’rniilmiy asosda ko‘rsatilgan. Muallif tomonidan boshlang‘ich ta’limda folklordan foydalanishning zamonaviy metodik yondashuvlari, dars jarayonida uni integratsiyalash usul va tartiblari ham keltirilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida bolalarda dunyoqarashni kengaytirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, mulohaza yuritish malakalarini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodining tutgan o‘rni alohida ta’kidlangan. Maqola xulosasiga ko’ra xalq og’zaki ijodi va milliy o’yinlar maktab ta’limi mazmunini boyitadi,.Folklor asarlaridagi obrazlar, ramzlar va ma’naviy-axloqiy g‘oyalar bolalarda yaxshilik bilan yomonlikni ajrata olish, ezgulikni anglash, adolat, mehnat, do‘stlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarni chuqur his etishga yordam beradi. Ayniqsa, ertak va topishmoqlar orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi rivojlanadi, ularning og‘zaki va yozma nutqi boyiydi.

Kalit so’zlar:maqol,topishmoq,ertak,folklor,tez aytish,interaktiv,slayd.

ЗНАЧЕНИЕ ФОЛЬКЛОРА В РАЗВИТИИ СОЗНАНИЯ И МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Сафарова Нигора Охунжоновна
кандидат филологических наук, профессорБухарский государственный педагогический и нститут

Уктамова Сабина Азизжон кызы,
студентка 2 курса магистратуры Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье освещён вопрос изучения фольклорных произведений как важного фактора, влияющего на развитие мышления и сознания учащихся начальных классов. В частности, проанализированы возможности формирования у детей логического мышления, воображения, памяти и эстетического вкуса через такие образцы устного народного творчества, как сказки, загадки, пословицы, дастаны, а также узбекские народные игры. В статье научно обоснована роль фольклора не только как культурного наследия, но и как средства формирования воспитательных, интеллектуальных и социальных компетенций, а также значение национальных игр в многогранном развитии мышления учащихся. Автором приведены современные методические подходы к использованию фольклора в начальном образовании, а также методы и порядок его интеграции в учебный процесс. Также особо подчёркнута роль устного народного творчества в расширении

кругозора детей на основе национальных ценностей, направлении их к самостоятельному мышлению и развитии навыков рассуждения. Согласно заключению статьи, устное народное творчество и национальные игры обогащают содержание школьного образования. Образы, символы и духовно-нравственные идеи в фольклорных произведениях помогают детям различать добро и зло, осознавать добродетель, справедливость, труд, дружбу, патриотизм и глубоко их чувствовать. Особенно через сказки и загадки развивается творческое мышление и самостоятельность учащихся, обогащается их устная и письменная речь.

Ключевые слова: пословица, загадка, сказка, фольклор, скороговорка, интерактивный, слайд.

THE IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Safarova Nigora Okhunjonovna
candidate philology of ciences, professor Bukhara State pedagogicalinstitute

Uktamova Sabina Azizjon kyzy,
2nd year master’s student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation. This article highlights the study of folklore works as an important factor influencing the development of thinking and consciousness among primary school students. In particular, it analyzes the opportunities to develop children’s logical thinking, imagination, memory, and aesthetic sense through samples of oral folk creativity such as fairy tales, riddles, proverbs, epics, as well as Uzbek national games. The article scientifically substantiates the role of folklore not only as cultural heritage but also as a means of forming educational, intellectual, and social competencies, and highlights the role of national games in the comprehensive development of students’ thinking. The author presents modern methodological approaches to the use of folklore in primary education, including the methods and procedures for integrating it into the learning process. The article also emphasizes the important role of oral folk creativity in broadening children’s worldview based on national values, guiding them toward independent thinking, and developing reasoning skills. According to the conclusion, oral folk creativity and national games enrich the content of school education. The characters, symbols, and moral-spiritual ideas in folklore help children distinguish between good and evil, understand kindness, justice, hard work, friendship, and patriotism, and internalize these values deeply. Especially through fairy tales and riddles, students’ creative thinking and independent reasoning are developed, and their oral and written speech is enriched.

Keywords: proverb, riddle, fairy tale, folklore, tongue twister, interactive, slide.



Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ongli idrok etishi va estetik tafakkurini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs taraqqiyotining asosi bo‘lib, bu bosqichda bolaning ongi, tafakkuri va ma’naviy qiyofasi shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, xalq og‘zaki ijodi – folklor namunalaridan ta’lim-tarbiyada foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev folklorni xalqimizning ruhiy olami va tarixiy xotirasi sifatida baholab, uni yosh avlod tarbiyasida kuchli vosita sifatida e’tirof etadi. Davlat rahbari 2019-yil Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro festivaldagi nutqida shunday deydi: “Folklor san’ati – bu insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir. Bu – xalqning qalbi, ruhiy olami, tarixiy xotirasi va orzu-umidlarining ifodasidir” [1, 12-b.]. Shuningdek, Prezidentimiz 2023-yilda e’lon qilingan tegishli qarorida xalq og‘zaki ijodiy merosini o‘rganish, uni yosh avlod ongiga singdirish borasidagi ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidlagan. Shu bilan bir qatorda o’yinlar ham bizning

boy madaniy merosimizning ajralmas qismi ekanligini unutmasligimiz kerak..O'yinlar bolalarning nafaqat jismoniy rivojlanishida ,balki ularning aqliy va ma'naviy kamolotiga ham xizmat qiladi.Prezidentimiz SH.Mirziyoyev yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda,ularni qadriyatimizni asrab avaylash va rivojlantirishda o'yinlarning o'rni beqiyos ekanligini bir necha marotaba ta'kidlab o'tganlar.Haqiqatan ham, xalq og'zaki ijodi namunalari – ertak, topishmoq, maqol va matallar, afsona va rivoyatlarning;-o'zbek milliy o'yinlariningo'quvchilar tafakkurini boyitish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat, tilga muhabbat, axloqiy qarashlarni shakllantirishdagi roli beqiyosdir.

Asosiy qism. Bolalar folklori – kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarva musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir.[2,28-29-b] Uning tarkibiga kiradigan har bir janr bolalarni,yosh avlodni vatanga muhabbat,o'ziga ishonch,qat'iyat,to'g'ri lik,donolik singari bir qancha insoniy xislatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan folklorga oid ,xususan bolalar folkloriga oid namunalarni yig'ish va chop etishhar bir davrning muhim masalalaridan biri sanaladi. O'zbek bolalar folklorini o'rganish 60- yillardan e'tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovaning "O'zbek topishmoqlari" (1966), G'.Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori" (1975), shuningdek, O.Safarovning "Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari" (1983), "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985), "Alla-yo alla" (1999), "Chittigul" (2004), "O`zbek xalq bolalar o'yinlari"(2012) Sh.Galiyevning "O'zbek bolalar o'yin folklori" (1998) singari tadqiqotlar tufayli bu izlanishlarning samaralari ko'zga tashlanadigan bo'ldi.[3,29-b]

Bolalar folklori xalq og'zaki ijodining alohida bir bo'lagi sifatida o'zbek xalqining tarbiyaviy tajribasini avloddan avlodga yetkazib kelgan.Uning shakllanishida og'zaki ijod, urf-odat va milliy an'analar muhim o'rin tutadi. Bugungi darsliklarda bolalar folklorining turli janrlari: maqollar, topishmoqlar, masallar va ertaklar did bilan tanlangan.Boshlang'ich sinf o'quv predmetlari, ayniqsa ona tili va o'qish darslarida xalq og'zaki ijodidan namunalar vositasida ma'naviy tarbiya berish ko'zda tutilgan. Quyidagi jadvalda aynan darsliklarda berilgan xalq og'zaki ijodi namunalarining soni, turi va ularning tarbiyaviy yo'nalishlari aks ettirilgan.

2023-yilgi 1-sinf "Alifbe" darsligidagi xalq og'zaki ijodi namunalari

Folklor janri	Nechta namuna	Kitobdagi namunalar	Izoh
Alla	1 ta		Ruhi yumshoq, xalqona. Bolaga mehr, osoyishtalik tuyg'usi beradi.
Topishmoq	18 ta		Mantiqli, an'anaviy shaklda. Tafakkur va topqirlikni o'stiradi.
Tez aytish	6 ta		Tilni charxlaydi. Talaffuz va e'tiborni kuchaytirai.
Maqol	12 ta		Qisqa, ma'noli, xalqona. Axloqiy va estetik tarbiya beradi.

Bu tahlil darsliklar tuzilmasida milliy qadriyatlarning muntazam aks etishini ko‘rsatadi.Xulosa qilib a tafakkurni rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida darsni interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil etish orqali o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mumkin. Bunda o‘quvchilar faol ishtirok etadigan, milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan an’anaviy o‘yinlar, ayniqsa bolalar xalq o‘yinlari, dars samaradorligini oshiruvchi kuchli vositadir. Noan’anaviy yondashuvlar orqali darslarda o‘zbek milliy o‘yinlaridan foydalanish — nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning milliy o‘zlikni anglash, og‘zaki nutqini rivojlantirish, guruhda ishlash va fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.Quyida biz noan’anaviy yondashuvlarga asoslangan,hikoya tarkibida keltirilgan o’zbek xalq milliy o’yini aks ettirilgan qisqacha

Dars ishlanma

Mavzu: “Oybek va besh tosh” (muallifiy hikoya asosida)

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars shakli: Interaktiv.

Darsning maqsadlari :

Ta’limiy: O‘quvchi hikoyani tushunadi, mazmunini o‘qiydi va asosiy fikrni ajrata oladi.

Tarbiyaviy: Milliy o‘yinlarga qiziqish uyg‘otish, ota-ona bilan iliq munosabatga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: Tanqidiy fikrlash, hikoya asosida savollarga javob topish, muloqotga kirishish.

Darsda kerakli jihozlar:

Hikoya matni (slayd + audio shaklida), besh tosh o‘yini uchun toshlar (har bir guruhga), interaktiv doska, “3-2-1” reflektsiya.

Dars metodlari: JIGSA (Kesib berish) – matn ustida guruhlarda ishlash,Think-Pair-Share – fikrlash, sherik bilan bo‘lishish.

Darsning bosqichlari:

I.Tashkiliy qism – 5 daqiqa:Salomlashish, kayfiyatni aniqlash, Tezkor savol: “Oxirgi marta onangizga qanday voqeani aytdingiz?”

II. Kirish – motivatsiya – 5 daqiqa: Video ko‘rsatiladi: “Besh tosh o‘yini”

O‘quvchilar o‘yin haqida fikr bildiradilar

III.Asosiy qism – 20 daqiqa.1. Matn ustida ishlash (JIGSA usuli): Guruhlar hikoyani bo‘laklarga bo‘lib o‘qiydi va muhokama qiladi.2. Oybek onasiga besh tosh o‘yinining qanday o‘ynalishini tushuntiradi: 3.Har bir o‘quvchi Oybek rolida chiqadi va o‘yinning qanday o‘ynalishini og‘zaki tarzda tushuntiradi.4.Guruh bilan mashq tarzida o‘yinni sinfda ko‘rsatib berishadi.

IV.Mustahkamlash – 10 daqiqa: Think – Pair – Share usuli orqali savollarga javoblar: 1. Oybek nega bu o‘yinni yoqtiradi? 2.O‘yinning foydasi nimada?

V. Yakuniy qism – 5 daqiqa“3-2-1” reflektsiya: 3 ta o‘rgangan narsa, 2 ta qiziqarli daqiqa, 1 savol

VI.Rag‘batlantirish: Eng yaxshi ishtirokchilar yorliq bilan taqdirlanadi

VII.Uyga vazifa:

1. “Onamga aytib bergan o‘yinim” mavzusida hikoya yozish

2. Besh tosh o‘yinini oilasi bilan o‘ynab ko‘rish va taassurot yozish

Hikoya: Oybek va Besh Tosh Sarguzashti



Qishloqdagi havo iliq, quyosh charaqlab turardi. Oybek darsdan keyin uyga shoshilib bordi.

Uyga kirgan zahoti sumkasini bir chetga qo‘yib, onasiga qarab dedi: — Ona, bugun Abduvali buvam menga «besh tosh» o‘yinini o‘rgatdi! Juda qiziqarli ekan! Onasi kulib, boshini siladi:

— Bo‘lmasa, menga ham o‘rgat, o‘g‘lim! Oybek hovlida turgan beshta silliq toshni olib, yerga ehtiyotlab sochdi. So‘ng o‘yin qoidalarini tushuntira boshladi:

— Avval birinchi bosqich — bir biridan olish. Qarang, mana shunday bitta toshni havoga otaman... yerda yotgan bittasini olib, havodagi toshni tutaman! Oybek havoga tosh otib, chaqqonlik bilan yerda yotgan toshni olib, havodagisini ham qo‘ldan chiqarmay ushladi. Onasi qoyil qoldi.

Hikoyaning davomini QR-kod orqali skanerlang…

Xulosa. Dars jarayonida o’zbek milliy o’yinlari va folklor namunalaridan foydalanish o’quvchilarning borliqdagi predmetlarga nisbatan mustaqil fikrlarining tarkib topishi muhim bosqichlardan biridir. O’quvchilar o’rganilgan materiallar asosida yangi fikrlarni shakllantirishga, o’z qarashlarini ishlab chiqishga va masalalarga yangi nuqtai nazardan yondashishga o’rganadilar. Ushbu jarayon o’quvchilarning kreativ hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ko’maklashadi, shuningdek, ularni turli fan va hodisalarga mustaqil nuqtai nazar bildirishga rag’batlantiradi.Boshlang’ich sinf o’quvchilarining mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o’rin egallaydi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O’quvchilarga o’z vaqtida va o’z tempida o’rganish imkoniyatini yaratish, ularni mustaqil ravishda fikr yuritishga undash, shuningdek, o’rganilgan materiallarni amaliyotda qo’llashni o’rgatish orqali ta’lim sifatini oshirishga hissa qo’shadi. Bularning barchasi, o’quvchilarning ta’lim jarayoniga faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ularni zamonaviy ta’lim talablari asosida tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining ochilish marosimidagi nutqi. – Termiz: 2019-yil 7-aprel. – [Elektron resurs] // https://president.uz/oz/lists/view/2477

2.Safarov O, Barakayev R, Jamilova B.“Bolalar adabiyoti”28-29-b.

3. Safarova N. O’zbek bolalar o’yin folklori tabiati. Monografiya/ Germaniyaning Globe yedit nashriyotida chop ettirildi. 2020.

4.Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005

5.Safarova N.O. Didaktik o’yinlarning samaradorligi. «O’ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.

BADIIY ASAR TAHLILIGA LINGVOPOETIK YONDASHUV

Toshpulatov Bexzod Bekmurod o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Filologiya fakulteti dekan o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali badiiy asar tahlilida lingvopoetik yondashuvning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Asarda badiiy matnning estetik mazmuni va badiiy ifoda vositalari til birliklari orqali ochib berilishi tahlil qilinadi. Lingvistik va poetik yondashuv uyg‘unligiga asoslangan tahlil usuli, adabiy asarning chuqur ma’no qatlamlarini ochishda samarali vosita sifatida baholanadi. Tadqiqotda lingvopoetik analizning zamonaviy adabiy tanqid va matnshunoslikdagi metodologik imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Lingvistik poetika, Lingvostilistika, Paradigma, Lingvostilistika trop, Zamonaviy poetika, Antropotsentrik paradigma, Semantik daraja.

Аннотация: В статье рассматриваются значение и роль лингвопоэтического подхода в анализе художественного произведения. Особое внимание уделяется раскрытию эстетического содержания и выразительных средств художественного текста через языковые единицы. Анализ, основанный на синтезе лингвистического и поэтического подходов, оценивается как эффективный инструмент для выявления глубоких смысловых пластов литературного произведения. Также рассматриваются методологические возможности лингвопоэтического анализа в контексте современной литературной критики и текстологии.

Ключевые слова: Лингвистическая поэтика, лингвостилистика, парадигма, троп в лингвостилистике, современная поэтика, антропоцентрическая парадигма, семантический уровень.

Annotation: This article examines the significance and role of the linguopoetic approach in the analysis of literary texts. It focuses on how the aesthetic content and artistic expression of a literary work are conveyed through linguistic elements. The study evaluates the effectiveness of an analytical method based on the integration of linguistic and poetic perspectives in uncovering deeper layers of meaning within a literary text. Furthermore, the research explores the methodological potential of linguopoetic analysis within the framework of contemporary literary criticism and textual studies.

Keywords: Linguistic Poetics, Linguostylistics, Paradigm, Tropes in Linguostylistics, Contemporary Poetics, Anthropocentric Paradigm, Semantic Level.

Lingvistik poetikaning shakllanish jarayoni filologik tahlilning predmeti va vazifalariga oid an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati bilan belgilanadi. Ayniqsa, til va badiiy shakl o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatni talqin etish masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. Natijada, lingvistik poetikaning ilmiy tadqiqot ob’ekti va metodologik asoslari kengaydi, uning nazariy va amaliy yo‘nalishlari yanada aniq belgilandi.

Tarixan ushbu yo‘nalish “Badiiy uslub” deb ataluvchi stilistikaning maxsus bo‘limi asosida shakllandi. Uning predmeti, avvalo, badiiy ifoda vositalarini – eng avvalo trop va nutq figuralarini – tavsiflash va tizimlashtirishdan iborat bo‘lib, bunda ularning lingvistik tabiati markaziy o‘rinda turardi. Biroq ayni davrdayoq faqatgina ifodaviy vositalarni tahlil qilish doirasidan chiqish zarurati yuzaga keldi. Chunki badiiy matn murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, unda turli darajadagi til birliklari o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

Natijada ilmiy muomalaga asta-sekin lingvistik stilistika (lingvostilistika) tushunchasi kirib keldi. U o‘z diqqat markazini fonetik va morfologik darajadan tortib sintaktik darajagacha bo‘lgan til strukturalarini kompleks o‘rganishga qaratdi. Shu tariqa matn poetikasini kengroq talqin etish

uchun poydevor yaratildi. Bunda nafaqat muallifning individual ifodaviy vositalar tizimi, balki intertekstual aloqalar, janr xususiyatlari, kognitiv hamda kommunikativ parametrlari ham hisobga olinadigan bo‘ldi.

Shunday qilib, lingvistik poetikaning evolyutsiyasi XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshidagi gumanitar bilimlarning umumiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Bu davrda tadqiqotchilar diqqat-e’tibori ko‘p qirralilik, fanlararo yondashuv va turli metodologik usullar integratsiyasiga tobora ko‘proq qaratildi.

Lingvistik stilistika esa badiiy matnning ekspressivlik darajasini va estetik ahamiyatini aniqlash imkonini beruvchi o‘ziga xos vositalar tizimini tadqiq etadi. Uning tadqiqot doirasiga nafaqat an’anaviy badiiy ifoda vositalari, balki til hodisalarining turli darajalardagi keng qamrovli spektri ham kiradi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: badiiy ta’sirni yuzaga keltiruvchi fonetik va so‘z yasash usullari; leksika va frazeologiyaning tarixiy qirralari, jumladan arxaizmlar, neologizmlar va muallif yaratgan okkazional birliklar; so‘z turkumlarining transpozitsiyasi, matnga o‘ziga xos semantik ohang beruvchi hodisa sifatida; shuningdek, turli tip va tuzilishga ega bo‘lgan sintaktik konstruksiyalarning estetik salohiyati.

Shunday qilib, zamonaviy lingvostilistika an’anaviy trop va klassik ekspressiv vositalar — masalan, sinonimlar, antonimlar va omonimlar — tahlili doirasidan ancha kengayib chiqdi. U turli til darajalarining estetik funksionalligini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, badiiy matndagi ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini va badiiy obraz yaratishdagi ishtirok darajasini aniqlashni maqsad qilib qo‘yadi.

Lingvostilistikani mustaqil fan sifatida yakuniy shakllantirish V.V. Vinogradov asarlarida mustahkamlandi. Uning konsepsiyasi til stilistikasi, nutq stilistikasi va badiiy adabiyot stilistikasini aniq farqlashni taklif etdi. Mazkur yondashuv til vositalarining funksional-stilistik differensiasiyasini tizimli tahlil qilish imkonini berdi hamda mazkur ilmiy yo‘nalishning tadqiqot maydonini aniqroq belgilashga xizmat qildi.

Zamonaviy bosqichda lingvostilistika doirasida funksional stilistika alohida o‘rin egallaydi. U tilning turli kommunikativ sohalardagi faoliyatini qamrab oluvchi maxsus tarmoq sifatida qaraladi. Uning tadqiqot ob’ekti til birliklaridan foydalanish qonuniyatlarini aniqlashdir. Bu qonuniyatlar kommunikativ vaziyat, nutqiy maqsad va nutq aktining ijtimoiy shartlanganligi bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi.

Rus va chet tillarini o‘rganuvchilar uchun amaliy stilistika alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u matn mazmuni, muloqot sharoiti va nutqiy maqsadga qarab til vositalarini tanlash bo‘yicha normativ tavsiyalar ishlab chiqish va ularni tizimlashtirishga yo‘naltirilgan.

Shu ma’noda lingvostilistika nafaqat nazariy fan sifatida, balki amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan soha sifatida ham namoyon bo‘ladi. U nutq madaniyatini shakllantirish, shuningdek, samarali shaxslararo va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Lingvopoetika tadqiqotining bosh ob’ekti — badiiy matn tili bo‘lib, u nafaqat til birliklari yig‘indisi, balki murakkab formal-grammatik, semantik va pragmatik tashkilotga ega bo‘lgan yaxlit kommunikativ birlik sifatida qaraladi. Badiiy matnda turli til darajalariga oid birliklar o‘ziga xos o‘zaro munosabatga kirishadi va natijada ular real kommunikatsiya jarayonida yangi ma’no, uslubiy hamda ekspressiv xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shu tariqa matnning har bir komponenti o‘zining «odatdagi» semantikasidan chiqib, yagona mazmuniy-kontinuumni yaratish jarayoniga qo‘shiladi. Aynan shu jarayonda badiiy asarning yaxlitligi ro‘yobga chiqadi.

Lingvopoetikaning predmeti esa til birliklarining shakl va mazmunidagi transformatsiya qonuniyatlarini, ularning oddiy struktural vazifalardan murakkabroq ma’no va estetik vazifalarga o‘tishini o‘rganishdan iboratdir. Bu esa o‘z navbatida, badiiy obraz yaxlitligini ta’minlaydigan senso-estetik jarayonlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Lingvopoetikaning mohiyati va vazifalarini qayta talqin qilish XX asrda ustuvor bo‘lgan struktural-sistemaviy lingvistika modelidan antropotsentrik yondashuvga o‘tish natijasida

mumkin bo‘ldi. Bu jarayon 1990-yillarning o‘rtalariga kelib gumanitar bilimlar sohasida yakuniy shaklini topdi. Antropotsentrik paradigma doirasida tadqiqotchilar diqqat markazini nutq subyekti, uning intensionlari, kognitiv va kommunikativ ustanovkalari masalalariga qaratdilar. Natijada lingvopoetikaning maqsad va vazifalari aniqroq belgilandi hamda u, eng avvalo, lingvostilistikadan farqlanadigan mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

Lingvopoetika bilan lingvostilistikaning asosiy farqi ularning tadqiqot fokusida namoyon bo‘ladi: lingvostilistika trop, figura va stilistik usullarni ularning potensial funksiyalari va ekspressiv imkoniyatlari nuqtai nazaridan o‘rganar ekan, lingvopoetika bu vositalarni matn hosil qiluvchi aspektda tahlil qiladi. Shu orqali ularning badiiy obrazlilikni yaratishdagi ishtiroki hamda mazmun hosil bo‘lish jarayonlaridagi rolini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Demak, lingvopoetika faqatgina stilistik resurslar ro‘yxati bilan cheklanib qolmay, balki ularning badiiy matn yaxlitligida qanday integratsiyalashuvini, ya’ni san’atkorona butunlikni ta’minlovchi ichki mexanizmlarini tadqiq qiladi.

Mazkur ilmiy yo‘nalishlarni farqlash jarayoniga G.O. Vinokur va V.V. Vinogradovning klassik asarlarini qayta baholash muhim hissa qo‘shdi. Ularning ta’kidlashicha, badiiy matnda “neytral” yoki “ifodasiz” so‘zlar mavjud bo‘lishi mumkin emas: undagi har bir til vositasi estetik vazifaga ega bo‘lib, muallifning badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlarda rivojlantirilgan ushbu tamoyil badiiy matnni noyob kommunikativ-estetik hodisa sifatida talqin qilishning metodologik asosiga aylandi. U esa o‘z navbatida tilshunoslik, semiotika, kognitiv va madaniyatshunoslik yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan kompleks tahlilni talab qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy lingvopoetika til, estetika va ma’no o‘zaro aloqasini badiiy matn doirasida o‘rganadigan fanlararo filologik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa unga gumanitar fanlar tizimida mustaqil o‘rin egallash imkonini beradi.

Til vositalari poetikasini tadqiq etish muallifning g‘oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirishdagi funksional rolini aniqlashga, shuningdek, uning asarning yaxlit tuzilishini shakllantirishdagi hissasini belgilashga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, matnning til tashkilotini belgilovchi va uning ma’noviy arxitektonikasini shakllantiruvchi kalit so‘zlar, motivlar hamda dominantlarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday elementlar semantik va struktur tayanch nuqtalari sifatida badiiy matnning ichki mantiqini kuzatishga hamda til va badiiy g‘oya o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ochib berishga imkon yaratadi.

Badiiy adabiyot tilini o‘rganish XX asr davomida va XXI asr boshlarida filologiya fanining markaziy muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Mahalliy va xorijiy adabiyotshunoslikda badiiy matnni tahlil qilishning keng metodologik spektri shakllandi. Ular orasida esa ikki asosiy yo‘nalish ustuvorlik kasb etdi — lingvistik va adabiyotshunoslik yondashuvlari.

Lingvistik metod uchun tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi tilning o‘zi — tizim sifatida ham, badiiy haqiqatni modellashtirish vositasi sifatida ham qaraladi. Bunda badiiy matn umumiy til qonuniyatlari, kategoriyalari va birliklari prizmasi orqali tahlil qilinadi. Shu jarayonda ular badiiy faoliyat doirasida transformatsiyaga uchrab, yangi semantik va estetik qirralarga ega bo‘ladi. Tadqiqotchilar e’tibori, asosan, matnning fonetik tashkiloti, morfologik va sintaktik xususiyatlari, semantik o‘zgarishlari hamda ularning ekspressiv salohiyatiga qaratiladi.

Adabiyotshunoslik metodi esa, aksincha, badiiy matnni san’at asari sifatida yaxlit holda qabul qiladi. Bu holda til mustaqil ob’ekt sifatida emas, balki badiiy g‘oyani amalga oshirish va voqeani bayon qilish tuzilmasini yaratish vositasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, til tadqiqotchi uchun muallifning janr xususiyatini, g‘oyaviy-obrazli mazmunini hamda badiiy uslubini ochib beruvchi material vazifasini bajaradi.

Психологические аспекты восприятия образа женщины в медиа также заслуживают отдельного внимания. Исследования показывают, что медиа-образ влияет на самооценку женщин, их ожидания и поведение. Женщины, которые постоянно подвергаются воздействию идеализированных образов, могут испытывать давление соответствовать этим стандартам, что может приводить к различным психологическим проблемам, включая низкую самооценку и расстройства пищевого поведения. Понимание того, как медиа-образ влияет на психику и поведение женщин, является важным шагом к созданию более здорового и разнообразного медиа-пространства.

Современные тенденции в образе женщины в медиа также представляют собой интересную область для изучения. В последние годы наблюдается рост интереса к многообразию и инклюзивности, что отражает изменения в общественных ценностях. Женщины различных рас, возрастов, размеров и сексуальных ориентаций начинают получать большее представительство в медиа, что способствует расширению границ традиционных стереотипов. Однако, несмотря на эти положительные изменения, все еще существуют вызовы и проблемы, связанные с представлением женщин в медиа. Некоторые образы продолжают оставаться стереотипными и ограничивающими, что подчеркивает необходимость дальнейших исследований и анализа.

Например, стереотипные образы в современных медиа воссоздают образ «идеальной мамы и жены». Этот образ, часто встречающийся в рекламе и женских журналах, представляет женщину как идеальную хозяйку, которая без усилий совмещает заботу о семье, безупречную внешность и успешную карьеру. Язык, используемый для описания таких героинь, часто включает слова вроде «заботливая», «нежная», «мудрая», что создаёт нереалистичные ожидания. Рекламные слоганы могут гласить: «Она успевает всё!» или «Её дом – её крепость».

Образ «провинциалки, ищущей счастья», буквально «кишит» в популярных сериалах и фильмах. Героиня, обычно из небольшого города, приезжает в мегаполис в поисках «лучшей жизни», которая часто сводится к успешному замужеству. Её амбиции сводятся к обретению материального благополучия через отношения, а не через личные достижения. Язык в диалогах подчёркивает её наивность и уязвимость, а её образ часто противопоставляется «стервозным» и независимым горожанкам.

Образ «Королевы красоты» и «Инстаграм-дивы» в социальных медиа и глянцевых изданиях доминирует образ женщины, чья ценность определяется её внешностью, фигурой и роскошным образом жизни. Эти образы часто сопровождаются языком, который акцентирует внимание на телесных параметрах: «идеальные формы», «роскошная фигура», «безупречный стиль». Публикации часто сопровождаются советами по диетам, спорту и косметическим процедурам, что создаёт давление на женщин, заставляя их стремиться к нереалистичным стандартам красоты.

Эти образы, хотя и выглядят привлекательно, ограничивают женщин определёнными социальными ролями и стандартами, игнорируя их интеллектуальные, профессиональные и личностные качества. Продолжение исследований в этой области поможет повысить медиаграмотность и поспособствует созданию более разнообразных и реалистичных образов. В условиях стремительного развития цифровых технологий и изменения медийного ландшафта, важно проанализировать, как исторические стереотипы и языковые средства продолжают влиять на образ женщины в современных медиа.

Исторический обзор образа женщины в медиа представляет собой сложный и многогранный процесс, который охватывает множество аспектов, включая культурные, социальные и экономические изменения, происходившие на протяжении веков. Образ женщины в медиа неразрывно связан с изменениями в общественном сознании, нормами и ценностями, которые формировали восприятие роли женщины в обществе. На протяжении истории можно выделить несколько ключевых этапов, каждый из которых демонстрирует эволюцию представлений о женственности, ее месте в обществе и, соответственно, в медиа.

Эволюция образа женщины в медиа тесно связана с социальными и культурными изменениями. На протяжении XX и XXI веков можно выделить несколько ключевых этапов, каждый из которых отражает доминирующие представления о роли женщины в обществе. Например, начало XX века характерно образами «домохозяйка» и «объект», то есть в начале XX века, с появлением массовых медиа – журналов и газет, – образ женщины был ограничен двумя основными ролями:

«Идеальная домохозяйка» – женщины изображались как заботливые матери и искусные хозяйки. В рекламе они были заняты уборкой, готовкой и заботой о семье. Это был идеал, к которому должно было стремиться большинство. Реклама бытовой химии, продуктов питания, где улыбающаяся женщина стоит на безупречно чистой кухне сопровождались репликами «Счастье женщины – в чистоте её дома!», «Встречайте мужа с работы в чистом доме и с горячим ужином!», «С этим порошком ваша стирка станет такой же лёгкой, как ваше материнство!», «Её секрет – этот новый пылесос, который сделает уборку за считанные минуты, а у неё будет больше времени на семью!», «Что может быть лучше, чем похвала мужа за идеально отглаженную рубашку?». Эти реплики не просто рекламировали товар, они продавали идеологию. Они закрепляли в общественном сознании представление о том, что домашние обязанности – это не рутинный труд, а священный долг и источник женского счастья;

«Сексуальный объект» – развитием кинематографа и рекламы, особенно в 1920-х годах (эпоха «flappers»), появился образ женщины как объекта желания. Он был более раскрепощённым, но всё ещё ограничивал женщину её внешностью. Этот образ был широко представлен в рекламе косметики и моды и сопровождался фразами «Привлекай взгляды, где бы ты ни была!», «Будь загадочной, будь неотразимой...», «Его взгляд будет прикован только к вам.», «Сделай его своим!».

В советской медиа-пропаганде доминировал совершенно иной образ, отражающий идеологию равенства и коллективного труда воссоздавая образы:

«Героиня труда» – женщина изображалась как равная мужчине в трудовом подвиге. Она была и трактористкой, и ученой, и космонавтом. Журналы, такие как «Работница» и «Крестьянка», показывали женщин-передовиков производства, многодетных матерей и активных общественных деятелей. Ценились не столько внешняя привлекательность, сколько трудолюбие, героизм и преданность коммунистическим идеалам. Яркий пример – плакаты, где женщина с решительным лицом работает на заводе или в поле, сопровождались такими девизами как «Женщина, равная мужчине, строит новую жизнь!», «Пятилетку — за четыре года!», «Её руки не знают усталости, её сердце бьётся за Родину!», «Мать-героиня — это не только подвиг материнства, но и подвиг труда!». Эти реплики и лозунги были созданы, чтобы вдохновлять и мотивировать женщин, формируя в общественном сознании образ сильной, самоотверженной и идейно подкованной гражданки.

Эпоха Перестройки и 1990-х начинает формировать образ «Роковой женщины» и «Гламурной дивы». С распадом Советского Союза в отечественные медиа хлынули западные образы, и произошел резкий отход от советских идеалов. Так появляется «Роковая женщина» которая под влиянием голливудских фильмов, в кино и рекламе порождает образ сильной, сексуальной и независимой женщины, которая добивается своего любой ценой. Этот образ отражал стремление к независимости и свободе посредством выражений «Она не ищет

любви – она берёт её!», «Её красота — её главное оружие.», «Она играет по своим правилам и никогда не проигрывает.», «Будь как она — загадочной, недоступной, желанной.»;

В глянцевых журналах и на телевидении доминировали образы моделей и телеведущих, успех которых ассоциировался с роскошным образом жизни и воссоздающим образ «Гламурной дивы». Этот образ акцентировал внимание на красоте, богатстве и «легкой жизни» и выражался фразами «Она создана для роскоши!», «Её красота открывает любые двери.», «Всё, что её окружает — дорого и безупречно.», «Она живёт, а не просто существует.».

И наконец, XXI век предлагает новый образ «Сильная и многогранная». Современный этап характеризуется попытками разрушить старые стереотипы. Так появляются образы «Независимая карьеристка».В кино и рекламе всё чаще появляются женщины, которые успешно строят карьеру, не жертвуя при этом своей личной жизнью. Они могут быть и успешными бизнес-леди, и лидерами мнений, и новаторами в науке. Рекламные кампании и медийные проекты начинают отходить от идеальных стандартов красоты, показывая женщин с разными типами фигур, этнической принадлежности и возрастом. Это движение к более реалистичному и инклюзивному образу, которое отражает разнообразие современного общества.

Каждый из этих этапов был обусловлен историческими, политическими и социальными обстоятельствами, и каждый из них оставил свой след в коллективном сознании.

Если на заре медиа, в частности, в XIX веке, образ женщины часто ассоциировался с традиционными семейными ролями и женщина в это время воспринималась прежде всего как хранительница домашнего очага, мать и супруга то в литературе и первых печатных изданиях, таких как журналы и газеты, женщины изображались как добродетельные и заботливые, их ценности и идеалы соответствовали патриархальному обществу. Эти представления находили отражение в художественной литературе, где женские персонажи часто были жертвами обстоятельств, их судьбы зависели от мужчин, и их главной задачей было создание уютного домашнего пространства. В это время медиа играли роль не только развлекательного, но и воспитательного инструмента, формируя у женщин представление о том, как они должны вести себя и какие качества ценятся в обществе.

С переходом в XX век, особенно после Первой мировой войны, произошли значительные изменения в восприятии женщин. Война привела к тому, что женщины начали занимать традиционно мужские роли, выходя на рынок труда и становясь более независимыми. Этот процесс нашел свое отражение в медиа, где начали появляться новые образы женщин – работниц, активисток, борцов за свои права. Кинематограф, который стал популярным в это время, начал представлять женщин не только как домохозяек, но и как сильных, независимых личностей. Фильмы о женщинах, которые борются за свои права или стремятся к самореализации, стали набирать популярность, что свидетельствовало о изменении общественных стереотипов.

Однако, несмотря на эти изменения, в медиа продолжали существовать и традиционные образы женщин. В 1950-х годах, с возвращением к мирной жизни, произошел откат к более консервативным представлениям о женственности. В это время идеал женщины вновь стал ассоциироваться с образом домохозяйки, что отражалось в рекламе, кино и литературе. Женщины изображались как идеальные матери и жены, чья основная задача заключалась в поддержании домашнего уюта и заботе о семье. Это стало особенно заметно в рекламных кампаниях, которые подчеркивали важность домашних обязанностей и семейных ценностей, создавая образ «счастливой домохозяйки».

С 1960-х годов, с началом феминистского движения, произошел новый виток в эволюции образа женщины в медиа. Феминизм стал влиять на все сферы жизни, в том числе и на медиа. Женщины начали активно выступать за свои права, требуя равенства и

справедливости. Это движение отразилось в кино, где стали появляться сильные женские персонажи, которые боролись с предрассудками и стереотипами. В этот период образ женщины стал более многообразным: женщины стали изображаться не только как жертвы, но и как активные участницы общественной жизни, способные принимать решения и действовать самостоятельно.

С 1980-х годов и до начала 2000-х годов наблюдается дальнейшее развитие образа женщины в медиа. В это время женщины начинают занимать видные позиции в бизнесе, политике и культуре, что также находит отражение в медиа. Женские персонажи становятся более сложными и многогранными, их образ больше не ограничивается традиционными стереотипами. В кино и на телевидении появляются героини, которые могут быть как сильными, так и уязвимыми, что делает их более реалистичными и близкими зрителям. Однако, несмотря на эти достижения, в медиа продолжали существовать и стереотипные образы женщин, что свидетельствовало о наличии противоречий в обществе.

С началом XXI века и с развитием цифровых технологий, медиа-пространство претерпело значительные изменения. Социальные сети и интернет-платформы предоставили женщинам новые возможности для самовыражения и создания собственного контента. Это позволило многим женщинам стать активными участницами медиа, а не только объектами представления. В результате появились новые формы женского представительства, которые отражали разнообразие женского опыта и мнений. Однако, несмотря на эти положительные изменения, в медиа по-прежнему существуют стереотипы и предвзятости, касающиеся женщин. Образы женщин в рекламе, кино и телевидении часто продолжают быть упрощенными и ограниченными, что указывает на необходимость дальнейшей работы в этом направлении.

Таким образом, исторический обзор образа женщины в медиа демонстрирует сложный и многоуровневый процесс, который отражает изменения в общественном сознании и культурных нормах. Эволюция образа женщины в медиа – это не только отражение социальных изменений, но и активное участие женщин в формировании своих образов и идентичностей. Важно отметить, что медиа не только отражают реальность, но и формируют ее, влияя на восприятие женщин в обществе. Поэтому дальнейшее изучение образа женщины в медиа и его языковых аспектов имеет важное значение для понимания современных тенденций и вызовов, с которыми сталкиваются женщины в современном мире.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Байкалова Н. С. Гендерный фактор при формировании образа политика в российских и американских СМИ: дис. – Сибирский федеральный университет, 2016.

2.Ефремов В.А. Динамика русской языковой картины мира: вербализация концептуального пространства «мужчина-женщина» // автореф. на соис.уч.степ. филол.наук. Санкт-Петербург. –2010.

3.Зиёдова С. Б., Раджапова Н. Б. Гендерная проблематика в языкознании //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g 'oyalar. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 419-423.

4.Зиновьева Е. С. Предпосылки становления гендерной лингвистики // Ярославский педагогический вестник. – 2014. – Т. 1. – №. 3. – С. 158-162.

5.Кирсанова М. А. Роль антипословиц с гендерным компонентом в формировании юмористического образа женщины (на материале русского и английского языков) // Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2020. – Т. 18. – №. 3. – С. 87-102.

6.Radjapova N., Nazarova M. N. Международный опыт в продвижении гендерного равенства // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 412-419.

7.Раджапова Н. Б., Зиедова С. Б. Реальность: равенство между мужчинами и женщинами // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Т. 2. – №. 9. – С. 917-921.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

TIBBIYOT TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV VA TASHKILIY OMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Abduraimov Abbosbek Odiljon o'g'li
Namangan davlat uiversiteti mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya: Maqolada tibbiyot ta'limi jarayonida talabalarning kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni keng yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, virtual ta'lim platformalari, simulyatsion dasturlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi orqali tibbiyot talabalari o'rtasida samarali hamkorlik, klinik muloqot ko'nikmalari va tashkiliy faoliyatni boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot ta'limi, kommunikativ kompetensiya, tashkiliy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, simulyatsion ta'lim, klinik muloqot, ta'lim innovatsiyalari.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНЫХ И ОРГАНИЗАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Абдураимов Аббосбек,
Наманганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация: В статье подробно освещается роль цифровых технологий в процессе развития коммуникативных и организационных компетенций студентов медицинских вузов. Раскрываются научно-теоретические основы формирования эффективного сотрудничества, клинических коммуникативных навыков и управленческих умений у студентов-медиков посредством применения современных информационно-коммуникационных технологий, включая виртуальные образовательные платформы, симуляционные программы и цифровые средства коммуникации.

Ключевые слова: медицинское образование, коммуникативная компетенция, организационная компетенция, цифровые технологии, симуляционное обучение, клиническая коммуникация, образовательные инновации.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING COMMUNICATIVE AND ORGANIZATIONAL COMPETENCIES IN MEDICAL EDUCATION

Abduraimov Abbosbek,
Namangan State University, Independent Researcher

Abstract: The article provides an in-depth analysis of the role of digital technologies in the development of communicative and organizational competencies among medical students. It highlights the scientific and theoretical foundations of fostering effective collaboration, clinical communication skills, and organizational management abilities through the use of modern information and communication technologies, including virtual learning platforms, simulation programs, and digital communication tools.

Keywords: medical education, communicative competence, organizational competence, digital technologies, simulation-based learning, clinical communication, educational innovations.

Kirish: XXI asrning dastlabki choragida dunyo miqyosida kuzatilayotgan globallashuv, texnologik innovatsiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli

transformatsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning, balki inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim tizimining ham sifat o‘zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari, xususan, tibbiyot ta’limi tizimi oldida yangi chaqiriqlar va vazifalar paydo bo‘lib, ularga mos ravishda yangi ta’lim metodlari, raqamli platformalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati tug‘ildi. Ayniqsa, shifokorlar tayyorlash jarayonida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi nihoyatda dolzarb bo‘lib bormoqda. Zamonaviy tibbiyot nafaqat yuqori texnologiyalarni qo‘llash, balki insonparvarlik tamoyillarini, bemorga individual yondashuvni, tibbiyot xodimlari o‘rtasida hamkorlikni talab qiluvchi soha sifatida qaralmoqda. Shu boisdan, kasbiy faoliyatga kirib kelayotgan shifokorlarning kommunikativ madaniyati va tashkiliy ko‘nikmalari yuksak darajada shakllangan bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida tibbiyot oliy ta’limi tizimidan nafaqat klinik bilimlarni, balki samarali muloqot, ijtimoiy hamkorlik, jamoaviy boshqaruv va tashkiliy jarayonlarni to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyatini ham shakllantirishni talab etadi. Ana shunday kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Raqamli texnologiyalar so‘nggi yigirma yil ichida ta’lim paradigmasini tubdan o‘zgartirdi. Agar ilgari ta’lim jarayoni asosan an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari va amaliyotlar bilan chegaralangan bo‘lsa, bugungi kunda onlayn kurslar, virtual simulyatsiya dasturlari, masofaviy ta’lim platformalari, raqamli klinik amaliyot vositalari va sun’iy intellektga asoslangan interaktiv dasturlar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida global ta’lim tizimi majburan masofaviy ta’limga o‘tishi natijasida raqamli texnologiyalar ta’limni tashkil etishning muqobil emas, balki asosiy shakliga aylandi. Bu jarayon tibbiyot ta’limida ham keng qamrovli islohotlarni boshlab berdi. Masalan, “virtual patient” (raqamli bemor) dasturlari yordamida talabalar real klinik vaziyatga yaqinlashtirilgan interaktiv mashg‘ulotlarda ishtirok etib, bemor bilan muloqot qilish, tashxis qo‘yish va davolash qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar[1]. Kompetensiyaviy yondashuv paradigmasi asosida shakllanayotgan zamonaviy ta’lim modelida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya deganda talabaning turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish, verbal va noverbal signallarni to‘g‘ri talqin etish, tinglash va fikrni aniq yetkazish qobiliyati tushuniladi. Tashkiliy kompetensiya esa o‘quvchi yoki mutaxassisning o‘z faoliyatini rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, jamoa ishini boshqarish, qarorlar qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatidir. Tibbiyot sohasi nuqtayi nazaridan, ushbu ikki kompetensiyaning uyg‘un rivojlanishi shifokorning bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatishida, tibbiyot jamoasi ichida samarali hamkorlik qilishida va klinik jarayonlarni to‘g‘ri boshqarishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[2]. Raqamli texnologiyalar ushbu kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida keng imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, ular interaktiv ta’lim muhitini vujudga keltirib, talabalarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi. Ikkinchidan, raqamli muhitda kommunikativ faoliyatni modellashtirish orqali talabalar turli kommunikativ vaziyatlarda xatolardan o‘rganish va o‘z ustida ishlash imkoniga ega bo‘ladi. Uchinchidan, raqamli platformalar jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilib, turli mamlakat va mintaqalardagi talabalarni yagona loyiha doirasida birlashtirish imkonini beradi. Bu esa tashkiliy kompetensiyalarning shakllanishiga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimida raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi doirasida oliy ta’lim muassasalarini raqamlashtirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[3]. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida esa klinik simulyatsiya markazlari tashkil etilib, zamonaviy raqamli trenajyorlar, virtual laboratoriyalar va interaktiv o‘quv dasturlari joriy qilinmoqda. Bu jarayon talabalarning klinik vaziyatlarga tayyorlanishini yengillashtirib, ularning kommunikativ va tashkiliy ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini bermoqda. Xalqaro tajribaga murojaat qilganda, ko‘plab rivojlangan davlatlarda raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni

rivojlantirish samarali yo‘lga qo‘yilgani ko‘rinadi. Masalan, AQShning Stenford va Garvard universitetlari tibbiyot maktablarida “interprofessional education” konsepsiyasi keng qo‘llanilib, turli mutaxassislikdagi talabalar virtual platformalarda hamkorlikda ishlash orqali tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantiradilar[4]. Germaniyada esa “digital health education” dasturlari orqali talabalar nafaqat klinik bilimlarni, balki muloqot va boshqaruv ko‘nikmalarini ham raqamli simulyatsiyalar asosida shakllantirmoqdalar. Buyuk Britaniyada esa “e-learning for health” platformasi orqali talabalarning klinik muloqot madaniyatini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda[5]. Shuningdek, Yaponiyada tibbiyot ta’limi jarayonida raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) dasturlaridan keng foydalanilib, ular yordamida talabalar turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtiradilar. Janubiy Koreyada esa telemeditsina dasturlaridan ta’lim jarayonida foydalanilib, talabalar masofaviy konsultatsiyalar orqali kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar shifokor tayyorlashning ajralmas komponentiga aylanib bormoqda va ular global ta’lim tizimida yangi paradigma sifatida shakllanmoqda. Ilmiy-nazariy jihatdan olganda, raqamli texnologiyalar kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishning uchta asosiy mexanizmini ta’minlaydi[6]. Birinchisi – interaktiv modellashtirish va simulyatsiya asosida o‘qitishdir, bu jarayon talabalarga real vaziyatlarni xavfsiz sharoitda sinab ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchisi – raqamli kommunikatsiya platformalari orqali hamkorlik qilishdir, bu esa turli guruh va jamoalar bilan samarali ishlashni rag‘batlantiradi. Uchinchi mexanizm esa raqamli baholash vositalari orqali kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni monitoring qilish va rivojlantirishdir. Shunday qilib, tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashda beqiyos yordam beradi. Zamonaviy shifokor nafaqat klinik bilim va amaliy tajribaga, balki yuqori darajadagi muloqot madaniyati va tashkiliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan jarayondir.

Adabiyotlar tahlili: Tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni masalasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda bir qator xorijiy olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, AQShlik olim David M. Irby o‘zining ilmiy izlanishlarida tibbiyot ta’limida klinik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida kommunikativ ko‘nikmalarning markaziy ahamiyatini ta’kidlab, raqamli simulyatsion dasturlar va masofaviy o‘quv vositalari yordamida talabalar o‘z kasbiy faoliyatida uchraydigan murakkab muloqot vaziyatlarini modellashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Irby o‘zining ko‘plab ishlanmalarida klinik muloqot jarayonida talabalar nafaqat tibbiy bilimlarni qo‘llash, balki bemorlar bilan ishonchli aloqani yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarurligini ta’kidlaydi[7]. Uning ilmiy xulosalarida raqamli texnologiyalar orqali yaratilgan “virtual patient” dasturlari va simulyatsion laboratoriyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda ham samarali mexanizm sifatida e’tirof etilgan. Shu bilan birga, Germaniyalik olim Olaf Zawacki-Richtero‘z ilmiy ishlarida raqamli ta’lim va masofaviy o‘qitishning kompetensiyaviy yondashuvdagi afzalliklarini chuqur tahlil qilib, tibbiyot sohasida tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli vositalarning beqiyos imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Zawacki-Richterning qarashlariga ko‘ra, masofaviy ta’lim platformalari va raqamli kommunikatsiya vositalari yordamida turli hudud va mamlakatlardan kelgan talabalar jamoaviy loyihalar doirasida hamkorlikda faoliyat yuritib, tashkiliy qarorlar qabul qilish, resurslarni boshqarish va jamoaviy yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Olim o‘z tadqiqotlarida aynan tibbiyot ta’limida jamoaviy boshqaruvni raqamli muhitda modellashtirish talabalarda tashkiliy kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali pedagogik vosita ekanligini ta’kidlab o‘tadi[8]. Demak, Irby va Zawacki-Richterning ilmiy izlanishlari umumiy holda tibbiyot ta’limida

kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishi, balki shifokorlarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan ijtimoiy va tashkiliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishini ko‘rsatadi. Ularning qarashlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, Irby ko‘proq klinik muloqot va kommunikativ kompetensiyalarga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Zawacki-Richter tashkiliy kompetensiyalarni raqamli muhitda rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuvlarning sintezi shuni anglatadiki, zamonaviy tibbiyot ta’limida raqamli texnologiyalarsiz na kommunikativ, na tashkiliy kompetensiyalarni samarali shakllantirish mumkin emas, chunki ular o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi jarayon sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Metodologik qism: Ushbu tadqiqotda tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ta’sirchanligini ilmiy asosda tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, kompetensiyaviy yondashuv asos qilib olindi, chunki tibbiyot ta’limining zamonaviy paradigmasida shifokorlarni nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan, balki kommunikativ va tashkiliy salohiyat bilan ham ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli pedagogika konsepsiyasidan foydalanilib, o‘quv jarayonida raqamli vositalarning interaktivligi, moslashuvchanligi va individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish imkoniyatlari keng tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida nazariy tahlil orqali xalqaro va milliy ilmiy manbalar o‘rganildi, tibbiyot ta’limida kommunikativ hamda tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilg‘or tajribalar qiyosiy o‘rganildi. Bundan tashqari, empirik kuzatuv va modellashtirish metodlari yordamida raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonining amaliy jihatlari baholandi. Shuningdek, sistemali yondashuv qo‘llanilib, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalar bilan o‘zaro aloqasi yaxlit holda ko‘rib chiqildi. Natijada, metodologik jihatdan tadqiqot kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni raqamli transformatsiya sharoitida shakllantirishning nazariy asoslarini yoritishga, empirik dalillar bilan mustahkamlashga va kompleks yondashuv orqali ilmiy xulosalar ishlab chiqishga yo‘naltirildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda kasbiy muloqot madaniyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini, tashkiliy qarorlar qabul qilish salohiyatini ham tubdan mustahkamlaydi; xususan, virtual simulyatsiyalar, masofaviy o‘quv platformalari, raqamli klinik amaliyot modullari va onlayn kommunikativ treninglar yordamida talabalar o‘quv jarayonining markaziga faol jalb qilinib, ularning nazariy bilimlari amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirildi, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv muhitda o‘zaro fikr almashish, vaziyatli masalalarni birgalikda hal qilish va vaqtni samarali boshqarish kabi tashkiliy faoliyat elementlari kuchaytirildi, buning natijasida talabalarning zamonaviy tibbiy faoliyatda zarur bo‘lgan ko‘p qirrali kompetensiyalari shakllanib, ularning raqamli transformatsiyaga moslashuvchanlik darajasi ham sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Muhokama: Raqamli texnologiyalar yordamida tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi bo‘yicha xalqaro ilmiy maydonda turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ushbu yo‘nalishda yetakchi olimlardan biri sifatida tanilgan J. Frenklin hamda sog‘liqni saqlash pedagogikasini raqamli transformatsiya nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq qilgan M. Kovac o‘rtasidagi ilmiy munozaralar mazkur mavzuning dolzarbligini yaqqol ifodalaydi. J. Frenklin o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar tibbiyot ta’limida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda inqilobiy burilish yasashini ta’kidlab, virtual simulyatsiya laboratoriyalari, masofaviy telemeditsina platformalari va immersiv texnologiyalar orqali talabalar o‘zaro samarali muloqot qilishni, murakkab klinik vaziyatlarda ham jamoaviy qaror qabul qilishni tezroq o‘zlashtirishini isbotlab beradi[9]. Unga ko‘ra, bunday raqamli muhit nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtiradi, balki real klinik muhitdagi stress omillarini

yengib o‘tishga tayyorlaydi. Shuningdek, Frenklin zamonaviy o‘quv platformalari kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxslararo muloqotning psixologik komponentlarini ham qamrab olishini, natijada shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchli aloqani shakllantirish imkoniyati kengayishini qayd etadi. Biroq M. Kovac bu qarashlarga ehtiyotkorlik bilan yondashib, raqamli texnologiyalar ortiqcha e’tirof etilayotganini tanqid qiladi. Unga ko‘ra, tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni shakllantirish faqat texnologik vositalarga tayanib qolsa, talabalarda yuzma-yuz muloqot va an’anaviy klinik tajribaga asoslangan ko‘nikmalar susayib ketishi mumkin. Kovacning fikricha, real klinik sharoitdagi insoniy faktorlar – ya’ni bemorning hissiy reaktsiyalari, hamkasblar bilan noformal muloqot va tashkiliy ierarxiya muammolari – faqat jonli ta’lim jarayonida chuqur idrok etiladi[10]. Shu sababli u raqamli texnologiyalarni qo‘llashni inkor etmagan holda, ularni an’anaviy klinik ta’limni to‘ldiruvchi yordamchi vosita sifatida ko‘rishni taklif qiladi. Shunga qaramay, ikki olimning qarashlari keskin zid emas, balki o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. Frenklin raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga intilsa, Kovac insoniy omilni saqlab qolish zaruriyatini urg‘ulaydi. Ilmiy munozara jarayonida ular raqamli pedagogika va an’anaviy klinik tajriba o‘rtasida sinergik integratsiyani eng maqbul yechim sifatida ko‘rsatib, tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirishning eng samarali yo‘li sifatida aralash (blended) ta’lim modelini asoslaydilar.

Xulosa: Tibbiyot ta’limida kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli texnologiyalar, xususan, virtual simulyatsiyalar, masofaviy o‘quv platformalari, telemeditsina modullari va interaktiv treninglar nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini, jamoaviy ishlash qobiliyatini, tashkiliy qarorlar qabul qilish malakasini va shifokor–bemor muloqotini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Мурадкасимова К. Ш. Ўқитувчининг баҳолаш компетенцияси педагогик фаолиятнинг ажралмас қисми: илмий манбалар таҳлилий шарҳи //Современное образование (Узбекистан). – 2020. – №. 12 (97). – С. 82-87.

2.Ергашбаев Ш. O’zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish//Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.

3.Умирзакова Н. А. Тиббий таълимда шифокор касбини шакллантиришда биоэтиканинг ўрни //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. 1. – С. 189-192.

4.Orunbayeva U. Talabalarning kasbiy tayyorligida raqamli savodxonlikning ta’siri //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 6.

5.Юлдошев С. Теоретико-методические аспекты повышения валеологической компетентности студентов курса «Спортивная деятельность» посредством антропометрических показателей // Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 11/S. – С. 82-86.

6.Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta’limda yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.

7.Юсупова Д. И. Маданиятлараро мулоқот компетенцияларини шакллантиришда инновatив, интерфаол методлардан фойдаланиш //Современное образование (Узбекистан). – 2020. – №. 12 (97). – С. 47-55.

8.Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.

9.Абдуллаева Р. М. Тиббиёт соҳасидаги терминологияни ўқитишнинг лингводидактик асослари //хабаршысы. – 2020. – Т. 1. – С. 226.

10.Diloram M., Shohbozbek E. O’zbekistonda yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.

JADID DARSLIKLARIDAGI TOPSHIRIQLAR VA ULARNING TURLARI

Axrorov Ixtiyor Doniyorovich.,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Orcid:https://orcid.org/0000-0002-3640-7182

Anotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining ta’limiy merosi tahlil qilinadi. Xususan, jadid maktablarida yaratilgan darsliklarda uchraydigan topshiriqlar, ularning tipologiyasi va didaktik ahamiyati yoritilgan. Maqolada Avloniy, Munavvarqori, Behbudiy, Saidrasul Saidazizov kabi jadid ma’rifatchilarning darsliklarida uchraydigan reproduktiv, rekonstruktiv, ijodiy va muammoli topshiriqlar hamda ularning tarbiyaviy vazifalari o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur topshiriqlarning o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni va ularning zamonaviy ta’lim metodikasi bilan uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jadid maktablari, darslik, topshiriqlar, didaktik tamoyillar, reproduktiv topshiriqlar, rekonstruktiv topshiriqlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli topshiriqlar, ta’lim tarixi, metodika.

Аннотация. В данной статье анализируется образовательное наследие джадидизма, возникшего в Средней Азии в конце XIX – начале XX века. В частности, освещаются задания, включённые в учебники джадидских школ, их типология и дидактическое значение. В работе рассматриваются труды таких просветителей, как Авлони, Мунавар-кори, Бехбуди и Саидрасул Саидазизов, уделяется внимание репродуктивным, реконструктивным, творческим и проблемным заданиям, а также их воспитательным функциям. Кроме того, обосновывается роль этих заданий во всестороннем развитии личности учащихся и их актуальность для современных педагогических методик.

Ключевые слова: джадидизм, джадидские школы, учебник, задания, дидактические принципы, репродуктивные задания, реконструктивные задания, творческие задания, проблемные задания, история образования, методика.

Abstract. This article analyzes the educational legacy of the Jadid movement that emerged in Central Asia at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries. In particular, it highlights the types of tasks included in Jadid textbooks, their typology, and their didactic significance. The article examines the works of Jadid educators such as Avloni, Munavvarqori, Behbudi, and Saidrasul Saidazizov, focusing on reproductive, reconstructive, creative, and problem-based tasks and their educational functions. Furthermore, it substantiates the role of these tasks in the comprehensive development of students and their relevance to modern pedagogical methodologies.

Keywords: Jadidism, Jadid schools, textbook, tasks, didactic principles, reproductive tasks, reconstructive tasks, creative tasks, problem-based tasks, history of education, methodology.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati o‘zbek xalqi ta’lim-tarbiyasi tarixida yangi davrni boshlab berdi. Jadid maktablari qadimiy maktablarga nisbatan tubdan yangi o‘quv tizimini joriy qildi. Bunday maktablarda o‘quv rejalari, darsliklar va didaktik tamoyillar yangicha ruhda shakllantirildi. Ayniqsa, jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklardagi topshiriqlar o‘quvchi shaxsining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

Mazkur maqolada jadid darsliklarida uchraydigan topshiriqlarning turlari, ularning didaktik vazifalari hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

1. Jadid darsliklarining umumiy didaktik xususiyatlari

Jadid maktablarida darsliklar o‘qitish jarayonining asosiy vositasi bo‘lgan. Avloniy,

Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Saidrasul Saidazizov kabi ma’rifatchilar tomonidan yaratilgan darsliklar mazmuni o‘quvchini faollikka undashga, mustaqil fikrlash va izlanishga yo‘naltirilgan. Ularda nafaqat bilim berish, balki axloqiy-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ham ko‘zda tutilgan.

Masalan, Avloniyning “Birinchi muallim” darsligida bolalarni ona vatanni sevishga, ilm va hunar o‘rganishga chaqiruvchi topshiriqlar berilgan bo‘lsa, Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” kitobida savod chiqarish mashqlari bilan bir qatorda axloqiy mazmundagi mashqlar ham uchraydi.

2. Jadid darsliklarida topshiriqlar turlari

Jadid darsliklarida topshiriqlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

Reproduktiv topshiriqlar – matnni o‘qib eslab qolish, qayta aytib berish, oddiy savol-javoblarga javob topish.

Masalan: “Matnni o‘qib, mazmunini aytib ber.”

Bu topshiriqlar o‘quvchilarning eslab qolish va qayta tiklash ko‘nikmalarini shakllantirgan.

Rekonstruktiv topshiriqlar – voqealar ketma-ketligini tiklash, matndagi asosiy g‘oyani izohlash, sabab-oqibat munosabatlarini topish.

Masalan: “Hikoya qismlarini tartibga soling.”

Bu orqali o‘quvchi tafakkur yuritishga o‘rgatilgan.

Kreativ (ijodiy) topshiriqlar – yangi hikoya tuzish.

Masalan: “O‘zingiz sevgan mavzuda kichik hikoya tuzing.”

Bu topshiriqlar bolalarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirgan.

Axloqiy-tarbiyaviy topshiriqlar

Jadid darsliklarida har bir mashq faqat til yoki hisob o‘rgatishga qaratilmagan, balki unda ma’lum tarbiyaviy maqsad ham yotardi. Masalan, masalalar orqali mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, halollik targ‘ib qilingan.

Shuningdek, maqol va matallar asosida o‘quvchilarga insoniy fazilatlarni singdiruvchi mashqlar berilgan. Bu esa darsliklarning ma’rifiy va axloqiy ahamiyatini yanada oshirgan.

O‘yinli mashqlar usullar

Jadidlar o‘qitishda bolalarning qiziqishini oshirish uchun o‘yinli usullardan ham foydalangan. Darsliklarda “so‘zlarni to‘ldiring”, “noto‘g‘ri so‘zni toping”, “savol-javob o‘yini” kabi topshiriqlar uchraydi. Bunday mashqlar bolalarni faollashtirgan va dars jarayonini jonlantirgan.

5. Topshiriqlarning zamonaviy ta’limga ta’siri

Jadid darsliklaridagi topshiriqlar bugungi ta’lim konsepsiyasidagi kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Chunki ular bilim bilan birga ko‘nikma va qadriyatlarni ham shakllantirishga xizmat qilgan. Masalan, ijodiy topshiriqlar bugungi “kritik fikrlash” metodikasiga, o‘yinli mashqlar esa interaktiv pedagogikaga yaqin turadi.

1-jadval. Jadid darliklaridagi topshiriqlar tipologiyasi

№	Tipologik guruh	Jadid darsliklaridagi mos shakl	Maqsad
1	Reproduktiv topshiriqlar	Matnni o‘qish, qayta aytish, savolga javob berish	O‘rganganini mustahkamlash
2	Rekonstruktiv-topshiriqlar	Hikoya qismlarini tartibga keltirish	Mantiqiy bog‘lanishlarni tiklash
3	Produktiv (ijodiy) topshiriqlar	She’r yozish, hikoya tuzish, rasm asosida matn yaratish	Ijodiy fikrlashni rivojlantirish
4	Muammoli-topshiriqlar	Sabab–natija izlash, yechim taklif qilish	Tanqidiy fikrlashni shakllantirish

Darsliklar:
“Adibi avval” (Munavvar qori)
Adibi soniy”
Topshiriqlar:
•Harflarni ajratib o‘qish va yozish (alifbo mashqlari)
•So‘z tuzish, bo‘g‘inlarga ajratish
•Matn o‘qib, savollarga javob yozish
•To‘g‘ri talaffuz qilish uchun mashqlar
Didaktik yondashuv:
•O‘quvchini mustaqil o‘qishga o‘rgatish
•Nutq madaniyatini shakllantirish
•Lug‘at boyligini oshirish
Darsliklar:
“Hesobi jadid” (Munavvar qori)
“Hisobi-tijorat” (Amaliy hisob)
Topshiriqlar:
•Sonlar bilan amallar (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish)
•Savdo va kundalik hayotga oid hisob-kitoblar (tijorat asoslari)
Darsliklar:
“Jug‘rofiyai Umroniy”
Tarixi Muhammadiya”
“Tarixi islom”, “Tarixi Turkiston”
Topshiriqlar:
•Xarita bilan ishlash
•Tarixiy davrlarni ketma-ketlikda yozish
•Tarixiy shaxslar haqida izoh yozish
•Tarixiy voqealarga baho berish
•Savol-javob usulida matnni tahlil qilish.O
Hikoya: “Yolg‘onchining jazosi”
(Munavvar qori “Adibi soniy” darsligidan)

Bir bola doim yolg‘on so‘zlardi. Ota-onasi unga bir necha bor tanbeh berar, lekin bola bu odatini tashlamas edi. Bir kuni bola “bog‘da sher bor!” deb qichqirdi. Odamlar yugurib keldi, lekin sher yo‘q edi. Ertasi kuni haqiqatan ham sher keldi, lekin hech kim bolaga ishonmadi. Sher bolani yeb qo‘ydi.

Topshiriq:
•Hikoyani o‘qib, mazmunini ayting.
•Nega odamlar oxirida yordam bermadi?
•Bu hikoyadan qanday saboq olish mumkin?
•O‘z hayotingizda yolg‘onning zararli oqibatlarini ko‘rganmisiz? Misol keltiring.

Bu turdagi mashqlar o‘quvchidan matnni tartibga solish, mazmunni to‘liq anglashni talab qilardi.

Masalan, Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” darsligida har bir dars oxirida “Savol va javob” bo‘limi bo‘lgan. Unda “Ot nima?”, “Bolalar maktabga nima uchun keladilar?” kabi sodda savollar berilgan.

•Matn qismlarini tartibga keltirish.
•Hikoyadagi voqealarni izchillikda joylashtirish.
•Izoh berish va tushuntirish.

Munavvarqorining “Adibi avval” darsligida hikoyalar oxirida “Mazmunini ayt” yoki “Voqeani boshidan oxirigacha tartib bilan so‘zlab ber” kabi topshiriqlar uchraydi.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarni ijodkorlikka, yangi fikr bildirishga undagan.

•Hikoyani davom ettirish.
•Maqolga asoslanib kichik matn yozish.
•O‘quvchi hayotidan voqeani yozib berish.

Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” darsligida “Ota-onani hurmat qil” mavzusi o‘qilgach, o‘quvchilarga “Sen ota-onangga qanday yordam berasan?” degan topshiriq berilgan. Bu orqali bolalar o‘z hayotidan misol keltirib yozishga o‘rgatilgan.

2-jadval. Jadid darsliklarida fanlar bo‘yicha topshiriqlar va ularning didaktik vazifalari

№	Fan	Matn mavzusi	Topshiriq turlari	Maqsadlar
1	Geografiya	Qit’alar, mamlakatlar, xarita	Qit’a nomlash, xaritada ko‘rsatish, joylashuv tahlili	Mintaqaviy fikrlash, xarita bilan ishlash
2	Yer yuzi	Tog‘, vodiy, iqlim, daryo	Farqni aytish, rasm chizish, kuzatish yozish	Tabiatni tushunish, sabab–natija bog‘liqligini tushunish
3	Hisob	Savdo, sonlar, vazn, vaqt	Amal bajarish, masala tuzish, real holatga moslashtirish	Amaliy tafakkurni shakllantirish, hisob ko‘nikmasi

Jadid darsliklaridagi topshiriqlar o‘z davri uchun yangicha bo‘lib, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan edi. Ular orqali o‘quvchilar nafaqat savod chiqarish, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, axloqiy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalangan.

Bugungi ta’lim tizimida ham jadidlarning didaktik merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, zamonaviy metodik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilganda, ularning o‘qitish tajribasi yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1.U.Dolimov. Turkistonda jadid maktablari. Universitet. 2005. – B.126.
2.Абдурашидхонов Мунаввар қори. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2003. –301 б.
3.Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Ma’naviyat, 2009.–272 b.
4.Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild. –T.: Ma’naviyat, 2009.–304 b.
5.Farxodjonova N.F.”Jadid harakati namoyondalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri”. Xorazm. Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 11\3. 2022. B.326.
6.Mahmudxuja Beubudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 1997. –B.163.
7.Qosimov B. Milliy uygonish. T.: Ma’naviyat, 2002. –B.20.
8.Axrorov I. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – B. 374.
9.Doniyorovich A.I. Jadidlarning darsliklar yaratish faoliyatiga oid ayrim mulohazalar //Conferencea. – 2023. – B.542.
10.Axrorov I. Jadid ma’rifatparvarlarining maorif va tarbiyaga oid qarashlari// Til va adabiyot ta’limi jurnali 2022.-B16-18
11.Donyorovich, A. I. (2023). Jadidlarning darsliklar yaratish faoliyatiga oid ayrim mulohazalar. Conferencea, 118-123.
12.Axrorov I. “Pedagogik mahorat”. 5-son. 2025-yil. –B.280-283.
13.Axrorov I.“Pedagogik akmeologiya”. 5-son. 2025-yil. –B.117-121.
14.Axrorov I.“Maktabgacha va maktab ta’limi”. 6-son. 2025-yil.-B.60-63.

TALABALARDA DIVERGENT TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Adizova Nigora Baxtiyorovna,
Buxoro davlat Pedagogika instituti professori
Orcid: https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0001-5132-0571

Annotatsiya: Bizning tadqiqotimizda talabalarining divergent tafakkurini shakllantirish metodikasi - talabalarni mustaqil, kreativ fikrlash, o‘rganilayotgan masalalar mohiyatini chuqurroq anglashga o‘rgatadi, ularning dunyoqarashini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, nazariy tafakkur qat’iy mantiqiy deduktiv tafakkurga asoslangan bo‘lib, ya’ni konvergent tafakkurga, divergent tafakkurning xususiyatlari aniq empirik tafakkurga yaqinroqdir. Bu ham insonning amaliy tajribasiga, ham tushuncha qobiliyatiga ko‘proq bog‘liqdir. Ya’ni, ba’zi bir oldindan aytib bo‘lmaydigan tushunchalar, bir-biridan rasmiy ravishda uzoq bo‘lgan hodisalar, dalillar, obyektlar o‘rtasida kutilmagan aloqalarni o‘rnata olish qobiliyatining mavjudligi – aynan shu tafakkur qobiliyatini, divergent tafakkurni namoyon etadi.

Shunday qilib, talabalarda bunday o‘rganishni amalga oshirish usuli quyidagilardan: birinchi navbatda, xilma-xil vazifa nima ekanligini tushuntirish, so‘ngra bunday vazifalarni namoyish etish, ularni qanday yechish kerakligini ko‘rsatish, ularni mustaqil ravishda hal qilishni taklif etish va talabalarga o‘z vaqtida tezkorlik bilan yechishda yordam berishdan iboratdir. Bu shuni anglatadiki, bunday mashg‘ulotni olib boradigan o‘qituvchi turli masalalarni yechishda tajribaga ega bo‘lishi va muammoni yechishda divergent yondashishni amalga oshirishga ruhiy jihatdan ichki tayyor bo‘lishi lozimligi haqida fikr mulohazalar keltirilganmiz.

Kalit so‘zlar: divergent, intellektual, kontseptsiya, identifikatsiya, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, assotsiatsiya, motiv, faoliyat, konvergentsiya, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik.

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Адизова Нигора Бахтиёровна,
Профессор Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В нашем исследовании методика формирования дивергентного мышления студентов – учит студентов мыслить самостоятельно, творчески, глубже понимать суть изучаемых вопросов, оказала эффективное воздействие на формирование их мировоззрения. При этом теоретическое мышление основано на строго логическом дедуктивном мышлении, то есть характеристики конвергентного мышления ближе к конкретно-эмпирическому мышлению. Это в большей степени зависит как от практического опыта человека, так и от его способности к пониманию. То есть наличие способности устанавливать неожиданные связи между какими-то непредсказуемыми понятиями, явлениями, фактами, предметами, которые формально далеки друг от друга – это и есть способность мышления, дивергентного мышления.

Таким образом, метод реализации такого обучения у учащихся заключается в следующем: сначала объяснить, что такое дивергентная задача, затем продемонстрировать такие задачи, показать способы их решения, предложить решить их самостоятельно и помочь учащимся решить их быстро и оперативно в установленные сроки. Это означает, что учитель, проводящий такую деятельность, должен иметь опыт решения различных задач и быть внутренне готовым к реализации дивергентного подхода к решению задачи.

Ключевые слова: дивергентный, интеллектуальный, понятие, идентификация, внимание, восприятие, ассоциативный процесс, мышление, ассоциация, мотив, деятельность, конвергенция, репродуктивное, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое.

CONTENT OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF DIVERGENT THINKING IN STUDENTS

Adizova Nigora Bakhtiyorovna,
Professor of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: In our study, the methodology for developing divergent thinking in students – teaching students to think independently, creatively, to understand more deeply the essence of the issues being studied – had an effective impact on the formation of their worldview. At the same time, theoretical thinking is based on strictly logical deductive thinking, that is, the characteristics of convergent thinking are closer to concrete empirical thinking. This depends to a greater extent on both the practical experience of a person and his ability to understand. That is, the ability to establish unexpected connections between some unpredictable concepts, phenomena, facts, objects that are formally far from each other - this is the ability to think, divergent thinking.

Thus, the method of implementing such training in students is as follows: First, explain what a divergent problem is, then demonstrate such problems, show ways to solve them, suggest solving them independently, and help students solve them quickly and efficiently within the specified time frame. This means that the teacher conducting such activities must have experience in solving various problems and be internally prepared to implement a divergent approach to solving the problem.

Key words: divergent, intellectual, concept, identification, attention, perception, associative process, thinking, association, motive, activity, convergence, reproductive, creative thinking, independent, heuristic.

Dunyoda talabalar tafakkurini rivojlantirish psixologik, pedagogik tadqiqotlarda asosiy o‘rinni egallashi va pedagogik izlanishlarda fundamental yo‘nalishlardan biri ekanligini hayotiy tajribaning o‘zi ko‘rsatmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonida tafakkur turlarini shakllantirish va rivojlantirish, uning mazmuni, tashkil etish jihatlari, nuqson va yutuqlari, strategiyasiga oid atroflicha tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Pedagogikada jamiyat va shaxs, kadrlarni tayyorlash, ularni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish xususidagi qarashlarni teran tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilishi, xususan, bo‘lajak talabalarga ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini nazariy-didaktik, metodik hozirligini takomillashtirish, boshlang‘ich ta’limni izchillik, uzviylik va tizimlilik prinsiplari asosida tashkil etishning me’yoriy-huquqiy poydevori yaratilmoqda.

Talabalarning divergent tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ularni maktab ta’limi jarayonida psixologik qo‘llab quvvatlash zarurati bilan bog‘liq. Zero, mamlakatimizda so‘nggi paytlarda umumiy o‘rta ta’limdagi nazariy fanlarni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Divergent tafakkurni rivojlantirish bolaning umumiy intillektual rivojlanishiga yordam beradi, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarning umumiy intillektual qobiliyatlari rivojlanishi uchun senzitiv bo‘ladi. Istalgan o‘quv predmeti ta’limidadivergent tipdagi topshiriqlar deyilganda ularning bir necha yechimli, aniqroq qilib aytganda, ko‘plab to‘g‘ri javoblari mavjudligi nazarda tutiladi.

Divergent tafakkur – muammoni tadqiq qilish uchun nostandart yondashuv qo‘llaniladigan ijodiy fikrlash shakli. Mavjud javobdan qoniqish yoki javobning to‘liq yetishmasligi o‘rniga, “Agar siz bunday harakat qilsangiz nima bo‘ladi?” mazmunida savol qo‘yish va shu savolning javobini topish uchun yana boshqa yangi turdagi javobni izlashdan iboratdir.

Divergent tafakkur – ko‘p imkoniyatlarni kashf etish orqali ijodiy g‘oyalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan tafakkur jarayonidir. Yaqqol qadamlar tashlash va to‘g‘ri chiziqda harakat qilish o‘rniga, inson vaziyatning turli jihatlarini baholaydi va turli natijalarga erishadi.

Divergent tafakkur – yangi va noan’anaviy yo‘llar, yangi va noan’anaviy imkoniyatlar, yangi va noan’anaviy g‘oyalar va yoki yangi va noan’anaviy yechimlarni qidirish va ko‘rib chiqishga undaydi.

Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda ham tushuntirishning, o‘rgatishning divergent tafakkur usulidan samarali foydalanashimiz kerakligini ko‘rsatib turibdi. Shu vaqtgacha savol va muammoning yechimini topishda, topshiriqlarni bajarishda o‘rganilgan yagona usullardan foydalanilgan. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib o‘qitishda nostandart, yangicha usullardan foydalangan holda o‘qitishimiz kerakligini fanlardagi savollar, muammoli vaziyatlarni turli xildagi javobini topishdan, topshiriqlarni bajarishning bir necha yo‘nalishlarini namunalar misolida ko‘rib chiqamiz.

Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda divergent tafakkurni shakllantirish modelini yaratishga urinishlar ham amalga oshirilgan[96]. Ushbu mualliflarning izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy muammolarini yechishda turli xil og‘zaki javoblarni yaratish uchun psixologik asosga e’tibor qaratildi. Mazkur tizimni yaratilishida inson psixologiyasining asosiy sababchisi bo‘lgan holat – so‘zlar va belgilar hisoblanadi [97,98]. Ta’lim esa faqat belgilar, ma’nolar, tushunchalar so‘zlarining rivojlanishini ta’minlaydigan maxsus, qo‘shimcha omildir. Nutq – idrok va tafakkur tarkibiga kiradi, ularni yangi asoslarda shakllantiradi, natijada aqliy faoliyat rivojlanishning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tariladi. Nutq aqliy faoliyat uchun yangi shart-sharoitlarni yaratadi.

Tafakkurni rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liq asosiy va bosh muammo – boshqa aqliy amallarda bajariladigan vositalar muammosidir. Divergensiyaning shakli va mazmuni masalasini asosiy vazifa sifatida ta’kidlab, bo‘linish jarayonlarining yangi shakllari, amallari va mexanizmlarini aniqlash kerak bo‘ladi. Bunday holda so‘z va belgi aqliy amallarni ajratish uchun vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunda ular vosita va sababchi bo‘lib, xususan abstraksiya, tahlil va sintezlash uchun xizmat qilishi mumkin. Natijada, har bir yangi bosqichda obyekt predmet tomonidan o‘zgartiriladi va u uchun yangi fazilatlar va munosabatlar paydo bo‘ladi. Xuddi shu mavzu, samarali tafakkur aktida u uchun zarur bo‘lgan turli xil tizimlarga kiritiladi, turli xil obyektiv aloqalar, turli xil fazilatlar paydo bo‘ladi va shunga ko‘ra fikr faoliyati darajasini belgilaydi. Mazkur sharoitda, mazmun o‘zgaradi: obyektning xususiyatlari va munosabatlari haqida bilim olish davom etaveradi. Bu divergent tafakkur mexanizmini, muammoli vaziyatni hal qilishda yangi harakat usulini o‘zlashtirish nuqtayi nazaridan aqliy faoliyatni o‘zini o‘zi tartibga solish jarayonini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday holda, talaba oqilona strategiyani izlashi mumkin.

Divergent tafakkur mexanizmlari, uning tuzilishi va darajalarini bilishda uchta yo‘nalish belgilab oligan:

Birinchi yo‘nalish – ta’lim faoliyati kontekstida divergent tafakkurning o‘ziga xos tuzilishini aniqlaydi.

Ikkinchi yo‘nalish – turli darajadagi tafakkurning o‘zaro bog‘liqligini va uning ta’sir mexanizmlarini o‘rganadi.

Uchinchi yo‘nalish samarali tafakkur harakatining bosqichlariga qarab divergent tafakkurning darajasi ochib beriladi.

Umumta’lim maktablarining yuqori va boshlang‘ich sinf talabalarida divergent tafakkurni shakllantirishga yordam beradigan maxsus “Shaxsni rivojlantirish tizimi” taklif qilingan, unda asosiy metodlar tadqiqot turining vazifalari va ijodiy o‘yinlardir.

Vazifa aniq va ravshan bo‘lib, u bolaning faoliyati doirasi va bilish qobiliyati bilan belgilanadi. Vazifaning tuzilishi obyektning xususiyatlarini takrorlashi lozim. Muammoni hal qilish uchun harakat uning elementlarining o‘zaro munosabatlarini ochishni o‘z ichiga oladi. Elementlar va munosabatlar vazifaning tashqi kompetentlik darajasida topiladi.

Ijodiy vazifa – muayyan maqsadlar shartlari bilan to‘qnashuvi shaklidir. Ushbu ziddiyatning munosabatlari uchun obyektiv tilni ishlab chiqish uchun aloqa ravshanligi talab qilinadi.

Muammoning elementlarini bog‘laydigan munosabatlar fazo va vaqt tartibi darajasida ishlashi mumkin. Bog‘lanishlar ushbu yangi elementni yaratadigan darajada taqdim etiladi. Ijodiy vazifalarda bunday generativ bog‘lanishning misoli quyidagilardir: bolaning ongini ikki holattning o‘zaro ta’siriga jalb qilish: dinamik idrok va ichki harakatlar, ba’zi yangi obyektlar haqida g‘oyalarni shakllantirishga olib keladi. Ushbu o‘zaro ta’sirning aksi esa yangi bilimlarni olish imkoniyatini beradi.

Agar berilgan savol bolaning bilimini soddalashtirishni talab qilsa, vazifa muammoli bo‘lmaydi – “savol-javob” holatidir. Muammoni hal qilish zarurati uning amaldagi usullari bilan birlashtirilishi kerak. Muammoni hal qilish harakati uning elementlarini o‘zaro bog‘liqligini ochishni namoyon etadi. Elementlar va bog‘lanishlar kabi voqelik vazifaning tashqi kompetentlik darajasida mavjud.

Bog‘lanishning yanada mazmunli tushunchasi uchun elementar tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo‘ladi. Umumiy ilmiy rejada ma’lum bo‘lgan vazifa elementi tushunchasi ajralib chiqadigan tafakkur uchun qo‘llaniladigan aniq tarkib bilan to‘ldirilishi kerak. Shu maqsadda har qanday qarorlar jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqilishi lozim. Ular: vazifa sifatida maqsad nuqtayi nazaridan namoyon bo‘ladigan tashqi muhit, tushunchalar, ifodalar, aqliy faoliyatning natijalari bo‘lib, keyinchalik, ijodiy vazifa elementlari va divergent tafakkurning sifat xususiyatlari darajasini ta’kidlash uchun “muammoning mumkin bo‘lgan elementlari” tushunchasi kiritiladi. “Muammoning mumkin bo‘lgan elementlari” tushunchasi nafaqat ma’lum bir xususiy vazifaga tegishli elementlarni, balki unga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab elementlarni ham ko‘rsatadi. O‘quv tajribasidan olingan ma’lumotlar, aqliy faoliyat natijalari turli xil elementlarni birlashtiradi, ularni vazifaga, munosabatlarni kashf qilish jarayonida o‘z ichiga oladi. Demak, ijodiy vazifa shakllantirish elementlarini o‘zida namoyon etadi.

Ijodiy vazifaning to‘rt elementi aniqlangan:

Birinchi element analitika bo‘lib, u tahlilni taqdim etadi. Jumladan, ma’lumotlarning yaxlit tuzilishining aqliy bo‘linishidir.

Ikkinchi element sintezga asoslanib, u turli elementlarning integral tizimga aqliy birlashishini namoyon etadi.

Uchinchi element – abstraksiya. Ushbu elementda abstraksiya va umumlashtirish amalga oshiriladi, ularning yordamida umumiy, eng muhim belgilar aniqlanadi va tasodifiy belgilar rad etilishi mumkin.

To‘rtinchi element – mustahkamlash. Unda aniqlashtirish, individual o‘ziga xoslikka qaytish, tahlil qilingan holat mavjud bo‘ladi.

Ta’kidlash kerakki, har bir munosabat umumiy tarzda tavsiflanadi, amalda u o‘ziga xos va umumiy ko‘rinishlarda muhim o‘rin tutadi. Vazifalarning tubdan yangi turi - o‘quv vazifasi va talabalarning yangi materialni taqdim etish uslubi o‘rtasidagi obyektiv munosabatlarni o‘rganishga imkon beradi. Ushbu turdagi vazifalar yaxlit analitik va sintetik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan turli xil tahlil va sintezga asoslangan. Tarmoqlanish faoliyatida yetakchi jarayonlar tahlil va sintezdir, bu assimilyatsiyaning quyi bosqichlaridan tahlil va sintezning yuqori qonuniyatlariga o‘tish mohiyatini kengaytirishga yordam beradi. Tahlilning har xil turlari – ko‘p tomonlama, bir tomonlama, tizimli kabi turlari ajralib turadi. Divergent tafakkurni rivojlantirish dasturini tuzishda ushbu har xil tahlil darajalarini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Talabalarida divergent tafakkurni rivojlantirishning modelini yasash orqali tadqiqotimiz davomidagi barcha jarayonlarni bajarilish ketma-ketligini ko‘rsata olishimiz mumkin bo‘ladi. Xususan, model tushunchasi, uning maqsad va vazifalari, hususiyatlari haqidagi quyidagi tushunchalarni keltirib o‘tamiz.

Model, asosan, namoyish uchun taqdim etiladigan yoki amalga oshiriladigan tadqiqot obyekti belgilarini o‘zida aks ettiruvchi tizim yoki kompleks tushunchani anglatib, u bizga obyekt o‘rnini qisman to‘ldirib, aniqroq ma’lumot olishga yordam beradi. Keng ma’noda model – bu biror bir

obyekt, jarayon yoki hodisaning tasviri yoki analogi (xayoliy yoki shartli: tasvir, tavsif, sxema, chizma, grafik, reja, xarita va shu kabilar) bo‘lib, “asl” obyektning o‘rnini bosish uchun ishlatiladi. Ushbu model obyektning (jarayon, hodisa yoki vaziyatning) asosiy tarkibiy qismlarini va ularning o‘zaro bog‘liqligini sxematik shaklda aks ettiradi.

Modellashtirish usuli yordamida empirik va nazariy nuqtayi nazarlarni birlashtirish orqali pedagogik obyektni o‘rganish jarayonida eksperiment, mantiqiy tuzilmalar va ilmiy abstraktlarni yaratish jarayonlarini tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni modellashtirishda tizimli modellashtirish usulidan foydalaniladi. Har qanday modellashtirishda inson omilini inobatga olinishi shart.

Mazmunli xarakterdagi modelni yaratish tadqiqot obyekti bo‘lgan hodisa yoki jarayonning harakati, ichki aloqadorlik qonuniyatlarini aks ettiradi va o‘rganish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida foydalaniladigan modellar turlari xilma-xil bo‘lib, ulardan maqsadga ko‘ra foydalaniladi.

Talabalarining divergent tafakkurini tizimli rivojlantirish uchun darsliklardan tashqari, talabalar yoshiga mos turli xil qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan maxsus vazifalar tizimidan foydalanishni amalga oshirish ham lozim bo‘ladi.

Talabalar divergent tafakkurini rivojlantirish uchun belgilangan topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda boshlang‘ich sinf talabalarining tafakkurlariga mos keladigan tafakkur turini loyihalashtirish konsepsiyasiga tayaniladi. Shu nuqtayinazardanyaqqol ko‘rinibturibdiki,divergen ttafakkur orqali hal etiladigan muammolar talabalarni intellektual rivojlantirishning asosiy shakli bo‘la oladi. Talabalar divergent tafakkurini o‘stirishga qaratilgan boshlang‘ich ta’lim jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Birinchi vazifa – maktab darsliklarida amaliy jarayonlar, amaliy materiallar uning asosiy mazmunini tashkil etishi lozim bo‘lgan o‘quv vazifalaridir. Ularni hal qilish uchun mavjud bo‘lgan bilimlarni rivojlantirish kerak.

Ikkinchi vazifa – muammoning sharti aniq belgilangan, maqsadi aniqlangan, nafaqat yechim noma’lum, balki nazariyaning ushbu bo‘limi hammazkur yechimga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan tadqiqotchilik vazifalari.

Uchinchi vazifa – aniq belgilangan maqsadga erishish uchun zarur shart-sharoitlar, usul va vositalar majmuyini mustaqil ravishda belgilashga qaratilgan vazifalar.

Mazkur vazifalardan ikkinchi va uchinchi vazifalar divergent tafakkurni rivojlantirish bilan bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi endi nafaqat kuchli va chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak, balki an’anaviy bo‘lmagan, mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishni o‘rgata oladigan, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal qilish usullarini biladigan, ya’ni turli xil fikrlashga ega bo‘lishi kerak.

Ko‘pincha, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, chiziqli (konvergent) tafakkur tufayli, har qanday muammolarni to‘g‘ri hal qilish, maktab talabalarining tafakkurlarini rivojlantirish uchun ular bilan birgalikda yagona yechimni topish usulidan foydalanishga o‘rganishgan. Bunday tafakkur turini aniq fikr yuritishni nazarda tutish bilan izohlash mumkin. Fikrlashning bir xilligi vaziyatni to‘g‘ri idrok etishga, boshqa odamlar fikrlarini qabul qilishga to‘sqinlik qiladi va shaxsiy muloqotni qiyinlashtiradi. Konvergent tafakkurdan farqli o‘laroq, bir-biridan farqli fikrlash – bu bir xil savolga ko‘plab javoblarni o‘z ichiga olgan turli xil fikrlash hisoblanadi. Bunday tafakkur turi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan divergent tafakkur deb fanga kiritilgan.

Uzoq yillar davomida divergent tafakkurni shakllantirish muammosi psixologik va pedagogik adabiyotlarda bir necha bor takrorlandi. Mutaxassislar aqliy psixologik tadqiqotlar o‘tkazishib, turli xil fikrlash va uning rivojlanish omillarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanishdi.

Divergent tafakkurni ijodiy odamlar egallagan maxsus fikrlash deb atash mumkin. Divergent tafakkur ijodkorlikda va turli qobiliyatlarda namoyon bo‘ladi. Yangi nostandart fikr yaratish, ijod qilish-har qanday ijodning asosi hisoblanadi. Divergent tafakkur insonning barcha ijodiy

imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan muammoni noaniq, ammo to‘g‘ri hal qilishni nazarda tutadigan fikrlash turidir.

Ba’zi o‘qituvchilar talabaning ijodkorligi nima ekanligini juda kam tasavvur qiladilar. Ular, asosan, o‘zlarining va boshqalarning tajribasini ko‘paytirishga, professional vazifalarni aniq bajarishga qaratilgan usullarni qo‘llab tushunchalarni yetkazadilar. Zamonaviy dunyo ta’limi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlari mustaqil ravishda ijod qila olishi, mualliflik dasturlari asosida yangi-yangi o‘qitish usullari va metodlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi.

Divergent tafakkur uchun va shu fikrlash usulidan foydalanib yuqori sifat samaradorligiga erishishi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagi hususiyatlarni o‘zida mujassam qilishi kerak:

–faoliyatini o‘z ko‘z o‘ngida yoki ongida aks ettira olish va faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni to‘g‘rilashni amalga oshirish;

–pedagogik faoliyatda turli hodisalarni tanqidiy baholay olish;

–muammolarning yechimidagi noaniqlik holatida o‘z yo‘nalishini va boshqacha yechimlarni belgilay olish;

–muammoli tabiatning bilim va ko‘nikmalarini yangi holatga mustaqil ravishda o‘tkaza olish;

–standart vaziyatda yangi o‘quv muammolarini ko‘rish va kirita olish;

–muammoni hal qilishda muqobil variantlarni yaratib, ulardagi yechimni ko‘rib chiqa olish;

–muammolarni hal qilishda usullarni birlashtirish va o‘zgartira olish;

–yangi metodlar va texnalogiyalarni ishlab chiqish.

Natijada, turli fikrlash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ta’lim jarayonining mazmuni juda ham tushunarli qilib ochib berishga va darslarni shaklini, mazmuniga ko‘ra turini hamda, tarmoqlarini tanlashda yordam beradi.

Shunday qilib, rivojlangan divergent tafakkur bilan talabalar bir nechta to‘g‘ri yechimni topishga harakat qilishadi. Aynan bir xil vazifalarni bajarishni bir necha usullari borligini, bitta muammoni ko‘p javoblari mavjudligini ko‘rishlari mumkin bo‘ladi. Buning natijasida, ular juda ko‘p nostandart g‘oyalar, ijodiy fikrlashlar bilan chiqishlari mumkin. Vaziyatni tahlil qilgandan so‘ng, ular yuzaga kelgan muammo uchun eng samarali yechimlarni qabul qilishadi.

Divergent tafakkurni ta’lim jarayonida qo‘llash, shakllantirish-muvaffaqiyatli professional faoliyat olib borishning asosiy shartlaridan biridir.

Umuman aytganda, zamonaviy ta’lim berishda o‘qituvchining asosiy vazifasi talabaga tayyor bilim berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallashlariga ko‘maklashishdan iborat. Buning uchun talabalarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishlari va butun kuch-g‘ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta’lim-tarbiya jarayonini tashkillashtirish kerak.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ta’limda o‘qituvchi mustaqil ijod qilishga, o‘qitishning yangi va samarali usullarini topishga, talabalarni o‘z ustida ishlashga va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishlarini shakllantira olishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining kasbiy pedagogik faoliyatini loyihalashtirish, nostandart darslar va sinfdan tashqari ishlarni olib borish, pedagogik faoliyatini tahlil qilish uchun har xil fikrlashdan samarali foydalanishlari kerak hisoblanadi.

Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari, birinchi navbatda, xilma-xil vazifa nima ekanligini tushuntirish, so‘ngra bunday vazifalarni namoyish etish, ularni qanday yechish kerakligini ko‘rsatish, ularni mustaqil ravishda hal qilishni taklif etish va talabalarga o‘z vaqtida tezkorlik bilan yechishda yordam berishdan iboratdir. Demak, divergent topshiriqlar ustida ish olib boradigan o‘qituvchi turli masalalarni yechishda tajribaga ega bo‘lishi va muammoni yechishda divergent yondashishni amalga oshirishga ruhiy jihatdan ichki tayyor bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf talabalarining divergent tafakkurini shakllantirish metodikasi - talabalarni

mustaqil, kreativ fikrlash, o‘rganilayotgan masalalar mohiyatini chuqurroq anglashga o‘rgatadi, ularning dunyoqarashini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, nazariy tafakkur qat’iy mantiqiy deduktiv tafakkurga asoslangan bo‘lib, ya’ni konvergent tafakkurga, divergent tafakkurning xususiyatlari aniq empirik tafakkurga yaqinroqdir. Bu ham insonning amaliy tajribasiga, ham tushuncha qobiliyatiga ko‘proq bog‘liqdir. Ya’ni, ba’zi bir oldindan aytib bo‘lmaydigan tushunchalar, bir-biridan rasmiy ravishda uzoq bo‘lgan hodisalar, dalillar, obyektlar o‘rtasida kutilmagan aloqalarni o‘rnata olish qobiliyatining mavjudligi – aynan shu tafakkur qobiliyatini, divergent tafakkurni namoyon etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining kasbiy pedagogik faoliyatini loyihalashtirish, darslar va sinfdan tashqari ishlarni olib borish, pedagogik faoliyatini tahlil qilish uchun divergent tafakkurga muhtoj hisoblanadi. Binobarin, divergent tafakkur o‘qituvchilarga ta’lim jarayonining mazmuni ochishda va tashkillashtirishni tanlashda yordam beradi.

Mashg‘ulotlarning yanada samarali, esda qolarli, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlash, boshlang‘ich ta’lim fanlarining go‘zalligini, jozibasini, fikrlarning izchilligi va nafisligini ko‘rsatib, talabani shu olamga kirita olish, o‘qituvchining mahorati, bilimi va kompitensiyaviy yondashishiga bog‘liq.

Divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik usullarini hisobga olgan holda, divergent tafakkurni rivojlantirishning eng muhim usuli - munozarani tashkil etish, bolaning tarbiyaviy vaziyatini yaratish deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, talabalarda bunday o‘rganishni amalga oshirish usuli quyidagilardan: birinchi navbatda, xilma-xil vazifa nima ekanligini tushuntirish, so‘ngra bunday vazifalarni namoyish etish, ularni qanday yechish kerakligini ko‘rsatish, ularni mustaqil ravishda hal qilishni taklif etish va talabalarga o‘z vaqtida tezkorlik bilan yechishda yordam berishdan iboratdir. Bu shuni anglatadiki, bunday mashg‘ulotni olib boradigan o‘qituvchi turli masalalarni yechishda tajribaga ega bo‘lishi va muammoni yechishda divergent yondashishni amalga oshirishga ruhiy jihatdan ichki tayyor bo‘lishi lozim.

Foylanilgan adabiyotlaR

1.Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari:Ped. fanl. dokt. diss. –T., 2003. – 280 b.

2.Adizov B.R. Ijodiy ta’lim jarayoniga tizimli yondashuv // J. Xalq ta’limi. –2001. – 4-son. –102-104-b.

3.Bobomurodova A.Y. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish: Ped. fanl. nomz. diss. –T., 1996. –145 b.

4.Yo‘ldoshev J.G‘. Xorijda ta’lim. –T.: Sharq, 1995. – 92 b.

5.Курбонов Ш.Э. Национальная модел и программа по подготовке кадров-достижение и результат независимости Узбекистана.–Т., 2001.–341 с.

6.Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. – Москва: Просвещение, 1977. – 240 с.

7.Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. diss. avtoref... – T., 2007. – 45 b.

8.Roziqov O. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish // Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy aktivligini rivojlantirish. –T.: O‘qituvchi, 1966. – 23-41 b.

9.Safarova R. va b. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini tanlash va tizimlashtirish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. –362 b.

10.Safarova R. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – T.: Fan, 1995. – 110 b.

11.Hamroyev A.R. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish: Ped.fanl.nomz. disser.– Toshkent, 2005. –151 b.

TALABALARDA KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENTLIKNI MUAMMOLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ONA TILI O‘QITISHNING IJTIMOIY, PEDAGOGIK TAHLILI

Adizova Nodira Baxtiyorovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti. Buxoro davlat pedagogika instituti
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-0469-1705

Annotatsiya: Maqolada Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida ona tili o‘qitishning ijtimoiy, pedagogik tahlili haqida gap boradi. Muammoli ta’limning maqsadi, turli o‘quv fanlari bo‘yicha dars o‘tish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullari, muammoli vaziyatni hal etish darajalari, muammoli darslarni tashkil etishdagi asosiy fikr beruvchi suhbat bosqichlari, muammoli ta’limni tashkil etish va boshqarish bosqichlari, muammoli ta’lim texnologiyasining talabalarga predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatishga xos fikrlar, ularda muammoni yechishning ba’zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishga mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish masalalariga bag‘ishlangan. Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratilgan muammoli mahsulotlar va ularni yechishga tayyorlash o‘quvchilarning faol mustaqil ishlashi tushuniladi. Buning ustidagi o‘quvchilariy bilimlarga, ko‘ narsaga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash mehnatlari rivojlanadi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, innovatsion jarayonlar, kognitiv, progmatik, zamonaviy yondashuvlar, muammoli ta’lim texnologiyalari.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБУЧЕНИЯ КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Адизова Нодира Бахтиоровна,
доктор философских наук по филологическим наукам, доцент кафедры начального образования. Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: В статье сообщается о проблемных образовательных технологиях и уникальных устройствах. Целью проблемного обучения является создание проблемных ситуаций в процессе обучения различным предметам и способов их решения, уровней решения проблем, этапов беседы, дающих основную идею в организации проблемных уроков, организация этапов проблемного обучения и управления, идеи технологии проблемного обучения, позволяющие научить учащихся правильно находить решения различных проблемных вопросов или ситуаций, вытекающих из темы предмета, внедряя в них некоторые способы решения проблем, и Правильные методы решения задач Ри посвящена вопросам обучения выбору. Сегодня проблемное обучение означает активную самостоятельную работу учащихся над созданными педагогом проблемными продуктами и подготовку к их решению. Кроме того, учащиеся приобретают знания, навыки и навыки мышления.

Ключевые слова: непрерывное образование, инновационные процессы, когнитивные, прагматические, современные подходы, проблемные образовательные технологии.

SOCIAL AND PEDAGOGICAL ANALYSIS OF TEACHING STUDENTS’ COGNITIVE-PRAGMATIC COMPETENCE IN THE MOTHER TONGUE BASED ON PROBLEM-BASED TECHNOLOGIES

Adizova Nodira Bakhtiorovna
doctor of philosophy in philological sciences, associate professor of the department of elementary education. Bukhara state pedagogical institute

Abstract: The article reports on problematic educational technologies and unique devices. The purpose of problem-based education is to create problem situations in the course of teaching different subjects and methods of solving them, the levels of problem-solving, the stages of conversation that give the main idea in the organization of problem-based lessons, the organization of problem-based education and management stages, the ideas of problem-based learning technology to teach students to correctly find solutions to various problematic issues or situations arising from the topic of the subject, introducing some methods of problem solving in them, and correct problem-solving methods ri is devoted to the issues of teaching to choose. Today, problem-based teaching means active independent work of students on problem products created by the pedagogue and preparation for their solution. On top of that, students acquire knowledge, skills, and thinking skills.

Key words: continuous education, innovative processes, cognitive, pragmatic, modern approaches, problem-based educational technologies

Kirish. Tilshunoslikda neolingvistika sohasining shakllanishi til sohibi – so‘zlovchining shaxs omilini tadqiq etish bilan bog’liqdir. Tilshunoslikda Kognitiv-pragmatik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chdi. Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning sohibi bo‘lgan shaxs omili nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini Kognitiv-pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Bunda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratildi. Ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan uzviy bog’liq.

Tadqiqotimiz davomida bir nechta yondashuvlarning farqlovchi jihatlarini kuzatdik va tahlil qildik. (1.1-jadvalga qarang)

	Farqlovchi ko‘rsatkichlar
Integrativ yondashuv	Fanlararo bog’lanishni nazarda tutuvchi yondashuv hisoblanadi.
Aksiologik yondashuv	Inson hayotini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasiga asoslangan yondashuv
Kompetentli yondashuv	Kasbiy pedagogik ijodkorlikni rivojlantiruvchi yondashuv
Animatsion yondashuv	Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan animatsiyalar asosidagi yondashuv
Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv	Tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimini o‘z ichiga olgan yondashuv
Sinergetik yondashuv	Pedagogga tarbiya jarayonini nochiziqli harakat sifatida tushunib, tarbiya tizimlari ochiqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodiflarni tan olish shartini qo‘yadigan yondashuv
Germenevtik yondashuv	Ta’lim oluvchining kechinmalari, uning xotiralari, orzu-istaklari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil etiluvchi yondashuv
Psixoterapevtik yondashuv	Art-terapiya va uning turlari, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan shakliga asoslangan yondashuv
Akmeologik yondashuv	Shaxsni shakllantirish, bu ilmiy tartib bilan ilmiy o‘zlashtirishga asoslangan yondashuv
Kognitiv-pragmatik yondashuv	Ta’limni inson omili bilan bog’lab o‘rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o‘z-o‘zini namoyon etishga asoslangan yondashuv

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan o‘qitishdagi turli yondashuvlar bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, tadqiqotchi M.Rajabova, X.Yulbarsova integrativ yondashuvga oid, G.Ibragimova kreativ yondashuvga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan bo‘lsa; o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishga qadriyatli yondashuv xususida D.Qosimova, kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari borasida O.Qo‘ysinov, til ta’limida matn tahlili orqali o‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik yondashuvga oid Y.Umarova, kommunikativ yondashuv haqida U.Mingboyev tadqiqotlari fikrimiz dalilidir. Analitik yondashuv masalasida Sh.Xasanov, innovatsion yondashuvga oid J.Qurbonov, aksiologik yondashuvga oid J.Yuldashev, animatsion yondashuv xususida S.Sulaymonovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O‘qitishdagi turli yondashuvlarni o‘rganishimiz shuni ko‘rsatadiki, davr tomonidan qo‘yilayotgan yangi talablar bugungi kunda jahonning qator til ilmi ta’limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, Kognitiv-pragmatik tilshunoslik yo‘nalishlari bilan tanishtirish asnosida tilshunoslikda qo‘lga kiritilgan eng so‘nggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bog’lab o‘rganadigan kognitiv-pragmatik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari borasida oliygohlarda ona tili ta’limidan saboq beruvchi professor-o‘qituvchilar va talabalarga

uning tamoyili, mohiyati, afzalliklari haqida ma’lumot berish ehtiyojini tug’dirdi.

Kognitiv-pragmatik yondashuv jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish, shakllantirish, rivojlantirishda interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, AKT imkoniyatlaridan to‘g’ri va to‘liq foydalanishga harakat qildik. Mustaqil ta’limni o‘zlashtirish natijasida talabalarda shakllanadigan kompetensiyalar va rejalashtiriladigan o‘qitish natijalarining ro‘yxatini quyidagi tarzda tuzdik (1.2-jadvalga qarang).

T/r	Kompetensiyalar	Rejalashtiriladigan o‘qitish natijalari
1.	Olingan nazariy bilimlar asosida til ta’limidagi metodlarni tanqidiy baholay olish	Bilishi va bajara olishi kerak: olingan nazariy bilimlar asosida til ta’limidagi metodlarni tanqidiy baholay oladi. Qo‘llay olishi kerak: olingan nazariy bilimlarni til ta’limida qo‘llaydi.
2.	Til o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va samaradorligini belgilovchi omillarni tahlil qila olish	Bajara olishi kerak: til o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asosla- ri va samaradorligini belgilovchi omillarni tahlil qila oladi.
3	Til ta’limini samarali tashkil etish malakasiga ega bo‘lish.	Bajara olishi kerak: til ta’limini samarali tashkil etish malakasiga ega bo‘ladi.

Tarixdan ma’lumki, har bir inson qalbida o‘z yurtiga sadoqat, fidoyi bo‘lish tuyg’usi insonparvarlik va vatanparvarlikning oliy nishonasi hisoblanadi. Zero, inson uchun eng aziz va muqaddas bo‘lgan Vatanni himoya etish, odamlarni sevish va e’zozlash har bir insondan buyuk ma’naviy jasoratni talab etadi.

Jahon geosiyosiy maydonidagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining tobora avj olishi dunyo jamoatchiligidan tinchlik va barqarorlikni saqlashda muntazam ogoh, sezgir hamda hushyor bo‘lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

Insoniyat bugun mutlaqo o‘zgacha muhit, yangicha talab va ilgarilari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar kuchaygan bir sharoitda yashashiga to‘g’ri kelmoqda. Dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mana shunday bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni saqlash, yoshlarimiz tarbiyasiga e’tibor qaratish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Mamlakatimizda “Jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g’oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ’ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi,”– deya ta’kidlagani bejiz emas, albatta. Inson ma’naviyatiga qarshi qaratilgan jaholat g’aflatga, loqaydlik esa beparvolikka giriftor etadi. Binobarin, davlatimiz rahbari tomonidan mana shunday masalalarga alohida e’tibor qaratilar ekan, bugungi kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan jamiyatimizda sog’lom muhitni mustahkamlash, ma’naviyat va ma’rifatga e’tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi tobora oydinlashmoqda [2].

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining «Ma’rifat va diniy bag’rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilar ekan: “Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam deb bilamiz” deya alohida ta’kidlagan edi.

Dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo‘layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy

axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg’unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g’oya va mafkuralarni targ’ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlarning ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada, odamzotning o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendentsiyaga aylanib bormoqda[1].

Ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois inson ma’naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash hamda jahon ilm-fani yutuqlari va umumbashariy taraqqiyot tajribalari asosida yovuz va buzg’unchi g’oyalarga qarshi ma’rifat bilan kurashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston milliy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ydi. Buni barcha sohalardagi tub o‘zgarishlar qatori ma’naviyat, ma’rifatga bo‘lgan munosabatlarda ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda jaholatga qarshi kurashda ma’rifat bilan kurashish borasida ulkan ishlar qilinayotganligi diqqatga sazovordir. Bu borada, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom tsivilizatsiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatlarining yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizda muqaddas Islom dini qadriyatlari va an’analarini yanada rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Inson ma’naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish hamda jahon ilm-fani yutuqlari, umumbashariy taraqqiyot tajribalari asosida yovuz, buzg’unchi g’oyalarga qarshi ma’rifat bilan kurashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim samaradorligini oshiruvchi usullar mavjud ekan, zamonaviy texnologiyalar ham o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsata beradi. Buning uchun, eng avvalo, ijodiy-izlanuvchi o‘qituvchi shaxsi ahamiyatlidir. O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari uchun o‘quvchilarga imkon berishi, xulosa-hukmlar chiqarishga, o‘z g’oyalarini berishga o‘rgatishi maqsadga muvofiqdir[3].

Biz tadqiqotimiz davomida xorijiy davlatlardagi ta’lim hamda fan sohalarining rivojlanishi, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg’or tajribalarni o‘rgandik. Xususan, dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o‘qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash), TALIS (Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitini o‘rganish) kabi bir qator xalqaro dasturlar yaratilgan. Ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini aniqlovchi va yanada oshiruvchi mezon sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda.

AQSHda ta’lim sifatini oshirishga o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma, malakasini oshirish orqali erishishga hamda ularning professional kompetentliligini baholashga diqqat qaratilgan. Bunda 1987 yili tashkil etilgan ikki yetakchi tashkilot Pedagoglarning professional standartlari bo‘yicha Milliy kengash (National Board for Professional Teaching Standarts – (NBPTS) va Yosh (boshlovchi) o‘qituvchilarni baholash va qo‘llab-quvvatlash hududlararo konsorsiumi (Interstate New Teacher Assissment and Support and Support Consortuim – (INTASS) alohida o‘rin egallaydi. Ular birgalikda pedagoglarning milliy standartlarini hamda ularning ana shu qo‘yilgan talablarga muvofiqligini baholash tizimini ishlab chiqishdi. AQSHda ikki: O‘qituvchilar Akkreditatsiyasi bo‘yicha Milliy Kengash (National Counsil for Assreditation of Teacher Education (NCATE) hamda O‘qituvchi ma’lumoti bo‘yicha Akkreditatsiyasi Kengashi (Teacher Education Accreditation Counsil (TEAC) standartlari yaratildi. Bu standartlar asosida ular tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan tashkilotlar o‘qituvchilarning kompetentlik darajasini aniqlaydilar, malakalarini oshirishga yordam beradilar hamda ularning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi darajasi o‘quvchi-talabalarni

o‘qitishga yetarli ekanini jamiyat oldida kafolatlaydi.

Respublikamizda ham global miqyosdagi o‘zgarishlar hamda barcha masalalar ko‘p jihatdan kadrlarga borib taqalishini hisobga olib, rivojlangan mamlakatlar va o‘z tajribamizdan kelib chiqib, ta’lim tizimining sifatini oshirishda o‘qituvchilar, ularning bilim va mahorati asosiy rol o‘ynashini nazarda tutib, ularning zamon talablariga javob berishi va uning darajasini aniqlash zarurligi, buning uchun muvofiq ravishda uning mezonlarini ishlab chiqishga diqqat-e’tibor qaratdik. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura to‘g’risida”gi nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g’risida”gi farmoni va boshqa me’yoriy hujjatlar aynan ana shu maqsad-vazifalarni amalga oshirishga qaratildi.

Odatda, an’anaviy til ta’limidagi o‘quv jarayonida umumlashtirilgan o‘quv maqsadlari belgilanadi. Masalan: fonetika o‘qitish metodikasi, grammatika o‘qitish metodikasi kabi. Ko‘rinib turibdiki, bunday qo‘yilgan maqsad o‘rganuvchidan ajralgan holda. Natijada mavzu doirasida tushunchalar turli darajada hosil qilinishi mumkin. Bunday maqsadni tekshirish va baholash ham muammoli. AQSH da va Angliyada o‘qituvchi va talabalar uchun alohida aniqlashtirilgan maqsad tuzish qabul qilingan. Bizda ham har bir qo‘yilgan maqsadga erishganlik darajasi me’yorlarini ishlab chiqish zarur. Bunda har bir qo‘yilgan maqsad alohida o‘z mazmuniga xos ravishda tekshiriladi va natijalar tahlil qilinib, xulosalar chiqariladi. Buning uchun ta’limda aniqlashtirilgan maqsadlarni ishlab chiqish zarur. Umumiy maqsadlarni esa tekshirish qiyin va bunda har bir o‘qituvchi o‘z tushunchasidan kelib chiqqan holda tekshirish ishlarini tashkil etadi. “Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning sohibi bo‘lgan shaxs omili nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.”

Bugungi o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo‘llari, o‘quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o‘qishga, o‘rganishga yo‘naltirish, o‘quvchi shaxsi faoliyatini to‘g’ri tashkil etish, muloqotga kirishish, kelishmovchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish, o‘rganuvchining faoliyatini aniq va to‘g’ri baholash metodlari bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

Bugun ma’lumotlari o‘zbek tilida taqdim qilinadigan veb-saytlar soni juda ko‘p bo‘lmasada, ular avvalgidan ko‘ra sezilarli darajada ortib bormoqda. Lekin ko‘p hollarda ularda taqdim qilinayotgan ma’lumotlardagi uslubiy g’aliz jumlalarning mavjudligi, o‘ta e’tiborsizlik bilan yozilayotganligi, imlo va grammatik xatolarning juda ham ko‘p uchrashi foydalanuvchilar uchun noqulaylik tug’dirishi bilan birga tilga bo‘lgan bunday munosabatning odatiy holga aylanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Hatto, boshqalarga o‘rnak bo‘lishi kerak bo‘lgan ko‘pgina ta’limga taalluqli tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida bu muammolarni ko‘rish mumkin[5].

XXI asrga kelib, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umumbashariy ziddiyatlarning yuzaga kelishi ma’naviy-axloqiy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda inqirozlarga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, bugungi kunda olimlarning axloqiy tizgini bilan jilovlab olinmagan tafakkuri insoniyat boshiga yana qanday savdolar solishi hali noma’lum bo‘lgan yangi ixtiro va texnologiyalarni yaratish harakatlari davom etmoqda. Jumladan, fan va texnikaning eng yangi sohalari bo‘lgan nanotexnologiyalar, mashina intellekti, genetik tibbiyot kabilar endilikda ko‘plab fan arboblarini ham jiddiy xavotirga solmoqda. Insoniyatga yaxshi tanish bo‘lib qolgan yadroviy xavf yoniga endilikda nanotizimlar va mashina intellekti kabi sohalarda jadal rivojlana boshlagan texnologiyalarning misli ko‘rilmagan imkoniyatlari, biologik hujumlarning xatarlari kelib qo‘shilmoqda.

Mustaqillik yillarida zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta’limda o‘qitish sifati va samaradorligini bo‘lajak kadrlarning kasbiy, ma’naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi qat’iy xulosaga kelindi.

Xulosa. Insoniyat mutlaqo o‘zgacha muhit, yangicha talab va ilgarilari kuzatilmagan xavf-

xatar hamda tahdidlar kuchaygan bir sharoitda yashashiga to‘g’ri kelmoqda. Dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, til siyosatiga va lisoniy vaziyatlarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish maqsadida boshqa xalqlar tillari bilan aloqalarni tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy faoliyatga yanada keng yo‘l ochib berishni, uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida olib boriladigan ona tilimizning mavqeyini ko‘taradigan madaniy-ma’rifiy tadbirlarni ommalashtirishni; til birliklarini inson omili bilan bog’liq holda tahlil qilishni, ona tili ta’limini Kognitiv-pragmatik yondashuv texnologiyalari asosida o‘qitishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: 2017- yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining ―Ta’lim to‘g‘risida‖gi Qonuni ―Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori‖kitobida –T.:Sharq, 1997. − B.20-29.

3. Azizxo‘jayeva N.N. ―O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi‖ – T.: TDPU, 2000. – 52b.

4.Golish L.V., Fayzullaeva D.M. ―Pedagogik texnologiyalarning loyhalashtirish va rejalashtirish‖ – T.: TDIU, 2010. – 149b.

5.Yo‘ldashev J.G‘., Usmonov S.A. ―Pedagogik texnologiya asoslari‖– T.: O‘qituvchi, 2004. – 101b.

5.Adizov Bakhtiyor Rakhmonovich, Adizova Nodira Bakhtiyorovna Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District Middle european scientific bulletin 2021/3/12

6. Nodira Bakhtiyorovna Adizova Linguistic-etymological classification of the bukhara district Scientific Bulletin of Namangan State University 2020 291-296c

7. Adizova N. B. The Role Of Ethnotoponyms In The Bukhara District Microtopony //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 131-134.

8. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. «The role of ethnotoponym in the toponym of bukhara district.» Theoretical & Applied Science 1 (2020): 414-416.

9.Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. «Linguistic-etymological classification of the bukhara district.» Scientific Bulletin of Namangan State University 2.3 (2020): 291-296.

10. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. «The basis of researching the microtoponymy of Bukhara region.» Scientific reports of Bukhara State University 1.5 (2018): 92-95.

11. Adizova, Nodira. «Nominal description of the bukhara.» Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.

12. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. «Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari.» Conferences. 2021.

13. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. «The role of the fun genre in children’s spiritual development.» Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.

DERMATOVENEROLOGIYA FANIDA MCC (MEDSCAPE CASE CHALLANGES) MODELI ORQALI TALABALARNI ANALITIK -DIAGNOSTIK JARAYONLARGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Batirov Kamoliddin Zuhriddinovich
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Maqolada dermatovenerologiya fanini o‘qitishda MCC (Medscape Case Challenges) modeli orqali talabalarni analitik-diagnostik jarayonlarga tayyorlash tizimini takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: dermatovenerologiya, MCC (Medscape Case Challenges), analitik-diagnostik kompetensiya, klinik tafakkur, interaktiv ta’lim, tibbiy ta’lim texnologiyalari.

Abstract: The article analyzes the specific aspects of improving the system of preparing students for analytical-diagnostic processes in teaching dermatovenerology through the MCC (Medscape Case Challenges) model.

Keywords: dermatovenerology, MCC (Medscape Case Challenges), analytical-diagnostic competence, clinical reasoning, interactive learning, medical education technologies.

Bugungi kunda tibbiyot oliygohlarida dermatovenerologiya fanini talabalarga samarali o‘qitish uchun texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o‘qitish, yagona axborot muhiti va shunga o‘xshash axborot-kommunikasion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o‘zining samarasini berishi bilan birgalikda talabalar ni ijodiy fikrlashga, ularni muammoni tahlil qilish va shu asosida xulosa qilishga o‘rgatadigan texnologiyalarni qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda didaktik ta’lim texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va ularni dermatovenerologiya fanini o‘qitish jarayonlariga tadbiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Talabalarga bilim berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko‘ra fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi . Didaktik ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonida talabalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirish, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishlariga yordam beradi va yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi, ya’ni dermatovenerologiyani o‘qitishda ta’lim texnologiyalarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Tibbiy ta’lim jarayonida dermatovenerologiya fanini o‘qitishda talabalarni kreativ, ijodiy fikrlovchi shaxs yetib tayyorlashda rivojlantiruvchi metodikalarni qo‘llash mumkin. Masalan, dermatovenerologiyaga oid nostandart muammolarni hal qiladi, ularni tahlil qiladi va bu orqali xorijiy talaba ba’zi yangi yechim usullarni eslab qoladi va qo‘llaydi .

Ma’lumki, bo‘lajak tibbiyot xodimining analitikkompetentligi uchun yangi yo‘nalishlarni shakllantirish, ularning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish – tibbiy ta’lim tizimida uchinchi avlod standartlariga o‘tish va o‘qitishning umumiy metodologiyasi, o‘ziga xos uslub hamda texnikasini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, tibbiyotning turli sohalaridagi integrasion jarayonlar ilmiy-intensiv texnologiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanmoqda.

Oliy tibbiy ta’limning hamma bosqichlarida va ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida axborot hamda bilimning o‘rni oshib bormoqda. Axborot jamiyatida bilim, malaka inson hayotidagi ustuvor qadriyatlarga aylanib bormoqda. Oxirgi yillarda tibbiyot oliy talim muassasalari talabalar ining intellektual, axloqiy rivojlanishini rag‘batlantiradigan, uning potensial imkoniyatlarini

faollashtiradigan hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan ta’limning bu turiga yo‘nalish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu turdagi mashg‘ulotlar doirasida talaba o‘zini o‘quv-bilish faoliyatining faol sub’ekti sifatida namoyon etadi .

Tibbiyot oliy ta`lim muassasalarida talabalarning analitik tahlil kompetentligini dermatovenerologiya fani orqali rivojlantirish jarayonida quyidagi holatlar samaradorlikni ta`minlaydi:

- zamonaviy sharoitda talabalarda analitik kompetentliknirivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekanigae’tiborni qaratish;
- talabalarda analitik kompetentliknirivojlantirish mazmunini yorituvchi kognitiv-metodologik asoslarni ishlab chiqish;
- talabalarda analitik kompetentliknirivojlantirishga xizmat qiluvchi mavjud didaktik, texnik va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;
- talabalarda analitik kompetentliknirivojlantirishga yordam beruvchi innovatsion shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;
- dermatovenerologiya fanini o‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;
- talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilim, ularni amaliyotda samara qo‘llash ko‘nikma, malaka, tajribalardan amaliyotda maqsadli, oqilona foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish .

O‘qitish usullari pedagogik jarayonning maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda natijalarini nazorat qilishning asosiy komponentlari sanaladi. Medscape Case Challenges pedagogik modeli orqali dermatovenerologiyani o‘qitish quyidagilarga xizmat qiladi:

- pedagog va talabaning o‘zaro ma’lumot almashishi orqali amalga oshiriladi, ya’ni muloqot orqali ma’lumot almashish, taqdimotlar orqali ma’lumot almashish;
- belgilangan guruh liderlari yordamida, to‘g‘ridan – to‘g‘ri, yoki o‘z – o‘zini nazorat qilish orqali talabalarning bilim faoliyatini boshqarish;
- pedagogning talabalar bilan frontal (parallel), jamoaviy yoki individual tarzda muloqot qilishlari orqali;
- rag‘batlantirish, motivasiya berish va deontologik tarbiya berish orqali;
- ta’lim jarayoni samaradorligini monitoring qilish orqali .

Dastlabki o‘qitish usuli pedagog tomonidan rejalashtirilgan ta’lim va kasbiy faoliyat modeli sifatida mavjud bo‘lib, keyinchalik u aniq texnikalar, harakatlar, operasiyalar majmui sifatida amalga oshiriladi. Masalan, dars davomida Medscape Case Challenges pedagogik modeli orqali muammoni hal qilish usuli quyidagi texnikalardan tashkil topadi:

- dermatovenerologiyaga oid barcha ma’lumotlarini yo‘nalishlar bo‘yicha ajratish;
- fanning ma’lum bir yo‘nalishlari bo‘yicha gipotezalarini shakllantirish;
- fanning nazariy asoslari orqali;
- xulosalar chiqarish, umumlashtirish va boshqalar .

Medscape Case Challenges orqali analitik fikrlashni rivojlantirishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Real hayotga moslashtirilgan analitikholatlar. Ushbu model orqali keltirilgan analitikholatlar zamonaviy tibbiyotda uchraydigan murakkab vaziyatlarni aks ettiradi. Bu talabalarning ma’lumotlarni tahlil qilish va mantiqiy yechim topish ko‘nikmasini kuchaytiradi.

Real hayotga moslashtirilgan analitikholatlar tibbiy ta’lim jarayonida simulyatsiya qilingan, murakkab va haqiqiy bemorlarning holatlariga yaqinlashtirilgan ssenariylardir. Ushbu yondashuv talabalar va mutaxassislar uchun analitikamaliyotdagi yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu model talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirib, ularni haqiqiy patsiyentlar bilan ishlashga tayyorlaydi .

Real hayotga moslashtirilgan analitikholatlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi. Talabalar nazariy bilimlarini haqiqiy holatlarda qo‘llashni

o‘rganadilar. Shuningdek, bemorga individual yondashuvni shakllantiradi.

- tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantirish. Simptomlar va natijalar o‘rtasidagi aloqani tushunish talab etiladi.

-mustaqil qaror qabul qilish. Har bir holat uchun talabalar shaxsiy yechim taklif qilishlari kerak bo‘ladi.

- amaliyotga tayyorgarlik. Real hayotga yaqinlashtirilgan holatlar talabalarning analitikamaliyotga tayyorgarligini kuchaytiradi .

Ilmiy asoslangan kontent. Medscape foydalanuvchilariga zamonaviy tibbiy tadqiqotlarga asoslangan ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadi. Talabalar ilm-fanga asoslangan yondashuvni o‘rganadilar.

Ilmiy asoslangan kontent – bu zamonaviy tadqiqotlar, analitikko‘rsatmalar va amaliyotda tasdiqlangan ma’lumotlarga asoslangan o‘quv materiallari va ma’lumotlardir. Ushbu kontent tibbiy ta’lim jarayonida tahlil qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va bemorlarni samarali davolashda muhim o‘rin tutadi.

3. Interaktiv o‘quv jarayoni. Talabalardan ma’lumotlarni baholash, tashxis qo‘yish, va davolash rejasini tanlash talab qilinadi. Har bir topshiriq natijasida interaktiv fikr-mulohaza olish imkoni yaratiladi.

Interaktiv o‘quv jarayoni – bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi faol muloqotga asoslangan ta’lim usuli bo‘lib, u bilimlarni oshirish, ko‘nikmalarni shakllantirish va fikr almashish jarayonini qamrab oladi. Bu metodika talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi va ularning mustaqil fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Muloqot va tajriba almashish. Talabalar va mutaxassislar platformadan foydalanib o‘z fikrlari va yechimlarini boshqalar bilan taqqoslaydilar, bu esa fikrlashni yanada kengaytirishga yordam beradi.

Interaktiv o‘quv jarayoni talabalarning bilimlarni faol o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ularning amaliyotga yaqinlashuvi, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va kasbiy malakasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu metodikadan foydalanish, ayniqsa, tibbiyot kabi amaliy sohalarda ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Dermatovenerologiya fanini o‘qitishda MCC modeli orqali klinik-diagnostik yondashuvlarni tatbiq etish talabalarning tahliliy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu model yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtiradi, balki real klinik vaziyatlarda ularni qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Klinik keyslarni tahlil qilish jarayonida talabalar differensial tashxis qo‘yish, davolash rejalarini ishlab chiqish va qaror qabul qilishda mustaqil faoliyat yuritishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, MCC modeli talabalarda refleksiv tafakkur, jamoaviy muhokama va innovatsion yondashuvlar asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali metod bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, dermatovenerologiya ta’limida ushbu modelni keng tatbiq etish yuqori malakali, analitik-diagnostik fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shifokorlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Medscape Education. Case Challenges Platform Overview. – New York: WebMD LLC, 2023. – 45 p.

2. Schmidt H.G., Mamede S. How to Improve the Teaching of Clinical Reasoning: A Narrative Review and a Proposal. – Med Educ, 2015; 49(10): 961–973.

3. Komilov N. Instructional potential of teaching the history of medicine to international students in higher medical education institutions // Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2025, Vol. 4, № 1. -P.71-75.

4. Eva K.W. What Every Teacher Needs to Know About Clinical Reasoning. – Med Educ, 2005; 39(1): 98–106.

5. Cutrer W.B., Sullivan W.M., Fleming A.E. Educational Strategies for Improving Clinical Reasoning. – Ann Intern Med, 2017; 166(11): 779–785.

TALABALARDA BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN-MOHIYATI

Hamdamova Mahzuna Tursunovna,
Nizomiy nomidagi O'zMPU ning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqot muammosiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida Mehnatga fan va texnikaning yutuqlarini qo'llash, ishbilarmonlik, mas'uliyat va qat'iylik, tashabbuskorlik va o'z fikriga ega bo'lishlik, qonun buzish va byurokratik hislatlardan xolislik, qattiq talabchanlik vijdonan ish bajarish boshqaruv xodimlarini madaniyati tahlil etilgan, boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi tamoyillar va yondashuvlarning faoliyat talablarining boshqaruv elementlari bilan o'zaro integrativ aloqadorligi ва pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, boshqaruv madaniyati va talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, boshqaruv va rahbarlik sohasi, rejalilik, bilimdonlik, intizomlilik, rag'batlantirish, ierarxiklik (ko'p pog'onalilik).

Аннотация: В статье на основе сравнительного анализа научно-теоретической литературы по исследуемой проблеме анализируется культура управленческого персонала, включающая применение научно-технических достижений в труде, деловитость, ответственность и решительность, инициативность и наличие собственного мнения, беспристрастность от правонарушений и бюрократизма, строгие требования, добросовестный труд, а также принципы и подходы, влияющие на развитие управленческой культуры, интегративную связь требований деятельности и элементов управления, педагогические условия.

Ключевые слова: культура, управленческая культура и развитие управленческой культуры студентов, управление и лидерство, планирование, знания, дисциплина, мотивация, иерархия (многоуровневая).

Abstract: This article analyzes the culture of management personnel, based on a comparative analysis of scientific and theoretical literature on the research problem, including the application of scientific and technical achievements to labor, businesslikeness, responsibility and determination, initiative and having one's own opinion, impartiality from law-breaking and bureaucratic traits, strict requirements, conscientious work, and the principles and approaches that influence the development of management culture, the integrative relationship between the requirements of activity and management elements, and pedagogical conditions.

Keywords: culture, management culture and development of student management culture, management and leadership, planning, knowledge, discipline, motivation, hierarchy (multi-level).

Jamiyatimizning barcha sohalarida olib borilayotgan tub islohotlar O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning qator Qaror va Farmonlari talablari asosida mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish orqali ta'lim muassasalari rivojini ta'minlovchi yangi konsepsiyaning yaratilishi uchun zamin bo'ldi. Mazkur ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar talabalarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish, uni yetuk boshqaruvdagi mutaxassis sifatida innovatsion menejment faoliyatga tayyorlashni nazarda tutadi.

Boshqaruv faoliyatiga tayyorlash muammosini tadqiq qilishning ustuvor metodologik asoslari bo'lib, shu muammoni keng ko'lamdagi tadqiqotlar konteksti doirasida har tomonlama tahlil qilish imkonini beruvchi tamoyillar xizmat qiladi.

Xususan, dastlab ta'lim jarayonining sifat-samaradorligi bugungi kun talablari asosida ishlab

chiqilgan bir qator mee’yoriy-huquqiy hujjatlarga bog‘liq. XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muammosiga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Mehnatga fan va texnikaning yutuqlarini qo‘llash, ishbilarmonlik, mas’uliyat va qat’iylik, tashabbuskorlik va o‘z fikriga ega bo‘lishlik, qonun buzish va byurokratik hislatlardan xolislik, qattiq talabchanlik vijdonan ish bajarish boshqaruv xodimlarini madaniyatini belgilaydi. Boshqarish jarayonlarini tashkil etish madaniyati darajasi bashqarish madaniyati uchun katta ahamiyatga loyiq va boshqarishning ilg‘or usullarini qo‘llash korxonada to‘g‘ri boshqarish amalga oshirilayotganidan darak beradi. Boshqarish mehnatini oqilona taqsimlash ham boshqarish madaniyatiga kiradi, ya’ni mehnatni to‘g‘ri taqsimlash, xodimlar sonini me’yorlashtirish, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ulardan foydalanish va boshqalar.

Aksariyat pedagogik-psixologik adabiyotlarda talabalarning boshqaruv madaniyati rivojlanadigan, boshqaruv vazifalarini samarali yechimini ta’minlashga xizmat qiluvchi sifatida izohlanadi Shunga ko‘ra, boshqaruv madaniyatini dogmatik kategoriya sifatida emas, aksincha mutaxassisning kasbiy faoliyatida samarali boshqaruv davomida doimiy rivojlanish dinamikasini talab qiladigan tizimli jarayon sifatida baholash lozim. Bu esa, bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mazmuni va tuzilmasini ta’limni modernizatsiyalash sharoitidagi innovatsion talablar asosida takomillashtirish maqsadini belgilaydi.

Madaniyat insonning ham madaniy ishlab chiqarish, ham madaniy hayot sohasida rivojlanishi jarayonidagi yutuqlarini qamrab oladi. U insoniyat bilimlari, uning mehnati mohiyatidan iborat bo‘lib, kishilarning avvalgi avlodlari tomonidan yaratiladi.

Boshqaruv madaniyati- boshqaruv va rahbarlik sohasidagi muayyan maqsadga erishish yo‘lida insoniy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuidir. Boshqaruv madaniyati xodimlar faoliyati, maqsad-muddaolari va ularning qadriyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvda vaziyatgamoslashish, jamoa a’zolarini harakatlariniyagona maqsadga kordinatsiyalash, yani tizimning teng va mustaqil qismlari o’rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Boshqaruv madaniyati bu madaniyat tamoyillarining boshqaruv sohasida namoyon bo‘lishi, rahbarga xos madaniy fazilatlar, jamiyat va davlat hayoti, barcha sohalardagi boshqaruvning madaniyat talablariga mos bo‘lishini anglatadi.

«Madaniyat» tushunchasi rivojlanish darajasining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, bir qancha ma’noni bildiradi. Jumladan, jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati va inson faoliyatining ayrim turi madaniyati haqida so‘z yuritish mumkin. Madaniyat insonning ham madaniy ishlab chiqarish, ham madaniy hayot sohasida rivojlanishi jarayonidagi yutuqlarini qamrab oladi. U insoniyat bilimlari, uning mehnati mohiyatidan iborat bo‘lib, kishilarning avvalgi avlodlari tomonidan yaratilgan.

Madaniyat- bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar majmuini ifodalashdan tashqari, o‘zida jamiyatning taraqqiyot darajasini ham aks ettiradi, ya’ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyatni o‘rganish ob’ektiv qonuniyatdir.

Tadqiqot muammosining “madaniyat”, “boshqaruv madaniyati” va “talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish” kabi asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati tahlil qilindi va mualliflik talqini nuqtai nazaridan tavsiflandi.

Madaniyat- bu jamiyatning rivojlanish xususiyatlari va an’analari talablariga qaratilgan sifat o‘zgarishlariga erishish, mavjud vaziyatga moslashish qobiliyatini muntazam oshirishga ijodiy yondoshish, ijrochilar harakatlarini muvofiqlashtirish hamda mehnat faoliyatini motiatsiyalashga uzluksizlik analizi va sintezini birlashtirish, hissiy holatlar sinxronligini umumlashtirish hamda tafakkur faollashuvini bosqichma- bosqich ta’minlashga qaratilgan jarayondir.

“Madaniyat” tushunchasi rivojlanish darajasining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, bir

qancha ma’noni bildiradi. Masalan. Jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati, va nihoyat, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati haqida so‘z yuritish mumkin. Inson faolyati moddiy va madaniy boyliklar yaratuvchi turlarga bo‘linadi. Shu sababli, moddiy va madaniy madaniyat o‘zaro farqlanadi.

Moddiy madaniyat inson tomonidan tabiatni bo‘ysundirish darajasi ko‘rsatkichidir. Unga ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari kiradi.

Madaniy madaniyatga fanning rivojlanishi, aholining ma’lumot darajasi, meditsina xizmati darajasi, odamlar axloqiy me’yorlari, madaniy ehtiyojlar va manfaatlar rivojlanishi darajasini kiritish mumkin.

Insoniyat madaniyati rivojlanuvchi, o‘zgaruvchan, chunki hozirgi avlod, avvalgi avlodlar madaniy qadriyatlaridan ijodiy foydalanish asosidagina yanada rivojlanishi mumkin. Inson hayoti faoliyatining muhim tarkibiy qismi butun insoniyat tomonidan jamlangan madaniy boylikka ega bo‘lishi, shu jumladan boqaruv madaniyatini egallashdir.

Boshqaruv madaniyati bu-ma’muriy, ijtimoiy va psixologik kabi boshqaruv vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi rahbarning shaxsiy, professional va ishchanlik sifatlarining sintezidir.Boshqaruv madaniyatining asosiy yo‘nalishlari 1.2.1-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq va boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi:



1.2.1-rasm. Boshqaruv madaniyatining tarkibiy tuzilishi

1.Ijtimoiy madaniyat – Jamiyat bilan munosabatda bo‘lish, ijtimoiy axloq qoidalariga amal qilish va jamoaviy ongni shakllantirish jarayonlarini ifodalaydi.

2.Ma’muriy (huquqiy) madaniyat – Boshqaruv jarayonida huquqiy me’yorlarga amal qilish, qonunchilik asosida faoliyat yuritish tamoyillarini qamrab oladi.

3.Intellektual madaniyat – Boshqaruv jarayonida innovatsion fikrlash, ilmiy yondashuv va aqliy salohiyatni rivojlantirishga asoslangan madaniyat shaklidir.

4.Psixologik madaniyat – Rahbar va jamoa o‘rtasidagi psixologik muhitni shakllantirish, hissiy barqarorlikni ta’minlash, shaxslararo munosabatlarda hamjihatlikni yaratishga qaratilgan.

5.Kasbiy madaniyat – Professional yondashuv, bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda rivojlantirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6.Kasbiy mahorat – Rahbarning o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish, yetakchilik va boshqaruv ko‘nikmalarini mukammallashtirish jarayonini aks ettiradi.

7.Boshqaruv san’ati – Boshqaruvni ijodiy va innovatsion yondashuvlar orqali samarali amalga oshirish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

8.Muloqot (kommunikativ) madaniyati – Samarali aloqa o‘rnatish, interfaol muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, rahbar va jamoa o‘rtasida ishonchli kommunikatsiyani shakllantirishni ifodalaydi.

Talabalarning Muloqot (Kommunikativ) madaniyatini rivojlantirishning maqsadi-insonparvarlik, demokratik o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish yordamida pedagogik jarayonni takomillashtirib, uning sifatini oshirish, shuningdek, pedagogik faoliyatni pedagogik

jarayonni insonparvarlashtirish va talabalarning kompetentliklarini oshirish hisobiga yaxshilash, osonlashtirishdan iborat.

Muloqot (Kommunikativ) madaniyatining tuzilishini hisobga olib, biz unga quyidagi ta’rifni berishimiz mumkin: Talabalarning kommunikativ nutq madaniyati- bu murakkab integrativ hosila bo‘lib, talaba shaxsidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi, faoliyat ob’ektini takomillashtirish maqsadida “o‘qituvchi-talaba” tizimida samarali kommunikatsiyani ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuidan tashkil topadi, kasbiy shakllanish jarayonida o‘qituvchini kasbiy tayyorlashning aspekti va natijasi hisoblanadi.

Demak aytish kerakki, boshqaruv madaniyatining ko‘p qirrali ekanligini hamda uning asosiy tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog‘langanligini ko‘rsatadi. Bu tuzilma boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirish va pedagogik boshqaruv madaniyatini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Hamdamova M.T. Talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Mug‘allim xem uzliksiz bilimlendirio. 2023. №4, 59-63 b. ISSN 2181-7138.

2.Hamdamova M.T. Menejment culture in students development methods // International journal of students in business Management, Economics and Strategies, ISSN (E): 2949-883X, JIF:7.925 SJIF 2023:5.404. 62-65 p.

3.Hamdamova M.T. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish-Boshqaruv faoliyatining mohiyati sifatida // In an International Conference on Educational Discoveries and humanities, Published online with E-Conference Series, Hosted online from Plano, Texas, USA. Italy. ISSN (E):2835-319X, SJIF: 5.385, 15.09.2023.

4.Hamdamova M.T. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili // Scientific theoretical and methodical journal, ISSN 2992-9024 (online) 2024, №6. 41-47 b.

5.Hamdamova M.T. Talabalarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda innovatsion menejmentning pedagogik imkoniyatlari // Scientific theoretical and methodical journal ISSN 2992-9024 (online) 2024, №5 557-564 b.

6.Hamdamova M.T. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kompetensiyasi «Maktabgacha ta’lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024, 12-15 b.

7.Hamdamova M.T. Maktabgacha ta’lim tashkiloti raxbarining boshqaruv kompetenцiyasini takomillashtirish texnologiyasi. Uslubiy-qo’llanma. Toshkent 2022. 76 b.

8.Hamdamova M.T. Boshqaruv psixologiyasi. Uslubiy qo’llanma. Toshkent. 2022. 128 b.

Hamdamova M.T. Maktabgacha ta’limda boshqaruv va menejment. Darslik. Toshkent. 2024. 371 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Idiyeva Gulchehra Izomovna
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi tayanch doktoranti.
Buxoro davlat pedagogika instituti
https://orcid.org/0009-0000-1134-0658

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, tafakkurini rivojlantirishda va ijodiy qobiliyatlarini ochishda muhim bosqich hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda tasavvur kengligi, yangicha fikrlashga moyillik va o‘yin orqali o‘rganish ehtiyoji yuqori bo‘ladi. Shu bois bu davrda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki kelajakdagi mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va yangilik yaratish kompetensiyalariga zamin yaratadi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dolzarbligi zamonaviy jamiyatning tezkor o‘zgarishlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati va ta’lim jarayonida “4K” – kreativlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rasm chizish, qo‘l mehnati, hikoya tuzish, tajribalar o‘tkazish kabi amaliy ijodiy faoliyatlar ularning tasavvuri va tafakkurini kengaytiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni kelajak hayotga tayyorlash va ta’lim sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir. Bu maqolada ijodiy qobiliyat va uni boshlang‘ich sinflarda rivojlantirishning bir necha xil usullari, ahamiyati va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda e’tibor qaratish muhim bo‘lgan jihatlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar:4K model, ijodiy qobiliyat, tanqidiy yondashuv, mustaqil fikrlash, divergent fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar, muammo, moslashuvchanlik

Abstract. The process of primary education is a crucial stage in the formation of a student’s personality, the development of thinking, and the discovery of creative abilities. Young learners have a broad imagination, a tendency to think in new ways, and a high need for learning through play. Therefore, at this stage, developing creative abilities not only increases the effectiveness of education but also lays the foundation for future skills in independent thinking, problem-solving, and innovation. The relevance of developing creative abilities is determined by the rapid changes in modern society, the need to train competitive professionals, and the growing importance of the “4Cs” in the educational process – creativity, critical thinking, communication, and collaboration. For primary school students, practical creative activities such as drawing, handicrafts, storytelling, and conducting experiments expand their imagination and thinking. Thus, the development of creative abilities in primary education is one of the key factors in supporting students’ personal growth, preparing them for future life, and improving the quality of education. This article presents several methods of developing creative abilities in primary school, their importance, and the key aspects that should be given attention in the process of fostering creativity.

Key words: 4C model, creative ability, critical approach, independent thinking, divergent thinking, communication skills, problem, adaptability.

Аннотация

Процесс начального образования является важным этапом в формировании личности учащихся, развитии их мышления и раскрытии творческих способностей. У младших школьников наблюдается широкий круг воображения, склонность к новому мышлению и высокая потребность в обучении через игру. Поэтому в этот период развитие творческих способностей не только повышает эффективность обучения, но и закладывает основу для формирования в будущем компетенций самостоятельного мышления, решения проблем и создания новшеств. Актуальность развития творческих способностей определяется быстрыми изменениями в современном

обществе, необходимостью подготовки конкурентоспособных кадров и возрастанием значимости в образовательном процессе модели «4К» – креативность, критическое мышление, коммуникация и сотрудничество. Для учеников начальных классов такие виды практической творческой деятельности, как рисование, ручной труд, составление рассказов, проведение опытов, расширяют их воображение и мышление. Таким образом, развитие творческих способностей в начальном образовании является одним из важнейших факторов поддержки личностного развития учащихся, подготовки их к будущей жизни и повышения качества образования.

В данной статье изложены различные методы развития творческих способностей в начальных классах, их значение, а также аспекты, на которые следует обращать особое внимание в процессе их формирования.

Ключевые слова: модель 4К, творческая способность, критический подход, самостоятельное мышление, дивергентное мышление, коммуникативные навыки, проблема, адаптивность.

KIRISH. Ta’lim tizimida ijodkorlikni rag‘batlantirish — bu faqat ma’naviy, balki iqtisodiy taraqqiyot uchun ham muhim yo‘nalish bo‘lib, yurtimizda bu maqsadni qonuniy asoslarda ilgari surish bo‘yicha qator chora-tadbirlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 8-iyundagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”dagi qarorida shaxsning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan PF-6108-sonli prezident farmoni “ O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirish mazmunida, shaxsning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar darajasida shakllantirishga urg‘u beradi. Ushbu hujjatlar ijodiy qobiliyatni rivojlantirish borasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rasm chizish, qo‘l mehnati, ijodiy yozuv, tajribalar o‘tkazish kabi amaliy faoliyat turlari o‘quvchilarning tasavvuri, tafakkuri va moslashuvchan fikrlashini kengaytiradi. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish tizimli yondashuv, innovatsion metodlar va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik strategiyalar asosida olib borilishi ta’lim sifatini oshirishning va yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

METODLAR. Ijodiy qobiliyat -keng imkoniyatlar va toifalarni o‘zida mujassamlashtiradi, shuning uchun ko‘pchilik tadqiqotlar shu qobiliyatga ko‘proq yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ijodiy fikrlash bo‘yicha tadqiqotlar juda ko‘p bo‘lib, shaxslarning aniq bir yutuqqa erishishlariga yo‘l ochib berishga, imkoniyatlar doirasini kengaytirishga, shaxsni murakkab va muammoli vaziyatlarga tushib qolishdan, hayotda insonni o‘z imkoniyatlarini samarali baholashga yordam beradi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida yaratilgan yangi avlod darsliklarning har birida 4K ko‘nikmalari kiritilgan bo‘lib, bu har bir mavzu va unga ajratilgan topshiriqlarda o‘z aksini topgan.4K ko‘nikmalarining hozirgi darsliklarda aks etgan mazmuni o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, turli hayotiy vaziyatlardan chiqishning muqobil imkoniyatlarini ishlab chiqish, ulardan xulosa chiqarish va shu holatni qayta takrorlamaslik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[9]. Qolaversa, boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan har qanday topshiriqlar yuqorida keltirilgan qator ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Samarali va zamonaviy ta’lim muhiti o‘quvchilarga o‘z intelektual qobiliyatlaridan foydalanish, bilimlarini chuqurlashtirish va ularni murakkab sharoitlarga moslashishda qo‘llash imkoniyatini yaratishi kerak.

O‘qitish va o‘qish jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘z o‘quvchilariga eng ko‘p beriladigan o‘quv materiallari bosma nashrlar, odatda darslik shaklida bo‘ladi. Darslik o‘quv materiallari sifatida sinfdagi ko‘rsatmalardan iborat bo‘lib, o‘qitish va o‘qish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki darslik o‘quvchilarga bilimlarni etkazib beradigan asosiy vositadir. Darslik o‘quv materiallaridan tashqari o‘qituvchilarga o‘qitish va o‘qitish jarayonlarini tashkil etishda ham yordam beradi (Amrina, 2018). Bundan tashqari, darslik o‘qitish va o‘qish jarayonini samarali va muvaffaqiyatli qilish uchun bilim va qadriyatlarni o‘quvchilarga etkazish uchun muhimdir. Shu bilan birga, foydalanilayotgan darslik

o‘quvchilar erishishi kerak bo‘lgan o‘quv maqsadlariga mos bo‘lishi kerak, ya’ni bilimning asosiy manbai sifatidagi darsliklar samarali o‘qitish jarayonlari uchun tayyorlangan o‘quv rejasi va dars rejasi bilan bir xil o‘quv maqsadiga ega bo‘lishi kerak.

Ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi ko‘nikmalar – bu o‘quvchining yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish, yangi g‘oyalar yaratish va ularni amalda qo‘llay olishiga yordam beradigan o‘quv, aqliy, hissiy va kommunikativ faoliyatlar majmuidir. Quyida ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi asosiy ko‘nikmalar keltirilgan:

1. Mustaqil fikrlash – bu shaxsning ma’lumot va tajribalarga tayanib, o‘z fikrini shakllantirishi, asoslash va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Boshqalar ta’sirisiz, o‘z qarashlariga tayanib mulohaza yuritish — mustaqil fikrlashning asosiy belgisidir. Shuningdek, mustaqil fikrlash-masalani tahlil qilish, sabab-oqibatni tushunish, turli yondashuvlarni solishtirish, o‘z fikrini asoslab berish va erkin bayon eta olish imkoniyatlarini qamrab oladi. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashning asosiy belgilari:

Erkin qaror qabul qilish – o‘qituvchi yoki tengdoshlar fikriga to‘liq bog‘lanmasdan, o‘z xulosasini chiqarish;

Tanqidiy yondashuv – har qanday axborotga shubha bilan qarab, uni tahlil qilish;

O‘z fikrini asoslash – fikrini turli imkoniyatlardan foydalanib asoslash;

Muammoni hal qilishda o‘z yo‘lini tanlay olish;

Ijodiylik va yangilikka ochiqlik;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridamustaqil fikrlashning rivojlanishi muhim hisoblanib, uning o‘quvchi ta’lim olishida quyidagi ahamiyatlarni belgilab beradi:

o‘z fikrini ayta oladi va himoya qiladi;

yod olishga emas, tushunishga asoslangan o‘rganish vujudga keladi;

savol berishga, izlanishga, shubha qilishga o‘rganadi;

qarama-qarshi fikrlarni tahlil qiladi;

kelajakda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsga aylanadi.

Mustaqil fikrlash – bu faqat darsda o‘z fikrini aytish emas, balki hayotda to‘g‘ri yo‘lni topish, o‘z nuqtai nazarini shakllantirish va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich bosqichdan boshlab bu ko‘nikmani shakllantirish, o‘quvchining ijodiy qobiliyat ko‘nikmalarini shakllanishida muhim poydevordir.

2. Divergent fikrlash — bu ijodiy tafakkurning bir shakli bo‘lib, inson bir muammoni yoki savolni hal qilishda bir nechta, noodatiy, turli-tuman yechimlar taklif eta oladigan fikrlash uslubidir. Divergent fikrlashning asosiy xususiyatlari:

kenglik – bir muammoga birdan ortiq yondashuvlar bilan qarash;

moslashuvchanlik – fikr yo‘nalishini tez-tez o‘zgartirib turish;

originallik – kutilmagan, odatiy bo‘lmagan fikrlar ilgari surish;

sermahsullik – fikrlar sonining ko‘pligi;

O‘quvchilarda divergent fikrlash o‘yinlar, mashqlar, erkin savol-javoblar, yangi va noodatiy topshiriqlar berish, muammoni bitta emas, bir nechta yechim bilan hal qilishga undash, o‘quvchilarga tanlov, mustaqil izlanish imkonini yaratish orqali shakllanadi. Boshlang‘ich sinflar uchun divergent fikrlashga oid mashqlar sifatida «Nimani yana nima sifatida ishlatish mumkin? Masalan: qalamni nima uchun ishlatish mumkin? (yozish, o‘lchash, to‘qillatish...) “Ertakni boshqacha yakunla” bolalardan ertak, hikoyalarni o‘ziga mos, ijodiy tugatishini so‘rash, «Agar» o‘yini «Agar odamlar uchishni o‘rgansa, nima o‘zgarardi?» «Fikrlar zanjiri» misol tariqasida «Qush» deganda nimalar esimizga tushadi? (qanot, uchish, havo, erkinlik...) kabilarni o‘quvchilarda ijodiy o‘tkazish samarali hisoblanadi. Divergent fikrlash va ijodiy qobiliyat bog‘liq sanalib, divergent fikrlash – ijodning asosi, har bir ijodiy yondashuv yoki mahsulot (she’r, rasm, ixtiro) – ko‘p fikrlash yo‘nalishlari natijasidir. Bu fikrlash turi o‘quvchilarga bir xil javobni emas, ko‘p imkoniyatni ko‘ra olishni o‘rgatadi. Demak, divergent fikrlash – bu ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni har tomonlama ko‘ra olish asosidir. Boshlang‘ich sinfda bu ko‘nikmani shakllantirish uchun o‘yin, topshiriq, savol-javob orqali erkin fikrlash muhiti yaratish juda muhim.

4. Boshlang‘ich sinflarda amaliy ijodiy ko‘nikmalar – bu o‘quvchilarning o‘z bilim va tasavvurlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ijodiy fikrlash va amaliy faoliyat orqali yangi mahsulot, g‘oya yoki yechim yaratish qobiliyatini bildiradi. Ular bolalarning tasavvurini boyitadi, mustaqil qaror qabul qilishga, topqirlikka va estetik didga o‘rgatadi. Chizma, maket, model yaratish, qo‘lda ishlash, texnologik g‘oyalarni

ro‘yobga chiqarish, yozma va og‘zaki ijod namunalari hikoya, she’r, ertak kabilardan foydalanish asosida shakllantirish mumkin. Quyida boshlang‘ich ta’limdagi asosiy amaliy ijodiy ko‘nikmalar turlari va ularning mazmuni keltiriladi:

1. Tasviriy ijodiy ko‘nikmalar-rasm chizish (qalam, bo‘yoq, rangli qalamlar yordamida), mozaika va kollaj yasash, rang uyg‘unligi, shakl va kompozitsiya bilan ishlash, mavzuga mos ijodiy kompozitsiyalar tuzish;

2. Qo‘l mehnati va texnik ijodiy ko‘nikmalar-applikatsiya, origami va qog‘oz buklash san’ati,

plastilin, loy yoki boshqa moddalardan shakl yasash, oddiy texnik lego, qurilish kublari, konstruktiv to‘plam konstruksiyalari;

3. Nutq va adabiy ijodiy ko‘nikmalar-hikoya to‘qish va qayta hikoya qilish, she’r, topishmoq, ertak yaratish, rolli o‘yinlarda sahnalashtirish;

4. Ilmiy-amaliy ijodiy ko‘nikmalar-oddiy tajribalar o‘tkazish (tabiatshunoslik, fizika elementlari), kundalik hayotdagi muammolarga kichik yechimlar topish, modellar yasash va loyihalar ishlab chiqish, amaliy ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodlari, o‘yin texnologiyalari, ijodiy o‘yinlarni sahnalashtirish, integratsiyalashgan darslarda san’at, texnologiya, tabiiy fanlarni uyg‘unlashtirish, Loyihaviy ishlar kichik guruhlarda yoki individual ijodiy topshiriqlar, tajriba va kuzatish orqali bolalarning o‘z kashfiyotlarini qilishiga imkon berish kabilarni keltirish mumkin.

5. Estetik va badiiy ko‘nikmalar-san’at asarlarini tushunish va baholay olish, musiqa, rasm, teatr orqali o‘z ifodasini topa olish;

6. Kommunikativ ko‘nikmalar-guruhda ishlay olish, o‘z fikrini tushunarli va ta’sirli ifoda qilish, bahs va munozarada ishtirok etish.

Ijodiy qobiliyat bolalikdan boshlab, turli o‘yinlar, mashg‘ulotlar, topshiriqlar, bahs-munozaralar orqali shakllanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlashi, ijobiy muhit yaratishi va bolaning erkin fikriga hurmat bilan yondashishi muhimdir.

NATIJALAR. Boshlang‘ich sinflarda namoyon bo‘ladigan ijodiy qobiliyatning muhim tomonlari o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’limga qiziqishini oshirishga va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida bu muhim jihatlar to‘liq yoritilgan:

1. Erkin fikrlashning boshlanishi-boshlang‘ich yoshda bolalar stereotiplarga to‘liq bog‘lanmagan bo‘lishadi. Bu davrda ular erkin, noodatiy fikrlar bildirishi, fantastik tasavvurga boy bo‘lishi bilan ajralib turadi.O‘quvchilarda yangi g‘oyalarni taklif qilishga bo‘lgan ishtiyoq kuchli bo‘ladi.

2. Qiziqish va kuzatuvchanlik kuchliligi- yosh bolalar atrofdagi voqea-hodisalarga, tabiatga, odamlar harakatiga, buyumlarga nisbatan qiziquvchan va sinchkov bo‘lishadi. Ular ko‘p savollar berishadi, bu esa ijodiy tafakkurning rivojlanishidan dalolatdir.

3. Tajriba qilishga intilish-boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har bir narsani o‘z qo‘llari bilan sinab ko‘rishni xohlashadi. Ularning yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llashga tayyorligi ijodiy ko‘nikmalarning shakllanishida asos bo‘ladi.

4. O‘yin orqali o‘rganish qobiliyati-o‘yinlar, rolli sahnalashtirishlar, dramalar, topshiriqlar ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi.O‘yin orqali o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini ifodalash, muammolarga yechim topish, jamoada ishlashni o‘rganadilar.

5. Emotsional sezgirlik-boshlang‘ich sinf o‘quvchilari emotsional jihatdan ochiq, samimiy bo‘lishadi. Bu ularning san’at, musiqaga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy ifoda vositalarini (she’r, rasm, qo‘shiq) faol qo‘llashga olib keladi.

6. Fantaziya va tasavvurning boyligi-ijodiy qobiliyatning asosiy manbaidir. Boshlang‘ich sinfda bolalar real hayotni o‘z tasavvurlari bilan boyitib, yangi obrazlar yaratishga moyil bo‘lishadi.

7. Tushunchalar va so‘z boyligining kengayishi-dars jarayonida yangi so‘zlar, atamalarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va rang-barang ifodalashni o‘rganadilar. Bu esa ijodiy yozish, so‘z o‘yini, matn yaratishda namoyon bo‘ladi.

8. Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishi-guruhda ishlash, o‘z fikrini bildirish, boshqa fikrlarni tinglash – bular ijodiy fikrlashni mustahkamlaydi. Ijodiy qobiliyat – bu faqat yolg‘iz emas, balki jamoa bilan fikrlash hamdir.

Boshlang‘ich sinf davrida ijodiy qobiliyatning paydo bo‘lishi, rag‘batlantirilishi va yo‘naltirilishi o‘quvchining keyingi rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining vazifasi – bu qobiliyatlarni erta aniqlab, sharoit yaratish va to‘g‘ri yo‘naltirishdir.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi o‘yinlar – bu bolalarda tasavvur, noodatiy fikrlash, estetik

did, ifodaviylik, muammoni hal qilish va erkin ijod qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan pedagogik vositalardir. Quyida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘yinlar turlari farqlanadi.

Ijodiy o‘yinlar bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki o‘quvchilarning erkin fikrlashi, o‘z g‘oyasini ifodalashi, noodatiy yechim topishi, jamoada ishlashi kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda bir qancha metod, didaktik o‘yinlar, usul va vositalardan foydalanish samarali hisobladi(1-jadval).

1-jadval

jadval

O‘yin nomi	**Tarbiya darslarida qo‘llanish maqsadi**	**O‘tkazish tartibi**	**Ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi ko‘nikmalar**
“Sehrli so‘zlar” o‘yini	Nutq boyligini oshirish, tasavvur va ifodali fikrlashni rivojlantirish.	O‘qituvchi bir nechta so‘zlarni aytadi (masalan: quyosh, gul, qush), o‘quvchilar shu so‘zlar asosida qisqa va ijodiy hikoya to‘qishadi.	Divergent fikrlash va so‘z boyligi ortadi.
“Men bo‘lsam...” roli	Empatiya, ijodiy tasavvur va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish.	O‘quvchilar turli hayvon, buyum yoki ertak qahramoni roliga kirib, o‘zini tanishtiradi.	Rolga kirish orqali his-tuyg‘u ifodasi va badiiy tafakkur rivojlanadi.
“Nima bo‘lishi mumkin?” o‘yini	Muammoni noodatiy yondashuv bilan hal qilishni o‘rgatish.	O‘qituvchi oddiy predmet (masalan, qalam) ko‘rsatadi va “Bundan yana nima yasash mumkin?” deb so‘raydi. O‘quvchilar turli g‘oyalar aytishadi.	Qisqa vaqt ichida ko‘p variant topish qobiliyati oshadi.
“Ertakni davom ettir”	Hikoya tuzish, tasavvur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	O‘qituvchi ertakning boshlanishini o‘qiydi, o‘quvchilar navbat bilan hikoyani davom ettirishadi.	Birgalikda ijod qilish, mantiqiy bog‘liqlikni saqlash ko‘nikmasi rivojlanadi.
“Do‘stlik daraxti”	Hamkorlik, ijobiy munosabat va badiiy ifodani rivojlantirish.	Sinf doskasiga daraxt rasmi chiziladi. Har bir o‘quvchi “do‘stlik” haqida bir fikr yozadi va barg shaklida daraxtga yopishtiradi.	Ijodiy yozish, jamoada ishlash va axloqiy tushunchalarni mustahkamlash.

MULOHAZALAR. O‘quvchilarni ilm-fan hayajoniga jalb qilish, ularga dalillarga asoslangan fikrlash va yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarning ahamiyatini aniqlashga yordam berish va ularni ijodiy muammolarni hal etishga o‘rgatish azaldan fan ta’limi islohotchilarining maqsadi bo‘lib kelgan. Ammo bu maqsadlarga erishish vositalari, xususan, ilmiy muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari keng tarqalgan emas va qo‘llanilmagan.

Ijodkorlik elementlarini o‘qitish orqali oshirish mumkinligi haqidagi eng ishonchli dalillardan ba’zilari yosh bolalar bilan ishlashdir. Bodrova va Leong (2001)ijodiy muammolarni hal qilishda ishtirok etadigan uchta asosiy aqliy ijro etuvchi funktsiyalarni: kognitiv moslashuvchanlik, ish xotirasi va inhibitiv nazoratni yaxshilash uchun «Aql asboblari» o‘quv dasturini ishlab chiqdilar[8].

Ijodkorlik va innovatsiya o‘quvchilarni o‘sish jarayonlarida ko‘proq moslashishga o‘rgatadi va innovatsion echimlarni taqdim etadi. O‘quvchi dars davomida bir nechta muammo va talablarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan loyihalar alohida va juftlik yoki guruhlarga bo‘lingan. Ularni bajarishda ham o‘quvchilar ijodiy fikr almashinish jarayonida bo‘ladi.

Rainer M. Holm-Hadulla ijodiylikni tartib va betartiblik, tahlil va assotsiativ fikrlash kabi qarama-qarshi elementlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sirda paydo bo‘lishi mumkin deb izohlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantirishda motiv va psixologik omillarni birlashtirishga urg‘u beradi. Robert Sternberg hamda Wendy M. Williams ta’lim muhitida ijodiylikni rag‘batlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni beradi:

ijodiy fikrlash modelini ko‘rsatish – o‘qituvchi o‘zining ijodiy yondashuvini namoyish etishi;

g‘oya ishlab chiqishni rag‘batlantirish – sinovsiz g‘oyalar taklif etiladigan muhit yaratish;

fanlararo yondashuv – matematikani ijtimoiy fanlar bilan bog‘lab, innovatsiyani ko‘paytirish;

o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish – ijodkorlik qobiliyatiga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;

har kun gipoteza savollarini qo‘yish – o‘quvchilarni savollar bilan ishlashga o‘rgatish;

turli qarashlarni o‘rganish – biror tushunchani bir necha nuqtai nazardan ko‘rib chiqish[7].

O‘quvchilar muammolarni aniqlash, savollar tuzish, ma’lumot yig‘ish, g‘oyalarni taklif qilish va ifodalash kabi qobiliyatlarni o‘zlashtiradi. Ijodkorlik muammolar noaniq shakllanganida va aniq yechim yo‘q bo‘lganida eng yaqqol namoyon bo‘ladi.

J. Sternberg (2006) U o‘zining “Triarchic Theory of Creativity” modelida ijodkorlikni uch omil — intellekt, bilim va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri mahsuli sifatida izohlaydi. Sternberg ta’kidlaydiki, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda nafaqat bilim, balki ijodiy qaror qabul qilish jasorati ham katta rol o‘ynaydi[2].M. A. Runco (2004) ijodkorlikni har bir insonda mavjud bo‘lgan, ammo ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirida rivojlanuvchi salohiyat deb tushuntiradi[3]. Uning fikricha, ijodiy qobiliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘quvchilarga erkin fikrlash imkonini berish va xatolardan qo‘rqmaslik muhitini yaratish kerak. R. K. Sawyer (2012) ijodkorlikni faqat individual jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy hamkorlikda shakllanadigan hodisa deb talqin qiladi[4]. Unga ko‘ra, ijodkorlik ko‘pincha guruhiy o‘yinlar, muhokamalar va hamkorlik jarayonlarida namoyon bo‘ladi. A. Craft (2005)ning tadqiqotlarida bolalarda ijodkorlikni erta yoshdan rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. U “littlecreativity” tushunchasini ilgari surib, oddiy hayotiy vaziyatlarda ham bolalarda ijodiy yondashuvni shakllantirish mumkinligini ko‘rsatgan[5]. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asosan, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun erkin va quvvatlovchi muhit, divergent fikrlashni rag‘batlantirish, ijtimoiy hamkorlik, moslashuvchan tafakkur va originallikni shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Boshlang‘ich ta’lim davri o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va shaxsiy rivojlanishiga poydevor yaratishning eng muhim bosqichidir. Bu jarayonda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat bolalarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi, balki ularning mus taqil fikrlashi, muammolarga yangicha yondashishi va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini ham shakllantiradi. Zamonaviy ta’lim jarayonida 4K modeli – kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar va hamkorlik

– asosiy kompetensiyalar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu kompetensiyalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, kelajakda raqobatbardosh, moslashuvchan va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2019-yil 8-iyundagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi. https://lex.uz/

2.Sternberg, R. J. (2006). The Nature of Creativity. Creativity Research Journal, 18(1), 87–98. https://doi.org/10.1207/s15326934crj1801_10

3.Runco, M. A. (2004). Creativity. Annual Review of Psychology, 55, 657–687. https://doi.org/10.1146/annurev.psych.55.090902.141502

4.Sawyer, R. K. (2012). Explaining Creativity: The Science of Human Innovation (2nd ed.). New York: Oxford University Press.

5.Craft, A. (2005). Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. London: Routledge.

6.Gerald, R. (2015). The World beyond the Classroom: 21st Century Education, Technology and 4Cs. https://storify.com/RebeccaG27/4cs-in-education

7.Sternberg R., Williams W. M. Teaching for creativity: two dozen tips. 1998. [accessed 25 March 2008]. www.cdl.org/resource-library/articles/teaching_creativity.php

8.Bodrova E., Leong D. J. American Early Childhood and Primary Classrooms. Geneva, Switzerland: UNESCO International Bureau of Education; 2001. The Tool of the Mind: a case study of implementing the Vygotskian approach.

9.Компетенции «4К»: средовые решения для школы. Практические рекомендации: учебно-методическое пособие / сост. М. А. Пинская, А. М. Михайлова. — М. : Российский учебник, 2020. — 95, [1] с. : ил.

TALABALAR TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Islamova Moxichexra Bekmurzayevna,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning bugungi globallashuv jarayonlaridagi obyektiv zarurati ijtimoiy-pedagogik tahlillar vositasida asoslangan. Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi fiziologik, psixologik, ijtimoiy-madaniy, texnologik va pedagogik omillar tahlil etilib, ularning o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga oid strategiyalarni ishlab chiqishda ushbu omillarni inobatga olishning muhimligi va zamonaviy ta’lim muhitini samarali tashkil etishdagi pedagogik imkoniyatlari ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: Tanqidiy tafakkur, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, fiziologik omil, psixologik omil, ijtimoiy-madaniy omil, texnologik omil, pedagogik omil, xotira, idrok, raqamli texnologiyalar.

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Исламова Мохичехра Бекмурзаевна,
Базовый докторант Навоийского государственного университета

Аннотация: В данной статье на основе социально-педагогического анализа обоснована объективная необходимость развития критического мышления студентов в условиях современных процессов глобализации. Проанализированы физиологические, психологические, социокультурные, технологические и педагогические факторы, влияющие на развитие критического мышления студентов, раскрыты их особенности. Показана важность учета этих факторов при разработке стратегий развития критического мышления, а также педагогические возможности их использования для эффективной организации современной образовательной среды.

Ключевые слова: Критическое мышление, факторы влияющие на развитие критического мышления, физиологический фактор, психологический фактор, социокультурный фактор, технологический фактор, педагогический фактор, память, восприятие, цифровые технологии.

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CRITICAL THINKING

Islamova Moxichexra Bekmurzayevna,
Basic doctoral student of Navoi State University

Annotation: This article substantiates the objective necessity of developing students’ critical thinking in the context of modern globalization processes through socio-pedagogical analysis. It analyzes the physiological, psychological, sociocultural, technological, and pedagogical factors influencing the development of students’ critical thinking and reveals their specific characteristics. The article highlights the importance of considering these factors when developing strategies for critical thinking development and demonstrates the pedagogical potential of their application in effectively organizing a modern educational environment.

Keywords: Critical thinking, factors influencing the development of critical thinking, physiological factor, psychological factor, sociocultural factor, technological factor, pedagogical factor, memory, perception, digital technologies.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida insoniyat oldida ilmiy-texnik, ijtimoiy-madaniy, axborot-kommunikatsiya va siyosiy muhitdagi murakkab muammolarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil fikr asosida yechim topish zarurati tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda yosh avlod, xususan, talabalarning tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimi oldidagi ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki globallashuv sharoitida yolg‘on, manipulyativ yoki noto‘g‘ri axborotlarning jamiyatga kirib kelish ehtimoli toboro kuchaymoqda. Bu esa talabalarda tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirishni nafaqat dolzarb, balki zaruriy omilga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida “…talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan”ligi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan[1]. Bu esa, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni – dolzarb pedagogik muammo sifatida chuqur va tizimli tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tanqidiy tafakkur bu - “shaxsning axborotga nisbatan shubha bilan yondashuvi, muqobil qarashlarni solishtirib tahlil qilishi, asosli dalillarga tayangan holda xulosalar chiqarishi va o‘z qarashlarini mustaqil tarzda asoslab bera olishi kabi intellektual kompetensiyalarni o‘z ichiga oluvchi tushunchadir”[2, -B.35.]. Bugungi globallashgan va raqamlashtirilgan ijtimoiy-madaniy makonda mazkur kompetensiyalar nafaqat shaxsiy, balki kasbiy muvaffaqiyat uchun ham asosiy mezonga aylanmoqda.

Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning metodik tizimini ta’limga qo’yilgan zamonaviy talablar asosida takomillashtirish avvalo, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o’rganishni va ularni pedagogik jihatdan tahlil etishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili: Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muammosi va unga ta’sir etuvchi omillar tahliliga oid xorijda va mamlakatimzida bir qator tadiqot ishlari olib borilgan. Jumaldan, Karla J. Saegerning dissertatsiya tadqiqotida Kornell tanqidiy fikrlash testi orqali talabalarning deduktiv fikrlash, ma’no va mantiqiy xatolarni aniqlash, kuzatish va manba ishonchliligini baholash, induksiya, ta’riflar va taxminlarni aniqlash kabi tanqidiy tafakurning tarkibiy yo’nalishlariga oid kompetensiyalarini baholash metodikasi tadbiq etilib, uning didaktik va pedagogik mexanizmlar takomillashtirilgan [3]. F.F.Minkinaning dissertatsiyasida tafakkur tushunchasining mazmuni, turlari, jttimoiy muhit va pedagogik jarayonda ongning tanqidiyligi va o’zini-o’zi tanqid qilishning o’rni, talabalarning intellektual faoliyatida tanqidiy fikrlash darajalari va ularni baholashning psixologik-pedagogik mezonlari tadqiq etilib, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitishda muammoli ta’lim texnologiyasini tizimli qo‘llash orqali ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga oid muhim taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan[4].

So’ngi yillarda butun dunyo ta’lim tizimigazamonaviy fan paradigamalarining integratsiyalashuvi natijasida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart – sharoitlarini ham yangicha mazmun va talablar asosida takomillashtirishga obyektiv zarurat sezilmoqda. Y.N.Koreshnikovaning dissertatsiya tadqiqotida yuqorida aytib o’tilgan jihatlar aks etgan bo’lib, unda “Tanqidiy fikrlash” tushunchasining zamonaviy mazmun-mohiyati, uni baholash usullarining qiyosiy tahlili, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi tashkiliy sharoitlar va pedagogik shartlar hamdayondashuvlar chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning modeli ishlab chiqilib, tizimli yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlarini o‘quvchilarning majburiy ta’lim natijalaridan biri sifatida qaralgan va tanqidiy fikrlash bilan ijobiy bog’liq bo’lgan pedagogik shart-sharoitlarning tarkibiy qismlarini aniqlash, tanqidiy fikrlash darajasi haqida bashorat qilish va tashkiliy shart-sharoitlar zarur talablarga javob berishini baholashovchi metodik tizim taklif etilgan [5].


Mamlakatimizda ham ta’lim oluvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga oid bir qator dissertatsion tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan,F.Xodjiyevaning nomzodlik dissertatsiyasida tanqidiy fikrlashning mohiyati, ilmiy-nazariy tavsifi, uning funksiyalari va ijtimoiy tamoyillari, boshlang’ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini shakllantirishda an’anaviy va noan’anaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili, tanqidiy fikrlashni shakllantirish bosqichida intellektuallik testlaridan foydalanishva prognostika metodlarini qo‘llashning didaktik imkoniyatlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan [6]. M.Qurbonovning monografik

tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim metodlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan bo’lib,tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida amaliy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va muammoli savollar asosida baholashning metodologik asoslari konseptuallashtirilgan[7]. S.S.Smirnovaningtadqiqotishidabo‘lajako‘qituvchilarningkommunikativkompetensiyasinirivojlantirish modeli motivasion, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, perseptiv-refleksiv komponentlardan iborat tanqidiy fikrlash texnologiyasi bilan interaksionizm g‘oyasi va muloqot ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini integrativ baholash algoritmlarini proektiv moslashtirish asosida takomillashtirilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi faol va interfaol o‘qitish usullari va shakllarini hisobga olgan holda o‘zaro ta’sirini tashkil etish, tanqidiy fikrlash texnologiyasini adaptiv transformasiyalash va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish asosida mavjud metodik tizim rivojlantirilgan [8]. G.R.Akramovaning tadqiqot ishlarida o’quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik shartlari va omillari, shuningdek, ushbu maqsadni amalga oshirishning strategiyalari, shakli, usuli, vosita va yondashuvlari konseptuallashtirilib, mavjud pedagogik tizim zamonaviy fan pradigmalari kontekstida takomillashtirilgan[9].

Yuqorida aytib o’tilgan va boshqa tadqiqot ishlarida talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ba’zi omillarga e’tibor qaratilgan bo’lsada,omillarni klasiffikatsiyalash, ularning o’ziga xos xususiyatlarini va pedagogik jarayonlarga integratsiyalashuvi hodisalarini chuqur o’rganishga obyektiv zarurat sezilmoqda.

Tahlil va natijalar: Ma’lumki pedagogika — bu nafaqat tarbiya va ta’lim nazariyasi, balki inson tafakkurini, ongini, axloqini shakllantiruvchi fanlar majmuasi bo’lib, ularni samarali amalga oshirishda aynan tanqidiy tafakkur kalit vazifasini o’taydi.

Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi bir qator omillari mavjud bo’lib, mavjud adabiyotlar va tadiqoqtlarni o’rganish natijasidaularni quyidagicha klasiffikatsiyalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar tizimi va elementlari.

Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ushbu omillarni chuqur o’rganish va ularni inobatga olgan holda pedagogik startegiyalarni ishlab chiqish muammoning yechimida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu omillarni batafsil tahlil etamiz.

Fiziologik omillar:Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdabir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir qator fiziologik omillar masalan, uyqu sifati, ovqatlanish va jismoniy faollik kabilar yuqori darajada ta’sir etadi. Ushbu omillar murakkab muammolarga ongli yondashish hamda asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan kognitiv (aqliy) qobiliyatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uyquning buzilishi ya’ni ortiqcha yoki kam uxlash va uyqu sifatining yomonlashuvi talabalarda diqqatni kamayishi vaxotirasini zaiflashuviga olib kelib, tanqidiy fikrlash uchun asos bo’lgan kognitiv jarayonlarni buzilishiga sabab bo’lishi bir qator tadqiqotlarda isbotlangan[10]. Shuningdek, to’g’ri va tartibli ovqatlanish - xotira, idrok muammolarni hal qilish kabi asosiy kognitiv funktsiyalarni kuchaytirib, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi[11]. Yana bir muhim fiziologik omil - bu muntazam jismoniy faoliyat bo’lib, u samarali tanqidiy fikrlash uchun muhim elementlar bo’lgan nazorat va kognitiv moslashuvchanlik kabi miyaning ijro funktsiyalarini yaxshilashda o’ta muhim hisoblanadi[12].

Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda fiziologik omillar muhim bo’lsada, aynan ularning o’zaro aloqadorligiga oid maxsus tadqiqotlar olib borilmaganligi va natijada empirik bo’shliqning mavjudligi kelajakda tadqiqotlar uchun ustuvor yo’nalish hisoblanadi. Pedagoglar esa talabalarni tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalasiga fiziologik omillarni ham har tomonlama hisobga olgan holda yondashishlari lozim.


Psixologik omillar: Talabalarda tanqidiy fikrlashning rivojlanishi turli xil psixologik omillarga ham yuqori darajada bog’liqdir. Masalan, diqqat va tanqidiy fikrlash o’rtasidagi munosabatlar mexanizmini anglash murakkab bo’lsa-da, diqqatni jamlash qobiliyati muammoni chuqur tushunishni rivojlantirish va ma’lumotni jiddiy baholashni amalga oshirish uchun juda muhimdir[13]. Talabada diqqatni doimiy saqlay olish qobiliyati o’quv mazmuni bilan bog’liqlikni mustahkamlaydi, murakkab muammolarga duch kelganda talabalarning fikrlash va analitik fikrlash imkoniyatlarini oshiradi hamda to’g’ri qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Psixologik omillardan biri bo’lgan xotira ham murakkab kognitiv vazifalarni bajarishda ma’lumotni samarali saqlash va manipulyatsiya qilishni osonlashtiradi, bu esa muhim muammolarni hal qilish uchun zarur bo’lgan bir nechta bilim elementlarini bir vaqtning o’zida birlashtirishga imkon beradi[14].

Yuqoridagilar bilan chambarchas bog’liq holda, noaniqlik qo’rquvi turli tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan yana bir muhim psixologik omildir. Asosan ma’lum va aniq javoblarga e’tibor qaratadigan ta’lim muhiti talabalari tanqidiy fikrlash faoliyatiga xos bo’lgan noaniq vaziyatlarga nisbatan past tolerantlikka ega bo’ladi [15]. Noaniqlik bilan bog’liq bu noqulaylik murakkab tahlil va qarama-qarshilik yoki noaniqlik uchun bag’rikenglikni talab qiladigan akademik vazifalarga psixologik qarshilik ko’rsatishi ham mumkin.

Shu bilan bir qatorda, metakognitivlik doimiy ravishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim omildir. Dars jarayonlarida uzluksiz o’z-o’zini baholash va aks ettiruvchi so’roq kabi metakognitiv strategiyalarni ongli ravishda qo’llash talabalarda kognitiv jarayonlarni yaxshiroq kuzatish va tartibga solishga yordam beradi. Bundan tashqari, muammoli ta’lim kabi pedagogik usullar metakognitiv qobiliyatni kuchaytiradi, bu esa talabalarga o’z tushunchalaridagi bo’shliqlarni aniqlash, dalillarni tizimli ravishda baholash va fikrlash jarayonlarini faol ravishda takomillashtirish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mantiqiy va muammoli vazifalarni o’zlashtirish talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy psixologik omillardan biridir. Mantiq bo’yicha maxsus treninglar talabalarning tahlil qilish ko’nikmalarini oshiradi, bu esa ularga to’g’ri dalillarni noto’g’ri dalillardan samarali ajratish va taqdim etilgan dalillarni adekvat baholash imkonini beradi. An’anaviy bo’lmagan muammolarni keltirib chiqaradigan vazifalarda

tez-tez ishtirok etish muhimma’lumotni ahamiyatsiz ma’lumotlarni farqlash qobiliyatini rivojlantiradi va shu bilan tanqidiy fikrlash bilan bog’liq ko’nikmalarni mustahkamlaydi.

Tanqidiy tafakkur har bir shaxs hayotida sof aqliy jarayon sifatida alohida mavjud bo’la olmaydi, u o’sha insondagi boshqa psixologikjarayonlar bilan albatta bog’langan bo’ladi. Quyidagi talabalarda tanqidiy tafakkurnirivojlantirish uchun zarur bo’lganpsixologik sifatlar keltirilgan(2-rasm).



2-rasm. Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo’lgan psixologik sifatlar

Ushbu psixologik sifatlarga ega bo’lgan talabada doimiy tarzda tanqidiy tafakkur tarzi shakllanadi va natijada muammoli, kutilmagan vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilish malakasining eng muhim kompenentiga ega bo’ladi.

Ijtimoiy-madaniy omillar: Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdaijtimoiy muhit va madaniy omillar ham kuchli ta’sir ko’rsatadi. Avvalo, oila – tanqidiy fikrlashning ilk maktabidir. Fikrlar almashinuvi, muhokama qilish madaniyati mavjud bo‘lgan oilalarda ulg‘aygan yoshlar hayotga chuqurroq nazar soladi, har bir holatga o‘z pozitsiyasini shakllantiradi. Aksincha, avtoritar, so‘zsiz itoatga asoslangan oilaviy tarbiya esa tanqidiy yondashuvni bo‘g‘adi, ijtimoiy fikrlar oldida shaxsiy mulohazani cheklaydi. Talaba ijtimoiy makonda shakllanadi. Mahalla, maktab, ommaviy madaniyat, do‘stlar guruhi – bularning barchasi uning dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda yoshlarning fikriga bo‘lgan hurmat, bahs madaniyatining mavjudligi, pluralistik qarashlarga ochiqlik – bularning barchasi tanqidiy tafakkur rivoji uchun qulay muhit yaratadi. Aks holda, fikr bildirgan yoshlar ayblanadigan, ijtimoiy bosim kuchli bo‘lgan muhitda esa tanqidiy tafakkur emas, ijtimoiy moslashuvchanlik rivojlanadi.

Milliy madaniyat va qadriyatlar ham ushbu jarayonning muhim ustunlaridan biridir. O‘zbek madaniyatida qadimdan ilm, donishmandlik, mulohazalilik qadrlangan. Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Alisher Navoiylarning merosi – bu tanqidiy tafakkurning ildizlaridir. Biroq bu boy merosni o‘zlashtirish bilan birga, talabalarda tanqidiy yondashuvga ochiq zamonaviy tafakkur ham

shakllantirilishi zarur. Bunda media savodxonlik, global axborot oqimlarida mustaqil fikr bildirish qobiliyati juda muhimdir. Demak, ijtimoiy-madaniy muhitning ochiqligi, talabaga mustaqil fikr bildirish imkoniyati, bahslar madaniyatini shakllantirish tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy tafakkur bu faqat bilim emas – bu madaniyatdir. U ijtimoiy muhit, oila, milliy qadriyatlar va ta’limning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Shunday ekan, tanqidiy tafakkur rivoji uchun har bir ijtimoiy-madaniy qatlamda ochiqlik, fikrlar xilma-xilligiga hurmat, muhokama va tahlilga tayyorlik muhim mezon sifatida qaralishi zarur. Faqat shundagina biz tanqidiy tafakkurli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, o‘z fikrini asosli ifoda qila oladigan yosh avlodni tarbiyalay olamiz.

Texnologik omillar: Texnologik omillar xususan, raqamli texnologiyalar turli xil ma’lumot manbalaridan samarali foydalanish va o’zaro aloqalarni yangi formatda o’rnatish imkoniyatlarini oshirib, talabalarning analitik va aks ettirish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik vositalarga tobora ortib borayotgan ishonch bilimdan foydalanish va ma’lum bilim qobiliyatlarini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, u talabalarning mustaqil tahlil qilish qobiliyatini kamaytiradigan axborotga bog’liqlik dinamikasini ham yaratishi mumkin[16]. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalari bilan o’zaro ta’sir ushbu resurslardan foydalanishga qarab tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni kuchaytirishi yoki cheklashi mumkin bo’lgan fikrlash jarayonlarini o’zgartiradi. Demak, ta’limni raqamlashtirishni faqat oldinga qadam sifatida talqin qilinmasligi kerak, balki talabalarning tanqidiy fikrlash sharoitlarini qayta belgilaydigan hodisa sifatida qaralishi lozim.

Hozirgi kunda talabalarning tafakkur tarziga sun’iy intellektning (AI) ta’siritaboro ortib bormoqda. Sun’iy intellekt vositalari murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish va zudlik bilan hisobot berish orqali ma’lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishni yaxshilashi mumkin. Biroq, ushbu tizimlardagi haddan tashqari bog’liqlik talabalarda mustqail faollikni kamaytirishi ham mumkin, bu esa talabalarning avtonom ravishda savol berish va aks ettirish istagini pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt modellarining ishonchliligi va aniqligi tanqidiy ko’nikmalarni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi axloqiy va epistemologik muammolarni keltirib chiqaradi, chunki talabalar ma’lumotni qat’iy baholash jarayonisiz o’zlashtirishi mumkin.

Xuddi shu tarzda, raqamli ta’lim platformalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga turli xil ta’sir ko’rsatdi. Ular interaktiv o’quv materiallariga kirishni osonlashtirib, talabalarning faolligini oshirsa-da, ularning akademik ko’rsatkichlarga ta’siri va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilash bilan bevosita bog’liq emas. Qachonki, talabalarda aks ettirish va intellektual avtonomiyani rag’batlantiradigan yo’nalish mavjud bo’lsa mobil ilovalar, ta’lim o’yinlari va elektron ta’lim platformalarining integratsiyasi vositasida tanqidiy fikrlashni rag’batlantiradigan hamkorlik muhitidan foydalanish samarali bo’lishi mumkin. Demak, talabalar metakognitiv ko’nikmalari bilan ularning raqamli texnologiyalardan foydalanishlari o’rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga bugungi kunda obyektiv zarurat sezilmoqda. Raqamli vositalardan to’g’ri foydalanish orqali talabalarning analitik va baholash ko’nikmalarini rivojlantirish mumkin bo’lsa-da, ularni yetarli darajada pedagogik mexanizmlarsiz qo’llash talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini zaiflashtiradigan texnologik qaramlikka olib kelishi ham mumkin.

Demak, raqamli texnologiyalar o’z-o’zidan maqsad emas, balki strategik foydalanilgandagina ta’limni o’zgartirishi va raqamli jamiyatda tanqidiy fikrlaydigan kadrlar sonini oshirishi mumkin bo’lgan vosita bo’lib xizmat qiladi.

Pedagogik omillar: Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda pedagogik omillarning ta’siri mohiyatdan bir butun tizim sifatida namoyon bo’ladi. Chunki, yuqorida ko’rib chiqilgan omillarning ijobiy ta’sirini talaba shaxsida shakllantirishga oid bilim va ko’rsatmalar aynan

pedagogik jarayonning muhim komponentlari bo’lib xizmat qiladi. Lekin, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda pedagogik omilning o’ziga xos jihati ta’lim jarayonlarida innovatsion pedagogik strategiyalar asosida talabalarni turli murakkab vaziyatlarga duch kelishlari va eng maqbul qarorlar asosida vaziyatdan chiqib ketaolishlari imkonini beruvchi ijodiy ta’lim muhitini yaratish bilan xarakterlanadi.Bunday pedagogik strategiyalar talabalarning o’quv jarayonida faol ishtirok etishga va ularda tanqidiy fikrlash uchun zarur bo’lgan “o’z-o’zini so’roq qilish”, “o’z nuqtai nazarini erkin ifodalash”, “muammo yechimini konstruksiyalash” imkonini beradi[17]. Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda pedagogik omil sifatida “hamkorlikdagi faoliyat”ahamiyatli bo’lib, u darsni munozara va mulohaza maydoniga aylantiradi, talabalarga bir xil mavzu bo’yicha turli nuqtai nazarlarni o’zaro tahlil qilish, taqqoslash, dalillash imkonini berib, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini izchil takomillib borishiga sharoit yaratadi. Dars jarayonlarida paradokslardan foydalanish talabalarda muammolarni hal qilish ko’nikmalarini va ongli qaror qabul qilishni rag’batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, “dars jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan yana bir omil hisoblanadi. Interfaol vositalar va raqamli platformalarning kiritilishi yanada moslashuvchan va dinamik o’rganishni ta’minlaydi, talabalarga ma’lumotlarga olish, ular haqida fikr yuritish va tanqidiy tahlil asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi”[18].

Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik omillarning ta’siri va samaradorligini oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarining amaldagi o’quv dasturlariga tanqidiy fikrlashga yo’naltirilgan aniq pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabalarning nafaqat akademik ko’rsatkichlarni yaxshilaydi, balki ularning bilish qobiliyatlari va tanqidiy moyilliklarini mustahkamlab,ularga turli xil bilim sohalarida murakkab muammolarni hal qilish uchun fundamental kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi fiziologik, psixologik, ijtimoiy-madaniy, texnologik va pedagogik omillarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, amaliyotda ushbu omillarning uyg’un va sinergetik tarzda birlashtirgan strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga erishishning muhim me’zoni hisoblanadi.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.10.2019 yildagi PF-5847- sonli Farmoni.

2.Islamova M.B. “Tanqidiy tafakkur” tushunchasi va uning zamonaviy talqini. Pedagogik mahorat jurnali. –Buxoro, 2023. 3-son. –B. 33-37.

3.Karla J. Saeger. The Development of Critical Thinking Skills in Undergraduate Students. USA, 2014. – 118 p.

4.Минкина Ф.Ф. Критическое мышление учащихся и педагогические способы его формирования (На материале обществоведческого курса): Дис. ... канд. пед. наук:Казань, 2000, 166 с.

5.Корешникова Ю.Н. Организационные и педагогические условия развития критического мышления у студентов вузов. Автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. - Москва, 2021.- 35 с.

6.Xodjieva F.O. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida) pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –T., 2008, - 170 b.

7.Qurbonov M. Tanqidiy fikrlash va pedagogik innovatsiyalar: O‘quv jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: 2015. Fan va texnologiya nashriyoti.– 256 b.

8.Smirnova S.S. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - T, 2022, 52 b.

9.Akramova G.R. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Ped.f.d. (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –T., 2023.

10.Pereira, A.C.D., Valentini, A.S., Noronha, L.T.S.D., Batista, J.B.R., Silva, C.T.V.D. How sleep disorders can affect the intellectual development of college students. 2024, III Seven International Medical and Nursing Congress. 10.56238/iiicongressmedicalnursing-001

11. Carolina López-Ruiz, Roxana Flores-Flores,Ana Galindo-Quispe, Yolanda Huayta-Franco. Critical thinking in higher education students: a systematic review. Revista Innova Educación. Peru, 2021. Vol 3 No 2 pp. 374-385

12. Ekerer, Ceylan, Gonca Ince, and Mehmet Fahrettin Över. The effect of structured brain gym and brisk walking training on the executive functions of university students: A single-blinded randomised controlled trial. International Journal of Sport and Exercise Psychology, 2024, pp.1–18.

13. Rivas, Silva F., Carloz Saiz, and Carlos Ossa. Metacognitive strategies and development of critical thinking in higher education. Frontiers in Psychology. 2022. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.913219

14. Zhao, C., & Vogel, E.K. Individual differences in working memory and attentional control continue to predict memory performance despite extensive learning. Journal of Experimental Psychology: General, 2025. 154(5), 1268–1283. https://doi.org/10.1037/xge0001728

15. Crone, Vincent C. A., and Merel van Goch. 2024. Critical Thinking in the Humanities: An Exploration of Student Perspectives. The Netherlands,Teaching and Learning Inquiry12: 1–10.

16. Al-Zou’bi R. The impact of media and information literacy on acquiring the critical thinking skill by the educational faculty’s students //Thinking Skills and Creativity. – 2021. – T. 39. – C. 100782.

17. Pincay Parrales, Mariya Leonela. 2022. Incidencia de la clase invertida en el desarrollo del pensamiento crítico. Revista Cognosis 7: pp.113-36.

18. Huaman G.R.L. Desarrollo del pensamiento crítico de los estudiantes a partir del aprendizaje basado en problemas: una revisión sistemática //LATAM Revista Latinoamericana de Ciencias Sociales y Humanidades. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 132-144.

PEDAGOGIK YO‘NALISHDAGI FANLARNI O‘QITISHDA TALABALARDA RISKOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Jabborova Dilafruz Furqatovna,
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda riskologik kompetentlikni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Risk va xavflarni ta’lim-tarbiya jarayonida aniqlash, baholash hamda samarali boshqarish qobiliyati zamonaviy pedagog tayyorgarligining muhim jihatlaridan biri sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada maxsus pedagogik texnologiya ishlab chiqilib, uning bosqichlari, mazmuni, o‘qitish usullari va baholash mezonlari tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: riskologik kompetentlik, pedagogik texnologiya, xavf tahlili, case-study, ta’limda xavfsizlik, pedagog tayyorgarligi.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ РИСК-КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ

Жабборова Дилафруз Фуркатовна,
Навоийский государственный университет, кафедра дошкольного образования, доктор философии по педагогическим наукам

Аннотация: В статье анализируются вопросы формирования рискологической компетентности студентов педагогического направления. Умение выявлять, оценивать и эффективно управлять рисками и опасностями в образовательном процессе рассматривается как один из важных аспектов современной педагогической подготовки. В связи с этим в статье разрабатывается специальная педагогическая технология, описываются её этапы, содержание, методы обучения и критерии оценки.

Ключевые слова: компетентность в области риска, педагогические технологии, анализ риска, кейс-стади, безопасность в образовании, подготовка учителей.

TECHNOLOGY OF FORMING RISK COMPETENCE IN STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING PEDAGOGICAL SUBJECTS

Jabborova Dilafruz Furkatovna,
Navoi State University, Department of Preschool Education, PhD

Abstract: This article analyzes the issues of developing risk competence in students studying in the pedagogical direction. The ability to identify, assess and effectively manage risks and hazards in the educational process is considered one of the important aspects of modern pedagogical training. In this regard, the article develops a special pedagogical technology, describes its stages, content, teaching methods and assessment criteria.

Keywords: risk competence, pedagogical technology, risk analysis, case study, safety in education, teacher training.

Kirish: Zamonaviy ta’lim amaliyoti bo’lajak o’qituvchilardan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni, balki xavflarni yetarli darajada baholash va boshqarish qobiliyatini ham talab qiladi. Shu munosabat bilan, bo’lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismi sifatida tavakkal kompetensiyasini rivojlantirish vazifasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Risk kompetensiyasi - bu pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni samarali bashorat qilish, tahlil qilish va minimallashtirish imkonini beradigan bilimlar, ko‘nikmalar, munosabatlar va shaxsiy fazilatlar to‘plami.

Riskologik kompetentlik – bu shaxsning xavfni anglash, tahlil qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va xatarlarni kamaytirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar majmuasidir. Pedagogikada bu kompetentlik ta’lim jarayonini xavfsiz, samarali va oqilona tashkil qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bu kompetentlik quyidagilardan iborat:

Riskologik kompetentlik — bu talabada turli xavfli vaziyatlarni:

•anglash (kognitiv kompetensiya),

•baholash (tahliliy kompetensiya),

•to‘g‘ri qaror qabul qilish (operativ kompetensiya),

•va boshqa odamlarga bu borada to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq bera olish (pedagogik kompetensiya)

•xavf-xatarlarni aniqlay olish;

•ularning darajasini baholay olish;

•muqobil yechimlarni ishlab chiqish;

•emotsional barqarorlikni saqlash;

•stressli vaziyatlarda samarali harakat qilish kabi malaka va ko‘nikmalarning shakllanishidir.

Pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda talabalarda riskologik kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi – bu ta’lim jarayonida xavf va xatarlarni anglash, baholash va boshqarish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va munosabatlarni tizimli ravishda shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar, usul va vositalar majmuasidir.

2. Texnologiya vazifalari:

Risk, xavf va ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni haqida nazariy bilim berish, muammoli pedagogik vaziyatlarda xavflarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish, qiyin va stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish strategiyalarini rivojlantirish, refleksiya, tahlil va shaxsiy yondashuv asosida kompetentlikni mustahkamlash vazifasi bo‘ladi.

Texnologiyaning bosqichlari		
1	**Tayyorgarlik bosqichi**	Risklar haqida nazariy tushunchalar, riskologik kompetentlik modelini tushuntirish, fan mazmuniga integratsiya qilish.
2	**Amaliy faoliyat bosqichi**	Risklar haqida nazariy tushunchalar, riskologik kompetentlik modelini tushuntirish, fan mazmuniga integratsiya qilish.
3	**Mustahkamlash va refleksiya bosqichi**	Risklar haqida nazariy tushunchalar, riskologik kompetentlik modelini tushuntirish, fan mazmuniga integratsiya qilish.
4	**Nazorat va baholash bosqichi**	Bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar asosida kompetentlik darajasini baholash (test, esse, portfolio, amaliy topshiriqlar orqali).

Pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda talabalarda riskologik kompetentlikni shakllantirishda, avvalambor pedagogik mahorat fanining o’rni judayam beqiyos.

Pedagogik mahorat o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim - tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish

taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy - ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o’rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

1.Tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish	Pedagogik mahorat mashg‘ulotlarida talabalar muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi, bu esa ularda xavfni oldindan baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.
2.Qaror qabul qilishni o‘rgatish	Darslarda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan pedagogik vaziyatlar orqali talaba qaror qabul qilishni o‘rganadi. Bu esa risk holatlarida sovuqqonlik bilan yechim topishga yordam beradi.
3.Stressni boshqarish ko‘nikmalari	Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan stressli vaziyatlarni boshqarish usullari ko‘rsatiladi, bu esa risk holatlarida psixologik barqarorlikni ta‘minlaydi.
4. Refleksiya	O‘qituvchi sifatida o‘z faoliyatini baholay olish — risklarni aniqlash va kelajakda oldini olishga xizmat qiladi.
5.Innovatsion yondashuv	Pedagogik mahorat fanida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, yangilikka ochiqlik, tajriba qilish madaniyati rivojlantiriladi — bu esa riskni boshqarish madaniyatiga asos bo‘ladi.

“Pedagogik mahorat” fanini o‘qitishda talabalar riskologik kompetentligini shakllantirish

Maqsad:
Talabalarda pedagogik faoliyatda duch keladigan xavfli (riskli) vaziyatlarni anglash, ularni tahlil qilish, oqilona qaror qabul qilish, stressga bardoshlilik va noaniqlikda samarali ishlash kompetentligini shakllantirish.

Mazmun:
“Pedagogik mahorat” fani doirasida quyidagi riskologik komponentlar integratsiya qilinadi:

Modul nomi	Riskologik yo‘nalish
O‘qituvchining kasbiy roli	Kasbiy risklar, shaxsiy stress
Muloqot madaniyati	Kommunikatsion xavf, tushunmovchilik
Pedagogik qaror qabul qilish	Noaniqlik, oqibatlarni baholash
Muammoli vaziyatlar bilan ishlash	O‘quvchilarning xatti-harakati, baholashdagi xatolar
Konfliktologiya	Mojaroni boshqarish, hissiy nazorat

Shakl:

- Trening mashg‘ulotlari
- Interaktiv seminarlar
- Mustaqil loyiha ishi (pedagogik riskni aniqlash va yechim ishlab chiqish)
- Guruhiy tahlillar (birgalikda riskli holatlarni muhokama qilish)

Metodlar:

Keys-stadi (vaziyatli tahlil)	Real pedagogik risklarni modellashtirish
Rolli o‘yinlar	Stressli vaziyatlarda harakat qilish
Muammoli o‘qitish	Riskli holatlarda mustaqil yechim toppish
Refleksiya va tahlil mashg‘ulotlari	O‘z-o‘zini anglash, xulosa chiqarish
SWOT-tahlil	Qaror qabul qilishda strategik yondashuv

Vositalar:

Vaziyatli topshiriqlar (konfliktlar, noto‘g‘ri baholash, ota-onalar bilan muammolar)
Risk indikator kartalari (xavf turlari: psixologik, kommunikativ, tashkiliy)
Reflektiv kundaliklar (talabalarning his-tuyg‘ularini qayd qilish)
Baholash rubrikalari (kompetentlik darajasini baholovchi indikatorlar)

Riskologik kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi
Texnologiyadan kutiladigan natijalar:
•Talaba pedagogik faoliyat jarayonida xavflarni oldindan ko‘ra oladi.
•Har qanday murakkab vaziyatda tezkor va mas’uliyatli qaror qabul qiladi.
•Shaxsiy psixologik barqarorlik va ijtimoiy yetuklikka ega bo‘ladi.

•Ijodiy yondashuv va tashabbuskorlik orqali xavflarni samarali boshqara oladi.

Xulosa. Pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitish jarayonida riskologik kompetentlikni shakllantirish — bu nafaqat zamonaviy pedagogik ta’lim talabidir, balki jamiyat oldidagi dolzarb ehtiyojdir. Kelajak o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatida bolalarning xavfsizligini kafolatlashga, krizis holatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyor bo‘lishi zarur.

Bu maqsadga erishish uchun o‘quv dasturlarini moslashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, interfaol metodlarni joriy qilish muhimdir.

Ta’lim jarayonida talabalarda riskologik kompetentlikni shakllantirish, ularni nafaqat nazariy jihatdan, balki hayotiy va kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan ham mustahkam tayyorgarlikka ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan texnologiya ta’lim jarayonini xavfsiz va samarali tashkil qilishda muhim o‘rin tutadi. U zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. A.Xoliqov “Pedagogik mahorat” darslik Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2011

2. Асхадуллина, Н. Н. Развитие рискологического мышления будущего учителя в процессе профессиональной подготовки к инновационной деятельности [Текст] /Н. Н. Асхадуллина // Проблемы современного педагогического образования. Серия:Педагогика и психология. – 2017. – №55(8). – С. 60-65.

3. Merzon, Elena E., Askhadullina, Nailya N. (2016). The Relationship of RiskRecognizing Competency of the Teacher and the Efficiency of Innovative Educational Activities . IFTE 2016 - 2nd International Forum on Teacher Education. The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences EpSBS. 2016. Vol. XII. P. 251-258.Availableat:http://www.futureacademy.org.uk/files/images/upload/40IFTE2016F.pdf (Accessed 6 December 2016) (Web of Science Indexed).

4. Beck U. Risk Society, Towards a New Modernity [Текст]: Trans. from the German byMark Ritter, and with an Introduction by Scott Lash and Brian Wynne / U. Beck. –London: Sage Publications, 1992. – 260 pp.

5. Минкова, Е.С. Формирование рискологической культуры руководителя [Текст] /Е.С. Минкова // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта.Серия: Филология, педагогика, психология. – 2008. – №4. – С. 78–81.

TEXNOLOGIYA TA’LIMI MAZMUNIDA FANLARARO BOG‘LIQLIKNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Jo’rayeva Dilnoz Raxmidinovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya ta’limi mazmunida fanlararo bog‘liqlikning didaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Integrativ yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan yondashuv hamda inkorporatsion yondashuvning nazariy asoslari va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Har bir yondashuvning afzalliklari, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, kreativligini hamda fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirishdagi roli izohlanadi. Maqolada texnologiya darslarida fanlararo integratsiyani ta’minlash bo‘yicha didaktik tavsiyalar ham berilgan.


Kalit so‘zlar: Texnologiya ta’limi, fanlararo bog‘liqlik, integrativ yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, AKTga asoslangan yondashuv, inkorporatsion yondashuv, didaktik ahamiyat.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlab, davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni belgilab berdi. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari” dasturiy maqolasida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, fan va texnologiyalar integratsiyasini kuchaytirish orqali yosh avlodni kasbga yo‘naltirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasi asosiy masala sifatida ko‘rsatildi.

Shuningdek, 2020-yil 3-iyunda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ta’limning mazmuni va sifatini yaxshilashda fanlararo integratsiyaning o‘rni alohida ta’kidlangan. Qonunning 15-moddasida ta’lim mazmunini shakllantirishda fanlararo bog‘liqlik va integratsion yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning amaliy va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan

Ushbu siyosiy va huquqiy hujjatlar ta’lim mazmunida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashning ahamiyatini ochib beradi hamda boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida mazkur yondashuvning didaktik asoslarini chuqur o‘rganishni zaruratga aylantiradi.

Boshlang‘ich sinf texnologiya ta’limida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirish imkonini beradi. Didaktik nuqtayi nazardan fanlararo bog‘liqlik quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ahamiyatini namoyon etadi: (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashning didaktik imkoniyatlari.

Tashpulatovning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash o‘quvchilarda nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.Sodiqova

esa multimedia vositalaridan foydalanish jarayonining didaktik imkoniyatlarini ta’kidlab, o‘quvchilarni vizual va interaktiv resurslar yordamida bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yo‘naltirish zarurligini qayd etadi.

Beane tadqiqotlarida esa fanlararo integratsiya ta’lim jarayonini ijodkorlik va innovatsion yondashuvlar bilan boyituvchi markaziy mexanizm sifatida qaraladi, bu esa texnologiya darslarining yangi mazmun kasb etishini ta’minlaydi.Shuningdek, Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli AKT vositalarining o‘quv jarayonidagi ahamiyatini asoslab, fanlararo integratsiya jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlashni zamonaviy ta’limning muhim sharti sifatida belgilaydi.

Demak, 1.1 rasmda aks etganidek, texnologiya darslarida yondashuvlar, metodlar, uslublar, vositalar va rag‘batlantiruvchi sharoitlarning uyg‘unligi ta’lim jarayonini nafaqat amaliy faoliyatga, balki ijodiy, integratsion va shaxsga yo‘naltirilgan kompleks ta’lim muhitiga aylantiradi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki raqamli savodxonlik, jamoada ishlash, ekologik madaniyat kabi umumiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda turli yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya ta’limi mazmunida fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirishda turli didaktik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ta’lim jarayonining samaradorligi nafaqat mazmunning dolzarbligi, balki uni o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan metodologik asoslar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Didaktik yondashuvlar o‘quv jarayonini tashkil etishning strategik yo‘nalishini belgilab, o‘quvchilarning faoliyatini yo‘naltirish, bilimlarni tizimlashtirish hamda ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya fanini boshqa o‘quv fanlari bilan uyg‘unlashtirishda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar quyidagilar hisoblanadi:

Integrativ yondashuv fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda yaxlit, tizimli dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv texnologiya fanini matematika, informatika, tabiiy fanlar va san’at bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, texnologiya darslarida modellashtirish, o‘lchash va hisoblash amaliyotlari matematik kompetensiyalarni rivojlantiradi; tabiiy fan elementlari esa materiallarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda asosiy e’tibor o‘quvchini amaliy faoliyatga jalb qilishga qaratiladi. Texnologiya darslarida faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv ishlab chiqarish jarayonlari, loyihalash va modellashtirish kabi topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilar bilimlarini mustaqil qo‘llash imkonini beradi. Ushbu yondashuv kompetensiyaviy ta’lim modelining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, qiziqishlarini va qobiliyatlarini hisobga olishni ko‘zda tutadi. Bunday yondashuv ta’limni o‘quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirishni ta’minlaydi, ularning ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga yordam beradi.

AKTga asoslangan yondashuv. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish texnologiya ta’limining samaradorligini oshirishda muhim omildir. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonida taqdimotlar, elektron resurslar, interaktiv doskalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga, axborotni vizual va interfaol shaklda qabul qilishiga yordam beradi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot doirasida inkorporatsion yondashuv qo‘shimcha metodologik asos sifatida tavsiya etilmoqda. Bu yondashuv texnologiya fanini boshqa o‘quv fanlari bilan chuqur integratsiya qilishni va boshqa fanlar (matematika, fizika, informatika, tabiiy fanlar) mazmunining muayyan elementlarini bevosita texnologiya darslariga kiritishni nazarda tutadi. Bunda texnologiya darslari fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirish markazi sifatida shakllantiriladi va o‘quvchilarda kompleks kompetensiyalar rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida texnologiya fanini o‘qitish jarayoni shunchaki kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilangina cheklanmay, balki ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish, texnik tafakkurini kengaytirish hamda mustaqil faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda interfaol metodlar muhim o‘rin tutadi. Chunki interfaol metodlar o‘quvchini faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, topuvchi va yaratishga qodir sub’ekt sifatida shakllantiradi.

Xulosa. Texnologiya ta’limida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarda kompleks fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv turli fanlar o‘rtasidagi bilimlarni uyg‘unlashtirsa, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. AKTga asoslangan yondashuv esa zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali bilimlarni vizuallashtirish va interfaollikni ta’minlaydi. Inkorporatsion yondashuv esa fanlararo aloqalarni chuqurlashtirib, texnologiya darslarining mazmunini boyitadi. Shu bois, pedagoglar ushbu yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash orqali ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev, (2021). Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. Prezidentlik matbuoti.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (2020). Ta’lim to‘g‘risida. 3-iyun, № ЗРУ-610.

3. B. Tashpulatov, (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fanlararo integratsiya asosida kompetensiyalarni rivojlantirish. PhD dissertatsiyasi. Toshkent.

4. N. Sodiqova, (2019). Boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik asoslari. PhD avtoreferati. Toshkent.

5. J. A. Beane, (1997). Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. New York: Teachers College Press.

GEYMIFIKATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODLARI

Jumayeva Habiba G'aforovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etishda geymifikatsion yondashuvning o'rni va ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, motivatsiyani oshirish vositalari hamda geymifikatsiya elementlarining ta'lim jarayoniga tatbiqi tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning afzal jihatlari va kamchiliklari o'rganilib, samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: geymifikatsion yondashuv, mustaqil ta'lim, motivatsiya, talaba faoliyati, ta'lim metodlari, innovatsion pedagogika, evristik faoliyat, kognitiv rivojlanish, loyiha metodi, ta'lim samaradorligi.

METHODS FOR ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES BASED ON A GAMIFICATION APPROACH

Jumayeva Habiba Gaforovna,
Bukhara State Pedagogical Institute, Department of Preschool and Primary Education, Ph.D. (PhD)

Abstract. This article scientifically substantiates the role and importance of the gamification approach in the effective organization of independent learning activities of students. The methods used in the organization of independent learning, modern pedagogical technologies, means of increasing motivation, and the application of gamification elements to the educational process are analyzed. Based on foreign and local experience, the advantages and disadvantages of organizing independent learning of students are studied, and scientific and practical recommendations for increasing efficiency are developed.

Keywords: gamification approach, independent learning, motivation, student activity, educational methods, innovative pedagogy, heuristic activity, cognitive development, project method, educational effectiveness.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИГРОВОГО ПОДХОДА

Джумаева Хабиба Гафоровна,
Бухарский государственный педагогический институт, кафедра дошкольного и начального образования, кандидат педагогических наук (PhD)

Аннотация. В статье научно обоснованы роль и значение игрового подхода в эффективной организации самостоятельной учебной деятельности студентов. Проанализированы методы, используемые при организации самостоятельного обучения, современные педагогические технологии, средства повышения мотивации, а также применение элементов геймификации в образовательном процессе. На основе зарубежного и отечественного опыта изучены преимущества и недостатки организации самостоятельного обучения студентов, разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности.

Ключевые слова: игровой подход, самостоятельное обучение, мотивация, активность

студентов, образовательные методы, инновационная педагогика, эвристическая деятельность, когнитивное развитие, метод проектов, образовательная эффективность.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, bilimlarni amaliyotda qo‘llay oladigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalar ham aynan talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Chunki mustaqil ta’lim talabalarning bilim olish jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishiga, o‘zini o‘zi rivojlantirishga va kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlanishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni, xususan geymifikatsion yondashuvni joriy etish keng muhokama qilinmoqda. Geymifikatsiya – bu o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga qo‘shish orqali talabalarni rag‘batlantirish, motivatsiyasini kuchaytirish, ularning faolligini oshirish va mustaqil bilim olishga yo‘naltirish jarayonidir. Bu yondashuv dunyo oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilib, talabalarning mustaqil ishlashini samarali tashkil etishda yuqori natijalar bermoqda.

An’anaviy ta’lim jarayonida ko‘proq tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u berilsa, geymifikatsion yondashuv talabalarning qiziqishlari va faol ishtirokini kuchaytirishga, ularni izlanishga undashga xizmat qiladi. Ball yig‘ish, reyting tizimi, darajalar, badge va kvest topshiriqlar kabi elementlar talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashini rag‘batlantiradi. Natijada mustaqil ta’lim faqat o‘quv topshiriqlarini bajarish emas, balki bilimlarni izlab topish, tahlil qilish, amaliyotga tatbiq etish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish vositasiga aylanadi. Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish, ularning bilim olish motivatsiyasini oshirish hamda kognitiv-evristik faoliyatini rivojlantirishda geymifikatsion yondashuvning o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari tadqiq etiladi.

XXI asrda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi, raqamli texnologiyalar rivoji va talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish zaruriyati pedagogik jarayonning yangi shakl va metodlarini izlashni taqozo qilmoqda. Shunday metodlardan biri sifatida geymifikatsion yondashuv keng ko‘lamda qo‘llanila boshladi. Geymifikatsiya – bu o‘yin elementlari va mexanizmlarini no‘o‘yin kontekstida, ya’ni ta’lim, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy jarayonlarda qo‘llash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir.

Ta’lim jarayonida geymifikatsion yondashuvning asosiy vazifasi talabalarda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyani shakllantirish, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etish hamda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘p hollarda bilimlarni tayyor shaklda yetkazishga qaratilgan bo‘lsa, geymifikatsiya jarayoni talabalarning izlanish, tadqiq qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bilimga ega bo‘lishini rag‘batlantiradi. Bu jarayon shaxsiy rivojlanish, ijodiy tafakkur, tanqidiy yondashuv va o‘zini baholash kabi kognitiv faoliyatni kuchaytiradi. Geymifikatsion yondashuvning nazariy asoslari psixologiya, pedagogika va axborot texnologiyalari fanlarining o‘zaro uyg‘unlashuvida shakllangan. Xususan, R. Rayan va E. Detsining “o‘zini-o‘zi aniqlash nazariyasi”ga ko‘ra, inson faoliyatining samaradorligi ichki motivatsiyaga bevosita bog‘liq bo‘lib, unga erkinlik, maqsadga erishish va ijtimoiy o‘zaro aloqalar katta ta’sir ko‘rsatadi. Geymifikatsion ta’limda qo‘llaniladigan ball, reyting, daraja, belgi, rag‘bat kabi elementlar aynan mana shu motivatsion ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida geymifikatsiyaning metodologik asoslari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, u konstruktivistik yondashuvga tayanadi. Ya’ni bilimlar o‘qituvchi tomonidan tayyor ko‘rinishda emas, balki talabaning faoliyatida, uning tajribasi orqali shakllanadi.

Ikkinchidan, geymifikatsion jarayon shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amalga oshiradi: har bir talaba o‘z qiziqishi, imkoniyati va ehtiyojiga ko‘ra jarayonga kirishadi, o‘z natijasini baholaydi.

Uchinchidan, geymifikatsion yondashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari bilan uyg‘unlashadi, ya’ni mobil ilovalar, elektron platformalar, virtual muhit va simulyatsiya tizimlaridan keng foydalaniladi.

Geymifikatsiya jarayonining muhim tomonlaridan biri — talabalarda mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini yaratishidir. O‘yin elementlari orqali mustaqil ish topshiriqlari yanada qiziqarli, interfaol va raqobatbardosh bo‘ladi. Masalan, talabalarga berilgan topshiriqlarni bajarishda ball yig‘ish, reytingda yuqoriga chiqish yoki qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘lish ularni faollikka undaydi. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, geymifikatsiya evristik va kognitiv faoliyatni rivojlantirishda ham samarali natija beradi. Talaba muammoli vazifani hal qilish jarayonida yangi bilimlarni izlaydi, mavjud nazariyalarni solishtiradi, o‘zining mantiqiy va ijodiy tafakkurini qo‘llaydi. Natijada, u o‘z bilimlarini faqat yod olish bilan cheklanmay, balki yangi bilimlarni mustaqil ravishda yaratishga intiladi. Umuman olganda, geymifikatsion yondashuvning nazariy-metodologik asoslari shundan iboratki, u ta’lim jarayoniga qiziqish uyg‘otuvchi, motivatsiyani kuchaytiruvchi va mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiruvchi vositalarni olib kiradi. Bu jarayon talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida geymifikatsion yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish va uni samarali tatbiq etish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta’lim – bu talabaning shaxsiy tashabbusi va mas’uliyatiga asoslangan ta’lim faoliyatidir. Bunday jarayonda interfaol metodlardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, ijodiy qarorlar qabul qilish va o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Geymifikatsion yondashuv asosida interfaol metodlardan foydalanish esa jarayonga qiziqishni yanada kuchaytiradi. Masalan, “kvest-topshiriqlar”, “rol o‘yinlari” yoki “tanlov-testlar” yordamida talabalarga bilimlarni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Natijada mustaqil ta’lim nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasiga ham asos bo‘ladi.

Mustaqil ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj va barqaror motivatsiyani shakllantirish;

mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish;

vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va mas’uliyatni oshirish;

kelajak kasbiy faoliyatga zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Ushbu vazifalar orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki o‘zini o‘zi tarbiyalaydi, hayotga tayyorlanadi va kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Mustaqil ta’lim turli ko‘rinishlarda tashkil etilishi mumkin:

Konspekt tayyorlash – ma’ruza matnini qayta ishlash, qisqa mazmunini yozib chiqish.

Referat yozish – ma’lum mavzu bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish.

Loyiha tayyorlash – ma’lum vaqt ichida amaliy yoki nazariy loyiha ustida ishlash.

Ilmiy maqola yozish – talabaning tadqiqot olib borishi va natijalarni ilmiy asosda ifodalashi.

Tajriba o‘tkazish – laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish, kuzatish va xulosa chiqarish.

Onlayn ta’lim – elektron kutubxonalar, videodarslar, interaktiv kurslardan foydalanish.

Bu shakllar orqali talaba o‘z bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlaydi.

Samarali mustaqil ta’lim uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Geymifikatsion metodlar – ball, badge, daraja, reyting orqali motivatsiya berish.

Muammoli ta’lim metodlari – talabani izlanishga, yechim topishga yo‘naltirish.

Loyiha metodi – mustaqil ilmiy yoki amaliy loyihani bajarish.

Evristik metod – talabada yangi g‘oya va yechimlarni izlab topishga sharoit yaratish.

Tadqiqot metodi – ilmiy izlanish olib borish, eksperimentlar o‘tkazish.

Refleksiv metod – talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini ko‘radi, kelgusi rejasini belgilaydi.

AKT asosida metodlar – onlayn platformalar, elektron kutubxonalar va mobil ilovalardan foydalanish.

Zamonaviy ta’lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar keng imkoniyatlar yaratmoqda. O‘yin elementlari asosida tashkil etilgan topshiriqlar, elektron platformalarda ball yig‘ish va reytingga chiqish, onlayn o‘yinlashtirilgan testlar talabalarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Misol uchun, Moodle, Google Classroom, Kahoot, Quizizz kabi ta’limiy platformalarda qo‘llaniladigan o‘yin elementlari talabalarda raqobatbardoshlik va mas’uliyatni kuchaytiradi. Bundan tashqari, mobil ilovalar yordamida vazifalarni bajarish, badge va sertifikatlar olish ham mustaqil ta’lim faoliyatiga qiziqishni oshiradi. Demak, geymifikatsion texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali qiladi.

Evristik faoliyat – bu talabaning yangi bilimlarni mustaqil izlash va topishga qaratilgan faoliyati; kognitiv faoliyat esa bilish jarayonlari, tafakkur, idrok va xotira bilan bog‘liq faoliyatdir. Geymifikatsion yondashuv aynan shu ikki jarayonni faollashtirishga xizmat qiladi. Masalan, muammoli vaziyatlar asosida yaratilgan “kvest-topshiriqlar” talabalarni yangi bilimlarni qidirishga undaydi. Reyting va ball tizimi esa bilimni chuqurlashtirishga turtki bo‘ladi. Bundan tashqari, talabalarga berilgan kreativ topshiriqlar (masalan, yangi o‘yin qoidalarini ishlab chiqish yoki muammoga turli xil yechimlar topish) ularning tafakkur doirasini kengaytiradi. Shu tariqa, geymifikatsiya talabalarning evristik va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Dunyo oliy ta’lim muassasalarida geymifikatsiya keng qo‘llanilmoqda. Masalan, AQSh va Yevropaning bir qator universitetlarida talabalarga topshiriqlarni bajarish uchun ball va “badge”lar beriladi, reyting tizimi esa rag‘batlantirish vositasi sifatida ishlatiladi. Janubiy Koreya va Yaponiya universitetlarida esa virtual laboratoriyalar va simulyatsiya asosidagi geymifikatsion dasturlar keng tatbiq etilmoqda. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarni mustaqil o‘rganishga, yangi bilimlarni mustahkamlashga ham undaydi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi ham xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, mahalliy sharoitga mos geymifikatsion texnologiyalarni keng joriy etishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini geymifikatsion asosda tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritildi. Aniqlanishicha, interfaol metodlardan foydalanish, geymifikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, evristik va kognitiv faoliyatni rivojlantirish hamda xorijiy tajribani o‘rganish talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda muhim omillardan biridir. Shuningdek, o‘yin elementlari asosida tashkil etilgan topshiriqlar va raqobatbardosh muhit talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi, bilim olish jarayoniga qiziqish uyg‘otadi va ularni faol, mustaqil, ijodiy shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa. Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishda geymifikatsion yondashuvning nazariy-metodologik asoslari, amaliy qo‘llanilishi va pedagogik imkoniyatlari keng tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida geymifikatsiyadan foydalanish talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil bilim olishga undaydi hamda kognitiv va evristik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. An’anaviy ta’lim ko‘proq tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, geymifikatsion yondashuv talabani faol subyekt sifatida jarayonga jalb etadi, izlanishga, tahlil qilishga va qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.

Mustaqil ta’lim jarayonida o‘yin elementlari – ball yig‘ish, darajalar, reyting, badge, sertifikatlar, missiyalar va kvestlar kabi vositalar qo‘llanganda talabaning ichki motivatsiyasi

kuchayadi. Bu esa bilimlarni izlab topish, ularni amaliyotda qo‘llash, ijodiy fikrlash va tanqidiy yondashuvni shakllantirishga olib keladi. O‘yin shaklidagi topshiriqlar talabaning qiziqishini uyg‘otadi, bilim olish jarayonini esa qulay va samarali qiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalarida geymifikatsiya keng joriy etilgan. Bu tajribalar ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarni hamkorlik va raqobat muhiti orqali rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham mahalliy sharoitga mos holda qo‘llanishi talabalarni mustaqil, ijodiy va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsion yondashuv talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda dolzarb va samarali pedagogik vositadir. U nafaqat motivatsiya va qiziqishni oshiradi, balki talabalarda izlanish, ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu boisdan, oliy ta’lim tizimida geymifikatsion yondashuvni keng tatbiq etish ta’lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 112 b.

2.Hasanov A., To‘xtayev N. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 280 b.

3.Mavlonova R., Rasulova M. Mustaqil ta’limni tashkil etish metodlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. – 196 b.

4.Qodirov A. Geymifikatsion yondashuv asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 152 b.

5.Xolmatova S. Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish. – Toshkent: TDPU, 2018. – 174 b.

6.Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. “From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification”. – Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 2011. – pp. 9–15.

7.Kapp K. The Gamification of Learning and Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2012. – 302 p.

8.Werbach K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. – Philadelphia: Wharton Digital Press, 2012. – 148 p.

9.Zichermann G., Cunningham C. Gamification by Design. – Sebastopol: O’Reilly Media, 2011. – 244 p.

BOSHLANG‘ICH SINF O’QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Jo‘rayeva Nargiza O‘ktamovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada PIRLS xalqaro tadqiqotlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini baholash va rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Xalqaro tajriba va milliy ta’lim tizimi integratsiyasi orqali o‘qish kompetensiyasini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Boshlang‘ich ta’lim sharoitiga mos o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion model taklif etilgan.

Kalit so’zlar: PIRLS, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, xalqaro tadqiqotlar, o‘qish ko‘nikmasi, ta’lim tizimi, innovatsion model.

Abstract: The article examines the issues of assessing and developing the level of reading literacy of primary school students based on international research PIRLS. The possibilities of improving reading competence through the integration of international experience and the national education system are shown. An innovative model aimed at developing reading skills appropriate for primary education is proposed.

Key words: PIRLS, reading literacy, primary education, international research, reading skills, education system, innovative model.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы оценки и развития уровня читательской грамотности учащихся начальной школы на основе международного исследования PIRLS. Подчеркиваются возможности повышения уровня грамотности чтения путем интеграции международного опыта и национальной системы образования. Предлагается инновационная модель развития навыков чтения, подходящих для начальной школы.

Ключевые слова: PIRLS, грамотность чтения, начальное образование, международные исследования, навыки чтения, система образования, инновационная модель.

KIRISH: O‘qish savodxonligi ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, yosh avlodning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.O‘qish savodxonligi — bu shaxsning yozma matnni o‘qish, tushunish, tahlil qilish va undan maqsadli foydalanish qobiliyatidir. U nafaqat harflarni taniy olish yoki matnni ovoz chiqarib o‘qish bilan cheklanmaydi, balki o‘qilgan ma’lumotni anglash, fikr yuritish, tanqidiy qarash va amaliyotda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi.

O‘qish savodxonligining asosiy tarkibiy qismlari:

1.Texnik o‘qish – harflarni tanish, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va matnni ravon ifodalash.

2.Mazmunni tushunish – o‘qilgan matnning mohiyatini, asosiy fikr va tafsilotlarini tushunish.

3.Tahlil qilish – matnning tarkibini, tuzilmasini, maqsadini va muallif pozitsiyasini aniqlash.

4.Baholash – o‘qilgan axborotni tanqidiy ko‘rib chiqish va uni boshqa ma’lumotlar bilan solishtirish.

5.Foydalanish – o‘qilgan matndan kerakli ma’lumotlarni ajratib olish va amaliyotda qo‘llash.

Misol:

Masalan, bola ertakni o‘qib:

•kimlar ishtirok etganini,

•nima bo‘lganini tushunadi,

•muallif nimani aytmoqchi bo‘lganini anglaydi,

•voqeaga o‘z fikrini bildiradi,

•va hayotda qanday xulosa chiqarish mumkinligini tushunadi — bu o‘qish savodxonligidir.

Xalqaro tadqiqotlar, xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashda va ta’limning samaradorligini aniqlashda jahon miqyosida keng qo‘llaniladi. Bu tadqiqotlar orqali turli mamlakatlarning o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish ko‘nikmalarining farqlari, o‘qish savodxonligini rivojlantirishning samarali metodlari o‘rganiladi va global ta’lim siyosatiga yo‘naltirilgan takliflar ishlab chiqiladi. PIRLS2001-yilda 35 ta ta’lim tizimidagi o‘quvchilarga, 2006-yilda 45 ta ta’lim tizimidagi o‘quvchilarga, 2011-yilda 53 ta ta’lim tizimidagi o‘quvchilarga va 2016-yilda 61 ta ta’limtizimidagi o‘quvchilarga qo‘llanilgan.

Tadqiqotning obyekti o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni, xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish ko‘nikmalarining shakllanishi.

Tadqiqotning predmeti o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash usullari, PIRLS metodologiyasi va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.

Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish va PIRLS tadqiqotlari asosida samarali o‘qish metodlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

-o‘qish savodxonligini baholashda PIRLS metodologiyasini o‘rganish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini tahlil qilish;

-xalqaro tajribani milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

-o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI:Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P.,and Drucker, K.T. (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading. TIMSS and PIRLS International Study Center, Boston College. Ushbu tadqiqotda PIRLS 2016 xalqaro baholash dasturining natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasi baholangan bo‘lib, bu dunyo miqyosida ta’lim tizimlarini solishtirish imkonini beradi. Maqola, o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini baholashda samarali yondashuvlarni tushunishga asos bo‘lib, ta’lim tizimlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning global istiqbollarini ko‘rsatadi.

OECD (2018). The Future of Education and Skills 2030: Conceptual Framework. OECD Publishing. Ushbu hisobot 2030 yilgacha ta’lim tizimlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni taqdim etadi. Hisobotda o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning akademik va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhokama qilinadi. Bu adabiyotda o‘qish savodxonligini nafaqat akademik muvaffaqiyatlar, balki kelajakdagi ijtimoiy va iqtisodiy muvaffaqiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Karimova, M. (2019). O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. Ta’lim va Inson, 23(3), 56-61. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik usullar va zamonaviy yondashuvlar taqdim etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan konkret tavsiyalar berilgan. Bu adabiyot, o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va ta’lim metodologiyasini takomillashtirish uchun amaliy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Grabe, W. (2009). Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press. Ushbu kitobda o‘qish savodxonligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti haqida so‘z yuritiladi. Tilni o‘rganish jarayonida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali usullari va strategiyalari tahlil qilinadi. Kitobda, ikkinchi tilda o‘qish savodxonligini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar, uslubiy qo‘llanmalar va metodikalar haqida muhim tavsiyalar berilgan.

Jeyms, K. and Ayres, R. (2011). Developing Literacy in the Primary Classroom. Routledge. Ushbu manba boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlarni ko‘rsatadi. O‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlash, o‘qish

faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarga o‘qish orqali mustaqil fikrlashni o‘rgatish usullari haqida aniq amaliy yondashuvlar taqdim etiladi.

Snow, C.E. (2010). Academic Language and the Challenge of Reading for Understanding. The Reading Teacher, 63(6), 434-445. Ushbu maqola akademik til va o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi. O‘quvchilarning o‘qish tushunish ko‘nikmalarini oshirish uchun akademik tilni qo‘llashning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda akademik tilning o‘rni va uning ta’lim jarayonidagi roli haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xalqaro o’qish savodxonligini o’rganish tadqiqoti o’quvchilarning o’qish ko’nikmalarini baholash va rivojlantirishning samarali metodologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) va PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro testlar asosida o’quvchilarning o’qish savodxonligi o’lchanadi. Bu testlar orqali o’quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va undan ma’lumot olish ko’nikmalari o’lchanadi.Tadqiqotda kvantitativ va kvalitativ usullar birgalikda qo’llaniladi. Kvantitativ usulda o’quvchilarning o’qish savodxonligini o’lchash uchun testlar, anketalar va statistik tahlil ishlatiladi. Ushbu usul orqali o’quvchilarning o’qish ko’nikmalariga oid aniq va raqamli ma’lumotlar yig’iladi.

Kvalitativ usulda esa o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishi, o’qish jarayonidagi qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish uchun intervyu va guruh muhokamalari o’tkaziladi. O’quvchilarning o’qish faoliyatini kuzatish orqali ularning o’qish jarayonidagi psixologik va ijtimoiy omillarni o’rganish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR. Xalqaro o’qish savodxonligini o’rganish tadqiqoti davomida olingan ma’lumotlar va natijalar asosida o’quvchilarning o’qish ko’nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari va metodologiyalari aniqlangan. Tadqiqotda PIRLS va PISA testlaridan foydalanilib, o’quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va undan ma’lumot olish ko’nikmalari o’lchandi. Natijalarga ko’ra, yuqori darajadagi o’qish savodxonligi ,asosan, o’qish va tahlil qilish ko’nikmalarini yaxshilashga yo’naltirilgan samarali metodikalar va o’qish muhitining mavjudligini ta’minladi. Ba’zi mamlakatlarda o’quvchilarning o’qishdagi muvaffaqiyati yuqori bo’lsa, ba’zi hududlarda esa o’qish savodxonligi past darajada qolgan.O’quvchilarning o’qish jarayonidagi qiyinchiliklari intervyu va guruh muhokamalari orqali o’rganildi. O’quvchilarning eng ko’p duch keladigan muammolari orasida matnni to’liq tushunmaslik, nutqni ifodalashda qiyinchiliklar va o’qish motivatsiyasining pastligi ko’rsatilgan. Shuningdek, o’quvchilarning o’qish ko’nikmalarini rivojlantirishda ota-onaning va o’qituvchilarning faolligi yetishmasligi ham ta’kidlandi.Tadqiqotda o’qish savodxonligini rivojlantirishda ishlatiladigan metodologiyalar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko’rsatdiki, interaktiv va ijodiy metodlar samarali bo’lib, o’quvchilarning o’qish qobiliyatlarini rivojlantirishda ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Matn bilan ishlashning ijodiy yondashuvlari va o’quvchilarning o’z fikrlarini ifodalashlariga imkon berish metodikasi eng samarali deb topildi.O’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini oshirish uchun motivatsiya yaratish zarurligi ham tadqiqotda aniqlandi. O’quvchilarga o’qish jarayonida rag’batlantirish va ularga o’qishning foydalari haqida tushuncha berish o’qish ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali bo’ldi. Shuningdek, o’qishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushuntirish orqali o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishi ortdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalariga ko’ra, o’qish savodxonligini oshirishda interaktiv metodlar va motivatsiya tizimlari samarali. O’quvchilarning o’qish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun o’qituvchilar innovatsion metodlarni qo’llashlari va ta’lim muhitini yaxshilashlari zarur.Interaktiv metodlarni kengaytirish,motivatsiya tizimini kuchaytirish,o’qish muhitini yaxshilash,ota-onalar va o’qituvchilar o’rtasida hamkorlikni mustahkamlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P., & Drucker, K.T. (2017). PIRLS 2016 International

Results in Reading. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.

2. OECD (2018). The Future of Education and Skills 2030: Conceptual Framework. OECD Publishing.

3. Karimova, M. (2019). O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. Ta’lim va Inson, 23(3), 56-61.

4. Snow, C. E. (2010). Academic Language and the Challenge of Reading for Learning About Science. Science, 328(5977), 450-452.

5.Grabe, W. (2009). Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press.

6.Jeyms, K. (2010). Reading and Writing in the Digital Age: A Multimodal Approach to Literacy. Routledge.

7.PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). (2021). International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI HAMDA IMKONIYATLARI

Karimova Kamola Komil qizi,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi tayanch doktoranti. Buxoro davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligiga erishish yetakchi omil sanaladi.O‘quvchi nafaqat ta’lim jarayoni balki butun mamlakat taqdiri uchun muhim bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Uni jamiyatda beqiyos o‘ringa ega bo‘lishini ta’minlashda o‘qituvchi katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z o‘rnida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini parallel ravishda izlanish, turli zamonaviy ko‘nikma va kompetensiyalarni takomillashtirishga tayanish asosida olib borish keraligini taqazo etadi. Mana shunday talablar doirasida nutqiy kompetensiya masalasiga boshlang‘ich sinfdanoq e’tibor qaratish, muntazam ravishda shug‘ullanish mahsuldorlikni yanada oshiradi. Nutqiy kompetensiya o‘quvchining nutq borasidagi bilimlarini ifodalash bilangina cheklanib qolmaydi, uning tafakkuri boyishiga ham bevosita xizmat qiladi. Ushbu maqola ham bugungi kunda o‘quvchida shakllanishi shart bo‘lgan mezonlardan biri nutqiy kompetensiya, uning rivojlanish istiqbollari, takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kabi masalalarga alohida urg‘u beradi.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, topshiriq, metod, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozma nutq, og‘zaki nutq, komponent.

СОДЕРЖАНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Каримова Камола Комил кизи
Факультет дошкольного и начального образования, докторант по специальности теория и методика воспитания и обучения (начальное образование). Бухарский государственный педагогический институт

АННОТАЦИЯ. Достижение сотрудничества учителя и ученика в образовательном процессе считается ведущим фактором. Ученик является важной личностью не только для образовательного процесса, но и для судьбы всей страны. Учитель играет большую роль в обеспечении своего несравненного места в обществе. Это требует, чтобы деятельность учителя и ученика осуществлялась на основе параллельных исследований, опоры на совершенствование различных современных навыков и компетенций. В рамках таких требований, уделение внимания вопросу речевой компетентности с начальных классов и регулярное занятие ею еще больше повысит производительность. Речевая компетентность не ограничивается выражением знаний ученика о речи, но и непосредственно служит обогащению его мышления. В данной статье также особое внимание уделяется таким вопросам, как речевая компетентность, один из критериев, который должен быть сформирован у ученика сегодня, перспективы ее развития и дидактические возможности совершенствования.

Ключевые слова: речевая компетенция, задача, метод, понимание прочитанного, понимание прочитанного, письменная речь, устная речь, компонент.

THE ESSENCE AND OPPORTUNITIES OF DEVELOPING SPEAKING COMPETENCE IN ELEMENTARY SCHOOL PUPILS

Karimova Kamola Komil qizi,
Pre-school and primary education faculty, doctoral student, majoring in the theory and methodology of education and training (primary education).
Bukhara State Pedagogical Institute

ABSTRACT. Achieving teacher-student cooperation in the educational process is considered a leading factor. A student is an important person not only for the educational process, but also for the fate of the entire country. The teacher plays a great role in ensuring his incomparable place in society. This requires that the activities of the teacher and the student be carried out on the basis of parallel research, reliance on the improvement of various modern skills and competencies. Within the framework of such requirements, paying attention to the issue of speech competence from the primary grades and engaging in it regularly will further increase productivity. Speech competence is not limited to expressing the student's knowledge of speech, but also directly serves to enrich his thinking. This article also places special emphasis on issues such as speech competence, one of the criteria that must be formed in a student today, its development prospects, and didactic possibilities for improvement.

Keywords: speech competence, task, method, reading comprehension, listening comprehension, written speech, oral speech, component.

KIRISH. Dunyo bo‘ylab jadal bilan rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi mamlakatimizda ham ta’limga nisbatan islohotlar qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Ta’lim jarayoniga innovatsion, integratsion, kognitiv hamda kompetensiyaviy jihatdan yondashish tobora kuchayib bormoqda. Boshlang‘ich sinf ta’limining mazkur yondashuvlarga asoslanishi ta’lim sohasida katta o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu o‘zgarishlar o‘quvchilarni zamonaviy hayotga tayyorlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga imkon yaratadi. Bu jarayon doimiy ravishda takomillashtirib boradi va o‘z navbatida o‘qituvchi, ota-ona va jamiyatning faol ishtirokini talab qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalasiga o‘quv jarayonining yetakchi mezonlaridan biri sifatida qarash maqsadga muvofiq. O‘quvchida o‘rganish jarayoni nutqiy ko‘nikmalar bilan birgalikda shakllanib boradi. O‘rgangan bilimlarining to‘g‘ri bayoni dars jarayonidagi olingan bilim sifati, bo‘shliqlar, yutuqlarni yaqqol namoyon etadi. Bu jarayonda albatta o‘quvchidagi nutqiy komoetensiyani har jihatdan mukammal, talab darajasida shakllantirish va yo‘naltirib borish katta ahamiyatga ega.

METODLAR

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish. Nutq o‘zaro aloqa qilish va xabarlashish, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Nutqning rivojlanishi, olingan bilimlarning nutqda ravon ifodalanishi o‘quvchilarning qay darajada kompetentligi bilan baholanadi. Nutqiy kompetensiya – bu o‘quvchining o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, mantiqiy va to‘g‘ri bayon qila olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya tilni bilish va undan foydalanish ko‘nikmalarini, kommunikativ vaziyatga mos so‘zlashuvni amalga oshirishni, hamda muloqotda samarali ishtirok etishni o‘z ichiga oladi.

Nutqiy kompetensiya – bu kishining muloqot jarayonida to‘g‘ri, ravon, mantiqiy va maqsadga muvofiq fikr bildirish, nutqiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati.

Nutqiy kompetensiyaning asosiy komponentlari:

Leksik komponent – so‘z boyligi va uni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash;
Grammatik komponent – gap tuzish qoidalarini bilish va qo‘llash;
Pragmatik komponent – muloqot maqsadini anglash va unga mos til vositalarini tanlash;
Fonetik komponent – to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyadan foydalanish;
Diskursiv komponent – fikrni bog‘liqlikda bayon qilish, matn yaratish.

NUTQIY KOMPETENSIYANING ASOSIY JIHATLARI

1. Tinglab tushunish kompetensiyasi:
og‘zaki nutqni idrok etish va tushunish;
eshitilgan ma’lumotni tahlil qilish;
audio materiallardan asosiy ma’lumotni ajratib olish;
tinglab tushunish jarayonida tanqidiy fikrlash.
2. Og‘zaki nutq kompetensiyasi:
monologik nutq (hikoya qilish, tavsif berish, mulohaza yuritish);
dialogik nutq (suhbatlashish, savol-javob, munozara);
lug‘at boyligidan maqsadli foydalanish;
nutqning intonatsion-emotsional ifodaliligini ta’minlash.
3. O‘qish kompetensiyasi:
texnik o‘qish ko‘nikmalari;
o‘qib tushunish strategiyalari;
matnlar bilan ishlash (tahlil, sintez, baholash);
turli janr va uslublardagi matnlarni tushunish.
4. Yozma nutq kompetensiyasi:
imlo va punktuatsiya qoidalarini qo‘llash;
turli janrlarda matnlar yaratish;
matnlarni tahrirlash va qayta ishlash;
matn tuzilishini to‘g‘ri shakllantirish.

Tinglab tushunish jarayoni o‘quvchidandiqqat, e’tibor, sinchkovlikni talab qiladi. Berilgan materialni tahlil qilish, savollarga javob berish tinglash orqali amalga oshiriladi. Ammo tinglab tushunish bilan bog‘liq faoliyatni faqatgina chet tili bilan emas balki barcha o‘quv predmetlarida qo‘llash ancha samarali va nutqiy kompetensiya rivojlanishi uchun qilingan bir muhim harakat hisoblanadi.

O‘qib tushunish kompetensiyasi faqatgina matnni shunchaki o‘qish yoki mazmunini qisqacha so‘zlab berishdan iborat emas. O‘qib tushunish o‘quvchilarni kuzatish, izlanish, matnlarni sharhlash, fikrlar orasidagi farqlarni izohlash, matnning umumiy g‘oyasini belgilash, turli qarashlarni qiyoslash, taqqoslash, mazmun jihatdan aloqadorligini ko‘rsatish, munosabat bildirish, xulosa chiqqarish, mulohaza yuritish, diqqatini oshirishga,bilim va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha shartlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda ham o‘qib tushunish kompetensiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari sirasiga kiruvchi PIRLS tadqiqotining yetakchi maqsadlaridan biri bevosita o‘quvchilardagi o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan. Ona tili darslarida o‘qib tushunish kompetensiyasi


Nutqiy kompetensiya tarkibiga kiruvchi og‘zaki nutq hamda yozma nutq turlari bir-biriga chambarchas bog‘liq. Ikkala nutq shakli ham o‘quvchining tafakkur mahsuli. Olingan bilimlar, tajribalar asosida bayon qilinadi. Og‘zaki va yozma nutqqa doir ko‘nikmalarni kompetentlik darajasida shakllantirish o‘quvchilarda mavjud nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. O‘quvchi birgina yozma nutq yoki og‘zaki nutqda o‘z fikrini ravon, to‘liq, aniq ifodalay olishidan qochishga erishish mumkin.

Yozma nutq ma’lum bir bir qolipga solinganligi, bir qancha talablarga rioya qilgan holda bayon qilinishi bilan og‘zaki nutqdan farqlanadi. Biror bir matnga doir jihatlarni yozma ravishda ifodalash o‘quvchilardan faqatgina mavzuga doir fikrni bildirish bilan cheklanmaydi.

NATIJALAR

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchi daftariga barcha hujjatlarga: husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.


“Men Vatanni sevaman” mavzusida intervyu tayyorlashga asoslangan mashq orqali o‘quvchilarda dialogik matn ustida ishlash, kommunikativ kompetensiyalar rivojlanib boradi. Ko‘pgina o‘quvchilarda muloqotga kirishish, mavzu doirasida keng fikr yuritish oson emas. O‘quvchilarga bu kabi lohiya ishlarini berish ularda tinglab tushunish bandiga ko‘ra berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish (OTMT.1.NK.A.TT.3); yozma nutq bandiga ko‘ra gap tuzib yoza olish, bunda fikr tartibiga rioya qilish va ifodada badiiylik unsurlarini qo‘sha olish (OTMT.1.NK.YN.4) malakalari rivojlanishida yetakchi masalalardan bo‘lib xizmat qiladi.



Mazkur mashqda hayvonlar tilidan suhbat tuzish, hayvonlarning muloqotini davom ettirishga doir loyiha ishi berilgan. Darslikda shu mashqqa mohiyatan o‘xshash fikrni, gaplarni, maqolni hamda hikoyani davom ettirish topshiriqlari ham berilgan. Bu kabi mashqlar ham o‘quvchilarda bog‘lanishli nutq rivojlanishiga yordam beradi. Keltirilgan namunani tushunib yetgan holda uni misolga mos tarzda davom ettira olishda bog‘lanishli nutq asosiy ahamiyatga ega. Matn mukammal tarzda davom etishi uchun ma’nolar o‘rtasida bog‘langan munosabat bo‘lishi lozim, albatta. Shu bilan birgalikda yuqoridagi mashqlar yordamida o‘quvchilarning matnning ma’lum qismini o‘qib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos sarlavha topish (OTMT.1.NK.A.O‘T.3); ma’lum qismi berilgan matnni davom ettira olish(OTMT.1.NK.A.TT.8) kabilar ham takomillashib boradi.

3-sinf ona tili darsligida berilgan bir mashqda o‘quvchilar rasmlar orqali tafakkur qilish ko‘nikmalarini yanada takomillashtiradi. Mashqda berilgan suratlarda ko‘rsatilgan narsa-buyumlarning nomini ayta olishi hamda tasvirlay olishi kerak. O‘quvchilar rasmlardagi narsalarning aynan o‘zbekcha nomi qanday bo‘lishini mana shunday topshiriqlar orqali o‘rganishli mumkin. Ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘quvchilar adabiy til normalariga rioya qilmagan holda gapiradi. Bu kabi mashqlar o‘quvchilarning nutqiy ravonligi va ifodaliligini bir karra oshiradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyaga muvofiq rasmlar, odamlar, narsalar va

voqealarni tasvirlay olish ko‘nikmalari ham takomillashib boradi.



Mazkur mashqda o‘quvchilarga tabiat so‘ziga sinkveyn tuzish topshirig‘i berilgan. “Sinkveyn” metodini bajarish jarayonida o‘quvchilar tabiat bilan bog‘liq sifat, fe’llarni topa olishi, gap tuza olishi, ayniqsa, tabiat so‘ziga sinonim so‘zni bilishi kerak bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, gap tuza olishi, so‘z, ibora va birikmalarning mohiyatini anglay olishi ham o‘z-o‘zidan rivojlanadi.

O‘quvchilar ma’lum turdagi mashqlarda berilgan suratlarni birgina nom bilan atashi kerak. Bu mashq yordamida o‘quvchilarning nutqida yuzaga keladigan bir qancha kamchiliklarni bartaraf etish, nutqning mazmundorligiga erishish mumkin. Keraksiz, takror qo‘llaniladigan so‘zlarning o‘rniga birgina so‘zni ishlatish nutqdagi ifodalilikni yuqorilashiga yordam beradi. Masalan: kosa, tovoq, choynak, piyola deb nutqni cho‘zish o‘rniga ularni bir so‘z ya’ni idishlar deb bir nom ostiga jamlash ayni muddao. (1-rasm)

Topshiriq.

		SO‘Z	SO‘Z BIRIKMASI	GAP	KICHIK MATN
1.	ALBQI				
2.	VIKURAMA				
3.	AGANT				
4.	CHUZGSI				

1-rasm. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga oid topshiriq.

Ma’lumki, nutqning ravonligi, ifodaliligi va mazmundorigi o‘quvchining olgan bilimi, o‘rgangan narsalariga bevosita aloqador. Yuqorida berilgan jadvalni to‘dirish mobaynida o‘quvchilar topqirlik asosida so‘zlarni topib, ulardan ma’lum bir mavzuga aloqador kichik matnni tuzishgacha bo‘lgan jarayonni ketma-ketlikda bajarishadi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilardagi mantiqiy fikrlash, fikrni izchil bayon qilish ko‘nikmalarini yanada rivojlantiradi. Bundan tashqari ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar tabiiy fanga doir bilimlarini ham namoyish qilishi mumkin. Mavzuga oid qiziqarli ma’lumotlarni eslab o‘tish, albatta, foydadan xoli bo‘lmaydi. Bu kabi

topshriqlarni bajarish o‘quvchilarda nutqni o‘stirish bilan birgalikda o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi kompetensiya, kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantirib boradi.(2-jadval)

.(2-jadval)

Topshiriq.

		Shaxsni bildiruvchi s	Ma’lum bir o‘rin-joyni bildiruvchi so‘z	Sifat	Fe’l
1.	Gul				
2.	Paxta				
3.	Suv				
4.	O‘t				
5.	Shifo				

2-jadval. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga oid topshiriq.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar birgina so‘zdan so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali bir nechta so‘z hosil qilish imkoniga ega bo‘ladi. O‘quvchilar lug‘atida mavjud bo‘lgan 5 ta so‘z bir necha martaga boyiydi. Nutqning mazmundorligi oshadi.

MULOHAZALAR. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalasini ochib berishda, nutq, nutqiy faoliyat, nutqiy kompetensiya atamalarining ilmiy asoslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Nutq, nutqiy faoliyat, nutqiy kompetensiya hamda ularning rivojlanishiga doir qarashlar va fikr-mulohazalar M.Rixsiyeva, T.Ziyodova, A.Bobomurodova, R.Safarova, A.Qosimova, Sh.Yusupova, X.Muxitdinova, M.Mirmahsudova, N.Alavutdinova, D.Toshxo‘jayeva, A.Nisanbayeva, X.S. Bakiyeva, T.Yusupova, N.I. Bekniyozova, Z.Salisheva, K.Mavlonova, Sh.Sariyev, U.Masharipova, D.Muminova, M.Kenjayeva va O.Qurbonova, L.M.Mambetova, A.D. Nuradilova, D.A. Usarovalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Quyida bir qancha olimlarning nutqiy kompetensiya to‘g‘risida keltirgan fikr-mulohazalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:(3-jadval)

:(3-jadval)

A.V. Xutorskiy	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda nutqiy kompete asosiy o‘rinda turadi; o‘quvchi shaxsiy fikrini ifodalashi kerak
L.S. Vigotskiy	Nutq tafakkurning asosiy vositasidir. Bola rivojlanishi bilan fikrlashi ham rivojlanadi
R.S. Sternberg	Nutq faqat muloqot emas, balki tafakkur, tahlil va i fikrning vositasidir.
N.X. Choriyev	Nutqiy kompetensiya – til vositalarini kommuni vazifalarda to‘g‘ri qo‘llash malakasi.
G. To‘xtasinova	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun n kompetensiyani shakllantirish – til va taf uyg‘unligini rivojlantirish
A. Qurbonov	Nutqiy kompetensiya – bilim, ko‘nikma va malak birligi; o‘quvchining ijtimoiy muloqotga tayyor belgilaydi.
N.M. Musurmonova	Nautqiy kompetensiya – kognitiv (bilish), emotsion kommunikativ faoliyatning uyg‘unligi as shakllanadi.

3-jadval. Bir qancha olimlarning nutqiy kompetensiya to‘g‘risida keltirgan fikr-mulohazalari.

Olimlarning izlanishlariga ko‘ra, nutqiy kompetensiya – nafaqat til bilimi, balki tafakkur, muloqot, ijodkorlik va madaniy yondashuvning majmuidir. Bu kompetensiya zamonaviy ta’limning asosiy tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

A.D. Nuradilova ilmiy ishida nutqqa quyifagicha ta’rif beradi: “Nutq tilning talaffuzi, lugati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol qo‘llay olinishi demakdir. Aytish mumkinki, nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya’ni yaxshi nutq namunasini idrok etish, o‘rgangan til vositalaridanfoydalanib, o‘zfikrinibayon etishhamda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.”

Tadqiqotchining fikricha, nutqiy kompetensiya – bu nutqning erkin amaliy egaligi, dialog shaklida ham, monolog shaklida ham to‘g‘ri, ravon va dinamik gapirish, yaxshi eshitilgan va o‘qilgan nutqni tushunish, shu jumladan, har qanday uslubda nutq yaratish va tushunish qobiliyati, to‘plangan til materialidan yozma va og‘zaki nutqda muloqot maqsadida foydalana olish mahorati.

R.A. Yo‘ldoshev va L.R. Mirjalolovalar nutqiy kompetensiyani nutqiy birlik, ko‘nikma va malaka chizig‘i o‘rtasidagi ishlar hosilasi ekanligini, bu jarayonda bilim nutqda xato va bexato qo‘llanilishi yangi til bilan bog‘lanishi, o‘sh til hodisasini to‘g‘ri anglash, o‘zlashtirish, nutqda qo‘llash jarayonini ifoda etishni hamda dastlabgi ko‘nikma sekin asta malakaga aylanib borishini ta’kidlaydi.

U.Masharipovaning “Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi” nomli tadqiqot ishida hozirgi zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohot talablaridan kelib chiqib, ta’lim tizimidagi dolzarb

muammolardan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodning tafakkurini rivojlantirish, ularni o‘z fikrini maqsadli aniq ifoda etishga o‘rgatish, til va nutq madaniyati borasidagi bilimlarini mukammallashtirish hisoblanishi borasida mulohazolar bildirilgan. Tadqiqot ishida “nutqiy faoliyat” va “nutq madaniyati” tushunchalari bir-biriga o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘rsatilib, nutq madaniyati shaxsning ichki olami uyg‘unligini, uning hayotiy tajribasi, bilimlari, axloq me’yorlari va ideallari yaxlitligini ta’minlashi asoslanadi.

D.A. Usarova o‘z tadqiqot ishida nutqiy kompetensiya - tildan foydalangan holda fikrni rivojlantirish qobiliyatini anglatishi ekanligini, nutqiy kompetensiya shaxsga uning oldida turgan vazifalarni, shu jumladan o‘ta aniq vazifalarni hal qilishda yordam beradi, jamiyatning keyingi ijtimoiy rivojlanishida faol ishtirok etishga imkon beradi, shuningdek, shaxsga doimiy ravishda faol bo‘lish imkonini beradi deya ta’kidlagan.

L.M. Mambetova o‘zining “9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” nomli tadqiqot ishida uzluksiz ta’limda nutqiy faoliyat takomillashuvi va o‘quvchilarning o‘z nutqi ustida ishlashiga imkon yaratuvchi bir mezon sifatida fanlararo integratsiyani keltirib o‘tgan. Yosh avlodning fikr jihatdan o‘tkirligi, yetuk jihatdan shakllanishida ona tili ta’limining naqadar muhim ekanligi, nutqiy jarayon-muloqot bevosita ona tili darslarida shakllanishiga alohida urg‘u berib o‘tgan.

Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida nutqiy kompetensiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Nutqiy kompetensiya ta’lim oluvchining turli nutqiy vaziyatlarda qabul qilingan axborotlarning mohiyatini anglash, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda fikrni mantiqiy izchillikda bayon qila olish qobiliyatidir. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi ular bir bo‘g‘ini bo‘lgan butun bir jamiyatda: oilasi, tengdoshlari ijtimoiy faoliyati davomida muloqotga kirishadigan insonlari bilan amalga oshiradigan nutqiy faoliyatida takomillashib boradi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rnini egallaydi, turli savol-javoblarda ishtirok etadi, o‘z fikrini himoy qiladi, munosabat bildiradi”.

Mazkur tadqiqot ishida nutqiy kompetensiyani tashkil qiluvchi tarkibiy qismlari bir-birini to‘ldirib turuvchi va taqazo etuvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan nutqiy jarayon ekanligi va nutqiy kompetensiyaning rivoji uchun muhim dolzarblik kasb etishini ta’kidlab o‘tgan.

Ye.M. Katonova odamning lisoniy, nutqiy va fikrlash qobiliyatlarini bir-biridan alohida shakllantirish va rivojlantirish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Aks holda, o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishib bo‘lmaydi. Hali qoidalarni bilmay turib, hech qanday ehtiyoj sezmay turib ikki yashar bolakay so‘zlarni bir-biriga bexato bog‘lay oladi, turlaydi, tuslaydi. Hatto ba’zan so‘z yasalishi qonuniyatlarini buzmagan holda mutlaqo yangi so‘zlar hosil qiladi.

D.A. Usarovaning tadqiqot ishi bevosita ingliz tilini o‘qitishda talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, ulardagi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlarini aniqlab bergan:(4-rasm)



4-rasm. D.A. Usarova. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlari.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida kommunikativ ong o‘ziga xos yo‘naltiruvchi funksiyani obyektiv ravishda amalga oshirishi, shaxs ongli yoki ongsiz ravishda muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan birgalikda hal qiladigan muayyan faoliyat vazifasiga mos keladigan mavzu mazmunini ochish uchun metodik jihatdan aniqlangan aniq imkoniyatlarni belgilab berishi ta’kidlangan.

A.D. Nuradilova “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishida talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi didaktik talablarga e’tibor qaratilishi borasidagi fikr-mulohazalrni ilgari surgan:

amaliyot uchun keng imkoniyatlarni ta’minlash: talabalar muntazam ravishda to‘g‘ri so‘zlashni mashq qilishlari kerak, shuning uchun mashg‘ulot jarayonida guruhlar bilan ishlashi, bahs-munozaralar, taqdimotlar, rolli o‘yinlar va boshqalar orqali amalga oshirishi zarur;

qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish: talabalar o‘zlarini erkin his qilgan holda mashg‘ulotlarni olib borishi kerak;

aniqlik va ravonlikni muvozanatlash: talabalarda aniqlik (grammatikani va lug‘atdan to‘g‘ri foydalanish) va ravonlikni (nutqning silliqligi, tezligi va tabiiyligi) rivojlantirish kerak.

aniq materiallardan foydalanish: videolar, yangiliklar maqolalari kabi asl materiallar talabalarga real hayotdagi tildan foydalanishni ochib berish orqali nutq qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi;

integratsiyalash texnologiyasi: audioyozuv vositalari yoki videokonferensiya aloqalaridan foydalanish orqali talabalar o‘z nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Bundan tashqari mazkur tadqiqot ishida o‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli orqali vaziyatlar pedagogik vaziyatni obyektiv baholash, muammolarga echim topish, refleksiv malakalarini tarkib toptirish nutqiy kompetensiya komponentlari integrativ xususiyatlarini didaktik yaxlitlash hamda muloqot jarayonini mustaqil faollashtirish asosida takomillashtirish, shu bilan bir qatorda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bilimlarni kasbiy-shaxsiy faoliyatda izchil qo‘llash hamda o‘qitishning reproduktiv-motivatsion, evristik-faoliyatli va muammoli-refleksiv ta’lim komponentlarini qo‘llashga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirish masalari oydinlashtirilgan.

A.D. Nuradilova o‘z ilmiy ishi orqali hozirda amaldagi boshlang‘ich sinf “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” darsliklari zamon talablari asosida yaratilgani va bu qay darajada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishda ahamiyatli jihatini ham tahlil qildik. Ushbu 2-, 3-sinf “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” darsliklarida ko‘proq o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi uchun berilgan rasmli, matnli, muammoli topshiriqlar o‘quvchilarga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi yoki tushunilish qiyin bo‘lgan olinma so‘zlarning izohi keltirilmasligi haqida ham to‘xtalib o‘tgan. Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion ta’lim metodikasi yuzasidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’lim berishning yangicha noan’anaviy usullaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni olib borish e’tiborga olingan.

L.M. Mambetova ham nutqiy kompetensiyani rivojlantirish borasida izlanishlar olib borib, tadqiqot ishida 9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik mazmuni, interfaol metodlar va matnli o‘qitish asosida o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi darslarni tashkil etishda adekvat ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida

ta’lim metodlarini tanlashda dars maqsadi, vazifalari, mazmuni, o‘quv materialini o‘rganish uchun ajratilgan vaqt hajmi, o‘quvchilarning bilish imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi, o‘quvchilar soni, o‘quv xonasining o‘quv, texnik va texnologik jihozlar bilan ta’minlanganligi, ta’lim beruvchining tayyorgarligi va shaxsiy sifatlari darajasi inobatga olingan.

Ushbu tadqiqotda ilgari surilgang‘oyalarniamaliyotgajoriyqilishmaqsadida 9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanqidiy fikrlash erkinligini oshirishga yo‘naltirilgan kommunikativlik va kollaboratsiya faoliyatining yaxlit mazmunini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan. 9-sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-motivatsion, faoliyatli-rivojlantiruvchi, jarayonli-kreativ va tahliliy bosqichlarida ona tili darslarida turli interfaol metodlardan foydalanildi. Xususan, 9-sinf ona tili darsligida o‘quvchilarning so‘zlash va yozish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid og‘zaki va yozma matn turlarini yaratish uchun turli mavzudagi matn sarlavhalari berilgan bo‘lib, o‘quvchilarning darslikda berilgan mavzu asosida matn yaratish mashq va topshiriqlarini bajarishda “Zinama-zina”, “Rasmni tasvirla”, “Kim? Nima? Qachon? Qayerda? Nima uchun?”va “Hikoyani davom ettir” metodlari qo‘llanilgan.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. zero, kognitiv rivojlanish ham bevosita nutqiy kompetensiyaga bog‘liq. Nutqning kengayishi ongli jarayon hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda bir qator tavsiyalarga amal qilishni joiz deb topdik:

nutqiy kompetensiyaning barcha jihatlarini bir xil rivojlantirish;

nutqiy kompetensiyaning har bir jihatini ko‘zlagan topshiriq, metod va usullardan foydalanish;

topshiriq va metodlarni o‘quvchilarning yosh xususiyati va qiziqishlariga mos ravishda tanlash;

jarayonni xolis, rang-barang va maqsadli olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Adizova, N.B., Adizova, N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. (2021) Buxoro: „Sadriddin Salim Buxoriy“ Durdona.-112 b.

2.K. Qosimova, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. (2009) Ona tili o‘qitish metodikasi. —T.: «NOSHIR», 35 b.

3.U.Masharipova. (2023) Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi.Diss...avtor... Toshkent.

4.L.M. Mambetova. (2023) 9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Diss...avtor... Toshkent.

5.A.D. Nuradilova. (2025) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.. Diss...avtor... Toshkent.

6.D.A. Usarova. (2024) Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Diss...avtor... Toshkent.

7.R.X. Jumayev. (2021) Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: -120 b

8.M.E. Toirova. (2023) Ona tili 3-sinf uchun darslik 1-qism, Toshkent “Novda Edutainment”.-88 b

9.D.D. Baynazarova. (2023) Ona tili 3-sinf uchun darslik 3-qism, Toshkent “Novda Edutainment”. - 96 b

10.M.E. Toirova. (2023) Ona tili 4-sinf uchun darslik 1-qism, Toshkent “Novda Edutainment”.-88 b

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUCHILARIDA DARSDAN VA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR O‘TKAZISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kasimov Asror Abdulloyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/ 0000-0002-6588-9328

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish yo‘llari, ta’lim jarayonida o‘quvchilarini interfaol metodlar hamda o‘yinlar asosida ijodkorligini rivojlantirish, yo‘llari va samaradorligi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, bolalar, maktab, qobiliyat, mashg‘ulot, dastur, ijtimoiy moslashuv, nutq, darsdan tashqari.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF EXTRACURRICULAR AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Kasimov Asror Abdulloyevich,
Bukhara State Pedagogical Institute Primary Education Teacher of the department

Abstract: This article describes ways to improve technologies for developing the creative abilities of primary school students, methods and effectiveness of developing students’ creative abilities based on interactive methods and games in the educational process.

Key words: Primary class, children, school, abilities, activities, program, social adaptation, speech, extracurricular activities.

Kirish: O‘rta maktabni tugatgandan so‘ng, ko‘pchilik o‘zlari qatnashgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni yaxshi eslashadi. Ular to‘garak, to‘garak, musobaqa va musobaqalar tufayli qimmatli saboq olganini tushunadi. Chet eldagi barcha maktab-internatlar o‘quv rejasidan tashqari turli xil tadbirlarni taklif qiladi: futbol, tennis, teatr san’ati, qo‘shiq, raqs, qilichbozlik, munozara, shaxmat, tillar va boshqalar. To‘garaklar va bo‘limlar o‘quvchilarning ufqlarini kengaytiradi, sevimli mashg‘ulotlariga kirishish va tinch, osoyishta muhitda nimanidir o‘rganish imkonini beradi. Xuddi shunday muhimi, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar yoshlarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.Asosiy qism: Chet elda maktab ta’limi shaxsning zaif tomonlarini ishlab chiqish va kuchli tomonlarini mustahkamlash imkonini beradi. Bu o‘quv dasturining o‘zi va barcha sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning maqsadi. Maktablar uchun ustuvor vazifalardan biri ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Bolalar guruhdagi boshqalar bilan aqlli munosabatda bo‘lish uchun turli madaniyatlar va nuqtai nazarlarni hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu ularning birgalikda o‘sishiga yordam beradi, bir-biriga o‘zaro hurmat va o‘ziga ishonch asoslarini yaratishga yordam beradi. Xorijdagi o‘rta maktab o‘quvchilari nafaqat samarali va to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rganadilar, balki jamiyatga hissa qo‘shishga qodir ekanliklarini ham tushunadilar. Xorijda maktabda o‘qish yoshlarning ijodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar ijodkorlik va tashqarida fikrlashni talab qiladi, bu sizni odatdagidan tashqariga chiqishga majbur qiladi. Masalan, o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalash muhim bo‘lgan xoreografiya bilan shug‘ullanadi, bahs-munozaralarda qatnashadi, notiqlik va mantiqni namoyon etadi, dasturlash to‘garaklariga a’zo bo‘ladi, innovatsion dasturlar ishlab chiqadi. Ijodiy yondashuv sizga ko‘proq narsaga erishishga imkon beradi va odatdagidan tashqariga chiqishga intiladigan odamlar muvaffaqiyatli etakchiga aylanadi. Chet eldagi maktab ta’limi sizga vaqtni oqilona boshqarishni o‘rgatadi. Vaqtni boshqarish talabalarga akademik va ijtimoiy hayotda yordam beradi, mas’uliyat va majburiyatni o‘rgatadi. O‘rta maktab o‘quvchilari uy vazifalarini bajarishda va to‘garaklarga borishda o‘zlariga ishonishlari kerak, chunki ularning ota-onalari nazorat funktsiyasini o‘z

zimmalariga olishmaydi. Kunni rejalashtirish va belgilangan muddatlarga rioya qilish qobiliyati yoshlarga nafaqat maktabda, balki universitetda, ishda va umuman hayotda yordam beradi. O‘qituvchining o‘zi rahbarlik qilayotgan fan bo‘yicha darsdan tashqari ishlari maktabdagi o‘quv-tarbiyaviy ishning tarkibiy qismi hisoblanadi.Sinfdan tashqari ishlar: O‘quvchilar uchun darsdan tashqari turli tadbirlarni tashkil etishdir. Bu ish maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish, kasbiy jihatdan o‘zini-o‘zi belgilashiga ko‘maklashish, jamiyat hayotiga moslashishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish ko‘pincha umumiy ta’lim yo‘lidan boradi, uning uslub va vositalaridan ko‘chiriladi. Bu usul, albatta, texnologik bo‘lib, amalga oshirilayotgan o‘quv jarayonining mazmunini va natijalarini qayd etishga imkon beradi, lekin u darsdan tashqari mashg‘ulotlarning xususiyatlarini aniqlamaydi va shuning uchun o‘quv jarayonining natijalariga erishishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, ko‘pincha sinfdan tashqari mashg‘ulotlar darsi darsdan farq qilmaydi.Har xil turdagi faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda - sinfdan tashqari va darsdan tashqari - mashg‘ulotlarni shunday qurish kerakki, ularning o‘tkazilishi bolaning psixologik va jismoniy yukini tushirish, shaxsiy va meta-kabi shakllanish faktidir.Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mashg‘ulotlar majmui bilan cheklanib qolmasdan, balki maqsadli qurilganligi va rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta’minlashi muhim. Sinfdan tashqari ish shakllarining quyidagi ko‘rinishi eng keng tarqalgan: individual, doira, birlashtiruvchi va ommaviy. Individual ish - bu individual talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil faoliyati.

O‘rta maktab o‘quvchilari uchun nima uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar muhim va ular nimani rivojlantirishadi?

Umumiy savol. Chet elda o‘rta maktab o‘quvchilaridan so‘radi. Unga javoban talabalar darsdan keyin nima qilishlarini aytishadi, ular qaysi klublarda, va nima uchun ular bu sevimli mashg‘ulotni tanladilar. Maktab ta’limi chet elda shaxsiyatning zaif tomonlarini ishlab chiqishga va kuchlilarini mustahkamlashga imkon beradi. Trening dasturi va barcha qo‘shimcha mashg‘ulotlar bunga qaratilgan. Maktablar uchun ustuvor vazifalardan biri bu ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Bolalar guruhdagi boshqa odamlar bilan birgalikda o‘zaro hamkorlik qilish uchun turli xil madaniyatlar va qarashlarni hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu ularga birgalikda o‘sishga yordam beradi, bir-birlariga o‘zaro hurmat va o‘z-o‘zini himoya qilishda yordam berishga yordam beradi. Chet elda o‘rta maktab o‘quvchilari nafaqat samarali va to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rganadilar, balki jamiyatga hissa qo‘shishga ham o‘rgatiladi.

Sinfdan tashqari ishlar tasnifi. Zamonaviy sinfdan tashqari mashg‘ulotlar har qanday o‘qituvchining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bunday tadbirlarni amalga oshirish o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.Hozirgi vaqtda maktab muassasasidagi darsdan tashqari mashg‘ulotlarda jamoadagi ba’zi mashg‘ulotlar yoki mashg‘ulotlarni tushunish odatiy holdir, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchining o‘zi yoki maktabning qolgan xodimlari tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bunday harakatlar, qoida tariqasida, har qanday yosh toifasidagi o‘quvchilar uchun tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Bugungi kunga kelib, maktabda turli xil faoliyat shakllari mavjud, ammo bu haqda keyinroq. Asosan, ko‘pincha bunday tadbirlarga turli xil o‘yinlar, o‘quv ekskursiyalari, muzeylarga tashriflar va boshqalar kiradi. Bunday o‘qitish usullarining samaradorligi va samaradorligi ko‘p jihatdan bunday o‘quv jarayonining usullari va usullarini tanlashga bog‘liq. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilariga to‘g‘ri xulq-atvor va maktab tadbirlarining turlarini samarali tanlash bilan ta’sir qilish muhimligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Har qanday o‘qituvchi biladiki, ko‘pincha o‘quvchining ma’lum bir maktab intizomiga bo‘lgan qiziqishi faqat biron bir sinfdan tashqari mashg‘ulot o‘tkazilganda paydo bo‘lishi mumkin. Aynan bir xil usullar zamonaviy talabaning kelajakdagi kasbini tanlashga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xo‘sh, ehtimol, ko‘pchilik bugungi kunda qanday maktab tadbirlari mavjudligini bilishni xohlaydi? Asosan, maktabda faoliyatni amalga oshirish turli usullarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Maktabda eng keng tarqalgan ishlar ijodiy faoliyat, turli to‘garaklar, turli ko‘rgazmalar,

olimpiadalar va jamoaviy musobaqalar tashkil etish hisoblanadi.Bundan kam qiziqarli maktab tadbirlari o‘qituvchi yoki qolgan maktab xodimlari tomonidan ommaviy bayramlar, shuningdek, katta yoshdagi o‘quvchilar uchun konferentsiyalar tashkil etish hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir bunday hodisa uni bir necha bosqichda amalga oshirishni nazarda tutadi. Birinchi qadam tadbirga tayyorgarlik ko‘rishdir. Ikkinchi bosqich muayyan maktab tadbirini o‘tkazish jarayonini o‘z ichiga oladi. Va nihoyat, uchinchi bosqich - bajarilgan ishlarni tahlil qilish. Maktabdan tashqari maktab faoliyatining tashkilotchilari odatda o‘qituvchilardan ushbu turdagi faoliyatni tayyorlash uchun mo‘ljallangan ma’lum xarajatlarni to‘lashni talab qiladilar, chunki ma’lum bir mavzu bo‘yicha qiziqarli va ma’lumotli materialni topish kerak. Zero, bu tadbir, avvalo, maktab o‘quvchilarini nafaqat qiziqtirishi, balki ularni ana shunday hayratlanarli ilm olamiga jalb qilishi kerak.Shu bilan birga, muayyan hodisaning barcha mavjud bosqichlarini diqqat bilan rejalashtirish, ma’lumotni taqdim etish usullari va vositalarini tanlash, darsni tashkil etish turini aniqlash kerak. Axir, faqat shunday vaziyatda, maktabdagi voqealarning barcha bunday rivojlanishi, oxir-oqibat, eng samarali natijalarni berishi mumkin.Bundan tashqari, o‘qituvchi ishda qanday stsenariylardan foydalanishi mumkinligiga kelsak, shuni ta’kidlash kerakki, maktab muassasasidagi voqea stsenariysining o‘zi voqea mazmunini har tomonlama ishlab chiqishni nazarda tutadi. to‘g‘ri mantiqiy zanjir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri stsenariyning o‘zida tadbirning asosiy mavzusi, shuningdek, yakuniy maqsadlar to‘liq ochib berilishi kerak.

Ko‘p jihatdan, har qanday maktab tadbiri uchun oldindan tuzilgan skript maktab o‘quvchilarining yoshiga mos kelishi kerakligi ham muhimdir. Bugungi kunda maktabda giyohvand moddalarning inson tanasiga ta’siri yoki hayvonlarning ayrim turlari bilan aloqa qilishda xavfsizlik qoidalari kabi juda muhim masalani ko‘taradigan tadbirlar tez-tez o‘tkaziladi.

Shunday qilib, bugungi kunda maktabda qanday tadbirlar mavjudligi bilan hamma narsa aniq, lekin ular nima uchun mo‘ljallanganligini hali ham aniqlashtirish kerak. Bajarilgan bunday ish, natijada maksimal foyda keltirishi uchun, hodisaning stsenariysi har qanday holatda ham yaxshi ishlab chiqilgan va mantiqiy bayon qilingan aniq syujetdan iborat bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, konfliktli vaziyatning mavjudligi bu erda majburiy element hisoblanadi. Axir, bunday elementsiz stsenariy unchalik yorqin bo‘lmasligi va maktab o‘quvchilarining e’tiborini tortmasligi mumkin. Turli shakllardagi maktab tadbiri tugallangandan so‘ng, o‘qituvchi ushbu hodisani tahlil qilishi kerak. Hozirgi vaqtda psixologik-pedagogik tahlil va shunga mos ravishda mavzu-mazmun tahlili niqobi ostida zamonaviy maktab tadbirlarining bir nechta turlari mavjud. Ikkinchi variantda esa voqeaning mazmun-mohiyati va foydalanilgan axloqiy tarbiya usullari tahlil qilinadi. Ammo birinchi holda, voqeani o‘qituvchining o‘zi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak. Bunday vaziyatda ma’lum bir voqea mavzusining asosliligi baholanadi. Va shundan keyingina siz maktabdagi muayyan tadbirning asosiy maqsad va vazifalarini tahlil qilishni boshlashingiz mumkin. Bunday darslar davomida maktab o‘quvchilarining faolligi o‘qituvchining tanlangan maktab materialini o‘quvchilarga qanchalik yetkaza olganligini va tadbirni o‘tkazish usullari to‘g‘ri tanlanganligini baholash imkonini beradi. Va nihoyat, bunday mustaqil tahlilning eng oxirgi bosqichi voqeaning pedagogik ahamiyatini va har qanday o‘quvchining individual yoki bevosita jamoada keyingi rivojlanishi uchun harakatlarning ahamiyatini aniqlash hisoblanadi. Har qanday o‘qituvchi, hamma narsadan tashqari, bajarilgan harakatlarning o‘zini o‘zi tahlil qilishi kerak. Bunday tahlil maktab tadbirini iloji boricha samarali o‘tkazish mumkinmi yoki yo‘qligini to‘g‘ri baholashga imkon beradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘zining o‘qituvchilik mahorati darajasini ham aniqlashi mumkin. Ehtimol, tadbir tashkilotchisi shundan keyin nimani tuzatish kerakligini va nimani butunlay chiqarib tashlash kerakligini aniq belgilashi mumkin. Shunday qilib, bugungi kunda maktab tadbirlarining ko‘plab turlari va shakllari mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi bolaning rivojlanishiga va muayyan muhim muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Maktabdagi sinfdan tashqari ishlar-maktab ta’lim jarayonining ajralmas qismi, asosiy ta’lim dasturi bo‘lib, o‘quv va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muammolarini kompleksda hal qilish uchun mo‘ljallangan, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish shakllaridan biridir.Sinf va sinfdan tashqari

ishlar o‘rtasidagi uzluksizlik nafaqat o‘quvchilarning unda ishtirok etishga tayyorligini oshirish orqali faoliyatini rag‘batlantiradi, balki o‘quv va darsdan tashqari mashg‘ulotlar motivlarini o‘zida mujassamlashtirib, bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash imkonini beradi. Davomiylikni saqlash natijasi darsda olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish va mustahkamlashdir.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi - bolalarda bilim va ijodga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga ko‘maklashish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish, sog‘lom turmush tarzini joriy etishdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning asosiy vazifalari:

•o‘quvchilarning turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash;

•har bir bolaning tanlangan sinfdan tashqari faoliyat sohasida rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

•o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari tizimini shakllantirish;

•ijodiy faoliyat tajribasini, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

•o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

•maktab o‘quvchilari va jamiyat o‘rtasidagi aloqa doirasini kengaytirish;

•o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan tuzatish ishlari.

•Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va hokazo. -Talabalarda intizom va mas’uliyat, o‘qishga bo‘lgan qiziqish, sinfda ishlash samaradorligi, o‘qituvchilar va ularning do‘stlariga nisbatan yaxshi niyat rivojlanadi. Maktabda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tizimini tashkil etishning ko‘plab variantlari bo‘lishi mumkin. Har bir aniq holatda, maktabning asosiy ta’lim dasturida ko‘rsatilgan va uning barcha bo‘limlari bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalardan kelib chiqish kerak (o‘quvchilarning universal ta’lim faoliyatini shakllantirish dasturi, sog‘lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyati va boshqalar)

Sinfdan tashqari to‘garak ishlari fan, amaliy ijod, san’at yoki sportning ma’lum bir sohasiga qiziqish va ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bu erda eng ommabop shakllar - sevimli mashg‘ulot guruhlari va sport seksiyalari (mavzu, texnik, sport, badiiy). To‘garaklarda har xil turdagi darslar o‘tkaziladi: adabiyot asarlarini muhokama qilish, ekskursiyalar, laboratoriya mashg‘ulotlari, hunarmandchilik qilish va boshqalar. To‘garakning yil davomidagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot ko‘rgazma, ko‘rik yoki bolalar ijodiyoti festivali shaklida amalga oshiriladi. va boshqalar.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi Sinfdan tashqari ishlar pedagogik faoliyatning muhim elementidir. Darsning vaqti cheklangan, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar darsda boshlangan jarayonni davom ettiradi va chuqurlashtiradi, shuningdek, bo‘sh vaqtni qiziqarli va ma’rifiy o‘tkazishni ta’minlaydi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulot nima Dars davomida hamma bolalar ham o‘zlarining ijodiy va intellektual salohiyatini to‘liq ochib bera olmaydilar. Barcha sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning umumiy maqsadi maktab o‘quvchilarini barkamol ta’lim va har tomonlama rivojlantirishdir. Ular bolalarda dunyoga, ularning shaxsiyatiga nisbatan ma’lum qadriyatlar va munosabatlar tizimini shakllantirishga yordam beradi; milliy va jamoat madaniyati va an’analari bilan tanishtirish.

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari

Ular ko‘p jihatdan o‘qituvchi oldida turgan mavzu, maqsad va vazifalarga, shuningdek, o‘quvchilarning yoshiga bog‘liq. Eng keng tarqalganlari orasida quyidagilar mavjud:

Munozaralar:Ular mavzu yoki muammoli masalani muhokama qilishni nazarda tutadi. Ular o‘z nuqtai nazarini ifoda etish va himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Bu munozaralar, davra suhbatlari, ma’ruzalar, keyin muhokamalar bo‘lishi mumkin.

Tayyorgarlik: Ushbu bosqichda o‘qituvchi qaysi mavzu va ta’lim yo‘nalishi ma’lum bir sinf va

har bir o‘quvchi uchun eng qiziqarli bo‘lishini aniqlaydi. Buning uchun siz o‘quvchilar va ularning ota-onalari o‘rtasida so‘rov o‘tkazishingiz mumkin. Mavzuni aniqlagandan so‘ng, o‘qituvchi sinf (va agar xohlasa, ularning oilalari) bilan birgalikda tadbirning maqsad va vazifalarini belgilaydi, uning shaklini tanlaydi, reja tuzadi, zarur materiallar va jihozlarni belgilaydi.

Sinfni rejalashtirish va tashkil etishga jalb qilish ham ta’lim faoliyatining bir qismidir.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Sinfdan tashqari to‘garak ishlari fan, amaliy ijod, san’at yoki sportning ma’lum bir sohasiga qiziqish va ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bu erda eng ommabop shakllar - sevimli mashg‘ulot guruhlari va sport seksiyalari (mavzu, texnik, sport, badiiy). To‘garaklarda har xil turdagi darslar o‘tkaziladi: adabiyot asarlarini muhokama qilish, ekskursiyalar, laboratoriya mashg‘ulotlari, hunarmandchilik qilish va boshqalar. To‘garakning yil davomidagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot ko‘rgazma, ko‘rik yoki bolalar ijodiyoti festivali shaklida amalga oshiriladi. va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 77

2. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги қонуни. палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган. ЎРҚ-637. 23.09.2021. https://lex.uz/ru/docs

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сон қарори.

4. Выготский Л. С. Мышление и речь: монография - Москва: Директ-Медиа, 2014.-570 с.

5. Кулагина, И. Ю. Младшие школьники: особенности развития [Текст] / И. Ю. Кулагина. – М. : Эксмо, 2009. – 83 с.

6. Бикваева Н.И., Е.Янгабаева. Математика 3-синф. Т., 2004.-Б. 12-13.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLSHGA O‘RGATISHDA PROPORSIONAL BOG‘LANISHGA DOIR MASALALARNING ROLI

Kasimov Fayzullo Muhammadovich
Buxoro davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi professori

Qosimova Mavlyuda Muhammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/0000-0002-2909-6216

Annotatsiya:Bu maqolada boshlang’ich o’quvchilarini kreativ fikrlashga o‘rgatishda tipik arifmetik masalalar haqida qisqacha ma’lumot berilgan, ayniqsaproportsional bog‘lanishga doir masalalarning roli va ularni yechishga o‘rgatish metodikasiyoritilgan

Tayanch so`zlar: masala, arifmetik masala, tipik arifmetik masalaarifmetik amal,topshiriq, proportsional bog’lanishga doir masalalar, uchlik qoidasi

РОЛЬ ПРОПОРЦИОНАЛЬНЫХ СВЯЗЕЙ В ОБУЧЕНИИ ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ У НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ

Касимов Файзулло Мухаммадович
Бухарский государственный редагогический институт, Профессор кафедры начального образования

Qosimova Mavlyuda Muhammadovna
Бухарский государственный редагогический институт, Доцент кафедры начального образования

Аннотация: В данной статье представлена краткая информация о типичных арифметических задачах при обучении младших школьников креативному мышлению, особенно освещена роль задач на пропорциональные зависимости и методика обучения их решению..

Ключевые слова: задача, арифметическая задача, типичная арифметическая задача, арифметическое действие, задание, задачи на пропорциональные зависимости и правило трёх.

THE ROLE OF PROPORTIONAL CONNECTION ISSUES IN TEACHING CREATIVE THINKING IN ELEMENTARY STUDENTS

Kasimov Fayzullo Mukhammadovich
Bukharsky gosudarstvennyy redagogichesky institute Professor of the Department of Child Education

Qosimova Mavlyuda Muhammadovna
Bukharsky gosudarstvennyy pedagogichesky institute Associate Professor of the Department of Child Education

Annotation: This article provides a brief overview of typical arithmetic problems in teaching primary school students creative thinking, with particular emphasis on the role of problems involving proportional relationships and the methodology for teaching their solutions..

Keywords: This article examines concepts such as problem, arithmetic problem, typical arithmetic problem, arithmetic operation, assignment, problems involving proportional relationships, and the rule of three.

Maktab matematika ta`limi oldida turgan bosh talablardan biri – mustaqil fikr yurituvchi ijodiy tafakkur sohibi, o`quv topshiriqlarini bajarishda kreativ yondashuvchi shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bunday yuksak ishlarni samarali tashkil etish, ta’lim tizimini isloh etish yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish, tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Mana ikki yildirki barcha 1-4-sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida tahsil olib kelmoqda.Boshlang‘ich sinflar uchun yangi «Matematika» o‘quv darsliklari o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirib, ularni tanqidiy tahlil qilishga, kreativ fikrlashga, jamoa bo‘lib muammoni hal qilishga, kommunikatsion texnologiyalardan o‘rinli foydalanishga, mantiqiy topshiriqlarni kretiv yondashgan holda hal qilishga, o‘z fikrini erkin bayon eta olishga o‘rgatadi. Yangi avlod darsliklarida turli mazmundagi o‘quv topshiriqlari bilan bir qatorda masalalar va ular ustida ijodiyishlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, tipik arifmetik masalalar o`quvchi mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyatini oshirish bilan bir qatorda, ularning erkin, mustaqil fikrlashini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Uzoq yillik kuzatishlar va maktablar tajribasi shuni ko`rsatadiki, boshlang`ich sinf o`quvchilari tipik arifmetik masalalarni yechishga qiynaladilar. Bundan hatto ayrim boshlang`ich sinf o`qituvchilari ham mustasno emas. Boshlang`ich sinf matematika darsliklarida ayrim bir tipga mansub masalalar uchrasada, bunday masalalar ustida mushohada yuritib, uni to`liq tahlil qilib, yechim yo`llarini izlash borasida ko`pchilik boshlang`ich sinf o`quvchilari ayrim kamchiliklarga yo`l qo`yadilar.

Murakkab matnli masalalar ichidan bir xil ketma-ketlikda bajariladigan va bir xil amallar bilan yechiladigan qator masalalarni ajratish qiyin emas. Bunday masalalarni bir turdagi masalalar deb aytish mumkin. Lekin ba`zi muhim belgilarga ega bo`lib, o’ziga xos yechim yo’liga ega bo’lgan murakkab masalalarni metodika kursida tipik arifmetik masalalardebqabul qilingan.

Tipik masalalarning o`ziga xos belgisi ularning tipik bo`lmagan masalalarga qaraganda ancha qiyinroq bo`lishi va ularni yechish uchun maxsus mulohaza usullarini qo`llash zarurligidadir.

Tipik arifmetik masala tushunchasi ko`plab arifmetikaga oid adabiyotlarda o`z ifodasini topgan bo`lib, ularning o`ziga xos xususiyatlari, boshlang`ich sinf matematika kursida o`rganiladigan tipik arifmetik masalalar ustida ishlash muammosi hali to`liq o`zyechimini topmagan.Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida 14 tipga doir masalalar uchraydi. Darsliklarni tahlil qilar ekanmiz masalalar ichidan proportsional bog ‘lanishga doir masalalar ko‘p uchratish mumkin. Mazmun jihatdan bunday masalalarni proportsional bog‘lanishda bo‘lgan miqdorlarga doir masalalarni yechish , “to‘rtinchi proportsionallik”ka doir masalalar yoki bunday masalalarni “uchlik” qoidasidagi masalalar ham deyish mumkin. Mazkur masalalarni ikkiga ajratib, “oddiy (sodda) uchlik” qoidasiga doir, “murakkab uchlik” qoidasiga doir masalalar deyish qabul qilingan. Bunday masalalar matnida to‘g‘ri yoki teskari proporsional bog‘lanishda bo‘lgan ikkita miqdor tilga olinadi. Ulardan birining ikkita qiymati berilgan bo‘ladi.Ikkinchi miqdorning birinchi miqdor qiymatiga mos keluvchi qiymatlaridan bittasi berilgan bo‘lib, ikkinchisiga mos qiymatni topish talab etiladi. Demak “oddiy uchlik qoidasi” deb nom berilishiga sabab, bu qoidaga oid har bir masalaga uchala son ma’lum bo‘lib, ularga proportsional bo‘lgan to‘rtinchi son ya’ni “to‘rtinchi proportsional son” izlanadi. To‘g‘ri proportsional miqdorlar bilan berilgan oddiy uchlik qoidasiga doir masalalar boshlang‘ich sinflarda, asosan, to‘rt xil usulda yechiladi.

I.To‘g‘ridan – to‘g‘ri birlikka keltirish usuli. Bu usul karrali nisbat komponent (had)lari har ikkala miqdorga tegishli bo‘lib, uchinchi ma’lum son bo‘luvchi bilan bir jinsli bo‘lgan hollardagina ishlatiladi. Masalan: Komyuterchi uchta kompyuterda bir soatda 36 varaq matni teradi. Xuddi shunday ishlaganda, 5 ta komyuterchi bir soatda necha vaqar matnni teradi? Bu masalaning qisqacha sharti quyidagicha yoziladi:

3 ta kompyuterchi 1soatda– 36 varaq,

5 ta kompyuterchi 1soatda - ?

Bunday masalalarni “to‘liqsiz muhokama” qilish yo‘li bilan yecha boshlash kerak. 5 ta komyuterchi bir soatda necha varaq matn chop eta olishini biz birdaniga topa olmaymiz, chunki bitta kompyuterchi bir soatda necha varaq matn chop etishi bizga ma’lum emas. Lekin biz buni darhol topa olamiz. Chunki bizda uchta kompyuterchi bir soatda 36 ta varaq matn tergani ma’lum (36 : 3)

Endi 5 ta shunday kompyuterchi necha varaq matn terganini topa olamiz (12 x 5). Keyinchalik kompyuterchilar soni bilan terilgan matnlar miqdori to‘g‘ri proportsional bog‘lanishdan ekanligini ochib berish maqsadida mulohazaning maxsus turini kiritish foydali. Agar 3 ta kompyuterchi bir soatda 36 varaq matn tergan bo‘lsa, bitta kompyuterchi bir kunda 3 marta kam matn tera oladi. Agar birta kompyuterchi 1 soatda 12 varaq matn tergan bo ‘lsa, 5 ta kompyuterchi undan 5 marta ko‘p matn teradi.

Yechilishi: 1) 36 : 3 = 12 (varaq)

2) 12 x 5 = 60 (varaq) yoki (36 : 3) x 5 = 12 x 5 = 60 (varaq)

Javob: 5 ta kompyuterchi bir soatda 60 varaq matn tera oladi.

Demak masalabirlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirish usuli bilan yechilsa, yechimdateng bo‘laklarga bo‘lish va bitta ko‘paytirish amali ishtirok etadi.

II. Qayta birlikka keltirish usuli. Bu usul karrali nisbat komponentlari har ikkala miqdorga tegishli bo‘lib, uchinchi ma’lum son bo‘linuvchi bilan bir jinsli bo‘lgan hollarda ishlatiladi. Masalan: Kompyuterda 3 ta kompyuterchi bir soatda 36 varaq harf teradi. Xuddi shunday ishlaganda 60 varaq matnni bir soatda nechta kompyuterchi bajara oladi? Masalaning qisqacha sharti quyidagicha yoziladi:

3 ta kompyuterchi 1 soatda - 36 varaq

? ta kompyuterchi 1soatda- 60 varaq

Bu masalaning muhokamasiga yuqoridagi usullardan istalganini qo‘llsh mumkin. Chunki har ikkala masalada ham birinchi savol bir xil ifodalanadi, ya’ni 1 ta kompyuterchi bir soatda necha varaq matnni tera oladi degan savolga javob topiladi. Ikkalasida ham savolga javob bir xil amal bilan yopiladi. Bu teng bo‘laklarga bo‘lishdir. Demak ikkala masalaning birinchi ishi birlikka keltirish usulidir. Birinchi masalada komyuterlar soni berilgan bo‘lib, izlanadigan son varaqlar miqdoridir. Ikkinchi masalada, aksincha, varaqlar miqdori berilgan, komyuterlar soni esa izlanadigan sondir. Ya’ni ikkinchi masala birinchi to‘g‘ri masalaning teskari masalasidir. Shu bois ikkinchi masala yechimini qayta birlikka keltirish usuli deyiladi. Yechim to‘g‘risida quyidagicha mulohaza yuritiladi. Agar 3 ta kompyuterchi bir soatda 36 varaq matn tergan bo‘lsa, bitta kompyuterchi undan 3 marta kam varaq harf tera oladi. Agar bitta kompyuterchi 12 varaq harf tera olgan bo‘lsa, 60 varaq harf terish uchun 60 dan 12 marta kam kompyuter kerak bo‘ladi. Ikkinchi masalaning yechilishi: 1) 36 : 3 = 12 (varaq)

2) 60 : 12 = 5 (varaq) yoki 60 : 12 = 5 (varaq)

Javob: 60 varaq matnni bir soatda 5 ta kompyuterda tera oladi.

Qayta birlikka keltirish usuli bilan yechiladigan masalalar savoliga ikkita bo‘lish amali bilan javob topiladi. Bunda birinchi bo‘lish “teng bo‘laklarga bo‘lish” bo‘lib, ikkinchisi “karrali bo‘lish” bo‘ladi.

III.Nisbatlar usuli Bu usul “sodda uchlik”ka doir masalalar ichida faqat bitta miqdorning berilgan ikkita qiymatini ifodalaovchi sonlar bir - birining karralisi bo‘lgandagina qo‘llash mumkin. Bunday usulda o‘quvchilarni tayyorlash uchun ularga oldindan taxminan quyidagidek mashqlarni yechdirish mumkin. “16 kgnecha marta 4 kg dan katta? ”, “30 soni necha marta 5sonidan katta?”, “72 soni 12 sonidan necha marta katta?” va hokazo. Bu kabi mashqlardan keyin o‘quvchilarga birlikka keltirishga doir tayyor masalalar taklif qilinadi.”O‘quvchi ikkita bir xil daftar olib, 400 so‘m toladi. U shunday 4 ta daftar uchun qancha to‘lashi kerak? ” Bu masalani oldin o‘quvchilar o‘zlariga tanish bo‘lgan birlikka keltirish usulu bilan yechiladilar. 400 : 2 x 4 = 800 (so‘m) Keyin o‘quvchi bu masalani boshqacha usul bilan yechish mumkinligini aytadi va yechim ustida quyidagicha mulohaza yuritadi. Bizda 2 ta bir xil daftar uchun 400 so‘m pul to‘langani ma’lum. Demek, 4 ta shunday daftar uchun 2 daftarga qaraganda 4 soni 2 sonidan necha marta katta bo‘lsa, shuncha marta ortiq pul to‘lash kerak,deydida, masala yechimini quyidagicha yechib ko‘rsatadi. Yechilishi: 1) 4 : 2 = 2 (marta)

2)400 x 2 = 800 (so‘m) yoki 400 x (4:2) = 400 x 2 = 800 (so‘m)

Javob: 4 ta shunday daftar uchun 800 so‘m to‘lash kerak.

Keyin shu masalaga teskari masala tuzib ko‘raylik. “O‘quvchi 2 ta bir xil daftar olib 400 so‘m to‘ladi. 800 so‘mga shunday daftardan nechtasini olish mumkin?” Dastlab bu masalani mulohaza yuritish yo‘li bilan o‘zlariga tanish bo‘lganqayta birlikka keltirish usulu bilan o‘quvchilar yechadilar 800 : (400 : 2) = 800 : 200 = 4

Keyin bu masalani ham nisbatlar usuli bilan ham yechib ko‘rsatadi. Yechim ustida quyidagicha mulohaza yuritiladi. 400 so‘mga 2 ta daftar olinganligi ma’lum. Demak 800 so‘mga shunday daftardannechta olish mumkin ekanligi aniqlash uchun

800 so‘m 400 so‘mdan necha marta ortiq bo‘lsa olinadigan daftarlar soni ham 2 ta daftardan shuncha marta ortiq bo‘lishi kerakligini uqtirgan holda

Yechilishi: 1) 800 : 400 = 2 (marta)

2) 2 x 2 = 4 (ta) yoki 2 x (800 : 400) =2 x 2 = 4 (ta)

Javob: 800 so‘mga shunday daftardan 4 tasini olish mumkin.

Bu usul masala yechimida ishlatiladigan amallar to‘g‘risida gapirganda shunday deyish lozim. Masalada bitta miqdorning berilgan ikkita qiymatini ifodalovchi sonlar bir-birining karralisi bo‘lib, ulardan qiymati izlanuvchisi, qiymati berilganidan katta bo‘lsa, masala bir bo‘lish va bir ko‘paytirish amallari orqali yechiladi, agar kichik bo‘lsa, masala ikkala bo‘lish amali orqali yechiladi. Yana shunday uchlik qoidasiga doir masalalar borki, ularni birlikka keltirish usuli bilan,qayta birlikka keltirish usuli bilan yechib bo‘lmaydi. Yechimda faqat nisbatlar usuli qo‘l keladi. Masalan: tegirmonda 100 kg bug‘doydan 70 kg sof un chiqadi. 300 kg bug‘doydan qancha sof un chiqadi?

Masalaning qisqacha sharti:

100 kg bug‘doudan -70 kg sof un

300 kg bug‘doydan -? kg sof un

O‘quvchilar bu masalani o‘zlari o‘rganibolgan usul -qayta birlikka keltirish usuli bilan yechishga harakat qiladilar, mayli ularga to‘sqinlik qilish kerak emas. Toki o‘quvchilarning o‘zlari bu usul bilan bu masalani yechib bo‘lmasligiga ishonsh hosil qilishsin. Chunki bunda 100 kg ni 70 ga butun son marta bo‘lib bo‘lmaydi. Masalani faqat nisbatlash usulida yechish mumkin. 300 kg bug‘doy 100 kg bug‘doydan necha marta katta bo‘lsa, undan olingan sof un miqdori ham 70 kg dan shuncha marta ortiq bo‘ladi. Bu masala karralab bo‘lish va ko‘paytirish amali bilan yechiladi. Yechish; 1) 300 : 100 = 3 (marta)

2) 70 x 3 = 210 (kg) yoki 70 x (300: 100) = 70 x 3 = 210 (kg)

Javob: 300 kg bug‘doydan 210 kg sof un chiqadi.

Ikkinchi bir masalani ko‘raylik:

Masala: 300 kg bug‘doydan 210 kg sof un olindi. 100 kg bug‘doydan necha kg sof un olinadi?

Masalaning qisqacha sharti:

300 kg bug‘doy-210 kg sof un

100 kg bug‘doy- ? kg sof un

Bu masalada ham 300 soni 210 soniga butun marataba bo‘linmaydi. Demak, masalani faqat nisbot usuli bilan yechish mumkin. 100 kg bug‘doy 300 kg bug‘doydan necha marta kichik bo‘lsa, olingan sof un miqdori ham 210 kg dan shuncha marta kam bo‘ladi. Masala karralab bo‘lish vat eng bo‘laklarga bo‘lish bilan yechiladi.

Yechilishi: 1) 300 : 100 = 3 (matra)

2) 210 : 3 = 70 (kg) yoki 210 :(300 : 100) =210 : 3 = 70 kg

Javob: 100 kg bug‘doydan 70 kg sof un olingan.


Ko‘rib turibmizki, bu ikkala masaladan har birining yechilishi “karrali solishtirish” dan boshlanadi. Tajribada yana shunday oddiy uchlik qoidasiga doir masalalar uchraydiki, miqdorlardan birini berilgan ikki qiymatlarni karrali solishtirib bo‘lmaydi. Bunday masalalarni “birlikka keltirish” va“nisbatlar usuli” bilan yechib bo‘ladi. Shunday paytda bu masalalarni yechish uchun “karrali bo‘laklar” usuli qo‘llanadi.

Masala: 100 kg bug‘doydan 70 kg sof un chiqadi. 210 kg bug‘doydan necha kg sof un chiqadi?
Masalaning qisqacha sharti:
100 kg bug‘doydan - 70 kg sof un
210 kg bug‘doydan - ? kg sof un


Masalaning yechimi ustida mulohaza: bu masalani birlikka keltirish usuli bilan ham, nisbatlar usuli bilan ham yechib bo‘lmaydi, chunki70 soni ham,210 soni ham100 ga butun son ko‘rinishida bo‘lib bo‘lmaydi. Ammo biz 20 kg dan qancha sof un chiqishini bilishimiz mumkin. Undan keyin esa masalani nisbatlar usuli bilan yechish mumkin bo‘ladi. Dastlab 100 kg ichida 20 kg necha marta borligini bilamiz. Buning uchun 100 kg ni 20 kg ga bo‘lamiz. (100 : 20) =5 chiqadi. Demak 20 kg 100 kgning beshdan bir bo‘lagi. Sonning beshdan bir bo‘lagini topish uchun uni beshga bo‘lish kerak. (70 : 5). Demak, 20 kg bug‘doydan 14 kg sof un chiqadi. Endi 220 kg bug‘doydan qancha sof un chiqishini bilamiz. Buning uchun 220 kg ichida 20 kg necha marta borligini bilish kifoya (220 : 20). Demak 220 kg bug‘doydan 14 kg sof un emas, balki undan 11 marta ortiq sof un chiqadi (14 x 11).

Masalaning yechimi: 1) 100 : 20 = 5 (marta)
2) 70 : 5 = 14 (kg)
3) 220 : 20 = 11 (marta)
4) 14 x 11 = 154 (kg)
Javob: 220 kg bug‘doydan 154 kg sof un chiqadi.

Biz bayon qilgan to‘rtta usulning massasi boshlang‘ich sinflarda masalalarni butun sonlar sohasida yechish kerak degan talabga bo‘ysunadi. Yechimda kasr sonlari bo‘lishi mumkin desak, unda uchlik qoidasiga doir masalalarning barchasini shu to‘rt usulning istalgan biri bilan yechish mumkin. Yangi avlod darsliklarini tahlilqilar ekanmiz, quyidagi ko‘rinishdagi proportsional bog‘lanish va uni tayyorlashgadoir masalalar uchraydi




10. Shifokor bemorga dori yozib bermoqchi. Bemor dorini bir kunda vaznining har 10 kilogramiga bitta donadan ichishi kerak. Vazni 40 kg bo'lgan bemor bir kunda necha dona dori ichishi kerak? Vazni 50 kg bo'lsa-chi? 80 kg bo'lsa-chi?



5. Masalani yechishda jadvaldan foydalaning.
Kulol birinchi kun 40 ta ko'za yasadi, ikkinchi kun esa birinchi kundagidan 16 ta ortiq ko'za yasadi. U hammasi uchun 12 soat sarfladi. Agar kulolning ish unumdorligi o'zgarmagan bo'lsa, u har kuni necha soat ishlagan?

	A		v	t	
I	40 ta	? k.	Bir xil	? h	12 h
II	?, 16 ta ko'p			? h	



Bunday ko’rinishdagi masalalarni yechish orqali o‘quvchilargaproportsional bog‘lanishga doir masalalar yechish metodikasini o‘rgatish bilan birga ularni kreativ fikrlashga, solishtirish va taqqoslash hamda umumlashtirishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Shu o ‘rinda ta’kidlash joizki, masala yechish jarayonida har bir o‘quvchining fikri inobatga olinsagina, u erkin fikrlaydigan, o ‘z fikrini erkin bayon qila oladigan bo‘ladi va kelajakda dunyo bozorida raqobatbardosh kadr bo ‘lib ulg‘ayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov, F. M.,Qosimova, M. M. (2022). Matematikadan ijodiy o‘quv topshiriqlarining metodik xususiyatlari. boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2(2), 206-211.

2. Qosimov, M. F., Kasimov, F. F. (2021). Methods of teaching to solve non standard problems. Middle European Scientific Bulletin, 11.

3. Muhammedovich, Q. F.,Muhammedovna, Q. M. (2022). Boshlang’ich sinfda orta arifmetik sonni topishga doir masalalar yechishga o’rgatish metodikasi. барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(4), 358-362.

4. QOSIMOVA. M. (2020). On some typical problems to be solved in primary schools: on some typical problems to be solved in primary schools. центр научных публикаций (buxdu. uz), 2(2).

5. Muhammedovich, Q. F.,Muhammedovna, Q. M. (2022). Boshlang’ich sinfda orta arifmetik sonni topishga doir masalalar yechishga o’rgatish metodikasi. барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(4), 358-362.

6. Kasimov, F. M.,Qosimova, M. M. Technology of work on comparison tasks.

7. Kasimova M.M. 2024 For the Research Paper Title “Working on collaborative problems in elementary math lessons” Volume0412-11-2024

8. M. M. Qosimova S. E. Ikromova Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini kreativ fikrlashga o‘rgatishda tipik arifmetik masalalarning roli. maktabgacha va maktab ta’limi. 2025 yil mart

9. F.M.Kasimov M.M.QosimovaPossibilities of using problemed learning in teaching geometric concepts in primary grades.volume04 issue11 DOI: https://doi.org/10.55640/eijp-04-11-21 Pages:106-112

MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kosimov Firdavs Fayzullo o’g’li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning nazariy asoslari, didaktik xususiyatlari hamda pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Masofaviy o‘qitishning mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mustaqil ta’limni samarali tashkil etish omillari, talabalar faoliyatini faollashtiruvchi motivatsion mexanizmlar va ijodiy yondashuvning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiyalar, didaktik tamoyillar, motivatsiya.

Kirish. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi oliy ta’lim jarayonida masofaviy ta’lim shakllarining keng joriy etilishiga olib keldi. Bu jarayon talabalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, mustaqil ta’limning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Masofaviy ta’lim sharoitida o‘qitish jarayonini to‘g‘ri loyihalash, didaktik tamoyillarni individuallashtirish, talabalarda yuqori motivatsiyani shakllantirish va o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirish pedagogik jihatdan muhim masalalardan hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “masofaviy o‘qitish” (distance learning), “elektron o‘qitish” (e-learning), “tarmoq ichida o‘qitish” kabi tushunchalar mazmunan farqlansa-da, ularning barchasi ta’lim jarayonining masofadan turib amalga oshirilishini bildiradi [3; 4].

Bugungi kunda ta’limning zamonaviylashuvi, mustaqil ta’lim olish imkoniyatini oshirish maqsadida masofaviy ta’limni tadbiq etish butun Oliy ta’lim jarayonida keng ommalashib bormoqda. Bu esa masofaviy ta’lim sharoitida o’qitish jarayonini to’liq loyihalash, o’rganish, o’rgatishning innovatsion usullari hamda qoidalarini individuallashtirish, mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirish, talabalarning intellectual qobiliyatlarini oshirish, o’quv materiallarining mustaqil qabul qilinishi, qo’llaniladigan elektron vositalar kommunikativligi, zamonaviy va axborotliligi, bilim olish va mustaqil izlanishga nisbatan yuqori motivatsiya uyg;otishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodlar. Maqola tayyorlashda quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish — masofaviy ta’limga oid ilmiy ishlar, qonun va qarorlar o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil — an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarining o‘zaro farqlari va umumiy jihatlari solishtirildi.

Tizimli yondashuv — mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etuvchi komponentlar (maqsad, mazmun, metod, vosita, baholash) o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda “masofaviy o’qitish”, “elektron o’qitish”, “e-learning”, “kompyuter texnologiyalarini qo’llab o’qitish”, “masofaviy ta’lim texnologiyalari”, “tarmoq ichida o’qitish”, (ta’lim dasturlarini amalga oshirishning tarmoq shakli), “vizual o’qitish” kabi tushunchalari mavjud.

“Masofaviy o’qitish” – inglizcha “distance learning” atamasini “distance education” ya’ni “masofaviy ta’lim” atamasining kengroq tushuncha ekanligini tajribalarda tasdiqlangan. “Masofaviy o’qitish” atamasi ilk bor Viskonsin shtati universiteti tomonidan sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo’lanilgan. Masofaviy o’qitish deganda masofadan turib tashkil qilingan ta’lim tushunilgan.

Masofaviy o’qitish tizimini ta’lim jarayonida tadbiq etish yuksak natijalarga erishish mumkinligini hayot taqozo etishda axborotlashgan ta’lim jarayonini tashkil etishda masofaviy ta’lim, masofaviy o’qish, masofaviy ta’lim qonuniyatlari, masofaviy ta’lim tamoyillari, masofaviy o’qitish metodlari, masofaviy o’qitish vositalari, texnologiyalari kabi tushunchalarga tez-tez duch

kelamiz.

Natijalar.

1) Masofaviy o‘qitishning didaktik asoslari

A.A. Andreyev [3] masofaviy ta’limni “muayyan sohada mutaxassislar tayyorlash tizimidagi barcha fanlarni kompleks tarzda masofadan o‘qitish” deb ta’riflaydi . A. Raximov [4] esa masofaviy ta’lim maqsadini “oldindan belgilangan natijaga erishish jarayoni” sifatida izohlaydi. Masofaviy ta’lim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: o‘quv-uslubiy materiallar (darsliklar, qo‘llanmalar, majmualar); multimediyali elektron darsliklar; audio va video materiallar; onlayn darslar va testlar.

2) Mustaqil ta’limning mazmuni va shakllari

Mustaqil ta’lim — talabaning pedagog nazoratisiz, ammo belgilangan topshiriqlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonidir. U quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: manbalar ustida ishlash; kuzatuv va tadqiqot ishlari;loyiha va tajriba-sinov ishlari; mashq va amaliy topshiriqlar.

A.S. Linda va hammualliflari mustaqil ishlarni talabaning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab qiladigan, ijodkorlik va muammoli vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida belgilaydi.

3) Motivatsiya va faollashtirish omillari

Mustaqil ta’lim samaradorligi bevosita talabaning ichki motivatsiyasiga bog‘liq. Motivatsion omillar sifatida quyidagilar ajratiladi: bajarilayotgan ishning amaliy ahamiyati; ijodiy faoliyatga jalb etish; olimpiada va tanlovlarda ishtirok etish; baholash va reyting tizimlari orqali rag‘batlantirish.

Masofadan o’qitish talabalar ta’lim jarayonida xos bo’lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, usul, vositalar) internet texnologiyalardan faol foydalangan hamda masofadan turib amalga oshiriladigan o’qitish shakli, deb sharhlaydi. A.Raximov o’zining kitobidamuallif masofaviy o’qitishning maqsadga quyidagicha izoh beradi: “Masofaviy o’qitishning maqsadi – masofaviy o’qitish jarayonining oldindan bashoratlanadigan natijasi va uning aniqlovchi komponenti hisoblanadi. Maqsadlar asosan ta’lim mazmunini belgilaydi”.

Masofaviy o’qitish mazmuni – masofaviy o’qitish kurslarida o’zlashtirishning lozim bo’lgan o’quv materiallari, bilim, ko’nikma, malaka va kompitensiyalar.

Masofaviy ta’lim umumiy materiallariga quyidagilar kiradi:

- darslik, o’quv uslubiy qo’llanma va o’quv uslubiy majmualar
- audio va video darsliklar
- onlayn darslar (internet saytlar)
- testlar
- multimediyali elektron darsliklar

Masofaviy o’qitish qonuniyatlari an’anaviy o’qitish shaklida o’rnatilgan asosiy qonuniyatlar masofaviy o’qitish jarayonida ham asosiy qonuniyat bo’lib xizmat qiladi.Masofaviy o’qitish tamoyillari masofaviy o’qitish jarayonining maqsadlari va qonuniyatlariga muvofiq hamda uning mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini belgilovchi asosiy qoidalar jamlangan. Masofaviy o’qitish metodlari masofaviy o’qitish kurslarida ta’lim beruvchilar bilan ta’lim oluvchilarning ta’limiy maqsadlariga erishishga yo’naltirilgan birgalikdagi faoliyat usullari. Masofaviy o’qitish vositalari masofaviy o’qitish kurslarida bilim olish kurslarida bilim olish yoki ko’nikmalarni shakllantirish manbalari masofaviy o’qitish shakllari ta’lim jarayonini tashkil qilishning tashqi tomoni tizimning eng tobe komponenti.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim sharoitida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur: Talabalarga aniq metodik ko‘rsatmalar berish.

Har bir mustaqil ish turi uchun maqsad, vazifa va baholash mezonlarini belgilash.

Onlayn platformalar va elektron resurslardan samarali foydalanish.

Talabani individual yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash.

Masofaviy ta’limning afzalligi — moslashuvchanlik, vaqt va makondan mustaqillik,

resurslarning cheksizligi. Shu bilan birga, u talabadan yuqori darajada o‘zini o‘zi boshqarish va mas’uliyatni talab qiladi.

Masofaviy o’qitish nazorati masofaviy o’qitish kurslarida ta’lim oluvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarini tekshirish, baholash va ularning muayyan davrda tegishli fanlar modullar bo’yicha ta’lim olganlik darajalarini aniqlab borish hisoblanadi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchi va pedagog xodimning to’liq yoki qisman masofadan o’zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikatsiya texlogiyalarning amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari tushuniladi. Masofaviy ta’limning afzalligi shundaki unda har kim qulay vaqtda, qulay manzilda, qulay mehnat va sharoitda bilim olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Shu sabab ham masofaviy ta’lim sharoitida o’qitish, bugungi kunga kelib dunyoda keng ommalashmoqda

Masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning mustaqil bilim olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta`lim jarayonida bilimlar kengayadi, chuqurlashadi, mukammallashadi turli vaziyatlarda ulardan foydalanishning imkoniyati kengayadi.

Mustaqil ishlar turli ko‘rinishlarda bo’lishi mumkin: Masalan manbalar ustida ishlash kuzatish ishlarini olib boorish, loyihalash, tajriba-sinov ishlarini o’tkazish, mashqlar bajarish va shu kabilar. A.S.Linda va uning hamkasblasri ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko’rsatdilar:

- ta’lim oluvchilarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar, mustaqil intellektual va amaliy faoliyatga qiziqtiruvchi ishlar;
- bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar
- muammoli vazifalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi ishlar
- vazifalarni yechimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar
- o’z faoliyatini rejalashtirish uni ilmiy tashkil tashkil etish boshqalarning yordamisiz vazifalarni bajarish ish natijalarini mmaqsadiga qiyoslab baholashni ko‘zda tutuvchi ishlar
- muntazam ravishda ishning borishi natijalarni nazorat qilish kerakli hollarda o’zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko’zda tutuvchi ishlar
- qo’yilgan vazifalarni to’laqonli bajarishga kirishish bu o’z navbatida ta’lim oluvchi shaxsni yaxlit rivojlantirishga imkon berib aqliy va amaliy faoliyat usullari, o’z ustida izlashni va ijodkorlikni shakllantirishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki mustaqil ishlar talaba oldiga ma’lum bir ta’limiy muammoni hal qilishni qo’yadi. Mustaqil fikr yuritish jarayoni esa muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Mustaqil fikr yuritish masalasiga ega talaba nostandart yoki kutilmagan vaziyatlarda tezkor aniq va to’g’ri qaror qabul qilishga asos hisoblanadigan izlanuvchan ijodiy faoliyatni ta’minlovchi jihatlarga ega bo’ladi.

Hozirgi kunda mustaqil ta’limni tashkil etish bo’yicha bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan bo’lsada talabalar mustaqil ishni faqatgina kerakli ballni to’plash uchungina bajarishmoqda albatta bunday hollarda ta’lim samarali bo’lmaydi.

Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishdagi faolligi jiddiy xohish mavjud bo’lgandagina jadallashadi bizga psixologiyadan ma’lumki mativ biror faoliyatga yoki harakatga undovchi kuchdir.

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi materiallardan yetakchisi ta`limiy motivdir. Ta’limiy motiv - alabalarning bajarayotgan ishining foydali ekanligini aniqlab yetishida yuzaga keladi.

Talabalar bajarilayotgan ishining muhimliligi mutaxassislikka oid bilimlarni oshirish, dunyoqarashni kengaytirish, kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash ekanligini anglab yetishlari lozim.

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi ta’limiy motivlar:

- bajarilayotgan ishlarning ahamiyatligi, foydaliligi

- talabaning ijodiy faoliyatidagi ishtiroki
- o’quv fanlari bo’yicha olipiada
- o’quv fanlari bo‘yicha olimpiada, ilmiy-tadqiqot, amaliy konkurslarda ishtiroki
- bilimlarni nazorat qilish (baholash, reyting ballari, testlar…)
- talabalarni ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari va ijodiy faolligi uchun rag‘batlantirish yoki yomon o’zlashtirishlari uchun jazolash
- auditoriyada va undan tashqarida bajarilayotgan mustaqil ishlarni individual boshqarishga erishish hamda ularni davomiy ravishda yangilab turish

Masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda pedagog hamda talabalarning o’ziga xos vazifalarini bajarish.

Muayyan fan yoki o’qtiladigan modul doirasida pedagog vazifalari: o’qtiladigan fan yoki modul maqsad va vazifalari fan dastur va adabiyotlari ro’yxatini talabalarga yetkazish; o’qitiladigan fan yoki modulni o‘zlashtirishda talaba mustaqil ish turi va ko’rinishlari; har bir bajariladigan mustaqil ish turi, ko’rinishlari, muddati va natijaviyligimi ko’rsatish; har bir bajariladigan mustaqil ishlariga qo’yiladigan ballar va baholash mezonlarini talabalarga yetkazish; har bir bajariladigan mustaqil ishlarni bajarishga oid metodlarga tavsiya va ko’rsatma berish. Shu bilan birga talaba vazifalari quyidagilar: o’rganiladigan fan yoki modul dasturi va foydalanayotgan adabiyotlar ro’yxati bilan tanishib chiqish; fan yoki modulga oid bajarilayotgan mustaqil ishlarni ko’rinishlari bajarish tartibi bilan tanishib mustaqil ishlarni ko’rsatmaga qarab belgilangan muddatga bajarib taqdim etish; mustaqil ishlarni bajarishda talabalarning ijodiy intellektual va individual yondashish; mustaqil ishni maqsadga muvofiq holda bajarish, tegishli ko’rsatmalarga amal qilish, pedagoglardan maslahat olish; bajarilgan mustaqil ishni pedagog tomonidan tekshirilgach, agar ishda kamchilik va nuqsonlar bo’lsa qayta ishni ko’rsatmaga mos holda tayyorlab qayta taqdim etish.

Masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning mustaqil topshiriqlarini tashkil etishda o’ziga xos ijobiy xususiyatlarini ko’rish mumkin.

Ijodiy xususiyatlar:
- mustaqil ishni bajarishda talaba individual yondashgan holda faoliyat olib boradi
- xohlagan vaqtda ustoz pedagogdan maslahat olishi mumkin
- manbalardan, internet saytlardan foydalanishning imkoniyati ko’p
- mustaqil ishni bajarishda vaqtdan unumli foydalanish mumkin
- mustaqil ish natijalarini diagnostika qilish imkoni katta. Masalan butun guruhga berilgan topshiriq yoki testlarni tezgina baholash imkoniyatini mavjud

Xulosa. Masofaviy ta’lim sharoitida mustaqil ta’limni tashkil etish talabaning bilim olish jarayonidagi faolligi va natijadorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Pedagogning to‘g‘ri metodik rahbarligi, talabaning ijodiy yondashuvi va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish mustaqil ta’lim sifatini belgilovchi hal qiluvchi omillardir.

Masofadan o’qitish ta’lim oluvchilariga istalagan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkoniyatini beradigan, moslashuvchan ta’lim tizimini hisoblanadi. Bunda ta’lim oluvchi talaba nafaqat ma’lum bir ko’zlangan bilimlarni o’zlashtiradi, balki mustaqil bilim olishni, ma’lumot bilan ishlashni o’rganadi, natijada amaliyotda qo’llash mumkinligi bilan amaliy-metodik usullarni o’zlashtiradi.

Foydalanigan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonun. Qaror № 637, 2020-yil 23-sentyabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy etish to‘g‘risida. VMQ № 599, 2022-yil 3-oktabr.

3.Andreyev A.A. Didakticheskiye osnovi distansionnogo obucheniya v visshix uchebnix zavedeniyax: Doktorlik dissertatsiyasi. – Moskva, 1999.

4.Raximov A. Masofaviy ta’limning didaktik ta’minoti. TATUQF – Qarshi, 2 5.016.

RAQAMLI MAKONDA MADANIY IDENTITET: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Murodova Maqsuda Maxsudovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0005-3389-5642

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli makonda madaniy identitetning shakllanishi va o'zgarishi jarayonlari tahlil qilinadi. Internet-kommunikatsiya vositalarining global axborot almashinuvidagi o'rni, ularning milliy madaniyat, qadriyatlar va an'anaviy identitetga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, raqamli muhitda madaniy identitetni saqlash va rivojlantirish imkoniyatlari hamda bu jarayonda yuzaga keladigan asosiy muammolar – globallashuv, madaniy unifikatsiya, axborot xavfsizligi, tilning o'zgarishi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, onlayn media va raqamli platformalar misolida madaniy o'zlikning yangi shakllari va ularni qo'llab-quvvatlash strategiyalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli makon, madaniy identitet, internet-kommunikatsiya, globallashuv, axborot texnologiyalari, milliy madaniyat, madaniy o'zgarish, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muhit, madaniyatlararo muloqot.

ЦИФРОВОЕ ПРОСТРАНСТВО И КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Муродова Максуда Махсудовна,
Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель:

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования и трансформации культурной идентичности в цифровом пространстве. Освещается роль средств интернет-коммуникации в глобальном информационном обмене, их влияние на национальную культуру, ценности и традиционную идентичность. Также рассматриваются возможности сохранения и развития культурной идентичности в цифровой среде, а также основные проблемы, возникающие в этом процессе — глобализация, культурная унификация, информационная безопасность, изменение языка. В исследовании на примере социальных сетей, онлайн-медиа и цифровых платформ анализируются новые формы культурного самосознания и стратегии их поддержки.

Ключевые слова: цифровое пространство, культурная идентичность, интернет-коммуникация, глобализация, информационные технологии, национальная культура, культурные изменения, социальные сети, виртуальная среда, межкультурная коммуникация.

CULTURAL IDENTITY IN THE DIGITAL SPACE: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Murodova Maqsuda Maxsudovna,
Bukhara State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract: This article analyzes the processes of formation and transformation of cultural identity in the digital space. It highlights the role of internet communication tools in global information exchange and their impact on national culture, values, and traditional identity. The paper also examines the possibilities of preserving and developing cultural identity in the digital environment, as well as the main challenges in this process — globalization, cultural unification, information security, and language change. Using examples from social networks, online media, and digital platforms, the study analyzes new forms of cultural self-awareness and strategies for their support.

Keywords: digital space, cultural identity, internet communication, globalization, information technologies, national culture, cultural change, social networks, virtual environment, intercultural communication.

Kirish. Raqamli makon va internet-kommunikatsiyalarning eksponensial o‘sishi natijasida yuzaga kelayotgan global va dinamik sotsiomadaniy jarayonlarni, ularning madaniy identitetga ta’sirini falsafiy-antropologik jihatdan tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Raqamli texnologiyalar va global tarmoqning jadal rivojlanishi nafaqat globallashuv jarayonlarini tezlashtirdi va chuqurlashtirdi, balki madaniy axborotni olish, saqlash, uzatish va qayta ishlash mexanizmlarini tubdan o‘zgartirdi. Bu esa madaniy identitetning asosiy tayanchlari bo‘lmish makon va vaqt tushunchalarining “transformatsiyasi”ga olib keldi hamda “virtual makon”, “giperreallik”, “raqamli identitet”, “gipertekst” kabi yangi fenomenlarni keltirib chiqardi.

Globallashuv sharoitida madaniy identitetning o‘zgarishi, milliy qadriyatlar va an’analarni saqlash bilan bog‘liq muammolar keskinlashmoqda. Internet tarmoqlaridagi ingliz tilining ustuvorligi dunyoning “anglizatsiyalashuvi”ga olib kelmoqda, bu esa mahalliy tillar va madaniy ifodaning qisqarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media vositalari tilning soddalashuvi, grammatik me’yorlarning buzilishi va “klip tafakkur”ning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli makon madaniy identitetni rivojlantirish va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlarni ham taqdim etadi: milliy madaniyatni global maydonga olib chiqish, madaniy merosni raqamlashtirish va targ‘ib qilish, shuningdek, madaniyatlararo muloqotning yangi formatlarini yaratishda dolzarb hamiyatga ega.

Raqamli makonda madaniy identitet: muammolar va imkoniyatlar nomli maqolamizda globallashuv sharoitida milliy madaniy identitetni saqlash strategiyalari, internet-kommunikatsiyalarda til va ifoda vositalarining transformatsiyasi, raqamli madaniy merosni yaratish va targ‘ib qilish imkoniyatlari, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning madaniy o‘zlikka ta’siri, mahalliy va global madaniy oqimlarning o‘zaro ta’siri va integratsiyasi maslalariga munosabat bildirilgan.

Shunday ekan, raqamli makonda madaniy identitet muammolarini hal etish nafaqat texnologik, balki pedagogik yondashuvni ham talab qiladi. Bu jarayonda madaniy xilma-xillikni saqlash, identitetning ijobiy transformatsiyasini ta’minlash va raqamli makonning imkoniyatlaridan samarali foydalanish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar tahlili va meodologiyasi.

Madaniyat transformatsiyasini internet-kommunikatsiyalar tizimida tahlil qilish jarayoni falsafa, etnologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, lingvistika, futurologiya va boshqa bir qator ilmiy yo‘nalishlarda olib borilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida amalga oshirildi. Ingliz faylasuflari E.B. Teylor, M. Arnold hamda rus san’atshunosi D.S. Lixachyovning asarlari ma’lum tarixiy paradigma doirasida madaniyat tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, madaniyat konsepsiyasiga umumiy qarashni shakllantirgan. Dinara R. Saparova va boshqalar digital avlodning madaniy media makonini shakllantirish (masalan, Qozog‘iston bo‘yicha) mavzusida fokus guruhlar orqali media kontentining yoshlarning ijtimoiy va etnokultural identitetiga ta’sirini o‘rganish; Bourdieu, Mannheim va boshqa sotsiologiyalarning nazariy paradigmalari qo‘llangan . Mega Fariziah Nur Humairoh digital hikoya (digital storytelling) orqali talabalar madaniy identitetini shakllantirish mavzusida interkultural ong va identitetni ko‘tarish uchun multimodal, vizual hamda matnli hikoyalardan pedagogik vosita sifatida foydalanish ko ‘nikmalarini rivojlantirish masalalrini tadqiq etgan . Serena Soh va boshqalar (Stanford University) raqamli kontekstda identitetning rivojlanishi mavzusida tadqiqotlar olib borib, identitetni raqamli muhit orqali shakllanish mexanizmlari orqali tushunish (tanlash, manipulyatsiya, javob chaqirish, tatbiq qilish) modelini taklif qiladi. İbrahim Kurt esa “Sotsiovirtualizatsiya” va raqamli davrda madaniy identitetni yaratishda onlayn va real makonlar almashinuvi orqali diasporik va ko‘p fazilatli identitetlarni shakllantirish, madaniy appropriasiya va stereotiplash xavflarini ham ochib

berdi.Ramesh Srinivasan «Reflective media» va mahalliy jamoalarning raqamli ovoz orqali kuchayishi muammolari mavzusida kamera va video orqali chetga chiqarilmagan jamoalarning o‘z niyatini ifodalashi, o‘z kuchini anglashini o‘rgandi; texnologiyalarni xalq bilan mos ravishda shakllantirishni taklif qiladi. Sherry Turkle (MIT) online identitet va virtual o‘zini anglash mavzusida tadqiqotlar qilib, internetda o‘zgaruvchan, ko‘p holli identitetlar paydo bo‘lishini tahlil qilgan. “Life on the Screen” orqali raqamli muhitda kimlikni qayerda va qanday shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Nazariy asosini strukturachilik, semiologiya, lingvistika, mediapedagogika va axborot jamiyati nazariyasi bo‘yicha U. Eko tomonidan yaratilgan klassik ishlar, axborot jamiyati paradigmasida sotsiomadaniy transformatsiyalarni tadqiq qilgan M. Maklyuen ishlari hamda shaxslararo kommunikatsiyaning antropologik tahliliga bag‘ishlangan B.V. Markovning izlanishlari tashkil etadi. Jill Walker Rettberg raqamli madaniyat, bloglar va vizual ijod orqali o‘zini ifodalash mavzusida maqola yozib, ijtimoiy media orqali shaxsiy ramz va o‘zini taqdim etish usullarini tadqiq etadi. Mizuko Ito yoshlar, medialarning ö‘rganish va madaniy qatnashishdagi roli mavzusini tahlil etar ekan, digital youth project orqali yoshlarning raqamli muhitda o‘qishi, yaratuvchanligi va identitet shakllanishini etnografik metodlar orqali o‘rganadi. Kishonna Gray raqamli o‘yinlar,mavzusini tahlil etib, video o‘yinlardagi irqiy stereotiplar va ular orqali identitet bilan bog‘liq muammolarni tahlil qiladi. Anar Tanabayeva virtual jamoatlar va milliy madaniy identitetni TikTok, YouTube bloggerlari orqali raqamli vositalarda yangi submadaniyat va internet folklorining shakllanishini o‘rganadi(1-jadvalga qarang);

Raqamli makonda madaniy identitet muammolarini tahlil etgan olimlar	
Olim/Tadqiqotchi	Asosiy yo‘nalish
Dinara Saparova va boshqalar	Digital avlod madaniy media makoni
Mega F. N. Humairoh	Digital hikoya va interkultural identitet
Serena Soh	Identitet rivojlanish mexanizmlari
İbrahim Kurt	Sotsiovirtualizatsiya
Ramesh Srinivasan	Reflective media va mahalliy ovoz
Sherry Turkle	Virtual identitet va ko‘p-holli o‘zlik
Jill Walker Rettberg	Raqamli madaniyat va self-representation
Mizuko Ito	Yoshlar va digital o‘rganish/tarbiyasi
Kishonna Gray	O‘yinlarda irq/jins va identitet
Anar Tanabayeva va boshqalar	Virtual jamoatlar va milliy identitet

J. Derrida, J. Lakan, M. Fuko Yu. Kristeva J. Bodriyyar qarashlarida axborot jamiyati modellari ishlab chiqishga o‘tishda hal qiluvchi rol o’ynagan. Falsafa, etnografiya, lingvistika va adabiyotshunoslik sohalarida faoliyat yuritgan strukturalizm nazariyotchilarining, xususan, F. de Sossyur, F. Bonn, K. Levi-Stross, L. Levi-Bryul, R. Yakobson, Yu. Lotman, V.Ya. Propp, L. Yelmslev, M. Rezin, D. Holdkroft, R. Xarris, M. Enaf, R. Bartlarning ishlari madaniyatning ramziy, belgi sifatidagi tabiatiga ilmiy asos yaratdi. Raqamli makonda madaniy identitet masalasini tadqiq etayotgan olimlar ko‘p yo‘nalishda faoliyat olib bormoqda — yoshlar o‘zini anglashdan tortib, diaspora madaniyati, gender, irq va virtual hamda real makon orasidagi almashuv, nutq, muloqato, suniiy intelekt vositasidanutq malakalarini rivojl;antirish masalalariga e’tibor qaratishgan.

Axborot jamiyati nazariyachilarining falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va lingvistika sohalaridagi, innovatsion internet texnologiyalarining tafakkur jarayonlariga va tilning transformatsiyasiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu yerda M. Kastelsning klassik asarlarini, shuningdek, mukammal raqamli hisoblash mashinasi

tushunchasini ishlab chiqqan A. Tyuring internetning tafakkur jarayoniga ta’siri mavzusini birinchi bo‘lib ko‘targan N. Karr sun’iy intellektning ijtimoiy-axloqiy jihatlarini tadqiq etgan D. Veytsenbaum, G. Dreyfus va M. Ridle “ikki tomonlama kodlash nazariyasi”ni ishlab chiqqan A. Payviolar o‘rganishgan.

Mobil kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo‘lishi va keng tarqalishi natijasida yuzaga kelgan hamda turli matn janrlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan “teksting” hodisasiga bag‘ishlangan, SMS-kommunikatsiyalarning lingvistik va sotsiokultural jihatlarini tahlil qiluvchi ilmiy ishlar ham muhim ahamiyatga ega. Bular qatoriga “gipermatn” tushunchasini kiritgan T. Nelson zamonaviy media sohasining sotsiokultural oqibatlarini o‘rgangan va “virtual jamoalar”ning paydo bo‘lishini bashorat qilgan G. Reyngold tekstingning ingliz adabiy tiliga ta’sirini tadqiq etgan D. Kristal; tanqidiy media savodxonligi va media kommunikatsiya bo‘yicha mutaxassislar D. Keller va L. Xuliarakining ishlari kiradi.

Shuningdek, global tarmoqda madaniyatning modifikatsiyasini o‘rgangan va kommunikatsiya vositalari bilan matn o‘rtasidagi munosabatlar tahliliga alohida e’tibor qaratgan V.V. Mironovning izlanishlari ham katta qiziqish uyg‘otdi. Bundan tashqari, teksting, anglizmlar va zamonaviy ommaviy axborot vositalarining til jarayonlariga ta’sirini o‘rgangan rus media nazariyachilari va tilshunoslarining (T.G. Dobrosklonskaya, A.V. Fedorov, L. Vostryakova, N.V. Vinogradova, L. Miroshnichenko) ilmiy ishlari ham foydalanildi.

Jamshid Bahodirovich Orishev Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi. Uning «Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi imkoniyatlari» nomli maqolasi (2022) ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, «Digital technologies as an educational process in preparing future teachers for project activities» (2023) maqolasi kelajakda pedagoglarni loyiha faoliyatiga raqamli vositalar orqali tayyorlash masalalarini yoritadi. D.P. Xashimova va R.A. Parpieva oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi, internet infratuzilmasini yaxshilash, masofaviy ta’lim, interfaol taqdimot tizimlari, virtual voqelik, 3D-texnologiyalar kabi sohalarni chuqur tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar ta’limda raqamli integratsiyani yaxshilashga qaratilgan.

Avazbayev Atajan Ismailovich 2024 yilda e’lon qilingan maqolasida raqamli texnologiyalar sharoitida texnologiya fanlarini o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi muammolar va yechimlar haqida fikr-mulohazalar bildirgan. Abdurahmon No‘monjonov Raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, elektron ta’lim platformalari, VR va boshqa vositalarni pedagogik jarayonlarda tatbiq etish orqali interaktiv, individulyar ta’limni rivojlantirish masalalarini o‘rganadi.

Fariddin Abdu Taliev 2022 yilda “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt rivojlanishi” mavzusida ilmiy-texnik anjumanning tashkilotchisi sifatida raqamli vositalarning, ayniqsa, sun’iy intellektning o‘quv jarayonlariga integratsiyasini targ‘ib qilgan. O‘zbek pedagogik olimlari raqamli texnologiyalar va internet madaniyatini ta’lim jarayonlariga joriy etishda quyidagi yo‘nalishlarda faol izlanishlar olib bormoqda.

Munozara va natija. Raqamli texnologiyalar va internet makoni insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. U nafaqat iqtisodiyot va ta’limni, balki madaniyat va identitetni ham qayta shakllantirmoqda. Bugungi kunda madaniy identitet — shaxsning o‘zini ma’lum tarixiy, milliy, til va qadriyatlar tizimi bilan bog‘lab his qilishi — raqamli muhitda yangicha sinovlarga duch kelmoqda.

Raqamli makonda madaniy identitet: muammolar va imkoniyatlar bilan bo g’liq muammolar globallashuv va madaniy unifikatsiya, internet orqali dunyo bo‘ylab bir xil axborot, obraz va tendensiyalar tarqalishi mahalliy madaniy xususiyatlarning so‘nishiga olib kelishi,Axborot oqimining nazoratsizligi, soxta ma’lumotlar, stereotiplar va manipulyativ kontent madaniy ongga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, tilning transformatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar va chat-muloqot tilni soddalashtirib,virtual ijtimoiylashuvning ustunligi, onlayn muloqot yuzma-yuz an’anaviy muloqotning o‘rnini egallab, madaniy marosim va urf-odatlarning amaliy qo‘llanilishini kamaytiradi.milliy til me’yorlarini zaiflashtirishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli

makon madaniy identitetni mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar ham yaratadi. Jumladan, madaniy merosni raqamlashtirish, tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar, san’at asarlarini keng ommaga yetkazish imkoniyatini beradi. illiy madaniyatni global targ‘ib qilish, internet orqali milliy san’at, adabiyot, urf-odatlarni dunyoga tanitishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida sifatli kontent yaratish, yosh avlod orasida milliy til va madaniyatni zamonaviy vositalar orqali targ‘ib qilishg aundaydi. Madaniy hamkorlik platformalari, turli xalqlar o‘rtasida tajriba almashish, hamkorlik loyihalari va qo‘shma madaniy dasturlar yaratish imkoniyatini beradi. Demak, raqamli makon ikki qirrali hodisa sifatida madaniy identitet uchun ham xavf, ham imkoniyat manbaidir. Raqamli ta’lim imkoniyatlardan ongli va maqsadli foydalanishga xizmat qiladi.

Raqamli davrda madaniy identitetni saqlash va rivojlantirish strategik vazifaga aylanmoqda. Virtual makon milliy qadriyatlarni boyitish, madaniy merosni keng targ‘ib qilish va yoshlar ongida vatanparvarlikni kuchaytirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, globallashuv ta’sirida yuzaga keladigan madaniy unifikatsiya, tilning o‘zgarishi va axborot manipulyatsiyasi kabi xavflarga qarshi tizimli yondashuv zarur.

Eng muhim vazifa — raqamli makonda madaniy immunitetni shakllantirish, ya’ni yoshlarni tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, milliy til va madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Faqat shunda raqamli makon milliy va madaniy identitetni yo‘qotish emas, balki uni yangi bosqichga ko‘tarish vositasiga aylanishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar va internet makoni bugungi kunda insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ular nafaqat iqtisodiyot, ta’lim va boshqaruv tizimlarini, balki madaniyat va shaxsning identitetini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Madaniy identitet — bu shaxsning o‘zini muayyan tarixiy tajriba, milliy qadriyatlar, til va madaniy an’analarga mansub deb his qilishi — hozirgi davrda raqamli muhit ta’sirida yangicha sinovlarga duch kelmoqda.

Raqamli makonda madaniy identitetga tahdid soluvchi bir qator muammolar mavjud: Globallashuv va madaniy unifikatsiyasi, internet orqali dunyo bo‘ylab bir xil obrazlar, moda tendensiyalari, madaniy mahsulotlar va axborot tarqalishi mahalliy madaniy xususiyatlarning asta-sekin yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Natijada, milliy rang-baranglik global standartlar ta’sirida silliqlanadi.

Axborot oqimining nazoratsizligi, internetda mavjud bo‘lgan soxta ma’lumotlar, stereotiplar va manipulyativ kontent odamlarning madaniy ongi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ayniqsa yosh avlod orasida milliy qadriyatlar va tarixiy haqiqatni noto‘g‘ri qabul qilishga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va chat muloqot shakllari tilni soddalashtiradi, imlo va grammatik me’yorlarning buzilishiga olib keladi. Natijada, milliy tilning boy ifoda vositalari kamayadi va global til elementlari (angliцizmlar, qisqartmalar) haddan tashqari kirib keladi. Onlayn muloqot ko‘pincha yuzma-yuz an’anaviy muloqot o‘rnini egallaydi. Bu esa madaniy marosimlar, urf-odatlar va an’analarning amaliy qo‘llanilishini kamaytiradi, ijtimoiy munosabatlarda samimiylik darajasini pasaytiradi.

Shu bilan birga, raqamli makon madaniy identitetni saqlash va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ham yaratadi.Tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar, arxiv materiallari, san’at asarlari raqamli formatga o‘tkazilib, keng jamoatchilikka taqdim etilishi mumkin. Bu nafaqat ularni saqlab qolishga, balki yosh avlodga tezkor yetkazishga xizmat qiladi. Internet milliy san’at, adabiyot, kino, musiqani dunyoga tanitish uchun kuchli platforma bo‘la oladi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar, video-portallar va onlayn ko‘rgazmalar samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli makon orqali yoshlar orasida o‘zbek tilini zamonaviy va jozibali formatlarda targ‘ib qilish imkoniyati mavjud. Bu nafaqat tilni saqlab qoladi, balki uni rivojlantiradi. Turli xalqlar o‘rtasida tajriba almashish, qo‘shma madaniy loyihalar, onlayn festivallar va ilmiy konferensiyalar tashkil etish imkoniyati kengayadi.

Raqamli makon ikki qirrali hodisa bo‘lib, u madaniy identitet uchun ham xavf, ham imkoniyat

manbaidir. Raqamli davrda madaniy identitetni saqlash va rivojlantirish strategik ahamiyatga ega vazifa bo‘lib qolmoqda. Virtual makon milliy qadriyatlarni boyitish, madaniy merosni keng targ‘ib qilish va yoshlar ongida vatanparvarlikni mustahkamlash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Biroq, globallashuv ta’sirida yuzaga keladigan madaniy unifikatsiya, tilning o‘zgarishi va axborot manipulyatsiyasi kabi xavflarga qarshi tizimli yondashuv zarur. Eng muhim vazifa — raqamli makonda madaniy immunitetni shakllantirish, ya’ni yoshlarni tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, milliy til va madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalashdir.

Faqat shunda raqamli makon milliy va madaniy identitetni yo‘qotish emas, balki uni yangi bosqichga ko‘tarish vositasiga aylanishi mumkin.

Xulosa. Raqamli makonda madaniy identitet masalasi bugungi globallashuv davrida nafaqat alohida xalqlar, balki butun insoniyat oldida turgan strategik ahamiyatga ega masalalardan biridir. Axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari va ijtimoiy media platformalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida milliy va madaniy qadriyatlarning cheksiz axborot oqimida yo‘qolib ketish, ularning o‘ziga xosligi buzilishi xavfi kuchaymoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar zamon talabiga mos tarzda milliy merosni targ‘ib qilish, tarixiy va madaniy xotirani mustahkamlash hamda yosh avlodning o‘z ildizlariga bo‘lgan hurmatini oshirish uchun keng imkoniyatlarni ham taqdim etadi.

O‘zbek jamiyati uchun raqamli makonda madaniy identitetni asrash — bu shunchaki o‘tmishni himoya qilish emas, balki uni yangi texnologiyalar yordamida rivojlantirish, global maydonda tan olingan va raqobatbardosh madaniy brendga aylantirish demakdir. Buning uchun bir nechta strategik yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

1.Raqamli kontentda milliy qadriyatlarni faol targ‘ib qilish — badiiy, ilmiy, ta’limiy va madaniy yo‘nalishdagi onlayn materiallarda o‘zbek tili, urf-odatlari, an’analari va tarixiy merosi markaziy o‘rinda bo‘lishi zarur.

2.Media va raqamli madaniyat savodxonligini oshirish — yoshlar internetdagi axborot oqimini tanqidiy tahlil qila olish, soxta va manipulyativ ma’lumotlardan himoyalanish, shuningdek, o‘z madaniy qadriyatlarini zamonaviy media vositalarida ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

3.Davlat, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati hamkorligi — madaniy merosni raqamlashtirish, virtual muzeylar, onlayn kutubxonalar va multimedia loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni xalqaro maydonga olib chiqish uchun tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Shunday qilib, raqamli makon xavf-xatarlar bilan bir qatorda madaniy taraqqiyot uchun beqiyos imkoniyatlarni ham o‘zida mujassam etadi. Masalaning mohiyati — ushbu imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, milliy madaniyatni global axborot maydonida mustahkam, jozibali va xalqaro miqyosda tan olingan brend sifatida namoyon etishda. Bu yo‘lda har bir fuqaro, ayniqsa yoshlar, o‘z madaniy o‘zligini anglash va uni yangi avlodga yetkazishda faol ishtirok etishi lozim. Shu tarzda, O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosini nafaqat asrab-avaylab, balki zamonaviy texnologiyalar vositasida yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017- yil 16-yanvar, №11.

2.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 464.

3.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: 2021. O‘qituvchi. – B. 184

4.N.Muratova. Jurnalistika media va axborot savodxonligi. Jurnalistlar va media sohasidagi ta’lim beruvchilar uchun qo‘llanma. Baktria press. T.,2019.

5.Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94.b.

6.Murodova M. M., Sun’iy intellekt vositasida boshlang ‘ich ta’lim o ‘quvchilarida nutqni rivojlantirishning afzalliklari //Yangi O‘zbekiston ustozlari. – 2024. – T. 2. – №. 31. – C. 93-100.

7.Murodova M. Interaktiv o‘quv vositalari yordamida boshlang’ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va tinglash malakalarini takomillashtirish//»Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал. – 2024. – T. 9. – №. 17.

8.Sariev Sh. U „Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasini takomillashtirish (1-2-sinf materiallari misolida) pedagogika fan. falsafa doktori (PhD) dis. – T.: 2020 y

TASODIFIY MIQDORLARNING SONLI XARAKTERISTIKALARINI O'RGATISHDA AMALIY USULLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Ochilova Laylo Temirovna
Buxoro davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
https://orcid.org/0000-0002-0036-0140

Annotatsiya. Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalarini o'rganish tarixi ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Dastlab, ehtimollar nazariyasining rivojlanishi bilan tasodifiy o'zgaruvchilarning asosiy sonli xarakteristikalari bo'lgan matematik kutish va dispersiya tushunchalari paydo bo'ldi. Keyinchalik matematik statistika doirasida bu xususiyatlarni tahlil qilish va izohlash usullari ishlab chiqildi va assimetriya va ortiqcha kabi yangilari kiritildi. Maqolada tasodifiy sonli miqdorlarning sonli xarakteristikalarini o'rgatishning ayrim usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tasodifiy miqdor, diskret tasodifiy miqdor,matematik kutish, chetlanish, dispersiya, o`rtacha kvadratik chetlanish

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ИЗУЧЕНИИ ЧИСЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК СЛУЧАЙНЫХ ВЕЛИЧИН

Очилова Лайло Темировна
Бухарский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры начального образования

Аннотация. История изучения числовых характеристик случайных величин тесно связана с развитием теории вероятностей и математической статистики. Изначально, с развитием теории вероятностей, появились понятия математического ожидания и дисперсии, которые являются основными числовыми характеристиками случайных величин. Позднее в рамках математической статистики были разработаны методы анализа и интерпретации этих характеристик, а также введены новые, такие как асимметрия и эксцесс. В статье рассматриваются некоторые методы обучения числовым характеристикам случайных величин.

Ключевые слова: Случайная величина, дискретная случайная величина, математическое ожидание, отклонение, дисперсия, среднеквадратичное отклонение

THE IMPORTANCE OF USING PRACTICAL METHODS IN STUDYING NUMERICAL CHARACTERISTICS OF RANDOM VARIABLES

Ochilova Laylo Temirovna
Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of Primary Education

Annotation.The history of studying the numerical characteristics of random variables is closely related to the development of probability theory and mathematical statistics. Initially, with the development of probability theory, the concepts of mathematical expectation and dispersion appeared, which are the main numerical characteristics of random variables. Later, within the framework of mathematical statistics, methods for analyzing and interpreting these characteristics were developed, and new ones were introduced, such as asymmetry and excess. The article discusses some methods for teaching the numerical characteristics of random

variables.

Keywords: Random variable, discrete random variable, mathematical expectation, deviation, dispersion, standard deviation

KIRISH. Ishlab chiqarish jarayonida sifatli mahsulotlar soni eng asosiy faktor bo`lib hisoblanadi. har bir ishlab chiqarilgan mahsulotni sifatli bo`lishi esa juda ko`p tasodifiy omillarga bog`liq. Mahsulotni sifatli bo`lishistanokni yaxshi ishlashiga, ishchini mahoratiga, kayfiyatiga, sharoitiga va hokazolarga bog`liqki, bu faktorlarni hammasini hisobga olib bo`lmaydi. Agar bu omillardan ijobiylari ko`p bo`lsa sifatli mahsulotlari soni xam ko`p bo`ladi.

Boshqa misol. O`yin kubini tashlaganda 1,2,3,4,5,6 ochkalardan bittasi tushadi, lekin ko`p marta tashlaganimizda shu ochkalardan 6 ni necha marta tushishi aniq emas. Chunki bu ko`p xisobga olib bo`lmaydigan tasodifiy sabablarga bog`liq.

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarni faollashtirish, ularni o‘ylashga, kuzatishga va izlanishga undash metodlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Aynan tasodifiy miqdorlar bilan bog‘liq mavzularni o‘rgatishda amaliy usullardan foydalanish — tajribalar o‘tkazish, statistik ma’lumotlarni yig‘ish, ularni tahlil qilish va taqqoslash — o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalarini o‘rgatishda amaliy yondashuvlar o‘quvchilarda nafaqat matematik bilimlarni, balki mantiqiy tafakkur, tahliliy yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim ko‘nikma bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Matematika o‘qitishda talabalar intellektual salohiyatini hisobga olsak, tarixiy ma’lumotlar va fanning paydo bo‘lish bosqichlari va fanga ulkn hissa qo‘shgan olimlar ishlari bilan tanishtirish - birinchidan, talabalarning faolligini va qiziqishlarini oshiradi, ikkinchidan esa, ularda fanning qo‘llanilishi va rivojlanishi haqida tasavvurlari shakllanishiga imkon beradi. Shu bilan birga o‘qitishda tarixiy ma’lumotlardan foydalanish va uning paydo bo‘lishi sabablarini ko‘rsatib berish yaxshi natijalar beradi. Yuqoridagilarni hisobga olsak, bu mavzunining tadqiq etilishi matematikani o’qitishda ehtimollar nazariyasi tarixi haqidagi ma’lumotlarni bayon etish va bu materiallarning mazmuni va berilishi usullarini optimal tanlanishi uchun imkon beradi.

Ehtimollar nazariyasi — “tasodifiy tajribala”, ya‘ni natijasini oldindan aytib bo’lmaydigan tajribalardagi qonuniyatlatni o’rganuvchi matematik fandir. Bunda shunday tajribalar qaraladiki, ularni o’zgarmas (ya‘ni, bir xil) shartlar kompleksida hech bo’lmaganda nazariy ravishda ixtiyoriy sonda takrorlash mumkin, deb hisoblanadi. Bunday tajribalar har birining natijasi tasodifiy hodisa ro’y berishidan iboratdir.

Ehtimollar nazariyasini sinovdan-sinovga o’tishida natijalari turlicha bo_lgan tajribalar qiziqtiradi. Biror tajribada ro’y berish yoki bermasligini oldindan aytib bo’lmaydigan hodisalar tasodifiy hodisalar deyiladi. Masalan, tanga tashlash tajribasida har bir tashlashga ikki tasodifiy hodisa mos keladi: tanganing gerb tomoni tushishi yoki tanganing raqam tomoni tushishi. Albatta, bu tajribani bir marta takrorlashda shu ikki tasodifiy hodisalardan faqat bittasigina ro’y beradi. Tasodifiy hodisalarni biz tabiatda, jamiatda, ilmiy tajribalarda, sport va qimor o’yinlarida kuzatishimiz mumkin. Umumlashtirib aytish mumkinki, tasodifiyat elementlarisiz rivojlanishni tasavvur qilish qiyindir. Tasodifiyatsiz umuman hayotning va biologik turlarning yuzaga kelishini, insoniyat tarihini, insonlarning ijodiy faoliyatini, sotsial-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishini tasavvur etib bo’lmaydi. Ehtimollar nazariyasi esa aynan mana shunday tasodifiy bog’liqliklarning matematik modelini tuzish bilan shug_illanadi. Tasodifiyat insoniyatni doimo

qiziqtirib kelgandir. Shu sababli ehtimollar nazariyasi boshqa matematik fanlar kabi amaliyot talablariga mos ravishda rivojlangan .

Richardode Fornival (1200-1250) degan matematik uchinchi masalani yechishga harakat qilgan. U bunday hollar 56 ta ekanligini ko‘rsatadi, uchta soqqani tashlaganda teng imkoniyatli hollar jami soni esa 6 □1□ 30□3 □ 20□ 6 □ 216 ga teng ekanligini topdi. U uchala soqqada tushgan ochkolar yig‘iidisining hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan usullari soni hisoblangan jadvalni tuzadi.

Uyg‘onish davrining dastlabki matematikaga doir kitoblaridan biri italyan matematigi va ruhoniysi Luka Pacholi (1445-1514) tomonidan yozilgan bo’lib, bu kitob «Arifmetika, geometriya, nisbatlar va proporsionalliklar bo‘yicha bilimlar yig‘indisi» (1494) deb nomlangan edi va unda bir nechta ajoyib masalalarni ko’rsatib o’tadi . Ammo Pacholi ko‘rsatib o‘tgan yechim ko‘p muhokamalarga sabab bo‘ladi. U berib o‘tgan masalalari uchun ba’zi bir xató yechimlarni ko’rsatgan edi.

Italyan matematigi Jirolamo Kardano (1501-1575) «Soqqa o‘yin haqida kitob» qo‘lyozmasida (1526-yil, so‘ngra 1563-yilda bosilib chiqqan) o‘yin soqqalari tashlanganda ularda u yoki bu sondagi ochkolar sonining chiqishiga bag‘ishlangan ko‘plab masalalar yechilgan. U ikkita va uchta soqqani tashlaganda tushishi mumkin bo‘lgan hollar sonini to‘g‘ri hisoblagan .

Paskal, Ferma va Gyuygens ehtimol tushunchasiga yaqinlashdilar, lekin imkon beruvchi hollar sonining barcha mumkin bo‘lgan hollar soniga nisbatidan nari o‘ta olmadilar. Bu XVII asrda ro‘yobga chiqmasdan, balki XVIII asrda amalga oshirildi. Ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalarini rivojlantirishda Kon Graunt (1620-1675) va Uilyam Petti (1623-1687) ning demografiya bo‘yicha tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu ishlar bilan yana mashhur ingliz astronomi Edmund Galley (1656-1742) ham shug‘ullanib, hayotning davom etish ehtimoli tushunchasini kiritdi. Uning hisoblarida qo‘shish va ko‘paytirish teoremalari asosida yotuvchi prinsiplar, katta sonlar qonunira yaqin mulohazalar ishlatilgan.

Yakob Bernulli (nem. Jakob Bernoulli, 27 dekabr 1654, Bazel, — 16 avgust 1705, (1701). «Farazlar san’ati» (1713) asarida mukammal bo‘lmasada ehtimol tushunchasi kiritilgan. Bu tushunchaning Graunt va Pettilar chastota tushunchasi hamda ayrim hodisalar chastotalarining turg‘un bo‘lishi kabi xulosalari bilan o‘zaro muvofiqligi aniqlandi.

Jorj-Lui Leklerk, graf de Byuffon (fr. Georges-Louis Leclerc, Comte de Buffon), 7 sentyabr 1707, Monbar, Burgundiya — 16 aprel1788, Parij) —chiziqlar bilan bo‘laklarga ajratilgan tekislikka ignani tashlash masalasini taklif etdi va uning yechimini bayon etdi. Shunday bo‘lsada, unga qadar geometrik ehtimolni topish masalasi 1692 yilda X. Gyuygensning «Qimor o‘yinlaridagi hisoblar haqida» asarini inglizchaga tarjima qilishda ingliz matematigi Jon Arbutnot (1667-1735) ning qo‘shimchalarida uchraydi: tekislikka qirralari a, b va c bo‘lgan parallelepiped tashlangan. Parallelepiped ab yog‘i bilan qanday chastotada tushish, mumkin? Uning o‘zi bu masalani yechmagan.

Faqat ingliz matematigi Tomas Simpson (1710-1761) «Tabiat va tasodif qonunlari» (1740) asarida bu masalani yechgan. Unda geometrik ehtimol-hodisani ro‘yobga chiqaruvchi hollar to‘plami o‘lchovining barcha mumkin bo‘lgan hollar to‘plami o‘lchoviga nisbati kabi tushuniladi.

Byuffon ikki marta geometrik ehtimol to‘g‘risida ish e’lon qildi. 1733 yilda «Frank-karro o‘yini haqida » asarida «geometrik ehtimol ehtimollar nazariyasi sohasida vosita sifatida ishlatilishi mumkinligi ko‘rsatilgan». Frank-karro o‘yini polga bir xil shakllar cho‘zilgan, unga diametri 2r bo‘lib, shaklning har bir tomonidan kichik va shakl ichiga to‘la joylashuvchi tanga tashlanadi. Tasodifiy tashlangan tanga shaklning bir yoki ikki tomonini kesib o‘tish ehtimoli

topilsin.

Byuffondan keyin geometrik ehtimollar o‘quv qo‘llanmalariga kiritildi. Masalan, fransuz matematigi Per Simon Laplas (1749-1827) ning «Extimollarning analitik nazariyasi», rus matematiki Viktor Yakovlevich Bunyakovskiy (1804-1889) ning «Ehtimollar matematik nazariyasi asoslari» (1846), shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda matematika fani rivojlanishi O‘rta Osiyo davlat universitetining ochilishi bilan bevosita bog‘liq, milliy mutaxassislarning yetishib chiqishida bu maskanni tashkil etishga, yordamga kelgan rus matematiklari o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bular orasida Vsevolod Ivanovich Romanovskiy (1879- 1954)ning xizmatlari alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo‘yicha butun dunyoga mashhur ilmiy maktabning ro‘yobga kelish maskani O‘zbekiston MilliyUniversiteti bo‘ldi. Matematikaning bu sohasiga doir nazariy va amaliy tadqiqotlar universitet tashkil etilganidan boshlangan bo‘lib, unga atoqli matematik olim Vsevolod Ivanovich Romanovskiy (1879-1954) asos solgan. Umuman ushbu sohada O‘zbekiston olimlarining o‘tgan davrdagi barcha yutuqlari shu buyuk insonning nomi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Matematik statistika sohasi bo‘yicha Romanovskiy V.I ning ishlari keng qamrovli muammolarni o‘z ichiga oladi.Uning ayniqsa matematik-statistik metodlarni targ‘ib qilishdagi hamda statistik fikrlashning matematik saviyasini ko‘tarishdagi xizmatlari katta. Bu yo‘nalishda uning «Korrelyasiya nazariyasi elementlari» (1928), «Matematik statistika» (1938), «Matematik statistikaning elementar kursi»(1939), Tajriba ishida matematik statistiakni qo‘llash» (1947) va «Xatolar nazariyasining asosiy masalalari» (1947) kabi kitoblari katta ahamiyat kasb etdi.

Taqsimotning nazariy qonuni shakli va kuzatishning qo‘yilishiga bog‘liq bosh tanlanma turdli xarakteristikalari empirik materiali bo‘yicha taqribiy bahosining turli tuman usulublari paydo bo‘ldi. Romanovskiy V.I ga bu sohada muhim natijalarga erishdi. Masalan,tanlanmalar nazariyasiga taaluqli uning ishlar majmuasi katta e’tibor qozondi. Muammosi bo‘yicha ular matematik statistikaning ingliz maktabiga yaqin bo‘lsada, undan metodologik ustqurmasi bilan farq qilar edi. Bundan tashqari, Peterburg maktabi tarbiyalanuvchisi bo‘lganligidan P.L.Chebishev tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalanar edi, ularni yangi masalalarga moslashtirib takomillashtirdi.

V. I. Romanovskiyning ikki shogirdiToshmuhammad Aliyevich Sarimsoqov (1915-1995) va Sa’di Hasanovich Sirojiddinovlar (1921-1989)ustozlari ishini davom ettirishdi.

Tursun Abdurahimovich Azlarov ham mamlakatimizning ehtimollar nazariyasi va matematik statistika sohasidagi yetakchi olimlaridan biri.

METODLAR. Dastlab ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri “tasodifiy hodisa” tushunchasini keltiramiz. Natijasini oldindan aytib bo’lmaydigan tajriba o’tkazilayotgan bo’lsin. Bunday tajribalar ehtimollar nazariyasida tasodifiy deb ataladi.

•Tasodifiy hodisa(yoki hodisa) deb, tasodifiy tajriba natijasida ro’y berishi oldindan aniq bo’lmagan hodisaga aytiladi.

Hodisalar, odatda, lotin alifbosining bosh harflari A,B,C, …lar bilan belgilanadi.

•Tajribaning har qanday natijasi elementar hodisa deyiladi va □ orqali belgilanadi.

•Tajribaning natijasida ro’y berishi mumkin bo’lgan barcha elementar hodisalar to’plami elementar hodisalar fazosi deyiladi va □ orqali belgilanadi

Ehtimollar nazariyasining muhim tusunchalaridan biri tasodifiy miqdor tushunchasidir. Tajriba natijasida u yoki bu qiymatni qabul qilishi oldindan ma‘lum bo’lmagan miqdor tasodifiy miqdor deyiladi.

**Ta`rif.** Diskret taqsimlangan tasodifiy miqdor X ning taqsimot qonuni deb uning qabul qilishi mumkin bo`lgan qiymatlari bilan ularga mos ehtimollar orasidagi moslikka aytiladi. Bu moslik qo`yidagi jadvalda ifodalanadi.

X	x_1	x_2	....	x_n
P	p_1	p_2	...	p_n

Bu yerda $p_1 + p_2 + ...+ p_n = 1$

Analitik $P_n(k) = C_n^k p^k q^{n-k}$ $P_n(k) = \frac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}, \quad \lambda = np$ ko`rinishi esa

Misol. Tangani 5 marta tashlaganda gerb tushishlar soni tasodifiy miqdorni taqsimot qonuni topilsin.

Yechish. Tangani bir marta tashlaganda gerb tushish ehtimoli $p = \frac{1}{2}$ ga teng

tushmaslik ehtimoli $q = 1 - p = \frac{1}{2}$ ga teng.

Bernulli formulasi $P_n(k) = C_n^k p^k q^{n-k}$ dan foydalanamiz. 5 marta tangani tashlaganda gerb tushushlar soni tasodifiy miqdor quyidagi qiymatlarni qadul qiladi K: 0,1,2,3,4,5 . Endi shu qiymatlarga mos ehtimollarni xisoblaymiz.

$$P_5(0) = C_5^0(\frac{1}{2})^0(\frac{1}{2})^5 = \frac{1}{32}$$

$$P_5(1) = C_5^1(\frac{1}{2})^1(\frac{1}{2})^4 = \frac{5}{32}$$

$$P_5(2) = C_5^2(\frac{1}{2})^2(\frac{1}{2})^3 = \frac{10}{32}$$

$$P_5(3) = C_5^3(\frac{1}{2})^3(\frac{1}{2})^2 = \frac{10}{32}$$

$$P_5(4) = C_5^4(\frac{1}{2})^4(\frac{1}{2})^1 = \frac{5}{32}$$

$$P_5(5) = C_5^5(\frac{1}{2})^5(\frac{1}{2})^0 = \frac{1}{32}$$

Endi K ni taqsimotini tuzamiz.

K	0	1	2	3	4	5
P_n	1/32	5/32	10/32	10/32	5/32	1/32

Tekshirish: $\frac{1}{32} + \frac{5}{32} + \frac{10}{32} + \frac{10}{32} + \frac{5}{32} + \frac{1}{32} = 1$

Binomial taqsimot. Faraz qilaylik n marta erkli sinashlar utkazilgan bo`lib xar bir sinashda xodisaning ro`y berish ehtimoli p va ro`y bermaslik ehtimoli q=1-p bo`lsin.

Bu erda tasodifiy miqdor K ning qiymatlari K: 0,1,2,...,n bo`ladi. Uning taqsimoti $P_n(k) = C_n^k p^k q^{n-k}$ Bernulli formulasi bilan aniqlanib qo`yidagi jadval ko`rinishda bo`ladi:

X =k	0	1	2	...	k	..	n-1	N
$P_n(k)$	q^n	$C_n^1 p^1 q^{n-1}$	$C_n^2 p^2 q^{n-2}$	..	$C_n^k p^k q^{n-k}$	..	$C_n^{n-1} p^{n-1}$	$C_n^n p^n$

Nyuton binomini qaraymiz.

$$(q+p)^n = C_n^0 q^n p^0 + C_n^1 q^{n-1} p^1 + \ldots + C_n^k q^{n-k} p^k + \ldots + C_n^n q^0 p^n = 1$$

Yuqoridagi taqsimotning mos ehtimollari binomni koeffitsentlari bilan mos tushganligi uchun bu taqsimotga binomial taqsimot deyiladi. Yuqoridagi misoldagi taqsimot xam binomial .

Puasson taqsimoti. Puasson taqsimoti analitik ko`rinishi

$$P_n(k) = \frac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}, \quad \lambda = np$$

Buni jadval ko`rinishi.

X=k	0	1	2	3	.....
$P_n(k)$	$e^{-\lambda}$	$\lambda e^{-\lambda}$	$\frac{\lambda^2}{2!} t^{-\lambda}$	$\frac{\lambda^3}{3!} t^{-\lambda}$	.....

Bu Puasson taqsimoti deyiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR. Geometrik taqsimot. Faraz qilaylik erkli sinashlar o`tkazilgan bo`lib xar bir sinashda A hodisning ro`y berish Ehtimoli p (0<p<1) va ro`y bermaslik Ehtimoli q=1-p ga teng bo`lsin. Tajribani A xodisa ro`y bergangacha davom ettiramiz. Agar A xodisa k - sinashda ro`y bersa demak oldingi k-1 ta sinashda ro`y bermagan bo`ladi.

Bu erda tasodifiy miqdor X xodisani 1- marta ro`y berishi uchun o`tkazilgan sinashlar soni uning qabul kilishi mumkin bo`lgan qiymatlari $x_1=1, x_2=2,\ldots,$.

Demak erkli hodislarni ko`paytirish teoremasiga asosan hodisni K -marta sinashda ro`y berishi

$$P(X=k) = pq^{k-1} \quad (*)$$

k ning 1,2,3,...., qiymatlarini formulaga qo`yib qo`yidagi hayorga ega bo`lamiz.

$$p, pq, pq^2, \ldots, pq^{k-1}, \ldots$$

Bu hayor geometrik progressiyani tashkil etadi.Shuning uchun qo`yidagi taqsimot geometrik taqsimot deyiladi.

X=k	1	2	3	....	k	...
P(X=k)	P	pq	pq^2	.....	pq^{k-1}	....

Bu erda $\sum_{k=1}^{\infty} P(X=k) = 1$

Diskret tasodifiy miqdorning matematik kutishi va uning xossalari

Tasodifiy miqdorni taqsimot qonuni uni ko`p tomonlama ifodalaydi. Lekin tasodifiy miqdorlarni o`rganishda bundan tashqari ba`zi asosiy tushunchalarni, ya`ni o`rta qiymat, chetlanish, dispersiya kabi tushunchalarni kiritishga to`qri keladi. Faraz qilaylik diskret tasodifiy miqdor berilgan bo`lsin.

X	x_1	x_2	.....	x_n
P	p_1	p_2	.....	p_n

$$\sum_{i=1}^{n} p_i = 1$$

**Ta`rif.** Diskret taqsimlangan tasodifiy miqdorning matematik kutishi deb uning qabul qilishi mumkin bo`lgan qiymatlari bilan ularga mos ehtimollari ko`paytmalarining yig`indisiga aytiladi

$$M(X) = x_1p_1+x_2p_2+....+x_np_n$$

yoki

$$M(X) = \sum_{i=1}^{n} x_i p_i$$

Misol. O`yin kubini 3 marta tashlaganda 6 ochko tushish soni tasodifiy miqdorni matematik kutishi topilsin. Oldin taqsimotini topamiz.

X	0	1	2	3
P	125/216	75/216	15/216	1/216

Endi M(X) ni xisoblaymiz.

$$M(X) = 0 \cdot 125/216 + 1 \cdot 75/216 + 2 \cdot 15/216 + 3 \cdot 1/216 = \frac{75+30+3}{216} = \frac{108}{216} = \frac{1}{2}$$

1- xossa. O`zgarmas sonni matematik kutishi o`ziga teng

$$M(C)=C$$

2-xossa. O`zgarmas sonni matematik kutishi ishorasidan tashqariga chiqarish mumkin

$$M(CX)=CM(X)$$

3-xossa. Ikkita o`zaro erkli tasodifiy miqdorlar ko`paytmasining (yigindisining) matematik kutishi shu tasodifiy miqdorlar matematik kutishlari ko`paytmasiga (yig`indisiga) teng

$$M(X \cdot У) = M(X) \cdot M(У)$$
$$M(X+У)=M(X)+M(У)$$

Umumiy xolda

$$M(x_1+x_2+....+x_n) = M(x_1) + M(x_2) +....+ M(x_n)$$

Matematik kutishning ehtimolli ma`nosi uning o`rta qiymatga taxminan tengligi

$$M(X) \approx \tilde{x}$$

Takror erkli sinashda xodisaning ro`y berish sonini matematik kutishi qo`yidagiga teng

$$M(X) = np$$

Diskret tasodifiy miqdorning dispersiyasi va uning xossalari

Faraz qilaylik X tasodifiy miqdor, M(X) uning matematik kutishi bo`lsin.

1- Ta`rif. X tasodifiy miqdor bilan uning matematik kutishi orasidagi farqqa X-M(X) chetlanish deyiladi.

Teorema. Chetlanishning matematik kutishi nolga teng.

Xaqiqatdan

$$M[X - M(X)] = M[X] - M[M(X)] = M[X] - M(X) = 0$$

Misol. Diskret tasodifiy miqdor taqsimot qonuni bilan berilgan.

X	2,5	3,2	5,0
P	0,4	0,5	0,1

Chetlanishni matematik kutishni toping.

$$M(X) = 2,5 \cdot 0,4 + 3,2 \cdot 0,5 + 5,0 \cdot 0,1 = 1 + 1,6 + 0,5 = 3,1$$

X-M(x)	-0,6	0,1	1,9
P	0,4	0,5	0,1

$$M[X-M(X)] = -0,6 \cdot 0,4 + 0,1 \cdot 0,05 + 1,9 \cdot 0,1 = -0,4 + 0,05 + 0,19 = -0,24 + 0,24 = 0$$

O`rtacha chetlanish ya`ni chetlanishning matematik kutishi xar doim nolga teng bo`lganligi uchun chetlanishni kvadratga ko`tarib undan matematik kutish olamiz va chiqqan natijalardan kvadrat ildiz chiqarib o`rtacha chetlanishni o`rniga ishlatamiz.

2-ta`rif. Chetlanishning kvadratdan olingan matematik kutishga dispersiya deyiladi.

$$D(X) = M[X - M(X)]^2$$

**3-ta`rif.** Dispersiyadan olingan kvadratik ildizga o`rtacha kvadratik chetlanish deyiladi.

$$\sigma(X) = \sqrt{D(X)}$$

Ta`rifga ko`ra dispersiya qo`yidagicha xisoblanadi.

$$D(X) = M[X - M(X)]^2 = [x_1 - M(X)]^2 p_1 +$$

$$+[x_2 - M(X)]^2 p_2 + ... + [x_n - M(X)]^2 p_n$$

Misol. Quyidagicha taqsimlangan diskret tasodifiy miqdorni dispersiyasi topilsin.

X	1	2	5
P	0,3	0,5	0,2

Yechish. Matematik kutishni topamiz:

$$M(X) = 1 \cdot 0,3 + 2 \cdot 0,5 + 3 \cdot .0,2 = 2,3$$

Chetlanishlarini kvadratini topamiz:

$$[x_1 - M(X)]^2 = (1,3)^2 = 1,69$$

$$[x_2 - M(X)]^2 = (2-2,3)^2 = 0,09$$

$$[x_3 - M(X)]^2 = (5-2,3)^2 = 7,29$$

Dispersiyani ta`rifiga ko`ra

$$D(X) = 1{,}69 \cdot 0{,}3 + 0{,}09 \cdot 0{,}5 + 7{,}29 \cdot 0{,}2 = 2{,}01.$$

Teorema. Tasodifiy miqdor X ni dispersiyasi tasodifiy miqdorni kvadratini matematik kutishi bilan matematik kutish kvadrati ayirmasiga teng.

$$D(X) = M[X^2] - [M(X)]^2$$

Isbot.

$$D(X) = M[X - M(X)]^2 = M[X^2 - 2XM(X) + M^2(X)] = M[X^2] -$$

$$-2M(X)M(X) + M^2(X) = M[X^2] - 2M^2(X) + M^2(X) = M[X^2] - [M(X)]^2$$

Bunga dispersiyani hisoblash formulasi deyiladi.

Misol. Quyidagi **x** tasodifiy miqdorni dispersiyasini toping.

X	2	3	5
p	0,1	0,6	0,3

Yechish. Matematik kutishni topamiz.

$M(X) = 2 \cdot 0{,}1 + 3 \cdot 0{,}6 + 5 \cdot 0{,}3 = 3{,}5$

X^2 ni taqsimotini topamiz.

X^2	4	9	25
p	0,1	0,6	0,3

$M(X^2) = 4 \cdot 0{,}1 + 9 \cdot 0{,}6 + 25 \cdot 0{,}3 = 13{,}3$

$D(X) = M[X^2] - [M(X)]^2 = 13{,}3 - (3{,}5)^2 = 1{,}05.$

Endi dispersiyani xossalarini ko`ramiz.

1- xossa. O`zgarmas sonni dispersiyasi nolga teng

$$D(C) = 0$$

Xaqiqatdan

$$D(C) = M[C - M(C)]^2 = M[C - C] = M(0) = 0$$

2-xossa. O`zgarmas sonni dispersiya ishorasidan tashqariga chiqarish mumkin.

$$D(CX) = C^2 D(X)$$

xaqiqatdan

$$D(CX) = M[CX - M(CX)]^2 = M(C^2[X - M(X)]^2) = C^2 M[X - M(X)]^2 = C^2 D(X)$$

3-xossa. Ikkita erkli tasodifiy miqdorlar yig`indisining dispersiyasi shu tasodifiy miqdorlar dispersiyalari yig`indisiga teng.

$$D(X + Y) = D(X) + D(Y)$$

Umumiy holda

$$D(x_1 + x_2 + \ldots + x_n) = D(x_1) + D(x_2) + \ldots + D(x_n)$$

Bundan tashqari

$$D(X + C) = D(X)$$

Xulosa. Bog`liqsiz tasodifiy miqdorlar ayirmasining dispersiyasi dispersiyalar yig`indisiga teng:

$$D(X - Y) = D(X) + D(Y)$$

Isbot. $D(X - Y) = D(X) + D(-Y) = D(X) + (-1)^2 D(Y) = D(X) + D(Y)$.

4-xossa. O`zaro bog`liqsiz tasodifiy miqdorlar ko`paytmasining dispersiyasi shu tasodifiy miqdorlar dispersiyalari ko`paytmasiga teng:

$$D(X \cdot Y) = D(X) \cdot D(Y)$$

Takror erkli sinashlarda xodisa ro`y berish sonining dispersiyasi

$$D(X) = npq.$$

XULOSA. Hozirgi kunda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanini o‘qitishda amaliy usullarni qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ehtimollar nazariyasi va statistikadan o‘rin olgan tasodifiy miqdorlar mavzusi o‘quvchilardan mantiqiy fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini talab etadi. Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalari — matematik kutilma, dispersiya, o‘rtacha kvadratik og‘ish, moda, mediana kabi tushunchalar — real hayotiy misollar orqali tushuntirilsa, bilim yanada mustahkam bo‘ladi.

Matematik tushunchalarni faqat nazariy jihatdan tushuntirish o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli quyidagi amaliy usullar muhim ahamiyatga ega.

Masalan: tanga tashlash, kubik uloqtirish orqali ehtimoliy taqsimotni kuzatish

Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalarini o‘rgatishda amaliy usullardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Chunki bunday yondashuv o‘quvchilarga abstrakt matematik tushunchalarni hayotiy misollar orqali tushunish, ularni kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Tajribalar, statistik kuzatishlar, o‘yinlar orqali olingan natijalar matematik nazariyani yanada yaqqol ko‘rsatadi hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu sababli, tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalarini o‘rgatishda amaliy usullarni keng qo‘llash zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Gmurman V.E. “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”, Toshkent, O`qituvchi, 1978y.
2. S. Sirojdinnov , M.Mamatov. “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”. Toshkent., “O`qituvchi”. 1982y.
3. A.Abdushukurov. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. O’quv qo’llanma. - Toshkent 2010
4. Xalikulov S.I., Ostonov Q. Ehtimollar nazariyasi tarixi. Uslubiy qo‘llanma.- Samarqand: SamDU nashri, 2019.- 67 бет
5. www.tdpu.uz
6. www.arxiv.uz

ONA TILI DARSLIKLARI MISOLIDA MASHQLAR TIPOLOGIYASI

Omonova Dildora Nekmurod qizi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bevosita boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida mashqlar tipologiyasi haqida fikr yuritilgan. Darsliklarda berilgan mashqlar (fonetik, orfografik, morfologik, sintaktik, punktasion) mashqlar haqida so‘z boradi. Mashqlarning darsliklardagi ahamiyati, ularning o‘quvchi nutqini, anglash ko‘nikmasini rivojlantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek bugungi kundagi ona tili darsliklarida mashqlar tahlili ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:mashq, tipologiya, leksik, grammarik, sintaktik mashqlar, grammatik mashqlar, fonetik mashqlar, orfoepik, orfografik,ensiklipediya.

ТИПОЛОГИЯ УПРАЖНЕНИЙ НА ПРИМЕРЕ УЧЕБНИКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В статье рассматривается типология упражнений в учебниках родного языка для начальной школы. Рассматриваются упражнения (фонетические, орфографические, морфологические, синтаксические, пунктуационные), представленные в учебниках. Обсуждается значение упражнений в учебниках, их роль в развитии навыков речи и понимания прочитанного. Также дан анализ упражнений в современных учебниках родного языка

Ключевые слова: упражнение, типология, лексические, грамматические, синтаксические упражнения, грамматические упражнения, фонетические упражнения, орфоэпические, орфографические, энциклопедия.

TYPOLOGY OF EXERCISES ON THE EXAMPLE OF NATIVE LANGUAGE TEXTBOOKS

Annotation: This article discusses the typology of exercises in primary school native language textbooks. It discusses the exercises (phonetic, orthographic, morphological, syntactic, punctuation) given in the textbooks. It discusses the importance of exercises in textbooks, their role in developing student speech and comprehension skills. It also provides an analysis of exercises in today’s native language textbooks.

Keywords: exercise, typology, lexical, grammatical, syntactic exercises, grammatical exercises, phonetic exercises, orthoepic, orthographic, encyclopedia.

Kirish: Ona tilini o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf darslik “Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi.

Bugungi kunda barcha sohalarda o‘zbek tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Davlatimiz tomonidan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohalardagi islohotlar,

jumladan, ta’lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlar o‘zbek tili, xususan, ona tili ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism: Ona tili darsliklarini mashqlarsiz tasavvur qilish juda murakkab hisoblanadi. Ya’ni mashqlar ona tili darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki yangi mavzuni o‘rgangan o‘quvchi albatta mashqlarni bajarish orqali bevosita ularni mustahkamlaydi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o’quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o’quvchi egallashi ko’zda tutilgan ko’nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi.

Mashq so‘zining ma’nosini izohlaydigan bo‘lsak, “Pedagogika Entsiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgani va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko’rish mumkin: Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o’zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko’p marta takrorlash. Mas., o’qish, yozish. M. ta’limda ko’nikma va malakalar hosil qilishda muhim o’rin tutadi1 Demak, mashq – ko’nikma yoki malaka hosil qilish vositasi hisoblanadi. .

Ona tilida mashqlar tipologiyasi — bu o‘quvchilarning ona tili fanini o‘zlashtirishga yordam beradigan mashqlarni maqsadi, shakli va bajarilish usuliga qarab turlarga ajratishdir.

Tipalogiya so‘zining kelib chiqish ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, yunoncha «typos» — shakl, ko‘rinish; «logos» — ta’limot, fan degan ma’nolarni anglatadi.

Izlanishlarimiz natijasida bugungi kunda boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi mashqlar tipologiyasining asosiy turlari keltirib o‘tamiz:

Mazmuniga ko‘ra mashq turlari		
Turi	**Tavsifi**	**Misollar**
Leksik mashqlar	So‘z boyligini oshirish, so‘z ma’nosini tushunish	Matnda berilgan sinonim, antonim so‘zlarni toppish.
Fonetik mashqlar	So‘zlarning talaffuziga e’tibor qaratish.	Matnda berilgan unli va undosh tovushlarni ajratish
Morfologik mashqlar	So‘zlarning tuzilishini o‘rganish	So‘z yasash, matndagi so‘z turkumlarini aniqlash
Sintaktik mashqlar	Gap tuzilmasini o‘rganish	Matnda berilgan gap bo‘laklarini topish, gap tahlilini keltirish.
Orfografik mashqlar	To‘g‘ri yozishni mustahkamlash	Imlo mashqlari, dikantlar
Punktuatsion mashqlar	Tinish belgilarini o‘rganish	Tinishi belgilarini qo‘yish mashqlari

Quyida esa biz bugungi kunda boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida berilgan mazmuniga ko‘ra mashqlardan anmunalar keltirib o‘tamiz:

Ona tili savodxonligi darsligi 2-sinf 4-qismida o‘quvchini sinonim va antonimlar bilan tanishtirish uchun mashqlar berilgan bo‘lib, ulardan ba’zi namunalar keltirib o‘tamiz.

1-mashq. Meva va sabzavotlarning ko’rinishi, hajmi, ta’mi, foydali xususiyatlariga ko‘ra ta’rifini yozing.

1. Nima deb o‘ylay siz , bu meva va sabzavotlarning qanday foydali xususiyatlari bor?

2. Yana qanday foydali mahsulotlarni bilasiz?

• Siz qaysi mevani yaxshi ko‘rasiz? Uni ta’riflab aytib bering.

2-mashq. Shakllarga qarang.

O‘ylab ko‘ring, bu shakllarni ta’riflash uchun sizga qaysi so‘zlar kerak bo‘ladi?

Har bir shaklni ta’riflab, bittadan gap tuzing.

3-mashq. So’zlarni o‘qing.

Yaxshi, yomon, katta, kichik, chiroyli, xunuk, sifatli, oq, qora, jahldor, uyatchang, mahmadona, issiq, sovuq, toza, loyqa.

• Berilgan so’zlardan foydalanib, odamlar, hayvonlar va buyumlarning ta’rifi aks etgan gaplar tuzing.

Ushbu mashqlarni bajartirish orqali biz o‘quvchida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan qisman xabardor qilishimiz mumkin.

Fonetik mashqlar: boshlang‘ich sinfning savodxonlik davridan boshlab, o‘quvchilar fonetik mashqlar haqida dastlabki ma’lumotlarni ola boshlaydilar. Fonetik mashqlarga bosh harflar imlosi, unli va undosh harflar, qo‘shib va ajratib yozish kabi mashqlar kiradi.

Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili darsligining 1-sinf 2-qismining 38-sahifasida bevosita o‘quvchilarni bosh harflar bilan tanishtirishga oid mashqlarni ko‘rishimiz mumkin;

44-mavzu Bosh harfHayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar

1-mashq. O‘qing. Bosh harflarga e’tibor bering.

Yakshanba kuni oilamiz bilan sirkka bordik. Qiziqchilar va sirk ustalari hayvonlar bilan namoyishga chiqdilar. Qiziqchi sahnaga iti Bim, mushugi Malla va toychog‘i Qashqa bilan chiqdi. Hayvonlar ishtirokida ajoyib sirk tomoshasini ko’rsatdi. Ularni tomoshabinlar olqishladilar. Sirkdan quvnoq kayfiyatda qaytdik.

3-mashq. Gaplarni o’qing. Nuqtalar o‘rniga gap ma’nosiga mos so‘zlarni qo‘ying.

1. Sinfimiz o‘quvchilari ... .



Morfologik mashqlar: Asosan morfologik mashqlarni bajartirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga so‘zlarning tuzulishi haqida o‘rgatiladi.

3-sinf ona tili darsligi 4-qism, 3-sinfda o‘tilganlarni takrorlash qismining 7-sahifasida bevosita morfologiyaga oid mashqlarni ko‘rishimiz mumkin.

2-mashq Birinchi ustundagi so‘zlarga -la, ikkinchi ustundagi so’zlarga -chi, uchinchi ustundagi so‘zlarga -chi qo’shimchalarini qo’shib, yangi so‘zlar hosil qiling. Ularning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini, qaysi so‘z turkumiga oidligini ayting.

pardoz -
sut - ...
mahkam - ...
erka - ...
yaxshi - ...
mayda - ...
tekis - ...

Hosil qilingan so‘zlardagi asos va so‘z yasovchi qo’shimchalarni tegishlicha belgilang.

Sintaktik mashqlar; boshlang‘ich sinflarda sintaktik mashqlarnibajartirish orqali bevosita boshlang‘ich sinflarda gap tuzilmasi haqida o‘rgatiladi. Asosan gaplarning tuzilmasi haqida yuqori sinflarda o‘rgatilsada, lekin gapning tuzilmasi mashqlar yordamida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tushuntirib boriladi.

3-mashq. Berilgan so’zlardan mosini tanlab, tugallanmagan gaplarni to‘ldirib yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar:
bormang
qilmang
ovqatlanmang



Orfografik mashqlar; Orfografik mashqlarni bajartirish orqali o‘quvchining savodxonlik davridan boshlab, to‘g‘ri yozishga o‘rgatiladi. O‘quvchini to‘g‘ri yozisj qoidalarini o‘rgatish dastlab diktant yozish orqali ham o‘quvchiga o‘rgatib boriladi.

Punktuatsion mashqlar-bunday mashqlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish orqali bevosita gaplarda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash, to‘g‘ri talaffuz qilishga ham o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darsligi 2-sinf 4-qismi 12-sahifasida tinish belgilariga oid mashqlarni ko‘rib tahlil qilishimiz mumkin;

8-mashq. Gaplarning oxiriga mos tinish belgisini qo’yib yozing.

8-mashq. Gaplarning oxiriga mos tinish belgisini qo'yib yozing.

Anvarning ola-bula sigiri bolaladi

Nodira qanday kitob o'qiyapti

Shu yurtda tug‘ilganimdan baxtiyorman

1.Faoliyat turiga ko‘ra mashqlar	
Tur	**Tavsif**
Ko‘chirma (reproduktiv)	Tayyor matn asosida ishlanadi: ko‘chirish, to‘ldirish
Qisman ijodiy	O‘quvchi mustaqil fikrlaydi: so‘z qo‘shish, gap tuzish
Ijodiy (kreativ)	O‘quvchi to‘liq mustaqil ish bajaradi: matn yozadi, matnni tahrir qiladi
2.Bajarilish shakliga ko‘ra mashqlar	
Yozma mashqlar	Yozuv orqali amalga oshiriladi
Og‘zaki mashqlar	Og‘zaki ifoda orqali: o‘qish, gapirish
Kuzatuvli mashqlar	Matn, rasm, voqea asosida tahlil qilish
3. O‘quv maqsadiga ko‘ra mashqlar:	
Tushuntiruvchi	Yangi mavzuni o‘zlashtirishga yordam beradi
Mustahkamlovchi	O‘rganilgan bilimni mustahkamlaydi
Nazorat mashqlari	Bilimni tekshirishga xizmat qiladi (test, dikant)

Xulosa: Ona tili darsliklarida keltirilgan mashqlar o‘quvchilarning tilshunoslik bilimlarini chuqurlashtirish, fikrlash doirasini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga

xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashqlar turlari (reproduktiv, konstruktiv, ijodiy va kommunikativ) turli darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning yoshi, sinfi, va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.To‘xliev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 174 b.

2. Yusupova T.A. Sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog‘lab o‘rganish metodikasi (5-sinf va 8-sinf ona tili darslari misolida). Monografiya.– Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 176 b.

3. Qodirov M. va boshq. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho‘lpon, 2006. – 165 b.

4.. Qosimova K., Matchonov C., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

5.. G‘ulomov A., Nematov H. Ona tili ta’lim mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

6.. Husanboeva Q., Niyozmetova Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 352 b

TALABALARNING IJTIMOIY MEDIA TARMOQLARI ASOSIDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Pazilova Dilnoza Xaydaraliyevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning ijtimoiy media tarmoqlari asosida axborot kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xorijiy tajribalar tahliliga tayangan holda, ijtimoiy media vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish hamda global ilmiy hamjamiyat bilan muloqotni kuchaytirish zarurligi asoslab berildi. Maqolada axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. Axborot kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy media, oliy ta'lim, tanqidiy tafakkur, ilmiy hamjamiyat, metodik qo'llanma, axborot savodxonligi.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Axborot oqimining tezligi, uning turli manbalarda tarqalishi va ko'p hollarda ishonchliligining turlicha bo'lishi talabalarni mustaqil tanqidiy fikrlashga, axborotni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy media tarmoqlari (Facebook, Twitter, YouTube, Instagram, LinkedIn va boshqalar) talabalarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy media nafaqat muloqot vositasi, balki bilimlarni yaratish, almashish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish platformasi sifatida ham xizmat qilmoqda.

Talabalarda axborot kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari – soxta yangiliklarni aniqlash, ishonchli manbalarni farqlash, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan.

Shuningdek, ijtimoiy media asosida axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanmalar, ta'limiy kurslar va o'quv dasturlarining yetishmasligi bu jarayonni samarali tashkil etishda jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Bu esa, talabalarning global ilmiy hamjamiyat bilan faol muloqotga kirishish, xalqaro axborot maydonida o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Talabalarning ijtimoiy media tarmoqlari asosida axborot kompetentligi-ni rivojlantirish yuzasidan xorijiy tajribalar tahlili:


AQSH tajribasi:Universitetlarda Media Literacy Program keng qo'llanilib, talabalar axborot oqimini tanqidiy baholashga o'rgatiladi.LinkedIn, ResearchGate va Twitter orqali talabalar o'z ilmiy ishlari bilan global hamjamiyatda bo'lishadi.Digital Citizenship kurslari yordamida talabalar internet xavfsizligi, intellektual mulk huquqlari va axborot ishonchliligini aniqlash bo'yicha tayyorlanadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi: Erasmus+ dasturi doirasida ijtimoiy media orqali talabalar o'rtasida madaniyatlararo hamkorlik rivojlantirilmoqda.Germaniya va Finlyandiya universitetlarida talabalar YouTube va blog platformalaridan foydalangan holda ta'limiy kontent ishlab chiqishadi."Open-source learning" asosidagi ijtimoiy media integratsiyalangan kurslar talabalarni axborotni yaratish va ulashishga yo'naltiradi.

Janubiy Koreya tajribasi:"Smart Education" konsepsiyasi asosida ijtimoiy media tarmoqlari o'quv jarayoniga to'liq integratsiya qilingan.YouTube va Naver platformalari orqali talabalar o'z taqdimotlarini ommaga ulashib, keng tahlil va baholash imkoniga ega bo'ladilar.Onlayn guruh loyihalari talabalarni birgalikda muammolarni hal qilishga yo'naltiradi.

Singapur tajribasi: "Lifelong Learning" siyosati asosida ijtimoiy media uzluksiz o'qish va

mustaqil ta’lim jarayonida qo‘llaniladi.Telegram va WhatsApp orqali ilmiy guruhlar tashkil etilib, talabalar o‘zaro tezkor muloqot va loyiha muhokamalarini olib boradi.



1-rasm. Xorijiy davlatlar (AQSH, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Singapur) xaritasi

1-rasm. Xorijiy davlatlar (AQSH, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Singapur) xaritasi

O‘quv dasturlarida blended learning (an’anaviy va onlayn ta’lim uyg‘unligi) keng qo‘llaniladi.

Talabalarning ijtimoiy media tarmoqlari asosida axborot kompetentligini rivojlantirish yuzasidan xorijiy olimlar ning ilmiy qarashlari:

1.Manuel Castells (2000) – axborot jamiyati nazariyasida ijtimoiy tarmoqlar axborot almashishning global kanali sifatida talqin qilinadi. Ammo, agar ular faqat ko‘ngilochar maqsadlarda ishlatilsa, ta’lim jarayoniga qo‘shadigan ilmiy salohiyat yo‘qoladi, deb ta’kidlaydi. [1]

2.Howard Rheingold (2012) – “Net Smart” asarida talabalarda axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini urg‘ulaydi. Unga ko‘ra, ijtimoiy media faqat passiv iste’mol emas, balki ilmiy hamjamiyat bilan muloqot qilish, axborotni qayta ishlash va baham ko‘rish vositasi sifatida qo‘llanishi kerak.[2]

3.Jenkins, Ito & boyd (2016) – raqamli madaniyat tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, yoshlar ko‘proq ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazsa-da, ta’limiy maqsadga yo‘naltirilgan kontent yetarli emas. Shu sababli, pedagogik metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi talab etiladi.[4]


4.UNESCO (2018) – “Media and Information Literacy” konsepsiyasida talabalarda soxta yangiliklarni ajratish, manba ishonchliligini baholash va axborotni qayta ishlash kompetensiyalari global ta’limning ustuvor vazifasi ekanligini ta’kidlaydi.[3,]

5.Shulman & Cox (2020) – tadqiqotlarida oliy ta’lim tizimida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ilmiy hamjamiyat bilan integratsiya qilish, onlayn kollaboratsiya va global hamkorlikni kuchaytirishga yordam berishi mumkinligini qayd etadi.[5]

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy media tarmoqlaridan samarali foydalanish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish lozim:

Pedagogik integratsiya – Ijtimoiy media platformalarini ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida integratsiya qilish talab etiladi. Masalan, Testor AI kabi sun’iy

intellekt vositalaridan foydalanib, talabalarning bilimlarini avtomatik tahlil qilish va natijalarni teskari aloqa sifatida yetkazish mumkin. [6]



2-rasm.Testor AI interfeysining ishlash algoritmi

Bu usul talabalarda axborotni izlash, qayta ishlash va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

– Ilmiy manbalar: Siemens (2005) tomonidan ilgari surilgan konektivizm nazariyasi ijtimoiy media orqali bilim olish va axborot almashinuvining ta’limdagi muhim rolini asoslaydi.

Maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish – O‘qituvchilar uchun ijtimoiy media asosida axborot kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar va o‘quv kurslari yaratish zarur. Bu qo‘llanmalarda talabalarga:

-ishonchli manbani aniqlash,

-axborotni qayta ishlash,

-plagiatni oldini olish,

tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid mashg‘ulotlar bo‘lishi lozim.

– UNESCO (2018) tavsiyalarida “Media va axborot savodxonligi” kurslarini oliy ta’lim dasturlariga kiritish samarali yechim sifatida ko‘rsatilgan.

Ilmiy hamkorlik va global muloqotni kuchaytirish– Talabalar ijtimoiy media orqali xalqaro ilmiy loyihalar, virtual konferensiyalar, onlayn seminarlarda faol ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar kengaytirilishi kerak.

– Bu jarayon ularni global ilmiy hamjamiyat bilan bog‘lash va xalqaro tajribani o‘zlashtirishga yordam beradi.

Axborot madaniyatini shakllantirish– O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy media ko‘proq ko‘ngilochar maqsadlarda ishlatilayotganini hisobga olib, talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish zarur.

Bu borada,axborot savodxonligini ta’limning barcha bosqichlarida izchil rivojlantirish — yoshlarni ijtimoiy media orqali yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish va ularning ilmiy salohiyatini oshirishning eng muhim omilidir.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy media vositalarini ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish, maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va talabalarning global ilmiy hamjamiyat bilan faol muloqotini yo‘lga qo‘yish axborot kompetentligini samarali rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston oliy ta’limida ham ijtimoiy media texnologiyalaridan foydalanishning yangi pedagogik yondashuvlari joriy etilishi lozim.

Demak, ijtimoiy media asosida axborot kompetentligini rivojlantirish — nafaqat talabalarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirish, balki ularni global ilmiy axborot makoniga integratsiya qilishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralishi kerak.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] M. Castells, The Rise of the Network Society. Oxford, U.K.: Blackwell Publishing, 2000.

[2] H. Rheingold, Net Smart: How to Thrive Online. Cambridge, MA, USA: MIT Press, 2012.

[3] UNESCO, Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris, France: UNESCO Publishing, 2018.

[4] H. Jenkins, M. Ito, and d. boyd, Participatory Culture in a Networked Era: A Conversation on Youth, Learning, Commerce, and Politics. Cambridge, U.K.: Polity Press, 2016.

[5] G. Siemens, “Connectivism: A learning theory for the digital age,” Int. J. Instr. Technol. Distance Learn., vol. 2, no. 1, pp. 3–10, 2005.

[6] J. Knight, “Internationalization of higher education: Challenges and opportunities,” Int. Higher Educ., no. 80, pp. 2–4, 2015.

[7] T. Shodmonov and B. O‘rinov, “O‘zbekiston ta’lim tizimida axborot savodxonligini rivojlantirishning metodik asoslari,” Oliy ta’lim muammolari jurnali, vol. 4, no. 2, pp. 55–61, 2020.

DERMATOVENEROLOGIYA FANINI RELATE-EXPAND-QUESTION (REQ) MODELI ASOSIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Po’latov Boburbek Ta’lat O’g’li
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dermatovenerologiya fanini REQ (Relate–Expand–Question) modeli asosida o‘qitishning zamonaviy metodlari va ularning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dermatovenerologiya, REQ modeli, klinik kompetentlik, interaktiv ta’lim, tanqidiy fikrlash, o‘quv faol ishtirok.

Annotation: This article highlights the modern methods of teaching the subject of dermatovenerology based on the REQ (Relate–Expand–Question) model and their specific features.

Keywords: dermatovenerology, REQ model, clinical competence, interactive learning, critical thinking, active student engagement.

Bugungi kunda tibbiyot oliygohlarida dermatovenerologiya fanini talabalarga samarali o‘qitish uchun texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o‘qitish, yagona axborot muhiti va shunga o‘xshash axborot-kommunikasion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o‘zining samarasini berishi bilan birgalikda talabalarni ijodiy fikrlashga, ularni muammoni tahlil qilish va shu asosida xulosa qilishga o‘rgatadigan texnologiyalarni qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foresight texnologiyalar – bu istiqboldagi tendentsiyalarni aniqlash va rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodologiya va texnikalar to‘plamidir. Ushbu texnologiyalar davlat boshqaruvi, biznes, ta’lim, fan va boshqa sohalarda qo‘llanilib, uzoq muddatli rejalashtirish va innovatsion qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Foresight texnologiyalarining asosiy xususiyatlari:

- kelajakni oldindan bashorat qilish: O‘tmish va hozirgi tendentsiyalarni tahlil qilish orqali kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni taxmin qilish.
- scenario modeling: Kelajakning turli rivojlanish stsenariylarini ishlab chiqish, masalan, ijobiy, salbiy va neytral stsenariylar.
- ijtimoiy hamkorlik: Turli manfaatdor tomonlarni jalb qilish orqali keng qamrovli va muvozanatli qarorlar qabul qilish.
- innovatsion rivojlanish: Yangi g‘oyalar va yechimlarni aniqlashga yordam berish.

Axborot jamiyatida bilim, malaka inson hayotidagi ustuvor qadriyatlarga aylanib bormoqda. Oxirgi yillarda tibbiyot oliy talim muassasalari talabalar ining intellektual, axloqiy rivojlanishini rag‘batlantiradigan, uning potensial imkoniyatlarini faollashtiradigan hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan ta’limning bu turiga yo‘nalish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu turdagi mashg‘ulotlar doirasida talaba o‘zini o‘quv-bilish faoliyatining faol subyekti sifatida namoyon etadi.

Tibbiyotda foresight texnologiyalari kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘rish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun qo‘llaniladi. Ular strategik rejalashtirish, resurslarni samarali boshqarish va yangi davolash usullarini rivojlantirishga imkon beradi.

Foresight texnologiyalari dermatovenerologiya fanini o‘qitishda nafaqat zamonaviy o‘quv jarayonini yaratadi, balki talabalarni kelajakda yuzaga keladigan sog‘liq muammolariga innovatsion yechimlar topishga tayyorlaydi. Bu yondashuv ta’lim jarayonini optimallashtiradi va tibbiy kadrlar sifatini sezilarli darajada oshiradi .

Talabalar klinik kompetentligini dermatovenerologiya fani asosida takomillashtirish yo‘lida

amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat uzoq muddatli, integrativ xarakterga ega jarayondir. Uzoq muddatli ekani klinik tafakkurning asosini belgilovchi bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘zlashtirilishini anglatadi. Bu jarayonda Relate-Expand-Question modeli eng muhim model hisoblanadi.

Quyidagi holatlar ushbu model orqali samaradorlikka erishishni kafolatlaydigan muhim jihatlardir:

- zamonaviy sharoitda talabalarda klinik tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekanigae’tiborni qaratish;

- talabalarda dermatovenerologiya fani orqali klinik tafakkurini rivojlantirish mazmunini yorituvchi kognitiv-metodologik asoslarni ishlab chiqish;

- talabalarda dars davomida klinik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavjud didaktik, texnik va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarning klinikkompetentligini rivojlantirishga yordam beruvchi innovatsionshakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- talabalartomonidan o‘zlashtirilgan nazariy klinikbilim, ularni amaliyotda samarali qo‘llash ko‘nikma, malaka, tajribalardan amaliyotda maqsadli, oqilona foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish .

Relate-Expand-Question (REQ) modeli dermatologiya fanini o’qitishda samarali pedagogik yondashuv sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu model talabalarga o’rganilayotgan mavzuni o’z tajribalariga, mavjud bilimlariga bog’lab, yangi bilimlar bilan kengaytirishga va mavjud tushunchalarni savolga tutishga yordam beradi.

Mazkur jarayonda talabalarda bo‘lajak faoliyat rejalarini puxta ishlab chiqish, individual va mustaqil ta’lim olish, ularda o‘quv-bilish faoliyatini individual va mustaqil tashkil qilish, ta’limiy natijalarni refleksiv o‘rganish malakasi, tajribasi, kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Talabalarning klinikkompetensiyalarini to‘laqonli shakllantirish bir qadar murakkab jarayon hisoblanadi. Binobarin, dermatovenerologiya o‘zida yirik hajmli klinik bilimlarni qamrab olgan bo‘lib, ularni talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirish muayyan vaqt va intellektual kuchni talab etadi .

Tibbiy ta`lim talabalarida klinik tafakkurni rivojlantirishda “fakt (dalil)lar, terminologiya, faktlarni saralash usullari, rivojlanish omillari, tasniflar, tekshirish va baholash mezonlari, tadqiq qilish uslublari, umumiy tushunchalar, hodisalarni tushuntirish, talqin va bashorat qilish uchun zarur nazariyalar, qoidalar va qonunlarni bilishga e’tibor berish lozim” .

Talabaningkliniktafakkuri dermatovenerologiya fanini o`qitish davomida bevosita uning turli tibbiy-klinik vaziyatlarda yuzaga keluvchi masalalarning yechimini topishda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli, talabalarning klinik kompetentligini klinik tafakkur asosida takomillashtirishda ularning tibbiy-klinikvaziyatlarga baho bera olishi, ularning mohiyatini chuqur va to‘la anglashi, ularning yechimlarini topishda obyektiv hamda subyektiv ta’sirlarni inobatga ola bilishi muhimdir. Demak, talabalar tomonidan kognitiv xarakterdagi tushunchalar majmui hamda amaliy kompetensiyalarning puxta o‘zlashtirilishi ularda klinik tafakkurni samarali shakllantirishga zamin yaratadi .

Talabalar klinik kompetentligini klinik tafakkur asosida takomillashtirishga qaratilgan faoliyat samarasini ta’minlashda ustuvor tamoyillarning ham tanlanishi muhim ahamiyatga ega.

Relate-Expand-Question modeli orqali talabalar klinik kompetentligini tibbiy ta’limga tatbiq qilish tushunchasi ostida shunday jarayonni tushunamizki, buning natijasida talabalarquyidagilarni egallaydi:

- birinchi navbatda, barcha talabalarga nisbatan ma’naviy-axloqiy munosabatning to‘laqonli namoyon bo‘lishi, munosabatlar madaniyatini shakllantirishga qaratilgan etiket me’yorlarini o‘zlashtirishni boshlaydi;

- madaniy etiket me’yorlarining mantiqli ekanligi hamda zarurligini anglay boshlaydi;

- madaniy etiketning tarbiyaviy salohiyatini, shuningdek, axloq qoidalarining nazariy-amaliy asoslarini egallay boshlaydi .

Bundan tashqari, talabalarbo‘lajak shifokorlar sifatida ularning zimmasiga kelajakdagi hayotiy faoliyati uchun katta va jiddiy mas’uliyat yuklatilishini ham unutmaslik kerak. Bu esa talabalarda yuksak darajadagi kasbiy mahorat, klinikkompetentlilikni va albatta, ulkan ruhiy quvvatni talab etadi.

Dermatovenerologiya amaliy darslarini Relate-Expand-Question modelini qo‘llash orqali tashkillashga tayyorgarlik jarayonida nafaqat dars rejasi yoki dasturini bajarishni mo‘ljallash, balki har bir xorijiy talabaga bo‘lajak shifokor sifatida yondashish lozim. Bundatalabalarda ularning kuchli shaxsiy va kasbiy sifatlarini aniqlash va shuning asosida kuchsiz sifatlarni rivojlantirish, maqsadga yo‘naltirilganlik hamda izchillikka e’tibor berish darkor.

Turli darajadagi kasbiy ko‘nikma va malakaga ega talabalarni shaxsga yo‘naltirilgan, murakkablashib boradigan, keng qamrovli, uzluksizlilik va ijodiylik xarakteridagi tayyorlov jarayonini ta’minlash ulardagi kasbiy tayyorgarlik sifatining jiddiy ko‘tarilishida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, dermatovenerologiya amaliy mashg‘ulotlarida talabalar o‘zlaridagi shaxs fazilatlarini tanlagan kasbiga mosligini aniqlash orqali kasbiy faoliyat turini qanchalik to‘g‘ri tanlaganliklarini belgilab olishlari kerak.

Aynan faol, uzoq muddatli dermatovenerologiya amaliy darslari jarayonida talabalarfaoliyatida ularda xosil bo‘lib ulgurgan klinik kompetensiyalar o‘rtasida jiddiy tafovut borligi aniqlanishi mumkin. Shundan so‘ng, amaliy mashg‘ulotlardaTalabalarning klinikkompetensiyalari mazmuniy materiallar asosida takomillashib boradi. Bunda ushbu materiallar hayotiy hissiy taassurotlar, aqliy mezonlar va kuzatishlar orqali to‘liq anglanadi.

Shuningdek, Relate-Expand-Question modelini dermatovenerologiya amaliy darslarida qo‘llash – talabalargao‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyati vosita va usullarini baholashni talab qiluvchi haqiqiy ta’lim jarayonida uslubiy refleksiyani shakllantirishga real yordam berishi ham mumkin. Bu zaruriy pedagogik qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari bilan uyg‘unlashib ketadi.

REQ modeli asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni dermatovenerologiya fanini o‘rganayotgan talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki amaliy klinik ko‘nikmalarini, kasbiy fikrlash va savol asosida tahlil qilish salohiyatini ham rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Relate – mavjud bilimlarni tahlil qilish, Expand – yangi klinik holatlar orqali doirani kengaytirish va Question – tahliliy savollar orqali mustahkamlash bosqichlari orqali talabalar o‘z fikrini asosli ifodalashni, muammoni tanqidiy ko‘rishni va mustaqil qaror chiqarishni o‘rganadi. Shunday qilib, REQ modeli zamonaviy tibbiy ta’limda klinik kompetensiyalarni shakllantirishda samarali yondashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduraxmonov R. Dermatovenerologiya: klinik amaliyotda diagnostika. – Toshkent: Tibbiyot, 2016. – 250 b.
2. Saloxidinova Z.M. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim sifatini oshirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 204 b.
3. Komilov N. Oliytibbiyta’limningumumiytendensiyalari va qonuniyatlarini rivojlantirishda tibbiyot tarixi fanining o‘rni // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №9. – bb.770–774.
4. Komilov N. Instructional potential of teaching the history of medicine to international students in higher medical education institutions // Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2025, Vol. 4, № 1. -P.71-75.
5. Komilov N. The concept of forming the exclusive competence of foreign students by teaching the history of medicine through the “Connect-extend-challenge model” // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №10. –pp.781–787.
6.Kassirer J.P., Wong J.B., Kopelman R.I. Learning Clinical Reasoning. – Baltimore: Lippincott Williams & Wilkins, 2010. – 330 p.
7.Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984. – 256 p.

“KREATIV METODLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH”

Qandimova Nasiba.,
Buxoro davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich tayanch doktaranti
http:/orcid.org/ 0009-0005-0492-8396

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida kreativ metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida o‘quvchilar nafaqat tayyor ma’lumotlarni qabul qilish, balki ularni mustaqil izlash, saralash, tahlil qilish va turli taqqoslashlar asosida xulosa chiqarishga o‘rganishi talab etilmoqda. Shu bois ta’lim jarayonida axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Maqolada kreativ metodlarning o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlash qobiliyatiga ijobiy ta’siri ochib beriladi. Muammoli ta’lim, loyiha usuli, interfaol mashg‘ulotlar, o‘yin texnologiyalari hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini faollashtirishi va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishi mumkinligi isbotlab beriladi. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar, o‘yin mashqlari va turli test topshiriqlaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan. Tadqiqot natijalari kreativ metodlarning o‘quv jarayonida samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish hamda zamonaviy ta’lim sifatini yuksaltirishdagi o‘rni muhimligini ko‘rsatadi

Kalit so‘zlar: kreativ yondashuv, axborot bilan ishlash,kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, mantiqiy fikrlash, pedagogik metodlar, mustaqil ta’lim, axborot texnologiyalari, innovatsion ta’lim, o‘quvchi ijodkorligi.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ КРЕАТИВНЫЕ МЕТОДЫ

Кандымова Насиба.,
Бухарский государственный педагогический институт, Направление: Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование)докторант 1-го курса

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования креативных методов в процессе развития у учащихся навыков работы с информацией. В условиях глобализации от школьников требуется не только усвоение готовых знаний, но и самостоятельный поиск информации, её отбор, анализ, сравнение и формулирование выводов. Поэтому формирование компетенции работы с информацией рассматривается как одна из приоритетных задач образования. В статье раскрывается положительное влияние креативных методов на развитие творческого мышления, формирование логического рассуждения, умение принимать самостоятельные решения и эффективно действовать в проблемных ситуациях. Отмечается, что применение проблемного обучения, проектного метода, интерактивных занятий, игровых технологий и средств информационно-коммуникационных технологий позволяет учащимся активизировать знания, разрабатывать новые подходы и проявлять креативность в учебном процессе. В статье также приводятся практические рекомендации по использованию заданий, логических игр и различных тестов для эффективного формирования компетенции работы с информацией. Результаты исследования показывают, что креативные методы повышают эффективность учебного процесса, способствуют развитию инновационного мышления учащихся и играют важную роль в повышении качества современного образования.

Ключовие слова: реативный подход, работа с информацией, компетенция, начальное образование, логическое мышление, педагогические методы, самостоятельное обучение, информационные технологии, инновационное образование, творчество учащихся

Kirish. Hozirgi davrda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, kreativ metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global axborotlashuv jarayonlari, zamonaviy texnologiyalarning keng tarqalishi o‘quvchilardan nafaqat bilimlarni egallash, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, kerakli ma’lumotlarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi deganda o‘quvchilarning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llash qobiliyatlari tushuniladi. Bu ko‘nikma zamonaviy insonning hayotiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda, shuningdek, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘quvchilarda bu ko‘nikmalarni shakllantirish esa an’anaviy metodlar bilan cheklanib qolmasdan, balki kreativ yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Kreativ metodlar o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularda qiziqish uyg‘otadi va mustaqil fikrlashga rag‘batlantiradi. Masalan, interfaol topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, guruhiy ishlanmalar, axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, kreativ yondashuv o‘quvchilarni oddiy bilimlarni yodlashdan ko‘ra, ularni amaliyotda qo‘llash, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va o‘z nuqtayi nazarini asoslashga yo‘naltiradi.

Shu jihatdan, maqolada kreativ metodlar orqali o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish va kelajakda raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Metodlar. O‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar orasida kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan usullar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kreativ metodlar o‘quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularning mustaqil fikrlashini, izlanish faoliyatini, tanqidiy yondashuvini rivojlantiradi. Quyida mazkur jarayonda samarali bo‘lgan asosiy metodlar keltiriladi.

1. Interfaol metodlar

Interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar o‘quvchilarni erkin fikr yuritishga, turli manbalardan axborot to‘plash va uni qayta ishlashga yo‘naltiradi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar axborotni faqat eshitib yoki o‘qibgina qolmay, balki uni izlab topadi, o‘z fikrini asoslaydi va taqqoslaydi.

2. Muammoli ta’lim metodlari

Bu metodlarda o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoli vaziyat qo‘yadi va uni yechish jarayonida ular turli axborot manbalaridan foydalanishga majbur bo‘ladi. Masalan, “Nega?”, “Qanday qilib?” kabi savollar orqali o‘quvchilarni mantiqiy izlanishga undash mumkin. Ushbu metod nafaqat axborot bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradi.

3. Guruhiy va jamoaviy ish metodlari

Kreativ yondashuvda o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib ishlash juda samarali. Guruhiy ishlarda o‘quvchilar biror mavzu yuzasidan ma’lumot to‘plash, uni tahlil qilish, umumlashtirish va taqdim etish jarayonida faol ishtirok etadi. Bu esa ularning hamkorlikda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish, turli fikrlarni muhokama qilish va to‘g‘ri xulosaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Loyiha metodlari

Loyiha metodi o‘quvchilarni chuqur izlanishga, manbalarni mustaqil o‘rganishga va o‘z ishlanmalarini taqdim etishga yo‘naltiradi. Masalan, “Mening axborot resurslarim”, “Internet orqali bilim olish imkoniyatlari”, “Axborotning ishonchliligini tekshirish yo‘llari” kabi loyihalar orqali o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini yuqori darajada rivojlantirish mumkin.

5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish metodlari

Bugungi kunda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Internet resurslari, elektron darsliklar, taqdimotlar, videodarslar, onlayn testlar va turli mobil ilovalar o‘quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ularni o‘quv jarayoniga to‘g‘ri kiritish orqali o‘quvchilar ma’lumotni tez topish, qayta ishlash va taqdim etishni o‘rganadilar.

6. Ijodiy topshiriqlar asosidagi metodlar

Kreativ topshiriqlar o‘quvchilarni shaxsiy yondashuvga, yangi g‘oyalar ishlab chiqishga va axborotni o‘z ijodiy faoliyatida qo‘llashga undaydi. Masalan, “Axborotdan ertak tuzish”, “Rasm asosida hikoya yozish”, “Berilgan ma’lumotdan yangi g‘oya ishlab chiqish” kabi topshiriqlar nafaqat axborot bilan ishlashni, balki ijodiy tafakkurni ham rivojlantiradi.

“Miya hujumi” (Brainstorming) metodi

Matematika darsi: O‘qituvchi savol beradi: “Bir xil shakldagi 3 ta olma bor. Ularni qanday qilib turlicha joylashtirish mumkin?”

O‘quvchilar har xil variantlarni aytadi va doskada sxema chizadi. Bu usul mantiqiy fikrlashni, tezkor javob topishni va turli nuqtai nazarlarni taqqoslashni rivojlantiradi.

Ona tili darsi: O‘quvchilar “do‘stlik” so‘zini eshitib, unga bog‘liq so‘z va iboralarni tezlik bilan aytishadi. Natijada so‘z boyligi kengayadi, tezkor fikrlash rivojlanadi.

“Klasster” (Cluster) metodi

Matematika darsi: “Geometrik shakllar” mavzusida doskaga doira yoziladi. O‘quvchilar undan chiqadigan barcha belgilarni (yumaloq, radiusi bor, dumalab ketadi, non shakli, futbol to‘pi va h.k.) yozib chizishadi.

Ona tili darsi: “Bahor” mavzusida klaster tuziladi. Bolalar gullar, qushlar, yomg‘ir, quyosh kabi tasavvurlarni yozadilar. Bu usul axborotni guruhlash va tizimlashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

“Olti shlyapa” (Six Thinking Hats) metodi

Matematika darsi: “Matematik masala yechimini topish” jarayonida har bir guruhga turli rangli shlyapa roli beriladi: oq – faktlar, qizil – his-tuyg‘ular, qora – qiyinchiliklar, sariq – ijobiy tomonlar, yashil – ijodiy yechim, ko‘k – xulosa. Bu usul masalaga turli nuqtai nazardan qarashga o‘rgatadi.

Ona tili darsi: Matn tahlilida o‘quvchilar bir voqeaga har xil shlyapadan qarashadi. Natijada tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Loyihaviy ish (Project-based learning)

Matematika darsi: O‘quvchilar “Do‘konda xarid qilish” loyihasini amalga oshiradi. Pul hisoblash, qoldiq topish, narxni solishtirish orqali axborotdan foydalanishni o‘rganadilar.

Ona tili darsi: “Bizning maktabimiz” loyihasida bolalar rasmlar va matnlar orqali maktab haqida axborot to‘playdi va taqdim etadi.

Kase-stadi (Case study) metodi

Matematika darsi: “Bir sinfda 28 ta o‘quvchi bor. Ularni 4 ta guruhga qanday teng taqsimlash mumkin?” kabi vaziyatli masalalar beriladi.

Ona tili darsi: “Qahramon do‘stiga yordam bera olmaganida nima bo‘lardi?” kabi vaziyatli savollar orqali axborotga asoslangan ijodiy yechimlar ishlab chiqiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Matematika darsi: Raqamli platformalardagi mantiqiy o‘yinlar (Kahoot, Quizizz) orqali masalalar yechiladi.

Ona tili darsi: Interaktiv taqdimot va multimedia materiallari asosida hikoya tuzish topshirig‘i beriladi.

Natija va mulohazalar.

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida kreativ yondashuvning samaradorligi aniqlandi. Tadqiqotda ikki guruh (tajriba va nazorat) o‘quvchilari ishtirok etdi. Tajriba guruhida kreativ metodlar asosida, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar asosida darslar olib borildi.

Natijalar ko‘rsatdiki, kreativ metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qilgan, balki ularni axborot bilan ishlashning turli bosqichlariga faol jalb etgan:

1. Axborotni izlash va topish – o‘quvchilar mustaqil ravishda turli manbalardan (kitob, internet, darslik, multimedia vositalari) ma’lumot izlashni o‘rgandilar.

2. Axborotni qayta ishlash va tahlil qilish – ma’lumotlarni ajratish, taqqoslash, umumlashtirish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

3. Axborotni vizualizatsiya qilish – diagramma, jadval, klaster va konseptual xaritalar tuzish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rgandilar.

4. Yangi g‘oya yaratish – kreativ metodlar orqali (brainstorming, keys-stadi, loyiha ishi, oltita shlyapa usuli) o‘quvchilarda ijodiy fikrlash sezilarli darajada kuchaydi.

5. Hamkorlikda ishlash – guruhlarda ishlash jarayoni o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini, o‘z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini tinglash madaniyatini rivojlantirdi.

2-sinf O‘qish savodxonligi (2-qism) darsligining 41-betida Po‘lat Mo‘minning “Ibn Sino ulashar davo” she’rini o‘rganishda quyidagi qiziqarli interaktiv topshiriqni bajarish mumkin. Ushbu topshiriqning sharti shuki, she’rni o‘qib bo‘lgach, rasmlarga mos o‘gitni topib, rasm yonida joylashtirish kerak bo‘ladi (2.1-jadvalga qarang):

2.1-jadvalga qarang):

t/r	Rasm	Jumla
1		Tish yuvsang oqshom, Og‘izga orom.
2		Meva yesang, chay, Also erinmay.
3		Tundagi ovqat Qilar betoqat.
4		Og‘iz darvoza, Uni tut toza.
5		Ovqatda me’yor – Sog‘liqqa hamkor.
6		Hatto soch tarash, Sog‘liqqa qarash.
7		Vaqtida orom Etadi sog‘lom.
8		Badantarbiya – Kuch etar hadya.
9		Pashshadan kasal Tarqar har mahal.
10		Tozalik asli, Bilsang, gul fasli.

2.1-jadval. Rasmga mos jumlani topishga oid topshiriqdan namuna.

Tadqiqotning nazariy jihati: Kreativ metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda bilimni faqat tayyor shaklda qabul qilish emas, balki uni izlash, qayta ishlash, yangi bilim yaratish jarayoniga faol jalb etishini tasdiqladi. Bu esa konstruktivistik pedagogika nazariyasiga mos keladi.

Amaliy jihat: Tajriba jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki ularning mustaqil ishlashga tayyorligini oshirdi, bu esa keyingi bosqich ta’limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotni vizualizatsiya qilish ko‘nikmalarining oshishi ularning texnologiyalardan samarali foydalanishiga ham zamin yaratdi.

Metodik jihat: Kreativ metodlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar (klaster, keys, loyiha, muammoli vaziyatlar) o‘quvchilarni izlanishga, tahlil qilishga va ijodiy fikr bildirishga undadi. Shu orqali axborot bilan ishlash kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda rivojlandi.

Natijaviy jihat: Tadqiqot yakunida o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasining rivojlanish darajasi 30% gacha yuqori bo‘lgani aniqlandi. Bu esa kreativ metodlarning samaradorligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Mulohaza: Shuni ta’kidlash joizki, kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat bilim oluvchi, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ular nafaqat dars jarayonida, balki kundalik hayotda ham mustaqil qaror qabul qilish, ma’lumotni tahlil qilish va undan samarali foydalanishga tayyor bo‘ladilar.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kreativ metodlardan foydalanilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va ijodiy qo‘llash jarayoniga faol jalb qilinadi.

Shu sababli quyidagilarga alohida e’tibor berish zarur:

•Boshlang‘ich ta’limda kreativ metodlarga keng o‘rin berish;

•O‘quvchilarni mustaqil izlanishga yo‘naltiruvchi topshiriqlarni ko‘paytirish;

•Axborotni vizualizatsiya qilish imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

•O‘qituvchilarni kreativ metodikalarni qo‘llash bo‘yicha muntazam tayyorlash;

•O‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga keng sharoit yaratish

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Yo‘ldoshev J. G‘. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.

3. Xasanboeva O. U., Rasulova M. A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

4. Dewey J. Demokratiya va ta’lim. – Toshkent: Fan, 2018.

5. Vygotskiy L. S. Bola psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2017.

6. Hasanov A. Kreativ yondashuv asosida ta’lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI RAQAMLI TA’LIMGA TAYYORLASH

Rahimov Sanjar Muxammadovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, v.b. dotsent

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich bosqichda joriy etish orqali o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari va media madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning yosh psixologiyasi, kognitiv rivojlanishi va raqamli vositalarni qabul qilish darajasi inobatga olingan holda samarali pedagogik yondashuvlar ishlab chiqildi. Maqolada interaktiv o‘quv muhitini yaratish, raqamli xavfsizlik qoidalarini singdirish, shuningdek o‘qituvchilar va ota-onalarning raqamli ta’limdagi hamkorligi muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, raqamli savodxonlik, o‘quvchilarning faolligi interaktiv o‘quv vositalari, pedagogik texnologiyalar, raqamli metodika, pedagogik metodika, o‘qituvchi malakasi.

ПОДГОТОВКА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ЦИФРОВОМУ ОБУЧЕНИЮ

Рахимов Санжар Мухаммадович
Чирчикского государственного педагогического института
Доктор философии по педагогическим наукам, и.о. доцента

Аннотация: в данной статье освещены теоретико-методологические основы и практические аспекты подготовки учащихся начальных классов к цифровому обучению в условиях современного образовательного процесса. Проанализированы возможности формирования цифровой грамотности, информационно-коммуникационных компетенций и медиакультуры у школьников посредством внедрения цифровых технологий на начальном этапе обучения. В ходе исследования разработаны эффективные педагогические подходы с учётом возрастной психологии, когнитивного развития и уровня восприятия цифровых средств обучающимися. В статье рассматриваются такие ключевые факторы, как создание интерактивной образовательной среды, формирование правил цифровой безопасности, а также взаимодействие учителей и родителей в процессе цифрового обучения.

Ключевые слова: цифровое обучение, цифровая грамотность, активность учащихся, интерактивные учебные средства, педагогические технологии, цифровая методика, педагогическая методика, квалификация учителя.

PREPARATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS FOR DIGITAL LEARNING

Rahimov M.Sanjar
Chirchik State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy Pedagogical Sciences, Acting Associate Professor

Abstract: this article addresses the theoretical and methodological foundations as well as practical aspects of preparing primary school students for digital learning within the context of the modern educational process. The possibilities for developing digital literacy, information and communication competencies, and media culture among students through the integration of digital technologies at the initial stage of education are analyzed. The study developed effective pedagogical approaches taking into account the age-related psychology, cognitive development, and level of digital tool acceptance by learners. Key factors discussed in the article include the creation of an interactive learning environment, the establishment of digital safety rules, and the collaboration between teachers and parents in the

digital learning process.

Keywords: digital learning, digital literacy, student engagement, interactive learning tools, pedagogical technologies, digital methodology, pedagogical methodology, teacher qualification.

KIRISH: globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining zamonaviy talablariga moslashuvi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari, hamda innovatsion fikrlashni shakllantirishni talab etmoqda. Bu jarayonda boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi, metakognitiv strategiyalarni o‘zlashtirishi va mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan asosiy tayanch ko‘nikmalari shakllanadi.

Bugungi kunda raqamli pedagogika, ta’limni raqamlashtirish konsepsiyasi hamda edutech vositalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini zamonaviy ta’lim talablariga mos tayyorlash zaruriyati yanada kuchaymoqda. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishda bolalarning yosh psixologik va fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olish, ularni axborot xavfsizligi madaniyati asosida tarbiyalash, shuningdek interaktiv, refleksiv va konstruktiv ta’lim usullarini qo‘llash muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli o‘quv muhiti o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish, va media axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, mavjud amaliyotlarni tahlil qilish va samarali strategiyalarni ishlab chiqish asosiy maqsad etib belgilandi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil etishning metodik yondashuvlari, o‘quvchilarda axborot savodxonligini shakllantirish va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi va zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli ta’lim tizimi ham bu o‘zgarishlarga moslashishi, o‘quvchilarni yoshligidan raqamli savodxonlikka tayyorlashi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida raqamli ta’lim asoslarini o‘rgatish o‘quvchilarda mustahkam bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

MAQSAD: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli ta’limga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish, raqamli muhitda o‘qish, raqamli ta’limga tayyorlik darajasini o‘rganish, psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlash, darslarni tashkil etish bo‘yicha metodika ishlab chiqish, o‘quvchilarda mustaqil axborot izlash, tahlil qilish va undan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ota-onalar va o‘qituvchilarning raqamli ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlash va hamkorlik mexanizmlarini tavsiflash.

MATERIALLAR VA METODLAR: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayoni tashkil qilishda raqamli vositalar yordamida videodarslar, animatsiyalar, slaydlardan (multimedia darsliklar, raqamli platformalar, onlayn mashqlar) keng qo‘llanilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida raqamli qurilmalardan foydalanish ko‘nikmalari notekis taqsimlangan. Aksariyat o‘quvchilar o‘yinlar orqali texnologiyalarga qiziqish bildirayotgan bo‘lsalar-da, ularni ta’limiy maqsadlarga yo‘naltirishda muammolar mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lsa, darslarda innovatsion yondashuvlar samarali qo‘llanilmoqda. Shu sababli, o‘qituvchilarning raqamli pedagogik malakasini oshirish dolzarb masala bo‘lib qoladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlash jarayoni ko‘p omilli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi ularning kognitiv rivojlanishi, axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishi, shuningdek, o‘qituvchining malakasi va foydalanilayotgan didaktik vositalar bilan bevosita bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlashda o‘qituvchi zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishni bilishi va ularni dars jarayonida samarali qo‘llay olishi kerak. Umumta’lim maktablardagi texnik jihozlarni yetarli darajada ta’minlash, infratuzilma va internet tezligini oshirish,

metodik qo‘llanmalar, treninglar, onlayn kurslar orqali o‘qituvchilarning raqamli pedagogik salohiyatini oshirish etibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga samarali tayyorlash - nafaqat zamonaviy ta’lim talablariga moslashuv, balki o‘quvchilarning kelajakdagi raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi:

•o‘quvchilarda raqamli savodxonlik shakllanadi;
•o‘quv motivatsiyasi oshadi;
•mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalari rivojlanadi;
•o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi tenglashadi;
•o‘qitish sifati va samaradorligi oshadi;
•erta yoshdan axborot madaniyati shakllanadi;
•kelajakda raqamli iqtisodiyotga tayyor kadrlar shakllanadi.

Ushbu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, o‘quvchilar asosiy yutuqqa va ijobiy natijalarga erishish mumkin.

NATIJA:Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlashning dolzarbligi, ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilindi. O‘tkazilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish uchun yoshga mos metodik yondashuvlar zarurligi aniqlandi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning psixologik, fiziologik va kognitiv xususiyatlariga mos holda tanlanishi lozim. Raqamli ta’lim vositalarining (interaktiv doskalar, planshetlar, o‘quv platformalari va multimedia resurslar) o‘z vaqtida va samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarda darsga qiziqish, mustaqil fikrlash va muammoli vazifalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishi isbotlandi. O‘quvchilarning raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish zarurligi asoslab berildi. Bu borada ota-onalar va o‘qituvchilarning hamkorligi muhim omil sifatida belgilandi. Eksperimental darslar va so‘rovnomalar orqali aniqlanishicha, raqamli ta’limga tayyorlangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari an’anaviy usulda ta’lim olayotgan tengdoshlariga nisbatan yuqori motivatsiya, o‘zlashtirish darajasi va ijodkorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi.

XULOSA: xulosa qilib aytish joyizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’lim olishlari uchun ularning yoshiga mos metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur va o‘qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali raqamli pedagogik yondashuvlar keng joriy etilishi mumkin. Ota-onalar uchun raqamli savodxonlik bo‘yicha seminar va treninglar o‘tkazilishi foydali bo‘ladi. O‘quvchilar ta’lim muassasalarda raqamli ta’limni mustahkamlashda internet tarmog‘ining imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’limga tayyorlashda nafaqat texnik vositalarni joriy etish, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy muhitni ham uyg‘un holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-sonli qarori. “Raqamli ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2023). Raqamli ta’lim platformalari bilan ishlash bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent.

3.Boshlang‘ich ta’lim fanidan davlat ta’lim standarti. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2021.

4.Jo‘raqulova N. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli savodxonligini shakllantirish”. – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022, №1.

5.Raximova M. “Interaktiv texnologiyalar yordamida ta’lim sifatini oshirish yo‘llari”. – Boshlang‘ich ta’lim metodikasi, 2021, №3.

6.Xolboeva G.X. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

7.Azizova D. “O‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishda o‘qituvchining roli”. – Ta’limda innovatsiyalar, 2023, №2.

TA’LIM SOHASIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Raximova Nargiza Mexriddinovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti,tayanch doktoranti (PhD)
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0004-6700-0686

Annotatsiya. Maqolada sun’iy aqlning ijtimoiy hayotimizga kirib kelishi, uning salbiy va ijobiy oqibatlari haqida fikr bildiriladi. Jahon miqyosidagi va O‘zbekistondagi sun’iy intellektning tatbiq etilishi va siyosat darajasiga ko‘tarilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’lim, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, sun’iy intellekt texnologiyalari

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ

Рахимова Наргиза Мехриддиновна, Бухарский государственный педагогический институт, аспирант

Аннотация. В статье рассматривается внедрение искусственного интеллекта в общественную жизнь, его негативные и позитивные последствия. Обсуждается внедрение искусственного интеллекта в мире и Узбекистане, а также его выход на политический уровень.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образование, стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», технологии искусственного интеллекта.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

Rakhimova Nargiza Mekhriddinovna,
Bukhara State Pedagogical Institute, PhD student

Abstract. The article discusses the introduction of artificial intelligence into our social life, its negative and positive consequences. It discusses the implementation of artificial intelligence in the world and in Uzbekistan and its rise to the political level.

Keywords: artificial intelligence, education, «Digital Uzbekistan - 2030» strategy, artificial intelligence technologies

KIRISH. Mamlakatimizda sun’iy intellektdan ta’lim, media, transport, sog‘liqni saqlash, sud va boshqa ko‘plab sohalarda foydalanilmoqda. So‘nggi yillarda axborotlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni turli sohalarda tatbiq etish borasidagi choratadbirlar natijasida O‘zbekistonda AKT va sun’iy intellekt sohasida o‘ziga xos salohiyat asoslari yaratildi. Bu borada tashkilotlar, AKT bo‘yicha ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muassasalari va ularning iqtidorli bitiruvchilari hamda texnoparklar, xususiy sektordagi qator tashkilotlar faoliyatini alohida e’tirof etish mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo‘nalishida Farg‘ona shahridagi maktablarda “Aqlli maktab” dasturi, Andijon viloyatida ekin maydonlari holatini baholovchi “Monterra” onlayn platformasi joriy etilgan bo‘lsa, Toshkent viloyati Nurafshon shahrida “Aqlli shahar”, Toshkent shahrida esa “Xavfsiz shahar” va “Raqamli Toshkent” loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori esa ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shartsharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Zero, qarorda sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH

dollariga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga, sun’iy intellekt yo‘nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Qaror hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida O‘zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish maqsadlariga yo‘l ochadi. Strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali, birinchidan, sun’iy intellektga doir munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, xalqaro va mahalliy standartlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan normativ-huquqiy baza shakllantirishga erishiladi. Ikkinchidan, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazlarida “bulutli texnologiyalar” xizmatlarida ma’lumotlar yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlash asoslari yaratiladi. Uchinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida institutsional boshqaruv shakllantiriladi. To‘rtinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha etika qoidalari ishlab chiqiladi. Beshinchidan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalari keng joriy etiladi. Korxona va tashkilotlarda ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslardan samarali foydalaniladi. Oltinchidan, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlanadi va ushbu yo‘nalishdagi bitiruvchilar soni oshadi. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, sun’iy intellektning ayrim muammolarini deb undan butkul voz kecha olmaymiz.

METODLAR.Oddiy pichoqdan ham oshxona anjomi, ham qurol sifatida foydalansa bo‘ladi. Sun’iy intellekt ham nima maqsadda, kimning qo‘lida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin. Animatsiyada sun’iy intellekt juda rivojlanib bormoqda. Ta’lim sohasida ham o‘rni katta. Har qanday fanni sun’iy intellekt yordamida o‘rganish mumkin, baholab ham boradi, qanday xato qilayotganini ham ko‘rsatadi. Agar zamon bilan hamnafas yurmoqchi bo‘lsak, sun’iy intellektni o‘rganishimiz kerak. O‘zi shundoq ham kech qolyapmiz, har kuni bu sohada yangilik bo‘lyapti. O‘rganmasdan iloj yo‘q, o‘rganish zarur. Ayonki, aholi soni o‘sishi va hududlar yer resurslari chegaralangani sharoitida iste’mol uchun tayyor mahsulotlar yetishmasligi, uning yuqori sifatini ta’minlash muammosi yanada kuchaymoqda. Uni hal qilishda sun’iy intellektning zamonaviy texnologiyalari muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin. Hozirgi vaqtda ushbu vosita iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini qishloq xo‘jaligida va u bilan tutash sohalarda qo‘llash uchun alohida to‘siqlar mavjud emas. Ushbu texnologiya ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, katta hajmga ega bo‘lmagan ma’lumotlarda yashirin bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy va boshqa sohalarga sun’iy intellektni joriy qilishda shaxsga doir ma’lumotlar daxlsizligi, ularni saqlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlari, ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar, yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo‘lib, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar, siyosiy va buzg‘unchi maqsadlarda foydalanish kabi masalalardagi xavfi dolzarb hisoblanadi. Ayrim davlatlarda sun’iy intellekt va AKTdan fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash va siyosiy maqsadlarda foydalanilmoqda, degan ayblovlar yangramoqda. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishda bu masalalarga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Xo‘sh, sun’iy intellektning global xavfsizlikka qanchalik ta’siri bor? Ushbu masala 2023-yil 18-iyul kuni BMT Xavfsizlik kengashida muhokama qilindi. Unda BMT Bosh kotibi xalqaro hamjamiyatni ushbu “noodatiy texnologiya” rivoji ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rishga chaqirdi. Gap shundaki, sun’iy intellekt texnologiyalarining barcha shakl va turlari mutlaqo beqiyos darajadagi o‘ta tezkorlikda va juda keng ko‘lamda tarqalmoqda. Sun’iy intellekt botlari turli savollarga javob qaytarishi, dasturchilar uchun kod yozishga yordamlashishi, talabalar uchun kurs ishlarini yozib berishi mumkin. Mazkur bot hattoki she’r va insholar ham yoza oladi. Shu bois, keng jamoatchilikda bu texnologiya kopirayterlar, jurnalistlar, maktab o‘qituvchilari va boshqa soha vakillarini ishsiz qoldirishi mumkin, degan qo‘rquv paydo bo‘lgan. Ayniqsa, ChatGPTning insholar “yozish” qobiliyatidan o‘qituvchilar ko‘proq tashvishga

tushmoqda. Misol uchun, AQSHda talabalar allaqachon bot tomonidan “yozilgan” insholarni o‘z ijod mahsuli sifatida taqdim qilishni boshlagan. Sun’iy intellektning eng katta muammolaridan biri ham aynan shu — tom ma’nodagi ijodkorlik iqtidori mavjud emasligi bo‘lib qolmoqda.

Jeffri Xinton sun’iy aql otasi deb e’tirof qilingan. U Google tarmog‘idagi o‘z lavozimini tark etdi va sun’iy aql sohasida tobora o‘sib borayotgan xavflardan ogohlantirdi. Olim ishidan bo‘shayotganini New York Times gazetasida e’lon qila turib, o‘z tadqiqotidan afsusda ekanini yozdi. Uning aytishicha, sun’iy aql chatbotlarining ba’zi xavflari juda qo‘rqinchli. “Hozir, aftidan, ular bizdan aqlliroq emas. Lekin o‘ylaymanki, yaqin orada bizni ortda qoldiradi”. Doktor Xintonning neyron tarmoqlari va chuqur o‘rganish sohalaridagi yetakchi tadqiqotlari ChatGPT kabi sun’iy aql tizimlari yaratilishiga zamin yaratgan. Sun’iy aqlda neyron tarmoqlari inson miyasiga o‘xshash tizim bo‘lib, xuddi miya kabi axborotni o‘rganadi va “hazm” qiladi. Chatbotlar yaqin orada o‘zida inson miyasidagidan ko‘proq ma’lumotni saqlay boshlaydi. Mantiqiy fikr yuritishga kelganda ular insonga tenglashmadi, lekin oddiy mantiqni qo‘llay olyapti. Jarayon bu kabi tez sur’atda rivojlanib borayotganini hisobga olsak, bundan xavotirga tushishimiz kerak. Albatta, bu juda dolzarb muammo. Sun’iy intellektdan yovuz va axloqqa zid xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik uchun yoshlarimizga zamon ruhida ta’lim va tarbiya berishimiz kerak.

NATIJALAR.Mamlakatimizda sun’iy intellektning axloqsiz va qonunga zid jihatlari palak otmasligining eng yaxshi yo‘li ta’lim desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Shuning uchun O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘larni ayamaslik kerak va shunday bo‘lmoqda ham. Bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o‘zgarishlar natijadorligi maktab ta’limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqalayotgani bor gap. Shu sababdan ta’lim sohasiga e’tibor kuchaydi. Zero, mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli, ma’naviyatli insonlarga bog‘liq. Shu ma’noda, barcha yumushlardan ozod etilgan o‘qituvchi oldiga faqat yosh avlodni yetuk va komil inson qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Arximed “Yerning tayanch nuqtasini topib bering, ag‘darib yuboraman”, deb aytgan ekan. Biz ham jamiyat rivojining tayanch nuqtasini topdik, bu ta’lim tizimidir! Ilmiy-tadqiqot institutlari, institutlar huzurida laboratoriyalarni tashkil etish sun’iy intellekt yovuz maqsadlarda ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun yo‘ldir. Mamlakatimizda bir guruh olimlar tomonidan Sun’iy intellekt muammolarini ijtimoiy-gumanitar tahlil qilish xalqaro fanlararo institutini tashkil etish g‘oyasi ilgari surildi. Yangi ilmiy o‘quv bo‘linmasi laboratoriya/kollegium/kafedra/malaka oshirish institutidan iborat bo‘ladi. Yangi o‘quv ilmiy muassasasi Prezidentimizning “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni bevosita va bilvosita amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda sobiq sovet makonidagi birinchi va noyob ilmiy tadqiqot va o‘quv bo‘linmasi bo‘lishi kutilayotgan institutning yana bir asosiy maqsadi yurtimiz, MDH va SHHT mamlakatlarida sun’iy intellekt modellari va vositalarini ta’lim sohasiga joriy etish, qo‘llash muammolari va auditini o‘rganish masalalari bilan shug‘ullanish hisoblanadi. Zarurat shuki, sun’iy intellekt vositalari jamiyatning kundalik hayotiga kirib kelgan. Butun dunyoda SIning ilmiy, muhandislik, moliyaviy jihatlarini ishlab chiqayotgan ko‘plab turli bo‘linmalar mavjud. Afsuski, bugungi kunda sun’iy intellektning sotsial auditini, etika muammolarini qayd etadigan, ta’lim kabi muhim sohalarda texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llay olish standartlarini belgilaydigan mexanizm va muassasalar mavjud emas.

XULOSA. Mamlakatimizda ham yuqorida aytilgan institut tashkil etilsa, undan noto‘g‘ri foydalanish, salbiy illatlariga qarshi kurash va oldini olishga muvaffaq bo‘lamiz. Yurtimizda sun’iy intellekt imkoniyatlari va texnologiyalarini ijtimoiy himoya dasturlarida, sog‘liqni saqlash, ta’lim, media, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va sanoatda qo‘llash imkoniyatlari va zarurati mavjud bo‘lib, tegishli dasturlash yo‘nalishlaridagi yetakchi mahalliy mutaxassislar va xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan holda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Sun’iy intellekt yoki turli dasturiy ta’minotlar va AKTni tegishli sohalarga joriy qilishda yuzaki yondashuv, birinchidan, loyihalarning kutilgan natija bermasligiga, ikkinchidan, sarflangan byudjet mablag‘lari samarasiz bo‘lishiga, uchinchidan, zamon talabiga mos bo‘lmagan dastur va tizimlar kiberjinoyatchilar nishoniga aylanib, milliy xavfsizlikka putur yetkazishi hamda yopiq va shaxsiy ma’lumotlar sizib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday davlat dasturlari sohaning yetakchi mahalliy va xorijiy mutaxassislari hamda kompaniyalari tomonidan amalga oshirilishi talab etiladi. Bir narsa aniq: sun’iy intellekt hech qachon tabiiy intellektni yengib o‘tmaydi va undan ustun bo‘la olmaydi. Chunki sun’iy intellektning o‘zi ham inson tabiiy intellektining mahsulidir. Ammo uning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga putur yetkazishiga yo‘l qo‘ymasligimiz darkor. Bu yo‘lda bizga maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’limgacha bo‘lgan yoshlarimizni fikrlashga, ilm o‘rganishga chorlaydigan kuchli tizim zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.“Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2019-yil 9-iyul

БИЗНЕСПЕДАГОГИКА ВА СИМУЛЯЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Ражабов С.Б.
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа (PhD) доктори

Аннотация: Ушбу мақолада бизнеспедагогика жараёнида симуляция технологиясидан фойдаланишнинг назарий ва амалий жиҳатлари ёритилган. Муаллиф ёшлар тарбиясида симуляциянинг аҳамиятини очиб беради, айниқса ватанпарварлик, тадбиркорлик ва ахлоқий фазилатларни шакллантиришда унинг самарадорлигини асослайди. Ҳар кунлик ҳаётий кўникмаларни (ҳавфсизлик, ижтимоий муносабатлар, одоб-ахлоқ) ўргатиш, VR ва AR каби замонавий ахборот технологиялари ёрдамида симуляцияни бойитиш мисоллари келтирилган. 5 та намунавий симуляция машғулоти – “Велосипед ижараси”, “Сотувчи ва харидор”, “Янги маҳсулот яратамиз”, “Ошхона очамиз”, “Бизнес ташаббус” – ўқувчиларда тадбиркорлик, ташаббускорлик ва ижтимоий масъулият компетенцияларини ривожлантиришга хизмат қилади. Шунингдек, симуляция қўлланилмаган ҳолатда пайдо бўлиши мумкин бўлган камчиликлар (назарийликка берилиш, ташаббускорликнинг сусайиши, ижодий фикрлашнинг чекланиши) ҳам таҳлил қилинган. Хулоса қилиб айтганда, симуляция технологияси мактаб таълим ва тарбиясида назария билан амалиёт уйғунлигини таъминлайди, ўқувчиларни ҳаётда уддабуррон, масъулиятли ва ижтимоий фаол шахс сифатида тарбиялайди.

Калит сўзлар: симуляция, симуляция технологияси, бизнеспедагогика, педагогик метод, тарбия, ҳаётий вазият, роль-ўйин, ватанпарварлик, ижтимоий компетенциялар, тадбиркорлик, уддабурронлик, масъулият, soft skills, hard skills, VR, AR, ижтимоий бизнес, амалий тажриба.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of using simulation technology in business pedagogy. The author highlights the importance of simulation in the upbringing of young people, particularly in fostering patriotism, entrepreneurship, and moral values. It is emphasized that simulation plays a key role in developing everyday life skills such as safety practices, social interaction, and ethical conduct. The article also describes how modern information technologies such as VR and AR enhance the effectiveness of simulation in the educational process. Five exemplary simulation exercises – “Bicycle Rental,” “Seller and Buyer,” “Creating a New Product,” “Opening a Cafeteria,” and “Business Initiative” – are presented to demonstrate how entrepreneurial thinking, initiative, and social responsibility can be cultivated among students. In addition, the risks of neglecting simulation (overemphasis on theory, weakened initiative, limited creativity) are discussed. In conclusion, simulation technology is assessed as a modern, safe, and effective pedagogical tool that ensures the integration of theory and practice in education and prepares students to be resourceful, responsible, and socially active individuals.

Keywords: simulation, simulation technology, business pedagogy, pedagogical method, upbringing, life situation, role-play, patriotism, social competences, entrepreneurship, resourcefulness, responsibility, soft skills, hard skills, VR, AR, social business, practical experience.

Ватанпарварлик, тадбиркорлик ва ахлоқий тарбия жараёнларида ўқувчиларга намунавий хулқларни ўргатишда симуляция алоҳида аҳамиятга эга. Хусусан, симуляциялар орқали ёшлар реал ва виртуал машқларда қатнашиб, тартиб-интизомга риоя қилиш, жамоада ишлаш ва Ватан ҳимоячиси, тадбиркор сифатида ўзини ҳис қилиш имкониятига эга бўладилар.

Ҳар кунлик ҳаёт учун кўникмаларни шакллантиришда симуляция нафақат таълимий, балки ҳаётий хавфсизлик кўникмаларини ривожлантиришда ҳам қўлланилади. Масалан, ёнғин, зилзила, йўл ҳаракати қоидаларига оид машғулотлар орқали ўқувчилар хавфсизликни таъминлаш усулларини амалда ўзлаштирадилар. Шу билан бирга, ижтимоий кўникмаларни

ривожлантиришга қаратилган симуляциялар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Болалар “мулоқотда самимийлик”, “қарияларга ҳурмат”, “оғир дамда дўстга кўмаклашиш” каби ҳаётий вазиятларни симуляция орқали машқ қилиб, ижтимоий муносабатларда масъулиятли ва уддабуррон бўлиб етишадилар.

Замонавий ахборот технологиялари симуляция усулини янада самарали қилади. Масалан, VR-кўзойнак орқали ўқувчи ўзини “ходим”, “мижоз”, “тадбиркор” ёки “раҳбар” сифатида ҳис қилиши мумкин. Бу орқали болалардабизнес мақсадлар қўйиш, масъулият ва қийматларни англаш ҳисси кучаяди. Шунингдек, ахлоқий танлов асосида ишлаб чиқилган симулятив компьютер ўйинлари ҳам тарбиявий аҳамият касб этади. Болалар ўйин жараёнида қабул қилган қарорининг ижобий ёки салбий оқибатини кўриб, ҳаётий сабоқ чиқаради.

Натижада ўқувчиларда “тадбиркорлик – тадбирлилик – уддабурронлик” компетенцияларини ривожлантиришда симуляция методининг самарадорлиги қуйидагиларда кўринади:

•назарий билимнинг амалий кўникмага айланиши;
•ташаббускорлик ва масъулиятнинг кучайиши;
•ҳаётий муаммоларни еча олиш қобилияти;
•жамоада ишлаш ва мулоқот маданияти;
•ижодий ва танқидий фикрлашнинг ўсиши;
•миллий ва инсоний қадриятларнинг мустаҳкамланиши.

Шу ўринда “Агарда симуляция методидан фойдаланилмаса, ўқувчиларга назарий билимлар бериш билан чекланилса, нима бўлади?”, деган саволни ўртага ташлаш ўринли бўлади. Агарда симуляция қўлланилмасдан, нуқул назарий тайёргарликка ружў қўйилса,бир қатор муаммолар юзага келиши мумкин. Уларни қуйидагича ифодалаш мумкин:

1. Назарийликка берилиб, ҳаётдан узилиб қолиш. Чунки симуляциясиз машғулотларда ўқувчи асосан назарий маълумот олади, аммо уни ҳаётда қўллай олмайди. Бола “билиш” ва “қилиш” орасидаги боғланишни ҳис қила олмайди. Бошқача қилиб айтганда, боланинг боши билан қўллари орасида алоқа уланмайди.

2. Муаммо ечиш кўникмасининг шаклланмаслиги. Тарбияда ҳақиқий ҳаётий вазиятларга тақлид қилинмаса, ўқувчи муаммони ечиш ҳақидаги назарий билимлари билан қолиб кетади. Бола ҳаётда дуч келадиган кутилмаган вазият ва ҳолатларда нотўғри ёки хавфли қарор ва хулқни намоён қилиши мумкин.

3. Ташаббускорлик ва масъулиятнинг сусайиши. Симуляция ўқувчини қарор қабул қилишга ва унинг оқибатини ҳис қилишга мажбур қилади. Агар у бўлмаса, болада ишонч пайдо бўлмайди ва бунинг оқибатида бола ташаббус кўрсатишдан қочадиган, беқарор, иккиланадиган бўлиб қолиши мумкин. Бунинг оқибатида болада пассивлик, масъулиятдан қочиш, “менинг фикрим аҳамиятсиз” деган муносабат кучаяди.

4. Болада жамоада ишлаш тажрибаси бўлмайди. Симуляция гуруҳдаги мулоқот ва ҳамкорликни ривожлантиради. У қўлланилмаса, ўқувчилар фақат индивидуал билим билан чекланиб қоладилар. Болада одамовилик, бегонасираш, одамлар билан тил топа олмаслик, мулоқот маданиятида сустлик намоён бўлади.

5. Ижодий ва танқидий фикрлаш имконияти чекланади. Симуляцияда битта вазиятга бир нечта ечим топилиши мумкин. Бу болаларда ижодкорлик ва таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантиради. Симуляция бўлмаса, бола стандарт фикрлашга ўрганиб қолади, чунки янгича, креатив ечим топишни амалий, ҳаётий вазиятда ўргатилмаган бўлади.

6. Қадриятларни ҳаётга сингдиришда қийинчилик. Симуляцияда ҳалоллик, масъулият, ватанпарварлик каби фазилатлар амалий машқда ҳис этилади. Агар симуляция бўлмаса, бу қадриятлар фақат шиор сифатида қолиб кетади. Ўқувчиларда “миллий қадриятлар тарихда, китоблардаги нарсалар, ҳаётда уларга амал қилиш қийин” деган нотўғри қараш пайдо бўлиши мумкин.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, симуляция усули қатор бизнеспедагогик устунликларга эга:

•ўқувчиларнинг тафаккурини фаоллаштиради;

•амалий тажриба орқали ахлоқий ва ижтимоий қоидаларни ўзлаштиришга ёрдам беради;

•симуляциянинг ҳиссий-руҳий таъсири кучли бўлиб, хотирада мустаҳкам сақланади;

•ўқувчининг ўзини турли ҳаётий, бизнес шароитларда синаб кўришига имконият яратади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, симуляция усули мактаб таълим ва тарбия жараёнида назария билан амалиёт уйғунлигини таъминлайди, ёшларни ҳаётда уддабуррон, масъулиятли ва ижтимоий фаол шахс сифатида тарбиялашга хизмат қилади, деган хулосага келиш мумкин.

Тадқиқотларимиз натижалари шуни кўрсатдики, таълим ва тарбия жараёнида симуляция методидан фойдаланишнинг бир нечта йўналишлари мавжуд. Бу йўналишлар ўқувчиларда турли ҳаётий компетенцияларни шакллантиришга хизмат қилади. Жумладан,

Дарс ва маънавий-ахлоқий тарбия жараёнларида симуляция усули турли ҳаётий вазиятларни моделлаштириш орқали ўқувчиларда ижтимоий ва шахсий масъулиятни ривожлантиради. Масалан, мактабда “дўстини ҳимоя қилиш”, “муаммоли вазиятдан чиқиш”, “одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилиш” каби машғулотларда иштирок этган болаларда ҳалоллик, масъулият ва халққа садоқат туйғуси мустаҳкамланади. Шу билан бирга, ролли ўйинлар(role play)даги симуляциялар – “маҳалла кенгаши йиғилиши”, “суд жараёни”, “оилавий маслаҳат” каби машғулотлар – ўқувчиларга турли ижтимоий ролларни англаш ва жамиятдаги мавқе ва вазифаларни тушуниш имконини беради.

Замонавий ахборот технологиялари симуляция усулини янада самарали қилади. Масалан, VR-кўзойнак орқали ўқувчи ўзини “ходим”, “мижоз”, “тадбиркор” ёки “раҳбар” сифатида ҳис қилиши мумкин. Бу орқали болалардабизнес мақсадлар қўйиш, масъулият ва қийматларни англаш ҳисси кучаяди. Шунингдек, ахлоқий танлов асосида ишлаб чиқилган симулятив компьютер ўйинлари ҳам тарбиявий аҳамият касб этади. Болалар ўйин жараёнида қабул қилган қарорининг ижобий ёки салбий оқибатини кўриб, ҳаётий сабоқ чиқаради.

Тадқиқотимизнинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, 5–9-синф ўқувчиларида тадбиркорлик компетенциясини ривожлантиришда симуляция методидан фойдаланишнинг бизнеспедагогик алгоритмлари ишлаб чиқилди.

1. Симуляция: “Велосипед ижараси”

Мақсад: хизмат кўрсатиш маданиятини, жамоавий ишлаш ва ишончли муносабатни ривожлантириш.

Қадамлар:

1.Синф 2 гуруҳга бўлинади: “хизмат кўрсатувчи ходимлар” ва “мижоз болалар”.

2.Ходимлар велосипедларнинг ижара нархларини белгилайди, ижара қоидаларини ўйлаб чиқади.

3.Мижозлар велосипедни танлайди ва ижара шартлари бўйича саволлар беришади.

4.Ходимлар хизмат кўрсатишда самимийлик, ишонч ва аниқ ҳисоб-китоб кўрсатиши керак.

5.Машғулотдан сўнг ўқитувчи “қайси ходим самарали ишлади?”, “мижоз рози бўлдими?” деган саволлар билан муҳокама ўтказади.

Натижа: ҳалоллик, ишонч ва хизмат маданияти ҳақида амалий тажриба ҳосил қилинади.

2. Симуляция: “Сотувчи ва харидор”

Мақсад: мулоқот маданияти, келишув қилиш ва тадбиркорлик тафаккурини ривожлантириш.

Қадамлар:

1.Синф 2 гуруҳга бўлинади: “сотувчилар” ва “харидорлар”.

2.Сотувчилар маҳсулот таклиф қилади (қалам, дафтар, сув ва ҳ.к.).

3.Харидорлар нархни тушириш учун тортишади.

4.Сотувчилар маҳсулотнинг афзалликларини айтишади.

5.Савдо жараёнидан кейин ҳар икки томон келишувга келиши шарт.

Натижа: талаб ва таклиф, савдо жараёнида ахлоқ ва тортишув маданияти шаклланади.

3. Симуляция: “Янги маҳсулот яратамиз”.

Мақсад: креатив фикрлаш, инновацион ғоялар топиш ва жамоада ишлаш кўникмасини ривожлантириш.

Қадамлар:

1.Синф 3–4 гуруҳга бўлинади.

2.Ҳар бир гуруҳ 10 дақиқа ичида янги маҳсулот ғоясини топади (масалан, “гапирса, ёзиладиган дафтар”, “энергия тежайдиган лампа”).

3.Улар маҳсулотнинг афзалликлари, истеъмолчилар учун фойдаси ва бозорга чиқариш режасини тайёрлайди.

4.Ҳар бир гуруҳ ўз маҳсулотини “инвесторлар олдида” тақдим этади. Инвестор ролини синфдошлар ёки ўқитувчи бажаради.

5.Муҳокама жараёнида “қайси маҳсулот амалда фойдалироқ?” деган саволга жавоб қидирилади.

Натижа: ўқувчилар орзу ва ғояни амалий режа билан уйғунлаштиришни, ижодий ечим топишни ўрганадилар.

4. Симуляция: “Ошхона очамиз”.

Мақсад: бизнес режа тузиш, мижозбоп хизмат кўрсатиш ва масъулиятни англаш.

Қадамлар:

1.Синф 3 гуруҳга бўлинади. Ҳар бир гуруҳ “ошхона” ташкил этади.

2.Гуруҳ меню тайёрлайди, нарх белгилайди, реклама йўлларини топади.

3.Бошқа ўқувчилар мижоз сифатида иштирок этади ва қайси ошхонани танлашини айтади.

4.Официантлар хизмат кўрсатиш жараёнида мижозларни рози қилишга ҳаракат қилади.

5.Охирида қайси ошхона энг самарали ва ишончли бўлгани муҳокама қилинади ва баҳоланади.

Натижа: талаб ва таклиф, реклама қилиш, мижозларга эътиборли муносабат тажрибаси орттирилади.

5. Симуляция: “Бизнес ташаббус”.

Мақсад: тадбиркорликни ижтимоий масъулият билан уйғунлаштириш.

Қадамлар:

1.Синфда ижтимоий муаммо танланади (масалан, китоб йиғиш акцияси ёки чиқиндиларни қайта ишлаш).

2.Гуруҳлар бу муаммони тадбиркорлик орқали ҳал қилиш режасини, стартап ишлаб чиқадилар.

3.Улар маблағ топиш, реклама қилиш, жамоатчиликни жалб қилиш усулларини таклиф қилади.

4.Ҳар бир гуруҳ ўз лойиҳасини тақдим қилади.

5.Охирида “қайси ижтимоий бизнес ғояни қабул қилиш керак?” деган савол муҳокама қилинади.

Натижа: ёшлар тадбиркорлик фақат моддий фойда эмас, балки жамият учун ҳам аҳамиятли иш эканини англайдилар.

Қўшимча методик тавсиялар:

Ҳар бир симуляция 20–25 дақиқа давом этади. Машғулот охирида 5–7 дақиқа рефлексия ўтказиш зарур: “Мен нима ўргандим?”, “Қайси қарор тўғри эди?”, “Нимани яхшилаш

мумкин?”, қабилида. Симуляция натижалари тадбиркорлик компетенцияси индикаторлари (ташаббускорлик, ҳисоб-китоб қилиш, жамоавий ишлаш, ижтимоий фойда келтириш) асосида баҳоланиши мумкин.

Мактаб ўқувчилари ўтилган ўқув материалини имтиҳон олдидан бир кечада ёдлаб олишлари мумкин. Бироқ симуляцион ўқитиш масаласига келганда, ушбу фикр ўз кучини йўқотади. Чунки амалий маҳорат бир кечада шаклланмайди ва тўсатдан намоён бўлиб қолмайди. Зеро симуляцион тарбиялаш нафақат билимни, балки ўқувчиларда чинакам тадбиркорлик кўникмаларини босқичма-босқич шакллантиради. Шунинг учун ҳам “маҳорат бир кечада пайдо бўлмайди” деган қоида мазкур методнинг асосий ғоясини ифодалайди.

Адабиётлар

1.Ibraimov X.,QuronovM. Umumiypedagogika[Matn].Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.

2.IbraimovX., QuronovM.,IbragimovaF. Pedagogikatarixi va nazariyasi [Matn].Darslik. - T., «Sahhof», 2023.392-bet.

3.Ота-она - мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Куронов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.

4.Х.Ибраимов ва бошқалар.Нажот тарбияда. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. -2025. – 60 б.

5.Х.Ибраимов ва бошқалар. Гўзал ҳулқ моделлари. – Тошкент.: “Илм зиё заковат” нашриёти. -2025 й. 80-б.

6.Х.Ибраимов ва бошқалар. Маънавий-ахлоқий тарбия методлари. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2025. - 68 б.

7. Х.Ибраимов ва бошқалар. Миллий тарбия хрестоматияси. Умумий ўрта таълим мактаблари учун. – Тошкент.: “Илм зиё заковат” нашриёти. -2025 й. 180-б.

8.Фрейре, П. Педагогика угнетённых. – Москва: Прогресс, 1990. – 256 с.

9.Kneebone, R. Simulation in surgical training: educational issues and practical implications. // Medical Education. – 2003. – Vol. 37(3). – P. 267–277.

10.Okuda, Y., Bryson, E.O., DeMaria, S. The Utility of Simulation in Medical Education: What Is the Evidence? // Mount Sinai Journal of Medicine. – 2009. – Vol. 76(4). – P. 330–343.

11.Lateef, F. Simulation-based learning: Just like the real thing. // Journal of Emergencies, Trauma, and Shock. – 2010. – Vol. 3(4). – P. 348–352.

МОДЕЛИРОВАНИЕ УРОКОВ В УСЛОВИЯХ ВАРИАТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Рузиева Майрам Амрилоевна
преподаватель кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института
https://orcid.org/0009-0004-7505-7850

Аннотация. В статье рассматривается процесс моделирования уроков как одна из ключевых педагогических технологий в условиях вариативности начального образования. Анализируются теоретические основы понятия «моделирование» и особенности его применения в педагогической практике. Подчеркивается значение вариативности как фактора, влияющего на организацию учебного процесса, а также приводятся примеры эффективных моделей уроков, адаптированных к современным требованиям и потребностям учащихся. Делается вывод о необходимости гибкого и осознанного проектирования уроков с учетом индивидуальных и образовательных различий младших школьников.

Ключевые слова: моделирование урока, вариативность, начальное образование, педагогические технологии, индивидуализация обучения.

Annotatsiya. Maqolada darslarni modellashtirish jarayoni boshlang'ich ta'limning o'zgaruvchanligi sharoitida asosiy pedagogik texnologiyalardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. «Modellashtirish» tushunchasining nazariy asoslari va uni pedagogik amaliyotda qo'llash xususiyatlari tahlil qilinadi. O'quv jarayonini tashkil etishga ta'sir qiluvchi omil sifatida o'zgaruvchanlikning ahamiyati ta'kidlanadi, shuningdek, o'quvchilarning zamonaviy talablari va ehtiyojlariga moslashtirilgan samarali dars modellarining namunalari keltirilgan. Xulosa shuki, boshlang'ich maktab o'quvchilarining individual va ta'limiy farqlarini hisobga olgan holda darslarni moslashuvchan va ongli ravishda loyihalashtirish zarur.

Kalit so'zlar: darsni modellashtirish, o'zgaruvchanlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ta'limni individuallashtirish.

Annotation. The article considers the process of lesson modeling as one of the key pedagogical technologies in conditions of variability of primary education. The theoretical foundations of the concept of «modeling» and the features of its application in pedagogical practice are analyzed. The importance of variability as a factor influencing the organization of the educational process is emphasized, and examples of effective lesson models adapted to modern requirements and needs of students are given. The conclusion is made about the need for flexible and conscious lesson design, taking into account the individual and educational differences of younger students.

Keywords: lesson modeling, variability, primary education, pedagogical technologies, individualization of learning.

Введение. Современное начальное образование характеризуется ростом вариативности образовательных программ, технологий и подходов. В условиях обновления содержания образования возрастает значимость проектирования (моделирования) урока как управляемого педагогического процесса. Вариативность требует от педагога гибкости в планировании и реализации учебных занятий, ориентированных на индивидуальные особенности и потребности учащихся. В связи с этим возрастает интерес к проблеме моделирования уроков как способа повышения эффективности учебного процесса в начальной школе.

Теоретические основы моделирования уроков

Моделирование в педагогике рассматривается как создание мысленного или

материального образа объекта с целью его анализа, прогнозирования и управления. В контексте урока — это процесс построения структуры и содержания учебного занятия на основе конкретных целей, методов и форм работы.

Модели уроков могут быть репродуктивными (по образцу), частично-поисковыми, творческими и др. Основу их построения составляют дидактические принципы, возрастные особенности учащихся и цели образования.

Понятие вариативности в начальном образовании

Вариативность образования — это наличие выбора в содержании, формах, методах и средствах обучения. В начальной школе она реализуется через:

различные образовательные программы (ФГОС, авторские программы),

разноуровневые задания,

индивидуальные образовательные маршруты,

применение цифровых и интерактивных технологий,

выбор учителем педагогических методов в соответствии с потребностями класса.

Моделирование урока как педагогическая технология

Моделирование позволяет педагогу планировать урок как систему взаимодействий, с учётом возможных отклонений от плана. На этапе моделирования решаются следующие задачи:

постановка образовательных целей;

выбор оптимальной структуры урока;

определение форм работы (фронтальная, групповая, индивидуальная);

подбор учебных и цифровых материалов;

проектирование методов диагностики результатов.

Особенности моделирования уроков в условиях вариативности

В условиях вариативности моделирование уроков требует:

ориентации на разные стили обучения учащихся (визуальный, аудиальный, кинестетический);

включения адаптивных и развивающих заданий;

интеграции межпредметных связей;

использования модульного принципа (переход от жёсткой структуры к гибкой);

учёта культурного, социального и когнитивного фона класса.

МЕТОДЫ Примеры моделей уроков

1. Модель «урока-исследования»: формирование исследовательских умений, развитие критического мышления, работа с информацией.

2. Интегрированный урок (например, математика + ИЗО): позволяет связать различные виды деятельности, формируя целостную картину мира.

3. Модель адаптивного урока: задания с выбором уровня сложности, гибкое планирование времени и форм работы.

4. Цифровая модель урока: использование онлайн-платформ, интерактивных заданий и систем обратной связи.

1. Педагогическое моделирование

Методы, направленные на создание образовательных моделей с учётом разных образовательных программ, УМК, индивидуальных особенностей учащихся.

Метод сценарного моделирования — создание разных сценариев урока (традиционный, деятельностный, игровой и др.) под конкретный класс или учебную ситуацию.

Метод педагогических ситуаций — моделирование урока через разработку типичных и проблемных педагогических ситуаций и способов их решения.

Метод «от обратного» — планирование урока с конца: сначала определяются результаты, потом — пути их достижения.

2. Личностно-ориентированные методы

Методы, учитывающие особенности и потребности конкретных учащихся.

Индивидуализация — адаптация содержания и темпа урока под способности и уровень каждого ученика.

Дифференциация — деление класса на группы по уровню подготовки с подбором разных заданий.

Метод проектов — вовлечение учеников в работу над учебными мини-проектами с учётом их интересов.

3. Методики активного обучения

Упор на вовлечение детей в активную деятельность.

Игровое моделирование — урок строится в форме игры, в которой закрепляется нужный материал.

Метод учебного исследования — дети исследуют проблему, делают выводы, сами конструируют знания.

Кейс-метод — анализ конкретной учебной ситуации (кейса), поиск решений.

4. Технологические методы

Использование технологий проектирования и планирования.

Метод «конструктора урока» — создание урока по шаблону с переменными компонентами (ввод, мотивация, деятельность, рефлексия и др.).

Метод вариативного планирования — составление нескольких вариантов плана урока под разные уровни подготовки или учебные условия.

Модульное планирование — деление программы на модули, каждый из которых можно адаптировать под класс.

Моделирование урока — это процесс проектирования (конструирования) будущего занятия, в ходе которого учитель продумывает цели, содержание, методы, формы, средства и результаты обучения. Это как создание «макета» или «сценария» будущего учебного процесса.

В условиях вариативности — моделирование включает разработку нескольких вариантов урока, адаптированных под разные ситуации, учеников, программы и технологии.

Что такое вариативность в начальном образовании?

Вариативность — это разнообразие форм, подходов и программ в образовании. В начальной школе это может проявляться в:

•разных образовательных программах и УМК (например, «Школа России», «Планета знаний», «Перспектива» и др.);

•разных уровнях развития детей в классе;

•включении детей с ОВЗ или билингвов;

•выборе форм обучения: очно, дистанционно, смешанно;

•применении разных технологий (игровые, цифровые, проектные и др.).

РЕЗУЛЬТАТЫ. Сущность методов моделирования уроков в условиях вариативности

Методы моделирования — это способы, приёмы и алгоритмы, с помощью которых учитель создаёт урок, способный гибко адаптироваться к различным условиям и потребностям детей.

Цель	Как достигается
Обеспечить доступность и успешность обучения каждому	Учитель планирует разные уровни сложности заданий, разные формы подачи материала
Адаптировать урок к ситуации	Планируется несколько сценариев — например, если часть детей заболела, отключился интернет или изменился состав класса
Повысить мотивацию	Используются игровые, исследовательские и личностно-значимые формы и методы
Учитывать особенности детей	Урок строится на основе диагностики: кто быстро работает, кто медленно; кто визуал, кто аудиал и т.д.
Использовать современные технологии	Применяются платформы, интерактивы, видео и другие цифровые инструменты

Как это работает на практике?

Как это работает на практике?

Пример: учитель моделирует урок по теме «Сложение двузначных чисел».

Вариативность обеспечивается так:

•Планируется 3 уровня заданий: базовый, повышенный и творческий.

•Внедряется игровой элемент: «Путешествие по математическому лесу».

•Задания даются на выбор — ученик может сам выбрать уровень.

•Есть цифровая часть: задание на платформе «Onlayn maktab».

•Для детей с трудностями — дополнительные визуальные подсказки и работа в паре.

•Заранее предусмотрен вариант дистанционного проведения.

 Почему это важно?

Потому что в современных условиях единая форма урока «на всех» уже не работает. Каждый ребёнок — уникален, а начальная школа — это ключевой этап формирования отношения к учёбе.

Моделирование с учётом вариативности позволяет:

•сделать урок доступным и интересным для каждого;

•обеспечить систему и гибкость в обучении;

•сформировать у детей ключевые навыки XXI века — мышление, коммуникацию, сотрудничество, самоорганизацию.

 Таблица: Методы моделирования уроков + Цели + Ожидаемые результаты

Таблица: Методы моделирования уроков + Цели + Ожидаемые результаты

Метод моделирования	Цель применения	Ожидаемые результаты
Сценарное моделирование	Создание нескольких вариантов урока для разных условий (уровень класса, форма)	Гибкое проведение урока; возможность быстрой адаптации под ситуацию
Метод педагогических ситуаций	Проектирование урока через типовые и проблемные ситуации	Развитие критического мышления, навыков анализа и принятия решений
Дифференциация заданий	Учет разных уровней подготовки учащихся	Повышение успеваемости; снижение тревожности у слабых учеников; рост мотивации
Индивидуализация обучения	Подбор содержания и темпа под каждого ученика	Успех в обучении каждого ребёнка; формирование чувства уверенности
Игровое моделирование	Повышение интереса к учебе через игру	Активное вовлечение; повышение мотивации и внимания; развитие воображения
Метод учебного исследования	Формирование навыков познания через исследовательскую деятельность	Развитие познавательной активности, самостоятельности, умения формулировать выводы
Метод проектов	Организация обучения через практическую, значимую деятельность	Формирование УУД; развитие коммуникативных и организационных навыков
Метод "конструктора урока"	Унификация структуры урока с возможностью гибкой настройки	Упорядоченность планирования, удобство адаптации
Модульное планирование	Структурирование темы на логические блоки (модули)	Системность усвоения знаний, возможность варьировать модули под уровень учащихся

Как использовать таблицу:

•Для самоанализа при планировании уроков;

•При подготовке портфолио или аттестации;

•Как основу для методической разработки или выступления;

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Моделирование уроков в условиях вариативности начального образования является важным направлением современного педагогического проектирования. Оно позволяет строить гибкую, адаптивную, ориентированную на личность ученика образовательную среду, способную эффективно реагировать на многообразие программ, уровней подготовки детей, их индивидуальные особенности и внешние условия обучения.

Использование разнообразных методов моделирования — таких как сценарное, дифференцированное, игровое, проектное и цифровое — помогает:

•учитывать разные образовательные запросы и ресурсы;

•повысить мотивацию и вовлечённость младших школьников;

•обеспечить доступность и качество обучения каждому ребёнку;

•развивать универсальные учебные действия, самостоятельность и творческое мышление учащихся;

•повысить профессиональную гибкость и методическую компетентность учителя.

Таким образом, моделирование в условиях вариативности не только делает уроки более эффективными и современными, но и способствует формированию устойчивой образовательной среды, где каждый ребёнок чувствует себя успешным и значимым участником процесса обучения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Рузиева, М. А. (2024). Основы профессиональной подготовки будущих учителей к моделированию урока в условиях вариативности начального образования. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 26, 27-30.

2. Рузиева, М. (2025). Моделирование уроков с применением стратегий развития критического мышления. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(3).

3. Рузиева, М. А., & Соколова, Е. О. (2023). Современные подходы к анализу художественных произведений на уроках литературного чтения. Conferencea, 49-54.

4. Рузиев, У., & Рузиева, М. А. (2021). АГРЕССИЯ ПЕДАГОГА И ФОРМА ПРОЯВЛЕНИЙ. Scientific progress, 2(6), 1059-1062.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA 5 E MODELIDAN FOYDALANISHNING METODLARI VA VOSITALARI

Saidova Mohinur Jonpo‘latovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Mansurova umida Mansur qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya:Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika fanini o‘qitish jarayonida 5E modelining (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) metodik asoslari, didaktik imkoniyatlari va qo‘llaniladigan usul va vositalari yoritib berildi. Tadqiqotda modelning bosqichlari asosida darsni tashkil etish, o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish va mustahkam bilim olishlariga ko‘mak beruvchi metodlar tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur model asosida dars dizayni yaratishda foydalaniladigan ko‘rgazmali, texnologik va interaktiv vositalar turlari ham ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, boshlang‘ich ta’lim, matematika darsi, metodlar, o‘qitish vositalari, konstruktiv yondashuv.

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДЕЛИ 5E ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Саидова Мохинур Джонпулатовна,
профессор Бухарского государственного педагогического института, доктор педагогических наук (DSc)

Мансурова Умида Мансур кызы,
магистрант Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье освещены методические основы, дидактические возможности и применяемые методы и средства модели 5E (Вовлечение, Исследование, Объяснение, Углубление, Оценка) в процессе преподавания математики в начальных классах. В исследовании проанализированы методы организации урока на основе этапов модели, повышения активности учащихся на занятиях и содействия прочному усвоению знаний. Также рассмотрены виды наглядных, технологических и интерактивных средств, используемых при проектировании урока по данной модели.

Ключевые слова: модель 5E, начальное образование, урок математики, методы, средства обучения, конструктивистский подход.

METHODS AND TOOLS FOR USING THE 5E MODEL IN TEACHING PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS

Saidova Mohinur Jonpo‘latovna,
Professor at Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

Mansurova Umida Mansur qizi,
Master’s student at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article highlights the methodological foundations, didactic possibilities, and the applicable methods and tools of the 5E model (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) in the process of teaching primary school mathematics. The study analyzes methods that help organize lessons based on the stages of the model, increase students’ activity in class, and support effective

knowledge acquisition. Furthermore, the article reviews various types of visual, technological, and interactive tools used in designing lessons according to this model.

Keywords: 5E model, primary education, mathematics lesson, methods, teaching tools, constructivist approach.

Kirish:Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, faol ishtirok etish kabi kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini samarali o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida 5E modeli keng qo‘llanilmoqda. Mazkur model o‘quvchilarning faoliyatini faollashtirish, tajribaga asoslangan ta’limni tashkil qilish hamda bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi.O’zbekiston Respublikasi mustaqil va demokratik davlat sifatida eng rivojlangan jamiyat barpo etish maqsad qilar ekan, ta’lim va tarbiya tizimiga chuqur va tub o’zgarish , imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm -fani va ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta’limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilishdagi say harakatlarning biri- bu o’quvchilarning zamon talablariga hamnafas tarzda ta’limolishlari , har tomonlama rivojlangan komil shaxs bo’lib yetishishida chuqur bilim egallashlarini talab etmoqda. Bu esa o’z novbatidao’quvchilarning kreativliksalohiyatini shakllanishiga turtki bo’ladi.Bugungi kunda dunyo miqyosida to’rtinvhi sanoat tamaddumining dvigitili-harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir.

Matematika kursining mazmuni va o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha B.Abdullayeva S. Alixonov, M. BarakayevM. Tojiyev, D. Yunusova kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish, shaxs sifatida rivojlanishida axborot muhitining ta’siri masalalari bo‘yicha N. Bikbayeva M.E. JumayevR.A. Mavlonova, N.X. Rahmonqulova, B.Ye. Sabirov, A.V.Sadikova, M.I. Toshpulatova kabilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron muhitda axborot almashishning nazariy va metodik asoslari A.A. Abduqodirov, U.Sh. Begimqulov, G.S. Ergasheva kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda o‘quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy va samarali usuli sifatida 5E modelini ko‘rsatishimiz mumkin. Bizga ma’lumki :.

5E modeli - bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ishlatiladigan metodik yondashuv. Bu model 5 bosqichga bo‘linadi, har biri o‘quvchining o‘qish jarayonidagi turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan:

Engage (Qiziqtirish): Bu bosqichda o‘quvchilarda yangi mavzu bo‘yicha qiziqish uyg‘otish, ularni mavzuga jalb qilish kerak. Bu bosqichda ko‘pincha savollar berish, mavzu bilan bog‘liq qisqacha video, rasm yoki hikoya ko‘rsatish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Explore (O‘rganish): O‘quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash. Bu bosqichda o‘quvchilar mavzu bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi, turli eksperimentlar o‘tkazadi yoki muammolarni yechishadi. O‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish kerak.

Explain (Tushuntirish): Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi. O‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini ifodalashadi va o‘qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to‘liqroq izohlaydi.

Elaborate (Kengaytirish): O‘quvchilarga yangi bilimlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini berish. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llashadi, masalan, yangi vaziyatlarga moslashtirish, boshqa mavzular bilan bog‘lash yoki murakkabroq masalalar yechishni boshlash.

Evaluate (Baholash): O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholash. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadilar, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning tushunishini baholash uchun turli baholash metodlarini, masalan, testlar, savollar, yoki muhokamalarni ishlatadi.

Boshlang‘ich sinfda matematika fanini o‘qitishda 5E modeli (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) ta’lim jarayonini mantiqiy va bosqichma-bosqich tashkil etishga imkon beradi. Har bir bosqichda maqsadga muvofiq metodlar, pedagogik usullar va didaktik vositalar tanlanadi. Bu model o‘quvchilarni faol o‘rganishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga, mustaqil va guruhiy ishlashga undaydi. Ushbu metod usul vositalarni quyidagi jadval asosida ko‘rishimiz mumkin.

5 E modelida metod, usul va vositalar.

2.3-jadval

5 E bosqichi	**Metodlar**	**usullar**	**vositalar**
Engage	Suhbat, muammoli savol, dramatizatsiya	Miyaning faollashtirilishi,tasavvurga yo‘naltirish, vizual tasvirlardan foydalanish	Rasmli kartochkalar, videoroliklar, savol-javobli slaydlar
Explore	Kichik guruhlarda ishlash, amaliy tajriba, kuzatish	Matematika o‘yinlari, manipulyativ vosital	Rangli tayoqchalar, tangachalar, shakllar to‘plami, interaktiv ilovalar
Explain	Og‘zaki izoh, taqdimot, muhokama	O‘quvchining fikrini ifodalash, namuna asosida ishlash	Ish varaqalari, matematik plakatlar, multimediali slaydlar
Elaborate	Muammoni hal qilish,loyiha metodi	oqeaviy vaziyatlar, dars-sayohat, matematik hikoyalar tuzish	Topshiriq varaqalari, pul shakllari, soat modellari
Evaluate	Test, portfoliyo, og‘zaki javob	O‘z-o‘zini va juftlikda baholash	baholash varaqalari, elektron testlar

Dramatizatsiya metodi — bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning rolli o‘yinlar, sahna

ko‘rinishlari yoki real hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali bilim va ko‘nikmalarni egallashini ta’minlovchi usuldir. Bu metod, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va mavzuni chuqur tushunishga yordam beradi.

Dramatizatsiya metodining asosiy xususiyatlari:

1. Rolga kirish orqali o‘rganish – o‘quvchi o‘zini personaj o‘rniga qo‘yadi va u orqali tushuncha yoki hodisani his qiladi.

2. Harakatga asoslangan – faqat og‘zaki emas, balki tana harakati, mimika va sahna orqali ifodalanadi.

3. Ko‘rgazmalilik va hissiylik – o‘quvchining hissiy holati faol bo‘ladi, bu esa bilimni chuqurroq eslab qolishga yordam beradi.

4. Hamkorlikda ishlash – guruh bo‘lib ishlash orqali ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

5. Ijodkorlikni rivojlantiradi – o‘quvchilar o‘z tasavvuridan foydalanib, vaziyat yaratadilar yoki sahnalashtiradilar.

Qachon qo‘llaniladi?

Matematika yoki tabiatshunoslikda: mavzuga mos obrazlar orqali darsni jonlantirish (masalan, “raqamlar podsholigi”, “qushlar hayoti”).

Afzalliklari:

O‘quvchilarni faol ishtirokchi qiladi;

Nutq, fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;

Darsni jonli va esda qolarli qiladi;

Kamroq biladigan o‘quvchilar ham jalb bo‘ladi.[3]

Portfoliyo metodi— bu o‘quvchining ma’lum bir davrdagi o‘quv faoliyati, yutuqlari, ijodiy ishlari, darsdan tashqari faoliyati natijalarini yig‘ma to‘plam (portfel) tarzida jamlab borish va tahlil qilish metodidir.

Ushbu metod yordamida o‘quvchi:

-o‘z rivojlanishini kuzatadi;

-mustaqil baholashga o‘rganadi;

-o‘z yutuqlarini taqdim etadi;

-ijodiy va refleksiv fikrlashga o‘rgatiladi.

Asosiy maqsadi:

O‘quvchining individual yondashuv asosida o‘sishini nazorat qilish;

Baholashni nafaqat natijaga, balki jarayonga ham asoslash;

Mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Portfoliyo turlari:Turi Tavsifi

O‘quv portfoliosi Mashqlar, dars ishlari, yozma ishlar, test natijalariIjodiy portfoliyo Rasm, hikoya, she’r, qo‘l mehnati ishlariReflektiv portfoliyo O‘quvchining o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari, baholovlariHujjatli portfoliyo Sertifikatlar, faxriy yorliqlar, tavsiyanomalar Taqdimotli portfoliyo Eng yaxshi ishlardan tanlab tuzilgan, namoyish uchun tayyor

Afzalliklari:

Individual rivojlanishni ko‘rsatadi, baholashda adolat va aniqlikni ta’minlaydi ,O‘quvchi o‘z ustida ishlashga o‘rganadi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, davriy monitoring qilish imkonini beradi

Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi:

O‘quvchining 1-chorakdan 4-choraggacha bo‘lgan ishlarini jamlash;

Har oyda yoki har mavzu oxirida “portfoliyo burchagi” yangilab boriladi;

Ota-onalar bilan yakuniy portfoliyo ko‘riklari o‘tkaziladi;

Baholashda portfoliodan foydalaniladi (formatif baholash).[4]

Suhbat metodi — bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi savol-javob orqali mavzuni ochish, fikrni aniqlashtirish va muloqot asosida bilimni shakllantirish usulidir. U qadimgi yunon faylasufi Sokrat nomi bilan bog‘liq.

Maqsadi:
O‘quvchini erkin fikrlashga o‘rgatish;
Fikr yuritish, tahlil qilish va mulohaza qilishni faollashtirish;
Muloqot orqali bilimni aniqlashtirish va mustahkamlash.
Afzalliklari:
Faol fikrlash O‘quvchi tayyor javob emas, mulohaza orqali topadi
Tahliliy yondashuv Savollar o‘quvchini tahlil va izohga undaydi
Muloqot ko‘nikmasi So‘zlashuv madaniyati rivojlanadi
Qo‘llaniladi:
O‘qish darsida matn mazmunini ochishda;
Tarbiyaviy suhbatlarda;
Darsni yakunlashda savol-javob shaklida.[7]

Muammo metodi — bu o‘quvchilarning e’tiborini muammoli vaziyatga qaratish, ularda savol tug‘dirish va bu savolga o‘z fikri, kuzatuvi, tajribasi orqali javob topishga undash metodidir.

Asosiy bosqichlari:
1. Muammoli savol yoki holat yaratish
2. O‘quvchida qiziqish va ichki ehtiyoj uyg‘otish
3. Taxmin ilgari surish
4. Tajriba, misol, kuzatuv orqali isbotlash
5. Xulosa chiqarish

Afzalliklari:
Mustaqil fikrlash -O‘quvchi “nega?” va “qanday?” savollariga o‘zi javob izlaydi
Tadqiqot ko‘nikmasi -Tahlil, sintez, eksperiment asosida bilim olinadi
Kognitiv rivojlanish- Ongli va faol o‘rganish yuz beradi
Qo‘llaniladi:
Matematika, tabiiy fanlar, texnologiya fanlarida;
Darsda yangi mavzuga kirishda;
“Hayotiy muammolar” asosida topshiriqlar berishda.[8]
Suhbat va muammo metodining farqi

Suhbat va muammo metodining farqi

2.4- jadval

Aspekt	Suhbat metodi	Muammo metodi
Yondashuv	Muloqot orqali	Muammo orqali o‘rganish
Savollar turi	Fikr ochuvchi	Muammo yaratuvchi
Javob topish	Suhbat orqali	Tadqiqot, tahlil orqali
Bilim olish manbai	Muloqot va suhbat	Tajriba, kuzatuv, izlanish

Kichik guruhlarda ishlash metodi — bu o‘quvchilarning kichik (3–6 kishilik) guruhlarga bo‘linib, hamkorlikda ma’lum topshiriqni bajarishi, muammoni yechishi, yoki mavzuni o‘zlashtirishga qaratilgan faol o‘qitish metodidir.

Maqsadi:

O‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikda ishlashga o‘rgatish
Guruh orqali fikr almashish va qaror chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish
Har bir o‘quvchini faol dars jarayoniga jalb etish
Kommunikativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirish
Metodning asosiy bosqichlari:
1. Guruhlarni shakllantirish (teng va samarali taqsimlash)
2. Aniq vazifa qo‘yish (masala, savol yoki topshiriq)
3. Guruh ichida muhokama va bajarish
4. Hisobot/taqdimot (guruh vakili chiqadi)
5. Tahlil va baholash
Afzalliklari:
Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi -Muloqot, murosa, rahbarlik, tinglash
Fikrlash faollashadi -O‘quvchilar bir-biriga savol beradi, izohlaydi
O‘z fikrini ifoda qilish- Nutq va mulohaza qilish qobiliyati ortadi
Differensial yondashuv- Har bir o‘quvchi o‘z darajasiga mos hissa qo‘shadi
Qo‘llanilishi:
Matematika darslarida masalalarni birgalikda yechish;
O‘qish darslarida matnni rollarga bo‘lib tahlil qilish;
Atrof-muhit bilan tanishuv darslarida real hayotiy muammolar ustida ishlash;
Tarbiya soatlarida muammoli vaziyatlar muhokamasi.

Amaliy tajriba metodi — bu o‘quvchining bevosita ish bajarish, sinov o‘tkazish yoki tajriba qilish orqali bilim egallashini ta’minlovchi usuldir. Bu metodda o‘quvchi o‘rganilayotgan hodisa yoki tushunchani amaliy harakat orqali anglaydi.

Qo‘llaniladi:

Tabiiy fanlar, texnologiya, matematikada O‘lchov, aralashmalar, modellar, fizikaviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq darslarda

Kuzatish metodi — bu o‘quvchining ma’lum ob’yekt, hodisa yoki jarayonni sistematik va maqsadli ravishda kuzatishi va u asosida xulosa chiqarishiga asoslangan metoddir.

Qo‘llaniladi:

Tabiat hodisalari, ob-havo, o‘simlik va hayvonot olami,inson xatti-harakati, muomala, ijtimoiy hodisalar,geometrik shakllarni aniqlashda (matematikada)

Afzalliklari: Diqqatni jamlaydi- Tafsilotlarga e’tiborli qarashga o‘rgatadi
Tahliliy fikrlashni oshiradi- Solishtirish, guruhlash, umumlashtirish
Reflektiv yondashuv- O‘z kuzatuvini yozma va og‘zaki ifodalash

Og‘zaki izoh metodi — bu o‘qituvchining yoki o‘quvchining og‘zaki nutqi orqali tushuncha, misol, qoidani izohlab berish yoki ifodalash metodidir. Bu metod matematika darslarida fikr yuritish zanjirini ovoz chiqarib bayon qilish orqali bilimni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Maqsadi:
O‘quvchini fikrlash jarayonini izohlashga o‘rgatish;
O‘z tushunchasini og‘zaki ravishda ifodalashni shakllantirish;
Matematik muloqot va tushuncha ifodalarini rivojlantirish.[9]
Boshlang‘ich sinf matematika fanida og‘zaki metodning qo‘llanishi

2.5 jadval

Dars turi	Qo‘llanish misoli
Misol yechish	“3 × 4 nega 12 bo‘ladi? Chunki 3 ta 4 ni qo‘shamiz: 4 + 4 + 4 = 12”
Tenglama ishlash	“x + 5 = 9, chunki 5 ga nechani qo‘shsam 9 bo‘ladi? Bu 4”
Taqqoslash	“7 > 5, chunki 7 katta son”
Geometrik tushuncha	“Bu to‘g‘ri to‘rtburchak, chunki uning 4 tomoni bor va qarama-qarshi tomonlar teng”

Afzalliklari:

Faol tafakkurni rivojlantiradi -O‘quvchi hisobni tushunib aytadi, yodlab emas Nutqni rivojlantiradi- Matematika tilida ifodalaydi, izohlash ko‘nikmasi ortadi Tushunchani mustahkamlaydi -Tushunib aytish orqali xatoni tezda anglaydiFormativ baholashga asos bo‘ladi- O‘qituvchi o‘quvchining nimani tushunmaganini tezda aniqlay oladi

Qanday tashkil etiladi:

1. Misolni o‘quvchiga og‘zaki tushuntirib yechishga topshiring.
2. O‘quvchining fikriga savol bilan javob bering yoki qo‘shimcha so‘rang:

“Nega shunday deb o‘ylaysan?”

“Yana boshqa yo‘li bormi?”

3. Og‘zaki izohni yozma izohga aylantirishga o‘rgating.
4. Guruhdagi o‘quvchilar bir-birining izohlarini tinglaydi va baholaydi.

Taqdimot metodi — bu o‘quvchining o‘zi tayyorlagan ish, yechgan masala,bajargan topshiriq yoki loyihani og‘zaki yoki vizual tarzda sinfdoshlariga namoyish etishi va izohlab berishi orqali amalga oshiriladigan metoddir.

Maqsadi:

O‘quvchini mustaqil fikrni tizimli, mantiqiy tarzda ifoda qilishga o‘rgatish;

O‘z ishini boshqalarga tushunarli va ishonchli ko‘rsatishga o‘rgatish;

Jamoa oldida chiqish qilish madaniyatini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinf matematika fanida qo‘llaniladi:

Misollarni yechish jarayonini taqdim etishda;

Grafik yoki chizmalar asosida tushunchalarni tushuntirishda;

Guruh ishi natijalarini sinf oldida bayon qilishda;

Matematik hikoyalarni yoki loyihalarni sharhlashda.

Afzalliklari:

Nutq rivojlanadi- tizimli, mantiqiy va ifodali gapirishga o‘rgatadi.

Vizual fikrlash- chizma, sxema, jadval orqali tushuntirish ko‘nikmasi.

Tahlil qilish- o‘z ishini baholash va asoslash ko‘nikmasi shakllanadi.

Jamoat oldida chiqish -o‘z fikrini mustahkam ishonch bilan aytishga o‘rgatadi.

Muhokama metodi — bu o‘quvchilar guruhida yoki butun sinfda biror savol, masala yoki yechim ustida fikr almashish, asoslash, bahs-munozara qilish orqali o‘rganishga asoslangan metoddir.

Maqsadi:

O‘quvchilarni erkin fikrlash, tinglash, dalil keltirish va tanqidiy yondashishga o‘rgatish;

Masalalarning bir nechta yechim yo‘li mavjudligini tushuntirish;

O‘quvchilarning ijtimoiy va akademik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Qo‘llaniladi:

Muammoli savollar asosida: “Bu masala yana qanday yo‘l bilan yechilishi mumkin?” “Qaysi javob to‘g‘ri?”, “Nima uchun bu yechim yaxshi?” kabi ochiq savollar atrofida;

Guruhlar bir-birining yechimlarini muhokama metodi orqali baholash

Guruhlar bir-birining yechimlarini muhokama metodi orqali baholash

2.6 -jadval

Afzalliklari	Tavsifi
Tanqidiy fikrlash	Har bir fikrga asos bilan yondashishni o‘rgatadi
Dalillash	Fikrni isbotlay olish ko‘nikmasini shakllantiradi
Hamkorlik	Guruhda muloqot madaniyati, murosa va eshitishni o‘rgatadi
O‘z fikrini himoya qilish	O‘quvchi o‘z nuqtai nazarini bildirishga jur’at qiladi

Matematika fanida qo‘llash misoli:

Taqdimot metodi:

Har bir guruh “Misolni ikki xil usulda yechish” topshirig‘ini bajaradi va sinf oldida taqdim etadi.

–Har bir o‘quvchi o‘zining eng qiziqarli masalasini chizma bilan tushuntiradi.

Muhokama metodi:

“Qaysi guruhning yechimi aniqroq?”

“Bu usul har doim ishlaydimi? Nima sababdan?”

“Agar masala shartidagi raqamlar o‘zgarsa-chi?”

Muammoni hal qilish metodi— bu o‘quvchiga ongli qiyinchilik tug‘diruvchi muammoli vaziyat yaratib, uni tahlil qilish, izlanish, yechim yo‘lini topish orqali bilim hosil qilish usulidir.

Bu metodda savolga javob emas, yechimga yetkazuvchi fikrlash jarayoni muhim.

Maqsadi:

Mustaqil fikrlash va tahlil qilishni o‘rgatish “Nega?”, “Qanday?”, “Agar shunday bo‘lsa-chi?” kabi savollar bilan o‘rganishga ehtiyoj yaratish.

Matematika fanida qo‘llash:

Muammoli masala:

«Jami 4 kun ichida 258 ta sayyoh keldi. Har kuni turlicha. To‘rtinchi kuni nechta keldi?»

Masalani bir nechta yo‘l bilan yechishga undash:Faraz qilish, tenglama tuzish, sinov qilish orqali javobga yetaklash

Afzalliklari:

Tanqidiy fikrlash- o‘quvchi tahlil qiladi, taxmin qiladi, isbotlaydi.

Faol ishtirok- o‘quvchi bilimni o‘zi kashf qiladi.

Hayot bilan bog‘lanadi- real hayotiy muammolarga moslashtirish imkonini beradi.

Loyiha metodi— bu o‘quvchilarning ma’lum mavzu asosida mustaqil yoki guruh bo‘lib izlanish, tajriba qilish, tahlil etish va natijani taqdim qilish orqali o‘rganadigan faol metodidir.

Maqsadi:

O‘quvchilarning chuqur, barqaror bilim olishini ta’minlash

Matematika fanida loyiha misoli:

Loyiha mavzusi: “Bizning sinfimizda qancha daftar kerak?”
Har bir fan uchun daftar sonini hisoblash, narxini aniqlash, grafik chizish
Hisob-kitobni taqdimot shaklida tushuntirish
Yoki:
“Sinfdan maktabgacha bo‘lgan masofa” – metrda o‘lchash, birliklarni aylantirish, xarita chizish
O‘z bilimini real hayotda qo‘llay olish, rejalashtirish, ijodkorlikni rivojlantirish
Afzalliklari:
Ko‘p yoqlama rivojlanish- Matematik, kommunikativ, texnologik ko‘nikmalarni birlashtiradi
O‘z-o‘zini boshqarish -O‘quvchi rejalashtiradi, vaqtini nazorat qiladi.
O‘qituvchining roli – yo‘naltiruvchi mustaqillikni kuchaytiradi.
Maqsadi:
O‘quvchi bilimini tez va xolis aniqlash;
Fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini mezon asosida baholash;
Darsni yakuniy yoki oraliq natijalarini diagnostika qilish.

Matematika fanida loyiha metodining qo‘llanishi

2.7-jadval

Format	Misol
Tanlovli test	6 × 4 = ? A) 24 B) 20 C) 30 D) 18
To‘g‘ri/noto‘g‘ri “	“Burchakning o‘lchov birligi – kilogramm.” (Noto‘g‘ri)
Juftlashtirish	“Raqam” bilan “miqdor”ni moslashtirish
To‘ldirish	“3 × = 15”

Afzalliklari:
Tez baholash - Ko‘p o‘quvchini bir vaqtning o‘zida tekshiradi
Standart natijalar - Baholash aniq va obyektiv bo‘ladi
Tahlil qilish imkoniyati - Statistik tahlil, kamchiliklarni aniqlash
Og‘zaki javob metodi — bu o‘quvchining bilimini savol-javob asosida og‘zaki tarzda tekshirish, izohlatish, tushuntirish, tushunganini ifoda etish orqali aniqlash usulidir.
Maqsadi:
O‘quvchining fikrlash jarayonini anglash
Matematik atamalarni to‘g‘ri talaffuz va izohlash ko‘nikmasini baholash
Faol ishtirok etishga rag‘batlantirish
Qo‘llanishi:
Misollarni og‘zaki aytib, o‘quvchidan izoh so‘rash
Tenglama yechimini og‘zaki tushuntirish: “Nega bu javob?”
So‘z orqali baho: “Bu son toq sonmi? Nega?”
Afzalliklari:
Fikrlashni ochadi-o‘quvchi hisobni qanday qilganini izohlaydi.
Nutqni rivojlantiradi - matematik tushunchalarni og‘zaki ifoda qilishni o‘rgatadi.
Formativ baholash imkoniyati - Har bir o‘quvchining tushunishini aniqlashga yordam beradi.
5E modeli asosida tuzilgan topshiriqlarning mazmuniy va didaktik jihatdan tahlili shuni

ko‘rsatdiki, ular o‘quvchilarning erkin fikrlash, muammoni hal etish, mantiqiy izchillikda fikr yuritish hamda o‘z nuqtai nazarini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu topshiriqlarning bosqichma-bosqich qo‘llanishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. 5E modelidan foydalanishda qo‘llaniladigan metod, usul va vositalarning tanlovi didaktik maqsadlarga mos holda amalga oshirilganda, dars samaradorligi ortadi, o‘quvchilarda mavzuni chuqur anglash, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Matematika 2-sinf II qism darslik. I.V.repyova.Toshkent: “Novda Edutainment”-2023.

2.M.J. Saidova .U.M.Mansurova .Boshlang‘ich sinflarda tenglamalar yechish mavzusida 5 E modelidan foydalanish. Maktabgacha va maktab ta‘imi 2025-yil,mart,3-son.641-642 b.

3.Qodirova M., Karimova D. (2021). O‘qish savodxonligi va adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya».

4.Ermatova S. T. (2018). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion faoliyat. – Toshkent: O‘qituvchi.

5.Paulson, F. L., Paulson, P. R.,Meyer, C. A. (1991). What makes a portfolio a portfolio? – Educational Leadership.

6.To‘raxo‘jayev N., Ahmedov B. (2017). Boshlang‘ich ta’limda tabiat fanini o‘qitish metodikasi. – TDPU

7. Xolmatova M. (2019). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya.

8.Jalolov J. J. (2012). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi.

9. To‘raxo‘jayev N., Ahmedov B. (2017). Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. – TDPU.

10.Adizov B. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok.... dis. Toshkent, 2003. 276 b. 2. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: Oqituvchi,1991.40bet.

11.Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogic psixologik asoslari (uslubiy tavsiyalar). Toshkent, 2007.

12.Jumaev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (KHK uchun) Toshkent. “Ilm Ziyo” 2005 yil.

13. Jumaev M.E, Boshlangich sinflarda matematika oqitish metodikasidan praktikum. (O OYU uchun) Toshkent. “Oqituvchi” 2004 yil

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINITARBIYALASH

Saidova Gavhar Ergashovna
Buxoro davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/:0000-0003-3184-0769

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi.

ОБРАЗОВАНИЕ НАЧАЛЬНЫХ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Саидова Гавхар Эргашовна
Доцент кафедры «Начальное образование» Бухарского государственного педагогического института

ЕАннотация. В статье представлены идеи о том, как использование учителями педагогических технологий на уроках, интерактивных методов и обучающих игр в начальных классах, а также современных информационно-коммуникационных технологий в преподавании начальных классов может помочь учащимся мыслить самостоятельно, развивать творческий поиск и логическое мышление, связывать полученные на уроках знания с жизнью и повышать их интерес.

Ключевые слова: техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещение, толерантность, духовное, идеологическое и утонченное образование.

DUCATION OF PRIMARY STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Saidova Gavhar Ergashovna
Associate Professor of the Department of «Primary Education» of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article presents ideas on how teachers’ use of pedagogical technology in lessons, interactive methods and educational games in primary grades, and modern information and communication technologies in teaching education in primary grades can help students think independently, expand their creative search and logical thinking, and help them connect what they have learned in lessons with life and increase their interest.

Keywords: technical, informational, audiovisual active citizenship position, responsibility, obligation, legal awareness and culture, deep worldview, healthy faith, enlightenment, tolerance, spiritual, ideological, and refined education.

Kirish. Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy

o‘rta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma‟naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o„quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta„lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog’liq.

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlshtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma„lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. An‘anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko„rishi tufayli axborotli o‘qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda.

O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo‘lgan.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r istidodga ega; yomon ishlardan o‘zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb- hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar»

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o ‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‟quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o‘quvchida jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida),

hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

a) o‘quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejalashtiriladi;

b) shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi;

v) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Tarbiya fanidan boshlang‘ich sinf bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari (A1, A1+), kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlarida har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqarolik, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga oladi. Bunda bola huquqlarini himoya qilish, uzluksiz ta’lim tizimiga «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish, o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy-huquqiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish kabi maqsadlarga darslikka qo‘yilgan didaktik talablar asosida erishiladi. Shuni qayd etish kerakki, Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida turli interfaol metod, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim texnologiyalari, ijodiy-ta’limiy o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni tarkib toptirish barobarida ularda ijtimoiy vahuquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida belgilangan maqsadga erishishda asosiy e’tiborni “shaxs”, “madaniyat”, “qadriyat”, “xulq-atvor”, “huquq”, “burch”, “tarbiya” kabi tushunchalar hamda boshlang‘ich odob-axloq me’yorlari mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratildi. Zero, ushbu tushunchalar o‘zaro aloqador bo‘lib, doimiy ravishda bir - birini to‘ldirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ijtimoiy-huqiqiy kompetensiyalarni shakllantirishdan oldin ularda mazkur tushunchalar haqidagi bilimlarini tarkib toptirish zarur.

Ushbu maqolada ijtimoiy va huquqiy kompetenlik tushunchalariga quyidagicha ta’rif berishga harakat qildik: ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish hamda qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil eta olish; huquqiy kompetentlik esa davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy, majburiy, ijtimoiy normalarni bilish, ushbu normalarga amal qilgan holda ulardan to‘g‘ri foydalanish va shaxsiy hayotda qo‘llay olish.

Tarbiya fani asosida quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

Ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi: odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o‘zini tutish) madaniyatiga ega bo‘lishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas’uliyatni anglashi va ularga rioya qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an’analar, urfodatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, jamoatchilik ishlarida faol bo‘lishi.

Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish kompetensiyasi: yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlay olishi, ularga nisbatan fikrini bayon eta olishi; yon-atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira olishi, ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Tahlillar va natijalar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish va bilish darajasi,faolligi, dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyatining rivojlanganligiga ko‘ra shartli ravishda ikki bosqichga ya’ni 1-2-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarni o‘rganish va ushbu tushunchalar haqidagibilimlarga ega bo‘lish hamda 3-4-sinfda egallagan kompetensiyalarni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish inobatga olinishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning tamoyillarini quyidagi tarzda izohlash mumkin:

Birinchidan, o‘quvchida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning mavjudligi uning umri davomidagi muvaffaqiyatli faoliyatinikafolatlaydi. Ikkinchidan, o‘quvchi hayotida shaxsiy harakatlarining yetarlicha tanloviga imkon yaratib, shaxsga xos bo‘lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta’minlaydi. Uchinchidan, o‘quvchining Vatanga, oilaga, insonlarga, tabiatga, qadriyatlarga nisbatane’tiqodini hamda shaxslararo munosabatlarini rivojlantiradi. To‘rtinchidan, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, estetik qadriyatlar va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Beshinchidan, o‘quvchilarda ijtimoiy muhit, oilasi, mahallasidagi jamoaviy munosabatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Oltinchidan, ta’lim muassasasidagi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim, sog‘lom muhit, o‘qituvchilarning kasbiy darajasi e’tiboga olinadi. Yettinchidan, o‘quvchilarning hayotiy qadriyatlarini aniqlash, ochiqlik, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibatlilik, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, kasb tanlash motivlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e’tiborga olinadi.

Tarbiya darsida o‘quvchilarda faollik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, intiluvchanlik, bilimdonlik, tadqiqotchilik kabi sifatlarni shakllantiradigan hamda sheriklik (subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyillariga asoslangan “Do‘st tanlayman”, “Ta’qiqlangan meva”, “O‘zimizni qanday tutamiz”, “Qadriyatlar”, “Qadr-qimmatliklar yarmarkasi” kabi o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan ta’limiy o‘yinlardan foydalandik.

Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanining bosh g‘oyasida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar bilan birgalikda ularda mas’uliyat va moslashuvchanlik, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash, shaxslararo hamkorlik qilish, muammolarni aniqlash, yechimni topish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bunday zamonaviy ta’lim-ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning vazifasi quyidagicha bo‘ladi.

1.Zamonaviy ta’limning ahamiyati o‘quvchilarda faol ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

2.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar o‘quvchilar tafakkurini motivatsion va refleksiv ko‘nikmalarga o‘rgatish vositalari, shakllari, usul va yo‘llarini belgilash asosida qaror topadi. Buning uchun o‘qituvchidan ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy munosabatda hamda akmeologik yondashuvda bo‘lish talab etiladi.

3.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan innovatsion metod hamda ijodiy-ta’limiy o‘yinlar mazmunini tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan bog‘liq holda izohlash asosida ishlab chiqilgan, maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan izchillik va uzviylik xarakteriga ega funksional modelni ta’lim amaliyotiga tatbiq qilish o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga samarali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4.Oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligining tashkiliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ta’lim komponentlarini kuchaytirish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish natijasida ularning faol ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

5.Tadqiqot davomida pedagogikaning kognitiv, madaniy, huquqiy kompetentlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalari darajasini baholash mezonlari o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

6.O‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishda boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari alohida o‘rin tutadilar. Ularning mashg‘ulot va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni

tashkillashtirish hamda yuqori saviyada o‘tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy komptensiyalarga ega bo‘lish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

-boshlang‘ich sinf Tarbiya fanini o‘tishda amaliy tajribalarga alohida e’tibor qaratish, ya’ni imkoniyat darajasida mazkur darslarni sinf xonasida emas, mavzuga mos obyektlarda tashkil etish;

-Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanlari dasturiga qo‘shimcha ravishda “Mashq daftari” ishlab chiqish;

-boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fanidan dars beradigan o‘qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etib, unda xorijiy tajribalarga asoslangan holda treninglar olib borish uchun dasturlar tayyorlash;

-tarbiya darslari mazmuni asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarnirivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1.Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.

IJODIY FAOLLIK TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI, TARKIBIY QISMLARI VA TURLARI

Sharifova Nigora Axtam qizi
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijodiy faollik tushunchasini har tomonlama nazariy-konseptual tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada ijodiy faollik shunchaki yangilik yaratish qobiliyati emas, balki shaxsning o‘zini namoyon qilishga, mavjud bilimlarni o‘zgartirishga va muammolarga nostandart yechimlar topishga qaratilgan murakkab, ko‘p qirrali faoliyati ekanligi ta’kidlanadi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va sintez kabi umumilmiy usullarga asoslanadi. Tahlillar natijasida ijodiy faollikning motivatsion-irodaviy, kognitiv, emotsional va operatsional-amaliy komponentlardan iborat yaxlit tizim ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faollik, kreativlik, ijodiy tafakkur, motivatsiya, tarkibiy komponentlar, innovatsiya, shaxs.

Аннотация: данная статья посвящена всестороннему теоретико-концептуальному анализу понятия творческой деятельности. В статье подчеркивается, что творческая активность-это не просто умение вводить новшества, а сложная, многогранная деятельность личности, направленная на самовыражение, преобразование имеющихся знаний, поиск нестандартных решений проблем. Методология исследования базируется на таких общих методах, как системный подход, сравнительный анализ и синтез. В результате анализа обосновано, что творческая деятельность представляет собой целостную систему, состоящую из мотивационно-волевого, познавательного, эмоционального и оперативно-практического компонентов. Ключевые слова: творческая активность, креативность, творческое мышление, мотивация, составляющие компоненты, инновации, личность.

Annotation: this article is devoted to a comprehensive theoretical-conceptual analysis of the concept of creative activity. The article argues that creative activity is not just the ability to innovate, but a complex, multifaceted activity of an individual, aimed at self-expression, transformation of existing knowledge and finding non-standard solutions to problems. The research methodology is based on general methods such as systematic approach, comparative analysis and synthesis. As a result of the analysis, it is substantiated that creative activity is a holistic system consisting of motivational-volitional, cognitive, emotional and operational-practical components.

Keywords: creative activity, creativity, creative thinking, motivation, structural components, innovation, personality.

Kirish. XXI asr – axborot texnologiyalari, globallashuv va yuqori raqobat davri sifatida insoniyat oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda jamiyatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyot bevosita inson kapitalining sifatiga, xususan, uning ijodiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Standart yechimlarga asoslangan yondashuvlar o‘z samarasini yo‘qotayotgan bir paytda, yangilik yaratish, nostandart fikrlash va muammolarga o‘ziga xos yechim topa olish qobiliyati har bir sohada muvaffaqiyat garoviga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijodiy faollik fenomeni psixologiya, pedagogika, falsafa va sotsiologiya kabi fanlarning diqqat markazida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ijodiy faollik nafaqat san’at va fan sohalarida, balki kundalik hayotda, kasbiy faoliyatda va ijtimoiy munosabatlarda ham namoyon bo‘ladigan universal hodisadir. U shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirishiga, intellektual va ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi strategik vazifalar ham yosh avlodda ijodiy faollikni shakllantirish masalasini kun

tartibiga qo‘yadi.

Mavzuning dolzarbligi. Yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to‘g‘risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar birdirilgan: «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat»ekanligini inobatga olgan holda hamda bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga javoban, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5099-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzu metodologiyasi. Zamonaviy globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida shaxsning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi – “ijodiy faollik” fenomenining mohiyatini ochib berish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va asosiy turlarini tasniflashdan iborat.

Biroq, “ijodiy faollik” tushunchasining keng qo‘llanilishiga qaramay, uning ilmiy-nazariy mohiyati, tarkibiy tuzilishi va namoyon bo‘lish shakllari borasida yagona va to‘liq qarash mavjud emas. Ko‘plab tadqiqotlarda u ko‘pincha “kreativlik”, “ijodiy qobiliyat” yoki “ijodiy tafakkur” kabi tushunchalar bilan sinonim sifatida ishlatiladi, bu esa uning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib berishga to‘sqinlik qiladi. Aslida, ijodiy faollik bu tushunchalarni o‘z ichiga olgan kengroq va dinamik jarayondir. U shunchaki potensial imkoniyatni emas, balki ana shu imkoniyatni real harakatga, amaliy natijaga aylantiruvchi faol harakatni, shaxsning subyektiv pozitsiyasini anglatadi. Shu sababli, uning mohiyatini chuqur anglash, tarkibiy qismlarini aniqlashtirish va turlarini ilmiy asosda tasniflash nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ijodiy faollik tushunchasining konseptual asoslarini ishlab chiqish, uning ko‘p komponentli tabiatini ochib berish va fundamental turlarini tavsiflashdan iborat. Maqolada ijodiy faollikning motivatsion, kognitiv, emotsional va amaliy jihatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ko‘rsatib beriladi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsda ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan samarali psixologik-pedagogik dasturlar va metodologiyalarni yaratish uchun nazariy zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, psixologlar, metodistlar va ushbu soha bilan qiziquvchi barcha mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Ijodiy faollik muammosi uzoq tarixga ega bo‘lib, uning turli jihatlari jahon va mahalliy psixologiya fanida keng o‘rganilgan. XX asrning o‘rtalarida amerikalik psixolog J. Gilford o‘zining “inson intellektining tabiati” asarida ijodiy tafakkurning asosiy xususiyatlari sifatida divergent fikrlashni, ya’ni muammoning bir nechta to‘g‘ri yechimini topish qobiliyatini ajratib ko‘rsatdi [1]. Uning ishlari ijodkorlikni psixometrik o‘lchashga asos solgan va keyingi tadqiqotlar uchun kuchli turtki bo‘lgan. E. Torrens esa Gilford g‘oyalarini rivojlantirib, ijodiy tafakkurni diagnostika qilish uchun maxsus testlarni ishlab chiqdi va uning tezlik, egiluvchanlik, originallik va aniqlik kabi mezonlarini belgilab berdi [2]. Bu yondashuvlar ijodning kognitiv jihatlariga urg‘u bergan bo‘lsa-da, uning shaxsiy va motivatsion omillarini bir qadar e’tibordan chetda qoldirgan. Gumanistik psixologiya namoyandalari, xususan, A. Maslou, ijodkorlikni shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirishga bo‘lgan fundamental ehtiyojining namoyon bo‘lishi sifatida talqin qildi [3]. Ushbu nuqtai nazarga ko‘ra, ijodiy faollik faqatgina buyuk kashfiyotlar yoki san’at asarlari yaratish

bilan cheklanmay, balki har bir insonning o‘z hayotiga ijodiy yondashuvida ham ko‘rinadi.

Rus psixologiya maktabida ijodkorlik muammosi faoliyat yondashuvi doirasida tahlil qilingan. S.L. Rubinshteyn ijodiy faoliyatni subyektning dunyoni o‘zgartirishga qaratilgan ongli harakati sifatida ko‘rib, uning jarayonida shaxsning o‘zi ham o‘zgarib borishini ta’kidlagan [4]. L.S. Vigotskiy esa ijodning asosini tasavvur va tafakkur birligida ko‘rib, ijodiy faoliyatni reallikni kombinatsiyalash va qayta qurish jarayoni deb hisoblagan [5]. Keyinchalik, R. Sternberg o‘zining «ijodkorlikka investitsiya nazariyasi»da ijodiy shaxsni intellekt, bilim, tafakkur uslublari, shaxsiy sifatlar, motivatsiya va atrof-muhit kabi olti omilning o‘zaro ta’siri mahsuli sifatida ta’riflagan [6]. Bu nazariya ijodiy faollikning kompleks tabiatini tushunishga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston psixologiya fanida ham ijodiy faollik va qobiliyatlar muammosi yetakchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Akademik M.G. Davletshin o‘zining ko‘p yillik izlanishlarida qobiliyatlar, jumladan, ijodiy qobiliyatlar psixologiyasiga oid fundamental g‘oyalarni ilgari surgan [7]. U qobiliyatlarning shakllanishida tabiiy imkoniyatlar (zadatok) bilan birga maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiyaning hal qiluvchi rolini alohida ta’kidlagan. Professor E.G‘. G‘oziyev o‘z asarlarida shaxs psixologiyasi kontekstida ijodkorlikni shaxsning yetuklik darajasini belgilovchi muhim sifatlardan biri sifatida tahlil qilgan [8]. Shuningdek, B.R. Qodirovning tadqiqotlari ham qobiliyatlarni diagnostika qilish va rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan [9]. So‘nggi yillarda o‘zbek olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar ijodiy faollikni kasbiy faoliyatda, xususan, pedagogik jarayonda namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan [10]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faollik murakkab psixologik hodisa bo‘lib, uni tushunish uchun kognitiv, shaxsiy, motivatsion va faoliyatga oid jihatlarni birgalikda, o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish talab etiladi.


Ushbu tadqiqot nazariy-konseptual xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, uning metodologik asosi sifatida umumilmiy va mantiqiy bilish usullari majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodi tizimli yondashuv bo‘lib, u ijodiy faollikni alohida-alohida olingan psixik hodisalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘langan va bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy komponentlardan iborat yaxlit, dinamik tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Tizimli yondashuv ijodiy faollikning strukturaviy tuzilishini, uning elementlari (komponentlari) o‘rtasidagi funksional aloqalarni va ushbu tizimning shaxsning umumiy psixologik strukturasidagi o‘rnini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot jarayonida, shuningdek, ilmiy adabiyotlarni tahlil va sintez qilish metodidan keng foydalanildi. Ushbu metod doirasida ijodiy faollik muammosiga oid psixologiya, pedagogika va falsafa sohalaridagi fundamental va zamonaviy manbalar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy asarlari chuqur o‘rganildi. Tahlil jarayonida turli nazariy yondashuvlar (psixometrik, gumanistik, faoliyatga oid, kognitiv) qiyosiy o‘rganilib, ularning yutuqlari va cheklangan jihatlari aniqlandi. Sintez metodi esa turli qarashlarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni topish orqali ijodiy faollikning yaxlit va ko‘p qirrali konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qildi. Tushunchalarni aniqlashtirish va tasniflash kabi mantiqiy usullar yordamida «ijodiy faollik» terminining mazmun-mohiyati aniqlashtirildi, u «kreativlik», «ijodiy tafakkur» kabi yaqin tushunchalardan farqlandi va uning asosiy turlari ma’lum mezonlar asosida guruhlarga ajratildi. Ushbu metodologik asos tadqiqot mavzusini chuqur va har tomonlama yoritish, ishonchli va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun zaruriy zamin yaratdi. Tadqiqotning empirik qismi mavjud emasligi sababli, asosiy urg‘u mavjud nazariy bilimlarni tizimlashtirish va yangicha interpretatsiya qilishga qaratildi.

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida ijodiy faollikning mohiyati, tarkibiy tuzilishi va turlariga oid quyidagi natijalarga erishildi. Birinchidan, ijodiy faollik tushunchasining mazmuni aniqlashtirildi. Ko‘plab adabiyotlarda sinonim sifatida qo‘llaniladigan «kreativlik» ko‘proq shaxsning yangilik yaratishga bo‘lgan potensial qobiliyatini, ichki imkoniyatini anglatsa, «ijodiy faollik» ana shu potensialni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan amaliy, ongli va maqsadli harakatlar jarayonidir. Ya’ni, faollik komponenti bu yerda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning

subyekt sifatidagi pozitsiyasini, o‘z ijodiy g‘oyalarini amalga oshirish yo‘lidagi intilishlari va sa’y-harakatlarini ifodalaydi. Shunday qilib, ijodiy faollik – bu shaxsning yangi, original va ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan mahsulot yaratishga, mavjud bilimlarni o‘zgartirish va kengaytirishga yo‘naltirilgan, ichki motivatsiya va tashqi sharoitlar bilan belgilanadigan murakkab psixologik tizimdir.

Ikkinchidan, ijodiy faollikning tarkibiy tuzilishi o‘rganilib, uning to‘rtta asosiy, o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat ekanligi aniqlandi. Bular: motivatsion-irodaviy, kognitiv, emotsional va operatsional-amaliy komponentlardir (1-rasmga qarang).



1-rasm. ijodiy faollikning to‘rtta asosiy komponentlari

Bugungi kun zamon talablari hamda ta’lim transformatsiyasi jarayonida talabalarning ijodiy faolligini belgilovchi asosiy komponentlarning mazmun mohiyati quyidagicha izohlandi:

Motivatsion-irodaviy komponent ijodiy faoliyatning energetik va yo‘naltiruvchi asosi hisoblanadi. U o‘z ichiga ijodga bo‘lgan ichki ehtiyoj, qiziqish, o‘zini namoyon qilish istagi, muvaffaqiyatga erishish motivi, qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan irodaviy sifatlar (qat’iyatlilik, tirishqoqlik) kabi xususiyatlarni oladi. Aynan kuchli ichki motivatsiya shaxsni uzoq va mashaqqatli ijodiy izlanishlarga undaydi.

Kognitiv komponent ijodiy jarayonning intellektual yadrosini tashkil etadi. Unga divergent va konvergent tafakkur operatsiyalari, tasavvur, sezgi (intuitsiya), muammoni anglash va qayta ifodalash qobiliyati, meta-kognitiv bilimlar (o‘z fikrlash jarayonini boshqara olish) kiradi. Bu komponent yangi g‘oyalarni generatsiya qilish va ularni mantiqiy baholash uchun mas’uldir.

Emotsional komponent ijodiy faoliyatni o‘ziga xos hissiy tus bilan ta’minlaydi. Ijodiy ilhomlanish, ishdan zavqlanish, hayratlanish, noaniqlikka nisbatan tolerantlik, hissiy sezgirlik va empatiya kabi holatlar bu komponentga xosdir. Ijobiy emotsiyalar ijodiy jarayonni qo‘llab-quvvatlasa, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish kabi salbiy hislar unga to‘sqinlik qilishi mumkin. M. Csikszentmihalyi tomonidan ta’riflangan “oqim” (flow) holati bu komponentning yorqin namunasidir [11].

Operatsional-amaliy komponent ijodiy g‘oyani moddiy yoki ma’naviy mahsulot shaklida amalga oshirish bilan bog‘liq. Bu komponent ma’lum bir sohadagi bilimlar, ko‘nikma va malakalar, texnika va usullarni egallaganlik darajasini o‘z ichiga oladi. Qanchalik original g‘oya bo‘lmasin, uni amalda tatbiq etish uchun zaruriy mahorat bo‘lmasa, u g‘oyaligicha qolib ketadi.

Ushbu komponentlarning o‘zaro aloqadorligi va bir butunligi quyidagi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

faollikning tarkibiy komponentlari va ularning tavsifi Ijodiy

Komponent	Asosiy mazmuni	Namoyon bo‘lish xususiyatlari
Motivatsion-irodaviy	Faoliyatning energetik va yo‘naltiruvchi asosi	Ichki qiziqish, muvaffaqiyatga intilish, o‘zini namoyon qilish ehtiyoji, qat'iyatlilik, mustaqillik.
Kognitiv	Faoliyatning intellektual yadrosi, axborotni qayta ishlash	Divergent tafakkur, tasavvur, intuitsiya, muammoni ko‘ra bilish, bilimlarni integratsiya qilish.
Emotsional	Faoliyatning hissiy-ruhiy kechinmalari	Ilhomlanish, “oqim” holati, noaniqlikka tolerantlik, hissiy sezgirlik, estetik zavqlanish.
Operatsional-amaliy	G‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish vositalari	Maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalar, texnik va uslubiy mahorat, tajriba.

Uchinchidan, ijodiy faollikning amalga oshirilish sohasi va yakuniy mahsulotining xususiyatlariga ko‘ra uning asosiy turlari tasniflandi. Bularga ilmiy, badiiy, texnikaviy, ijtimoiy va pedagogik ijodiy faollik kiradi. Ularning har biri o‘ziga xos maqsad, vosita va natijalarga ega bo‘lib, ularning qiyosiy tahlili quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Ijodiy faollik turlarining qiyosiy tahlili

Turi	Asosiy maqsadi	Ustuvor kognitiv jarayonlar	Yakuniy mahsuloti
Ilmiy	Olam haqidagi obyektiv qonuniyatlarni ochish, yangi bilim yaratish	Mantiqiy, abstrakt, analitik tafakkur	Nazariya, konsepsiya, gipoteza, kashfiyot
Badiiy	Badiiy obrazlar orqali voqelikni aks ettirish, estetik qadriyat yaratish	Obrazli tafakkur, tasavvur, emotsional idrok	San’at asari (rasm, musiqa, adabiy asar)
Texnikaviy	Amaliy ehtiyojlarni qondirish uchun yangi qurilma, texnologiya yaratish	Amaliy-texnik, konstruktiv tafakkur	Ixtiro, qurilma, mexanizm, texnologik jarayon
Ijtimoiy	Ijtimoiy munosabatlarni, tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish	Ijtimoiy tafakkur, kommunikativ qobiliyatlar	Yangi ijtimoiy loyiha, boshqaruv usuli, islohot
Pedagogik	Ta’lim-tarbiya jarayonini optimallashtirish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish	Pedagogik tafakkur, refleksiya, empatiya	Yangi o‘qitish metodi, pedagogik texnologiya

Ushbu tahlillar ijodiy faollikning bir xil hodisa emasligini, balki uning turli sohalarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Biroq, barcha turlar uchun yuqorida keltirilgan to‘rtta komponentning mavjudligi va o‘zaro ta’siri umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Olingan natijalar ijodiy faollikni an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, yanada kengroq

va tizimliroq tushunishga imkon beradi. Tadqiqotda ijodiy faollikning to‘rt komponentli modeli taklif etilishi uning biryoqlama, faqat kognitiv yoki faqat motivatsion hodisa sifatida qaralishining cheklanganligini ko‘rsatadi. Masalan, J. Gilford va E. Torrens tomonidan ilgari surilgan psixometrik yondashuvlar asosan kognitiv komponentni, xususan, divergent tafakkurni o‘lchashga qaratilgan [1, 2]. Bu, shubhasiz, muhim, lekin ijodiy jarayonning to‘liq manzarasini bermaydi. Qobiliyatli, original fikrlarga ega bo‘lgan shaxs, agar unda o‘z g‘oyasini amalga oshirish uchun yetarli motivatsiya, qat’iyat va amaliy ko‘nikmalar bo‘lmasa, real ijodiy mahsulot yarata olmasligi mumkin. Shu ma’noda, biz taklif etgan model ijodiy faollikni shaxsning yaxlit namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rib, uning barcha psixologik jabhalarini qamrab olishga harakat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, u ta’lim tizimida ijodkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘la oladi. Aksariyat hollarda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat kognitiv komponentini, ya’ni bilimlarni o‘zlashtirish va nostandart masalalar yechish qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Biroq, ijodiy shaxsni tarbiyalash uchun uning motivatsion sohasini (qiziquvchanlikni rag‘batlantirish, muvaffaqiyatga ishonchni shakllantirish), emotsional intellektini (o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, ilhomlanishni qo‘llab-quvvatlash) va amaliy ko‘nikmalarini (loyihaviy ishlarni bajarish, g‘oyalarni real prototiplarga aylantirish) ham tizimli ravishda rivojlantirish lozim. Shundagina biz shunchaki bilimli emas, balki o‘z bilimlarini amalda ijodiy qo‘llay oladigan bitiruvchilarni yetishtirishimiz mumkin.

Albatta, ushbu tadqiqot o‘zining cheklovlariga ega. U asosan nazariy xarakterga ega bo‘lib, taklif etilgan model va tasniflar empirik tekshiruv va validizatsiyani talab etadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ijodiy faollikning turli komponentlari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqalarni o‘rganishga, uning yoshga oid va jinsiy xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, turli kasbiy faoliyat turlarida muvaffaqiyatni prognoz qilishdagi rolini tadqiq etishga qaratilishi mumkin. Bundan tashqari, taklif etilgan to‘rt komponentli model asosida shaxsning ijodiy faollik darajasini diagnostika qilish uchun kompleks psixodiagnostik metodika ishlab chiqish ham istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Maqolada ijodiy faollikning yaxlit tuzilmasi to‘rtta o‘zaro uzviy bog‘liq komponentlar – motivatsion-irodaviy, kognitiv, emotsional va operatsional-amaliy komponentlar birligi sifatida taqdim etildi. Aynan shu to‘rt komponentning uyg‘un rivojlanishi va o‘zaro hamkorligi yuksak darajadagi ijodiy natijalarga erishishning garovidir. Biror-bir komponentning yetarli darajada rivojlanmaganligi ijodiy jarayonning samaradorligini pasaytiradi. Ushbu model ijodiy faollikning kompleks tabiatini chuqurroq anglash va uning psixologik mexanizmlarini tushunish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ijodiy faoliyatning ilmiy, badiiy, texnikaviy, ijtimoiy va pedagogik kabi asosiy turlari tasniflanib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Bu tasnif turli sohalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun differensial yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijodiy faollik shaxs muvaffaqiyatining va davlat raqobatbardoshligining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda. Shu bois, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yoshlarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va uning barcha tarkibiy qismlarini tizimli rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekistonning innovatsion kelajagini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot ijodiy faollik fenomenini tizimli va ko‘p qirrali nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan nazariy urinishdir. Ijodiy faollik shunchaki kreativlik yoki ijodiy tafakkur bilan chegaralanib qolmay, balki shaxsning o‘z potentsialini voqelikka aylantirishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli va murakkab faoliyat jarayoni ekanligi asoslandi. Uning mohiyati yangilik yaratish, mavjudlikni o‘zgartirish va takomillashtirish orqali shaxsning o‘zini va atrof-olamni boyitishidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Guilford, J. P. (1967). The nature of human intelligence. McGraw-Hill.

2.Torrance, E. P. (1974). The Torrance Tests of Creative Thinking-Norms-Technical Manual Research Edition-Verbal Tests, Forms A and B-Figural Tests, Forms A and B. Ginn and Company.
3.Maslow, A. H. (1968). Toward a psychology of being. Van Nostrand.
4.Рубинштейн, С. Л. (2000). Основы общей психологии. Питер.
5.Выготский, Л. С. (2004). Психология развития человека. Смысл; Эксмо.
6.Sternberg, R. J. (2006). The nature of creativity. Creativity Research Journal, 18(1), 87–98.
7.Davletshin, M. G. (1973). Psikhologiya sposobnostey. O‘qituvchi.
8.G‘oziev, E. G‘. (2010). Umumiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
9.Qodirov, B. R. (1995). Talabalar o‘quv-bilish faoliyatida qobiliyatlarini diagnostika qilish va rivojlantirish. O‘zPFITI.
10.Karimova, V. M. (2018). Ijtimoiy psixologiya. Fan va texnologiya.
11.Csikszentmihalyi, M. (1990). Flow: The psychology of optimal experience. Harper & Row.

IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE SKILLS ROLE OF ASSIGNMENTS

Sharopova Feruza,
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi, p.f.f.d.(PhD), Andijon DPI professori, p.f.d.Sh.J. Yusupova taqrizi asosida

Abstract. This article is devoted to the development of the skills of reading comprehension the text, which is one of the linguistic skills, as well as one of the conditions that must be met to achieve this goal – the question of the correct choice of assignments. The PISA and PIRLS International Assessment Programme aims to develop the skills of reading and understanding text, with the likes of understanding, using, evaluating, interpreting, reacting, meditating and finding a place in society. The article analyzes the result of the methods and tasks used during the study and shows their role in the development of mental processes.

Keywords: reading comprehension, reasoning, analysis, critical thinking, inference, use.

В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ РОЛЬ ЗАДАНИЙ

Аннотация. Данная статья посвящена развитию навыков понимания прочитанного текста, что является одним из лингвистических умений, а также одному из условий, которые должны быть соблюдены для достижения этой цели – вопросу правильного выбора заданий. Международная оценочная программа PISA и PIRLS направлена на развитие навыков чтения и понимания текста, таких как понимание, использование, оценка, интерпретация, реагирование, размышление и поиск своего места в обществе. В статье анализируются результаты применения методов и заданий, использованных в ходе исследования, и показана их роль в развитии психических процессов.

Ключевые слова: понимание прочитанного, рассуждение, анализ, критическое мышление, логический вывод, использование.

KOGNITIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA TOPSHIRIQLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqola lisoniy ko‘nikmalardan biri bo‘lgan matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda bu maqsadga erishish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan shartlardan biri – topshiriqlarni to‘g‘ri tanlash masalasiga bag‘ishlangan. PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishdan maqsad sifatida, ma’lumotni tushunish, undan foydalanish, baholay olish, talqin qilish, munosabat bildirish, mulohaza yuritish hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topish kabilar ko‘zda tutilgan. Maqolada tadqiqot davomida foydalanilgan metod va topshiriqlar natijasi tahlil qilingan hamda ularning aqliy jarayonlarni rivojlantirishdagi roli ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qib tushunish, mulohaza yuritish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarish, foydalanish.

Kirish (Introduction). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi farmonida o‘zbek tilini o‘rganish va o‘rgatish masalasida qator dolzarb vazifa hamda talablar belgilab berilgan, jumladan, davlat tilini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish; davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish kabi masalalar tegishli davlat organlariga topshirilib, nazorat qilinmoqda. Shu sababli oxirgi yillarda

kommunikativ savodxonlikni oshirish, ta’limda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishning asosi bo‘lgan ona tili fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish, lisoniy ko‘nikmalarning rivojlantirilishiga alohida e’tibor qaratish ta’limning asosiy vazifasi bo‘lib kelmoqda. Dunyo miqyosida olib borilgan ko‘plab ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, aqliy faoliyat mahsuli bo‘lgan tushunish (anglash, idrok qilish) jarayoni yosh o‘quvchining yetuk shaxs sifatida kamol topishidagi birinchi va asosiy qobiliyati hisoblanadi.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Respublikamizda o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish, til ta’limi va falsafa masalasi, nutqiy malakalarni rivojlantirish, matnyaratish vauning tuzilishini o‘rgatish, ona tilidan o‘quv topshiriqlari mazmunini takomillashtirish masalalari Sh. Yusupova [2], A. Bobomurodova [3], N. Qosimova, K. Mavlonova [4], G‘. Hamroyev, M. Asqarova [5], Sh. Abdiraimov [6] kabi metodist olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, M. Hakimov, D. Xudoyberganova, Sh. Usmonova, S. Boymirzayeva, F. Haydarov, I. Azimova [7] kabi tilshunos olimlar tomonidan matnni tushunishning psixologik, psixolingvistik asoslari o‘rganilgan.

MDH davlatlari olimlaridan S. Aleksandrovna [8], N. Matveyeva, Y. Abramova, M. Kuznetsova, N. Moldavskaya, L. Mosunova, T. Yegorov [9] vaboshqalar tomonidan matnni tushunish va uning ustida ishlashning turli jihatlari o‘rganilgan.

Xorijda J. Cheryl Gowie, P. David Pearson va G. Cervetti, Smuck, Melissa [10], P. Bloom [11], J. Chall,C. Snow, D. Namara, N. Anderson, J. Herrity, L. Diane va D. Fisher, M. Habibian, K. Yazdanpanah, M. Mustikasari, E. Tighe,Kim Wells, J. Shiverslar tomonidan o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari, baholash usullari, anglashning an’anaviy hamda yangi strategiyalari xususida tadqiqotlar olib borilgan.

Shuningdek, o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish masalasi ko‘plab tadqiqotchi va o‘qituvchilarning e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakasini rivojlantirishga oid bir qator maqolalar e’lon qilingan bo‘lsa-da, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining o‘qib tushunish malakasini rivojlantirish mazmuni, mezonlari, o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasi, tushunish strategiyalari maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metodologiyasi keng qamrovga ega bo‘lib, ishning yangiligi sifatida Topshiriqlar bilan ishlash algoritmining yaratilganini keltirish mumkin. Mavzuni o‘rganish davomida 30 dan ortiq turli uslubdagi matnlardan foydalanildi, ular ustida topshiriqlar tuzilib, tekshirib, tahlil qilindi. Birinchi topshiriq turi uchun ilmiy-ommabop uslubdagi “Maqol va matal: farqi nimada?” sarlavhali matn ustida bajarilgan topshiriq natijalari tahlil qilindi. Tuzilgan topshiriq turi, ulardan ko‘zlangan maqsad va uni to‘g‘ri bajarish yo‘li quyida tushuntirildi. Anglash darajasini aniqlovchi eng samarali usullardan biri “Hukm” topshirig‘i bo‘lib, u test tuzuvchi tomonidan matnning umumiy yoki ba’zi qismlari asosida chiqargan xulosasi ko‘rinishidagi jumladan iborat bo‘ladi. Bu topshiriq turi ham implitsit, ham eksplitsit ma’lumotlarni ochiqlashni nazarda tutadi. Misol uchun, “Maqollar faqat o‘z ma’nosida ishlatilib, qisqa, bir jumladan iborat bo‘ladi”, hukmining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash uchun o‘quvchi quyidagi amallarni bajaradi: (1-rasmga qarang)



1-rasm

Topshiriqni bajarish algoritmi


•Mazkur topshiriqdan ko‘zlangan maqsad: Talqin qilish va mulohaza yuritish, ya’nimatnda bayon qilingan fikr, dalillar asosida bitta xulosaga kelish va mazkur xulosaning asosli ekanini tushuntira olish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat.

Bu topshiriqda bitta izoh berish barobarida ikkita xususiyat sanalyapti: maqolning o‘z ma’nosida ishlatilishi va hajman qisqa bo‘lishi. O‘quvchiga ma’lumki, maqol qisqa ko‘rinishda bo‘ladi, lekin faqat o‘z ma’nosida ishlatiladimi yo‘qmi, buni matn ichidan topib, aniq xulosa qilinishi lozim. Javob hukmning noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatgan. Demak, matnni qayta o‘qib chiqish talab qilinadi: “Maqollar ko‘chma va o‘z ma’nosida qo‘llanishi mumkin, matallar esa faqat ko‘chma ma’noda ishlatiladi”, jumlasi berilgan hukmning noto‘g‘riligini isbotlaydi.

•“Mantiqli so‘z” yoki bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish topshirig‘i. Bu topshiriq turi matndan aynan uzib olingan gaplar bilan emas, balki semantik transformatsiya(ma’nosini saqlangan holda boshqa so‘zlar bilan qayta hikoyalash) qilingan shaklda berilib, u orqali o‘quvchining matn mohiyatini tushunib yetgani yoki unday emasligi oson aniqlanadi. Sababi, o‘quvchi vazifada berilgan so‘z, jumlalarni matn tarkibidan aynan topa olmaydi, to‘g‘ri javobni topgan o‘quvchi mohiyatni anglagan sanaladi. Bunga misol tariqasida, “Maqol va matal: farqi nimada?” matni ustida tuzilgan shunday vazifani tahlil qilamiz:

Ko‘pchilik nutqini ta’sirli va jozibador qilish maqsadida maqollardan foydalanadi. Bunday (5) ……. yo iboraning maqol yoki matal ekaniga e’tibor bermaymiz, albatta. Bir qancha belgilari bilan maqoldan farqlanadigan matallarda (6) …… ustunlik qiladi.

Bu topshiriq orqali tushunish va mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘zda tutilib, bajarish algoritmi quyidagicha namoyon bo‘ladi:



2-rasm


Topshiriqni bajarish algoritmi

Topshiriqning birinchi gapi maqol haqidagi jumla bilan boshlangan, ikkinchi jumlada shu so‘zni takrorlamaslik uchun “hikmatli gap” birikmasi bilan almashtirilgan. 5-o‘ringa yozilishi kerak bo‘lgan hikmatli gapning o‘rniga ko‘pchilik tomonidan “badiiy vosita” javobi tanlangan. 6-bo‘sh qoldirilgan o‘ringa matallarga xos bo‘lgan “obrazlilik” so‘zi yozilishi kerak edi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi “so‘z o‘yini, yumor belgilari” so‘zlarini tanlashgan. Bu leksemalar ham matalga xos bo‘lsa-da, jumlaning mazmuni va so‘zlar birikmasiga mos tushmaydi. Yuqoridagi so‘zlarning o‘z ishlatilish o‘rni mavjud. Natijalarga ko‘ra, shunday xulosaga kelindi: o‘quvchi birinchi harakatda savolda so‘ralayotgan so‘z, jumlani matn tarkibidan qidiradi, xuddi shunday gap tarkibida bo‘lsa, ikkilanmay shu so‘zni tanlaydi. Matn ko‘rinishi o‘zgartirib berilganda esa variantdagi javoblarni birma bir moslab o‘qib ko‘rishga qiynaladi va bir-biriga yaqin so‘zlardan birini tanlaydi. Keyingi bo‘sh o‘rinlardagi xatolar ham shu sababdan yuzaga kelgan. Demak, mazkur topshiriq matnning tushunilish darajasini haqqoniy aniqlay oladigan samarali usullardan biri. Bunday usullar orqali o‘quvchilarda ma’lumotlarni tahlil qilish, mulohaza yuritish va xulosa chiqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

•“Moslashtirish” topshirig‘i. Bunda matn qismlari harflar bilan ajratilgan bo‘lib, quyida har birblokning ma’nosiga mos bo‘lgan kichik sarlavhalar aralash holda beriladi. O‘quvchilar oldin

matnni butunligicha, keyin esa qismlarini alohida holda o‘qib, har bir qismga mos sarlavhani raqamlar yoniga belgilaydilar. Matn qismlari uchun sarlavhani to‘g‘ri tanlash, nafaqat matnning umumiy ma’nosini tushunganlikni, balki alohida matn bloklari ma’nosini ham anglab, undan xulosa chiqara olganini bildiradi. Misol tariqasida “Madina va madaniyat” nomli publitsistik uslubdagi matnuchun ishlangan topshiriqni keltiramiz.

Bu topshiriq orqali anglash va xulosalash ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘zda tutilib, uni bajarish algoritmi quyidagicha:



3-rasm. **Topshiriqni bajarish algoritmi**

Topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishda yuqorida tavsiya qilingan algoritmlardan foydalanish, unga amal qilish katta yordam beradi.

Ta’lim jarayonida matnni to‘g‘ri tanlash muhim bo‘lganidek, natijalarni to‘g‘ri baholash ham jiddiy masaladir. Shu sababli biz ona tili darslarida rivojlantirilishi maqsad qilingan ko‘nikmalarni quyidagi jadvalda berilgan mezonlar asosida baholashga harakat qildik: (1-jadvalga qarang)

1-jadval

T.r	Kognitiv jarayon	Baholash indikatori	Ball
1	Tushunish – 1	*so‘ralayotgan ma’lumotga oid qidiruvni amalga oshira olish*	1
	Tushunish – 2	*matnda mavjud bo‘lgan so‘z yoki iboraning ma’nosini tushunish*	1
2	Mulohaza yuritish – 1	*matnning muayyan qismi hamda matnning umumiy mazmuni uchun xulosalar chiqara olish*	1
	Mulohaza yuritish – 2	*matnning mazmuniy tuzilishini tushunish (mavzuni, asosiy fikrni aniqlash)*	2
3	Mulohaza yuritish – 3	*muallifning matndan ko‘zlagan maqsadini aniqlay olish*	3
4	Munosabat bildirish	*matnning turli qismlarida berilgan ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash yordamida xulosalar chiqarish*	2
5	Talqin qilish – 1	*nisbatan yashirin ifodalangan mazmunni tushuna olish*	2
	Talqin qilish – 2	*matn tarkibidagi ma’lumotlar orasidan isbot va dalillarni ajrata olish*	3
6	Xulosa chiqarish	*turli matnlardagi ma’lumotlarni integratsiya qilish yordamida xulosalar chiqarish*	3
7	Foydalana olish	*matnda mavjud axborotlar va real hayotda mavjud bo‘lgan axborotlar o‘rtasida aloqani aniqlagan holda muayyan amaliy vazifani oldindan mavjud bo‘lgan bilimlarni qo‘llagan holda bajara olish*	3

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tanlangan matnlar va ular yuzasidan tayyorlangan topshiriqlar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarni tayyorlashda ham shu ko‘rinishdagi topshiriqlardan foydalanishi mumkin. Ya’ni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining barcha darajalariga o‘quvchilarni alohida metodik tadbirlarni tashkillashtirish orqali erishishga harakat qilishi lozim.

O‘qib tushunish jarayoni o‘z ichiga tushunish (anglash)dan tashqari munosabat bildirish, mulohaza yuritish, ma’lumotlardan foydalanish, talqin qilish, ma’lumotlarning foydali yoki foydali emasligini, muallifning so‘z qo‘llash mahoratini baholash, xulosa qilish kabi yuqori bosqichlarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda darslar davomida shu kabi kognitiv topshiriqlardan foydalanish o‘qishdan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1.“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019-yildagi PF-5850-son.

2.Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 2005.

3.Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш. Пед.фан. номз. … дисс. – Бухоро, 1995.

4.Мавлонова К.М. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2019.

5.Asqarova M.A. Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish (PISA va PIRLS misolida). Ped. fan. d-ri … diss. – Chirchiq, 2024.

6.Abdiraimov Sh.S. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022.

7.Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний персепциясининг психолингвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2019.

8.Сорокоумова Е.А. Формирование познавательной активности младших школьников через понимание текста, канд. психол. наук, автореф., – Нижний Новгород, 1995.

9.Егоров Т.Г. Психология овладения навыком чтения. Издательство академия педагогических наук РСФСР, 1953.

10. Smuck, Melissa. Reading is thinking: Impoving reading comprehension using reading strategies, ProQuest Dissertations Publishing, 2009.

11. Bloom P. How children learn the meanings of words. Cambridge, MA: MIT Press, 2000.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARNING ANGLASH, TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GERMENEVTIK TA’LIMOTIDAN FOYDALANISH

Sidiqova Dilora Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun anglash va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta’limotning pedagogik va psixologik imkoniyatlari atroflicha yoritilgan. Maqolada germenevtik yondashuvning asosiy tamoyillari, ta’lim jarayonidagi amaliy qo‘llanilishi, dialog va matn bilan ishlash usullari orqali anglash jarayonining faol fazilatga aylanishi haqida ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: anglash, tinglash, germanevtik ta’limot, pedagogik tizim, metodik yondashuv, kompetensiya, muloqot, pedagogik yondashuv.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ И СЛУШАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ

Сидикова Дилора Шавкатовна,
Докторант Бухарского государственного университета

Аннотация: в данной статье подробно раскрыты педагогические и психологические возможности герменевтического обучения в развитии навыков понимания и понимания на слух у учащихся, обучающихся в сфере начального образования. В статье представлены научно обоснованные выводы об основных принципах герменевтического подхода, его практическом применении в образовательном процессе, трансформации процесса понимания в активное достоинство посредством диалога и методов работы с текстом.

Ключевые слова: понимание, слушание, германевтическое обучение, педагогическая система, методический подход, компетентность, общение, педагогический подход.

USE OF HERMENEUTIC TEACHING IN DEVELOPING COMPREHENSION AND LISTENING SKILLS OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Sidikova Dilora Shavkatovna,
Doctoral student of Bukhara State University

Abstract: in this article, the pedagogical and psychological possibilities of hermeneutic teaching in the development of comprehension and listening comprehension skills for students studying in the field of primary education are detailed. The article presents scientifically based conclusions about the main principles of the hermeneutic approach, its practical application in the educational process, and the transformation of the understanding process into an active virtue through dialogue and methods of working with the text.

Key words: understanding, listening, hermaneutic teaching, pedagogical system, methodical approach, competence, communication, pedagogical approach.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, anglash va tinglab tushunish ko‘nikmalarining shakllanishi shaxsning kognitiv funksiyalari — eslab qolish, analiz qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi jihatlar bilan chambarchas bog‘liq. Germenevtik yondashuv ushbu kognitiv jarayonlarni faollashtirib, talabaning mustaqil fikrlashiga rag‘bat beradi. Bundan tashqari, germenevtika orqali talaba matnni oddiygina eshitish yoki o‘qish emas, balki uni shaxsiy hayotiy tajribasi bilan uyg‘unlashtirishga, savollar berishga, talqin qilishga o‘rgatiladi. Bunday faoliyat esa uning pedagogik mahoratini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki,

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun germenevtik metodlar asosida tashkil etilgan tinglash va anglash mashg‘ulotlari ularning o‘z fikrini aniq ifoda qilish, muammoli savollarga mustaqil javob topish, ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirgan. Germenevtik yondashuvning yana bir muhim tomoni — u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni erkin, teng, tafakkuriy asosga qurilgan holatda yo‘lga qo‘yadi. Bu esa ta’lim jarayonining demokratiklashuviga olib keladi.

Germenevtik kompetensiyaning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi: avvalo, matnga yuzaki yondashuvdan chuqur anglash darajasiga o‘tiladi; so‘ngra talabalar o‘z fikrini matnga nisbatan asosli ravishda bildiradi; keyin esa ular matn asosida muammolarni ko‘ra oladigan va ularga o‘z nuqtai nazaridan yondashadigan shaxsga aylanadi. Bu bosqichlar psixologik jihatdan o‘ziga xoslikka ega: ular talabaning e’tibor, emotsional holat, motivatsiya va kommunikativ qobiliyatlari bilan bog‘liq. Germenevtik ta’limot bu bosqichlarni pedagogik tizimga uyg‘unlashtirib, talaba faoliyatini ongli va maqsadli tusga keltiradi. Shuni alohida qayd etish kerakki, germenevtik yondashuv, ayniqsa, bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi til, adabiyot, tarix, dinshunoslik kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarda keng qo‘llaniladi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun bu uslub ularning o‘z faoliyatida muloqotga, matnni tushunishga asoslangan metodik yondashuvlarni tanlashiga zamin yaratadi. Natijada ular kelajakda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotda ham xuddi shu yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutqini va madaniy tafakkurini rivojlantiradi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning anglash, tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik ta’limotdan foydalanish nafaqat pedagogik, balki psixologik, kommunikativ, madaniy, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan murakkab va zarur metodik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim jarayonini chuqurlashtirish, talabaning ongli ishtirokini ta’minlash, fikr yuritish darajasini oshirish orqali zamonaviy ta’limning talablari darajasida ta’lim sifati va natijadorligini ta’minlaydi.

Germenevtika inson tafakkuri, nutqi va tafsiri bilan bog‘liq qadimiy fanlardan biri bo‘lib, hozirgi zamon ta’lim jarayonida chuqur semantik va muloqotga asoslangan metod sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Ushbu fan dastlab diniy matnlarni, keyinchalik esa adabiy, madaniy va ijtimoiy matnlarni anglash, izohlash va talqin qilish zaruratidan kelib chiqqan. Zamonaviy Germenevtika esa bu doirani kengaytirib, bilim olish, tushunish va kommunikatsiyani to‘liq qamrab oluvchi yondashuvga aylangan. Shuningdek, germenevtik yondashuv o‘quvchining passiv qabul qiluvchilikdan faol talqin qiluvchi shaxsga aylanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday jarayonda o‘quvchi o‘z fikrini shakllantiradi, o‘rgangan bilimlariga o‘z pozitsiyasidan yondashadi. Bu esa tanqidiy fikrlash, refleksiya va tahliliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, germenevtik yondashuv o‘z tabiatiga ko‘ra, zamonaviy o‘qituvchidan chuqur fikr yurita olishni, talabani esa o‘qilgan yoki eshitilgan matnni faqat anglab qolmasdan, uni shaxsiylashtira olishni talab etadi.

Germenevtik ta’limot – bu faqat bir metod emas, balki shaxsiylashtirilgan, ongli va faol bilim olishga asoslangan butun bir ta’lim falsafasidir. U bosqichli, o‘zaro muloqotli, subyektiv va talqinga asoslangan anglashni nazarda tutadi. Bu yondashuvni puxta o‘zlashtirgan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari nafaqat bilimdon, balki o‘z fikrini asosli ravishda ayta oladigan, boshqalarni tinglay oladigan va ularga tushuntirishga qodir zamonaviy o‘qituvchiga aylanadilar. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning anglash va tinglab tushunish ko‘nikmalari – bu ularning kelajakda samarali o‘qituvchi bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalaridan biridir. Ushbu ko‘nikmalar, pedagogik faoliyatning zamonaviy modelida, nafaqat axborotni eshitib olish, balki uni semantik darajada tushunish, talqin qilish, xulosalash, kontekstual tarzda fikr yuritish, refleksiya qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Aynan mana shu nuqtai nazardan ularni shakllantirishda chuqur psixologik va pedagogik jarayonlarni hisobga olish muhim hisoblanadi. Tinglab tushunish deganda, faqatgina eshitilgan matnni eslab qolish emas, balki

uni kontekst doirasida anglash, mavjud bilimlar bilan bog‘lash, uni qayta ishlash va o‘z shaxsiy tajribasi orqali talqin qilish tushuniladi. Bu jarayon ko‘p bosqichli bo‘lib, e’tibor, qabul qilish, semantik tahlil, refleksiya va natijaviy mulohaza kabi psixik faoliyatlar orqali kechadi. Talabada bu ko‘nikmalarni shakllantirish esa doimiy muloqot, faol ishtirok, individual fikr va psixologik o‘zgarishlarga asoslanadi. Tinglab tushunishning rivojlanishi esa shunchaki e’tibor va eshitishdan iborat emas. Bu – faol eshitish, ya’ni eshitilgan axborotni tanqidiy qabul qilish, asosli savollar bera olish, eshitilgan fikrga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik faoliyatda aynan mana shu fazilatlar muhim o‘rin tutadi. Chunki o‘qituvchi darsda nafaqat gapiradi, balki tinglaydi ham. Talabalarda ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish, keyinchalik ularga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual ehtiyojlarini tushunish va to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat – bu til va nutq madaniyatidir. Tinglab tushunish til madaniyatini shakllantiradi. Matnlarni diqqat bilan tinglash, intonatsiyani ajratish, emotsional jihatni tushunish, gap mazmunini kontekstda idrok etish – bularning barchasi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Talaba kelajakda o‘quvchilar bilan muloqot qilayotganda ularga chin dildan quloq tuta olish, o‘z fikrini to‘g‘ri yetkazish, bolalar fikrlarini tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun bu fazilatlar o‘z vaqtida shakllantirilishi kerak. Shu bilan birga, zamonaviy psixologiyada anglash faoliyati insonning ongiyu ong osti jarayonlari bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Masalan, tanish matnlar tezroq va chuqurroq tushuniladi, begona matn esa ko‘proq e’tibor, kontseptual tafakkur va semantik aloqalarni aniqlashni talab qiladi. Shu boisdan, talabalarda “fikrlovchi tinglovchi” – ya’ni har bir eshitilgan axborot ustida tafakkur yurita oladigan pozitsiyani shakllantirish muhim bo‘ladi. Germenevtik yondashuv bu jarayonda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Talabaning anglash doirasini kengaytirish, o‘rganilgan ma’lumotlarni turli kontekstlarda tahlil qilish, har xil talqinlarni solishtirish va shaxsiy xulosalarga kelish – bu jarayonlar orqali chuqur tinglab tushunish va anglash kompetensiyalari shakllanadi.

Germenevtik kompetensiyaning shakllanishi esa quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshadi:

-Avvalgi tajribaga tayangan anglash – Talaba matnni yoki nutqni o‘z tajribasi asosida tushunadi, asosiy g‘oyalarni ilg‘aydi.

-Muloqot va kontekst orqali anglash – Matn kontekstda talqin qilinadi, suhbat yoki muhokama orqali yangi ma’no qatlamlari ochiladi.

-Interpretatsiya qilish – talaba matn yoki fikrni yangicha talqin qiladi, o‘z tushunchasini asoslaydi.

-Refleksiya bosqichi – Anglangan ma’no va mazmun talabaning shaxsiy qiyofasiga singdiriladi, u fikrlashining bir bo‘lagiga aylanadi.

Shu bosqichlar asosida shakllangan ko‘nikmalar, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun beqiyos ahamiyatga ega. Zero, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda har bir ifoda, har bir fikr, har bir savolga berilgan javob chuqur tahlilni talab qiladi. Bu esa germenevtik yondashuvning metodik jihatlarini puxta egallashni taqozo etadi. Bundan tashqari, hozirgi global axborot oqimi sharoitida matnlarni, fikrlarni to‘g‘ri anglash, noto‘g‘ri talqinlardan himoyalanish, yolg‘on axborotni tanib olish ko‘nikmalarini shakllantirish ham germenevtik yondashuvning muhim vazifalaridan biridir. Bu orqali talabalar informatsion xavfsizlik, media savodxonlik, axborot tanqidiyligini rivojlantiradilar. Germenevtik ta’limot zamonaviy pedagogikaning eng muhim, eng chuqur va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlaridan biridir. U bosqichli o‘rgatishdan ko‘ra, bosqichli anglashni, tayyor ma’lumotdan ko‘ra, individual talqinni, yod olishdan ko‘ra, mazmunli tushunishni ilgari suradi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun bu ta’limot ularga pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligini anglatadi. Germenevtik kompetensiyaga ega bo‘lgan talaba nafaqat bilim egasi, balki bilimni anglab, uni boshqalarga tushuntira oladigan, shaxsiylashtira oladigan ijodkor o‘qituvchiga aylanadi.

Talabalarning anglash va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun germenevtika

juda keng imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlar, avvalo, o‘rganilayotgan matn, mavzu yoki mavhum tushunchani talabaning o‘z hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi bilimlari bilan bog‘lash orqali amalga oshiriladi. Bunda anglash — bu bilim olish emas, balki bilishga yo‘l ochuvchi interpretatsion faoliyatdir. Germenevtik faoliyat esa talabaning ongini faollashtiradi, uni fikr yuritishga, mantiqiy mushohadaga, savol berishga va natija chiqarishga majbur etadi. Bu esa yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

Germenevtik ta’limotda o‘qituvchi — bilim beruvchi emas, balki bilim ochuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, u talaba uchun bilimni ochish, unga yo‘l ko‘rsatish, kontekstlar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish orqali anglashning faollashuviga xizmat qiladi. Aynan shu orqali tinglab tushunish ham passiv jarayon emas, balki faol va maqsadli faoliyatga aylanadi. Talaba matnni faqat eshitib yoki o‘qibgina qolmaydi, balki uni o‘z ma’naviy-madaniy doirasi ichida talqin qiladi. Germenevtik metodlar yordamida tashkil etilgan dars jarayonlarida talabalar turli qarama-qarshi fikrlarni eshitadi, ularni solishtiradi, har bir fikrning asoslanishini tushunishga harakat qiladi va eng muhimi — o‘z pozitsiyasini shakllantiradi. Bu jarayon esa ularning anglash ko‘nikmalarini sifat jihatidan o‘zgartiradi. Bunday darslar talabalarning mustaqil tafakkurini kuchaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi, faol tinglovchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda Germenevtik metodlarni qo‘llashda dialog asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yerda “savol – javob – tushuncha – talqin – xulosa” zanjiri asosida ma’lumotlar ichki anglash mezonlari orqali o‘zlashtiriladi. Masalan, matn ustida ishlash davomida talaba undagi mazmunni nafaqat tahlil qiladi, balki uni o‘z hayoti, dunyoqarashi va shaxsiy tajribasi bilan bog‘laydi. Shuning uchun ham, bu yondashuvda har bir talaba o‘zining individual anglash doirasini shakllantiradi. Shu orqali tinglab tushunish faqat semantik darajada emas, balki shaxsiy talqin darajasiga ko‘tariladi. Shu o‘rinda germenevtik ta’limot asosida ishlangan ba’zi metodlarni aytib o‘tish mumkin: “kontekstual savol-javob”, “semantik tahlil”, “qiyosiy anglash”, “mazmunli dialog”, “metafora asosida tushunish”, “shaxsiy talqin asosida nutq qurish” kabi metodlar talabaning mantiqiy, tafakkuriy va analitik ko‘nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar orqali talabalar matnga nisbatan chuqur yondashuvni egallaydilar, undagi g‘oyalarni eshitishdan tortib, tushunish, anglash va baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni bosib o‘tadilar.

Germenevtik yondashuvda har qanday bilim o‘zining asosiy shaklida emas, balki kontekstda talqin qilinadi. Shuning uchun ham, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda bu metodni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan qo‘llab, ular bilan matn asosida ishlashda, ularni anglashga o‘rgatishda, mustaqil fikrlashga undashda, shaxsiy fikrini asoslashda samarali foydalanishi mumkin bo‘ladi. Masalan, biror ertakni faqat mazmunini aytib berish emas, balki talabalarga “bu qahramon nimani anglatadi?”, “nima sababdan bu voqea ro‘y berdi?”, “agar siz shu holatda bo‘lsangiz nima qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollar orqali fikrlashga undash, ularning anglash doirasini kengaytiradi. Germenevtika nafaqat anglash va tinglab tushunishga, balki shaxsiy axloqiy-ruhiy tarbiyani ham shakllantiradi. Chunki bu yondashuvning negizida madaniy, estetik va ma’naviy qadriyatlarni idrok qilish yotadi. Talaba tinglagan har bir fikrga chuqur yondashish, unga axloqiy pozitsiyasidan baho berish, uni kontekstda talqin qilish orqali nafaqat bilim, balki madaniy ong, axloqiy nuqtai nazar, empatiya va o‘zaro hurmat ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Germenevtik ta’limot asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari talabaning tinglab tushunish va anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Germenevtik yondashuv orqali bilimga yo‘naltirilgan o‘qitishdan anglashga yo‘naltirilgan o‘qitish uslubiga o‘tiladi. Bu esa talabalarda fikrlash, tahlil qilish, talqin qilish, savol berish va shaxsiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi. Ular matnni yoki eshitilgan fikrni o‘z tajribalari, madaniy kontekst va ongiy darajasi bilan bog‘lab anglay boshlaydilar. Germenevtik ta’limot pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelining asosi hisoblanadi. Bu yondashuv asosida o‘quvchi – o‘z fikriga ega, mazmunli muloqotda ishtirok etuvchi, mustaqil qaror chiqaruvchi shaxs sifatida qaraladi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi

talabalar esa ayni metod orqali anglash jarayonini faollashtiradi, tinglab tushunish ko‘nikmalarini ongli, maqsadli va samarali faoliyatga aylantira oladi. Ushbu ko‘nikmalar esa ularning kelajakda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan samarali pedagogik muloqot qurishida, ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonlarini tashkil etishda, shuningdek, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Germenevtik ta’limotning boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun ahamiyati katta. U nafaqat bilim berish, balki shaxsning fikrlash madaniyatini, nutqiy tafakkurini, tahliliy va reflektiv yondashuvini rivojlantirish imkonini beradi. Shu boisdan, tinglab tushunish va anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan faol foydalanish, ta’lim jarayonini zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion asosda tashkil etishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini tushunish, ularga to‘g‘ri va mazmunli javob qaytarish, turli ijtimoiy-psixologik kontekstlarda samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Tinglab tushunish va anglash jarayoni psixologik va pedagogik asoslarga tayangan holda bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Ushbu jarayon e’tibor, eshitish, semantik idrok, talqin va refleksiya kabi murakkab psixik funksiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Gadamer X.-G. “Haqiqat va usul”. Germenevtika asoslari. – Moskva: Академический проект, 2018. – B. 133–140.

2.Shomirzayev M. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslari”. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – B. 33–38.

3.Xoshimova N. “Germenevtik yondashuvning lingvistik asoslari”. – Samarqand, 2021. – B. 91–96.

4.Bobojonova G. “Boshlang‘ich ta’lim psixologiyasi”. – Qarshi: Nasaf, 2023. – B. 45–52.

5.Krotkov D. “Germenevtik metodlar va ta’lim”. – Moskva, 2017. – B. 100–105.

6.To‘xtasinov A. “Talabaning anglash qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar”. – Farg‘ona, 2023. – B. 62–68.

7.Nazarov A., Karimova N. “Pedagogik texnologiyalar asoslari”. – Toshkent: NMIU, 2017. – B. 67–73.

8.Qurbonova D. “Ta’limda kommunikativ yondashuvning psixologik asoslari”. – Buxoro: FarDU, 2021. – B. 52–57.

KLINIK AMALIYOTDA TIBBIYOT TALABALARI BOSHQARUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING RAQAMLI PLATFORMALARI

Sobirov Qobuljon G‘ofirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola klinik amaliyot jarayonida tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashda raqamli platformalarning integratsion rolini tahlil qiladi. So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash ta’limida raqamli vositalar va simulyatsion tizimlarning ahamiyati keskin oshgan bo‘lib, ular nafaqat diagnostika va davolash ko‘nikmalarini, balki talabalar boshqaruv salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Tadqiqotda klinik amaliyotda interaktiv platformalar, virtual simulyatorlar va bulutli tibbiy resurslarning boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamli vositalarning talaba-tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi kommunikatsiya va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri ham o‘rganilgan. Natijalar tibbiyot ta’limi jarayonida innovatsion metodikalarni joriy etish orqali talabalar boshqaruv salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: Tibbiyot ta’limi, klinik amaliyot, boshqaruv ko‘nikmalari, raqamli platformalar, simulyatsion trening, virtual ta’lim, interaktiv metodlar.

КЛИНИЧЕСКАЯ ПРАКТИКА: РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

Собиров Кобулжон Гофиржон угли
Наманганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация: Данная статья анализирует интеграционную роль цифровых платформ в процессе клинической практики для формирования и укрепления управленческих навыков у студентов-медиков. В последние годы значение цифровых инструментов и симуляционных систем в медицинском образовании резко возросло, поскольку они расширяют возможности студентов не только в освоении навыков диагностики и лечения, но и в развитии их управленческого потенциала. В исследовании научно освещена эффективность интерактивных платформ, виртуальных симуляторов и облачных медицинских ресурсов в формировании управленческих навыков. Также рассматривается влияние цифровых инструментов на коммуникацию между студентами и медицинским персоналом, а также на процессы принятия решений. Полученные результаты показывают, что внедрение инновационных методик в процесс медицинского образования позволяет значительно повысить управленческий потенциал студентов.

Ключевые слова: медицинское образование, клиническая практика, управленческие навыки, цифровые платформы, симуляционные тренинги, виртуальное обучение, интерактивные методы.

CLINICAL PRACTICE: DEVELOPING MEDICAL STUDENTS’ MANAGERIAL SKILLS USING DIGITAL PLATFORMS

Sobirov Qobuljon G‘ofirjon o‘g‘li
Namangan State University, Independent Researcher

Abstract: This article analyzes the integrative role of digital platforms in clinical practice for the formation and strengthening of medical students’ managerial skills. In recent years, the significance of digital tools and simulation systems in medical education has sharply increased, as they expand students’ opportunities not only to master diagnostic and treatment skills but also to develop their managerial potential. The study scientifically highlights the effectiveness of

interactive platforms, virtual simulators, and cloud-based medical resources in shaping managerial skills. The article also examines the impact of digital tools on communication between students and healthcare staff, as well as on decision-making processes. The findings demonstrate that implementing innovative methodologies in medical education can significantly enhance students’ managerial potential.

Keywords: medical education, clinical practice, managerial skills, digital platforms, simulation training, virtual learning, interactive methods.

Kirish: Tibbiyot ta’limining asosiy maqsadlaridan biri nafaqat talabalarni kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash, balki ularning klinik jarayonlarda mustaqil qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish, jamoa ichida samarali hamkorlik qilish va murakkab vaziyatlarda strategik fikrlash kabi boshqaruv salohiyatini shakllantirishdir. An’anaviy tibbiyot ta’limi modelida ko‘proq nazariy bilim va cheklangan klinik amaliyot ko‘nikmalariga urg‘u berilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda global sog‘liqni saqlash tizimida yuzaga kelayotgan murakkab va dinamik muhit talabalarni faqat nazariy bilim bilan emas, balki interaktiv va boshqaruv ko‘nikmalariga boy tajriba bilan tayyorlashni taqozo etmoqda[1]. Klinik amaliyot jarayonida boshqaruv ko‘nikmalarining ahamiyati talabalarning nafaqat bemor bilan ishlash malakasi, balki klinik qaror qabul qilish jarayonida jamoa resurslarini samarali boshqarishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va natijalarni monitoring qilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, klinik muhitda vaqtni boshqarish, vazifalarni prioritetlashtirish, jamoaviy kommunikatsiya va liderlik ko‘nikmalari ham samarali tibbiyot amaliyotining ajralmas qismidir[2]. So‘nggi dekadalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tibbiyot ta’limida tub burilish yasadi. Virtual simulyatsiyalar, interaktiv modul va raqamli platformalar yordamida talabalar murakkab klinik vaziyatlarni xavfsiz muhitda boshqarish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu yondashuv, ayniqsa, bemor xavfsizligini ta’minlash, talabalarning stress darajasini kamaytirish va klinik xatoliklarni oldini olish borasida innovatsion yechim sifatida e’tirof etilgan[3]. Raqamli platformalar shuningdek, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi real vaqtda interaktiv fikr almashinuvi, qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish va individual progress monitoringini ta’minlaydi, bu esa boshqaruv ko‘nikmalarining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tibbiyot ta’limida boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat individual darajada, balki jamoa ichida ham muhim ahamiyatga ega. Klinika sharoitida samarali boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalar, o‘zaro koordinatsiya, mas’uliyatni taqsimlash, konfliktlarni hal qilish va resurslardan optimal foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi[4]. Bu jihatlar esa o‘quv jarayonini yanada interaktiv, realistik va samarali qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar talabalarning boshqaruv va liderlik salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, klinik amaliyot jarayonida boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish an’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, interaktiv va simulyatsion treninglar orqali amalga oshiriladi. Masalan, virtual kasbiy vaziyatlar, bemor-simulyatsiyalar va onlayn boshqaruv modullari talabalarga real klinik muhitdagi murakkab vaziyatlarni tajribadan o‘tkazish imkonini beradi, bu esa ularning qaror qabul qilish tezligini, muammolarni tahlil qilish qobiliyatini va jamoaviy ishlash malakasini oshiradi. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasidagi global islohotlar va pandemiya kabi kutilmagan vaziyatlar tibbiyot ta’limida raqamli vositalarning ahamiyatini yanada oshirdi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida klinik amaliyotlar cheklangan sharoitda virtual simulyatsiyalar va raqamli platformalar orqali davom ettirildi[5]. Bu holat raqamli metodlarning nafaqat bilim berish, balki boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishda ham samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishning raqamli platformalar yordamida amalga oshirilishi, ularning individual va jamoaviy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga imkon yaratadi. Talabalar virtual vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonida o‘z xatolarini tahlil qilishi, o‘qituvchilar bilan fikr almashishi va real klinik vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishi mumkin. Shu bilan birga, interaktiv va raqamli vositalar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy

yondashuvlarni rivojlantiradi. Umuman olganda, klinik amaliyotda boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish tibbiyot ta’limining zamonaviy va dolzarb yo‘nalishi sifatida qaraladi. Raqamli platformalar va simulyatsion tizimlar nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki talabalarning liderlik, muammolarni tahlil qilish, kommunikatsiya va strategik qaror qabul qilish kabi murakkab boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola klinik amaliyot jarayonida tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalarning metodologik, nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Adabiyotlar tahlili: Klinik amaliyotda tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalarning samaradorligi haqida olib borilgan tadqiqotlar, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yanada oshiradi. McGee va boshqalar o‘zlarining tizimli tahlilida raqamli vositalarning klinik ko‘nikmalarni o‘rgatishda samaradorligini ko‘rsatdilar[6]. Tadqiqotda, raqamli platformalar yordamida o‘rgatilgan klinik ko‘nikmalar, an’anaviy yuzma-yuz o‘qitish bilan solishtirganda, talabalar tomonidan yuqori baholangan va ularning akademik natijalari hamda qoniqish darajasi oshganligi aniqlangan. Shuningdek, raqamli o‘qitish metodlari, ayniqsa pandemiya davrida, ta’lim jarayonini davom ettirish va resurslarni tejashda muhim rol o‘ynagan[7]. Bundan tashqari, Hicke va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan MedSimAI platformasi, sun’iy intellekt asosida ishlovchi simulyatsiya tizimi bo‘lib, talabalarga interaktiv bemor uchrashuvlarini taqdim etadi. Ushbu platforma, talabalar tomonidan o‘z-o‘zini boshqarish va maqsadga yo‘naltirilgan o‘rganish (deliberate practice)ni qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, tezkor va strukturaviy fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari, MedSimAI platformasining talabalar tomonidan yuqori baholanganligini va ularning klinik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi[8]. Ushbu ikki tadqiqot, raqamli platformalarning tibbiyot ta’limida boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. McGee va boshqalar raqamli vositalarning samaradorligini va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni haqida so‘z yuritgan bo‘lsa, Hicke va boshqalar) esa sun’iy intellekt asosida ishlovchi platformalarning klinik ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganishgan. Ikkala tadqiqot ham, raqamli platformalarning tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada klinik amaliyot jarayonida tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalarning samaradorligini aniqlash uchun bir qator metodologik yondashuvlar birlashtirilgan. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida eksperimental metod, simulyatsion treninglar va interaktiv baholash tizimi qo‘llanilgan. Eksperimental metod yordamida talabalarning boshqaruv ko‘nikmalari raqamli platformalarda amalga oshirilgan klinik vaziyatlar orqali o‘rganilgan va ularning boshqaruv salohiyati kuzatilgan. Shu bilan birga, simulyatsion treninglar, virtual bemor vaziyatlari va real klinik muhitni imitatsiya qiluvchi platformalar yordamida talabalarning qaror qabul qilish tezligi, jamoaviy koordinatsiyasi va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati baholangan. Interaktiv baholash tizimi esa, talabalarning raqamli platforma orqali amalga oshirilgan faoliyatini real vaqtda monitoring qilish, individual va guruh natijalarini tahlil qilish, shuningdek, o‘qituvchilarning baholash mulohazalari bilan sinxronlashtirish imkonini berdi. Ushbu metodlar kombinatsiyasi tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini sistematik, kompleks va ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalarda amalga oshirilgan simulyatsion mashg‘ulotlar, eksperiment va interaktiv baholash birgalikda talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratadi. Shunday qilib, metodologik yondashuv talabalarning klinik boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish uchun yetarli va integratsiyalashgan vosita sifatida xizmat qilgan.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, klinik amaliyotda raqamli platformalardan foydalanish tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Eksperimental va simulyatsion treninglar asosida olib borilgan kuzatuvlar

shuni ko‘rsatdiki, talabalarning qaror qabul qilish tezligi, jamoaviy koordinatsiya, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va resurslarni samarali boshqarish qobiliyati raqamli platformalarda o‘tkazilgan mashg‘ulotlardan keyin yuqori darajada oshgan. Shuningdek, interaktiv baholash tizimi yordamida olingan ma’lumotlar, talabalarning individual va guruh faoliyatidagi progressni aniq ko‘rsatdi va boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanish tendensiyasini ilmiy asosda tasdiqladi. Natijalardan kelib chiqib, raqamli vositalar yordamida talabalarga taqdim etilgan murakkab klinik vaziyatlar, ularning strategik fikrlash, liderlik va kommunikatsiya ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali ekanligi aniqlanadi. Shu bilan birga, tahlillar raqamli platformalarning talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘z-o‘zini baholash va o‘qituvchi bilan real vaqtda fikr almashish imkoniyatlarini kengaytirish orqali boshqaruv salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Natijalar umumlashtirilganda, klinik amaliyotda raqamli platformalarni joriy etish talabalarning boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda nafaqat samarali, balki zamonaviy ta’lim talablariga mos keladigan strategik vosita ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Muxokama: Klinik amaliyotda tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalarning samaradorligi masalasi hozirgi kunda chet el olimlari orasida faol ilmiy munozaralarni yuzaga keltirmoqda. McGee va boshqalar o‘z tadqiqotlarida raqamli platformalarni samarali vosita sifatida ko‘rsatib, ularning klinik qaror qabul qilish, jamoaviy koordinatsiya va strategik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, interaktiv simulyatsion tizimlar va virtual bemor modullari, talabalar uchun xavfsiz va boshqaruv jarayonlarini takrorlash imkonini beruvchi muhit yaratadi, bu esa boshqaruv salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Boshqa tomondan, Hicke va boshqalar ushbu yondashuvni ba’zi chegaralari bilan tanqid qiladilar. Ular raqamli platformalarning texnologik asoslari kuchli bo‘lishiga qaramay, real klinik muhitdagi murakkab inson omilini to‘liq aks ettira olmasligini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, Hicke va boshqalar, platformalarning talabalar orasida individual farqlanishni yetarlicha hisobga olmasligi, real vaqtli stress va kutilmagan vaziyatlarda boshqaruv qarorlarini test qilmasligini ko‘rsatadilar[9]. Ularning fikricha, raqamli vositalar boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordamchi sifatida samarali bo‘lishi mumkin, ammo ularni an’anaviy klinik amaliyot va mentorlik tizimi bilan birlashtirish zarur. McGee va boshqalar esa bu tanqidga javoban, texnologik platformalar bilan individual va guruh o‘quv strategiyalarini integratsiyalash orqali real klinik tajribaning samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar[10]. Ular interaktiv simulyatsiyalar va virtual bemor modullarining real klinik sharoitlarni aks ettirishda yetarlicha moslashuvchan ekanini, shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan boshqariladigan feedback mexanizmlari orqali talabalarning boshqaruv salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsatadilar. Ushbu polemikada ikkala olimning fikrlari bir nuqtada kesishadi: raqamli platformalar mustahkam ilmiy metodologik asos bilan qo‘llanilganda, ular talabalarning klinik boshqaruv ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, platformalarni an’anaviy amaliyot va mentorlik tizimi bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning real klinik muhitga tayyorgarligini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, klinik amaliyotda tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida raqamli platformalar zamonaviy va samarali vosita hisoblanadi. Eksperimental tadqiqotlar, simulyatsion mashg‘ulotlar va interaktiv baholash tizimlari yordamida olingan ma’lumotlar, raqamli platformalarning talabalar qaror qabul qilish tezligi, jamoaviy koordinatsiya, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va resurslarni samarali boshqarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, tahlillar raqamli platformalarning individual va guruh o‘quv strategiyalarini qo‘llab-quvvatlash, motivatsiyani oshirish, o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini kengaytirish va o‘qituvchi bilan real vaqtda interaktiv fikr almashish orqali boshqaruv salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Chet ellik olimlar McGee va Hicke boshchiligidagi tadqiqotlar, raqamli platformalarning nafaqat klinik ko‘nikmalarni, balki boshqaruv va strategik fikrlash kompetensiyalarini

shakllantirishda ham samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bundan tashqari, raqamli platformalar tibbiyot ta’limida pandemiya va boshqa kutilmagan vaziyatlarda o‘quv jarayonini davom ettirish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, talabalarning real klinik muhitga tayyorgarligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalarni an’anaviy klinik amaliyot va mentorlik tizimi bilan integratsiyalash, talabalarning boshqaruv ko‘nikmalarini maksimal darajada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, klinik amaliyotda tibbiyot talabalari boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli platformalar innovatsion va strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Ular nafaqat amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki talabalarning liderlik, kommunikatsiya, qaror qabul qilish va strategik tahlil qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalarni tibbiyot ta’limida keng joriy etish, talabalarni zamonaviy klinik muhitga tayyorlash va boshqaruv salohiyatini oshirish uchun ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan muhim strategiya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Ashurova D., Djurakulova A. Tibbiyot ta’lim yo‘nalishi talabalarining malakaviy amaliyot davrida qiladigan vazifalar //Journal of universal science research. – 2025. – T. 3. – №. 5. – C. 43-46.

2.Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta’limda yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.

3.Olimova A., Djurakulova A. Tibbiyot oliy o’quv yurti talabalar uchun tanishuv amaliyotining o’rni va uni tabiiy fanlar bilan aloqasi //Journal of universal science research. – 2025. – T. 3. – №. 5. – C. 633-634.

4.Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.

5.Ergashev A. Tibbiyot yo ‘nalishi talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda qo ‘llaniladigan masofaviy ta’lim texnologiyalari //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 76-78.

6.Diloram M., Shohbozbek E. O’zbekistonda yoshlarning ma’naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.

7.Roziqulova A. T. Oliy ta’lim jarayonida talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning dinamikasi va samaradorlik mezonlari //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g ‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 70-74.

8.Ергашбаев Ш. O’zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 314-316.

9.O‘rmonov N. T., Ismailov A. R. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot //O ‘quv qo ‘llanma.–T.: Iqtisodmoliya. – 2019. – T. 254.

10.Muruvvat A., Shohbozbek E. O’zbekistonda ma’naviy va ahvoqiy qadryatlarda maktabgacha ta’limning ro’lI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 246-253.

BOLALARNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK TARTIBI

Sarsenbayeva Rayhon Maxanbetovna
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik tartibi, ayniqsa mehribonlik uylari, maktab-internatlar va oilaviy bolalar uylaridagi tarbiya jarayonlari hamda ularning samaradorligini oshirish yo‘llariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda bolalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va mustaqil hayotga tayyorlanishida ijtimoiy pedagoglarning roli tahli qilingan. Mazkur muassasalarda qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik usullar, xorijiy tajribalar hamda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z boradi. Maqolada, shuningdek, tizimdagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-pedagogik tartib, mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uyi, maktab-internat, ijtimoiylashuv, bolalar himoyasi, ijtimoiy pedagog, psixologik barqarorlik, innovatsion usullar.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ

Сарсенбаева Райхон Маханбетовна
Институт ISFT, доцент кафедры «Психология и педагогика», кандидат педагогических наук

Аннотация: Данная статья посвящена социально-педагогическому порядку воспитания детей, в частности, процессам воспитания в детских домах, школах-интернатах и семейных детских домах, а также путям повышения их эффективности. В исследовании анализируется роль социальных педагогов в социальной адаптации детей, их психологической стабильности и подготовке к самостоятельной жизни. Рассматриваются инновационные педагогические методы, применяемые в этих учреждениях, зарубежный опыт и реформы, осуществляемые в Узбекистане. В статье также представлены практические предложения по решению проблем в системе.

Ключевые слова: социально-педагогический порядок, детские дома, семейный детский дом, школа-интернат, социализация, защита детей, социальный педагог, психологическая стабильность, инновационные методы.

SOCIAL-PEDAGOGICAL PROCEDURE OF CHILDREN’S UPBRINGING

Sarsenbayeva Rayhon Makhanbetovna
PhD, Associate Professor of the Department of «Psychology and Pedagogy», ISFT Institute

Abstract: This article is dedicated to the socio-pedagogical system of child upbringing, specifically focusing on the educational processes in orphanages, boarding schools, and family-style children’s homes, as well as ways to enhance their effectiveness. The study analyzes the role of social educators in children’s social adaptation, psychological stability, and preparation for independent life. Innovative pedagogical methods used in these institutions, foreign experiences, and reforms being implemented in Uzbekistan are discussed. The article also provides practical suggestions for addressing systemic challenges.

Keywords: socio-pedagogical system, orphanages, family-style children’s home, boarding school, socialization, child protection, social educator, psychological stability, innovative methods.

Ijtimoiy pedagogika fani zamonaviy jamiyatda bolalar tarbiyasida tenglik va imkoniyat yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Ayniqsa, mehribonlik uylari va maktab-internatlarda ijtimoiy pedagogik faoliyat bolalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va hayotga tayyorlanishida muhim o‘rin egallaydi. Bu maskanlarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy pedagoglar

— bolalar uchun nafaqat tarbiyachi, balki himoyachi, maslahatgo‘y va do‘stdir.

Mehribonlik uylari — ota-onasiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan tashkil etilgan doimiy yashash va tarbiya muassasalaridir. Maktab-internatlar esa nogironligi bo‘lgan, yetim yoki kam ta’minlangan oilalardagi bolalar uchun mo‘ljallangan o‘quv-tarbiya muassasalari hisoblanadi.

Bu muassasalar oldida turgan asosiy vazifalar:

▪bolalarni huquqiy, axloqiy va jismoniy jihatdan himoya qilish;

▪ularni ijtimoiylashtirish;

▪hayotga tayyorlash;

▪sog‘lom psixologik muhitni yaratish.

Ijtimoiy pedagog:

- bolaning emotsional holatini kuzatadi;
- o‘quvchilarning oilaviy va psixologik muammolarini aniqlaydi;
- shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqadi;
- pedagogik maslahatlar beradi;
- boshqa pedagoglar, shifokorlar va psixologlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Germaniyada har bir maktabda ijtimoiy pedagog lavozimi mavjud bo‘lib, u bola holatini monitoring qilib boradi [1]. Shuningdek, Finlandiya va Janubiy Koreyada ijtimoiy pedagoglar maktab-poliklinik tizimiga ulangan va oilalar bilan doimiy aloqada bo‘lib turadi [2].

Ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo‘llaniladigan asosiy metodlar:

1.Individuallashtirilgan yondashuv — har bir bolaning ehtiyojiga qarab ishlash;

2.Loyihaviy faoliyat — bolalarni jamiyatga integratsiya qilish;

3.Guruhiy ishlash — muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;

4.O‘yin texnologiyalari — stressni kamaytirish va o‘zini ifoda etish imkonini berish.

Masalan, Toshkentdagi 22-son mehribonlik uyida «Hayotga tayyorman!» loyihasi orqali 16–17 yoshdagi qizlar amaliy hayotga tayyorlovchi darslar olmoqda — pul tejash, mustaqil yashash, ovqat pishirish, ish topish bo‘yicha [3].

Ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya jarayonlari. Mehribonlik uyi yoki internatdan chiqqan bola jamiyatga to‘liq moslashishi uchun quyidagilar muhim:

- professionallar tomonidan kuzatuv,
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari,
- mehnatga yo‘naltirish,
- ijtimoiy ijtimoiylashtiruvchi dasturlar [4].

Yevropada, ayniqsa Shvetsiyada, ijtimoiy pedagoglar bola muassasani tark etgandan so‘ng ham uni 18 yoshgacha kuzatib boradi.

5. Muammolar va takliflar

Muammolar:

- kadrlar yetishmasligi;
- emotsional sovuqlik;
- byurokratik yondashuv;
- bola shaxsiga loqayd munosabat [5].

Takliflar:

- ijtimoiy pedagoglar malakasini oshirish;
- raqamli reabilitatsiya dasturlarini joriy etish;
- psixologik yordam markazlari sonini ko‘paytirish;
- «post-internat» monitoring tizimini joriy qilish.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlarda olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat. Ijtimoiy pedagogika zamonaviy jamiyatda tenglik, adolat va mehr-oqibat tamoyillarini hayotga tatbiq etuvchi muhim yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, mehribonlik uylari va maktab-internatlar singari muassasalarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy tengsizlikni bartaraf

etish, bolalarning taqdiriga ijobiy ta’sir o‘tkazish va ularni to‘laqonli shaxs sifatida voyaga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu dargohlar nafaqat boshpanasiz qolgan yoki ota-onasining mehridan mosuvo bo‘lgan bolalar uchun makon, balki hayotiy tajriba, ruhiy barqarorlik va jamiyatda o‘z o‘rnini topish yo‘lida muhim bosqichdir.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlar tizimi. Mehribonlik uylari O‘zbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik to‘g‘risida»gi qonuni asosida faoliyat yuritib, ota-onasiz qolgan yoki vasiylikka muhtoj bo‘lgan bolalar uchun davlat tomonidan kafolatlangan tarbiya va ta’lim maskanidir. Maktab-internatlar esa odatda yetim, yarim yetim yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda ular maktab dasturi asosida o‘qitiladi, yashaydi, tarbiyalanadi va psixologik yordam oladi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda bu tizimga oid islohotlar amalga oshirilmoqda: individual yondashuv asosidagi reabilitatsiya markazlari ochilmoqda, bolalarni oilaviy tipdagi uy-jamoalarga joylashtirish orqali «insoniy muhit»ga yaqinlashtirishga harakat qilinmoqda.

Ijtimoiy pedagogning vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari. Ijtimoiy pedagog — bu shunchaki bolani kuzatuvchi emas, balki u bilan birga yashaydigan, uning dardini his qiladigan, hayotiy muammolarini hal qilishda ko‘maklashadigan murabbiydir. Uning faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-bolaning psixologik portretini tuzish;
-davlat va nodavlat tashkilotlari bilan aloqada bo‘lish;
-huquqiy yordam ko‘rsatish;
-stressni yengishga yordam berish;
-ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish.

Masalan, Toshkent viloyatidagi 4-sonli maktab-internatda ijtimoiy pedagog tomonidan amalga oshirilgan «Men yolg‘iz emasman!» loyihasi orqali 30 nafardan ortiq bola psixologik yordam va madaniy-mashg‘ulotlar orqali o‘zini anglash va qadrlashga o‘rgatilgan [6].

Quyida mavzuga oid xorijiy tajribalar xususida fikr-mulohazalar bildiriladi. Yevropaning aksariyat davlatlarida ijtimoiy pedagoglar bolani 18 yoshdan keyin ham kuzatishda davom etadi. Shvetsiyada «social follow-up» tizimi mavjud bo‘lib, bola muassasani tark etganidan so‘ng ijtimoiy ishchi unga doimiy ravishda yordam beradi. Germaniyada esa har bir maktabda «sozialpädagoge» lavozimi bo‘lib, u bolalarning oilaviy sharoiti, ruhiy holati, darsdagi ishtirokini kuzatib boradi [7].

Finlyandiya va Janubiy Koreyada esa, ijtimoiy pedagoglar ta’lim muassasalari bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash markazlari orqali bola ruhiy bosim ostida qolmasligini ta’minlashga harakat qiladi [2].

Mavzuga oid quyidagi amaliy tavsiyalarimizni berishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy pedagogik kadrlar tayyorlashni kuchaytirish.
2. Har bir mehribonlik uyida ijtimoiy reabilitatsiya bo‘limini tashkil etish.
3. Bolalar uchun mustaqil hayotga o‘tish kurslarini joriy etish.
4. Ijtimoiy sheriklik asosida nodavlat tashkilotlarini jalb qilish.
5. Psixologik yordam markazlari bilan mustahkam hamkorlik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mehribonlik uyi va maktab-internatlar faqatgina bolalarga boshpana emas, balki yangi hayotga eshik ochadigan zamin bo‘lishi lozim. Ijtimoiy pedagog esa bu eshikning kalitidir. Uning bilimdonligi, mehribonligi, fidoyiligi natijasida jamiyatda unutilgan yoki e’tiborsiz qolgan bolalarning taqdiri ijobiy tomonga o‘zgarishi mumkin. Mazkur faoliyatni rivojlantirish — kelajakka qilingan eng katta sarmoyadir.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlardagi ijtimoiy pedagogik faoliyat bu, faqat kasbiy majburiyat emas, balki insoniy missiyadir. Har bir bola kelajagimizning bir bo‘lagi hisoblanadi. Ularning to‘laqonli, sog‘lom, baxtli ulg‘ayishini ta’minlash esa, bizning burchimizdir. Ijtimoiy pedagog esa bu yo‘lda yetakchi hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uylari – bu davlat tomonidan tashkil etilgan, ammo oilaviy asosda faoliyat

yuritadigan muassasalar bo‘lib, unda yetim yoki ota-onasi qarovidan mahrum bo‘lgan bolalar ijtimoiy himoya ostida tarbiyalanadi. Bunday muassasalarda tarbiyalovchilar rolini asosan voyaga yetgan shaxslar – “ota-ona” funksiyasini bajaruvchi pedagoglar bajaradi. Bu tizimda asosiy e’tibor bola shaxsini to‘laqonli rivojlantirish, mehr-oqibat muhiti yaratish va ijtimoiylashuviga ko‘maklashishdir.

Shuningdek, oilaviy bolalar uyi bu, mehribonlik uyi yoki maktab-internatlarga muqobil bo‘lgan, yaqin oilaviy muhitda tarbiya berishni maqsad qilgan muassasa. Unda yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar kichik guruhlar (oilaviy model) asosida tarbiyalanadi. Ushbu muassasalarda ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarning o‘ziga xosligi mavjud bo‘lib, bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va psixologik moslashuvi asosiy maqsad hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uylari bu, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va kichik guruhli model asosida ishlaydigan, ijtimoiy yetim bolalar uchun tashkil etilgan muassasalar. Ularda bola asosiy ijtimoiy hayot ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi, mehr-muhabbatli muhitda yashaydi. Bu model ota-onalikka o‘xshash, lekin pedagogik jihatdan nazorat qilinadigan tizimdir.

Oilaviy bolalar uylarining asosiy vazifasi – bolani tabarruk muhitda, ya’ni oila muhiti singari sharoitda tarbiyalashdir. Bu yerda har bir bola alohida shaxs sifatida qadrlanadi, ularning huquqlari ta’minlanadi va ijtimoiy hayotga tayyorlanadi.

Asosiy vazifalar:

- mehr va g‘amxo‘rlik muhiti yaratish;
- har bir bolaning psixologik holatini kuzatib borish;
- ijtimoiy-pedagogik dasturlar orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish;
- mustaqil hayotga tayyorlash.

Ijtimoiy-pedagogik tartibning tarkibiy qismlari

Oilaviy bolalar uylarida tarbiyaviy jarayonlar maxsus rejalashtirilgan va ijtimoiy-pedagogik tartibga asoslangan bo‘ladi. Bunda quyidagi yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi:

1.Tarbiyaviy muhit: oilaviy yaqinlik, ishonch, mehr-oqibat, adolat va intizom asosida quriladi.

2.Kundalik rejim: ovqatlanish, o‘yin, dars tayyorlash, uy yumushlarida ishtirok – barchasi bolaning mustaqillik darajasini oshirishga yo‘naltiriladi.

3.Ijtimoiy integratsiya: mahalla, maktab, to‘garaklar bilan bog‘liq ishlarda faol ishtirok qilish, jamiyatga moslashuv.

4.Pedagogik nazorat: bolaning holati, xatti-harakati, psixologik rivojlanishi bo‘yicha tizimli monitoring olib boriladi.

Ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar

Oilaviy bolalar uyida quyidagi ijtimoiy-pedagogik tartiblar amal qiladi:

1.Individuallashtirilgan yondashuv — har bir bolaning yoshi, ehtiyoji, psixologik holatiga mos tarbiya uslubi tanlanadi;

2.Ijtimoiylashtirish — bolaning jamiyatga moslashuvi, o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatilishi;

3.Ruhiy qo‘llab-quvvatlash — psixologik barqarorlikni ta’minlash uchun mutaxassislar bilan ishlash.

Tarbiyalash uchun zaruriy shart-sharoitlar

Tarbiyaviy samaradorlikni ta’minlashda moddiy-texnik bazaning mukammalligi va psixologik-ijtimoiy muhitning sog‘lomligi hal qiluvchi ahamиятga ega.

Zaruriy shart-sharoitlar:

- •quvnoq, xavfsiz va toza yashash joylari;
- •yotoqxona, oshxona, dars tayyorlash xonalari;
- •kitoblar, didaktik o‘yinlar, sport anjomlari;
- •psixolog, ijtimoiy pedagog, sog‘liqni saqlash mutaxassislari bilan hamkorlik;
- •bolaning qobiliyatlariga qarab individual yondashuv.

Tarbiyachilar faoliyatining o‘ziga xosligi. Oilaviy bolalar uyidagi tarbiyachilar (yoki “ota-onalar”) nafaqat pedagogik vazifani, balki ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish rolini ham bajaradi. Ular bolalarga nafaqat bilim, balki ishonch, mehr va hayotga bo‘lgan ijobiy munosabatni ham berishga intiladilar.

Tarbiyaviy sharoitlar

Oilaviy bolalar uyida quyidagi sharoitlar yaratiladi:

- Oila ko‘rinishidagi yashash modeli;
- Doimiy pedagog-nazoratchilar;
- Ijtimoiy va huquqiy himoya;
- O‘quv va ko‘ngilochar dasturlar;
- Bolaning o‘zini erkin his qilishiga imkoniyat beruvchi atmosfera.

Masalan, Toshkent shahridagi 3-oilaviy bolalar uyida har bir guruhda 6–8 nafar bola yashaydi. Har bir guruhga pedagog-ona biriktirilgan. Har haftalik psixologik monitoring orqali bolalarning emotsional holati nazorat qilinadi.

1-misol: Toshkent shahridagi bir oilaviy bolalar uyida 7 nafar bola yashaydi. Ularga ikki nafar «ona» sifatida ishlovchi pedagog tarbiya bermoqda. Har bir bola o‘zining dars tayyorlash, ovqat pishirish yoki tozalikka oid kichik mas’uliyatlarga ega. Bu bolalarda mustaqillik, mehnatsevarlik va jamoaga moslashish ko‘nikmalari shakllanmoqda.

2-misol: Farg‘onadagi oilaviy bolalar uyida o‘tkazilgan “Mehr haftaligi” tadbirida har bir bola o‘z iste’dodini ko‘rsatdi, bu orqali ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortdi va ijtimoiy faollik rivojlandi.

Bola shaxsini rivojlantirishda oilaviy muhitning o‘rni. Oilaviy bolalar uyida bola o‘zini jamiyatning muhim a’zosi deb his qilishi muhim. Chunki, ana shunday sharoitda tarbiyalanuvchi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqil fikrlashi va o‘zini anglash darajasi ortadi. Oila modelidagi muhit bolaning shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi:

1.Emotsional barqarorlik: Bola o‘zini himoyalangan va qadrlangan his qiladi.

2.Ijtimoiy ko‘nikmalar: Bola muloqot qilishni, o‘z fikrini bildirishni, hamkorlikda ishlashni o‘rganadi.

3.Mas’uliyat hissi: Uy vazifalari, vaqtni rejalashtirish, o‘z ehtiyojini boshqarish ko‘nikmalari ortadi.

Tarbiya oilaviy modelga yaqinlashgani сари bolaning ijtimoiy rolga kirib borishi osonlashadi. Bu esa kelajakda uni sog‘lom jamiyat a’zosi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Oilaviy bolalar uyida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. Har qanday ijtimoiy tizimda bo‘lgani kabi oilaviy bolalar uylari ham muayyan muammolarga duch keladi:

Asosiy muammolar:

- tarbiyachilarning yetarli malakaga ega emasligi;
- psixologik xizmatlarning yetarli emasligi;
- moliyaviy ta’minotdagi uzilishlar;
- ba’zi bolalarda oilaviy mehr yetishmasligidan kelib chiqadigan psixologik travmalar.

Hal qilish yo‘llari:

- tarbiyachilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- har bir uyda professional psixolog va ijtimoiy pedagog bo‘lishini ta’minlash;
- davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- bolalarni turli to‘garak va ijtimoiy tadbirlarga jalb qilish orqali ijtimoiylashuv jarayonini faollashtirish.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oilaviy bolalar uyida bola nafaqat yashaydi, balki to‘laqonli rivojlanadi. Bu tizim oddiy “yashash joyi” emas, balki ijtimoiy-pedagogik laboratoriya desak ham bo‘ladi. Bu yerda bolalarning ehtiyojlari, hissiyotlari, muammolari har tomonlama hisobga olinadi. Shuning uchun ham davlat va jamiyat bu tizimni yanada rivojlantirish, tarbiyachilarni qo‘llab-quvvatlash, bolalarning haqiqiy oila muhiti va sevgisini his qilishi uchun

barcha shart-sharoitlarni yaratishga harakat qilishi lozim.

Oilaviy bolalar uyida tarbiyalangan bolalar – bu mamlakatning ertasi. Ularga munosib muhit yaratish – bu faqat ijtimoiy vazifa emas, balki insoniy burch hamdir.

Oilaviy bolalar uylarida olib borilayotgan ijtimoiy-pedagogik ishlar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning to‘laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tizim ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga va sog‘lom, faol shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Go‘daklar uyi — bu ota-onasiz qolgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan go‘daklar uchun yaratilgan muassasa bo‘lib, u yerda bolaning hayoti, rivojlanishi va tarbiyasi bilan bog‘liq barcha jarayonlar tizimli ravishda olib boriladi. Bolani ilk yoshidan boshlab sog‘lom, barkamol, axloqan yetuk inson qilib tarbiyalash – ijtimoiy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, go‘daklar uyidagi tarbiya yo‘llarining puxta tashkil etilishi jamiyatning kelajagi uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Go‘daklar uyi ijtimoiy xizmatlar tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu muassasalarning asosiy vazifasi – chaqaloqlar va 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning sog‘lig‘i, psixik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda emotsional-ruhiy ehtiyojlarini qondirishdir.

Tarbiyaviy faoliyat quyidagilarga qaratiladi:

- bolaning individual rivojlanishini ta’minlash;
- mehr va g‘amxo‘rlikka asoslangan psixologik muhit yaratish;
- tibbiy, psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish;
- keyingi ijtimoiylashtirish jarayoniga tayyorlash.[8]

Tarbiyaviy ishlarning shakllari va metodlari

Go‘daklar uylarida qo‘llaniladigan tarbiya metodlari bola yoshiga va ehtiyojiga qarab farqlanadi. Quyidagi shakllar eng ko‘p qo‘llaniladi:

1.Sensor tarbiya: tovushlar, ranglar, harakatlar orqali bolaga dunyoni anglashni o‘rgatish;

2.Affektiv rivojlanish: mehr, teginish, kontakt orqali ishonchli aloqalarni shakllantirish;

3.Nutqiy rivojlantirish: oddiy so‘zlar, tovushli o‘yinlar orqali ilk muloqotni o‘rgatish;

4.Ijtimoiy ko‘nikmalar: jamoaviy o‘yinlar orqali ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirish.

Har bir bola bilan individual yondashuv asosida ishlanadi. Pedagoglar bolalarning hissiy va aqliy rivojini diqqat bilan kuzatib boradi.

Go‘daklar uylarida qo‘llaniladigan tarbiya metodlari bola yoshiga va ehtiyojiga qarab farqlanadi. Sensor tarbiya, affektiv rivojlanish, nutqiy rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalar asosiy shakllaridir. Har bir bola bilan individual yondashuv asosida ishlanadi. Shu bilan birga, musiqa terapiyasi, rangli kartochkalar, ritmik harakatlar orqali bolalarning sezgi, eshitish va muvozanat funksiyalari faollashtirilad [9]. Pedagoglar bolalarning hissiy va aqliy rivojini diqqat bilan kuzatib boradi.

Ijtimoiy pedagoglarning vazifasi faqat tarbiyaviy jarayon bilan cheklanmaydi. Ular bola ruhiyati, ijtimoiy moslashuvi va keyingi taqdirini ko‘zda tutgan holda quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

- bolaning oilaviy tarbiyasiga qaytish imkoniyatlarini aniqlash;
- vasiylik (opeka) masalalari bo‘yicha huquqiy maslahatlar;
- adoptatsiyaga tayyorlov ishlari;
- homiylik va jamiyat bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish.

Bu faoliyatlar bolaning ijtimoiy reintegratsiyasiga zamin yaratadi.

Shuningdek, ular ota-onalar bilan muloqot o‘rnatish, vasiylik, patronat va farzandlikka olish bo‘yicha huquqiy yordam berish, bolaning jamiyatga to‘liq qo‘shilishi uchun zarur resurslarni safarbar etad [10]. Har bir holat individual tahlil qilinib, pedagogik psixologik xarita ishlab chiqiladi.

Go‘daklar uyidagi shart-sharoitlar bolaning jismoniy va psixik rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Sifatli tarbiya uchun gigiyenik va tibbiy xavfsizlikka rioya etilgan muhit,

emotsional iliqlik, xavfsizlik muhiti zarur. Shuningdek, bolaning shaxsiy maydoniga hurmat, kundalik tartib, doimiy pedagogik kuzatuv va psixologik monitoring tizimi joriy qilinishi lozim. Amaliyotda, bu muassasalarda psixologlar tomonidan har oyda ruhiy holatni aniqlash testlari o‘tkaziladi [11].

Sifatli tarbiya uchun quyidagilar zarur:

- gigiyenik va tibbiy xavfsizlikka to‘liq rioya etilgan muhit;
- doimiy pedagogik va psixologik kuzatuv;
- emotsional iliqlik, mehribonlik va xavfsizlik muhiti;
- har bir bolaning rivojlanish darajasiga moslashtirilgan individual dasturlar.

Psixologlar fikricha, 0–3 yosh oralig‘idagi tajriba bola shaxsi shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Quyida amaliy misol keltirildi, Toshkent shahridagi “Mehrgiyo” go‘daklar uyida har bir bolaning hissiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. U yerda pedagoglar har bir go‘dak bilan kuniga kamida 30 daqiqa yakka tartibda shug‘ullanadi. Shuningdek, bolalar bilan musiqali mashg‘ulotlar, hayvonlar bilan aloqada bo‘lish (pet-terapiya) kabi innovatsion yondashuvlar ham sinovdan o‘tkazilmoqda. Bu tajriba, keyinchalik respublika miqyosida ham keng joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Quyida ushbu mavzu bo‘yicha ayrim muammolar va takliflar keltirildi:

Go‘daklar uylaridagi asosiy muammolar – kadrlar yetishmovchiligi, zamonaviy psixologik metodikalarning kamligi, bola va jamiyat o‘rtasidagi uzilishdir. Takliflar: har bir go‘daklar uyida ijtimoiy pedagog va klinik psixolog doimiy ishlashi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, hamkorlik asosida jamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash. Shuningdek, davlat-hususiy sheriklik asosida qo‘shimcha rivojlantirish markazlari ochish orqali tizimni takomillashtirish mumkin. Uning uchun quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

- kadrlar yetishmasligi – ko‘plab hududlarda mutaxassislar soni kam;
- tarbiya metodikasi eskirgan – zamonaviy psixologik yondashuvlar kam qo‘llaniladi;
- bola va jamiyat o‘rtasidagi uzilish – ijtimoiylashtirishda uzviylik buziladi.

Takliflar:

- har bir go‘daklar uyida ijtimoiy pedagog va klinik psixolog doimiy bo‘lishi;
- dastur asosida yangicha, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar joriy etilishi;
- homiylik institutini rivojlantirish, bolalarni jamiyatga integratsiyalashgan holda yetishtirish.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, go‘daklar uyidagi tarbiya — bu nafaqat pedagogik, balki insonparvarlik masalasidir. Har bir bola to‘laqonli mehr, xavfsizlik va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi shart. Shu boisdan, bu tizimda ishlayotgan pedagoglar nafaqat kasbiy, balki axloqiy jihatdan ham yetuk bo‘lishi kerak. Ijtimoiy pedagogika, psixologiya va tibbiyot uyg‘unligi orqali go‘daklar uyida har tomonlama rivojlangan, baxtli bolalar ulg‘ayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Kimmel, A. (2012). Children in care and social education. Routledge.
2.Kim, H., & Lee, J. (2019). Educational Reform and Social Work in Korean Schools. Korean Education Review.
3.Nodirova, G. «Postinternat ijtimoiy moslashuv tajribalari», O‘zbekiston Ijtimoiy Pedagogika Jurnali, 2022.
4.Berger, P., & Luckmann, T. (1966). The Social Construction of Reality. Anchor Books.
5.Toirova, M. «Mehribonlik uylari: ijtimoiy pedagogik yondashuvlar», 2023.
6.Toirova, M. «Mehribonlik uylari: ijtimoiy pedagogik yondashuvlar», 2023.
7.Kimmel, A. (2012). Children in care and social education. Routledge.
8.Mahmudova N. «Ijtimoiy pedagogika asoslari», Toshkent, 2022.
9.G‘ulomova M., «Bolalarni erta yoshdan tarbiyalash asoslari», TDPU nashriyoti, 2020.
10.Jumayev A. «Ijtimoiy himoya tizimidagi tarbiya», Samarqand, 2021.
11.Bowlby J., Attachment and Loss, Basic Books, 1988.

TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHILARINING BADIY ASARLARNI IDROK ETISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAHLILI

Tursunova S.S.
O’zMPU 13.00.01- “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun muhim bo‘lgan badiiy asarlarni idrok etish kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik jihatlari yoritilgan. Unda idrok kompetentligining mazmuni, tarkibiy qismlari, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni, hamda zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, idrok kompetentligi, estetik tafakkur, san’atni o‘qitish, psixologik jarayonlar.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты формирования и развития когнитивной компетентности, актуальной для учителей изобразительного искусства. Рассматриваются содержание и компоненты когнитивной компетентности, её роль в профессиональной подготовке учителя, пути реализации в образовательном процессе на основе современных подходов.

Ключевые слова: изобразительное искусство, когнитивная компетентность, эстетическое мышление, художественное образование, психологические процессы.

Abstract: The article covers the pedagogical and psychological aspects of the formation and development of the competence of perceiving works of art, which is important for teachers of fine arts. It examines the content and components of perceptual competence, its role in the professional training of a teacher, and ways of its implementation in the educational process based on modern approaches.

Key words: fine art, cognitive competence, aesthetic thinking, art education, psychological processes.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor va muhim ahamiyat kasb etib, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.Ayniqsa, tasviriy san’at yo‘nalishida faoliyat yurituvchi pedagoglardan badiiy asarlarni chuqur anglash, estetik idrok va talqin etish qobiliyatlari talab etiladi. Tasviriy san’at sohasi o‘zining estetik, emotsional va vizual yo‘nalishi bilan o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, sezish, baholash, estetik didni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada o‘qituvchining o‘zi badiiy asarni teran idrok eta olmasa, uning estetik mazmunini tushunmasa, o‘quvchiga to‘g‘ri yo‘naltirish bera olmaydi.

Tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun badiiy asarlarni idrok etish kompetentligining mavjudligi nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki ta’lim-tarbiya jarayonining sifat ko‘rsatkichiga aylangan . Ushbu kompetentliklar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarni badiiy did, vizual tafakkur va estetik sezuvchanlikka yo‘naltiradi.

Bugungi kunda ko’rib turganimizdek dunyoning mashxur asarlari (“Mona Liza”-Leonardo da-Vinchi, “Kungaboqarlar”-Van Gog, “David”-Mikelanjello…) yoki rassomlar haqida istagan insondan so’rasangiz oz bo’lsa ham tushunchaga hech bo’lmaganda shu nomlarni eshitishgan. Ammo o’zimizning buyuk rassomlar, ularning ijodlari haqida ko’chada istalgan insonni to’xtatib so’ray olmaymiz, afsus! Diyorimiz ijodkorlarini mamlakatimiz har bir fuqarosi tanishi, hech bo’lmaganda nomini eshitgan bo’lishi kerak. Nega internet tarmoqlaridagi bo’lmag’ur qiliqlari

bilan olingan bir minutlik videolari bilan mashxur bo’layotgan qahramonlarni hamma biladi, ammo bir asarni yaratish uchun, uning ichiga milliy qardiyatlarimizga bog’liq ma’nolarni kiritish uchun yillarini sarflagan ijogkorlarimiz bir chetda qolib ketmoqda. Ularni faqat soha mutaxassislarigina bilmoqda. Albatta bunda aynan kimnidir yoki nimanidir aybdor deb bo’lmaydi. Chunki inson ongi oson narsalarni eslab qolishni yaxshi ko’radi, o’zini qiynagisi kelmaydi. Shuning uchun milliy badiiy asarlarimizni yoshlarga ularni qiynamasdan, oson yo’llar bilan yetkazish vazifasi o’z-o’zidan bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilar zimmasiga kiradi. Bu vazifani uddasidan chiqish uchun esa ularga albatta chuqur bilim, ya’ni badiiy asarlarni idrok etish kompetentligi talab etiladi. Bo’lajak o’qituvchilar asarlarni qanchalik yaxshi idrok etishni, asarni tahlil qilishni, asar tarixiga qiziqib izlansa shunchalik o’quvchilarga uni qiziqarli va esda qolarli qilib yetkaza oladi. Shunda balki nafaqat o’quvchi yoshlar o’rtasida balki kattalar ham badiiy asarlarga shunchaki oddiygina rasm deb qaramasdan, katta qiziqish bilan muzeylarimizga, ko’rgazmalarimizga shoshilishadi. Badiiy kechalar qiziquvchan yoshlar bilan to’ladi va aynan ulargina milliy san’atimizni dunyo miqyosiga yana bir pog’onaga chiqara olishadi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining badiiy asarlarga nisbatan estetik idroki o‘quvchilar estetik tarbiyasiga, madaniy didining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, san’at asarlarini idrok etish kompetentligini chuqur tahlil qilish, uni pedagogik va psixologik jihatdan rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlash zarurdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA METODLARI. Ushbu tadqiqot tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy asarlarni idrok etish kompetentligini rivojlantirish jarayonini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1.Nazariy metodlar. Pedagogika, psixologiya va san’atshunoslikka oid ilmiy manbalar tahlil qilindi; badiiy asarlarni idrok etish kompetentligiga doir xorijiy va mahalliy tajribalar qiyosiy o‘rganildi; mavjud konseptual yondashuvlar umumlashtirildi.

2.Empirik metodlar.

Kuzatish: o‘qituvchilarning badiiy asarlar bilan ishlash faoliyati va dars jarayonida o‘quvchilarda estetik idrokni shakllantirish usullari kuzatildi.

So‘rovnoma va suhbat: tasviriy san’at o‘qituvchilarining estetik qarashlari, obrazli tafakkuri, badiiy idroki va metodik yondashuvlari bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ildi.

Diagnostik topshiriqlar: badiiy idrok darajasi, vizual tafakkur va estetik sezuvchanlikni aniqlashga qaratilgan psixologik testlar qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA. Tasviriy san’at o‘qituvchisi nafaqat ijodiy ko‘nikmalarga, balki badiiy obrazlarni idrok etish, ularni tahlil qilish, estetik baho berish va o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazish kompetentligiga ega bo‘lishi lozim. Bu kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

•Estetik sezuvchanlik;
•Vizual savodxonlik;
•Obrazli fikrlash;
•Madaniy kontekstni anglash;
•Tafakkur va emotsional rezonansni uyg‘otish.

Estetik sezuvchanlik – bu insonning borliqdagi, san’atdagi, tabiatdagi va ijtimoiy hayotdagi go‘zallik, nafosat, uyg‘unlik hamda badiiy qadriyatlarni idrok etish va ularga nisbatan ma’naviy hissiy munosabat bildirish qobiliyatidir.

U quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

•Idrok qilish – go‘zallikni ko‘ra bilish, san’at asarining mazmuni va shaklini sezish.

•Hissiy ta’sirlanish – go‘zallik yoki xunuklikdan zavqlanish, hayajonlanish yoki norozilik bildirish.

•Baholash – estetik hodisalar va san’at asarlarining qiymatini aniqlash, ularga o‘z munosabatini

shakllantirish.

•Ijodiy sezuvchanlik – go‘zallikni nafaqat his qilish, balki uni yaratishga intilish.

Shundan kelib chiqadiki bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari – badiiy asarlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazib beruvchilarda estetik sezuvchanlik o’ta yuqori bo’lishi kerak. Bu jihat orqali ular asarlarni mustaqil idrok etib, asar muallifining hissiy qarashlarini, asar qanday ma’noga ega, nima demoqchi, ilmiy matnga ega asarmi yoki inson dam olib tomosha qilishi uchun yaratilganmi, shu bilan bir qatorda yoshlarni ham go’zallik yaratishga undab tahlil qila oladigan bo’lishadi. Albatta bu – estetik sezuvchanlikka talabalar o’qish davomida badiiy asarlarni tahlil qilish orqali erishishadi.

Estetik sezuvchanlik insonning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitadi, uni go‘zallikka oshno etadi, san’atni, tabiatni va hayotdagi nafis jihatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bois, u tarbiya jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Estetika (qadimgi yunoncha: αἴσθησις; nemischa: Ästhetik - «his», «tuyg‘u») olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fandir. Estetika san’at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabul qilinishini o‘rganadi. Estetika falsafaning aksiologiya sohasiga kiradi. Estetikaning sinonimi sifatida go‘zallik falsafasi, san’at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo‘llanib kelingan. Keyingi paytlarda nafosatshunoslik yoki nafosat falsafasi atamalari ham estetikani anglatadigan bo‘ldi. Estetika o‘z ichiga san’at estetikasi, tabiat estetikasi, texnika estetikasi, dizayn, sport estetikasi, turmush estetikasi, atrof muhitni go‘zallashtirish va boshqa sohalarni qamrab oladi.

Estetikaning tadqiqot ob’yektlari ichida san’at alohida o‘rinni egallaydi, u qadimdan to hozirgi kungacha eng ko‘p tadqiq etilgan estetik soha hisoblanadi. Estetikaning bu borada san’atshunoslik fanlaridan farqi shundaki, u o‘z ob’yektiga falsafiy-nazariy jihatdan yondashadi. Estetika san’atni — san’atkor, san’at asari, san’at asarini idrok etuvchi shaxsdan iborat yaxlit tizimda olib o‘rganadi, barcha san’at turlari uchun zarur bo‘lgan umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi. Masalan, adabiyotshunoslikda qofiya nazariyasini musiqaga yoki haykaltaroshlikka nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Estetikadagi kompozitsiya yoki uslub nazariyasi esa me’morlikdan tortib badiiy suratkashlikkacha bo‘lgan hamma san’at turlariga taalluqlidir. Ayni paytda Estetika san’atning tabiati, uning ijodiyligi va boshqa jihatlarini tadqiq etadi, badiiy oqimlar va yo‘nalishlarning, ijodiy uslublarning mohiyatini o‘rganadi.

Vizual savodxonlik — bu insonning turli xil vizual axborotlarni (rasm, grafika, chizma, belgi, diagramma, piktogramma, foto, video va boshqalar) to‘g‘ri idrok etish, tushunish, tahlil qilish va ularni ongli ravishda qo‘llay olish qobiliyatidir.

Asosiy jihatlari:

- Vizual belgilar va ramzlarni anglash;
- Rasm, chizma va grafiklarda ifodalangan ma’lumotlarni o‘qish va sharhlash;
- Vizual ma’lumotni matn yoki og‘zaki nutq bilan bog‘lash;
- O‘z fikr va g‘oyasini vizual vositalar orqali ifodalay olish;
- Estetik sezuvchanlikni rivojlantirish.

Amaliy ahamiyati:

- Ta’limda — fanlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi;
- San’atda — tasviriy obrazlarni tushunish va yaratish imkonini beradi;
- Axborot texnologiyalarida — infografika, diagramma va vizual materiallar orqali tezkor va samarali muloqot qilishni osonlashtiradi.

Vizual savodxonlik ko’plab kasblar va sohalarda katta ahamiyatga ega. Siz sotuvchi, dizayner, o’qituvchi yoki biznes mutaxassisi bo’lasizmi, bu mahoratni egallash sizning martaba o’sishi va muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Vizual savodxonlik bizga grafiklar, diagrammalar, infografika va fotosuratlar kabi vizual tarkibni samarali tahlil qilish va sharhlash imkonini beradi, bu bizga murakkab g’oyalar va tushunchalarni yanada samaraliroq etkazish imkonini beradi.

Xullas, vizual savodxonlik — bu zamonaviy insonning muhim kompetensiyalaridan biri bo‘lib, u axborotni ko‘rish, anglash va uni ijodiy qayta ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

Obrazli fikrlash — bu inson tafakkurining bir shakli bo‘lib, unda voqelik hodisalari, predmetlar va jarayonlar mantiqiy tushunchalar emas, balki obrazlar, timsollar va tasvirlar orqali aks ettiriladi.

Asosiy xususiyatlari:

- Fikr yuritish jarayoni ko‘proq tasviriy obrazlarga tayangan bo‘ladi;
- Obraz orqali mantiqiy xulosalarga kelish imkoniyati mavjud;
- Ijodkorlik, fantaziya va intuitiv sezgi kuchayadi;
- San’at, adabiyot, dizayn, arxitektura kabi sohalarda asosiy o‘rin tutadi.

Ahamiyati:

- Bolalar tafakkurida obrazli fikrlash asosiy o‘rin egallaydi va keyinchalik mantiqiy tafakkur bilan uyg‘unlashadi;
- Ilmiy va texnik ijodkorlikda yangi g‘oyalarni yaratishda yordam beradi;
- Pedagogik jarayonda o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi va bilimlarni ongli o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, obrazli fikrlash — inson tafakkurining ijodiy va intuitiv jihatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim mexanizm bo‘lib, u nafaqat san’atda, balki kundalik hayotda ham qarorlar qabul qilishda, muammolarni hal etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Madaniy kontekstni anglash — bu insonning ma’lum bir voqea, hodisa, asar yoki g‘oyani o‘sha jamiyat, xalq yoki davrning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, ramzlari va an’analari bilan bog‘liq holda tushuna olish qobiliyatidir.

Asosiy jihatlari:

- Madaniyatga xos ramz va belgilarni to‘g‘ri talqin qilish;
- Turli xalqlarning urf-odatlari, dunyoqarashi va qadriyatlarini inobatga olish;
- Badiiy asar, musiqa, adabiyot va san’atni yaratishda ham, uni idrok etishda ham madaniy muhitni hisobga olish;
- Xalqaro muloqotda tushunmovchiliklarni kamaytirish.

Ahamiyati:

- Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tolerantlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- Badiiy asarlarni chuqurroq tushunish va baholash imkonini beradi;
- Ijtimoiy hayotda turli millat va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi.

Madaniy kontekstni anglash — bu shaxsning nafaqat bilimli, balki madaniy sezgir bo‘lishini ta’minlaydigan muhim kompetensiya bo‘lib, u san’at, ta’lim va kundalik muloqotda katta ahamiyat kasb etadi.

Tafakkur va emotsional rezonansni uyg‘otish — bu inson ongida mantiqiy fikrlash jarayonini faollashtirish bilan birga, unda chuqur his-tuyg‘ularni uyg‘otish, emotsional ta’sir kuchini oshirish jarayonidir.

Asosiy jihatlari:

- Tafakkur — shaxsning voqelikni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish faoliyati;
- Emotsional rezonans — asar, voqea yoki g‘oya inson qalbida hissiy javob uyg‘otishi, ya’ni ichki kechinmalar bilan uyg‘unlashishi;
- Tafakkur va emotsional rezonansning uyg‘unligi insonni nafaqat mantiqan, balki qalban ham ta’sirlanishga olib keladi.

Tafakkur va emotsional rezonansni uyg‘otish ahamiyati shundaki:

- San’at va adabiyotda asar qimmati ko‘proq shu ikki jarayon uyg‘unlashganida namoyon bo‘ladi;

- Ta’lim jarayonida o‘quvchida fikrlash bilan birga hissiy qiziqishni uyg‘otish bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi;

- Ijtimoiy muloqotda rezonans yaratish orqali samarali ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Tafakkur va emotsional rezonansni uyg‘otish — bu insonni fikran faol, his-tuyg‘u jihatidan boy va ijodkor shaxs sifatida shakllantiruvchi jarayondir.

Pedagogik nuqtai nazardan, bunday kompetentliklarni shakllantirishda quyidagi uslublar muhim ahamiyatga ega:

1.Vizual tahlil va estetik baholash asosida mashg‘ulotlar;

2.San’at asarlarini tarixiy-madaniy kontekstda o‘rganish;

3.Estetik savollar orqali muhokama va dialogik ta’lim;

4.Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar;

5.Multimediaviy vositalar orqali vizual tajriba orttirish.

Psixologik jihatdan badiiy idrok – bu shaxsning ko‘rish, eshitish, his etish, anglash va emotsional baholash jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab kognitiv-emotsional faoliyatdir. Ushbu jarayonlarda sezuvchanlik, xotira, emotsiya va tafakkur faol ishtirok etadi. San’at asarini chuqur anglagan o‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga o‘rgatadi, balki uning ichki dunyosiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tasviriy san’at darslarida idrok kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus metodik komplekslar, estetik treninglar, badiiy tahlil asosidagi interfaol mashg‘ulotlar o‘quvchilarning estetik saviyasi va o‘qituvchining kasbiy yetukligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA: So‘nggi paytlarda pedagogikada har tomonlama rivojlangan, ruhan boy, faol, zamonaviy dunyoda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga hamisha qodir, barkamol shaxsni tarbiyalash usuli, voqelikka munosabatni shakllantirishning eng muhim vositasi, ma’rifiy tarbiya usuli sifatida ma’naviy-ahloqiy muammolarga e’tibor ortib bormoqda. Estetik tarbiya tizimi esa o‘rab turgan voqelik hamda o‘z atrofidagi go‘zallikni his qilishga o‘rgatadi. Tizimli ta’limning birinchi bosqichida ma’naviy-ahloqiy, badiiy va estetik tarbiya olgan bola keyinchalik musiqachi, rassom, adabiyotshunos bo‘lib yetishmasa ham, uning tafakkurida go‘zallik olamiga nisbatan muhabbat, mehr, ong evriluvchanligi, ahloqiy hamda badiiy qadriyatlarga ehtirom saqlanib qoladi .

Tasviriy san’at o‘qituvchisining badiiy idrok kompetentligini rivojlantirish ko‘p bosqichli, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Bu borada zamonaviy metodik yondashuvlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, estetik rivojlanishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalardan foydalanish zarur. Idrok kompetentligiga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchida mustahkam estetik qarash, badiiy tafakkur va madaniy ongni shakllantira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Baymetov B. Yoshlarda tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etish va rivojlantirish usullari. ¬¬- Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2023.

2.Xusanxo‘jayev A. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

3.Dovudov A. San’at ta’limida innovatsion yondashuvlar. – Samarqand, 2022.

4.Eisner E. The Arts and the Creation of Mind. – Yale University Press, 2002.

5.Vygotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. – Moskva, 1997.

6.Dewey J. Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Company, 1934.

7. Qodirov B. Tasviriy san’at darslarida idrok kompetentligini rivojlantirish. – Buxoro, 2020.

8. Gardner H. Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. – Basic Books, 2006.

9. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – University of California Press, 2004.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA IBORALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA OBRAZLI NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TIZIMI

To‘rayeva Sanobar Sulaymonovna
BVPMM, Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-8184-2227

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini sifatli va qiziqarli tashkil etishda iboralarning o‘rni beqiyos. Iboralar orqali kichik yoshdagi o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshrish mumkin. Chunki, iboralardagi bo‘yoqdorlik va obrazlilik o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Aynan ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida iboralar ustida ishlashni tizimli tashkil etish lozim. O‘quvchi nutqining ta’sirchan va jonliligi nutqda til vositalaridan o‘rinli foydalanish bilan belgilanadi.

Аннотация. Роль идиом в организации качественного и интересного обучения родному языку в начальных классах неоценима. Фразы могут повысить интерес молодых учеников к языку. Потому что красочность и образность фраз привлекают внимание читателя. Именно на уроках родного языка и обучения грамоте чтения необходимо систематически организовывать работу над фразами. Выразительность и живость речи учащегося определяются уместным использованием языковых средств в речи.

Annotation. The role of idioms in organizing high-quality and interesting teaching of the native language in elementary grades is invaluable. Phrases can increase the interest of young students in the language. Because the colorfulness and imagery of phrases attract the attention of the reader. It is in the lessons of the native language and teaching reading literacy that it is necessary to systematically organize work on phrases. The expressiveness and liveliness of the student’s speech are determined by the appropriate use of linguistic means in speech.

Kalit so‘zlar. Ibora, darslik, shartlar, tasavvur, bosqichlar, til ko‘nikmasi, badiiy matn, ona tili va o‘qish savodxonligi darslari, frazeologik birlik, frazeologik iboralar, turg‘un birikma, so‘z birikmasi.

Kirish. Ibora tilning yorqin va obrazli vositasi, shu sabab yozuvchi va shoirlar asarlarida ulardan unumli foydalanadi. Aynan shu xususiyat boshlang‘ich sinf darsliklari mualliflarini o‘quv materiali mazmuniga frazeologik birliklarni kiritishga majbur qiladi. Chunki, bolalar adabiyoti asarlarining (she’r, masal, ertak, hikoya, rivoyat, maqol, ilmiy-ommabop maqolalar, topishmoq, hadis) aksariyatida iboralar juda ko‘p uchraydi. Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham nutqida iboralardan muntazam foydalanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchining diqqatini suhbatdosh nutqi va matnga jalb qilishning eng samarali usullaridan biri nutqda iboralardan foydalanishdir. Ammo bu muammoning birinchi tomoni bo‘lsa, o‘qituvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida (imkoni boricha boshqa darslarda ham) nutqimizning bitmas-tuganmas boyligi – iboralarni o‘rgatish masalasi muammoning ikkinchi tomonidir. Darslik, bolalar adabiyoti va nutqda uchraydigan iboralarni doimiy izohlash, ularni o‘quvchi nutqida faollashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ona tilimizning barqaror birikmalari ustida ishlash o‘quvchida mavhum (abstrakt – aql va fikrlash orqali tasavvur qilish) fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Abstraksiya – bola aqliy faoliyatining konstruktiv tarkibiy qismi, chunki u orqali tushunchalarni shakllantirish va umumlashtirish mumkin. Frazeologik birliklarni etimologik ko‘rib chiqish, har bir tasvirning haqiqiy manbasini topish tadqiqot faoliyati uchun asos yaratishga yordam beradi, bu esa keyingi ta’limda bolalar uchun muhim ahamiyatga egadir. Ko‘p hollarda o‘quvchi nutqi va

asarlarda uchraydigan iboralar ma’nosini noto‘g‘ri izohlaydi, ba’zan esa umuman tushunmaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 1-4-sinf o‘quvchilari tilning frazeologik birliklari haqida deyarli tasavvurga ega emas, ulardan og‘zaki va yozma nutqda qanday foydalanishni bilmaydi, ayrimlari nutqida iboradan foydalansa ham bu turg‘un birliklar, “ibora” deb atalishi haqida hech qanday ma’lumotga ega emas, frazeologik ma’noni yaxshi tushunmaydi, faqat aniq yo‘naltiruvchi tayanch tushunchalarga asoslangan holdagina iboradan yozma yoki og‘zaki nutqda foydalanishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xorijda iboralarni o‘qitish yuzasidan juda ko‘p ilmiy va amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Raymond. Gibbs [9], Ellis N.S. [7], Merilin Nippold [16, 18], Elizabeth Burke Hadley, Karyn Zalman Mendez [6], Izabel L. Beck, Margaret G. McKuvin, Linda Kucan [11, 15, 16], Marvin Terban (ingliz tilida) [31], Piter Kun [13, 14], Stefan Ettinger [30], X.Grizbax, D. Shults (nemis tilida) kabi olimlar idiomalarni o‘qitishning zamonaviy metodologiyasini ishlab chiqqan. AQSHda va Kanadada Margaret MkKuvin va Isabel L.Becklar boshlang‘ich sinflarda so‘z va iboralar ustida ishlashning o‘ziga xos metodikasini ishlab chiqqan olimalardir [10]. Ayni damda AQSHdagi maktablarda aynan shu olimalar muallifligida yaratilgan darsliklardan so‘z ustida ishlash maqsadida foydalaniladi.

MDH davlatlari orasida boshlang‘ich sinflarda iboralarni o‘qitish metodikasini ilk marotaba Y.D.Shevlyakova [56] ishlab chiqqan. Shu bilan birga S.V.Sisoyeva [50], T.K.Yemilyanova [41], E.E.Petrenko [47], S.V.Gavrin [39], M.A.Kavrova [44] kabi olimlar ham iboralarni o‘quvchi nutqida faollashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borgan. Bu izlanishlarning amaliy ahamiyati shundaki, faqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari emas, balki bog‘cha yoshidagi bolalarni ham iboralar bilan tanishtirish usullari ishlab chiqilgan: kichik yoshdagi o‘quvchilarda obrazli va jonli nutqini rivojlantirish, so‘z va iboralar mazmunini anglash, so‘zlarning ko‘chma ma’nosini o‘zlashtirishga o‘rgatish kabi usullar tadqiq qilingan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishning zamonaviy metodologiyasi nutqning aniqlik, ifodalilik, ta’sirchanligini rivojlantirishga asoslanadi. “Chiroyli nutq” ona tilining xilma-xil (maqol, matal, ibora, o‘xshatish, metafora) tilning badiiy vositalaridan unumli foydalanish, ularni nutqda o‘rinli qo‘llash darajasining yuqoriligi bilan belgilanadi [45].


Biz ko‘pincha, ona tili va o‘qish darslarida so‘zni leksik jihatdan tahlil qilishda turli xil muammolarga duch kelamiz. So‘zni sintaktik tahlil qilish esa bu vaziyatni yanada qiyinlashtiradi. Yosh o‘quvchida so‘z boyligining kamligi ko‘pincha imloviy bilimning o‘zlashtirilishiga ham xalaqit beradi. Natijada o‘quvchilarning aniq va real fikrlashi murakkablashadi: ular ko‘plab mavhum so‘z va tushunchalar ma’nosini umuman tushunmay nutqida qo‘llay boshlaydi. Shu sabab kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda o‘quvchining lug‘ati boyligiga nafaqat mavhum tushunchalarga ega bo‘lgan so‘zlarni, balki turg‘un birikmalar – iboralarni ham bosqichma-bosqich kiritib borish zarur.

Iboralarni o‘rgatish o‘quvchining fikrlash doirasi, nutqi, idrok va diqqatining rivojlantiradi. Ibora ma’nosini o‘quvchiga yetkazishda, uning lingvistik jihatlarini, ko‘chma ma’noda qo‘llanilishini, badiiy adabiyotdagi o‘rnini bosqichma-bosqich o‘rgatib borishi kerak. O‘quvchida “Nega shunday deymiz?, “Nega aynan qo‘y, tarvuz, qovun so‘zlari tanlab olingan?”, “Nega cholni ko‘rib buvam deymiz?” kabi savollar tug‘iladi, yoki o‘qituvchi o‘zi shu savollar orqali o‘quvchilarga murojaat qilishi mumkin. Shu tariqa bu kabi savol va topshiriqlar o‘quvchilarda iboralar haqidagi ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarning bebaho afzalligi shundaki, ularda bolalarga xos mumtoz, badiiy, ilmiy-ommabop va xalq og‘zaki ijodi adabiyotining eng sara asarlaridan olingan matnlar kiritilgan bo‘lib, ular bevosita o‘quvchilarda kichik hayotiy tajribani shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlar bolaning ruhiyatiga ta’sir qilib, ularni tabassum qilishga, qayg‘urishga, mehnat qilishga, kichkina hayotining ba’zi jihatlari haqida o‘ylashga undaydi. Bolalar adabiyoti va boshqa asarlarni o‘qitish o‘quvchilarda ijobiy emotsional kayfiyatni yuzaga keltiradi, ularni o‘zbek adabiy tili bilan yaqindan tanishtiradi, saralangan asarlar o‘quvchi

nutqini lingvistik va sintaktik jihatdan takomillashtiradi [8]. Davrlar mobaynida yaratilgan boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darsliklari yoki yangi yaratilgan Ona tili va o‘qish savodxonligi (1-4-sinf) darsligining aspektli tahlili shuni ko‘rsatadiki, darslikda mualliflar tomonidan frazeologiya bo‘yicha maxsus topshiriq va mashqlar deyarli kiritilmagan. Ammo darslikdagi matnlar tahliliga asosan, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darsliklaridagi ertak, she’r, hikoya va maqollarda juda ko‘p iboralar uchraydi. Darslik mualliflari tomonidan taqdim etilgan badiiy asarlarning aksariyati epizodik xususiyatga ega bo‘lib, kontekstda turg‘un birikmalar ma’nosini izohlash bir muncha oson bo‘ladi [43]. Bunda o‘qituvchida frazeologik bilim uni o‘qitish tajribasi yetarli darajada shakllangan bo‘lishi shart.

Tadqiqot metodologiyasi. Iboralarni o‘qitishning innovatsion tizimida, asosan, o‘quvchi nutqida iboralarni faollashtirish, ibora atamasining o‘zlashtirilishi, ma’nosini anglashga oid mashq va topshiriqlarni bajarish, iboralar (frazeologik) lug‘atidan foydalanish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim. Tadqiqotimiz davomida iboralarni o‘quvchi nutqida faollashtirishni ma’lum bosqichlar asosida amalga oshirish zarurligi aniqlandi. Chunki kutilgan natijaga erishishda aynan aniq tizim taqdim etilishi shart. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida iboralarni sinflar kesimida o‘qitish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Boshlang‘ich sinflarda iboralarni sinflar kesimida o‘qitish bosqichlari

I bosqich, tayyorlov bosqichi 1-sinf: vazifasi, so‘z, ibora va maqollardagi ko‘chma ma’no ustida ishlash, o‘quvchilarni imkon qadar yosh xususiyatiga mos bo‘lgan iboralar bilan tanishtirish orqali nutqini rivojlantirishdan iborat. Bunda oila va maktabning jonli so‘zlashuv nutqida eng ko‘p qo‘llaniladigan iboralar lug‘atdan tanlab olinadi va o‘quvchilarga ularning ma’nosi muntazam ravishda bosqichma-bosqich tanishtirib boriladi. Shu o‘rinda shuni eslatib o‘tish zarurki, bu jarayonda sinf o‘qituvchisi ham o‘z nutqida ibora va maqollardan unumli foydalanishi shart.

Iboralar bilan tanishtirish ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidan o‘rin olgan badiiy matn tahlili jarayonida amalga oshiriladi. Matn analiz va sintez qilingandan so‘ng matndagi ibora o‘qituvchi tomonidan izohlanadi, o‘quvchilarga iboralar ko‘chma ma’noda kelishi, nutqni jozibali va bo‘yoqdor qilishi turli usullar (suhbat, ko‘rsatma, tahlil qilish, illyustratsiyalash) orqali tushuntiriladi. Metodik ishlarda illyustratsiyalash metodidan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi [46]. Chunki bola hali ko‘chma ma’nolilik haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydi. Bunda bolaga tanish vaziyatni ifodalovchi ibora tanlanadi. Iboraga ishlangan rasmi ko‘rsatiladi. O‘quvchilar rasmga qarab uni qanday ma’no anglatishi haqida fikr yuritadi.

Masalan, aqli kirdi iborasi quyidagicha tushuntiriladi.

– Rasmda nima tasvirlangan?

– Uni diqqat bilan kuzating.

– Nima tasvirlanganligini ayting.
– “Aqli kirdi” gapidagi so‘zlar ma’nosini aytib bering.
– “aql” va “kirmoq” so‘zlari qanday ma’noni anglatadi?
– Aqli kirdi – es-hushli bo‘ldi yoki angladi, tushundi ma’nosida qo‘llaniladigan ibora. Nutqimizda shunday gaplar borki, ular doim ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Siz buni maqol va matallarda juda ko‘p kuzatgansiz. Maqol bilan matal tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lsa, iboralar shaxsning xatti-harakatini, fe’l-atvorini ifodalab keluvchi birikmadir.
– Bu iborani kimning nutqida ko‘proq kuzatgansiz? Kimlar ko‘proq bu iboradan foydalanadi? Sizga nisbatan bu ibora ishlatilganmi, eslab ko‘ring?
– Shu ibora ishtirokida og‘zaki kichik hikoya tuzing.

O‘quvchida ko‘chma ma’no haqida tasavvur hosil qilishda xalq maqollaridan ham foydalanish mumkin. Iboralardagi ko‘chma ma’nolilikni o‘rgatishda maqollar asosiy til birligi sifatida xizmat qiladi. Chunki o‘quvchi birinchi sinfga kelgunga qadar maqollar bilan tanish bo‘ladi. Shu orqali ularga maqoldagi so‘zlar izohi, maqolning umumiy mazmuni, maqoldagi so‘zlar ifodalab kelgan ko‘chma ma’no tahlil qilinadi, solishtiriladi, taqqoslanadi. Masalan, 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida [34; 75-b.] berilgan “Ona daraxt, bola – meva” rebusli maqolda onaning – daraxtga, bolaning mevaga o‘xshatilishi, “Bola – loy bo‘lsa, ona kulol”maqolida esa bolaning – loyga, onani – kulolga o‘xshatilishi (o‘xshatish) rasmlar orqali tushuntiriladi. Yoki, 3-sinf o‘qish savodxonligi darsligida [2; 9-b.] berilgan “Begona tuproq – devona tuproq” maqolini olib ko‘rsak, o‘zga yurt – begona tuproqqa, uning yotligi, muhiti, iqlimi, madaniyati – devona tuproqqa o‘xshatiladi. Maqollar ifodalab kelgan umumiy ma’no tahlil qilinadi, maqoldagi har bir so‘z va ulardagi ko‘chma ma’nolilik izohlanadi. Shu asosda o‘quvchida so‘zning ko‘chma ma’nosi, o‘xshatishlar haqidagi tasavvuri kengaytiriladi. Bunda maqollarning kelib chiqish tarixi haqida ham hikoya qilish mumkin. “Hikmatnoma – o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”dan maqollar izohi ustida ishlashga oid topshiriqlar berib boriladi [58]. Bu davrda tilning badiiy vositasi iboralar haqida ham boshlang‘ich tushuncha berib boriladi. 1-sinf ona tili va o‘qish darslarida matnlarda uchraydigan iboralar lug‘ati ustida ishlanadi.

II bosqich, asosiy, 2-3-sinflar: Iboralar ma’nosi ustida ishlash. Bunda o‘quvchi ibora ma’nosini tushuntiribgina qolmay, balki matnning semantik xususiyatini ifodalashda iboralarning ahamiyatini ochib berish kerak bo‘ladi. Bu bosqichda o‘quvchini badiiy matndagi iboralarni ajratishga, ularning semantikasini anglashga oid ish turlaridan foydalaniladi. 2-sinfdan boshlab matnni leksik-frazeologik [50] tahlil qilish usuli bilan tanishtirish o‘quvchilarning iboralar haqidagi bilimi yanada rivojlantiriladi. Matnni leksik-frazeologik tahlil qilishda quyidagi amaliy topshiriqlar o‘quvchilarga vazifa sifatida beriladi: matnni o‘qish, matdagi ko‘chma ma’no ifodalovchi birliklarni topish, matnda nechta ibora ishtirok etganligini aniqlash, ularni ajratish, har bir ibora nechta so‘zdan tuzilgan, berilgan iboralar qanday ma’no anglatadi, berilgan iboralar ma’nosini so‘zlar orqali ifodalash, iboralarga ma’nodosh va zid ma’noli iboralar topish, berilgan iborani rasm asosida ifodalash.

Ushbu bosqichda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining leksik daqiqalarida iboralarni o‘rgatish eng qulay usuldir. Shu bilan birga, yangi mavzu bayonida, husnixat va imloviy mashq daqiqalarida ham iboralar ustida ishlash mumkin. 3-sinfga kelib o‘quvchilar iboralar ma’nosini atrofdagi shaxslarning jonli so‘zlashuv nutqida kuzatishni o‘rganadi. O‘quvchilarga so‘zlar kabi iboralar ham ma’nodosh yoki qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lishi misollar yordamida tushuntiriladi. Chunonchi, ma’nodosh iboralar: boshi shishdi – boshi qotdi, terga botdi – yeng shimarib ishladi – qo‘li qo‘liga tegmay ishladi, holi-joniga qo‘ymaslik – miyasini qoqib qo‘liga bermoq, toqati toq bo‘ldi – sabr kosasi to‘ldi, o‘pkasini qo‘ltiqlab – oyog‘ini qo‘liga olib, lom-mim deyolmadi – dami ichiga tushdi – churq etmadi,; zid ma’noli iboralar: qulog‘iga quyib oldi – qulog‘iga gap kirmaydi, yerga ursa ko‘kka sapchiydi – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, ko‘ngli oq – ichi qora, labi labiga tegmaydi – og‘ziga tolqon solib olgan, ko‘zi tushdi – qiyo boqmadi.

Iboralarni o‘qitishda bu bosqich juda katta ahamiyatga ega, shu sabab ham o‘z ichiga katta davr (1-3-sinflar)ni qamrab oladi. Biz tadqiqotimiz jarayonida iboralar ma’nosi ustida ishlash metodikasini bir nechta bosqichga ajratdik

Iboralar ma’nosi ustida ishlash bosqichlari:

1. Matn tarkibidagi iboralar tahlili. Matn tarkibida ishtirok etgan iboralarni izohlash kichik yoshdagi o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bu faoliyat o‘quvchining tilga bo‘lgan sezgirligi, faol fikrlash qobiliyati va nutqiy madaniyatning rivojlanishiga asos bo‘ladi. O‘quvchilar matn konteksti asosida ayrim iboralarning izohi va mazmunini osongina tushuntiradi. O‘qituvchi esa bu metodik ish jarayonini mohirona boshqarib boradi: qiyin vaziyatlarda xatolarni tuzatadi, ibora ma’nosini izohlashga yo‘naltiruvchi savollar beradi, o‘quvchilarni fikr ustida bahslashishga undaydi, iboralarni ifodali, jonli va obrazli talaffuz qilishni talab qiladi. Iboradagi jozibadorlik o‘quvchini o‘ziga jalb etadi. Uni tasavvur qilishga, fikrlashga undaydi. Chunki o‘qish darsligiga kiritilgan badiiy matnlarda iboralar tez-tez uchraydi. Jumladan, 4-sinf o‘qish kitobida berilgan “Kitobga ixlos” hikoyasida 10 ta, “Davlat” ertagida 9 ta, “Ziyrak uch yigit” ertagida 10 ta [19, 20, 21], yangi o‘qish savodxonligi darsligidagi “Qanot qoqqan orzular” hikoyasida 7 ta, “Tan sihatlik – tuman boylik” ertagida 6 ta ibora [2, 3] mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan bolalar adabiyoti asarlari tahlili jarayonida aksar asarlarda eng kamida ikkita ibora mavjudligi aniqlandi. Matn mazmuni ustida ishlash jarayonida albatta matnni leksik-frazeologik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

2. O‘quvchilarga notanish bo‘lgan turg‘un birikmalar – idiomalar ustida ishlash. Bunda o‘quvchilarga notanish yoki tarkibidagi so‘z komponentlari tushunarsiz bo‘lgan turg‘un birikmalarni tahlil qilish nazarda tutiladi. Masalan, alifni kaltak deyolmaydi g‘irt savodsiz, hech narsani bilmaydi. O‘qituvchi faqat ibora ma’nosini emas, balki o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lgan “alif” so‘zining ma’nosini ham izohlab berishi kerak: alif – arab alifbosining birinchi harfi va uning nomi. Arab alifbosida “a”, “o” tovushlarini kichik bir to‘g‘ri chiziq bilan ifoda etuvchi “Alifbo”dagi birinchi harfning nomi [57; 20-b.]. O‘quvchiga iboraning etimologiyasi haqida ham qisqacha ma’lumot beriladi, yoki berilgan ibora izohi ma’nodosh ibora orqali tushuntiriladi, unga ishlangan rasmlardan foydalaniladi. “Alif” harfining yoki shu iboraga ishlangan rasm ibora ma’nosini to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. O‘quvchilarga notanish bo‘lgan quyidagi iboralar izohi yuqorida ko‘rsatilgani kabi berib boriladi: dumi xurjunda – chala, oxiriga yetkazilmagan ish, almisoqdan qolgan – juda eski, qadimgi, esxonasi chiqib ketdi – nihoyatda qattiq qo‘rqdi, kalavaning uchini topmoq – jumboqni hal qilish yo‘lini topmoq, kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq – haydab yubormoq, kuzatmoq.

3. Erkin va turg‘un birikmalar o‘rtasida semantik bog‘liqlikni o‘rnatish. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni so‘z birikmalarini o‘z va ko‘chma ma’noga ajrata bilishga o‘rgatishi kerak. Ko‘chma ma’no vazifasini ochish matndagi iboralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, metaforik bo‘lmagan adekvat so‘zlar bilan almashtirish orqali oson amalga oshiriladi. Odatda o‘quvchilar so‘zdagi metaforik hodisani yaxshi anglay olmaydi, ko‘p hollarda u ifodalab kelgan ma’noni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qiladi, bu holat matn mazmunini to‘liq idrok etishga to‘sqinlik qiladi.

“Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifodalashdagi o‘rnini puxta o‘zlashtirishga erishish uchun ma’nodosh va zid ma’noli sifatlar ustida ishlash, o‘qish darslarida sifatning o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq” [25; 260-b.]. O‘quvchilarda ko‘chma ma’nolilikni tushuntirishda sifatlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Sifatni o‘rganish jarayonida o‘quvchi shaxs va narsaning xususiyati, holati, xatti-harakatiga baho berishni o‘rganadi. Baho berish avval o‘xshatishlar, so‘ng iboralar orqali amalga oshiriladi. Masalan, bu gaplar Salimjonga moydek yoqib juda xursand bo‘ldi – bu gaplardan Salimjonning kayfiyati chog‘ bo‘ldi kabi.

“Tushunchani shakllantirish jarayonida so‘zning leksik ma’nosi, uning gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan birga kelgandagi ma’nosi asta-sekin aniqlanib, oydinlashtirilib boriladi, og‘zaki va yozma nutqda so‘zni uslubiy to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmasi orta boradi. Buning uchun o‘quvchilar

so‘zning ko‘p ma’noliligi, o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilishi, sinonim va antonim so‘zlar bilan elementar tanishtiriladi” [25; 220-b.]. Tilning turg‘un birikmalari so‘zdagi ko‘chma ma’noni izohlashda katta ahamiyat kasb etadi, chunki ularda so‘zlar soni kam, badiiy qurilishga ega, qofiyadoshligi esa o‘quvchini eslab qolishi uchun juda qulay.

Iboralardagi ko‘chma ma’nolilik elementar tarzda mavhumlikdan aniqlikka qarab borish yo‘li orqali tushuntiriladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari metaforik iboralar ma’nosini tushunishga qiynaladi. O‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biri – iboralar ma’nosini izohlash metodlarini to‘g‘ri tanlay olishda belgilanadi. Bu holda o‘qituvchi ibora ma’nosini izohlashda nazariy metodlar (suhbat, hikoya, ko‘rsatmalilik)dan foydalanadi, ibora ma’nosini izohlash, etimologiyasini so‘zlash, rasmlar orqali ko‘chma ma’nolikni tushuntirish kabilardan foydalanishi mumkin. Iboralarda metafora hodisasi juda ko‘p uchraydi, odatda ular tarkibidagi so‘zlar ko‘chma ma’no ifodalaydi. Iboralar atrof-muhitdagi voqelikni sodda, yorqin, obrazli, rang-barang va vizual shaklda nutqda tatbiq etishga yordam beradi. Shu sabab ham iboralar nutqda tayyor holda qo‘llaniladi, ular so‘zlovchining bo‘layotgan voqelikka kuchli emotsiyasini nutq orqali ifodalash imkonini beradi.

4. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida iboralar tahlilini lug‘at ishlari bilan birgalikda olib borish. Bunda o‘quvchilar birinchi galda iboralarni izohi bilan yozish mumkin bo‘lgan kichik lug‘at daftarchalarini tutishi kerak. Shu bilan birga o‘quv lug‘atlaridan ham foydalanishlari mumkin. Tadqiqot davrida birgina rus metodistlari tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 300ga yaqin frazeologik o‘quv lug‘atlari [36; 40; 55], etimologik lug‘at ma’lumotnomalar [49; 51; 54] yaratilganligining guvohi bo‘ldik. Bu kabi rang-barang lug‘at mashq kitoblarini ingliz, fransuz, koreys tillarida ham kuzatish mumkin. Ya’ni, shu til egalari tomonidan o‘quvchilar uchun bir necha nomdagi illyustrativ, qiziqarli, izohli o‘quv lug‘atlari yaratilgan va undan tilni o‘qitish jarayonida samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Bu kabi lug‘atlarning o‘ziga xosligi o‘quvchiga tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan ajralib turadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ishlarini tashkil etishda o‘quv lug‘atlarining o‘rni beqiyos. O‘qituvchi iborani o‘qitish jarayonida bu kabi lug‘atlarga qayta-qayta murojaat qilaveradi. Ammo boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan o‘quv lug‘atlari barmoq bilan sanarli darajada juda kam. Jumladan, Miraziz A’zam “Ming bir so‘zni bilaman” [17], F.Safarov va S.Safarov “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at” [28], “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun iboralar lug‘ati” [26], Z.To‘ychiyeva “Rasmli izohli lug‘at” [33], D.To‘xliyeva “Imloni o‘rganamiz” [32], N.Maxmudov “So‘z sandiqchasi” [89], F.Safarov va S.To‘rayeva “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rasmli iboralar lug‘ati” [26] kabi o‘quv lug‘atlari yaratilgan. Yuqori sinflar uchun B.Mengliyev muallifligida yaratilgan o‘quv lug‘atlari seriyasini bugungi kunda topish ancha mushkul. Chunki lug‘atlar seriyasi 2007-yilda nashr qilingan bo‘lib, qayta nashr etilmagan. Yillar davomida butun boshlang‘ich ta’lim tizimi jarayonida mana shu yetti nomdagi lug‘at yaratilgan xolos. Afsuski, bu lug‘atlar kam sonlarda nashr qilinib, aksari o‘quvchilar qo‘ligacha yetib bormagan. Shu sabab ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasi deyarli shakllanmagan. Darslarda lug‘at ishi faqat o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. Bu ish o‘quvchi lug‘atini boyitishda yetarli darajada samarador bo‘la olmaydi. Biz ham tadqiqot ishimiz jarayonida avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun iboralarning rasmli izohli lug‘atini yaratildi [26]. Chunki biz ilgari surayotgan muammo yechimlaridan biri o‘quvchilar uchun iboralar lug‘atini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishdir. Yaratilgan iboralar lug‘atida jami 800ga yaqin iboraning izohi berilgan. Har bir ibora ishtirokidagi misollar maktab darsligiga kiritilgan matnlar va bolalar adabiyoti asarlaridan olingan. Shu bilan birga ayrim iboralarga rasmlar ishlangan. Bu rasmlar metaforik ibora ifodalab kelayotgan ko‘chma ma’nolilikni to‘liq tasavvur etish imkonini beradi. Lug‘atga, asosan, o‘quvchilarga tanish asar kontekstida uchraydigan iboralar kiritilgan. Bunday ish turi og‘zaki nutq qismlarini yaxshiroq assimilyatsiya qilish va mustahkamlashga yordam beradi. Iboralar lug‘ati ustida ishlashda

o‘quvchilarga ko‘pincha frazeologik birikma hosil qiluvchi fe’llarni o‘rgatish yaxshi samara beradi. O‘zbek tili frazeologik tizimidagi iboralarning asosiy qismini fe’l frazeologik sinonimlar tashkil qiladi. Ular o‘zbek tilidagi barcha frazeologik sinonimlarning 82% ini tashkil etishi ma’lum [35; 251-b.]. Bu ish turidan ona tili darslarida so‘z turkumlari bilan tanishtirish jarayonida unumli foydalanish mumkin [4; 20].

Masalan, 4-sinf ona tilidan “Fe’l so‘z turkumi” [5] mavzusini o‘rgatishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi:bermoq, olmoq, qolmoq fe’llari ishtirokidagi iboralarni sanang: bermoq – adabini bermoq, boy bermoq, dalda bermoq, darak bermoq, dodini bermoq, jazosini bermoq, jon bermoq, jonini jabborga bermoq, oro bermoq, soyasiga salom bermoq, so‘z bermoq, ta’zirini bermoq, tuz bermoq, yon bermoq; olmoq – oq fotiha olmoq, “gah” desa, qo‘liga qo‘nadigan qilib olmoq, ikki oyog‘ini tirab olmoq, ko‘ziga yosh olmoq, ko‘nglini olmoq, otalig‘iga olmoq, oldini olmoq, oyog‘ini qo‘liga olmoq, tilga olmoq, to‘nini teskari kiyib olmoq, yo‘l olmoq, o‘zini tutib olmoq; qolmoq – lol qolmoq, bosar-tusarini bilmay qolmoq, dong qotib qolmoq, hayratda qolmoq, hang-u mang bo‘lib qolmoq, nazardan qolmoq, og‘zini ochib qolmoq, yodida qolmoq kabilar. Bu topshiriq turidan ot va sifat so‘z turkumini o‘qitishda ham foydalanish mumkin.

Ot birikmali iboralar qatorini tuzing: anqoning urug‘i, ammamning buzog‘i,ikki-uch og‘iz, ikki dunyoda ham, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, aqli raso, esi joyidami, dumi xurjunda, dili vayron, bir zumda, boshi oqqan tomon, to‘rt tomoni qibla, bosh og‘rig‘i, devor-darmiyon, dami ichida, gapning po‘stkallasi kabilar;

Sifat birikmali (adekvat) iboralarni lug‘atdan ko‘chiring: avzoyi buzuq, nafsi buzuq, qo‘li egri, ichi tor, bag‘ri keng, tili uzun, fe’li keng, fe’li tor, ko‘ngli oq, ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq, tili shirin, qulog‘i ding, qalbi pok, ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar, joni shirin, gapning sirasi, gapga no‘noq, dimog‘i chog‘, boshi baland, miyasi to‘la, me’dasi to‘q, ichi qora, mayda gap, ichi to‘la gap, ahvoli tang, shaxti past, nazari baland, nazari past, o‘ziga to‘q, o‘ziga tinch, zuvalasi pishiq, zehni o‘tkir kabilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga iboralar lug‘atchasiga sifat birikmali iboralarni kiritayotganda o‘zbek adabiy tili va so‘zlashuv nutqida tez-tez uchraydigan frazeologik birliklar – atamalar mavjudligini tushuntirishi kerak.

Iboralarni faqat ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida emas, balki boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida ham mavzudagi ma’lumotlar bilan integratsiya qilish o‘quvchilar nutqida iboralarni tez faollashuviga olib keladi. Jumladan, tabiiy fandan “Inson tana a’zolari” mavzusiga (ko‘z, quloq, burun, lab, soch, qo‘l, oyoq so‘zlari ishtirokidagi iboralar qatorini tuzish, chunki “o‘zbek tilida somatik iboralar katta qismni tashkil etadi, birgina bosh so‘zi ishtirokidagi 158ta ibora mavjud” [48]); matematikadan “Sonlarni raqamlash” mavzusiga (bir, ikki, to‘rt, besh, yetti, ming sonlari ishtirokidagi iboralar), ingliz (nemis, fransuz) va rus tili darslarida “Idiomalar” mavzusiga integratsiyalash mumkin.

See eye to eye	Сойтис с кем-либо во взглядах	Fikrlari bir yerdan chiqdi
Hold one's tongue	Терят голову	Aqlini yo‘qotmoq
Give someone the cold shoulder	Оказат кому-либо холодный приём	Odam ayirmoq
Lose one's head	Держат язык за зубами	Tilini tiyib yurmoq
To be busy as a bee	Крутится как белка в колесе	Qo‘li qo‘liga tegmay, terga botib
A black sheep	Белая ворона	Yopishmagan yamoq, baxmalga yamoq
Cannot say "boo" to a goose	Мухи не обидит	Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan
To set the fox to keep the geese	Пустит козла в огород	O‘z oyog‘iga o‘zi bolta urmoq

Lug‘at va frazeodidaktik ishlarni olib borishda o‘qituvchi maktab darsliklarida uchramaydigan, ammo so‘zlashuv nutqida keng qo‘llaniladigan iboralardan ham unumli foydalanishi mumkin. Bunda o‘quvchining u yoki bu ibora izohini yozishi va eslab qolishigina emas, balki uning ma’nosini o‘rganishi, o‘z nutqida faol va to‘g‘ri foydalana olishi juda muhimdir. O‘qituvchi tomonidan taklif etilgan iboralar ishtirokida gap va kichik matnlar tuzish o‘quvchilar nutqida mazkur iboralarning faollashuviga olib keladi.

Iboralar ustida lug‘at ishining keyingi bosqichi sinonim iboralar qatorini tuzish bilan davom ettirilishi mumkin. Berilgan ibora ma’nosini uning ma’nodoshi yordamida tushuntirish iborani o‘zlashtirishning qulay usullaridan biri. Ushbu ish turi o‘quvchiga notanish bo‘lgan ibora ma’nosini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. O‘qituvchi dars davomida mazkur frazeologik birliklarning ma’no turlari va qo‘llanilishi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Shu asosda o‘quvchilar yangi ibora bilan tanishadi, uning ma’nosini o‘zlashtiradi, o‘xshash iboralar o‘rtasidagi farqni, nutq vaziyatidan kelib chiqib ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bu kabi ish turlarining ahamiyati shundaki, bir tushuncha ma’nosi boshqa bir qancha ma’nodosh tushunchalar orqali ochib beriladi. Iboralarni sinonim tanlash orqali tushuntirish, o‘sha ibora mazmunini to‘liq tasavvur etish imkonini beradi.

Ma’lumki, frazeologizmlar ma’noni kuchli, obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalovchi til birligidir, shu sababli ulardagi konnotatsiyani anglash uchun frazeologizm ma’nosini unga ma’nodosh bo‘lgan so‘z semantikasi bilan qiyoslash zarur [38; 114-b.]. Chunonchi, so‘zlovchining xursandchiligini: og‘zi qulog‘ida, terisiga sig‘maydi, ko‘zi quvnaydi; to‘polon, urushqoqlikni: miyasini qattig‘ini chiqarmoq, miyasini qoqib qo‘liga bermoq, boshiga ko‘tarmoq, tegganga tegib, tegmaganga kesak otmoq; kuchli hayajonlanish va qattiq qo‘rquvni: yuragi yorilmoq, o‘takasi yorilmoq, yuragi chiqib ketdi, kapalagi uchmoq, joni halqumiga kelmoq, yuragi tovoniga tushib ketdi kabi ifodalovchi iboralar nutq orqali shaxsning kuchli hissiy-emotsinal holatini tasavvur etish imkoniyatini beradi.

O‘qituvchi ona tili va o‘qish savodxonligi darslaridagi o‘quv materiali asosida iboralarga oid mashq va topshiriqlar turini ishlab chiqishi, ulardan dars jarayonida unumli foydalanishi mumkin. Shu bilan birga biror bo‘lim yoki umumlashtiruvchi darslarda iboralarga oid turli mazmundagi sinfdan tashqari (viktorina, olimpiada, qiziqarli tadbirlar, ertaliklar) mashg‘ulotlarni tashkil etish frazeologizmlarni mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi dasturi va darsligida iboralar mavzusi, unga oid mashq va topshiriqlar kiritilishi bu

ishning samaradorligini yanada oshiradi.

Kattalar nutqida turg‘un birikmalar qancha faol bo‘lsa, bola uchun nutq shu qadar jozibali va qiziqarli tuyuladi. Kichik yoshdagi o‘quvchiga iboralardagi majoziy ma’no katta qiziqish uyg‘otadi. “Ana, aqling ham kirib qoldi”, “Qish ham eshik qoqmoqda”, “Ko‘zimning oq-u qorasi”, “Tili shirin bolajon” kabi fikrlar qurshovida o‘sgan o‘quvchi sekinlik bilan iborani o‘z nutqida qo‘llay boshlaydi. Bunda ibora va unga teng keladigan so‘z ma’nosini chog‘ishtirib o‘rgatish frazeologik birlik ifodalab kelgan emotsional-ekspressiv ma’no, so‘z ma’nosiga qaraganda kuchliroq ekanligini anglay boshlaydi. Bu hodisani xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi – ertaklarda kuzatish mumkin. Ertakni tinglayotgan o‘quvchi uning til bo‘yoqdorligi, mazmuni, voqealar syujetiga shu qadar bog‘lanib qoladiki, sekin-asta ertakdagi so‘z va obrazli iboralar bilan o‘z nutqini boyitib boradi. Shunisi e’tiborga molikki, bola odatda sodir bo‘layotgan xatti-harakat mazmuniga mos so‘z o‘ylab topadi, harakat va holatdagi faktni frazeologik tasvir yoki tavtologik xarakterdagi erkin birikmalar orqali yetkazishga harakat qiladi.

Tavtologiya – aynan bir ta’rif yoki muhokamaning boshqacha so‘zlar bilan qaytarilishi, so‘z va iboralardagi o‘xshashlik. Tavtologiya poetik tilda nutqning emotsionalligi va ifodaliligini kuchaytirish uchun takror turlaridan biri sifatida qo‘llaniladi [53; 213-b.].

Ma’lum bir frazeologik zaxiraga ega bo‘lgan o‘quvchi, sodir bo‘layotgan voqelikka emotsional munosabat bildirish uchun iboralardan foydalanishni boshlaydi. Bu holat nutq ixchamligini ta’minlaydi va uni obrazli qiladi. Bola erta yoshdan boshlab sodda ma’noli iboralar ma’nosini tushunishni boshlagan bo‘lsa, ulg‘aygani sari frazeologik birlik ifodalagan ko‘chma ma’noni tasavvur eta oladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchi tilning badiiy vositalarini amaliy ravishda o‘zlashtirishi kelajakda ulardan nutqda faol qo‘llash imkoniyatini beradi.

III bosqich, yakuniy, 4-sinf: Bu bosqichda o‘quvchilarda ta’sirchan va ixcham nutq rivojlantiriladi, ibora haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.

Tahlil va natijalar. To‘rtinchi sinf o‘quvchilari iboralarning lug‘at zaxirasiga ega bo‘lganidan so‘ng, iboralarga oid mavzu va topshiriqlarni takrorlash, o‘rganilgan materialni mustahkamlash, umumlashtirish, turli mavzularni o‘rganishda iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq. Iboralarning obrazliligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida katta qiziqish uyg‘otadi. Ammo o‘quvchida bu mavzuga bo‘lgan qiziqish so‘nib qolmasligi uchun turli mazmundagi qiziqarli topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, ko‘rgazmali qurollar, frazeologik-leksik mashqlardan muntazam foydalanish zarur. Bu kabi topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar iboralar ma’nosi bilan tanishadi, etimologiyasini o‘rganadi, ko‘chma ma’no haqidagi tasavvuri kengayadi, iborani erkin birikmadan farqlay oladi. Bunda o‘quvchilar ona tili va o‘qish savodxonligi darsligiga kiritilgan badiiy matnlar (“Vatan”, “Shippak” hikoyalari 2-sinf [25; 34-b.], “Qo‘rqoq bug‘u” hikoyasi [23], “O‘q” she’ri, “Do‘tslik yo‘lagi” hikoyati 3-sinf [2], “Toshbag‘ir” [34], “Kitobga ixlos” hikoyasi, “Davlat” ertagi [19; 20; 21] 4-sinf)dagi iboralarning obrazliligini vizual tarzda kuzatish, tahlil qilish, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, iboralar ishtirokida gaplar tuza olish, ulardan nutqida erkin va o‘rinli foydalana olish malakasiga ega bo‘ladi. Ibora ishtirokidagi og‘zaki va yozma hikoyalar, insholar vositasida o‘quvchida turg‘un birikmalarni obrazli tasvirlash ko‘nikmasi bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

“Odatda, nutq o‘stirishda uch yo‘nalish ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash. So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Ko‘rsatilgan uch yo‘nalish parallel olib boriladi: lug‘at ishi gap uchun material beradi; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida, bog‘lanishli hikoya va insho lug‘atni boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi” [25; 301-b.].

Yuqorida iboralar ustida ishlash bosqichlarida nutq o‘stirishning Karima Qosimova ishlab chiqqan metodikasiga tayaniladi. Bunda o‘quvchilar nutqida so‘z va iboralarni faollashtirish

asosiy maqsad sifatida qaraladi.

Frazeologiya tilshunoslikning murakkab va ko‘p qirrali bo‘limidir. Umuman olganda, iboraning ma’no tuzilishi so‘znikiga nisbatan ancha murakkab, chunki iboradagi ma’no munosabatlari bilan uning komponent tarkibi o‘rtasida katta uzilish, nomuvofiqlik mavjud. Frazeologik birliklar so‘zlardan farqli holda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi [43, 49-b.]. O‘quvchilarda iboralar ma’nosini anglash, tushunish, nutqda ongli va to‘g‘ri foydalanish qobiliyati boshqa til birliklariga qaraganda ancha kechroq shakllanadi. Shu sabab ham o‘qitishning frazeodidaktik tizimini doim nazorat qilish va kuzatib borish lozim. Y.V.Bestugina o‘z tadqiqotida bola 3 yoshdan boshlab nutqida iboralarni qo‘llay boshlashini ilmiy jihatdan isbotlagan [37]. Shunga ko‘ra boshlang‘ich maktab davridan boshlab iboralarni o‘qitishni tizimli yo‘lga qo‘yish, o‘quvchida iborani nutqda faol qo‘llashga bo‘lgan motivatsiyani uyg‘otish lozim. Bunda kattalar nutqining obrazli va bo‘yoqdorligi bola nutqining ifodali, jozibador va tilning frazeologik qatlamidan foydalanish darajasining o‘ziga xosligiga kuchli ta’sir qiladi [52].

Xorij metodik adabiyotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki [12], tilni o‘qitishning zamonaviy metodikasi frazeologik birliklar bilan ishlashga oid juda katta materialga ega, chunonchi, frazeodidaktika, kichik yoshidagi o‘quvchilarni ona tilining turg‘un birikmalari bilan muntazam tanishtirib borish; iboralardagi ko‘chma ma’nolilikni ochib berishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar, o‘quvchilar nutqida iboralarni faollashtirish bilan tavsiflanadi. Ammo, boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘quv dasturi va darsliklarida kiritilgan materiallar iboralar ustida ishlashda yetarli darajada imkon bermaydi, shu sababli ham bu sohada qo‘shimcha tadqiqotlarni olib borish talab qilinadi.

Xullosa va tavsiyalar. O‘quvchi nutqini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda iboralardan ham samarali foydalanish mumkinligini inobatga olish zarur. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar lug‘atini iboralar bilan boyitish badiiy asar matni ustida ishlash metodikasi, olib boriladigan lug‘at ishining asosiy yo‘nalishlari, obrazli nutqni rivojlantirish, o‘quvchilarda bog‘lanishli nutqni shakllantirishga asoslanishi kerak. Shunga ko‘ra, bizningcha, boshlang‘ich sinflarda iboralar ustida ishlashning butun tizimini quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. O‘quvchilarda iboralarni bilish, esda saqlab qolish va nutqda faol qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida “Iboralar” mavzusiga oid mashq va topshiriqlardan muntazam foydalanish;
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida iboralar ustida ishlashni lug‘at ishlari bilan birgalikda olib borish;
3. Boshlang‘ich ta’lim fanlaridagi mos mavzularni “Iboralar” mavzusi bilan integratsiyalash;
4. Iboralarni o‘rgatishga oid didaktik o‘yinlardan muntazam foydalanish;
5. “Iboralar” mavzusida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar (loyiha ishlari, to‘garaklar, ertaliklar, viktorinalar, zakovat o‘yinlari, musobaqalar)ni o‘tkazish.

Bunda o‘quvchilarning o‘zbek tili iboralaridan nutqda amaliy foydalanishga, faol frazeologik zaxirasini boyitish, nutq madaniyatini rivojlantirish, eng asosiysi, ona tilimizga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b

2.Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.

3.Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E., O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik, II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.

4.Boynazarova D.D., Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik, III qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 96 b.

5.Boynazarova D.D., Toirova. M.E., Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik, II qism. – Toshkent: Novda Edutainment. 2023. – 88 b.

6.Elizabeth Burke Hadley, Karyn Zalman Mendez, Learning Words That Matter: Selecting Vocabulary Words for Young Children. International Literay association, 2021, Vol. 74 No. 5 pp. 595-605.

7.Ellis N.C. Phraseology: The periphery and the heart of language. In F. Meunier., S. Granger (Eds.), Phraseology in foreign language learning and teaching. – 2008. pp. 1-15, Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.

8.Ernazarov G‘. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish uslubiyoti. – Toshkent: ILM – ZIYO, 2005. – 136 b.

9.Gibbs, R. W. Jr. (1995). Idiomaticity and human cognition. InM. Everaert, E-J van der Linden, A. Schenk, & R. Schreuder (Eds.), Idioms: Structural and psychological perspectives (pp. 97-116). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.

10.Isabel L. Beck, Margaret G. McKeown, and Linda Kucan., Creating Robust Vocabulary Frequently Asked Questions and Extended Examples. – Guilford Publications. Copyright. 2008. – 186 p.

11.Isabel L. Beck, Margaret G. McKeown, Linda Kucan. Bringing Words to Life. – New York: The Gilford press, 2013. – 210 pp.

12.Isabel L. Beck, Margaret G. McKeown, Linda Kucan. Creating Robust Vocabulary. – New York: The Gilford press, 2008. – 186 pp.

13.Kühn, P. (1992): “Phraseodidaktik. Entwicklungen, Probleme und berlegungen für den Muttersprachenunterricht und den Unterricht DaF.” In: FLuL 21, P. 169 -189.

14.Kühn, Peter: Redewendunqen - nur im Kontext! Kritische Anmerkungen zu Redewendungen in Lehrwerken.» In: Fremdsprache Deutsch 15, 1996, pp. 10-16.

15.María Isabel González Rey. De la didáctica de la fraseología a la fraseodidáctica. Paremia, ISSN 1132-8940, Nº. 21, 2012, p. 67-84.

16.Marilyn A Nippold, C.L.Taylor. Idiom understanding in youth: Further examination of familiarity and transparency. Journal of Speech and Hearing Research 38(2): P. 426-433.

17.Miraziz A’zam. Ming bir so‘zni bilaman. Bolalar uchun rasmli izohli lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 200 b.

18.Nippold, Marilyn; Rudzinski, Mishelle. 1993. Familiarity and Transparency in Idiom Explanation: A Developmental Study of Children and Adolescence. Journal of Speech and Hearing Research 36: P. 728–737.

19.O‘qish kitobi: 4-sinf uchun darslik. S. Matchonov va boshq. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2013. – 240 b.

20.O‘qish kitobi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. S.Matchonov va boshq. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 216 b.

21.O‘qish kitobi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. S.Matchonov, A. Shojalilov, X. G‘ulomova va boshq. – Yangiyo‘l: Yangiyul Poligraph Service, 2020. – 160 b.

22.Ona tili fani milliy o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi. – Toshkent: 2022. – 216 b.

23.Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism: 3-sinfi uchun darslik. K. Mavlonova va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.

24.Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism: darslik 2-sinf uchun. K. Mavlonova va boshq.– Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

25.Qosimova K va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: NOSHIR, –2009, 352 b.

26.Safarov F., To‘rayeva S., Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun iboralar lug‘ati. – Toshkent: Bayoz, 2023. – 114 bet.

27.Safarov S., F. Safarov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun iboralar lug‘ati. – Toshkent: Navro‘z. 2016. – 80 b.

28.Safarov S., F. Safarov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at. – Toshkent: Fan,

2012. – 220 b.

29.So‘z sandiqchasi: O‘zbek tilining izohli lug‘atchasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2016. – 216 b.

30.Stefan Ettinger. Vom Lehrbuch zum autonomen Lernen. Skizze eines phraseologischen Grundkurses für Französisch. https://opus.bibliothek.uni-augsburg.de/opus4/27486 ISBN: 978-3-7069-0073-7OPAC. 2001. – P 87-104.

31.Terban, M. (1996). Scholastic dictionary of idioms. – New York, Scholastic Inc. – 40 pp.

32.To‘xliyeva Dilfuza. Imloni o‘rganamiz (maktab lug‘ati). – Toshkent: Bayoz, 2020. – 128 b.

33.To‘ychiyeva Zulfiya. Boshlang‘ich sinflar uchun rasmli izohli lug‘at. – Toshkent: Bayoz, 2017. – 68 b.

34.Toirova. M.E., O‘qish savodxonligi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik, II qism. – Toshkent: Novda Edutainment. 2023. – 80 b.

35.Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2020 – 428 b.

36.Антонова Л. В. Большой фразеологический словарь русского языка. – Москва: Дом Славянкой книги, 2021 – 928 с.

37.Бестугина Ю.В. Фразеология в речи дошкольников: Автореф.дис…канд. филол. наук – Иваново 2005. -28 с.

38.Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.фан. номз...дисс. – Самарқанд, 2001. – 184 б.

39.Гаврин С.Г. Изучение фразеологии языка в школе. – Москва: Просвещение, 2008. – 151 с.

40.Грабчикова, Е. С. Фразеологизмы в картинках. – Минск: Пачатковая школа, 2015. – 160 с.

41.Емельянова Т.К. Лингвометодические основы активизации устойчивых оборотов русского языка в речи младших школьников: Автореф. дисс. канд. педаг. наук. – Майкоп, 2003 – 43 с.

42.Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филолог. фан. докторлик дисс. – Самарқанд, 1993. – 252 б.

43.Йўлдошев Қ. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 462 б.

44.Коврова М.А. Упражнения с фразеологизмами как средство развития аналитико-синтетических умений младших школьников на уроках русского языка: Дисс. канд. педаг. наук. – Киров, 2016. – 199 с.

45.Макарова М. А. Использование упражнений с фразеологизмами на этапе закрепления изученного материала по русскому языку в начальной школе. Концепт. – 2014. – Спецвыпуск № 32. С. 79.

46.Макарова М. А. Фразеологизмы и их использование на уроках русского языка в начальной школе. Теория и методика обучения. С – 54-57.

47.Петренко, Е.Е. Фразеологическая картина мира в художественных текстах для младших школьников: Дис. канд. филол. наук. – Челябинск, 2008. – 256 с.

48.Рашидова У.М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида). филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автор. – Самарқанд, 2018. – 52 б.

49.Рогалёва Е.И., Никитина Т.Г.Фразеологический словарь: Заниматеьные этимологические истории для детей. – Москва: Вако, 2014. – 96 с.

50.Сысоева С.В. Лексико-фразеологический анализ текста как средство речевого развития младших школьников: Дисс. канд. педаг. наук. – Рязань, 1999. – 170 с.

51.Ушакова О. Д. Почему так говорят. – Санкт-Петербург: ИД Литера, 2004 – 150 б.

52.Ҳамадамова М.З. 1-2-синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш тизими. Педагогика фан. номз...дисс... – Тошкент, 1998. – 173 б.

53.Ҳомидий. Ҳ., Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. –

299 б.

54.Чепасова, А. М. Мир русской фразеологии: книга для юношества. – Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 1998. – 216 с.

55.Чепасова, А. М. Фразеологизмы в нашей речи: – Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 2000. – 292 с.

56.Шевлякова. Е.Д. Работа по фразеологии в начальном обучении русскому языку: Дис. канд. пед. наук. –Москва. 1969. – 322 с.

57.Шомақсудов Ш., Долимов С., Долимов У. Кенг уйнинг келинчаги ёки ўзбек халқ матал ва ибораларининг энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 640 б.

58.Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Тошкент. Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. – 520 б.

TARBIYA DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLAR, URF-ODAT VA MAROSIMLARNI O‘RGANISH

Tursunova Nozima Ilxomovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o‘quvchilarga o‘rgatishning pedagogik, psixologik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida milliy qadriyatlarni o‘qitish bo‘yicha mavjud huquqiy-me’yoriy asoslar, darsliklar va ilg‘or pedagogik tajribalar o‘rganildi. Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali milliy tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Maqolada, shuningdek, xalqaro tajriba bilan taqqoslash asosida O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni samarali singdirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, tarbiya, urf-odat, marosim, boshlang‘ich ta’lim, ma’naviyat, oila-mahalla-ta’lim hamkorligi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ta’lim-tarbiya tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma’naviy merosi sifatida yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning kuchimiz – birlikda, ma’naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda”. Shu boisdan, boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida milliy qadriyatlarni o‘rgatish nafaqat ma’naviy tarbiya jarayonining, balki yoshlarning milliy o‘zligini anglashining ham muhim omilidir.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy axborot oqimlari, turli madaniy ta’sirlar yoshlarning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Agar ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar yetarlicha o‘rgatilmasa, yoshlar o‘z ildizidan, madaniy negizidan uzoqlashishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, “Tarbiya” fanining mazmuni o‘quvchilarda milliy o‘zlikni shakllantirish, ularni Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, tabiatni asrash, o‘zaro mehr-oqibat kabi qadriyatlarga yo‘naltirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Huquqiy-me’yoriy asoslar. O‘zbekiston Respublikasida tarbiyaviy jarayonlarni milliy qadriyatlar ruhida tashkil etish, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Buning huquqiy va amaliy poydevorini quyidagi hujjatlar tashkil etadi:

•“Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–3775, 2018 yil 14 iyun) yoshlarni axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol etishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni belgilab beradi, jumladan, yoshlar ma’naviyatini oshirishda ota-ona, maktab va mahalla mas’ullarining hamkorligi muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

•“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” dasturiy g‘oyasi asosida ishlab chiqilgan Milliy tarbiya konsepsiyasi ham maktabda milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, “oila-mahalla-ta’lim muassasasi” integratsiyasi orqali tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlardan biridir.

•2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida ham milliy-madaniy merosga asoslangan tarbiya, iqtisodiyot bilan birga ma’naviyatni davlat rivojlanishining ustun tamoyillaridan biri sifatida ilgari surish masalalari ko‘tarildi.

Bundan tashqari, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev bir necha rasmiy yig‘ilishlarda ta’kidlaganidek:

«Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhiy salomiati – ma’naviyatdir» Ushbu ifoda ta’lim-tarbiya jarayonidagi ma’naviy omilning fundamental ahamiyatini aks ettiradi.

Ma’naviyatni ustuvorlashtirish orqali iqtisodiy va madaniy taraqqiyot barqaror bo‘ladi.

Milliy qadriyatlarning tarbiyadagi o‘rni. Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida yaratgan moddiy va ma’naviy boyligi bo‘lib, u kishilarning turmush tarzida, dunyoqarashida, axloqiy me’yorlarida namoyon bo‘ladi. Urf-odatlar – kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, ular bolaga oilada, maktabgacha ta’lim muassasasida va maktabda singdirila boshlanadi. Marosimlar esa ma’lum voqealar bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, Navro‘z, to‘y, sunnat to‘yi, hashar kabi tadbirlar nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega, balki yosh avlodni birdamlik va hamkorlikka chorlaydi.

Zamonaviy pedagogikada tarbiya jarayonini tashkil etishda “oila–mahalla–ta’lim muassasasi” uchligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu uch bo‘g‘inning hamkorligi orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish uzluksiz va izchil amalga oshiriladi. Masalan, dars jarayonida o‘rganilgan qadriyatlar mahalla tadbirlarida amalda qo‘llaniladi, oila esa bu jarayonni kundalik hayotda davom ettiradi.

Shuningdek, XXI asr ko‘nikmalari – tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativlik va ijodkorlik – milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlantirilishi lozim. Chunki zamonaviy avlod nafaqat o‘z tarixini, balki jahon madaniyatidagi o‘rnini ham anglay olishi kerak. Shu bois “Tarbiya” darslarida qadriyatlarni zamonaviy metodlar, axborot texnologiyalari, interaktiv yondashuvlar orqali o‘rgatish zarur.

Keltirilgan omillar ushbu mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Maqolada ushbu jarayonning samaradorligini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi, milliy va xalqaro tajriba solishtiriladi hamda boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida qadriyatlarni o‘rgatishning zamonaviy mexanizmlari taklif etiladi.

METODLAR. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o‘rgatishning samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta ilmiy-pedagogik metodlar qo‘llanildi. Metodlar tanlashda o‘quvchilarning yosh psixologiyasi, dars jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy tarbiya mazmunining nozik jihatlari hisobga olindi.

1. Nazariy tahlil metodi. Avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar, darsliklar, metodik qo‘llanmalar hamda milliy o’quv dasturlar chuqur o‘rganildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Milliy tarbiya” konsepsiyasi, “Tarbiya” fani bo‘yicha o‘quv dasturlari, metodik tavsiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, Sodiqova (2019), Xolmatova (2021), To‘xtayeva (2020) kabi pedagog olimlarning milliy tarbiya metodikasi bo‘yicha ishlari o‘rganildi. Bu tahlillar milliy qadriyatlarni dars jarayoniga integratsiya qilishda nazariy asos yaratdi.

2. Eksperimental dars o‘tkazish metodi.Uchta sinfda eksperimental ravishda “Tarbiya” darslariga milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlar bo‘yicha qo‘shimcha materiallar kiritildi. Masalan, Navro‘z bayrami, hashar an’anasi, mehmondo‘stlik odobi haqidagi interaktiv mashg‘ulotlar, xalq og‘zaki ijodidan namunalar (maqol, topishmoq, rivoyatlar) orqali darslar boyitildi. Bu tajriba o‘quvchilarning darsga qiziqishi va faolligini oshirdi.

3. Qiyosiy tahlil metodi.Milliy tarbiya bo‘yicha O‘zbekiston va xorijiy tajriba qiyoslandi. Xususan, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya maktablarida o‘quvchilarda milliy o‘zlikni shakllantirish bo‘yicha qo‘llaniladigan metodlar o‘rganildi. Bu qiyosiy tahlil milliy modelni takomillashtirish uchun yangi g‘oyalar berdi.

Metodlarni tanlashning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

•Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurati;

•Milliy qadriyatlarni o‘rgatishda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish talabi;

•Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish ehtiyoji;

•Oila–mahalla–ta’lim muassasasi hamkorligini dars jarayonida mustahkamlash maqsadi.

Natijada, ushbu metodlar kompleks qo‘llanilganda, milliy qadriyatlarni “Tarbiya” darslari orqali samarali singdirish imkoniyati oshishi aniqlandi. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va ijobiy munosabatlar shakllanishiga xizmat qildi.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan kuzatuv, suhbat, eksperimental darslar va

qiyosiy tahlil natijasida bir qator muhim ilmiy-amaliy xulosalar olindi. Natijalar quyida batafsil bayon qilinadi.

1. Milliy qadriyatlarni o‘rgatishda o‘quvchilarning qiziqish darajasi yuqori. Eksperimental darslarda o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan (maqollar, topishmoqlar, ertaklar) foydalanib milliy qadriyatlarni tushuntirish ularning diqqatini kuchaytirdi. Masalan, “Mehmondo‘stlik odobi” mavzusida dars o‘tilganda, o‘quvchilar o‘z oilasidagi tajribalarni qiziqib baham ko‘rishdi. Bu esa, mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berdi.

2. An’analar va marosimlar orqali ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Navro‘z, Qurbon hayiti, to‘y marosimlari, hashar kabi an’anaviy tadbirlar haqida dars jarayonida hikoya qilish, video va suratlar ko‘rsatish o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, hamkorlik va o‘zaro hurmat kabi ko‘nikmalarni rivojlantirdi. O‘quvchilar guruh ishlari jarayonida bir-biriga yordam berishga, o‘z fikrini odob bilan ifodalashga o‘rgandilar.

3. Oila–mahalla–maktab hamkorligi yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan.

Suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, ayrim maktablarda ota-onalar va mahalla faollari “Tarbiya” darslarida bevosita ishtirok etmaydi. Bu esa milliy qadriyatlarni bolalarga singdirishda bo‘shliq hosil qiladi. Eksperimental darslarda ota-onalarni ma’ruzachi sifatida jalb qilish bolalarga kuchli motivatsiya berdi, chunki ular oiladagi tarbiya qadriyatlarini bevosita eshitdilar.

4.Ilg‘or xorijiy tajriba elementlari samarali natija berdi.

Finlyandiya va Yaponiya tajribasida o‘quvchilar milliy merosni o‘rganish jarayonida amaliy faoliyatga ko‘proq jalb etiladi (hunarmandchilik, milliy o‘yinlar, tarixiy joylarga sayohatlar). Ushbu elementlardan ayrimlari eksperimental darslarda qo‘llanildi: o‘quvchilar bilan milliy bezaklar yasash, an’anaviy kiyimlar ko‘rgazmasini tashkil etish. Bu ularning ijodkorligi va qiziqishini yanada oshirdi.

5. 4“K” modelidan foydalanish darslarni zamonaviylashtirdi.

Tahlil jarayonida 4 “K” — kreativlik, kommunikativlik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash — elementlarini milliy qadriyatlarni o‘rgatishda qo‘llash yuqori natija berdi. Masalan, “Hashar” mavzusida kreativ topshiriq sifatida o‘quvchilar mahalla hududini tozalash bo‘yicha kichik loyiha ishlab chiqdilar; kommunikativlikni rivojlantirish uchun esa guruh bo‘lib marosimning badiiy sahnalashtirilgan variantini tayyorlash topshirildi.

TAHLIL VA TAVSIYALAR

Yuqorida keltirilgan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitishda milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o‘rgatish o‘quvchilarda nafaqat bilim darajasini, balki ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilamiz va amaliy tavsiyalarni keltiramiz.

1. Milliy qadriyatlarni o‘rgatishda mazmun va metod uyg‘unligi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dars mazmunida milliy qadriyatlarni faqat nazariy ma’lumot sifatida berish yetarli emas. Ularni o‘quvchilar kundalik hayotida qo‘llay olishi uchun interaktiv va amaliy metodlar zarur. Masalan:

•Rol o‘ynash — an’anaviy marosimlarni kichik sahna ko‘rinishlari orqali o‘rgatish.

•Ijodiy topshiriqlar — milliy bezaklar, naqshlar, milliy libos maketlarini yasash.

•Mahalla yoki tarixiy joylarga ekskursiyalar — amaliy ko‘rgan va his qilgan bilim uzoq muddat esda qoladi.

2. Oila–mahalla–maktab hamkorligini kuchaytirish. O‘qituvchi tarbiyaviy ishlarning yagona tashabbuskori bo‘lib qolmasligi kerak. Tadqiqot jarayonida ota-onalar va mahalla faollarini jalb etish samaradorlikni oshirganini ko‘rdik. Shu bois:

•Maktab rahbariyati yil davomida “Ochiq tarbiya darslari” rejasini ishlab chiqishi lozim.

•Mahalla oqsoqollari, nuroniylar va mahalla faollari bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etilishi kerak.

•Ota-onalar uchun “Milliy qadriyatlar va oilada tarbiya” mavzusida seminar-treninglar o‘tkazilishi foydali bo‘ladi.

3. 4 “K” modelini tarbiya darslarida tatbiq etish

Milliy qadriyatlar mavzularini 4 “K” — kreativlik, kommunikativlik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash — asosida o‘qitish nafaqat darsni zamonaviylashtiradi, balki bolalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantiradi.

•Kreativlik: yangi marosim ssenariylarini tuzish, ertaklarni zamonaviy talqinda qayta ishlash.

•Kommunikativlik: turli rollardagi suhbatlarni sahnalashtirish, jamoaviy munozaralar o‘tkazish.

•Hamkorlik: guruhda milliy tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

•Tanqidiy fikrlash: milliy qadriyatlarning zamonaviy hayotdagi o‘rni va moslashuvchanligini baholash.

4. Ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlarni singdirishda “o‘rganish orqali yashash” prinsipi samarali. Finlyandiya maktablarida “Madaniy haftalik”lar, Yaponiyada esa “An’analar kuni” muntazam o‘tkaziladi. O‘zbekiston sharoitida ham quyidagilarni joriy etish mumkin:

•Har chorakda bir marta “Milliy qadriyatlar haftaligi” o‘tkazish.

•Har sinfda bir marosim yoki an’ana bo‘yicha kichik loyiha tayyorlash.

•Maktab ichida “Qadriyatlar burchagi” yoki mini-muzey tashkil qilish.

5. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.Tadqiqot davomida klaster, akvarium, “Aqliy hujum”, sinkveyn kabi metodlar samarali bo‘ldi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan (video, infografika, QR-kodli topshiriqlar) foydalanish o‘quvchilar qiziqishini oshirdi.

Masalan:

•O‘quvchilar milliy marosimlar haqida qisqa videoroliklar tayyorlaydi.

•QR-kod orqali marosim yoki qadriyatga oid interaktiv viktorinalar yechadi.

•Darsda animatsiya va interaktiv taqdimotlardan foydalanish.

6. Tavsiyalar. Tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1.Darsliklar mazmunini boyitish: milliy qadriyatlar bo‘yicha real hayotdan olingan ko‘proq misollar kiritish.

2.Amaliy faoliyatga urg‘u berish: darslar faqat nazariy bo‘lib qolmasligi uchun ijodiy, tadqiqot va loyiha ishlari keng qo‘llanilsin.

3.Mahalla bilan hamkorlikni tizimlashtirish: har oyda bir marta mahalla faollari ishtirokida tadbir o‘tkazish.

4.Ilg‘or xorijiy elementlarni moslashtirish: milliy sharoitga mos innovatsion usullarni joriy etish.

5.O‘qituvchilar malakasini oshirish: “Tarbiya” fanida interaktiv va integrativ metodlar bo‘yicha seminarlar tashkil etish.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaror. PQ–3775, 2018-yil 14-iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oila va mahalla institutlari hamkorligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror. PQ–5800, 2024-yil 5-yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Milliy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaror. PQ–4884, 2021-yil 12-mart.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosidagi nutqlar to‘plami. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

5. A. Jo‘rayev Milliy tarbiya nazariyasi. Toshkent: Fan, 2018.

6. O. Hamroyev Ma’naviyat va qadriyatlar nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.

7. M. Aliyev Tarbiya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Yoshlar, 2019.

8. J. Matyoqubov Yoshlar va milliy qadriyatlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2022.

UMUMTA’LIM MAKTABLARI VA OILADA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Xamrakulova Kumush,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Pedagogik ta’lim” kafedrasi tayanch doktoranti

Anotatsiya: Maqolada umumta’lim maktablari va oilaviy muhitda o‘quvchilarda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etish jarayoniga pedagogik nuqtayi nazardan yondashuvlar keng ilmiy tahlil qilinadi. O‘quvchilar shaxsiy rivojlanishida oilaviy tarbiya va maktab muhitining o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan stress, moslashuv, kommunikativ qiyinchiliklar hamda ularni yengib o‘tishda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu maqolada xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida o‘quvchilar psixologik muammolarining ijtimoiy omillari, oilaviy pedagogik madaniyatning ta’siri va zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida yechimlar ishlab chiqishning nazariy-metodik asoslari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta’minlash, maktab-oila hamkorligini mustahkamlash hamda shaxsning sog‘lom rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash yo‘llarini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: O‘quvchilar, ijtimoiy-psixologik muammolar, umumta’lim maktablari, oila, pedagogik yondashuvlar, psixologik barqarorlik, tarbiyaviy muhit, maktab-oila hamkorligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРЕОДОЛЕНИЮ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ УЧАЩИХСЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ И СЕМЬЕ

Хамракулова Кумуш
базовый докторант кафедры «Педагогическое образование», факультета Социальных наук Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация: В статье проводится широкий научный анализ педагогических подходов к процессу преодоления социально-психологических проблем, возникающих у учащихся в условиях общеобразовательной школы и семейной среды. Особое внимание уделяется взаимосвязи семейного воспитания и школьной среды в личностном развитии учащихся, а также проявлению стрессов, адаптационных трудностей, коммуникативных барьеров в образовательном процессе и механизмам психолого-педагогической поддержки в их преодолении. Кроме того, на основе зарубежных и отечественных исследований раскрываются социальные факторы психологических проблем учащихся, влияние семейной педагогической культуры и теоретико-методические основы разработки решений с использованием современных педагогических технологий. Результаты исследования определяют пути обеспечения социально-психологической устойчивости учащихся, укрепления сотрудничества «школа–семья» и поддержки здорового развития личности.

Ключевые слова: учащиеся, социально-психологические проблемы, общеобразовательные школы, семья, педагогические подходы, психологическая устойчивость, воспитательная среда, сотрудничество школы и семьи.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO OVERCOMING SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF STUDENTS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS AND THE FAMILY

Khamrakulova Kumush
PhD researcher at the Department of “Pedagogical Education”, Faculty of Social Sciences, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: The article provides an extensive scientific analysis of pedagogical approaches to addressing socio-psychological problems faced by students within the environment of general education schools and families. Particular attention is given to the interrelation between family upbringing and the school environment in students’ personal development, as well as to the occurrence of stress, adaptation challenges, and communication difficulties in the learning process, along with mechanisms of psychological and pedagogical support in overcoming them. Furthermore, based on international and local research, the article explores the social determinants of students’ psychological difficulties, the impact of family pedagogical culture, and the theoretical-methodological foundations of developing solutions through modern pedagogical technologies. The findings of the study outline the ways of ensuring socio-psychological stability of students, strengthening school–family cooperation, and supporting the healthy development of the individual.

Keywords: students, socio-psychological problems, general education schools, family, pedagogical approaches, psychological stability, educational environment, school–family cooperation.

Kirish: Hozirgi davrda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy ijtimoiy talablar asosida qayta shakllantirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol inson sifatida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko‘plab omillarga, jumladan, maktab, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligiga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, farzand tarbiyasida ota-onalarning pedagogik madaniyati muhim omil sifatida qaraladi. Chunki qulay ta’lim muhiti nafaqat maktabning moddiy-texnik bazasi, balki oila muhitining ijobiyligi, ota-onalarning pedagogik savodxonligi va tarbiyaga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatiga ham tayangan holda shakllanadi. Pedagogik madaniyat — bu shaxsning ta’lim-tarbiyaviy jarayonga ongli, mas’uliyatli va ilmiy asoslangan tarzda yondashuvini belgilovchi kompleks tushuncha bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, qadriyatlar hamda amaliy faoliyatni o‘z ichiga oladi[1]. Ota-onalarning pedagogik madaniyati deganda ularning farzand tarbiyasidagi o‘rni, ta’lim jarayonida maktab bilan hamkorligi, bolaga bo‘lgan munosabati, psixologik yondashuvi va tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Shunday ekan, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, ularni tarbiyaviy faoliyatga jalb qilish, bolalar tarbiyasida ongli yondashuvni shakllantirish davlat va jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biridir[2]. Bugungi globallashuv davrida axborot oqimining keskin ko‘payishi, yoshlarning turli manbalardan bilim olishi, ularning dunyoqarashi va qadriyatlariga turli tashqi omillar ta’sir ko‘rsatishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda ota-onalar pedagogik jihatdan savodli bo‘lishlari, bolalarga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari, ularni sog‘lom axborot manbalaridan foydalanishga o‘rgatishlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishlari zarur[3]. Shuningdek, ota-onalarning pedagogik madaniyati yuqori bo‘lsa, ular maktab bilan hamkorlikda farzand tarbiyasini samarali yo‘lga qo‘yishlari, bolalarning ijtimoiylashuvi, mustaqil fikrlashi, ma’naviy barkamolligini ta’minlashda faol rol o‘ynashlari mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ota-onalarning pedagogik madaniyati oila muhitida shakllanadigan qadriyatlar, an’analar, ijtimoiy tajribalar, shuningdek, ta’lim tizimida olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari orqali rivojlanadi. Masalan, pedagog olimlar N. Saidahmedov va B. Qodirovlarning ta’kidicha, ta’lim samaradorligi oila va maktab hamkorligisiz to‘liq amalga oshmaydi, chunki bola shaxsining shakllanishida oila birlamchi ijtimoiy muhit

sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega[4]. Xorijiy tadqiqotlarda ham ota-onalarning pedagogik kompetensiyasi yuqori bo‘lgan oilalarda farzandlarning intellektual rivoji, ijtimoiy moslashuvi va motivatsiyasi sezilarli darajada yuqori ekani qayd etilgan[5]. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim-tarbiya jarayonida ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, shuningdek, Prezidentimizning ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlarida ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularning pedagogik savodxonligini oshirish masalalari muhim vazifa sifatida belgilangan[6]. Maktablarda ota-onalar yig‘ilishlarini samarali tashkil etish, ota-onalarni pedagogik ma’rifat ishlariga jalb qilish, ularga metodik qo‘llanmalar yetkazish va turli treninglar o‘tkazish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Qulay ta’lim muhiti yaratishda ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish masalasining dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat ta’lim samaradorligiga, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki farzandlarning kelajagi, ularning intellektual salohiyati, ma’naviy barkamolligi va ijtimoiy kompetensiyasi oila va maktabning uzviy hamkorligiga asoslanadi. Shunday ekan, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish — zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili: Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalasi jahon pedagogik tafakkurida keng ilmiy tadqiqotlarga sabab bo‘lgan. Bu borada, avvalo, amerikalik olima Joyce L. Jorjening tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim. Uning “School, Family, and Community Partnerships” konsepsiyasi ota-onalar, maktab va jamoatchilikning uzviy hamkorligi farzand tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy asosda yoritadi. Jorje ota-onalarning pedagogik madaniyat darajasi faqatgina individual bilim yoki ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki ta’lim jarayonida maktab bilan o‘zaro muloqot, hamkorlik va faol ishtirok orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u pedagogik madaniyatni oshirishning oltita asosiy yo‘nalishini (ota-onalar uchun pedagogik ta’lim, o‘quv jarayoniga jalb etish, kommunikatsiya, uyda o‘quv muhitini yaratish, volontyorlik va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok) ishlab chiqib, nazariy va amaliy jihatdan mukammal modelni taklif etgan. Bu model nafaqat AQShda, balki Yevropa va Osiyo davlatlarida ham qo‘llanilib, ota-onalar savodxonligini yuksaltirishda samarali metod sifatida o‘zini oqlagan. Shuningdek, ingliz olimi David Hopkinsning ta’lim sifatini oshirish va qulay pedagogik muhitni shakllantirishga oid ilmiy ishlari ham mazkur mavzuda katta ahamiyat kasb etadi. Hopkins “School Improvement for Real” asarida ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda ota-onalarning faol ishtiroki va pedagogik madaniyat darajasining yuqoriligini eng muhim mezonlardan biri sifatida ko‘rsatadi[7]. U maktab islohotlari jarayonida ota-onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishni davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlab, buning uchun innovatsion metodik yondashuvlarni ishlab chiqqan. Hopkinsning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agar ota-onalar pedagogik madaniyatni egallasa, ular farzandining nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy-psixologik rivojlanishida ham faol rol o‘ynaydi[8]. Ushbu ikki olimning qarashlari uzviy ravishda shuni tasdiqlaydiki, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish – ta’lim sifatini yaxshilash, qulay ta’lim muhiti yaratish va yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biridir. Ularning konsepsiyalari o‘zaro uyg‘un bo‘lib, xalqaro miqyosda ta’lim jarayonida oila-maktab hamkorligini mustahkamlashning nazariy-metodik asosini yaratadi.

Metodologik qism: Mazkur tadqiqotda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish orqali qulay ta’lim muhitini yaratish jarayonini ilmiy jihatdan o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, dialektik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik hodisalar o‘zaro bog‘liq va uzviy jarayon sifatida tahlil qilindi, bu esa ota-onalarning pedagogik madaniyati jamiyatdagi ta’limiy hamda madaniy muhitning ajralmas tarkibiy qismi ekanini aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, sistemali tahlil metodi orqali oila, maktab va jamiyatning pedagogik o‘zaro ta’siri yaxlit tizim sifatida qaralib, har bir elementning o‘zaro aloqasi chuqur o‘rganildi. Tadqiqotda komparativ metod ham qo‘llanilib, xorijiy mamlakatlarda ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari

bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va lokal muammolarga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi. Shuningdek, empirik metodlar – anketalash, suhbat va kuzatuv asosida ota-onalarning amaldagi pedagogik bilim va ko‘nikmalari, ularning ta’lim jarayonidagi ishtiroki darajasi haqidagi ma’lumotlar to‘plandi. Natijalarni chuqur tahlil etishda kontent-tahlil usuli ham qo‘llanilib, ota-onalarga oid davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda ilmiy maqolalar tizimli ravishda o‘rganildi. Bundan tashqari, pedagogik eksperiment elementi sifatida ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etilib, ularning samaradorligi nazariy tahlil va amaliy kuzatuvlar orqali o‘lchandi. Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi ko‘p darajali, kompleks va interdisiplinar xarakterga ega bo‘lib, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalasini nazariy asoslash, amaliy tajribalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar ishlab chiqishda uzviy tizim yaratdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish qulay ta’lim muhitini yaratishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi, chunki ularning pedagogik savodxonligi va tarbiyaviy kompetensiyalari o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga, o‘quv motivatsiyasining shakllanishiga hamda maktab–oila–jamiyat hamkorligining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi; empirik tadqiqotlar jarayonida aniqlanishicha, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish bo‘yicha tizimli o‘tkazilgan treninglar, seminarlar va metodik maslahatlar ularda ijobiy pedagogik qarashlarni shakllantirish, bolalarning shaxsiy rivojlanish jarayonida individual yondashuvni qo‘llash, oilaviy tarbiya uslublarini yangilash va demokratik muloqot madaniyatini rivojlantirishga sezilarli darajada yordam bergan; shu bilan birga, xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil shuni isbotladiki, ota-onalar pedagogik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar – masofaviy o‘quv kurslari, interaktiv platformalar, ota-onalar uchun virtual konsultatsiyalar va pedagogik resurs markazlari katta samara bermoqda; ushbu tajribalar milliy sharoitda ham qo‘llanilganda, ota-onalarning ta’lim jarayonida faol ishtiroki oshib, maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlangan, bu esa ta’limning samaradorligi va o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishini yangi bosqichga olib chiqqan.

Muxokama: Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish orqali qulay ta’lim muhitini yaratish masalasi jahon pedagogikasida keng ko‘lamli ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Xususan, G. Hoover (AQSh) va M. Jorje (Buyuk Britaniya) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ushbu masalaga oid turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Hoover o‘zining “Parental Involvement in Education” nomli konseptual tadqiqotida ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish jarayonini ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, pedagogik savodxonlik nafaqat oilaviy tarbiya sifatini belgilaydi, balki o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiya, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantiruvchi kuchli mexanizm vazifasini bajaradi. Hooverning nuqtayi nazarida, ota-onalarni muntazam ravishda pedagogik treninglarga jalb etish, ularga metodik qo‘llanmalar taqdim qilish hamda maktab-oila hamkorligini tizimlashtirish orqali qulay ta’lim muhiti barpo etish mumkin. Biroq, Jorje o‘zining mashhur “School, Family and Community Partnerships” konsepsiyasida biroz boshqacha nuqtai nazarni ilgari suradi[9]. Unga ko‘ra, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish muhim jarayon bo‘lsa-da, uning ta’siri maktab va jamiyatning institutsional qo‘llab-quvvatlashi bilan uyg‘unlashmaguncha to‘liq samaraga erishmaydi. Jorjening fikricha, ota-onalarning faolligi ko‘p hollarda maktab tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlar, jamiyatning ijtimoiy kapitali va davlatning ta’lim siyosati bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday ekan, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish bo‘yicha alohida tashabbuslar, agar ular ta’lim muassasalari bilan tizimli integratsiyaga ega bo‘lmasa, qisqa muddatli samara berishi mumkin, biroq uzoq muddatli natija bermaydi. Ikki olimning pozitsiyasini qiyoslaganda, Hoover individual yondashuvga, ya’ni ota-onalarning shaxsiy pedagogik kompetensiyalarini oshirishga urg‘u bersa, Jorje institutsional va ijtimoiy hamkorlikning ustuvor ahamiyatini

ta’kidlaydi. Tolsey nuqtada ular bir-birini to‘ldiruvchi qarashlarni ilgari surganini ko‘rish mumkin[10]. Bir tomondan, ota-onalarning shaxsiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish qulay ta’lim muhitini yaratishda zaruriy shart bo‘lsa, boshqa tomondan, bu jarayonni maktab va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi bilan uyg‘unlashtirish uni samarali mexanizmga aylantiradi. Xorijiy olimlar o‘rtasidagi mazkur bahs-munozaralar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalasi faqatgina individual yoki institutsional nuqtayi nazardan emas, balki kompleks yondashuv asosida hal etilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, milliy ta’lim tizimlarida ham maktab-oila hamkorligini kuchaytirish va ota-onalar uchun pedagogik ta’lim dasturlarini institutsional qo‘llab-quvvatlash zaruratini dolzarb qilib qo‘yadi.

Xulosa: Empirik kuzatuvlar va xorijiy tajribalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish qulay ta’lim muhitini yaratishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ota-onalarning pedagogik savodxonligi va tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va axloqiy kamolotini ta’minlovchi muhim shart-sharoitlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, ota-onalar pedagogik madaniyatining yuksalishi maktab–oila hamkorligini mustahkamlab, ta’lim jarayonining samaradorligi va barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Uchinchidan, xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari, ijtimoiy-pedagogik dasturlar hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kompleks mexanizmlar yuqori natijalar bermoqda. Shu bois milliy sharoitda ham pedagogik treninglar, ota-onalar maktablari, seminar va konsultatsiyalarni tizimli yo‘lga qo‘yish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.2.Ергашбаев Ш. O’zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.

3.Shukrona X., Gulsanam U., Rayxona U. TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA OILA MAH

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA’LIMIDAN AMALIY ISH TURLARI

Xaydarova Malika Djamshitovna.,
BDPI boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Maqolada texnologiya darslarida qo`l mehnatidan samaralijihatlari, o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: treningni individuallashtirish, ijodiy rolli o‘yinlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar.

ВИДЫ ПРАКТИЧЕСКИХ РАБОТ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Хайдарова Малика Джамшитовна.,
доцент кафедры начального образования БДПИ

Аннотация. В статье рассматриваются эффективные аспекты ручного труда на уроках технологии, развитие естественнонаучных компетенций учащихся.

Ключевые слова: индивидуализация обучения, творческие ролевые игры, методы развития критического мышления.

O’quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini texnologiya fani darslarida o’rganadilar. Ular birinchi sinf davridan boshlab nofaqat mehnat darsi mashg’ulotlarida turli materiallar bilan tanishadilar, balki boshqa darslarda ham mehnat turlariga oid materiallarga to’qnash keladilar va ular bilan bilan tanishib boradilar. Masalan, qog’oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish hamda uy-ro’zg’or mehnati va shu kabilar bilan tanishib boradilar. Boshlang`ich sinf texnologiya darslari da amaliy ishlarni bajarib boish jarayonida o’quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondoshish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash bilan bir qatorda, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar ham berib boriladi.

O’quvchilarga mehnatdan ta’lim berishning xususiyatli va ahamiyatli toimonlari mavjud ular ta;lim berishning asosiy vazifalarini o’z ichiga oladi. Sunday vazifalar sirrasiga o’quvchilarda materiallarga ishlov berish ko’nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir.O’quvchlarda materiallarga ishlov berish ko’nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o’quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarni eslab qolishga qodir emaslar.

Hosil qilingan ko’nikmalar malakalarni ham shakllantirib boradi. Bularning barchasi takror mashq qilishlar natijasida takomillashib boradi. O’qituvchi o’quvchilarning xatolarga yo’l qo’ymasligi uchun ularni o’z-o’zini nazorat qilishga odatlantirib borish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo’l qo’yilgan xatolarni o’zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to’g’riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o’quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko’nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo’l asboblaridan foydalanishning o’ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang’ich sinflarni qo’l mehnatiga o’rgatish quyidagi ish turlariga bo’linadi:

1.Qog’oz va karton bilan ishlash.

2.Turli materiallar bilan ishlash:

a) Applikattsiya va mozayka ishlari;

b) Loy va plastilin bilan ishlash;

v) Tabiiy materiallar bilan ishlash.
3.Qog’oz va karton bilan ishlash.
4. Gazlama bilan ishlash.
5. Loyihalash va modellash ishlari.
6. Qishloq xo’jalik ishlari.

Dars boshida o’qituvchi biror mavzu bo’yicha suhbat olib boradi, bu buyum qanday maqsadlarda vaqayerda ishlatilishini tushuntiradi. Shundan so’ngra o’quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo’llashg o’tadilar.

Buyumni tayyorlash usullarini o’qituvchi sinf doskasiga osib qo’yilgan yo’llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko’rsatadi. Ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, amaliy ish materialini takrorlaydi va buyumni o’quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o’tadi.

Texnologiya fanidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi:

1. O’quvchilar oldiga mehnat topshirig’ining maqsadi va mavzusini qo’yish:

a) darslarda bajarishga mo’ljallangan buyum yoki ishning o’quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko’nikmalarni egallash lozimligini ko’rsatish.

2. Ish o’rni, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan o’lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o’lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o’qish, ya’ni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan o’lchovlar bo’yicha belgilab chiqish. O’quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko’rsatib tushuntirayotgan o’qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish. Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig’ish; detallardan buyumni yig’ish jarayonida; buyum va uning detallariga ishlov berish jarayonida

zarur bo’ladigan bilim va ko’nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo’yish.

Texnologiya fanida amaliy ish mashg’ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o’qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi. Amaliy ishlar jarayonida o’quvchilarda mehnatga qiziqish va muhabbat singdirib boriladi. Mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri ishlanadigan buyumni to’g’ri tanlashdir. O’quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligi, qayerda ishlatilishini bilishlari kerak.

O’quvchilarni ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo’lishlari, o’z ishlarini rejalashtira bilishlari, materiallni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o’qituvchi ko’rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozada saqlashlari, mashg’ulotdan so’ng sinfni tozalab qo’yishlariga odatlantirib borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin, 11.

2.Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Primary Educational Process. International Journal of Culture and Modernity, 11, 192-195.

3.Djamshitovna, X. M. (2021). The Didactic Potential of Modern Information Technologies in Achieving the Professional Competence of the Future Teacher. International Journal of Culture and Modernity, 11, 201-204.

4.Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Initial Educational Process. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 252-255.

5.Haydarova, M. (2017). Impact of globalisation on economic growth and investment attractiveness of regions. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 149-158.

6.Хайдарова, М. Д. (2013). Роль интеграции в школьном образовании. Педагогика и современность, (4), 33-36.

7.Хайдарова, М. Д., Юлдашев, Б. Н., & Узбекистан, Б. (2019). Информационные технологии в трудовом обучении школьников. teacher Namangan region, Norin district school, 40, 542.

8.Хайдарова, М. Д. (2020). Способы реализации индивидуального подхода к начальному образованию. European research, 6, 64.

9.Хайдарова, М. Д. (2020). Единство трудового и эстетического воспитания школьников. Вестник науки и образования, (23-2 (101)), 63-65.

10.Хайдарова, М. Д. (2019). Интеграция уроков технологии с другими предметами. Теория и практика современной науки, (5), 755-758.

ETNOPEDAGOGIKADAN FOYDALANGAN HOLDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGIO‘QUVCHILARNI TARBIYALASHNING AFZALLIKLARI

Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qish savodxonligi darslarida etnopedagogik qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati, hamda boshlang‘ich ta’limda pedagogikaning turli shakllari, xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: etnopedagogika, evristik, qobiliyat, faoliyat, natija, ijtimoiy tarbiya, ta’lim, qadriyatlar, ta’lim jarayoni, pedagogika, ta’lim samaradorligi, metod, usul, shakl, mezon, baholash, qadriyat.

ADVANTAGES OF EDUCATING PRIMARY SCHOOL CHILDREN USING ETHNOPEDAGOGY

Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi
Bukhara State Pedagogical Institute Primary Education Teacher of the department

Abstract. This article discusses the role and importance of ethnopedagogical values in reading literacy lessons, as well as various forms of pedagogy in primary education, in particular the role, importance and characteristics of ethnopedagogy.

Keywords: ethnopedagogy, heuristic, ability, activity, result, social education, education, values, educational process, pedagogy, educational effectiveness, method, method, form, criterion, assessment, value.

ПРЕИМУЩЕСТВА ВОСПИТАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭТНОПЕДАГОГИКИ

Хайруллаева Дилноза Нурмат кизи
Бухарский государственный педагогический институт начального образования
Преподаватель кафедры

Абстрактный. В данной статье рассматриваются роль и значение этнопедагогических ценностей на уроках грамотности чтения, а также различные формы педагогики в начальном образовании, в частности роль, значение и особенности этнопедагогики.

Ключевые слова: этнопедагогика, эвристика, способность, деятельность, результат, социальное воспитание, образование, ценности, образовательный процесс, педагогика, образовательная эффективность, метод, способ, форма, критерий, оценка, ценность.

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction). Bugungi yangilanayotgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning intellektual qobiliyatini yanada rivojlantirish, shu asosda ularni ijodkorlik va ilmiy tafakkurini har tomonlama yuksaltirish masalalarini muammo sifatida o‘rganishni nazarda tutmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarni kreativ yondashuv asosida ta’lim samarasini oshirishga tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan bo‘lib, bu ularning kreativlik va innovatsion tafakkurini rivojlantirish muhim mezon vazifasini bajarishga yo‘naltirmoqda. Shu kunlarda tubdan yangilangan me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda yaratilgan moddiy-texnik baza o‘qituvchilarni o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda kreativ yondashuv asosida izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirishga e’tibor qaratilayotganligi ham mana shu bilan izohlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga yo‘llagan murojaatnomasida: “Najot - ta’limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi” - degan fikrlarida ham ta’lim jarayonidagi kechayotgan o‘zgarishlarga

tub maqsad sifatida qarashning amaliy masalalari nazarda tutiladi.

Har bir xalq, millat tilining ichki qonuniyatlari, grammatik qurilishi, nazariy asoslarini o‘rganish bilan o‘sha til haqida mukammal xulosaga kela olmaymiz. Chunki har qanday til sarchashmasi xalq tili bo‘lib, xalq tili bag‘rida mavjud bo‘lgan barcha birliklarni atroflicha tadqiq qilishgina millat tili xususiyatlarini to‘lig‘icha o‘rganish imkonini beradi. Tilda saqlanib qolgan maqol, matal, ibora, metafora, ramz va majoz – o‘tmish va bugungi milliy madaniyatimiz yodgorliklari hisoblanadi. Ular voqelikni bilvosita ifodalaydi, shuning uchun ham ular bebaho milliy boylik hisoblanadi. Bilvosita ifodalashda milliy o‘zlik namoyon bo‘ladi. Xalq tili, shevalari, marosimlari, an’analari, ya’ni xalqning butun madaniy merosi uni ifodalovchi barcha madaniy material elementlari bilan birgalikda bir butun yagona tarzda shu madaniyat vakillarining tasavvurlarini o‘zida namoyon etadi. Hech bir to‘siqqa qaramay, qadimiy an’ana, urf-odat, kiyim-kechak, oziq-ovqat va hokazo, bir so‘z bilan aytganda, milliy madaniyatning rang-barangligini yetarli darajada to‘liq va jonli tarzda saqlab qolgan birliklardan biri paremalar hisoblanadi. Dunyodagi xalqlar turlicha yashash tarzi hamda qarashga ega bo‘lib, bu holat ularning madaniy yodnomalarida aks etadi. Maqollar ham xuddi shu yodnomalar qatorida har bir xalq milliy hayotining muhim jihatlarini o‘zida muhrlovchi, asrlar davomida avloddan avlodga yaxlit tarzda yetkazuvchi solnoma bo‘lib, xalqning turmush tarzini to‘lig‘icha aks ettiradi. Rus olimi V.V. Serikov ta’lim zamonaviy va an’anaviy shakllarning birgalikda mavjudligi bilan tavsiflanadi, deb hisoblaydi. Ham rivojlangan nazariy bilimlar, ham xalq pedagogikasi shaklini olgan pedagogik nazariyalar ham ta’lim dasturlari, standartlari, “texnologiyalari”ni yaratishga birdek hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. O‘ziga xoslik shundaki, ularning barchasi bir xil «ta’lim davri» doirasida birga yashashi mumkin. Muammoni hal qilish uchun etnopedagoglarning fikriga ko‘ra quyidagilar zarur: o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun motivatsiyani shakllantirish; tarixiy xotirani, vatanparvarlik, fuqarolik, axloqiy, estetik tuyg‘ularni rivojlantirish; milliy madaniyat elementlarini hayotda takrorlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. Etnopedagogikada umuminsoniy yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar jamlangan: hayot, muhabbat, vatan, salomatlik, ozodlik, e’tiqod, xotira... O‘tmishga har bir murojaat esa bugunni poklaydi, kelajakni boyitadi. Etnopedagogika abadiy hayot baxsh etuvchi manba, har bir inson va butun xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagi o‘rtasidagi jonli ko‘prikdir, deydi Etnopedagogika asoschilaridan biri G.N.Volkov. Etnopedagogika xalqimizning qahramonona o‘tmishi, milliy qadriyatlari, tarixi, urf-odatlari, ta’lim-tarbiyadagi ilg‘or g‘oya va tajribalarini o‘zida aks ettiradi. Ana shu bebaho merosni o‘rganish va undan o‘quv tarbiya jarayonida foydalanish uchun, avvalo, xalq ommasi to‘plagan pedagogik ma’lumotlar, bilimlar, ko‘nikma va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz kerak. Zotan, xalq pedagogikasi manbalarida qator o‘ziga xoslik va takrorlanmaslik mavjuddir. So‘z ham tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods). Ona tili - ulg‘ayayotgan shaxsning asos-negizidir. O‘z bolasini ona tilidan mahrum etgan ona undan ruhan ajralib qoladi, natijada boladan kelgusida insoniy fazilatlardan hamda tabiatdan ajralib qolgan odam etishib chiqadi. Bunday odam o‘z xalqining eng yaxshi an’ana xususiyatlaridan mahrum bo‘lib, o‘rnini boshqa hech narsa bilan to‘ldirolmaydi. Yangi tarixiy sharoitlar eski muammolarni hal etishni talab qiluvchi ko‘plab yangi muammolarni ilgari suradi. Bu etnopedagogika tadqiqotlarining yana bir keng ko‘lamli sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda ayrim qadimgi urf-odatlar Navro‘z bayrami, hayit ayyomlari, Qovun sayli, Gul sayli umumdavlat an’analariga aylanib bormoqda. O‘quv - tarbiya ishlari samaradorligi xalqning an’analaridan mohirona foydalanishga, islom dinining muqaddas an’analariga asoslanib ish tutishga bog‘liq. Hadislar orqali ijtimoiy masalalar ham o‘z ifodasini topadi. Quldorlik, feodalizm jamiyatida qullarning haq-huquqlari nihoyatda chegaralangan bo‘lib, ularning moddiy va maishiy ahvollari hech qanday qonun va qoidalar bilan himoya etilmagan. Ularni inson sifatida hurmat qilish, jabr-zulm ko‘rsatmaslik, moddiy va maishiy turmush darajasini yaxshilashga e’tibor diniy va badiiy manbalar orqaligina quldorlarga, feodallarga yetkazilgan. Ijtimoiy turmush tartib-qoidalariga rioya qilmaslik, jamiyatning ayrim a’zolari tomonidan bunday

qonun qoidalarni o‘zgartirishga urinish yomon natijaga olib kelishi tabiiy. Qur’oni Karim, Hadisi sharif, xalq og‘zaki ijodi, boy mumtoz adabiyotimiz manbalarida oddiy, eziluvchi xalq ommasini boy, hukmdor doira vakillari bilan o‘zaro adolatli kelishtirish asosida jamiyatni o‘zgartirish, kishilarni bir-birlariga nisbatan mehr oqibatli, insonparvar bo‘lib yashashlariga erishish mumkin, degan g‘oya olg‘a suriladi. Azaldan xalqimizda sabr-qanoat, yomon kun ketidan yaxshi kunlarni, azob-uqubat ketidan farovonlikni ishonmaydigan, sabrsizlik qilgan, qo‘l ostidagilarga, qo‘ni qo‘shnilarga, oila a’zolariga yomonlik qilgan kishi do‘zaxiy hisoblanadi. ga, qo‘niqo‘shnilarga, oila a’zolariga yomonlik qilgan kishi do‘zaxiy hisoblanadi. Hadislar mazmuniga singdirilgan bu g‘oya kishilarni ijtimoiy turmushga ko‘nikishga, ishonch bilan yashashga undab keldi. Hadislarda kishilarning barchasini teng, tinch-totuvlik bilan yashashlarini ta’minlash uchun bu toifadagi birovga qaram, faqir kishilarni qaramlikdan ozod etish, jamiyatni adolat asosida boshqarish lozim degan g‘oya olg‘a suriladi. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o‘z navbatida o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o‘zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq. Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Xalqning milliy qadriyat, an’analarini ham boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilar qalbiga singdirib borish bilan ona Vatanga muhabbatini yana-da oshirish lozim.

Etnopedagogika-asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma’rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o‘rin tutgan. Chunonchi, xalq o‘zining ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta’li-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Etnopedagogikaning muhim yo‘nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo‘lgan xususiyatlarning saqlanishini ta’minlash sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, etnopedagogika-allomalarimiz tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘qituvchining insoniy fazilatlari va kasbiy tayyorgarligi haqidagi bildirilgan fikrlar hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Xalqimiz pedagogik qarashlarining tahlili bu borada juda boy ma’naviy - ma’rifiy meros mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni xalqimizning ta’lim tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha to‘plagan boy ma’naviy-ma’rifiy meros va pedagogik qarashlari bilan tanishtirish ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida etnopedagogika namunalarini o‘rgatish metodikasining vazifalari - xalq pedagogikasining ta’lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an’analari, ta’lim-tarbiya jarayonlarining xalq og‘zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta’limotlarda ifodalanish masalalarini o‘rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun mohiyatini tushuntirishdan iborat.

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion). O‘zbek xalqining o‘tmishdagi tarixiy tajribasi, ma’naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog‘liq masalalami ilmiy jihatdan to‘la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yolini aniq belgilab beradi. Etnopedagogika - etnik guruhlarning ta’lim tarbiya borasidagi tajribalari, oila, urug‘, avlod, millatning qadimiy qadriyatlariga ma’naviy, botiniy va zohiriy qarashlari haqidagi fandir. U xalq pedagogikasidan zamonaviy sharoitlarda foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi, etnik guruhlarning bu boradagi tajribalarini yig‘adi va tatbiq etadi. Boshqacha qilib aytganda, etnopedagogikani turli xalqlar tarbiyasining tarixi va nazariyasi sifatida ko‘rish mumkin. Barcha xalqlarda benazir aql, xushmuomalalik, mardlik, haqgo‘ylik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi. Maqollarda biz buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Xalq maqollari eslab qolish uchun qulay shaklga ega bo‘lib, etnopedagogik vosita sifatida ular ma’nosini kuchaytiradi.

Maqollar xotiraga mahkam o‘rnashadi. So‘z o‘yinlari, so‘zlarning turlicha jarangi, qofiyadoshligi, ohangdorligi, goho shu qadar jozibali bo‘ladiki, kishi oson esda saqlab qoladi. Ayni holda she’riyat donolikni, tarbiya va uning hosilasi xulqni ifoda eta bilish faoliyati tajribasini asrash va targ‘ib qilish vazifasini ado etadi. Maqolning asil vazifasi tarbiyadir, ular qadim zamonlardan buyon ta’lim vasitasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bir tomondan, ular ta’lim g‘oyasidan iborat, ikkinchi tomondan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ta’lim vazifasini bajaradi, xalq tasavvurlariga mos keluvchi tarbiya ta’sirining vositalari, uslublari to‘g‘risida hikoya qiladi, shaxsning ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholaydi, shaxsning shakllanish maqsadlarini u yoki bu tarzda aniqlab, tarbiyalanishga chorlaydi, o‘zlarining tarbiyachidek qutlug‘ vazifalarini mensinmaydigan katta yoshdagi odamlarni qoralaydi va hokazo. Maqollarning eng keng tarqalgan shakli o‘gitdir. Ta’lim nuqtai nazaridan o‘gitlar uch toifaga bo‘linadi. Bolalar va yoshlarni yaxshi xulqli bo‘lishga, shu jumladan, muloyim bo‘lishga undaydigan tanbehlar. Katta yoshdagi odamlarni o‘ziga yarashadigan xulq-odobga o‘rgatadigan tanbehlar va nihoyat, tarbiya natijalarini aks ettiruvchi, ta’lim maslahatlaridan iborat o‘ziga xos nasihatlar. Bu, ayniqsa, ta’lim tajribasini umumlashtirishning o‘ziga xos shakli sanaladi.

Maqollarda bolalarning tug‘ilishiga, ularning xalq hayotidagi o‘rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga, rag‘batlantirish va jazolashga, o‘qish mazmuniga, mehnat va ahloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar fe’l-atvoridagi fazilatlarni meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta’siriga daxldor ta’lim g‘oyalari o‘z aksini topgan. Bola tarbiyasida yomon tomonga og‘ish yuz berishi ham mumkinligini to‘g‘ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: “Buyumni suv bilan, insonni o‘rgatish bilan tozalashadi”. Lekin, Rudakiy ta’kidlaydiki: “Agar kim olmasa hayotdan ta’lim, unga o‘rgatolmas hech bir muallim”. Yoki: “Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo‘q.”, “Toptalgan o‘tloqda ham gul unadi” va boshqalar shular jumlasidandir. Jamiyatning ma’naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta’minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o‘zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo‘lini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlardayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklar asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning (XI asr) “Devoni lug‘otut turk” asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g‘oyalar targ‘ib etilgan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha yetib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallashib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni yengillashtiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo‘shiqlar paydo bo‘lgan. Demak, o‘zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo‘lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo‘lgan. Qadimiy etnopedagogik manbalar bizgacha asl holida yetib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o‘zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqllar, qo‘shiqlardan iborat bo‘lgan. Biroq, etnopedagogika respublikamizda alohida fan sifatida endigina shakllanish arafasidadir. Uning manbalarga g‘oyat boy tarixiy taraqqiyot yo‘lini ilmiy pedagogikjihatdan puxta o‘rganish va tizimga solish ishlari o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Ana shu ma’naviy merosning bir ko‘rinishi bo‘lgan xalq pedagogikasi obidalari faqat pedagogik haqiqatlar majmuasigina bo‘lib qolmay, balki xalqimiz unda o‘z ideyalari hamda muhim didaktik prinsiplarini ham aks ettirgan. Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi. Etnopedagog G.N.Volkovning ta’kidlashicha, «Har bir xalqning kuchli va o‘ziga xos jihatlarini ta’kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas». Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o‘zbekcha mehmondo‘stlik kabi ijobiy fazilatlar shular jumlasidandir. Xalq pedagogikasi o‘z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: «Xalqlarning o‘z qadimiy madaniyatiga e’tibori va qiziqishning uyg‘onishi ularning haqiqiy donoligidan dalolatdir. Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to‘plangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari yig‘indisidir. Ma’lumki,

qadriyatlarni yaratuvchi ham, avloddan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o‘zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinf ona tili hamda o‘qish savodxonligi darslarida ham ular quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma’rifiy qadriyatlar, badiiy estetik qadriyatlar, sog‘lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma’naviy ruhiy qadriyatlar.

XULOSA VA TAVSIYALAR. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion) O‘zbek xalqining axloq-odob me’yorlari o‘zining mentaliteti va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda dunyodagi boshqa xalqlarnikidan keskin farqlanadigan jihatlarini o‘rgatishda maqollar juda muhimdir. Adab bilan bog‘liq hikmat va maqollarning ko‘pligi xalqimiz hayotining ajralmas qismi bo‘lib, qadriyatlarimizning asosi ekanligini namoyon qiladi. Masalan, “Adabli bola elga manzur”, “Adabing – axloqing”, “Adabni adabsizdan o‘rgan”, “Adab – adabni chorlar”, “Adabli kelin boy kelin” va hokazo. Masalan, Luqmon Hakimdan: “Adabni kimdan o‘rganding” deb so‘radilar. Luqmon javob berdi: “Adabni beadablardan o‘rgandim, ularning harakatlaridagi maqbul bo‘lmagan narsalardan o‘zimni saqladim”. Ya’ni, olim bu yerda o‘quvchini mantiqiy fikrlashga, chuqur mushohadaga qilishga undamoqda.

“Aql va odob egizakdir” degan naql odamlarni jamoat joylarida to‘g‘ri tutishga o‘rgatadi. Bu birinchi navbatda o‘quvchilarning o‘z fikri, ongi, odob-axloqi egasi bo‘lishiga yordam beradi. Shuningdek, bu ularning mehnatsevar, fidoyi va olijanob shaxslar bo‘lishiga yordam beradi”

Ibn Sino qomusiy olim bo‘lishi bilan birga o‘z asarlarini she’riy usulda tushuntirib berishga e’tibor qaratgan. Natijada, uning ko‘plab asarlari o‘z davrida va keyingi asrlarda ham juda ommalashib ketgan. Oqibatda alloma bu tajribalari orqali Sharqda urjuzalar deb nomlangan janrga asos solganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Topishmoq ko‘ngilxushi yoki faqat ermak emas, balki topishmoq orqali atrof, muhit, tabiat yaqinidan tanishtirilishi bilan birga aql-zakovat, zehn, fikr o‘tkirligini sinash quroli hamdir. Chunki, u kishini hozir javobgarlikka o‘rgatadi. Topishmoq xalq ijodining boshqa janrlari: doston, ertak, qo‘shiq, maqol, kabi xalqning ma’naviy boyligi va jamoa ijod mahsulidir. U inson, ijtimoiy hayot, tabiat hodisalarning mavjud barcha tamonlari bilan keng bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt zaminga asoslanadi. Unda atrofimizni qurshab turgan real, moddiy dunyodagi turli obektlar aks etadi. Har bir topishmoq o‘ziga xos shakl va mazmuniga ega bo‘lgan mustaqil bir butun badiiy asardir. Bu janr ikki kishi yoki jamoa o‘rtasida berilgan jumboqli savolga javob qaytarish tarzida ijro etiladi. An’anaviy topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalari, umuman, har xil obektlarga poetik tus berilgan holda obrazlashtirish – taqqoslash, o‘xshatish orqali jumboqlanadi. Shunday topishmoqlar borki, uning javobini topish juda qiyin. Undagi yaxlitlangan, taqqoslangan narsani o‘xshatmasi, taqqoslanmasini topish uchun ko‘p o‘ylash, tinimsiz fikr yuritish orqali muayyan belgilarini aniqlashga, qidirishga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.M. J. Mutalipova. Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2015.

2.Xayrulloyeva D. System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks //Центрнаучныхпубликаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

3. Xayrulloyeva D. The gradual development of native language textbooks for grades 3-4 in primary school //центрнаучныхпубликаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

СОВРЕМЕННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Юлдашев Б.Н.,
Старший преподаватель кафедры начального образования БДПИ

Аннотация. В статье рассмотрены положения концепции математического образования. Также представлены дидактические игры с методикой их использования на уроках математики в начальных классах. Автор описал несколько приёмов проведения физкультминуток на уроках математики.

Ключевые слова: аксиоматика, концепция, абстрактное мышление, метапредметные результаты, младший школьник.

BOSHLANGANCHI SINFLARDAMATEMATIKA FANIDAN O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI

Yuldashev B.N.,
BDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada matematik ta’lim kontseptsiyasining qoidalari ko’rib chiqiladi. Shuningdek, boshlang’ich sinflarda matematika darslarida ulardan foydalanish metodikasi bilan didaktik o’yinlar taqdim etildi. Matematika darslarida jismoniy tarbiya daqiqalarini o’tkazishning bir necha usullarini tasvirlab berildi.

Kalit so‘zlar: aksiomatika, tushuncha, mavhum fikrlash, meta-mavzu natijalari, boshlang’ich sinf o’quvchisi

Урокматематикивначальнойшколеявляетсяосновойразвитияуучащихсяпознавательных действий, в первую очередь логических, включая и знаково-символические, а также таких, как планирование (цепочки действий и задачам), систематизация и структурирование знаний, преобразования информации, моделирования, дифференциация существенных и не существенных условий, аксиоматика, формирование элементов системного мышления, выработка вычислительных навыков.

Особое значение имеет математика для формирования общего приема

решения задач как универсального учебного действия. Таким образом, математика является эффективным средством развития личности школьника. Исходя из общих положений концепции математического образования, начальный курс математики призван решать следующие задачи:

- создать условия для формирования логического и абстрактного мышления у младших школьников на в ходе в основную школу как основы их дальнейшего эффективного обучения;

-сформировать набор необходимых для дальнейшего обучения предметных и общеучебных умений на основе решения как предметных, так и интегрированных жизненных задач;

-обеспечить прочные и сознательное овладение системы математических знаний и умений, необходимых для применения в практической деятельности, для изучения смежных дисциплин, для продолжения образования; обеспечить интеллектуальное развитие, сформировать качества мышления, характерные для математической деятельности и необходимые для полноценной жизни обществе;

-сформировать представление об идеях и методах математики, о математики как форма описания и методе познания окружающего мира;

- сформировать представление о математике как части общечеловеческой культуры, понимание значимости математики для общественного прогресса;

-сформировать устойчивый интерес к математики на основе дифференцированного подхода учащихся;

-выявить и развить математические и творческие способности на основе заданий, настоящих нестандартный, занимательный характер.

В результате освоения предметного содержания предлагаемого курса математики у учащихся предполагаться формирование универсальных учебных действий, .(познавательных, регулятивных, коммуникативных) позволяющих достигать предметных метапредметных и личностных результатов.

Образовательная и воспитательная задача обучения математики решаются комплексно. В основе методического аппарата курса лежит проблемно-диалогическая технология, технология правильного типа читательское деятельности и технология оценивания достижение, позволяющие формировать у учащихся умение обучаться с высокой степенью самостоятельности. При этом в первом в классе проблемная ситуация естественным образом стоится на дидактической игре.

В результате освоения предметного содержания курса математики у учащихся должны сформироваться как предметные, как и общее учебное умение, а также способы познавательное деятельности. Такая работа может эффективно осуществятся только в том случае, если ребенок будет испытывать мотивацию к деятельности, для не будет не только ясный рассматриваемые знания и алгоритмы действий, но и представлена интересное возможность для их реализации.

Известно, что любая задача, которое направлено на развитии познавательное деятельности учащихся, способствует изучение тем. К числу таких задач можно отнести следующие:

Ребята составьте из разбросных букв слово.

- Правильно, это - математика. А для чего нужно знать математику? Кто из всех желает сегодня узнать что-то новое по математике? Сегодня на уроке мы с вами не просто будем считать, и решать- мы отправимся путешествовать, и возьмем с собой сказочного героя. Отгадайте задачу: круглый, румяный, печки печен, на окошке стужен.

- Правильно, колобок.

Скок да скок, скок да скок, покатился колобок. Круглый да румяный, прямо на поляна. Эффективность усвоения знаний удваивается при выполнении задач сопровождающихся поэтическими строками.

Шутки.

Учитель: сколько будет половина восьми?

Петя: какая - сверху, или с боку?

Учитель: что значит - сверху или с боку?

Петя: - Ну, если с верху - это будет ноль, а сбоку - три.

-Сколько тебе лёт?

-одиннадцать.

-Да ведь тебе прошлом году было только пять, значить, в этом тебе должно быть шесть!

-прошлом пять, в этом шесть, а всего одиннадцать.

Литература

1.Бантова С.В. Поурочные разработки по математике. 1,2,3 классы. Изд-во «Экзамен», 2007.

2.Бантова М.А. и др. Методическое пособие к учебнику Математика. 1,2,3,4 классы. Москва: «Просвещение», 2003.

3.Файзуллаев М.,Юлдошев Б. и др. Дидактические игры на смекалку. Бухара: «Дурдона», 2014.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BERILGAN MODEL RASMINI YARATISH VA BAZAVIY KONSTRUKSIYASINI QURISH

Ismailova Momogul Hamraboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada Loyihalashni avtomatlashtirish-bu mahsulot yaratish jarayonining bosqichlarini raqamli texnologiyalar va maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshirish tomonlari yoritilgan Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish sohasida ushbu yondashuv, ayniqsa, kiyim konstruksiyasi va modellashtirish bosqichlarida katta ahamiyat kasb etadi. An’anaviy qo‘l mehnatiga asoslangan loyihalash metodlari vaqt va mehnat sarfini ko‘paytiradi, inson xatoligi ehtimolini oshiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligini cheklaydi. Shu sababli avtomatlashtirilgan tizimlar (asosan CAD-Computer-Aided Design va LAS-Loyihalashning Avtomatlashtirilgan Sistemalari) zamonaviy kiyim ishlab chiqarish sanoatida muqobil va muhim yechim sifatida keng joriy etilayotgani alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar:kompyuterli loyihalash, model eskizi, raqamli chizma, grafik muharrir, bazaviy andoza, konstruksion chizma, o‘lchov kiritish, CAD tizimi, chiziqlar tahriri, siluet elementlari, konstruktsiya algoritmi, modellashtirish bosqichi, interfeys oynasi, dizayn moduli, chizmachilik vositalari, parametrik sozlamalar, geometrik aniqlik, interaktiv tahrir, texnologik moslashuv.

СОЗДАНИЕ ИЗОБРАЖЕНИЯ ЗАДАННОЙ МОДЕЛИ И ПОСТРОЕНИЕ БАЗОВОЙ КОНСТРУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Исмаилова Момогул Хамрабой кизи
Ургенчского государственного педагогического института-Преподаватель кафедры технологического образования

Аннотация:В данной статье освещаются аспекты автоматизации проектирования -осуществление этапов процесса создания изделия с использованием цифровых технологий и специализированных программных средств. В сфере производства швейных изделий данный подход особенно важен на этапах конструирования и моделирования одежды. Традиционные методы проектирования, основанные на ручном труде, увеличивают затраты времени и усилий, повышают вероятность человеческой ошибки и ограничивают эффективность производства. В связи с этим автоматизированные системы (в основном CAD-Computer-Aided Design и LAS-автоматизированные системы проектирования) внедряются как альтернативное и важное решение в современной швейной промышленности.

Ключевые слова:компьютерное проектирование, эскиз модели, цифровой чертёж, графический редактор, базовый шаблон, конструкционный чертёж, ввод размеров, CAD-система, редактирование линий, элементы силуэта, алгоритм конструкции, этап моделирования, окно интерфейса, модуль дизайна, инструменты черчения, параметрические настройки, геометрическая точность, интерактивное редактирование, технологическая адаптация.

CREATION OF A GIVEN MODEL IMAGE AND CONSTRUCTION OF THE BASIC DESIGN IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Ismailova Momogul Hamraboy kizi
Urgench State Pedagogical Institute is a teacher of the Deportment of Technological education


Annotation:This article highlights aspects of automated design-the implementation of product development stages using digital technologies and specialized software tools. In the field

of garment production, this approach is particularly significant during the stages of clothing construction and modeling. Traditional design methods based on manual labor increase time and labor costs, raise the likelihood of human error, and limit production efficiency. Therefore, automated systems (mainly CAD-Computer-Aided Design and LAS-Automated Design Systems) are increasingly being adopted as an alternative and essential solution in the modern apparel manufacturing industry.

Keywords:computer-aided design, model sketch, digital drawing, graphic editor, basic template, construction drawing, input of measurements, CAD system, line editing, silhouette elements, construction algorithm, modeling stage, interface window, design module, drafting tools, parametric settings, geometric accuracy, interactive editing, technological adaptability.

Zamonaviy kiyim dizayni va konstruktsiyasini samarali, tezkor va aniqlik bilan bajarish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar, xususan LAS (Loyihalashning Avtomatlashtirilgan Sistemalari) va CAD (Computer-Aided Design) tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar asosida loyihalash jarayoni ilg‘or algoritmlar, grafik muharrirlar va matematik modellarga asoslangan bo‘lib, inson mehnatini yengillashtiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda xatoliklarni minimallashtiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar asosida loyihalashda bir qator asosiy tamoyillar mavjud bo‘lib, ular texnologik jarayonning har bir bosqichini aniq, tizimli va izchil tarzda tashkil etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy kiyim dizayni jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish - dizayn sifatini, ishlab chiqarish tezligini va aniqligini oshirishning muhim omillaridan biridir. An’anaviy qo‘l bilan chizilgan model eskizlariga nisbatan, kompyuter yordamida yaratilgan eskizlar nafaqat ko‘proq aniqlik va estetikani ta’minlaydi, balki avtomatlashtirilgan konstruktsiya, modellashtirish va ishlab chiqarish bosqichlariga integratsiyalashgan holda foydalanishga imkon beradi. Quyida model eskizini kompyuterda yaratish jarayoni izchil yoritiladi.



1-rasm. Model konsepsiyasini belgilash

Kiyim modelining kompyuterda eskizini yaratishdan oldin dizayner tomonidan uning g‘oyaviy konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Bu bosqichda quyidagilar aniqlashtiriladi:

— kiyim turi (masalan, yubka, ko‘ylak, kostyum);

— siluet va umumiy shakl (to‘g‘ri, tor, kengayuvchi, beldan qirqilgan va boshqalar);


— yoqa, yeng, etak, tugmalar, fermuarlar kabi detallarning turi va joylashuvi;
— mato turi va fakturasi (yengil, to‘q, silliq, bezakli, trikotaj va h.k.);
— bezaklar (applikatsiya, naqsh, choklar, ilova elementlari va boshqalar).

Bu kontseptual yondashuv — kelajakda yaratiladigan modelning asosidir.

2. Grafik muharrirda boshlang‘ich shakllarni yaratish

Modelning birlamchi geometrik shakllari kompyuter grafik muharririda yaratiladi. CAD tizimlarida yoki raqamli dizayn dasturlarida (masalan, Adobe Illustrator, CorelDRAW yoki Lectra Kaledo Style) quyidagi amallar bajariladi:

— asosiy tananing (tors) konturini chizish;
— asosiy liniyalarni belgilash (bel, yelka, son chiziqlari);
— yeng, yoqa, etak, cho‘ntaklar va boshqa detallarni joylashtirish;
— geometrik proporsiyalar va nisbatlarni to‘g‘ri taqsimlash.




2-rasm. Grafik muharrirda boshlang‘ich shakllarni yaratish

Bu bosqichda konturlar chiziqli grafik shaklda yaratiladi, ya’ni konstruktsiyalashga tayyor asosiy shakl hosil qilinadi.

3. Detallash va bezak elementlarini kiritish

Model eskizining keyingi bosqichi — estetik ko‘rinishni boyitish, ya’ni detallarni to‘liq aks ettirishdir. Bunda:

— chok chiziqlari, bukmalar, tikuvlar, dekorativ elementlar belgilanadi;
— tugmalar, to‘qimaviy tuzilma, naqsh va ranglar qo‘shiladi;
— modellash elementlari, masalan, vitachkalar, taxlamalar, o‘ramlar tasvirlanadi;
— mato fakturasi va hajmiy ko‘rinish 2D yoki 3D ko‘rinishda simulyatsiya qilinadi.




3-rasm. Detallash va bezak elementlarini kiritish

Detallash bosqichida modellarni rangda tasvirlash va foydalanuvchi uchun vizual qabul qilish imkoniyati ham yaratiladi.

4. Yakuniy tasvir va hujjatlashtirish

Model eskizi to‘liq chizilgach, u texnik hujjatga aylantiriladi:

- modelning old va orqa ko‘rinishlari;
- detallar ro‘yxati va tavsifi;
- ranglar kodi, mato turi, o‘lchovlar bo‘yicha tavsiyalar;
- elektron fayl formatida saqlash (PDF, AI, DXF va h.k.).



4-rasm. Yakuniy tasvir va hujjatlashtirish

Bu hujjat dizayner, konstruktor va ishlab chiqarish bo‘limlari o‘rtasidagi texnik aloqa vositasi

hisoblanadi.

Kompyuter yordamida kiyim modeli eskizini yaratish — bu zamonaviy texnologiyalar yordamida estetik va funksional dizaynni aniq, tez va qayta ishlash imkoniyatiga ega tarzda yaratish jarayonidir. Ushbu bosqichlar dizaynerning kreativ yondashuvi bilan raqamli vositalarning imkoniyatlarini uyg‘unlashtirib, tayyor mahsulotning sifatli, ergonomik va zamonaviy bo‘lishiga zamin yaratadi. Shuningdek, bunday yondashuv sanoatda CAD tizimlariga asoslangan avtomatlashtirilgan konstruktsiyalash jarayonlariga uzviy bog‘lanadi.

2.Grafik muharrirlar orqali bazaviy konstruksiya elementlarini loyihalash

Zamonaviy yengil sanoatda kiyimni konstruksiyalash jarayoni tobora raqamlashtirilmoqda. Bunda grafik muharrirlar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. An’anaviy qo‘l mehnatiga asoslangan chizmalar o‘rnini endilikda kompyuter grafik muharrirlari (masalan, Lectra, Gerber AccuMark, Grafis, Optitex, Assyst, Richpeace) egallab, dizayner va konstruktorlarga bazaviy konstruksiya elementlarini yuqori aniqlikda, tezlikda va funksionallikda yaratish imkonini bermoqda. Quyida bu jarayonning asosiy bosqichlari va ilmiy-texnik yondashuvlari izchil bayon qilinadi.

Bazaviy konstruksiya tushunchasi

Bazaviy konstruksiya — bu kiyim shaklini aniqlovchi asosiy geometrik chizma bo‘lib, unga keyinchalik modellashtirish elementlari (yoqa, yeng, vitachka, kesim, cho‘ntak va h.k.) kiritiladi. Bu chizma tayyor kiyimning tanaga qanday mos tushishini belgilaydi. Shuning uchun bazaviy konstruksiya yuqori aniqlik, aniq o‘lchov va mexanik-tasviriy tahlil asosida qurilishi shart.

Grafik muharrir vositalari va ularning funksiyalari

Grafik muharrirlar — bu foydalanuvchiga interaktiv rejimda konstruktiv chizmalarni chizish, tahrirlash, o‘lchash, o‘zgartirish imkonini beradigan maxsus dasturiy interfeyslar majmuasidir. Muharrirlar odatda quyidagi funksiyalarni taqdim etadi:

— 2D chizma muhiti: geometrik shakllar (to‘g‘ri chiziq, aylana, yoy, egri chiziq) yordamida detallarni chizish;

— O‘lchov kiritish moduli: antropometrik ma’lumotlar asosida aniq o‘lchamlar berish;

— Qurilish vositalari: perpendikulyar, parallel chiziqlar, koordinata nuqtalari, egri kesmalar qurish;

— Tahrirlash funksiyalari: konturlarni ko‘chirish, ko‘paytirish, simmetrik nusxa olish, kesish, kesma o‘rnatish;

— Qatlamlar (layer) tizimi: har bir detal, belgilar va texnologik elementlar uchun alohida qatlamlar ochish;

— Automatik bog‘lanish: chizmada bitta nuqtaning o‘zgarishi bilan unga bog‘liq butun struktura avtomatik yangilanadi;

— Andoza generatsiyasi: chizma asosida avtomatik ravishda andozalar hosil qilish.

Bu vositalar dizayner va konstruktor ishini sezilarli darajada yengillashtiradi, ayniqsa murakkab shakldagi kiyimlarni ishlab chiqishda.

Konstruksiya elementlarini bosqichma-bosqich loyihalash

Bazaviy konstruksiya qurilishi oldidan tizimga foydalanuvchining (yoki standart antropometrik jadvaldagi) o‘lchovlari kiritiladi. Masalan: bo‘y, ko‘krak aylana, bel, son, yelka eni, yeng uzunligi, orqa bo‘y uzunligi va boshqalar. Bu o‘lchovlar asosida chizma avtomatik tarzda shakllanadi.

O‘lchovlar asosida chizmada asosiy nuqtalar belgilanadi: A nuqta (boshlanish), B, C, D... nuqtalar — yelka, ko‘krak, bel va boshqa kesmalar bosh nuqtalari sifatida aniqlanadi. Ushbu nuqtalar orqali to‘g‘ri chiziqlar, radiuslar va egri chiziqlar chizilib, kontur hosil qilinadi.

Siluet va shaklning aniqlashtirilishi

Kiyim shakli, masalan tor, to‘g‘ri yoki kengayuvchi siluetga ega bo‘lishi aniqlanadi. Egiluvchanlik va ergonomik qo‘shimchalar, bukmalar, vitachkalar grafik muharrirda matematik asosda aniqlanadi.Detallarni ajratish va nomlash .Bazaviy andoza ichidan kerakli detallar (orqa, old, yeng, yoqa) ajratib olinadi va har bir detal alohida qatlamda nomlanadi. Har bir detalga texnik belgi, chok zaxirasi, yig‘ish chizig‘i, simmetriya o‘qi kabi grafik elementlar kiritiladi.

Avtomatik andoza va gradatsiya tayyorlash

Bazaviy konstruktsiya asosida avtomatik ravishda:

– andoza konturlari ajratiladi (yopiladigan joylar, kesmalar, choklar);

– razmerlar gradatsiyasi — foydalanuvchi belgilagan razmer oralig‘ida avtomatik ko‘paytiriladi (masalan, 44–52 razmerlarda).

Bu orqali yagona konstruktsiyadan turli razmerlardagi andozalar tez va aniq shakllantiriladi.

Saqlash, eksport qilish va tahlil qilish

Yakuniy chizmalar grafik muharrirda quyidagi formatlarda saqlanishi mumkin: DXF, PLT, AI, PDF va h.k.

Shuningdek, tizim avtomatik tarzda:

– material sarfini hisoblaydi;

– konstruktsiyaning aniqligini tekshiradi;

– texnik hujjatlar (texnologik xarita, detal ro‘yxati) tayyorlaydi.


Grafik muharrirlar orqali bazaviy konstruksiya elementlarini loyihalash — bu zamonaviy, aniq, funksional va tezkor kiyim ishlab chiqarish uchun poydevor yaratish jarayonidir. Ushbu usul yordamida an’anaviy konstruktsiyalashdagi murakkab, mehnat talab qiluvchi bosqichlar avtomatlashtiriladi, inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamaytiriladi va bir xil sifatdagi ko‘plab model variantlari yaratiladi. Grafik muharrirlar — bu nafaqat chizma vositasi, balki raqamli dizayn va sanoat texnologiyalarining uzviy bog‘lovchi ko‘prigidur.

Tikuv buyumlarini loyihalash jarayonida model yaratish va bazaviy konstruktsiyani aniqlashtirish — butun kiyim ishlab chiqarish siklining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu bosqichda qo‘llaniladigan texnik vositalar va dasturiy ta’minotlar mahsulot sifati, texnologik aniqlik va ishlab chiqarish samaradorligini belgilab beradi. Ayniqsa, zamonaviy sanoat sharoitida kompyuterlashtirilgan loyihalash tizimlari (CAD/LAS) bu jarayonning ajralmas qismiga aylangan. Quyida ushbu jarayonda qo‘llaniladigan asosiy texnologiyalar, ularning afzalliklari va funksional imkoniyatlari mukammal tarzda tahlil qilinadi.

1. Modellash va konstruktsiya aniqligini ta’minlovchi texnik vositalar

Grafik kompyuterlar va monitorlar

Model chizmalari, konstruktsion sxemalar va vizual simulyatsiyalar yuqori aniqlikda ishlanishi uchun zamonaviy grafik imkoniyatlarga ega kompyuterlar talab etiladi. Monitorlar keng formatli va yuqori ekran aniqligiga ega bo‘lishi kerak (Full HD, 2K yoki 4K). Bu foydalanuvchiga chizmalarni aniq ko‘rish, tuzatish va detallashtirish imkonini beradi.



5-rasm.Grafik planshetlar (digital tablet)

Model eskizlarini qo‘l harakati bilan chizish, tahrirlash va raqamlashtirish uchun grafik planshetlar (masalan, Wacom, Huion) ishlatiladi. Bu vosita ayniqsa dizaynerlar uchun qulay bo‘lib, ijodiy jarayonni tezlashtiradi.

Plotterlar

Plotterlar — tayyor andozalarni katta formatda chiqarish (chop etish) uchun mo‘ljallangan printerlar. Ular grafik muharrirda yaratilgan konstruktsiyalarni materialga ko‘chirishda ishlatiladi. Plotterlar millimetrgacha aniqlikda chizmalarni chop etadi va ishlab chiqarishdan oldingi tayyorgarlik jarayonida katta ahamiyatga ega.

3D skanerlar va o‘lchov tizimlari

Qisqa vaqt ichida inson gavdasining to‘liq 3D modelini yaratish va antropometrik o‘lchovlarni olish imkonini beradi. Bu orqali individual konstruktsiyalarni avtomatik qurish va o‘lchov aniqligini ta’minlash mumkin.

Keng qo‘llaniladigan dasturiy ta’minotlar (CAD/LAS tizimlari)

Lectra Modaris

Dunyo bo‘yicha eng keng qo‘llaniladigan CAD dasturlaridan biri bo‘lib, kiyim konstruksiyasi, modellashtirish, gradatsiya va marker joylashtirishni kompleks tarzda bajaradi. Interfeysi foydalanuvchiga qulay, eksport-import funksiyalari kuchli va sanoat standartlariga moslashtirilgan.

Modaris asosiy imkoniyatlari:

— bazaviy andoza yaratish;
— yeng, yoqa, bel chizig‘i kabi detallarni loyihalash;
— model transformatsiyalari;
— 2D va 3D tasvirlash imkoniyati.

Gerber AccuMark

Konstruktsion dizayn, o‘lcham gradatsiyasi, marker joylashtirish va texnologik hujjatlarni yaratish uchun mo‘ljallangan. Bu tizim yirik ishlab chiqaruvchilarda keng qo‘llaniladi.

Afzalliklari:

— andozalarni avtomatik tahrirlash;
— keng andoza kutubxonasi;
— marker optimallashtirish algoritmlari;
— bir nechta foydalanuvchi rejimida ishlash imkoniyati.

Optitex

2D va 3D modellashtirishni birlashtirgan ilg‘or platforma. Modellarni virtual manekenlar ustida ko‘rib chiqish, harakat simulyatsiyasi va mato xatti-harakatini oldindan tahlil qilish imkonini beradi.

Xususiyatlari:

— realistik 3D kiyim sinovlari;
— mato elastikligi va og‘irligini hisobga olgan holda konstruksiya;
— tikuv, to‘qima va sirt fakturasini aniq simulyatsiya qilish.

Grafis CAD

Yuqori aniqlikdagi geometrik chizmalar uchun mo‘ljallangan. Bu tizim ayniqsa o‘quv yurtlari va ilmiy-loyihaviy muassasalarda keng foydalaniladi. Modul printsipida qurilganligi sababli, foydalanuvchi faqat kerakli funksiyalarni tanlab ishlatishi mumkin.

Konstruksiya aniqligini ta’minlaydigan vositalar

— O‘lchovlar bazasi: standart antropometrik jadval (ISO, GOST, O‘zDSt) yoki foydalanuvchiga moslashtirilgan o‘lchov tizimlari.

— Avtomatik gradatsiya algoritmlari: razmerlar orasidagi matematik bog‘liqlik asosida konstruktsiyani ko‘paytirish.

— Interaktiv tahrir muhiti: real vaqt rejimida o‘zgarishlarni chizmada ko‘rsatish va ularni avtomatik hisoblash.

— Modellash vositalari: siluet o‘zgarishlari, choklar, vitachkalar, bukmalarni yaratish uchun grafik vositalar (curve tools, dart tools, symmetry tools).

Model yaratish va bazaviy konstruktsiyani aniqlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan texnik vositalar va dasturlar nafaqat loyihalashning aniqligi va tezligini oshiradi, balki tayyor mahsulotning estetik, ergonomik va texnologik sifatini ham belgilaydi. Kompyuter grafik muharrirlari, 3D modellash texnologiyalari, CAD/LAS dasturiy tizimlari yordamida loyihalash bosqichlari avtomatlashtiriladi, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamaytiriladi va ishlab chiqarish jarayoni standartlashtirilgan holga keltiriladi. Bugungi kunda bunday vositalarni bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish dizayner va konstruktorlar uchun zarur kasbiy ko‘nikma hisoblanadi.

Bundan tashqari, avtomatlashtirish loyihalashda inson mehnatining yukini kamaytiradi, ijodiy ishlarga ko‘proq vaqt ajratish imkonini yaratadi, jismoniy harakatlar o‘rnini intellektual boshqaruv tizimlari bilan almashtiradi. Shuningdek, buyumni tayyorlashdan oldin u haqda barcha texnik, grafik va iqtisodiy ma’lumotlarni oldindan baholash imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish xavfini kamaytiradi, ommaviy ishlab chiqarishga moslashuvchanlikni ta’minlaydi va zamonaviy moda industriyasi talablariga tezda javob qaytarishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, loyihalashni avtomatlashtirish — bu nafaqat texnologik jarayonni raqamlashtirish, balki butun ishlab chiqarish tizimini modernizatsiya qilish vositasi hisoblanadi. Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash va modellashtirishda avtomatlashtirilgan yondashuvlarning keng joriy qilinishi, milliy yengil sanoatni raqamli transformatsiya qilish yo‘lida muhim bosqichlardan biridir. . Grafik menyular, tugmalar, buyruqlar va vizual yordamchi vositalar yordamida foydalanuvchi butun loyihalash jarayonini boshqaradi. Bu interfeys intuitiv, soddalashtirilgan va o‘quvchilar, mutaxassislar uchun qulay shakllantirilgan bo‘ladi.LAS tizimining tuzilmasi va tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq, funksional jihatdan aniq taqsimlangan modullardan iborat bo‘lib, ularning har biri alohida vazifani bajaradi. Shu bilan birga, bu modullar integratsiyalashgan holda ishlashi sababli tizim umumiy loyihalash va ishlab chiqarish jarayonini mukammal darajada boshqaradi. Kiyim konstruktsiyasi, dizayni va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishda LAS tizimlarining to‘liq va samarali tuzilmasi sanoat texnologiyalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Davletsheva. Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma.Toshkent “Sano standart” nashriyoti 2017 yil.
2. Gaipova N.S.va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Adabiyot” 2006 yil.
3. Ayollar ust kiyimining tikuvchisi,chevar.Talqin nashriyoti.Toshkent.2003y.
4. Abdullayeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Adabiyot” 2006 yil.
5. S.Tashpulatov, F.Alqarov, G.Alimova, Z.Xaqnazarova, B.Muxtorov, S.G‘ofurova. Kiyimlarni kompyuterda loyihalash asoslari. T.,»Ilm ziyo». 2014.
6. D.Tkachev. Samouchitel AutoCAD. 2004. ZAO. Izdatelskiy sentr «Akademiya». 2010. 176 s.
7. S.I.Sharipova, D.F.Djalolova «Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasi» O‘quv qo‘llanma -Toshkent: 2021.- 124 b.
8. Konstruirovanie odejdi s elementami SAPR: Uchebnik dlya vuzov / E.B. Koblyakova, G.S. Ivleva, V.E. Romanov i dr. - 4-e izd., pererab. i dop.; Pod red.
9. E.B. Koblyakovoy. – M.: KDU, 2007. - 464 s.
10. Xudojestvennoe konstruirovanie odejdi / T. V. Medvedeva, seriya: «Visshee obrazovanie», M.: Forum: Infra-M, 2003. - 480 s.
11. Surikova G.I. Proektirovanie raskladok lekal detaley odejdы v SAPR: Uchebnoe posobie / G.I. Surikova, M.V. Surikova, O.V. Surikova, Ivanovo: IGTA, 2005. - 152 s.
12 . Masalova V.A. Vvedenie v AutoCAD: metodicheskoe posobie / V.A. Masalova

O‘QIB VA TINGLAB TUSHUNISHDA BILUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Atadjanova Sadoqat Baxtiyarovna
Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi metodisti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qib va tinglab tushunishda biluv topshiriqlaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida biluv topshiriqlari o‘quvchining matnni idrok etish, tahlil qilish, xulosalash hamda ijodiy qayta ishlash faoliyatini faollashtiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi. Asarda biluv topshiriqlari kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan izohlanib, tilni o‘rganish tafakkur, ong va idrok jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi yoritilgan. Bundan tashqari, maqolada ona tili ta’limida biluv topshiriqlari tizimining o‘quvchini izlanishga, qiyoslashga, umumlashtirishga va mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, biluv topshiriqlari xotiraga yoki tafakkurga mo‘ljallanishiga qarab qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy mashqlar sifatida tasniflanadi. Ularning vazifalari matnni to‘g‘ri idrok etish, asosiy fikrlarni ajratish, mazmunni yodda saqlash va mustaqil baholashni shakllantirishdan iboratligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: topshiriq, biluv topshirig‘i, kognitiv yondashuv, o‘qib tushunish, tinlab tushunish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ЗАДАНИЙ В ЧТЕНИИ И АУДИРОВАНИИ

Атаджанова Садокат Бахтияровна
Методист управления дошкольного и школьного образования

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы использования познавательных заданий при чтении и аудировании. В учебном процессе познавательные задания рассматриваются как важное средство, активизирующее деятельность учащихся по восприятию текста, его анализу, обобщению и творческой переработке. В работе познавательные задания объясняются с точки зрения когнитивного подхода, при этом подчеркивается, что изучение языка тесно связано с процессами мышления, сознания и восприятия. Кроме того, в статье раскрыта значимость системы познавательных заданий на уроках родного языка в направлении учащихся к поиску, сравнению, обобщению и самостоятельному мышлению. Также познавательные задания классифицируются в зависимости от их направленности на память или мышление как задания на воспроизведение, частично поисковые и творческие упражнения. Их задачи заключаются в формировании умений правильно воспринимать текст, выделять основные идеи, сохранять содержание в памяти и вырабатывать навыки самостоятельной оценки.

Ключевые слова: задание, познавательное задание, когнитивный подход, понимание при чтении, понимание на слух.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING COGNITIVE TASKS IN READING AND LISTENING COMPREHENSION

Atadjanova Sadoqat Bakhtiyarovna
Methodologist of the Department of Preschool and School Education

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical foundations of using cognitive tasks in reading and listening comprehension. In the learning process, cognitive tasks are regarded as an important tool that activates students’ activities in perceiving the text, analyzing it, drawing conclusions, and creatively transforming the content. The study explains cognitive tasks from the perspective of the cognitive approach, emphasizing that language learning is closely connected with the processes of thinking, consciousness, and perception. In addition, the article reveals the

significance of the system of cognitive tasks in mother tongue education for directing students toward inquiry, comparison, generalization, and independent thinking. Furthermore, cognitive tasks are classified, depending on whether they are aimed at memory or thinking, as recall tasks, partially exploratory tasks, and creative exercises. Their functions are shown to consist in developing the ability to correctly perceive the text, identify key ideas, retain the content in memory, and form independent evaluation skills.

Keywords: task, cognitive task, cognitive approach, reading comprehension, listening comprehension.

Kirish. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qib va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki nutqning bu ikki turi tilni o‘zlashtirishda asosiy manba hisoblanadi. Biluv topshiriqlari esa mazkur jarayonni samarali tashkil etishning eng qulay vositalaridan biri bo‘lib, ular o‘quvchining matnni idrok etish, tahlil qilish, xulosalash va ijodiy qayta ishlash faoliyatini faollashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ona tili ta’limida biluv topshiriqlaridan foydalanish kognitiv yondashuvga tayangan holda amalga oshiriladi. Har bir shaxsning aqliy faoliyati natijalari nutq orqali ifodalanadi, shuning uchun biz tilshunoslikda ong tuzilmalari haqida hamma narsani o‘rganamiz. Til insonning individual xususiyatlari, o‘z-o‘zini anglashi, atrof-muhitni bilishi vositasi sifatida o‘rganiladi. Til “kommunikativ faoliyatda amalga oshiriladigan va inson miyasidagi maxsus kognitiv tuzilmalar va mexanizmlar tomonidan ta’minlangan” kognitiv jarayon sifatida qaraladi.

Kognitiv atamasi ingliz tilidagi “cognitive – bilishga oid” so‘zidan olingan bo‘lib, lotin tiliga va yunon tiliga taqaladi, bilish, anglash, tafakkur tushunchalari bilan bog‘liqdir. Dunyoni, voqelikni bilish, idrok etish, ong va tilda aks ettirish, til orqali muloqotga kirish, axborot uzatish va qabul qilish oddiy hodisa emas. Tilni o‘qitishda kognitiv yondashuv falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lingvistik hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Amerikalik psixolog H.Gardner kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi (falsafa, psixologiya, tilshunoslik, antropologiya, sun’iy intellekt, nevrologiya) tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun’iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo‘llanishi muammolari yechimini izlash bilan band bo‘lishini qayd qilgan edi (Gardner 1987) [3].

Kognitiv fanlar o‘zaro bog‘liq ilmiy fanlarni birlashtiradi va tafakkurni o‘rganishga qaratilgan. Bu fanlar tizimi aql va ong, shuningdek, ularning qonunlari, modellari va tuzilmalarini tushuntirishga imkon beradi.

Tilni o‘rganishning kognitiv yondashuvi va xususiyatlari xorijiy olimlarning I.A.Boduen de Kurtene, J.Bruner, L.Vaysgerber, L.S.Vigotskiy, V.Gumbolt, M.Jonson, S.D.Katznelson, E.Kassirer, A.Kibrik, V.Kroft, E.S.Kubryakova, J.Kerroll, J.Lakoff, R.Langaker, A.R.Luriya, A.A.Leontev, Y.M.Lotman, C.Osgud, A.A.Potebniy, L.Taimi, G.Tompson, E.Sapir, B.L.Uorf, J.Faukonyer, G.Harman, N.Xomskiy va boshqalarning nazariyalarida o‘z ifodasini topgan. Olimlarning ishlari va nazariyalari tilshunoslikning bilim doirasini kengaytirgan hamda til rivojlanishi va kognitiv qobiliyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga imkoniyat yaratgan [4].

Kognitiv ta’lim o‘quvchini izlanishga, qiyoslashga, xulosa chiqarishga va zarurini tanlashga yo‘naltiradi. Demak, reproduktiv ta’lim bilim bersa, kognitiv ta’lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo‘llarini o‘rgatadi, usullarini tavsiya etadi – o‘quvchi qo‘liga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o‘quvchiga o‘rgatib bo‘lmaydi. Kognitiv ta’limda sistemaviy izchillikka ega topshiriqlar tizimidan foydalaniladi. Mazkur topshiriqlar tizimi hodisalarni kuzatish, ularni umumlashtirish, narsa-buyum, holat, tushunchalarni o‘zaro qiyoslash, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga; o‘quvchilarni o‘ylash, fikrlash izlash, topish va

umumlashtirishga; dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratishga qaratilgan bo‘lishi zarur [6, 121].

Ona tilini kognitiv yondashuv asosida o‘qitish keng imkoniyatlar bilan birga ayrim qiyinchiliklarga ham ega.

1. Ona tilinining o‘rganish obyektini murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan mavhum tushunchalar tashkil qiladi. Ona tilini o‘qitish ongga ta’sir qilish, aqliy jarayonlar orqali kechadi. Tilni o‘rganishni hayot bilan bog‘lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Ona tili o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

2. Ona tilini o‘qitish umumiy falsafiy tamoyillarga asoslanadi. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Til bilan tafakkur uzviy bog‘liq bo‘lib, tafakkur so‘z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o‘zicha yashamaydi. Til va tafakkur atrofimizni o‘rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So‘z tushunchaning shartli nomini o‘zida aks ettiradi. Dunyoda yo‘q narsa ongda ham, tilda ham bo‘lmaydi. Bu holat o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya’ni til atrofni o‘rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o‘rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalaridan biriga, ya’ni nima birlamchi: tabiat (materiya)mi yoki ongmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; materiya – birlamchi, ong – ikkilamchi degan tushunchadan o‘quvchilarning xabardor bo‘lishiga yordam beradi. Til – barcha tomonlari o‘zaro dialektik bog‘lanishda va birlikda bo‘lgan murakkab, ko‘p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlari bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi, shunday sharoitdagina til o‘zining aloqa quroli vazifasini bajara oladi [2, 185].

Muhokama. Biluv topshiriqlari – bu o‘quvchilarning o‘qilgan yoki tinglangan matnni idrok etish, tahlil qilish, esda saqlash va qayta ifodalash faoliyatini faollashtiruvchi didaktik vazifalardir. Ular o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakasini tekshirish bilan birga, o‘zlashtirish jarayonini ham ta’minlaydi.

Biluv topshiriqlarining mazmunini chuqurroq tahli qilish uchun eng avvalo “topshiriq” tushunchasini izohlash lozim.

“O‘zbek tilining izohli lug’ati”da topshiriq atamasiga shunday ta’rif berilgan: “Topshiriq 1.Kimsaning zimmasiga yuklatilgan ish, vazifa. Hukumat topshirig’i. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan”.

Topshiriqlarning xotiraga yoki tafakkurga mo‘ljallab tuzilganini hisobga olib, ularning noijodiy va ijodiy tiplari ajratiladi. Tilshunos olimlar A.G’ulomov va H.Ne’matovlar ona tili darsliklaridagi mashqlarni o‘quvchilarni izlanishga o‘rgatishi jihatidan quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
2. Qisman izlanuvchanlik tipidagi mashqlar .
3. Ijodiy mashqlar.

Shundan kelib chiqib aytishimz mumkinmi, biluv topshirig‘i – o‘quvchi zimmasiga ma’lum mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan bir martalik ish, vazifadir. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malaka, asosan, mashqlar asosida shakllantiriladi. Topshiriqlar ta’lim jarayonining barcha davrlariga aloqador bo‘lib, ulardan darsning barcha bosqichlarida ko‘proq o‘quvchining bilimini boyitishda foydalaniladi.

Biluv topshiriqlari o‘quvchilarni bilim olishga yo‘naltiradi hamda o‘qilgan yoki tinglangan materialni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Biluv topshiriqlari o‘quvchilarni matnni eslab qolishga, mazmunini tushunishga, asosiy g‘oyani aniqlashga, xulosalash va baholashga, yangi fikr yaratishga o‘rgatadi. Shu jihatdan ham biluv topshiriqlari ona tili ta’limida ahamiyatli.

O‘qib va tinglab tushunish inson psixikasidagi idrok, xotira, tafakkur jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchi avval so‘z va gapni anglaydi, keyin matn mazmunini idrok etadi, so‘ng uni

qayta ishlaydi. Biluv topshiriqlari ana shu bosqichlarning har birida faollikni ta’minlaydi.

Biluv topshiriqlari o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq holda qator vazifalarni bajaradi:

- matnni to‘g‘ri idrok etishni ta’minlash;
- o‘quvchida asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- mazmunni yodda saqlash va uni qayta tiklash;
- mustaqil fikr yuritishga yo‘naltirish;
- nutq madaniyatini shakllantirish.

Natijalar. Biluv topshiriqlarini tuzish ko‘p faktorli hodisadir. Bunda o‘quv materialining mazmuni, biluv topshirig‘i shakliga olib kelinadigan o‘quv muammosi, o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlari bilan bir qatorda, biluv topshiriqlarining bir-birini to‘ldirishi, sodda va murakkabligi ham hisobga olinadi. Biluv topshirig‘i o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantirishi, fikrlashga jalb qilishi hamda nutq amaliyotini takomillashtirishi zarur. Biluv topshiriqlarini tuzishda quyidagilarga rioya qilish lozim:

- optimal mavzu tanlanadi;
- shu mavzu doirasida hal qilinishi lozim bo‘lgan o‘quv muammolari aniqlanadi;
- o‘quv muammolarini o‘quvchilarga qo‘yish yo‘li bilan o‘zlashtirish ko‘rsatgichini baholash usullari belgilanadi;
- tashkil etiladigan o‘quv holatlariga mos til va nutq dalillari tanlanadi;
- mavzuni o‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirishini mo‘ljallanib, mashqlar miqdori belgilanadi.

O‘quvchilar nutqini boyitish o‘qituvchidan qo‘shimcha o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish samarali metodlar asosida amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. O‘quvchilarning adabiy tilni egallashlari va nutqini boyitishda badiiy adabiyot namunalariga tayanish, matndagi so‘zlarning ma’nosi, ma’nodosh so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, uyadosh so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, poetik so‘zlar ustida ishlash, ularning uslubiy vazifasini aniqlash, nutqda qo‘llanadigan metodlardan foydalanish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqilishi ona tili o‘qitish metodikasidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzu doirasida bolalarning bilimi, ijodiy faoliyat tajribasini kengaytirish bosqichlarida biluv topshiriqlaridan foydalaniladi. Ona tilida o‘rganilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlash bosqichlarida biluv topshiriqlari ta’limga tatbiq qilinadi. Ona tilidan bolalarning bilim va malakalarini umumlashtirish darslarining ikki yoki undan ortiq mavzuda o‘rganilgan bilimlarga oid dalillarni taqqoslash, dalillardan umumiy xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosani murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish bosqichlarida biluv topshiriqlari tashkil etiladi. Biluv topshiriqlarini ta’limga tatbiq etish jarayonida ona tili o‘quv predmetining barcha nuqtayi nazarlari hisobga olinadi. Biluv topshiriqlari o‘quvchilarda – fonetik hodisalarni (nutq tovushi va harf, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo‘g‘in, uning turlari, bo‘g‘in ko‘chirish, urg‘u) ajrata olish, o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘qituvchi o‘zi mustaqil ularning salohiyati va egallangan bilimni qay darajada o‘zlashtirilganligiga qarab turli xildagi tuziladigan mashqlar desak bo‘ladi.

Bilish faoliyati maqsadlari obyektiv xarakterga ega. U kishilar tomonidan topilmaydi. Aksincha, bilish faoliyati maqsadi jamiyatning taraqqiyoti, fan va texnikaning, san’at va adabiyotning rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi, binobarin, u ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish talablari, ehtiyojlariga ko‘ra belgilanadi.

Agar o‘quv faoliyati maqsadi bilimlarni egallash, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish ehtiyojlari zaminida shakllantirilsa, bilish faoliyati maqsadlari yanada keng, mazmun jihatdan boy hodisalarga borib taqaladi. Bunday hodisalar qatoriga bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini anglashga intilishi, sinfdosh va tengdoshlari bilan fikrlashish ishtiyoqi, o‘zini yaxshi fazilat, odatlarga tayyorlash uchun kurashi, o‘quv predmetlaridan birontasini boshqalarga nisbatan qo‘llay olishi, unga urinishi kabilar kiradi.

Biluv topshiriqlaridan foydalanib o‘quvchilarning o‘qib va tinglab tushunishini rivojlantirishda amaliy mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagicha topshiriqlar

berish mumkin:

- o‘qilgan matn asosida bir nechta asosiy fikrni yozib chiqish;
- tinglangan hikoyaga mos reja tuzish;
- “Ha” yoki “Yo‘q” tarzida tezkor javob beriladigan savollar tuzish;
- matn mazmunini qayta hikoya qilish;
- qahramon xatti-harakatlarini baholash va o‘z munosabatini yozma ifodalash.

Bunday topshiriqlarni tizimli ravishda berish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib va tinglab tushunishini ham rivojlanadi.

Xulosa. O‘qib va tinglab tushunishda biluv topshiriqlaridan foydalanish nazariy jihatdan kognitiv yondashuvga asoslanadi. Ular amaliyotda o‘quvchilarning matnni to‘liq idrok etish, asosiy fikrni aniqlash, xulosalash, baholash va ijodiy qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri tanlangan va metodik jihatdan asoslangan topshiriqlar dars samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning nutqiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Po‘latov I., Odilov S. Ona tili ta’limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi. – Qo‘qon, 2014. – 32 bet.

2. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2009. – 352 bet.

3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006. – 92 б.

4. Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. - 256 с.

5. Sultonova G.M. Kognitiv lingvistika pragmatik tushunchalarning hosilasi sifatida. American journal of education and learning. Volume-3 Issue-3 2025. Published: 30-03-2025.

6. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: “Durdona” 2021. – 424 bet.

BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Xujanova Lobar Raimkulovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu aqolada zamonaviy ta’lim tizimida tarix o‘qituvchilarining didaktik kompetentligini rivojlantirishning dolzarb muammolari tahlii qilinadi. Didaktik kompetentlikning nazariy asoslari va uning tarix o‘qituvchisi faoliyatidagi o‘rni, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, konstruktivistik va reflektiv yondashuvlar asosida integrativ modelning tuzilishi hamda modelning tarkibiy qismlari va uning natijalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: didaktik kompetentlik, tarix o‘qituvchisi, integrativ model, kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv metodologiya, ta’lim texnologiyalari.

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Худжанова Лобар Раимкуловна
докторант Гулистанского государственного университета

Аннотация.В данной статье анализируются актуальные проблемы развития дидактической компетентности учителей истории в современной системе образования. Рассматриваются теоретические основы дидактической компетентности и её роль в деятельности учителя истории, а также структура интегративной модели, основанной на компетентностном, личностно-ориентированном, конструктивистском и рефлексивном подходах. Описываются составные части модели и её результаты.

Ключевые слова: дидактическая компетентность, учитель истории, интегративная модель, компетентностный подход, рефлексивная методология, образовательные технологии.

INTEGRATIVE MODEL FOR DEVELOPING DIDACTIC COMPETENCE IN FUTURE HISTORY TEACHERS

Khujanova Lobar Raimkulovna
PhD student of Gulistan State University

Abstract. This article analyzes the current problems of developing didactic competence among history teachers in the modern education system. The theoretical foundations of didactic competence and its role in the work of a history teacher are considered, as well as the structure of an integrative model based on competency-based, student-centered, constructivist, and reflective approaches. The constituent parts of the model and its results are described.

Keywords: didactic competence, history teacher, integrative model, competency-based approach, reflective methodology, educational technologies.

KISRISH.Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimining asosiy vazifasi faqatgina bilim berishdan iborat emas, balki shaxsning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, shuningdek, muammolarni mustaqil hal qilish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonning samaradorligi, bevosita, o‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetentlik darajasiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi islohotlari doirasida pedagog kadrlarni kompetentlikka asoslangan holda tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.Xususan, tarix fani o‘qituvchisining kompetentligi o‘ziga xos talablarni o‘z ichiga oladi. U nafaqat faktlarga asoslangan bilimlarni chuqur egallashi, balki tarixiy voqealarning mohiyatini ochib bera olishi, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikmalar, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni anglash

tuyg‘ularini shakllantirishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligiga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Mavjud muammoni hal etish avvaldan tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan bo‘lsa-da, bu yondashuvlarning takomillashuvi zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan holda, muammoni ko‘p funksiyali, multikomponentli va modifikatsion xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab hodisa sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Bu esa har bir davrning eng muhim maqsadlaridan biri bo‘lib, ilmiy izlanishlarda muvozanatni saqlash zaruriyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining didaktik kompetentligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotchi I.V. Irxinaning ta’kidlashicha, didaktik kompetentlik deganda, o‘qituvchining samarali o‘qitish va o‘qishni tashkil etish, ta’lim mazmunini o‘quvchiga mos ravishda moslashtirish va baholash qobiliyati tushuniladi[2]. I.V. Irxinaning tadqiqot ishida zamonaviy pedagogikaning inson va uning rivojlanishiga yo‘naltirilishi- hayotning o‘zi tomonidan qo‘yilgan eng muhim vazifa bo‘lib, u ta’lim tizimini yangilashning mantiqiy markaziga aylayotganligini, bu jarayon “bilimga asoslangan” ta’lim paradigmasidan o‘quvchini va uning rivojlanishini eng oliy qadriyat sifatida tan oluvchi yangi ta’lim paradigmasiga o‘tishni anglatadi.Didaktik innovatsiyalar o‘qituvchining shaxsiy imkoniyatlari, maktab sharoitlari, o‘quvchilarning xususiyatlari va fanning mazmuni bilan mos kelmasligi-hammasi amaliyotda muammolarni yuzaga keltirishini izohlaydi.O‘qituvchilarning mashhur ta’lim texnologiyalarini o‘z amaliyotiga mazmunan singdirmasdan, ya’ni ularni chuqur tushunmasdan va o‘z ish tizimiga moslashtirmasdan qo‘llashlari samaradorlikni pasaytiradi, ko‘pincha zararli bo‘lishi ham mumkinligini muhim muammo sifatida ko‘rsatadi. Bu esa qo‘shimcha vaqt va kuch sarfini talab qilishini ta’kidlaydi.Kuzatuvlar yangi ta’lim texnologiyalari barcha muammolarga yechim sifatida qaralmasligi, ularning universal davo emasligi, real pedagogik jarayonning sharoitlari, o‘quvchi va o‘qituvchi imkoniyatlarini hisobga olgan holda oldindan tuzilgan “ssenariy”lar mavjud bo‘lishi mumkin emasligini izohlaydi. Suningdek, metodik ishning tayyor ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilganligi o‘qituvchining o‘zini pedagogik yangilik yaratuvchisi -potensial yoki real innovator sifatida anglashiga imkon bermaydi va o‘z amaliy tajribasini nazariy jihatdan anglash darajasiga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qilishini asoslab berigan.

Bu boradagi tadqiqotlar M.P. Tiryina, E.V. Xramova[4;8] shuni ko‘rsatadiki, didaktik kompetentlikni rivojlantirishga faqat bilimlarning oddiy yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit va tizimli yondashuv talab etiladi.Hozirgi kunda mutaxassisni tayyorlashda an’anaviy professiografik-(bu kasbiy faoliyatni ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilish va tavsiflash bilan shug‘ullanuvchi soha) yondashuvni rad etmagan holda shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan integrativ modellardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bunday modellar o‘qituvchining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy, intellektual va adaptatsion (moslashuvchan) sifatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur muammoning dolzarbligi aynan bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, doimiy o‘zgarishlarga moslasha oladigan va innovatsion ta’lim usullarini qo‘llay oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash uchun didaktik kompetentlikni shakllantirishning yaxlit modelini nazariy va amaliy asoslashdan iborat. Tadqiqotchi N.I.Filippenkoning tadqiqotida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi didaktik o‘zaro ta’sirni o‘qituvchining professional tayyorgarlik obyekti sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan[7]. Tadqiqotda, o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida qanday ko‘nikmalarni egallashi va bu ko‘nikmalarni samarali ravishda ishlatishi o‘rganilgan.Didaktik o‘zaro ta’sirning metodologik va psixologik aspektlariga, shuningdek, o‘qituvchini professional tayyorgarlikning zaruriy sharoitlari va texnologiyalariga qaratilgan.O‘qituvchining o‘quvchilar bilan didaktik o‘zaro ta’sirga tayyorlanishining kasbiy tayyorgarligi muayyan texnologiyalarni amalga oshirish orqali ro‘yobga chiqadi. O‘qituvchini o‘quvchilar bilan didaktik o‘zaro ta’sirga tayyorlash texnologiyasi deganda bu jarayonni amalga oshirishga xizmat qiluvchi turli xil didaktik protseduralar majmui

tushuniladi. Model tushunchasini biz instrumental ma’noda, ya’ni ta’lim jarayonini amalga oshirish sxemasi sifatida qabul qilamiz; bu jarayonning asosini talabalarning oliygoh o‘qituvchilari bilan birgalikdagi faoliyati tashkil etadi.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan didaktik o‘zaro ta’sirga tayyor bo‘lishining texnologik modeli, bir tomondan, kasbiy faoliyat rivojlanishining qonuniyatlari, mexanizmlari va shart-sharoitlarini, boshqa tomondan esa, bo‘lajak o‘qituvchining shakllanishini aks ettiradi.

Tadqitodchi N.F.Talzinaning fikricha kasbiy tayyorgarlik sifati uchta asosiy nuqta: o‘qitish maqsadlari (nima uchun o‘qitish kerak?); ta’lim mazmuni (nimani o‘qitish kerak?); o‘qitishni tashkil etish prinsiplari (qanday qilib o‘qitish kerak?) [6] asoslanganligiga bog‘liq.Mutaxassisni tayyorlash tizimini ishlab chiqish birinchi navbatda mutaxassis modelini yaratishdan boshlanadi, bu savolga javob berishga imkon beradi: nima uchun o‘qitish kerak?

NATIJA VA MUHOKAMA. Qo‘shimcha ta’lim-zamonaviy oliy pedagogik ta’limni asosiy pedagogik mutaxassislik bilan bir vaqtda yagona umumiy madaniy va umumiy kasbiy tayyorgarlik asosida boshqa har qanday mutaxassislikni olish imkoniyatini beradi. Bu bitiruvchiga zamonaviy mehnat bozori sharoitida raqobatbardosh bo‘lishga, xalq ta’limi sohasidagi mintaqaviy ijtimoiy buyurtmaning talablariga javob berishga, tanlangan qo‘shimcha mutaxassislik bo‘yicha kasbiy o‘sishni keyinchalik takomillashtirish uchun boshlang‘ich imkoniyatga ega bo‘lishga imkon beradi.

Bitiruvchini zamonaviy mehnat bozori sharoitlariga moslashtirish dasturi bitiruvchilarni ish bozorining talablariga tayyorlash uchun turli faoliyatlarni birlashtiradi:axloqiy-psixologik muammolar bo’yicha suhbatlar va seminarlar sikli;munozaralar, rolli o’yinlar; “pedagogik faoliyatda kasbiy moslashuv asoslari” maxsus kursi; ish beruvchilar bilan uchrashuvlar; kasbiy-konsultatsiya markazini tashkil etish.Ijodiy, raqobatbardosh, ijtimoiy yo‘naltirilgan shaxs bu tayyorgarlikning kutilgan natijasini ifodalaydi va bitiruvchi shaxsining bir nechta sohalarini o‘z ichiga oladi:motivatsion soha; operatsion-texnik soha; kasbiy muhim shaxsiy fazilatlar; reksiv-baholovchi soha;adaptatsiya sohasi.Bu yerda kasbiy moslashuvni shakllantirish mezonlari talabalarning kasbiy moslashuv darajasini baholash uchun ishlatiladi:kasbiy kompetentlik;kasbiy motivlar va qiziqishlar; ijtimoiy muhim va kasbiy muhim fazilatlarning rivojlanganlik darajasini o‘z-o‘zini baholash;kasbiy yo‘nalish.O‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini ta’lim olishiga intilish. V.V. Serikov tadqiqot ishida esa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini zamonaviy talablarga javob beradigan darajada kasbiy tayyorlashning dolzarb masalalarini ko‘rib chiqadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan mualliflik “Tarixni o’qitish metodikasi” kursining kontseptual asoslarini ta’riflab bergan. Shuningdek zamonaviy ta’lim tizimi konpetensiyaga asoslangan yondashuv va yangi davlat standartlariga o‘tish “kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi “ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlaydigan umumiy va maxsus kompetensiyalar yigindisini” o‘z ichiga oladi deya ta’kidlaydi[3]. Jumladan, metodik kompetentlikni quyidagicha ta’riflaydi: “Bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va o‘qituvchining munosabatlarining optimal kombinatsiyasi bo‘lib, metodik vazifalarni samarali va sifatli hal qilishni ta’minlaydi”.Bo‘lajak o‘qituvchining kompetentlik modelida predmetiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va metodik kompetentlikni ajratib ko‘rsatishadi. Tarix o‘qitish metodikasini o‘rganish jarayonida metodik kompetentlikni shakllantirish talabalarni kasbiy tayyorlashning maqsadi va natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy sharoitda tarixni o‘qitish metodikasini o‘rganish amaliyotga yo‘naltirilgan xususiyat kasb etadi va tarix o‘qituvchisini kasbiy tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Metodik savodxonlik, metodik fikrlash va metodik ijodkorlikni o‘zida mujassam etgan o‘qituvchi nafaqat o‘quv-metodik, balki ilmiy-metodik faoliyatni ham muvaffaqiyatli amalga oshira oladi, yangi innovatsion metodik mahsulotlar yaratadi, bu esa umumiy ta’lim jarayoni sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Kompetensiyaviy yondashuv modelning asosi bo‘lib xizmat qilgan, ya’ni, o‘qituvchi

tayyorgarligining natijasi sifatida aniq kasbiy kompetensiyalar, xususan didaktik kompetentlikni shakllantirish bosh maqsad etib olindi. Bu yondashuvga ko‘ra, nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi hamda o‘zlashtirilgan bilim-ko‘nikmalarni real vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati ta’minlanadi.

Shuningdek, model shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli hamda konstruktivistik yondashuv tamoyillari asosida qurildi. Bu esa talabalarning o‘quv jarayonida faolligi, mustaqil bilim qurishi va talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini ro‘yobga chiqaradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda an’anaviy passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb etish konstruktivizm va faol ta’lim yondashuvining asosiy talabidir. Model doirasida bu talablar interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha metodikasi kabi usullarni keng joriy etish orqali ta’minlanadi. Natijada, talabalar o‘z pedagogik tajribalarini konstruksiya qilish, xatolar ustida refleksiya yuritish hamda o‘rgangan nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda tatbiq etish imkoniga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, model yaratishda ta’limiy dizayn va innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid yondashuvlarga asoslanildi. Ta’limiy dizayn tamoyillari o‘quv jarayonini oldindan puxta rejalashtirish, maqsad-vazifalarni aniq belgilash, mazmun, metod va vositalar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlashga yordam berdi. Reflektiv yondashuv esa modelning ajralmas metodologik asosi sifatida, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining o‘z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilishi va xulosalar chiqarishi orqali didaktik mahoratini oshirib borishini nazarda tutadi. Yuqoridagi bo‘limlarda ta’kidlanganidek, o‘qituvchining ichki motivatsiyasi va refleksiv tayyorgarligi kompetentlikka erishishda hal qiluvchi omildir. Shu bois modelda talabalarda refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriq va mashqlar tizimi ham ko‘zda tutilgan.

Demak mazkur model zamonaviy pedagogik paradigmalarning uyg‘unlashgan mahsuli bo‘lib, konstruktivizm tamoyillari, faoliyatli-vaziyali yondashuv, ta’limiy dizayn va raqamli texnologiyalar integratsiyasi hamda kompetensiyaviy va reflektiv metodologiyalar birgalikda qo‘llanildi. Bu ilmiy-nazariy asos modelning zamonaviy talablarga javob beradigan puxta konseptual poydevorini yaratadi. Modelni hayotga tatbiq etish jarayonida esa aynan shu nazariy yondashuvlar sinergiyasi o‘z samarasini berib, bo‘lajak o‘qituvchining didaktik kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modelning tuzilishi blokli tamoyil asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning tarkibida o‘zaro bog‘liq bir necha komponent (blok)lar ajratiladi. Ma’lumki, o‘qituvchining didaktik kompetentligi ta’lim jarayonining maqsad, mazmun, metod, texnologiya, shart-sharoit va natija kabi komponentlarini samarali birlashtira olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, model strukturasi quyidagi asosiy bloklardan tashkil topgan.

Dastlabki maqsad va ijtimoiy buyurtma bloki garchi model tarkibiy qismlari orasida alohida “maqsad bloki” sifatida tilga olinmasa-da, uning butun mohiyatiga maqsadli yo‘naltirilganlik xosdir. Modelning asosiy maqsadi bo‘lajak tarix o‘qituvchisida didaktik kompetentlikni rivojlantirish bo‘lib, bu maqsad jamiyat va ta’lim sohasining dolzarb talablari (ijtimoiy buyurtma) dan kelib chiqqanligi yuqorida ta’kidlandi. Shu bois modelning barcha keyingi bloklari aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan holda, o‘zaro uzviy bog‘liq tizim sifatida ishlaydi.

Modelning mazmun blogi bo‘lajak o‘qituvchilarga beriladigan nazariy va amaliy bilimlar mazmunini ifodalaydi. Mazmun blogi tarkibiga pedagogika, didaktika, psixologiya va tarix fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha fundamental nazariy bilimlar kiradi. Xususan, ta’lim nazariyasi va didaktikaning zamonaviy konsepsiyalari, kompetensiyaviy yondashuv negizidagi dars dizayni, tarixi o‘qitish metodikasining yangi yutuqlari, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish usullari kabi mavzular mazmun blokini boyitadi. Mazkur bilimlar bo‘lajak o‘qituvchining didaktik tayyorgarligi poydevorini tashkil etadi.

Modelning texnologik blogida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ta’lim berishning tashkiliy shakllari ko‘zda tutiladi. An’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga qo‘shimcha ravishda, modelda talabalarning dars jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlaydigan seminar-treninglar, muammoli seminarlar, kichik guruhlardagi amaliy

mashqlar, “master-klass”lar, treninglar kabi interfaol shakllar joriy etiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyot ham shakl bloki tarkibiga muhim qism sifatida kiritilgan – talabalar universitetda olgan nazariy bilimlarini maktabdagi amaliyot darslari orqali mustahkamlashadi. Shakl bloki mazmuni talabalarda professional faoliyatga yaqinlashtirilgan muhitni yaratish, ya’ni nazariyani amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Modelning natija blogi, modelning yakuniy blogi sifatida namoyon bo‘ladi, bunda kutilayotgan natijalar va ularni o‘lchash mezonlari ifodalanadi. Asosiy natija bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik kompetentlikka ega bo‘lishi, boshqacha aytganda, model faoliyati natijasida har bir bitiruvchi tarix o‘qituvchisi darsni maqsadga muvofiq rejalashtirish, samarali tashkil etish, interaktiv boshqarish va natijalarni baholash qobiliyatlarini puxta egallagan bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Natija bloki doirasida shu kompetentlikning shakllanganlik darajasi diagnostika qilinadi Natijalar nafaqat yakuniy attestatsiya shaklida, balki jarayon mobaynida oraliq baholash ko‘rinishida ham monitoring qilinadi – bu modelning reflektiv tamoyiliga hamohangdir.

Tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda didaktik kompetentlikni shakllantirishning taklif etilgan modeli nafaqat bilimdon, balki o‘z kasbining mohiyatini anglagan, shaxs sifatida doimiy o‘suvchi va jamiyat ehtiyojlariga moslasha oladigan mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Model tizimli va integrativ yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchining motivatsion, operatsion, refleksiv va adaptatsion sohalarini rivojlantirishga qaratilgan.

XULOSA. Modelni amaliyotga tatbiq etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hisobga olgan holda, unga raqamli didaktik platforma va kompetensiyalar matritsasi kabi yangi elementlarni kiritish orqali uning samaradorligi va amaliyotga yaroqliligi oshiriladi. Ushbu yondashuvlar natijasida, oliy ta’lim muassasalari zamonaviy ta’lim tizimi talablariga javob beruvchi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiluvchi va mehnat bozorida raqobatbardosh tarix o‘qituvchilarini yetkazib berishga erishadi.

Zamonaviy mutaxassisni tayyorlash tizimining samaradorligi uning kasbiy faoliyatning bugungi va kelajakdagi talablariga moslashuvchanligini ta’minlashi bilan belgilanadi. Demak, bo‘lajak mutaxassis mehnat bozori talablarini chuqur anglagan, ushbu talablarning doimiy o‘zgaruvchanligini inobatga olgan holda uzluksiz shaxsiy va professional rivojlanishga intilishi shart. Faqatgina ana shunday moslashuvchanlik, refleksivlik (o‘z-o‘zini baholash) va o‘zgaruvchanlikka moslasha olish kabi ko‘nikmalar orqali mavjud muammolarga innovatsion va samarali yechim topish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraimov, I. R. Integrativ yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha fals. dokt. diss.Toshkent.2025.-50 b.

2. Ирхина И.В. Развитие дидактической системы учителя в профессиональной деятельности. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук.- Белгород.- 2007.43 с.

3. Сериков, В. В. Обучение как вид педагогической деятельности / В.В. Сериков, В.А. Сластенин, И.А. Колесникова. – М.: Академия, 2008. – 255 с.

4. Тырина М.П. Дидактическая подготовка будущего педагога в рамках прикладного бакалавриата// ВЕСТНИК АлтГПА: психолого-педагогические науки. 2015 / 22.-8-11с

5. Тырина, М. П. Дидактическая подготовка как фактор развития дидактической культуры педагога / М.П. Тырина // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2011. – № 2. – С.25–29.

6. Талызина Н. Ф. Управление процессом усвоения знаний: (Психол. основы). М.: Изд-во МГУ, 1984. 344 с.

7. Филиппенко, Н. И. Дидактическое взаимодействие учителя и учащихся как объект профессиональной подготовки учителя. Диссертация доктора педагогических наук. -Москва. -2002.-27 с.

8. Храмова Е. В. Развитие дидактической компетентности преподавателя вуза. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. -Великий Новгород. -2012.-27 с.

TABIIY FANLAR VA UNI O‘QITISH METODIKASI TA’LIMI JARAYONIDA “5E” MODELIDAN FOYDALANISHNING ILMIY NAZARIY AHAMIYATI

Shoyeva Yulduz Amin qizi
Buxoro davlat peagogika instituti mustaqil izlanuvchisi, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim Kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “5E” modelining tabiiy fanlar doirasida qo‘llashning ilmiy nazariy ahamiyati yortilgan. Chet el olimlari va o‘zimizda tadqiqot olib borgan olimlarning ushbu mdel to‘g‘risida bergan ta’riflari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy fanlar, “5E” modeli, ijodiy topshiriqlar, tajriba ishlari.

Kirish. Yurtimiz ta’lim-tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ertangi kelajagimiz hisoblangan yosh avlodning o‘quv-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini tubdan isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan muhim meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi 2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida PF-79-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ham bugungi kunda ta’lim-tizimida sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha vazifalar belgilangan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi ham kelajak avlod kadrlarini bilimga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi, kreativ ijodkorligi va ko‘nikmaning hosil bo‘lishi, tushunib-anglash qobilyatlarini rivojlantirish jihatlari asosiy vazifa sifatida ilgari surilmoqda.”

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish, atrof-muhit hodisalari va tabiiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirishda tabiiy fanlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, XXI asrda ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga, izlanishga va ijodiy yondashishga o‘rgatish dolzarb vazifaga aylangan. Bunday yondashuvni ta’minlash uchun esa an’anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, konstruktivistik ta’lim asosidagi “5E” modeli samarali metod sifatida qaralmoqda.

Metod. Y.X.Egamberdiyeva ta’kidlaganidek: “Boshlang‘ich ta’lim — har bir insonning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim bosqichdir. Bu davrda tabiiy fanlarni o‘qitish, bolalarda olimlik, kashfiyot va tadqiqotga qiziqishni uyg‘otish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Tabiiy fanlar, masalan, biologiya, fizika va kimyo, bolalarga atrof -muhitni tushunishga yordam beradi va ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘qituvchilar uchun tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida qiziqarli va samarali metodlarni qo‘llash, shuningdek, bolalar bilan yaqin aloqa o‘rnatish juda muhimdir.”

Bundan tashqari o‘quvchilarda tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish uchun o‘quv-labaratoriya xonalarining tashkil etilganligini ta’minlash ham juda muhim. Bu borasida ham mamlakatimizda bugungi kunda ko‘plab ishlar olib borilib, ta’limga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirilmoda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-noyabrdagi Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4537-sonli qaroriga ko‘ra, 2020-yil 1-martga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini o‘quv-laborotoriya asbob-uskunalari, o‘quv-uslubiy materiallar bilan jihozlashning yangi me’yorlarini “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablar asosida baholash tartibini ishlab chiqishga qaratilgan chora-tabirlar ham tabiiy fanlarga bo‘lgan talabning kundan-kunga dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini yaqqol misoli desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning 1 yanvar holatiga mamlakatimizda tabiiy fanlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar soni 9,3 ming nafarni tashkil etgan.

Tabiiy fanlar yo‘nalishlari bo`yicha ilmiy tadqiqot va tajribakonstruktorlik ishlanmalarini

bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar soni:

— matematika, mexanika – 1,8 ming nafar
— kimyo, farmologik kimyo – 2,7 ming nafar
— fizika, astronomiya – 1,4 ming nafar
— boshqalar – 3,4 ming nafar.

Tabiiy fanlar sohasida ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'quvchilarda kasbiy sifatlani shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot va tajribalar ham muhim o'rin egallaydi. Tabiat ilmi haqidagi bilimlar ko'p yillar davomida amaliy faoliyatlar tufayli qo'lga kiritilgan. Ma'lumki, tabiiy fanlar keng qamrovli moddiy dunyoni turfa xususiyatlari, tabiatning har xil voqea va hodisalarini o'rganuvchi fan hisoblanadi va ilmiy tajriba asosida shakllanadi. Bu fanning poydevori esa amaliyotdir. Bilimlarga bo'lgan ehtiyoj aynan amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi. Tabiiy fanlar bo'yicha ko'pgina izlanishlar olib borgan olim G'.M.Sayfulloyev tabiiy fanlar uchun amaliyotning naqadar muhim vosita ekanligini o'z ishlarida yoritar ekan, o'z navbatida amaliyot turlari va vazifalarini ham sanab o'tgan. Jumladan amaliyotning asosiy ikki turi mavjud bo'lib, bular moddiy ishlab chiqarish hamda ilmiy tajriba hisoblanadi.

Ilmiy-tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yo'l qo'ymaydi.
2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.
3. Amaliyot bilish jarayoninig haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Natija. Maktablarda tabiiy fanlar ta'limining mazmunini belgilash va uni tashkil etish Milliy dasturda ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra o'quvchilar ilmiy xabardorlik kompetensiyalari va amaliy kompetensiyalarni yuqori saviyada o'rganishlari, olgan bilimlarini hayotga tadbiq eta olishlari ko'zda tutilgan. Tabiiy fan bo'yicha o'quvchilar faoliyatining natijalari aynan shu ikki kompetensiya orqali belgilanar ekan, ushbu talablarni amalga oshirishda "5E" modeli eng qulay vosita vazifasini bajaradi. Bu modelni ishlab chiqishdan asosiy maqsad ham o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, yangi g'oyalarni tadbiq qilishdan iborat.

Tabiiy fanlar doirasida qo'llash uchun eng samarali bo'lgan ushbu model o'quvchilarda tajriba ishlarini muvaffaqqiyatli o'rganishga, fan doirasida ijodiy qobiliyatlarini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan.

"5E" modeli dastlab 1987 yilda Roger Bybee va Biological Sciences Curriculum Study (BSCS) guruhi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu model konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslanadi. Konstruktivizmga ko'ra, bilimlar o'quvchining faoliyati, tajribasi va ilgari o'zlashtirgan tushunchalari asosida shakllanadi. Konstruktivizmning asosiy g'oyasi: "Bilimni o'zing yarat" degan qoida asosida ish olib borish. Ushbu yo'nalishni Piaget "Kognitiv radikallar" nazariyasi asosida , Vygotskiy "Ijtimoiy konstruktivizm" nazariyasi asosida yoritib bergan. Konstruktivistik va an'anaviy yondashuvlarning nazariy tahlilini ko'pgina olimlar o'z tadqiqotida to'laqonli tahlil qilib, ularni o'zaro taqqoslab berganlar. Bular ichida eng aniq xulosa va tugal fikr J.S.Kim tomonidan berilgan: "An'anaviy o'qitish usullari talabalarni ayrim fanlarga qiziqmaydi, degan fikrga olib keladi. Konstruktivistik yondashuv esa befarqlikni o'quvchilarning qanday o'qitilganiga bog'liq deb hisoblaydi, fanlarning o'ziga emas."

"5E" modeli o'quvchilarning ilgari mavjud bilimlari asosida yangi bilimlarni faol o'zlashtirishiga asoslanadi va ta'lim olish jarayonini osonlashtiradi. Jumladan labaratoriya tajribalarini olib borishga hamda ular bo'yicha so'nggi tadqiqotlarni umumlashtirishga keng

imkoniyatlar amaliyotga asoslangan ushbu modelning har bir bosqichida mujassam.

Xulosa. R.Bybee “5E” modelini aynan fizika, kimyo, biologiya kabi tabiiy fanlarda keng qo‘llashga asoslaganligining asosiy sabablari ham bor edi. Chunki bu fanlarda tajriba qilish, muammo hal qilish va natijani izohlash va baholash juda muhim va bu fanlarning tabiati “5E” modeliga mos tushadi. Ya’ni:

- o‘quvchilarni amaliyotga jalb qiladi;
- tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- bilimni hayotga tatbiq qilish imkonini beradi.

“5E” modelidan foydalanishning afzalliklarini R.Bybee o‘z ishlarida modelning aynan ilmiy maqomda yoritilishi jihatdan quyidagicha ta’kidlaydi: “O‘quvchilarning ongida mustahkam tushuncha hosil bo‘lishi uchun o‘zlari tajriba orttirishlari kerak. Fan ta’limi faqat ma’lumot yodlashga emas, balki fikrlash va izlanish asosida bo‘lishi zarur. Shuni inobatga olgan holda “5E” modeli orqali o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi mentor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Y.X.Egamberdiyeva- “BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH” «Экономика и социум» №11(126)-2 2024

3. E.M.Muxtorov- “Tabiiy fanlarni o‘qitishda uzluksiz ta’lim sifatini oshirish va ilm-fan natijadorligini ta’minlashning dolzarbligi” Tabiiy fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI (Buxoro shahri 2023 yil 5-aprel)

4. Sh.N.Murodov- “Tabiiy fanlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar” Tabiiy fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI (Buxoro shahri 2023 yil 5-aprel)

5. G‘.M.Sayfulloyev- “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda amaliy ishlarni tashkil etish” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601

6. G.A.Piaget- “To Understand is to Invent: The Future of Education” Grossman Publishers, New York, 1973 ISBN: 0670720348, 978 0670720347

7. Vygotskiy- «Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes»

8. Xiaohong Zhang- “An Empirical Approach and Implications for Teachers to Begin Constructivist Teaching” Open Journal of Social Sciences, 2019, 7, 375-386 https://www.scirp.org/journal/jss ISSN Online: 2327-5960 ISSN Print: 2327-5952

9. Rodger W.Bybee “The BSCS 5E Instructional Model Origins and Effectiveness” BSCS 5415 Mark Dabling Boulevard Colorado Springs, CO 80918 2006

7–10 YOSHLI BADMINTONCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIKKA O‘RGATISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Mamurov Bahrom Baxshulloyevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 7–10 yoshli badmintonchilarni texnik tayyorgarlikka o‘rgatishda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, jismoniy rivojlanish darajasi, psixologik tayyorgarlik omillari va sport faoliyatiga moslashish jarayonlari chuqur yoritilgan. Harakat texnikasini shakllantirish jarayoni, jismoniy tayyorgarlik hamda koordinatsion qobiliyatlarning o‘rni keng o‘rganilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sportchilar uchun samarali mashg‘ulot dasturlari, bosqichma-bosqich o‘rgatish metodlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badminton, 7–10 yoshli bolalar, sport texnikasi, harakat texnikasi, texnik tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, chaqqonlik, tezkorlik, koordinatsiya, pedagogik yondashuv, mashg‘ulot jarayoni, sport metodikasi, psixofiziologik xususiyatlar, sport to‘garaklari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ОБУЧЕНИЮ ТЕХНИЧЕСКИМ НАВЫКАМ БАДМИНТОНИСТОВ 7–10 ЛЕТ

Мамуров Бахром Бахшуллоевич
Независимый исследователь Бухарского государственного университета

Аннотация: В статье подробно рассматриваются вопросы совершенствования педагогических подходов к обучению технической подготовке бадминтонистов 7–10 лет, уровень физического развития, факторы психологической подготовки и процессы адаптации к спортивной деятельности. Широко изучен процесс формирования техники движений, роль физической подготовки и координационных навыков. Также рассмотрены эффективные программы подготовки начинающих спортсменов, поэтапные методы обучения и современные педагогические подходы.

Ключевые слова: бадминтон, дети 7–10 лет, спортивная техника, техника движений, техническая подготовка, физические качества, ловкость, скорость, координация, педагогический подход, тренировочный процесс, спортивная методика, психофизиологические характеристики, спортивные секции.

IMPROVING PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING TECHNICAL SKILLS TO 7–10-YEAR-OLD BADMINTON PLAYERS

Mamurov Bahrom Bakhshulloyevich
Independent researcher at Bukhara State University

Abstract: This article provides an in-depth look at the improvement of pedagogical approaches in teaching 7-10-year-old badminton players technical training, the level of physical development, psychological preparation factors and the processes of adaptation to sports activities. The process of forming movement techniques, the role of physical training and coordination skills has been extensively studied. Effective training programs for beginner athletes, step-by-step training methods and modern pedagogical approaches have also been covered.

Keywords: badminton, 7-10-year-old children, sports techniques, movement techniques, technical training, physical qualities, agility, speed, coordination, pedagogical approach, training process, sports methodology, psychophysiological characteristics, sports clubs.

Bugungi kunda bolalar sport maktablarida badmintonni o‘qitishda ko‘proq umumiy yondashuvlardan foydalanilmoqda, ammo yosh davriga mos psixopedagogik va uslubiy asoslar

yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli 7–10 yoshdagi badmintonchilarni texnik tayyorgarlikka o‘rgatishda takomillashgan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish nafaqat o‘quv-mashg‘ulot samaradorligini oshiradi, balki kelajakdagi yuqori sport natijalariga ham zamin yaratadi. Pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish deganda nafaqat mashg‘ulot metodikasini yangilash, balki bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan interfaol usullarni qo‘llash, bosqichma-bosqich texnik elementlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish, mashg‘ulot jarayonida motivatsiyani kuchaytirish ham nazarda tutiladi.

Badminton texnikasini o‘rgatishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar muhim:

- oyoq harakatlari va maydon bo‘ylab to‘g‘ri joylashish,
- servis va zarba texnikalarini bosqichma-bosqich o‘rgatish,
- tezkor yo‘nalish almashuviga moslashuvchanlikni shakllantirish,
- o‘yin jarayonida texnikani ongli qo‘llashni o‘rgatish.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport tizimida bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasida muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, sport turlari orasida o‘zining dinamikligi, chaqqonlik va koordinatsiya talab qilishi bilan ajralib turuvchi badmintonni yosh avlod orasida keng targ‘ib qilish, ularni jismoniy, ruhiy va irodaviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Badminton bolalarda tezkor fikrlash, muvofiqlashgan harakat, chidamlilik, irodaviy sifatlar, hamkorlikda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois 7–10 yoshli bolalarda badminton texnikasini o‘rgatishning tashkiliy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biridir.

7–10 yosh oralig‘i bolaning faol jismoniy rivojlanishi, harakat faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘lgan davrdir. Bu davrda harakat ko‘nikmalari tez shakllanadi, texnik elementlarni tezroq o‘zlashtirish imkoniyatlari keng bo‘ladi. Shu sababli badminton kabi tezkor va murakkab texnik harakatlarni o‘rgatishda yosh sportchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish talab etiladi. So‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi, ularning salomatligini mustahkamlash va xalqaro miqyosda munosib natijalar ko‘rsatishga erishishni ustuvor vazifalar sifatida belgilab bergan. Bu jarayonda sportning ommalashuvi, bolalar sport maktablari faoliyatini takomillashtirish va metodik ta’minotni yangilash alohida ahamiyat kasb etadi. Badminton o‘yinida texnikani mukammal egallash sportchining kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Texnikani erta yoshda o‘zlashtirish sportchining mahoratini oshirish, kelgusida murakkab taktik harakatlarni tez va samarali bajarishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan 7–10 yoshli badmintonchi bolalarga harakat texnikasini o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish, trening jarayonini ilmiy asoslash, samarali o‘qitish vosita va usullarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Badminton sport turi bolalar uchun eng samarali va qiziqarli o‘yinlardan biri hisoblanadi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, o‘yin davomida chaqqonlik, koordinatsiya, tezkorlik, diqqat va reaksiya kabi jismoniy va psixologik sifatlar uyg‘unlashib ketadi. 7–10 yosh oralig‘i bolaning faol o‘sish davri hisoblanib, bu davrda harakat faoliyatiga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘ladi. Shu sababli aynan shu yoshda badminton texnikasini o‘rgatish samarali natija beradi. Yosh sportchilar texnik elementlarni tezroq o‘zlashtira oladi, lekin bu jarayonda ularning fiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Chunki bu davrda mushak tizimi to‘liq shakllanmagan, asab tizimi esa sezgirlik darajasi yuqori bo‘lgan davrda bo‘ladi. Shuning uchun mashg‘ulotlarda yuklama me’yorini saqlash, ortiqcha charchashning oldini olish, texnikani asta-sekin o‘rgatish talab qilinadi. Badminton texnikasi bir nechta asosiy elementlardan iborat bo‘lib, ular to‘g‘ri harakatlanish, to‘pni ushlab qaytarish, servis va zarbalarni bajarish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, 7–10 yoshli bolalarda texnika o‘rgatishda oddiydan murakkabga tamoyiliga amal qilish muhimdir. Avvaliga raketkani to‘g‘ri ushlash, oyoq harakatlarini muvofiqlashtirish, keyinchalik esa zarba turlari, maydon bo‘ylab harakatlanish va kombinatsion o‘yinlarni o‘rgatish zarur. Shu bilan birga, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh sportchilarga texnika o‘rgatishda nazariy

bilim bilan amaliy mashqlarni uyg‘unlashtirish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Xorijiy va milliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Badmintonni rivojlantirgan davlatlarda (Xitoy, Indoneziya, Koreya, Daniya) erta yoshdan boshlab texnik elementlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda ham sport maktablari va to‘garaklarda badminton mashg‘ulotlari o‘tkazilmoqda, biroq ko‘pincha tayyorlov mashqlari bilan cheklanib qolmoqda. Shuning uchun ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar ishlab chiqish dolzarbdir.

7–10 yosh oralig‘i bolaning harakat faoliyati shakllanishi va rivojlanishi uchun eng sezgir davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning skelet-mushak tizimi faol rivojlanib boradi, asab tizimining sezgirligi yuqori bo‘ladi, diqqat va xotira jarayonlari tez shakllanadi. Aynan shu xususiyatlar yosh sportchilarga yangi harakatlarni tez o‘zlashtirish imkonini beradi. Bolalarda muvofiqlashtiruvchi qobiliyatning tez rivojlanishi ularga badminton kabi tezkor o‘yinlarda muvaffaqiyat qozonish uchun zamin yaratadi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, bu yoshda mushak kuchi hali yetarlicha rivojlanmagan, yurak-qon tomir tizimi to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli mashg‘ulotlarda yuklama me’yorini saqlash, texnik elementlarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida o‘rgatish talab qilinadi. Pedagog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 7–10 yoshda texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida bolalar uchun o‘yinli mashqlar eng samarali hisoblanadi. Chunki o‘yin orqali o‘rganish bolaning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi va ular uchun zerikarli emas. Shuningdek, 7–10 yoshli bolalarda psixologik rivojlanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bolalarda raqobatga intilish, o‘zini ko‘rsatish istagi, muvaffaqiyatdan zavqlanish kabi his-tuyg‘ular kuchli bo‘ladi. Shu sababli mashg‘ulotlarda rag‘batlantirish, ijobiy motivatsiya va musobaqa ruhini shakllantirish o‘quvchilarning badminton texnikasini tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Badminton — chaqqonlik, tezkorlik va aniq harakatni talab etadigan sport turi bo‘lib, uning texnik bazasi juda boydir. O‘yin jarayonida asosiy texnik elementlar quyidagilardan iborat: raketkani to‘g‘ri ushlash, servis turlari, zarbalar (forehand, backhand), oyoq harakatlari (footwork) va himoya-hujum kombinatsiyalari. Har bir texnik elementni mukammal egallash sportchining o‘yin samaradorligini belgilaydi. Texnikani o‘rgatishda dastlab asosiy elementlarga e’tibor qaratiladi. Masalan, raketkani noto‘g‘ri ushlash keyinchalik zarbalarni to‘g‘ri bajarishga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, oyoq harakatlari badminton texnikasining asosini tashkil etadi, chunki sportchi zarbalarni bajarishda tezkor joy almashishi, raqibning hujumiga qarshi javob qaytara olishi kerak. Shu bois oyoq harakatlari mashqlari texnikani o‘rgatishda alohida o‘rin tutadi. Badminton texnikasi nafaqat harakatlarni bajarish, balki raqib harakatini oldindan sezish, tezkor reaksiya bildirish va to‘pning yo‘nalishini nazorat qilishni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois yosh badmintonchilarga texnika bilan bir qatorda tez fikrlash va muvofiqlashgan harakatlarni ham o‘rgatish zarur.

Badminton texnikasini o‘rgatishda pedagogik yondashuvlarning o‘rni juda katta. Yosh sportchilarni tayyorlashda pedagogik jarayon ilmiy asoslangan bo‘lishi, yosh xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, texnikani o‘rgatishda vizual, verbal va amaliy metodlarni uyg‘unlashtirish samarali natija beradi.

Vizual metodlar — texnik elementlarni ko‘rsatish, videotasvirlardan foydalanish, murabbiy namoyishi orqali amalga oshiriladi.

Verbal metodlar — texnikani tushuntirish, izoh berish, o‘quvchilarga ko‘rsatmalar berishni o‘z ichiga oladi. Amaliy metodlar esa texnik mashqlarni bevosita bajarish orqali o‘rgatiladi. Yosh sportchilar uchun bu uchala metod uyg‘unligi eng yuqori samarani beradi. Shuningdek, texnika o‘rgatishda individual yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir bolaning jismoniy va psixologik imkoniyatlari turlicha bo‘ladi. Ba’zilar tezkorlikda ustun bo‘lsa, boshqalarda muvofiqlashtirish kuchliroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli murabbiy har bir o‘quvchi imkoniyatiga mos ravishda mashqlarni tanlashi kerak.

Xulosa. 7–10 yoshli badmintonchilarni texnik tayyorgarlikka o‘rgatishda pedagogik

yondashuvlarni takomillashtirish bugungi kunda bolalar sporti nazariyasi va amaliyotida dolzarb masalalardan biridir. Ushbu yosh davri bolaning harakat faoliyati rivojlanishi, asosiy motor ko‘nikmalarini egallashi va sport texnikasini tez o‘zlashtirishi bilan xarakterlanadi. Shu bois texnik tayyorgarlikka o‘rgatish jarayonida yosh davriga moslashtirilgan usullarni qo‘llash, pedagogik yondashuvlarni ilmiy asosda tanlash zarur. Badminton texnikasini o‘rgatishda oyoq harakatlari, servis va zarba texnikalari, maydonda to‘g‘ri joylashish hamda koordinatsion harakatlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish alohida o‘rin tutadi. Mazkur jarayonda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish orqali bolalarda texnik ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligi ortadi, mashg‘ulot jarayoni qiziqarli va interfaol bo‘ladi, eng muhimi, sportga bo‘lgan motivatsiya mustahkamlanadi.

O‘quv-mashg‘ulot jarayonida bolalarning psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinganda texnik tayyorgarlikning sifat darajasi oshadi. Bu esa kelajakda ularning yuqori sport natijalariga erishishiga mustahkam zamin yaratadi. 7–10 yoshli badmintonchilarga texnika o‘rgatishda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish — bolalar sport maktablarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, yosh sportchilarni har tomonlama rivojlantirish va mamlakatimizda badminton sportini ommalashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A., Usmonov B. Badminton o‘yinida texnik tayyorgarlik asoslari. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 156 b.

2. Qodirov M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 240 b.

3. Ismoilov Sh. Bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 198 b.

4. Hasanov D. Sport pedagogikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 212 b.

5. Jalilova N. Sport psixologiyasi va yosh davrlari fiziologiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2022. – 176 b.

6. Ahmedov O. Bolalar sport maktablarida mashg‘ulot jarayonini tashkil etish. – Toshkent: Cho‘lpon, 2020. – 189 b.

7. Matkarimov A. Badminton nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2024. – 205 b.

8. Badminton World Federation (BWF). Coaching Guidelines for Young Players. – Kuala Lumpur, 2021. – 142 p.

9. Hughes M., Bartlett R. Performance Analysis in Sport and Exercise. – London: Routledge, 2020. – 280 p.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

РОЛЬ НЕЙРОУПРАЖНЕНИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Бабаназарова Мафтуна Назарбековна,
преподаватель кафедры начального образования Бухарский государственный педагогический институт
ORCID ID: 0009-0008-3174-7381

Аннотация. В статье рассматривается проблема повышения эффективности когнитивного развития младших школьников средствами нейроупражнений, интегрированных в процесс начального обучения. Актуальность темы обусловлена необходимостью формирования у детей базовых познавательных умений и навыков, обеспечивающих успешное усвоение учебного материала и развитие учебной мотивации. Теоретическую основу исследования составляют культурно-историческая теория Л. С. Выготского, концепция системной организации высших психических функций А. Р. Лурии, а также современные нейропсихологические подходы к образовательной практике. В статье раскрывается потенциал нейроупражнений как средства активизации межполушарного взаимодействия, совершенствования зрительно-моторной координации, внимания, памяти и регуляторных функций. Представлены результаты апробации комплекса упражнений в учебной деятельности, проведённой в группах младших школьников, что позволило зафиксировать положительную динамику в уровне концентрации внимания, темпе переработки информации и устойчивости учебной работоспособности. Описаны методические рекомендации по включению нейропсихологических упражнений в структуру урока и внеурочной деятельности с учётом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся. Полученные данные могут быть использованы учителями начальных классов, школьными психологами и методистами при проектировании развивающей образовательной среды, способствующей гармоничному развитию когнитивного потенциала младших школьников [1].

Ключевые слова: младший школьный возраст, когнитивное развитие, нейроупражнения, межполушарное взаимодействие, зрительно-моторная координация, внимание, память, регуляторные функции, начальное образование, развивающая образовательная среда.

BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANISHINI OPTIMALLASHTIRISHDA NEYRO MASHQLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayoniga integratsiyalangan neyropsixologik mashqlar vositasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini samaradorligini oshirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Mavzuning dolzarbligi bolalarda o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishni ta’minlaydigan asosiy bilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning nazariy asosini L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, A. R. Luriya tomonidan ishlab chiqilgan oliy psixik funksiyalarning tizimli tashkil etilishi konsepsiyasi, shuningdek, ta’lim amaliyotidagi zamonaviy neyropsixologik yondashuvlar tashkil etadi. Maqolada neyromashqlarni yarimsharlararo o‘zaro ta’sirni faollashtirish, ko‘rish-harakat koordinatsiyasini, diqqatni, xotirani va tartibga solish funksiyalarini takomillashtirish vositasi sifatidagi imkoniyatlari ochib berilgan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhlarida mashqlar majmuasini o‘quv faoliyatida sinovdan o‘tkazish natijalari keltirilib, diqqatning kontsentratsiya darajasida, axborotni qayta ishlash tezligida va o‘quv mehnat qobiliyatining barqarorligida ijobiy dinamikani qayd etish

imkonini bergan. O‘quvchilar yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda neyropsixologik mashqlarni dars tuzilmasiga va darsdan tashqari faoliyatga kiritish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Olingan ma’lumotlardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maktab psixologlari va metodistlar kognitiv potensialning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladigan rivojlantiruvchi ta’lim muhitini loyihalashda foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yoshi, kognitiv rivojlanish, neyromashqlar, yarimsharlararo o‘zaro ta’sir, ko‘rish-harakat koordinatsiyasi, diqqat, xotira, tartibga solish funksiyalari, boshlang‘ich ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti.

THE ROLE OF NEURO-EXERCISES IN OPTIMIZING THE COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Abstract. The article addresses the issue of enhancing the effectiveness of cognitive development in primary school children through neuropsychological exercises integrated into the early education process. The relevance of the topic is determined by the need to form in children the basic cognitive skills and abilities that ensure successful assimilation of educational material and the development of learning motivation. The theoretical framework of the study is based on L. S. Vygotsky’s cultural-historical theory, A. R. Luria’s concept of the systemic organization of higher mental functions, as well as modern neuropsychological approaches to educational practice. The article reveals the potential of neuro-exercises as a means of activating interhemispheric interaction, improving visual-motor coordination, attention, memory, and regulatory functions. The results of testing a set of exercises in the educational activities of primary school groups are presented, which made it possible to record positive dynamics in the level of attention concentration, information processing speed, and the stability of academic performance. Methodological recommendations are described for integrating neuropsychological exercises into the structure of lessons and extracurricular activities, taking into account the age and individual characteristics of students. The obtained data can be used by primary school teachers, school psychologists, and methodologists when designing a developmental educational environment that contributes to the harmonious development of the cognitive potential of young schoolchildren.

Keywords: primary school age, cognitive development, neuro-exercises, interhemispheric interaction, visual-motor coordination, attention, memory, regulatory functions, primary education, developmental educational environment.

Введение. Начальное образование в Республике Узбекистан выступает ключевым звеном в системе общего среднего образования и играет определяющую роль в формировании интеллектуального, эмоционального и личностного потенциала ребёнка. Согласно Государственному образовательному стандарту общего среднего образования , одной из стратегических задач современной школы является развитие познавательной активности и самостоятельности мышления обучающихся, формирование у них прочной основы для дальнейшего обучения. Увеличивающийся объём учебной информации и усложнение образовательных программ требуют от младших школьников более высокого уровня развития когнитивных процессов — внимания, памяти, восприятия, логического и образного мышления, регуляторных функций. Это обуславливает необходимость поиска педагогических средств, способных не только повышать результативность обучения, но и обеспечивать гармоничное психофизиологическое развитие ребёнка [2].

В контексте современных научно-педагогических подходов особое место занимает применение нейроупражнений, ориентированных на активизацию межполушарного взаимодействия, укрепление нейронных связей и развитие зрительно-моторной координации. Опираясь на положения культурно-исторической теории Л. С. Выготского и концепцию системной организации высших психических функций А. Р. Лурии, данный подход позволяет интегрировать нейроупражнения в образовательный процесс начальной школы с учётом национальной учебной программы, культурно-языковой среды и возрастных особенностей обучающихся. Однако в педагогической

практике Узбекистана вопросы системного применения нейроупражнений в условиях начального образования изучены недостаточно, что предопределяет актуальность и научно-практическую значимость настоящего исследования.

В условиях модернизации системы образования Республики Узбекистан приоритетным направлением становится формирование у младших школьников не только прочных предметных знаний, но и универсальных учебных действий, обеспечивающих успешное продолжение образования [3]. Повышенные требования к уровню познавательной активности, умению самостоятельно работать с информацией и адаптироваться к быстро меняющимся условиям обучения обусловливают необходимость применения инновационных педагогических подходов.

Одним из таких подходов является использование нейро упражнений, позволяющих комплексно развивать когнитивные функции — внимание, память, мышление, регуляторные механизмы — за счёт активизации межполушарного взаимодействия и совершенствования работы нервной системы в целом [4]. Данные упражнения выступают не только средством повышения эффективности усвоения учебного материала, но и инструментом гармонизации психофизиологического состояния ребёнка, что особенно важно в период интенсивного интеллектуального и эмоционального развития.

Актуальность исследования усиливается необходимостью адаптации педагогических технологий к национально-культурному контексту и многоязычной среде Узбекистана. Несмотря на наличие отдельных разработок по использованию нейропсихологических методик в зарубежной и отечественной практике, их системная интеграция в образовательный процесс начальной школы страны изучена недостаточно. Это создаёт потребность в комплексных исследованиях, направленных на выявление потенциала таких упражнений в сочетании с современными образовательными подходами, включая исследовательское обучение (IBL).

В этом контексте проведённое исследование направлено на разработку и апробацию методики, способной повысить качество обучения и уровень когнитивного развития младших школьников, обеспечив при этом соответствие национальным образовательным стандартам и условиям конкретной школьной среды [5].

Целью исследования является обоснование и экспериментальная проверка эффективности интеграции комплекса нейропсихологических упражнений, адаптированных к национальным образовательным стандартам и культурно-языковой среде.

